2024-yil, dekabr 21-son

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802

TANIQLI YOZUVCHI NAZAR ESHONQULNI TURK DUNYOSI ADABIYOTINING NUFUZLI MUKOFOTI BILAN QUTLAYMIZ!



Eshonqulov N. Facebook sahifasidan olindi.

Turkiyaning Anqara shahrida Turkiy tilli davlatlar tashkiloti, Turkiya madaniyat va sport vazirligi, Otaturk nomidagi madaniyat, til va tarix oliy Akademiyasi hamda 1932-yilda Otaturk asos solgan Turk tili Qurumi hamkorligida turk dunyosi adabiyoti mukofotini topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda O‘zbekiston, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Shimoliy Kipr kabi davlatlardan taklif qilingan adiblar, jamoat vakillari, olimlar va turkiy tilli davlatlarning elchilari ishtirok etdi.

«Tilda, fikrda, ishda birlik: turk dunyosi adabiyoti (hikoyachilik) mukofoti» bilan yozuvchi Nazar Eshonqul taqdirlandi.

Nargiza MIRZAYEVA,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.f.d (PhD)

O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA NUTQ MADANIYATINING O‘RNI

Annotatsiya: o‘zbek tilini o‘qitishda nutq madaniyatining o‘rni juda muhim, chunki bu nafaqat tilning grammatik qoidalarini o‘rganishni, balki undan to‘g‘ri, ravon va ta’sirli foydalanishni ham o‘z ichiga oladi. Mazkur maqola nutq madaniyati, uning o‘zbek tilini o‘qitishdagi o‘rni, shuningdek, o‘qituvchi nutqida atamashunoslik, so‘z qo‘llashga oid masalalarga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: *nutq madaniyati, notiq, til me’yorlari, nutq, talaffuz, urg‘u, intonatsiya, o‘qituvchi nutqi, savodxonlik, uslub.*

Аннотация: роль культуры речи в обучении узбекскому языку чрезвычайно важна, поскольку она включает в себя не только изучение грамматических правил языка, но и его правильное, свободное и эффективное использование. Настоящая статья посвящена культуре речи, ее роли в обучении узбекскому языку, а также вопросам терминологии и употребления слов в речи преподавателя.

Ключевые слова: *культура речи, оратор, языковые нормы, речь, произношение, ударение, интонация, речь преподавателя, грамотность, стиль.*

Annotation: the role of speech culture in teaching the Uzbek language is extremely important, as it encompasses not only studying the grammatical rules of the language but also its correct, fluent, and effective use. This article focuses on speech culture, its role in teaching the Uzbek language, as well as issues of terminology and word usage in teachers' speech.

Keywords: *speech culture, orator, language norms, speech, pronunciation, stress, intonation, teacher's speech, literacy, style.*

Nutq madaniyati o‘zbek tilshunosligining o‘ziga xos amaliy sohasidir. U tilshunoslikning nazariy kurslaridan olingan bilimlarga suyangan holda to‘g‘ri va chiroyli nutq tuzish yo‘llarini o‘rgatadi. Ilmiy, uslubiy adabiyotlar va dissertatsiya tadqiqoti natijalari tahlili nutq madaniyatining mohiyati va tuzilishiga oid masalalar ko‘plab mualliflar nazarida bo‘lganligini aytishga imkon beradi. Nutq madaniyatining mohiyati va tuzilishiga oid ko‘plab qarashlar mavjud, ammo barcha tushunchalarni ikkita asosiy tushunchaga qisqartirish mumkin.[1] Birinchisiga ko‘ra, nutq madaniyati o‘zbek adabiy tilining me’yorlariga rioya qilish, ikkinchisiga ko‘ra, til me’yorlariga rioya qilish va muayyan nutq vaziyati uchun eng mos til materialini tanlash qobiliyatidir.

Nutq madaniyati – amaliy jihatdan nutqning xilma-xil muammolarini tadqiq qiluvchi fan. Oliy ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalarida ta’sirli va to‘g‘ri nutq yaratish qonuniyatlari, sirlari, til me’yorlari, nutq, nutq talaffuziga doir muammolar yuzasidan mahorat darslari olib boriladi. Nutq madaniyati nazariyasida til normasi markaziy tushunchadir. “Til madaniyatining asosiy tekshirish obyekti adabiy til me’yorlari, asosiy vazifasi esa, ushbu me’yordagi ikkilanishlarni bartaraf etish bo‘lmog‘i kerak.

Nutq madaniyati, avvalo, tilni boy va chiroyli qo‘llash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Quyida buning ahamiyatiga e’tibor qaratamiz:

1. Ma’no va mazmunni to‘g‘ri yetkazish.

Nutq madaniyati insonlarning bir-birini to‘g‘ri tushunishi uchun asosiy omil hisoblanadi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va tushunarli tarzda ifoda etishni o‘rganadilar.

2. Tilni ravon qo‘llash.

O‘qitish jarayonida nutq madaniyatiga urg‘u berilsa, o‘quvchilar o‘zbek tilida ravon va ishonchli suhbatlasha olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

3. Milliy madaniyatni anglash.

O‘zbek tilini o‘qitishda nutq madaniyati milliy an’analar, madaniyat va odob-axloq me’yorlarini o‘rganishga ham xizmat qiladi. Bu o‘quvchilarning madaniy dunyoqarashini boyitadi.

4. Yozma va og‘zaki nutqni takomillashtirish.

O‘quvchilar nutq madaniyatini o‘rganish orqali yozma va og‘zaki nutqlarini takomillashtiradilar. Bu ularning ish faoliyatida va kundalik hayotida qo‘l keladi.

5. Jamiyatdagi muloqot samaradorligini oshirish.

Nutq madaniyatiga ega bo‘lgan insonlar jamiyatda muvaffaqiyatli aloqa o‘rnata oladilar, bu esa ularning ijtimoiy munosabatlardagi obro‘sini oshiradi.

Shunday qilib, o‘zbek tilini o‘qitishda nutq madaniyati tilning chuqur o‘rganilishi va samarali muloqot uchun asosiy poydevor vazifasini bajaradi. Shunday qilib, nutq madaniyati adabiy til me’yorlarini, uning tarixiyligini, taraqqiy etib borishi, undagi ba’zi unsurlarning eskirishi, ular o‘rnida jamiyatning yangicha talablariga javob beradigan yangi normativ unsurlarning paydo bo‘lishini kuzatib, qayd etib boradi.

Har bir davr adabiy tilining o‘z me’yorlari bo‘ladi. Ba’zi bir hodisalar uzoq davrlar me’yor sifatida qo‘llanib kelishi mumkin. Alisher Navoiy ijod etgan XV asr o‘zbek adabiy tilining o‘z me’yorlari mavjud edi. Ularga

ko‘ra tilning fonetikasi, grammatikasi va stilistikasidan foydalanishning o‘z me’yori bor edi. U davr adabiy tilining o‘z talaffuz me’yorlari ham bo‘lgan. Bu adabiy me’yorlar jiddiy o‘zgarishlarga uchramasdan badiiy adabiyot tilida XIX asr oxirlarigacha amal qilib keldi.

O‘zbek demokratik adabiyoti vakillari, ilg‘or yozuvchilar xalq hayotini, adolatsiz, lekin kengroq tasvirlash jarayonida o‘z asarlarining tilini xalq tiliga yaqinlashtirishga harakat qildilar. Bu adabiy tilga yangi me’yoriy hodisalarning kirib kelishiga olib keldi. Bu borada, ayniqsa, Muqimiy, Furqat, keyinroq Hamza, A.Qodiriy, A.Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon, So‘fizoda kabilarning xizmatlari kattadir.

Bizning davrimizda o‘zbek adabiy tili me’yorlari jiddiy yangilandi: so‘z qo‘llash, grammatika, talaffuz me’yorlari xalq jonli tili xususiyatlari asosida o‘zgardi.

Nutq madaniyati fani tilning hamma sohalari bo‘yicha adabiy til me’yorlarini tadqiq qilib boradi. Eng maqbul hodisalarning adabiy me’yor sifatida mustahkamlanishi uchun tavsiyalar beradi.

O‘qituvchi nutqida atamashunoslik, so‘z qo‘llash va nutq madaniyati bugungi kunda eng ahamiyatli masalalar safidan joy olgan. Chunki, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi unga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirdi. Hozirgi kunda hammaning diqqat-e’tiborida tilimiz taqdiri bor: yoshlar, keksalar, talabalar; kasbidan, sohasidan qat’i nazar har bir ziyoli tilimizning ravnaqi, kelajagi haqida qayg‘urmoqda, o‘z fikr-mulohazalarini bayon qilmoqda.

Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, bir qator so‘zlar borki, ularni hozirgi maktab o‘quvchilari ham, oliy maktab talabalari ham maxsus lug‘atlarsiz yoki o‘qituvchilarning yordamisiz tushunishlari qiyin. Bunday holat mumtoz adabiyot namunalarini to‘g‘ri sharhlab berishga, ulardagi badiiyatni chuqurroq his qilishga halaqit qiladi, u yoki bu baytning asl mohiyatini, shoir (adib) ko‘zda tutgan asosiy maqsadni to‘la anglab yetmaslikka sabab bo‘ladi. Ana shu kabi so‘zlarning ma’nolarini o‘rgatmaslik, o‘quvchiga singdirmaslik esa asar–g‘azalning noto‘g‘ri tushunilishiga olib keladi, o‘quvchilarni ularning sir-asrorlaridan bebahra qiladi.

Bu o‘rinda R.Dekartning quyidagi fikrini eslatib o‘tish maqsadga muvofiqdir: "So‘zlarni to‘g‘ri izohlang va siz dunyoni tushunmovchiliklarning yarmidan xalos qilasiz" [2].

Inson, asosan, o‘qish-yozishni, umuman ilmni o‘rta va oliy maktablarda o‘rganadi. Shunday ekan, asosiy ahamiyat o‘qituvchi bilimi, saviyasiga borib taqaladi. Bu degani faqat o‘qituvchi tilni mukammal bilsin degani emas, bu bilan cheklanib ham bo‘lmaydi. Umuman, go‘zal va serqirra tilimizdan foydalanishda, atamalarni qo‘llashda har bir soha vakili ham juda ehtiyotkor bo‘lishi shart. Aks holda, ma’lum bir mavzuni tushunishni, anglashni qiyinlashtiradi. Bu esa, tilimizga, madaniyatimizga putur yetkazadi. Shuning uchun savodxonlikni yuksak darajaga ko‘tarishga, o‘qish-o‘qitish ishlariga e’tiborni kuchaytirish kerak.

Mavjud ilmiy adabiyotlarda nutq madaniyati va stilistika (uslubiyat) asosan, birgalikda talqin etiladi. Ba’zi hollarda bu ikki tushuncha bir-biri bilan qorishtirib yuboriladi, ular orasidagi farq lo‘nda, aniq ajratib berilmaydi.

Stil so‘zi grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, yozish uchun ishlatiladigan uchi o‘tkirlashtirilgan tayoqchani bildirgani ma’lum. Qadimgi rimliklar, gretsiyaliklar stilga kishilarni ishontirish san’ati sifatida qaraganlar. Stil so‘zining asl mohiyati hozirgi kunda ham ana shu izohlardan unchalik uzoqlashgani yo‘q. Faqat, keyingi davrlardagi talqinlarda vazifaviy stilga alohida e’tibor berib yuborilgan: uslub (stil) nutqning jamiyat ijtimoiy faoliyati ma’lum tomoni bilan bog‘langan o‘ziga xos lug‘ati va boshqa xususiyatlariga ega bo‘lgan ko‘rinishi bo‘lib, nutqning xuddi shunday boshqa turlaridan o‘z ichki xususiyatlari bilan tafovut qilib turadi. Ana shu tafovutlar u yoki bu nutq ko‘rinishi uchun asos bo‘ladi.

Nutq madaniyati umuminsoniyat madaniyatining bir qismi bo‘lib hisoblanadi. Tor ma’noda nutq madaniyati – til me’yorlarini egallamoq, ya’ni talaffuz, urg‘u, so‘z ishlatish, gap tuzish qonunlarini yaxshi bilmoq, shuningdek, tilning tasviriy vositalaridan har xil sharoitlarga mos va maqsadga muvofiq holda foydalana olish va foydali o‘qish madaniyatini egallash demakdir. Madaniy nutqning fazilatlari – uning to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyligi, ifodaviyligi, sofligi kabilardir.

Nutq madaniyati asoslari fani o‘zbek tilshunosligining o‘ziga xos amaliy sohasidir. U tilshunoslikning nazariy kurslaridan olingan bilimlarga suyangan holda to‘g‘ri va chiroyli nutq tuzish yo‘llarini o‘rgatadi. O‘quv jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish uchun quyidagi metodlarga e’tibor qaratish lozim:

– badiiy matnlar bilan ishlash;
– munozara va suhbat mashg‘ulotlarini o‘tkazish;
– ijodiy yozuv mashqlarini yo‘lga qo‘yish;
– tinglash va qaytarish usullaridan foydalanish.

Nutq madaniyati fani hamma vaqt mantiq va ruhshunoslikka suyanadi. Mantiqning so‘zlar va butun bir gapdan chiqadigan tushunchalarini belgilaydi. So‘zlarning ma’nosi va ifodalanayotgan tushuncha o‘rtasidagi munosabatni mantiq tekshiradi. Sintaktik tuzilmalar orasidagi mazmuniy aloqalarning jiddiyligiga shubha paydo bo‘lganida mantiqqa murojaat qilish zarurati tug‘iladi.

Nutq qurilishi o‘rinli va o‘rinsiz bo‘lib ko‘ringan holatlarda ruhshunoslikka murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Ruhshunos kishi nutqiy malakalarini kengaytirish va mustahkamlash sharoitlarini hamda vositalarini hamda, ularning mukammallashuvini o‘rganish orqali nutq madaniyati asoslari faniga yordam berishi mumkin. Bundan tashqari, nutq madaniyati nafosat haqidagi fan – estetika bilan, badiiy adabiyot nazariyasi, adabiyotshunoslik va adabiy tanqid bilan aloqadordir.

Rim notiqlik maktabining buyuk vakili Mark Fabiy Kvintilian o‘zining “Notiq bilimi haqida” kitobida [3] bilimdonlikni notiqlikning birinchi sharti qilib qo‘yadi. U: “Notiqlikka doir bilimni juda yoshlikdan o‘rgana borish, nutq tinglovchiga tushunarli bo‘lishi kerak”, – deydi. U yana: “Sen shunday so‘zlaginki, seni har bir kishi tushuna olsin”, – degan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Приходько О.В. СУЩНОСТЬ И СТРУКТУРА РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ В ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ // Фундаментальные исследования. – 2014. – № 9-2. – С. 424-428; URL: https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=34866 (дата обращения: 19.10.2024).
2. https://ru.citaty.net/tsitaty/627776-rene-dekart-verno-opredeliaite-slova-i-vy-osvobodite-mir-ot-po/
3. file:///C:/Users/User/Downloads/EJAR02156.pdf
4. Y.Tojiyev., N.Xasanova., X.Todumatov., O.Yo‘ldosheva. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. 33-48-betlar.
5. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. R.Kungurov va boshqalar. 67-bet.
6. Nutq madaniyati asoslari. 28-bet.
7. O‘qituvchi nutqi madaniyati, nutq madaniyati va uslubiyat. Ocherk.
8. Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. – T.: “O‘zbekiston”, 1980-yil.

Nilufar YULDASHOVA,
O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD
yuldashova-n@mail.ru

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA SAMARALI O‘QUV DASTUR TURLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada xorijiy tillarni o‘qitishda qo‘llanilishi taklif etiladigan o‘quv dasturlari haqida batafsil ma’lumot keltirilgan. Shuningdek, o‘quv dasturlarini tuzishda e’tibor qaratilishi kerak bo‘lgan muhim masalalar ham ko‘rib chiqilgan.
Kalit so‘zlar: *lingvistik tur, kommunikativ tur, yozma diskursiv kompetensiya, ma’noli ma’lumot olish, ma’noli ma’lumot berish, ravonlikni rivojlantirish.*
Аннотация: в данной статье представлена подробная информация об учебной программе, которую предлагается использовать при обучении иностранным языкам. Также были рассмотрены важные вопросы, на которые следует обратить внимание при создании образовательных программ.
Ключевые слова: *языковой тип*, коммуникативный *тип*, письменная дискурсивная компетентность, получение содержательной информации, предоставление содержательной информации, развитие беглости речи
Annotation: this article provides detailed information about the proposed curricula for teaching foreign languages. It also discusses important issues that should be considered when designing curricula.
Key words: *linguistic, communicative, written discourse competence, meaning-focused input, meaning-focused output, fluency development*

Respublikamizda xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish, uni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish bugungi kunning muhim ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Buning uchun xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitish tizimini yanada zamonaviy metodlar bilan takomillashtirish hamda chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshirish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Buni amalga oshirish uchun ta’limning belgilangan standartlari va zamonaviy talablariga javob beradigan o‘quv dastur va o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Til o‘rganilishi kerak bo‘lgan predmet emas, balki bu butun insoniyat o‘z hayotining turli jabhalarida ma’no yaratish uchun manba hisoblanadi. Sinfda o‘qitish va o‘rganish uchun til o‘quv dasturining mavzusiga aylantirilishi kerak. Ma’lumki ingliz tilini o‘qitish (ELT) uchun o‘quv dasturining tarkibiga tilshunoslik va

ikkinchi tilni egallash (SLA) bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ta’sir ko‘rsatdi va immigratsiyaning global tendensiyalari hamda ingliz tilining biznes, fan va texnologiyalar tili sifatida paydo bo‘lishi va ustunligi bilan shakllandi. Ketlin Greyvz o‘zining “Language curriculum design: Possibilities and Realities” maqolasida o‘quv dasturini ketma-ket va qisman bir biriga mos keluvchi 3 turga bo‘ladi:[1:80]

- Lingvistik tur (The linguistic wave);
- Kommunikativ tur (The communicative wave);
- Uchinchi tur (Third wave).

Lingvistik tur. Bu tur o‘quv dasturi mazmunining an’anaviy ko‘rinishi shundan iboratki, til o‘rganuvchi qandaydir darajada egallashi kerak bo‘lgan, tarkibiy qismlarga bo‘lingan bilimlarning tashqi to‘plamidir. Bunda hamma til o‘rganuvchilar bir xil bilim egallashlari kutiladi. Bunday o‘quv dastur uchun til o‘rganuvchilarning individualligi va ularning ehtiyojlari e’tibordan chetda qoladi.

Kommunikativ tur. Birlashtirilishi va o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan tarkibiy qismlardan ko‘ra, tilga turli xil vaziyatlarda turli xil maqsadlar uchun gapirish, yozish, o‘qish va tinglab tushunish qobiliyatidan/ko‘nikmalaridan to‘g‘ri foydalana olish kerak bo‘lgan ijtimoiy muloqot deb qaraladi. Lingvistik o‘quv dasturi mukammal yoki yetarli emas, sababi u til o‘rganuvchilarni tildan foydalanishga tayyorlamaydi. Shularni e’tiborga olib, tildan foydalanish, ya’ni unga funksional jihatdan yondashish kommunikativ o‘quv dasturining maqsadi etib tayinlandi[2].

Uchinchi tur. O‘quv dasturlari mazmunining uchinchi turi tilni foydalanish mazmuniga qarab ma’no yaratish (meaning making) uchun manba sifatida ko‘radi. O‘quv dasturi janr, matn, kontent yoki loyihalar atrofida tashkil etilgan bo‘lib, ularning har biri o‘quvchilarni foydalanish kontekstiga jalb qilishi mumkin.

O‘quv dasturlarini tuzishda e’tibor qaratilishi kerak bo‘lgan yana muhim narsa bu yozma diskursiv kompetensiyani takomillashtirish maqsad sifatida qabul qilinib, boshqa nutq faoliyati turlari kabi bunga ham teng e’tibor qaratilishi va vaqt ajratilishi kerak deb hisoblaymiz. Pol Neyshen o‘zining “The Four Strands” maqolasida til o‘rgatishda to‘rtta yo‘nalish haqida so‘z yuritadi va ular o‘rganish uchun tegishli imkoniyatlar muvozanatini ta’minlaydi, deb yozadi. Tilni o‘rganish imkoniyatlarini foydali ravishda to‘rtta yo‘nalishga bo‘lish mumkin: [3:2]

— *Ma’noli ma’lumot olish (meaning-focused input);*

— *Ma’noli ma’lumot berish (meaning-focused output);*

— *Til materialini o‘rganish (language-focused learning);*

— *Ravonlikni rivojlantirish (fluency development).*

Til o‘qitish kursida har qanday faoliyat/mashq/vazifa ushbu yo‘nalishlardan biriga mos keladi. Samarali yaratilgan o‘quv dasturida to‘rtta yo‘nalishning har biriga taxminan teng vaqt berilishi kerak. Pol Neyshen yozishicha, ta’lim olish imkoniyatlariga mutanosib yondashuvning asosiy vazifasi vaqt prinsipidir [3:2]. Nutq faoliyati turlarini shakllantirib rivojlantirish maqsadida qancha ko‘p vaqt mashq qilish uchun sarflansa, til o‘rganuvchilarning malakalari shuncha takomillashadi. O‘quv dasturi mazmuni ko‘rib chiqilayotganda nutq faoliyati turlari – gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozish har biri farq qiladigan o‘zining xususiyatlariga ega ekanini inobatga olgan holda har biriga kerakli vaqt va e’tibor qaratilishi lozim, deb hisoblaymiz.

Shmit va Frota ta’kidlashicha, xorijiy tilni o‘rganishda “kamchilikni ko‘rish” tamoyili (noticing the gap)ga ko‘ra, til o‘rganuvchi o‘rganilayotgan tildagi (grammatik) shaklni faqat va faqat tushunilgan ma’lumotda bo‘lsa va o‘rganuvchi tomonidan o‘zi bilib anglagan holdagina o‘rganadi [4:237]. Boshqa so‘z bilan aytganda, o‘rganuvchilar til o‘rganishda muvaffaqiyatga erishishlari uchun o‘zlarining til tizimlari bilan o‘rganilayotgan til tizimi orasidagi bo‘shliqni ko‘rishlari kerak. Sveyn o‘zining “Three functions of output in second language learning” nomli maqolasida aytishicha, til o‘rganuvchi tildan foydalanib axborot (mahsulot) berish jarayoni bo‘shliqni anglashga zamin yaratadi. Uning fikriga ko‘ra, o‘rganilayotgan tilni qo‘llash jarayonida o‘rganuvchilar nima deyishni xohlashlari va nima deya olishlari orasidagi bo‘shliqni ko‘ra oladilar va bu jarayon ular nimani qisman yoki umuman bilmasliklarini anglashga olib keladi [4:237].

Sveyn bu jarayonni (output) natijaning vazifalaridan biri deb hisoblaydi [5:125]. O‘rganuvchilar xorijiy tildan foydalanishga urinayotganlarida ular bilimlarida kamchilik borligini ongli ravishda anglashadi, ya’ni ular istagan narsani qanday aytishni/yetkazishni bilishmaydi. Izumi o‘zining olib borgan tadqiqotida xorijiy tildan foydalanish mobaynida kamchilikni anglash bu tilda ma’lumot olish chog‘idagi kamchilikni anglashdan ko‘ra til o‘rganishga katta ta’sir ko‘rsatadi, deb ta’kidlaydi [6;541]. Bu ta’sir produktiv (ishlab chiqarish) o‘rganish va retseptiv (qabul qilish) o‘rganish bilan tushuntiriladi. Produktiv o‘rganish so‘z shaklini izlash va ishlab chiqarishni o‘z ichiga olsa, retseptiv o‘rganish esa so‘z shakli uchun ma’no topishni bildiradi. Grifin va Xarliylar retseptiv o‘rganishga nisbatan produktiv o‘rganish ko‘proq

va kuchliroq bilimga ega bo‘lishga olib keladi, deydi [7:443]. Xuddi shunday fikrni A.Djou ham ta’kidlab, tildan produktiv foydalanish chuqurroq o‘rganishga majbur qiladi, deydi [8:357]. Produktiv o‘rganish talab qiladigan grammatik kodlash o‘rganuvchilardan kogeziya vositalari bilan bog‘langan strukturaga yangi birliklarni kirgizishni talab qiladi [6:554]. Ma’lumotni dekodlash esa bunday integratsiyani talab qilmaydi. Bundan kelib chiqadiki, produktiv o‘rganish retseptiv o‘rganishga nisbatan sifat jihatidan farq qiluvchi ta’lim olish holatini belgilaydi.

Kamchilikni anglash bir necha yo‘l bilan sodir bo‘ladi:

– tildan foydalanish jarayonida kamchilikni anglagan til o‘rganuvchi oldin olgan ma’lumotida ahamiyat bermagan birliklarga ahamiyat bera boshlaydi. Agar o‘rganuvchi yozayotganida biron narsani bilmasligini anglasa, bu narsa uni keyinchalik yozuvchi kabi o‘qishga undab, boshqalar o‘z fikrini qanday ifodalayotganlariga e’tibor berishga majbur qiladi. Bu semantik tushunishdan sintaktik tushunishga o‘tish deb qaraladi;

– tildan foydalanish davrida kamchilikni anglagan talaba uni omadli taxmin, urinish, xato, o‘xshashlikdan foydalanish, birinchi tilga o‘tish yoki muammoni hal qilish orqali bartaraf etishi mumkin;


– tildan foydalanish davrida kamchilikni anglagan talaba kerak bo‘lgan birlikni topish maqsadida tashqi resurslarga, ya’ni o‘qituvchi, tengdoshlari yoki lug‘atlarga murojaat etadilar.

Sveyn o‘qib yoki eshitib qabul qilinayotgan ma’lumotni muhim, lekin u til o‘rganish uchun yetarli emas, deb hisoblaydi. Unga qo‘shimcha tarzida o‘rganuvchilar tilni qo‘llay olish imkoniyatiga ham ega bo‘lishlari kerak, deb aytadi. Bunga sabab tilni qo‘llab ma’lumot berish ma’lumotni eshitib yoki o‘qib olishdan farqlanuvchi psixologik jarayonni o‘z ichiga oladi. Ma’lumotni o‘rganilayotgan tilda qabul qilish jarayonida o‘rganuvchi til sintaksisiga e’tibor bermasdan to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’noga o‘tib ketishi mumkin. Ammo tushunarli bo‘lgan ma’lumotni og‘zaki yoki yozma tarzda yetkazib berishda esa o‘rganuvchi ma’lumotni sintez qilishi kerak, ya’ni grammatik jihatdan kodlashi kerak [9:80].

Jalolov ham ishtirok etadigan aqliy operatsiyalar miqdori jihatidan yozuv gapirishga nisbatan murakkab nutq faoliyati turi deb ta’kidlaydi. Yozayotgan shaxs o‘zining va boshqalarning fikrini yozma bayon etadi. Shuningdek, yozuv murakkab psixofiziologik faoliyat bo‘lib, unda nutq analizatorlarining barchasi ishtirok etadi[10:287].

Yuqoridagi tadqiqotchilarning izlanishlari natijalarini e’tiborga olib tajriba maydonlaridagi chet tilini “jurnatistika” yo‘nalishi quyi bosqich talabalari uchun o‘qitish o‘quv dasturlarida yozma nutq faoliyati turini shakllantirib takomillashtirish uchun ajratilgan soatlar taqsimotini ham ko‘rib chiqdik va quyidagilarni aniqladik:

1-rasm. Tajriba maydonlaridagi o‘quv/ishchi dasturlardagi yozuvga ajratilgan soatlar taqsimoti



Biz Pol Neyshen fikriga tayangan holda, ya'ni tilni o'rganish imkoniyatlarini foydali ravishda to'rtta yo'nalishga bo'lib o'qitilishi va bu o'rganish uchun tegishli imkoniyatlar muvozanatini ta'minlashini nazarda tutib, berilgan jami soatlarni 100% qilib oldik. Demak talabalarning yozma nutq faoliyati turini rivojlantirish maqsadida ajratilgan soatlar 25%ni tashkil etishi kerak bo'lib, yuqoridagi rasm tajriba maydonlarida aynan yozma nutq faoliyatini rivojlantirish uchun berilgan mavzu va umumiy soatlarning nechi foizi ajratilganini ko'rsatib o'tadi.

An'anaviy yoki lingvistik o'quv dasturlaridan voz kechib kommunikativ (zamonaviy) o'quv dasturidan foydalanishning yana bir sababi shundaki, 2016–2017-yillarda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Britaniya Kengashi bilan hamkorlikda ilgari surilgan ENSPIRE-U (Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitish tizimini isloh etish) loyihasining boshlang'ich bosqichi doirasida mamlakatimizning 30 dan ortiq OTMlarida turli soha bitiruvchilarining ingliz tilidagi ehtiyojlarini o'rganish bo'yicha so'rovnoma o'tkazilgan. Tadqiqotda turli yo'nalish talabalari ishtirok etgan [11:16]. Quyidagi jadvalda 50 ta jamlangan til ko'nikmalaridan biz yozma nutq faoliyatiga taalluqli bo'lganlarini tanlab oldik (1jadval).

Yo'nalishlar bo'yicha ishchi dastur tuzayotganda talabalarning tilni o'rganishdagi maqsadidan kelib chiqqan holda mos ko'nikmalar ushbu jadvaldan tanlanishi tavsiya etiladi. Jadvalda keltirilgan ko'nikma va malakalar vazifa ko'rinishiga aylantirilganda, hayotiy, real kommunikativ vazifalarga o'zgaradi (jumladan, e-mail yozish, ilmiy maqola o'qish, ma'ruza yoki taqdimotni tinglab tushunish, telefonda muloqotga kirisha olish va boshqalar).

Xulosa qilib aytganda, yuqorida biz o'rganib chiqqan tadqiqotchilar tomonidan ingliz tilini o'qitish (ELT) va ikkinchi tilni egallash (SLA) bo'yicha olib borilgan tadqiqot va izlanishlar natijasidan kelib chiqib jurnalistika ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kommunikativ turdagi ishchi dastur tuzilib, maqsad va mazmun belgilab olingandan so'ng, o'qituvchilar o'quv materiallari, dars ishlanmalari va tarqatma materiallar tayyorlashlari kerak deb hisoblaymiz.

1-jadval
Akademik va kasbiy til ehtiyojlari

Ketma-ketlik (eng ko'p belgil-anganlik darajasi bo'yicha)	**Bilim, ko'nikma va malakalar bo'yicha ehtiyojlari**
4	Kasbi, bajaradigan vazifalari, ish sharoiti haqida ma'lumot bera olish
8	Ta'lim muassasasi, ish joyi, ofisi, laboratoriyasi, ishlab chiqaradigan mahsuloti haqida ma'lumot bera olish (ingliz so'zlashuvchisiga)
9	Shakllar va formalarni to'ldira olishi
12	O'zi haqida rezyume tayyorlay olish (ishga joylashishda, tanlovlar-da ishtirok etishda)
15	Kasbidan kelib chiqqan holda ma'ruza, taqdimot qila olish (zarurat bo'lganda slaydlar, tarqatma materiallar tayyorlay olgan holda)
16	Jihoz-uskunalarni tasvirlay olish, ishlash usulini tushuntira olish
24	Kasbga oid/o'qishi bilan bog'liq elektron xatlarni yoza olish
28	Jihoz-uskunalar, jarayonlar, mashinalar va h.k.ga ta'rif va izoh bera olish
28	Ma'ruza/taqdimotlarni tinglab tushungan holda muhim joylarni qayd qilib borish (masalan, yig'ilishlarda, trening va seminarlarda)

35	Ilmiy-amaliy maqolalar va abstraktlar yoza olish
36	Kasbi bilan/ta'lim bilan bog'liq xatlarni yoza olish
37	Kasbi bilan/ta'lim bilan bog'liq maqolalarni yoza olish
38	Slaydlar, tarqatma materiallar matnini tayyorlay olish (masalan, taqdimotlar, ma'ruzalar, yig'ilishlar uchun)
41	Takliflar va tavsiyalar matnini yozma tayyorlay olish
43	Ish faoliyati, ish majburiyatlari, profillarni yoza olish
46	Mahsulot/servisga ta'rif hamda dizayn xususiyatlari bo'yicha ma'lumotlar yoza olish
47	Arizalar va tenderda ishtirok etish uchun iltimosnomalar yoza olish
48	O'qish va kasbi bilan bog'liq qaydnomalar, ichki yozishuvlarni o'qib tushunib javob yoza olish

Shuningdek, kontentni tanlashda ehtiyojlarga asoslangan yondashuvdan ham foydalanish samarali natijani kafolatlaydi. Kursni o'qitishda faqat bitta darslikka asoslanish samara bermaydi. Xorijiy til o'qituvchilari internet va boshqa manbalardagi fanning eng so'nggi yangiliklarini inobatga olgan autentik matn va audio/video materiallardan foydalanishlari, shu jumladan, milliy, xalqaro manbalar, internet resurslaridan foydalangan holda tayyorlashlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kathleen Graves Langaueg curriculum design. Possibilities and realities. The Routledge Handbook of English Language Teaching Account. 2016, Routledge page 80 (MSU)
2. Wilkins D.A, 1976, "Notional Syllabuses. A taxonomy and its relevance to foreign language curriculum development", London, UK: Oxford University Press.
3. Paul Nation (2007), "The Four Strands", International Journal of Innovation in Language Learning and Teaching, page 2
4. Schmidt, R., & Frota, S. (1986). Developing basic conversational ability ina second language. In R. Day (Ed.). *Talking to Learn: Conversation inSecond Language Acquisition* (pp. 237-326/ 311 page). MA.: Newbury House.
5. Swain, M. (1995). Three functions of output in second language learning.In G. Cook & B. Seidlhofer (Eds.). *Principle & Practice in AppliedLinguistics* (pp. 125-144/ 125page). Oxford: Oxford University Press.
6. Izumi, S. (2002) Output, input enhancement, and the noticing hypothesis: Anexperimental study on ESL relativization. Studies in Second Language Acquisition 24,541_577.
7. Griffin, G.F. and Harley, T.A. (1996) List learning of second language vocabulary. Applied Psycholinguistics 17, 443_460.
8. Joe, A. (1998) What effects do text-based tasks promoting generation have on incidental vocabulary acquisition? Applied Linguistics 19, 357_377.
9. David Nunan, Task-based Language Teaching. Cambridge University Press. page 80
10. J.Jalolov. «Chet tili o'qitish metodikasi». Chet tillar oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: «O'qituvchi», 2012. 287-288-bet.
11. O'zRes.OO'MTV O'zDJTU huzuridagi Respublika ilmiy-amaliy innovatsion markazi Britaniya kengashi bilan hamkorlikda, nofilologik yo'nalishlarda maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tilini (English for Specific Purposes, ESP) o'qitish namunaviy dasturi. – Toshkent, 2020. 16-18-bet.

Xilola UZAKOVA,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
“Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik
litseyi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

JADID ADABIYOTI NAMUNALARIDA “SADOQAT” KONSEPTINING LISONIY VOQELANISHI

Annotatsiya: maqolada jadid ma’rifatparvarlari ijodida “sadoqat” konseptining ifodalanishi, “yurtga, millatga, xalqqa sadoqat” tushunchalarining lisoniy birliklar orqali ifodalanishi tahlil qilingan. “Sadoqat” konseptining bevosita leksemalar, frazemalar, so‘z birikmalari orqali oshkora holda, timsollar orqali yashirin tarzda aks ettirilishi yoritilgan. “Sadoqat” konseptining timsollar orqali ifodalanishida zoonimlar keng qo‘llangani, bu holat turkiy xalqlarning ovchilik tajribasi bilan bog‘liqligi asoslangan.

Bugungi kunda “sadoqat” tuyg‘usini shakllantirish va qat’iylashtirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning bosh masalasiga aylangani, “vatanga sadoqat” tuyg‘usining millatga, xalqqa, tilga, qadriyatlarga mehr-muhabbat tuyg‘ulari bilan uyg‘unlashuvida jadid ma’rifatparvarlari qarashlari va ifoda usullarining muhim o‘rin tutishi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: *aksiolingvistika, qadriyat, baho, “sadoqat” konsepti, aksiolingvistika, eksplitsit usul, implitsit usul, leksema, frazema, qo‘shma so‘z, so‘z birikmasi, timsol, vatanga sadoqat, vatanga muhabbat, millatga muhabbat, zoonimlar.*

Аннотация: в статье анализируется выражение концепта «преданность» в творчестве просветителей-джадидов, выражение концепта «преданность родине, нации, народу» посредством языковых единиц. Концепт «преданность» отражается открыто: через лексемы, фраземы, словосочетания; скытно посредством символов. При выражении концепта «преданность» через символы широко используются зоонимы, в основе которого лежит связь с охотничьим опытом тюркских народов.

Сегодня вопрос формирования и укрепления чувства «преданность» поднялся на уровень государственной политики, стал главным вопросом духовно-просветительской деятельности. Освоение чувства «преданность родине» вместе с чувством любви к нации, народу, родному языку играют важную роль во взглядах и способах выражения просветителей – джадидов.

Ключевые слова: *аксиолингвистика, ценность, оценка, концепт «преданность», эксплицитный метод, имплицитный – скрытный метод, лексема, фразема, словосочетание, сложное слово, символ, верность Родине, любовь к Родине, любовь к нации, зоонимы.*

Annotation: this article analyzes the expression of the concept of “loyalty” in the works of Jadid educators, specifically how the concept of “loyalty to the homeland, nation, and people” is conveyed through various linguistic units. The concept of “loyalty” is elucidated through direct lexemes, phraseological units, and word combinations, as well as implicitly through symbols. It is demonstrated that the symbolic representation of the concept “loyalty” extensively utilizes zoonyms, a phenomenon attributed to the hunting experience of Turkic peoples.

The article emphasizes the contemporary relevance of fostering a sense of “loyalty,” which has become a priority in state policy and spiritual-educational initiatives. It argues that the views and expressive methods of Jadid educators play a crucial role in cultivating “loyalty to the motherland” by integrating it with feelings of love for the nation, people, language, and cultural values.

Key words: *axiolinguistics, value, assessment, concept of “loyalty”, explicit method, implicit method, lexeme, phraseology, compound word, collocation, symbol, loyalty to the motherland, love for the motherland, love for the nation, zoonyms.*

Aksiolingvistika qadriyatlarning til birliklari orqali ifodalanish xususiyatlarini tadqiq qiladi. Aksiolingvistikaning asosiy masalalaridan biri qadriyatdir. Qadriyat ijtimoiy borliq, turmush tarzining munosabatlar tizimida, baholash orqali namoyon bo‘ladigan qarashlar majmuyidir. Qadriyatlar hamisha juftlikda namoyon bo‘ladi. Kishilik jamiyatida inson borliqni anglangan-anglanmagan, yaxshi-yomon, ijobiy-salbiy, o‘tkinchi-boqiy kabi belgilar asosida qarama-qarshi qutblarga ajratadi. Umuman, evolyutsion taraqqiyot davomidagi qarama-qarshiliklar birligi taraqqiyotning asosini tashkil etadi. Jamiyatda mavjud qadriyatlar o‘z navbatida aksqadriyat deb nomlanuvchi zid ko‘rsatkichlar negizida ifodalanadi. Ezgulik yovuzlikning, yaxshilik yomonlikning, oqillik johillikning, sadoqat vafosizlik va xiyonatning mavjudligini ko‘rsatadi, shu aksqadriyatlarning [6,11] zidi sifatida zohir bo‘ladi. Ayni shu qadriyatlar va aksqadriyatlar juftligi tilshunoslikda aksiologik leksikani yuzaga keltiradi. “Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha” [6,11]. Qadriyatlar, dastavval, eng qadimgi madaniy belgilar tizimida falsafa va mantiq fanlari masalasi

sifatida o‘rganilgan. Ilmiy manbalarda qadriyatning ijtimoiy-madaniy, subyekt qarashlari bilan bog‘liq tavsifi berilgan, qadriyatning turlari, ko‘rinishlari farqlangan. Tabiiy qadriyatlar, insonning ijtimoiy faoliyati orqali yuzaga kelgan qadriyatlar, siyosiy-axloqiy, ma’naviy-axloqiy, adolat, hamkorlik asosidagi boshqaruvga oid qadriyatlar ajratilgan [6,14]. Tadqiqotlar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, qadriyat falsafiy tushuncha, ijtimoiy-sotsial, milliy-madaniy kategoriya sifatida atroflicha tahlil qilingan. Qadriyatlarning konseptosferadagi aksi, kognitiv maydonni hosil qilishi, freymlar va fon bilimlar asosida shakllanish masalalari o‘rganilgan. Keyingi yillarda konseptning til birliklari orqali voqelanish masalasini tadqiq qilishga ehtiyoj tug‘ildi. Bu esa o‘z-o‘zidan aksiolingvistikaning yuzaga kelishiga zamin yaratdi.

Aksiolingvistik tahlillar so‘z semantik strukturasi orqali ifodalangan baho munosabatiga asoslanadi.

Qadriyatlar o‘zbek madaniyatining har bir taraqqiyot bosqichida alohida e’tibor bilan tahlil qilib kelingan tushunchalardir. O‘zbek madaniyati, san’atshunosligi, adabiyoti tarixida qadriyatlarning shakllanishi, milliy-madaniy xususiyatlari, baho va qadriyat munosabati ma’naviy-ma’rifiy masalalarning tarkibiy qismi sifatida qaralgan. O‘zbek adabiyoti tarixida qadriyatlarning har bir tarixiy bosqichda davr mafkurasiga xos xususiyatlarda namoyon bo‘lganini kuzatish mumkin. Xususan, XX asr boshlarida milliylik, madaniyat belgilari, urf-odat, an’analar, qadriyatlarga o‘zgacha e’tibor bilan yondashilganini ko‘rish mumkin. Jadid ma’rifatchiligida ulug‘langan qadriyatlardan biri sadoqatdir. *Sadoqat* arabcha “do‘stlik”, “birdamlik”; “samimiylik” ma’nolaridagi so‘z bo‘lib, chin qalbdan berilganlik; sodiqlik, vafodorlikni aks ettiradi [9, 419]. Izohli lug‘atda “birdamlik”, “samimiylik”, “sodiqlik”, “vafodorlik” semalari aks etgan.

Sadoqat va unga o‘zakdosh leksemalar o‘zbek tiliga, dastavval, hadislardagi antroponimlar tarkibida kirib kelgan. Keyinchalik umumiste’mol so‘z sifatida o‘zlashgan. Qadimgi turkiy, eski turkiy til davrida “sadoqat” tushunchasi *bayïrsaq* leksemasi orqali ifodalangan. “Jigar; qalb, yurak; qarindosh” ma’nolarini ifodalagan *bayïr* so‘ziga *-saq* affiksini qo‘shishdan yasalgan *bayïrsaq* leksemasi ilk bor “Qutadg‘u bilig” matnida uchraydi va “marhamatli”, “shafqatli”, “sadoqatli” ma’nolarini anglatgan. Ushbu derivat asarda ko‘proq Allohning sifatlarini ifodalashda qo‘llangan. Qahramonlar tilida *bayïrsaq iðim* “mehribon egam”, *bayïrsaq ïnanyu iðim* “mehribon, inonadigan egam” birikmalari ishlatilgan [7, 219]. *Bayïrsaq* sifatidan yasalgan *bayïrsaqlïq* “marhamatlilik”, “shafqatlilik”, “mehribonlik”, “xushmuomala, yoqimli” ma’nolarini anglatgan: *Bayïrsaqlïq erdi tügäl bu sözüm, esän qal salamat e körklüg yüzüm* – Bu so‘zlarim barchasi mehribonlikdan iborat, eson va salomat qol, ey yuzi ko‘rkligim [5]. Mahmud Koshg‘ariy devonida “xushmuomala, yoqimli odam”ni bildirgan. “Devonu lug‘otit turk”, “Qutadg‘u bilig” asarlari eski turkiy til davrining xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan manbalardir [4].

Qadimgi turkiy tilda “sodiq” ma’nosida *bayïrsaq*, “sodiqlik” ma’nosida *bayïrsaqlïq* leksemalari qo‘llangan [8,36].

Jadid adabiyotida “sadoqat” konseptini ifodalovchi lisoniy vositalar ikkiga ajratildi: 1.“Sadoqat” konsepti eksplitsit tarzda, leksemalar, frazemalar, so‘z birikmalari orqali ifodalangan. 2. “Sadoqat” konsepti implitsit tarzda, timsollar va presuppozitsiya orqali ifodalangan.

Yor, munis, hamdam, madadkor leksemalari shaxsga sadoqatni ta’did asosida ketma-ketlikda ifodalashda o‘ziga xos o‘rin tutgan.

Qani ul damki, sen eding yorim,
Munisim, hamdamim, madadkorim [1,60].

Quyidagi satrlarda *tobe’ bo‘lmoq* qo‘shma fe’lida “sadoqat” konsepti aks etgan: “Va-s-alatu’ ala min taba’ al-huda!”, ya’ni: “Hidoyat yo‘lig‘a tobe’ bo‘lg‘anlarg‘a salomlar bo‘lsin! [1,141].

“Yurtga sadoqat” tushunchasi *sen uchun o‘lmoq* birikmasi vositasida ifodalangan. *O‘lmoq* sadoqatning eng yuqori nuqtasi bo‘lib, *sen uchun o‘lmoq* jonni vatan yo‘lida tikishni ifoda etadi:

Turonim, sendan ayrilmoq – mening uchun o‘limim
Sening uchun o‘lmoq – mening uchun tirikligimdir [2,60].

“Muqaddas bilish, e’zozlash” ma’nosida *surma olmoq* frazemasi qo‘llangan: *Qorong‘uliklar ichra yog‘dusiz qolgan o‘zbek ko‘zlari uchun tuprog‘ingdan surma olg‘ali keldim* [2,60]. *Tuproqdan surma olmoq* frazemasi yurtni e’zozlashni, sevishni, qadrlashni anglatadi.

Surma olmoq frazemasi vatan tuprog‘ini muqaddas bilishning eng oddiy va sodda usulidir. *Surma* Mendeleyev davriy sitemasining 5- guruhiga mansub kimyoviy element, kumushsimon oq, mo‘rt metall. Tarkibida shu element bo‘lgan qoramtir pardoz bo‘yog‘i (qosh, kipriklarni bo‘yash uchun ishlatiladi). Mumtoz adabiyotda shu ma’noda *to‘tiyo qilmoq* qo‘shma fe’li ishlatilgan. *To‘tiyo* forscha-tojikcha so‘z bo‘lib, ma’lum bir davrlarda ko‘zga suriladigan surgini ifodalagan. Keyinchalik, “ko‘zga surish” semasiga asosan *ko‘zga to‘tiyo*, *to‘tiyo qilmoq* birliklari shakllandi. *Ko‘zga to‘tiyo* birikuvi juda aziz, muqaddas yoki noyob voqelik, narsa-buyumga nisbatan qo‘llangan. *To‘tiyo qilmoq* – to‘tiyodek ko‘zga surtmoq, e’zozlamoq [10,248]. Bu o‘rinda to‘tiyoning noyobligi ham nazarda tutilgan. To‘tiyo malham sifatida surtiladigan noyob shifobaxsh dori sifatida qo‘llangan. Keyinchalik so‘z semantikasida “ko‘zga surish” semasidan “noyob, kamyob” semalari shakllandi. *Ko‘zga dori* juda qadrli va kam topiladigan narsa haqida ishlatiladigan ibora [9, 446]. Bu semadan shakllangan *ko‘zga surtmoq* fe’li “aziz qilmoq, e’zozlamoq” ma’nosini bildiradi. *Ko‘zga surtmoq* ortiq darajada qadrlamoq, e’zozlamoq [9,*446*]. Non ushog‘ining ko‘zga surtilishi, muqaddas kitobni tavof

qilish an'anasi shu semantik xususiyat bilan bog'lanadi. Fitrat she'rlarida an'anaviy *to'tiyo qilmoq* (*to'tiyo qilmoq* avval qo'shma fe'l sifatida qo'llangan, keyin frazemaga aylangan: → "ko'zga surish", "e'zozlash") frazemasi o'rnida *surma olmoq* barqaror birikmasini ishlatgan. Bu frazema so'z birikmasidan shakllangan.

Surma sevimli yorga bo'lgan sadoqatni ham ifodalashga xizmat qilgan:

Qo'y, biroz qo'yki, xoki poyingni, Surmadek yoshli ko'zuma suray [3,60].

Ayoqingg'a yiqilay birikmasi "sadoqat" konseptini paralingvistik vositalar orqali ifodalagan:

Kel, gulim, kel, ayoqingg'a yiqilay, Bir zamon qo'y: to'lib-toshib yig'lay [3,60].

Shu holatda sadoqat ko'rsatishning yuqori darajasi *qon bo'lib to'kilmoq* frazemasi orqali aks ettirilgan:

Kel, ayoqingg'a qon bo'lub to'kulay,

Bir nafas dardi hajrdan qutulay [3,60]…

Surma olmoq → ayoqig'a yiqilmoq → qon bo'lib to'kilmoq erkin va barqaror birikmalari "sadoqat" konseptini shaxs ruhiyati hamda noverbal vositalar orqali darajalab aks ettirishga xizmat qilgan.

"Sadoqatsizlik" aksqadriyati *bevafo, xiyonat qilmoq* leksemalari orqali ifodalangan:

Go'zalim, bevafo gulistonim,

Bog'i umrimda toza rayhonim [3,60]

Bevafo gulistonim birikmasida makonning sadoqatsizligi namoyon bo'lmoqda. *Xiyonat qilg'an – sadoqatsizlik qilganlar:*

Turklikka xiyonat qilmoq birikmasi "millatga xiyonat qilmoq" tushunchasini anglatgan: *Turklikka xiyonat qilg'anlar* turk bo'lsalar ham qonlarini oqizmoq sening muqaddas odatingdir, yotma, tur! O'zligiga, millatiga xiyonat qilganlarga nisbatan shafqatsiz bo'lish targ'ib qilinmoqda.

O'zbek madaniyatida sha'n va izzat-hurmat hamisha yuqori qo'yilib kelgan. Didaktik manbalarda yigitlik sha'ni, or-nomusi, g'ururi targ'ib qilingan matnlarni ko'p uchratamiz. *Sha'n va izzatga xiyonat qilish: ...mehribon ona vataningizning huquqini unutsangiz, jahongir Temur bobongizning sha'ni va izzatiga xiyonat qilsangiz, bu mujassamani vahimalar doirasidan ham chiqarib tashlab, nom-nishonsiz, sharafsiz, izzatsiz rohat uyida azal-abad uxlayajaksiz* [1,99]. Bu satrlarda xiyonat haqning jazosi bilan yakun topadigan aksqadriyat sifatida qoralangan.

Jadidchilik harakati davrida ilm ulug'langan, ma'rifatsizlik qoralangan. Jadid mutafakkirlari xalqni ma'naviyatli va ma'rifatli qilishga urinishgan. Bu davrda muhim ijtimoiy masala sifatida kun tartibiga qo'yilgan vatanga, yurtga, xalqqa, millatga sadoqat masalasi badiiy matnlar, diniy manbalar, hadis namunalari orqali targ'ib qilingan. Bu davrda sadoqat masalasining jiddiy baholanishi konseptning turli lisoniy birliklar orqali faol qo'llanishini ta'minlagan.

Sadoqat masalasining jadidchilik davridagi targ'iboti bu tuyg'u va mas'uliyatning ijtimoiy-siyosiy vaziyat, tarixiy taraqqiyot bosqichlariga mos ravishda o'zgarib turishini ko'rsatadi. Sobiq sho'rolar davrida partiyaga sadoqat tuyg'usining shakllangani va eng yuqori darajadagi e'tibor nuqtasiga ko'tarilgani ham sadoqat masalasining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga muvofiqlashuvini asoslaydi.

Bugungi kunda "sadoqat" tuyg'usini shakllantirish va qat'iylashtirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Sadoqatni Yangi O'zbekiston bunyodkorlari bo'lgan yoshlarning asosiy fazilatlaridan biri sifatida qaror toptirish ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarimizning bosh masalasidir. Yosh avlodda vatanga sadoqat tuyg'usining millatga, xalqqa, tilga, o'tmishga, qadriyatlarga mehr-muhabbat tuyg'ulari bilan uyg'unlashuvi yo'lida qilgan sa'y-harakatlarimiz, albatta, o'z samarasini berajak. Bu yo'lda ajdodlarimiz, xususan, jadid ma'rifatparvarlari qo'llagan vositalar, usullar biz uchun ibrat namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Абдурауф Фитрат. Ҳиндистонда бир фаранги ила бухороли мударриснинг жадид мактаблари хусусида қилган мунозараси. Танланган асарлар. I. –Тошкент, 2000.

2.Абдурауф Фитрат. Юрт қайғуси. Темур олдинда. Танланган асарлар. I. –Тошкент, 2000.

3.Abdurauf Fitrat. Saylanma. –Toshkent: Zabarjad media, 2022.

4.Дадабоев Ҳ. "Девону луғотит-турк" нинг тил хусусиятлари. – Тошкент, 2017. 69- б.

5.Дадабоев Ҳ., Холмуратова М. "Қутадғу билиг"даги сўзларнинг ўзбекча, русча ва инглизча изоҳли луғати. – Тошкент, 2018. 384- б.

6.Комилова Г. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. –Тошкент, 2021. 136- б.

7.Sodiqov Q. Turkiy til tarixi. –Toshkent, 2009.

8.Холмурадова М. "Қутадғу билиг" лексикаси. Филол. фан...б. фалс. док. (PhD) дисс. – Тошкент, 2019. 136-b.

9.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II. − Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. 672- б.

10.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV. − Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. 608- б.

Gulmira BOZOROVA,
BuxDU O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi dotsenti v.b., f.f.f.d. (PhD)
g.z.bozorova@buxdu.uz

TIBBIY TERMINOLOGIYANING SHAKLLANISH OMILLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada tibbiy terminologiyaning shakllanishi tarixi, taraqqiyot bosqichidagi turli o‘zgarishlari o‘z aksini topgan. Termin va terminosistema tushunchalarining tibbiyotda voqelanish tadriji ilmiy asoslangan. Shuningdek, tibbiy atamalarning tor va keng sohalardagi tadqiqi ham o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *termin, terminologiya, terminosistema, tibbiy atamalar, tibbiyot tili, tibbiy birikmalar.*

Аннотация: в данной статье отражена история формирования медицинской терминологии, различные изменения на этапе развития. Процесс понятия термина и терминосистемы в медицине научно обоснован. Также изучаются исследования медицинских терминов в узких и широких областях.

Ключевые слова: *термин, терминология, терминосистема, медицинские термины, медицинский язык, медицинские сочетания.*

Annotation: in this article, the history of the formation of medical terminology, various changes at the stage of development are reflected. The process of the concept of term and terminosystem in medicine is scientifically based. Also, research of medical terms in narrow and broad fields is studied.

Key words: *term, terminology, terminosystem, medical terms, medical language, medical combinations.*

Jamiyatda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar inson faoliyatining barcha sohalari, shu jumladan, tibbiyotning rivojlanish jarayoniga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Eski tushunchalar o‘zgaradi va og‘zaki ifodani talab qiladigan yangi tushunchalar paydo bo‘ladi, bu terminosistemalarga birlashtirilgan atamalar yordamida amalga oshiriladi.

Tibbiyot tili – bu jamiyat hayotida ulkan ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan jadal rivojlanayotgan fanning faol ishlaydigan bir qismidir. Tibbiyot fanning eng qadimgi va shu bilan birga, eng zamonaviy sohalaridan biridir. Lug‘atning eng qadimgi qatlamlarida ildiz otgan va so‘z boyligining doimiy rivojlanayotgan qismi bo‘lgan tibbiy terminologiya tilning jadal rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Shuningdek, lingvistik tizimni tubdan qayta qurish imkonini beradi. Qolaversa, tilning barqarorlik hamda asta-sekin rivojlanish davrlaridagi o‘ziga xosliklarini tibbiyot doirasida kuzatishga, tahlil qilishga keng yo‘l ochadi.

Ekstralingvistik o‘zgarishlar tilning ba’zi funksiyalarini kengaytirishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojni aks ettiradigan, ma’lum siyosiy yoki iqtisodiy jarayonlarning natijasidir. Tilning o‘zgarishi madaniy, tarixiy, geografik va boshqa omillar natijasida yuzaga keladi. Til hodisalarini sinxron va diaxronik jihatdan o‘rganishga kompleks yondashuv nafaqat tilning ichki tuzilishi, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab o‘zgarishlarni hisobga olishni talab qiladi.

Ma’lumki, har qanday hodisalar tizimining bir qismi sifatida uning kelib chiqishi va rivojlanishi tarixi takrorlanadi. Ilmiy bilimlarning shakllanishi tilda tobora kengayib borayotgan terminatsiya usuliga olib keladi, tobora ko‘proq yangi voqelik ushbu voqelikning boshqalar bilan o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadigan maxsus belgini oladi. Bu atamalarning tobora ko‘payib borishini ham anglatadi.

Tibbiyot terminologiyasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan fanning eng muhim va eng qadimgi tarmoqlaridan biri sifatida terminologik lug‘atning rivojlanayotgan tizimlari orasida alohida o‘rin tutadi. Buning sababi shundaki, tibbiy terminologiya tibbiyot mutaxassisi aloqa jarayonida foydalanadigan kasbiy bilimlarni saqlaydi, o‘zgartiradi, yangilaydi (ko‘pincha bu holat kasallikni davolashda, profilaktika paytida, shifokorning hamkasblari, bemorlari, qarindoshlari bilan muloqotida aks etadi).

Tibbiy terminologiya ilmiy tafakkurning shakllanish tarixi sifatida namoyon bo‘ladi, unda “*atama* dunyoning lisoniy aks etishi natijasidir, bun esa qadr-qiymatni anglash, olamni tafakkur etish usullari, fikrlashning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunishga imkon beradi” [Bekisheva, 2010, 226-bet]. Shunday qilib, tibbiyotga, boshqa fanlarga o‘xshab, texnologiyaning jadal rivojlanishi jarayonida texnik, kimyoviy, fizik terminologiyalarning tarmoqlararo atamalari kirib kela boshladi. Masalan, monitoring tizimi *(a unit that gives patient’s data during The operation and post operation period)* bemorning ahvolini doimiy ravishda kuzatib boradigan tizim bo‘lib, uning ma’lumotlari monitorga chiqariladi [Motchenko, 2001, 71- sahifa].

Texnikaning tibbiy terminologik tizimning shakllanishiga ta’siri uning atama elementlari va tarkibiy qismlarini tahlil qilishda sezilarli bo‘lib, ularning katta qismi ingliz tilidan olingan. Masalan, asbobning nomlari *insulin pump – is a medical device used for the administration of insulin in the treatment of diabetes mellitus. The device includes: the pump itself (including controls, processing modules and batteries); a disposable reservoir for insulin (inside the pump): a disposable insulin set, including a cannula for subcutaneous insertion and a tubing system to interface the insulin reservoir to the cannula*[1]; jarayon nomlari: *screening, monitoring*; mulk

1 en.wikipedia.org wiki / Insulin_pump

nomlari: *ultrasonic probe* – tananing ichki qismlarini tekshirish uchun ultratovushli qurilma.

Yangi asboblar, hodisalarning paydo bo‘lishi tilda atamalar va terminologik birikmalar shaklida aks etadi. Shuning uchun tibbiy atama va terminologiya fan va texnika bilan bog‘liq holda tibbiyotning rivojlanishi natijasida paydo bo‘ladi. Fan va texnika ijtimoiy-iqtisodiy sohaga tegishli bo‘lganligi sababli, terminologiyaning ijtimoiy determinizmi haqida gapirish qonuniydir. “Terminologiya – bu tashqi ta’sirlarga eng sezgir bo‘lgan va shu sababli ham jamiyatning tilga ta’sirini eng aniq ko‘rsatadigan so‘z boyligining bir qismi”[1]. Qarang: Type *1 diabetes can be managed with insulin injections or a pump that delivers insulin via a tiny catheter inserted under the skin every few days. An artificial pancreas, which sometimes is referred to as a closed-loop system because it doesn’t require user input, could potentially solve those problems by taking over the decision making process and applying sophisticated computer algorithms to decide how much insulin is needed at any given moment*[2]. Ushbu misolda har bir atama ma’lum bir obyektiv korrelyatsiyaga ega bo‘lgan holda, tilning moddiy tomonini, ayniqsa, aniqroq ko‘rsatadi. Terminologiyada sodir bo‘ladigan lingvistik jarayonlar, masalan, ko‘p komponentli iboralarning shakllanishi, har xil qisqartirilgan shakllar, sinonimiya fenomeni va boshqalar nafaqat lingvistik asosga, balki ekstralingvistik omillarga ham ega. Bu esa E.V. Bekisheva, E.M. Kakzanova, V.F. Novodranova kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘z tasdig‘ini topgan.

Dastlab E.Vyuster, E.K.Drezen, D.S.Lotte asarlarida terminologiyani standartlashtirish va xalqarolashtirish bo‘yicha amaliy faoliyat yo‘nalishlari va ularning xususiyatlari aks etgan edi. Ammo 20-asrning birinchi yarmida tibbiy terminologiya hali ilmiy tadqiqotlarda mustaqil yo‘nalish sifatida o‘z tarmog‘iga ega emas edi. Terminologik faoliyatni dastavval shifokor-olimlar olib borishdi, ularning izlanishlari natijasida darsliklar va lug‘atlar paydo bo‘ldi (P.I.Karuzinning anatomik atamalar lug‘ati, S.I.Volfsonning lotin-rus tibbiyot lug‘ati va boshqalar).

XX asrning 80-yillariga kelibgina tibbiy terminologiya mustaqil fan sifatida shakllanishni boshladi. Ushbu davr tibbiy terminologiya sohasidagi uslubiy faoliyatning faollashishi bilan tavsiflanadi. Bu, o‘z navbatida, tibbiy atamaning mohiyatini va uning lingvistik tavsifini birmuncha batafsil tushunishga, to‘liqroq anglashga turtki bo‘ldi [Bekisheva, 2007, 25-bet].

Tibbiy leksikografiyaning faol rivojlanishini tibbiy atamalarning ekstralingvistik shartliligi, ularning tibbiyot kabi hayotiy fan bilan o‘zaro bog‘liqligi va tibbiy terminologiyaning genetik, tarkibiy va semantik xilma-xilligi bilan izohlash mumkin. Bundan tashqari, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, bu atama mohiyatini tushunish jarayonining asosiy vositalaridan biridir, shuning uchun tibbiyotning terminologik maydondagi atamalarda yuz berayotgan o‘zgarishlarni tahlil qilish asosida inson tanasida sodir bo‘layotgan jarayonlar to‘g‘risida bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish xususiyatlari to‘g‘risida g‘oyalarni umumlashtirish imkoni tug‘iladi. Yuqoridagi barcha faktlar tilshunoslarga tibbiy atamalarni va turli tillarni, xususan, ingliz, nemis, fransuz, rus tillarini o‘rganishga turtki bo‘ldi desak, yanglishmaymiz.

Turli tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tibbiy terminologiya ko‘p qirrali atamalar to‘plamidir. Tibbiy terminologiya – bu jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarni aks ettiruvchi murakkab dinamik tizim. Ilmiy kashfiyotlar soni ortib bormoqda, shuning uchun tibbiyot fanlari torroq fan bo‘limlariga bo‘linadi. Shu bilan bir qatorda, fanlarni birlashtirish, umumlashtirish jarayoni ham davom etmoqda. Bu quyidagi olimlarning tadqiqotlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi: G.A.Abramova (2003), L.M.Allafi (2004), E.V. Bekisheva (2007), V.S. Gusyatinskaya (1998), L.N.Gushchina (2004), E.N.Zagrekova (2008), S.G.Kazarina (1998), E.M.Kakzanova (2011), T.S.Kirillova (1990), G.A.Krakovetskaya (1974), S.I.Majayeva (2005), E.D.Malenova (2006), E.D.Makarenko (2008), I.V. Motchenko (2001), M.V.Oganisyan (2003), V.U.Petrishina (1973), L.S.Rudinskaya (1997), T.A.Trafimenkova (2008).

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tibbiy terminologik maydon masalasi ilm-fan taraqqiyoti jadal ketayotgan davrda ham tor doirada, ya’ni tibbiyot fanining ichki sohalarida ham, shu bilan bir qatorda, tibbiyotga daxldor atamalar yaxlit umumiy bir fan sifatida umumlashgan holda ham tadqiq etib kelinmoqda.

1 [Kobrin, 1983, 232-bet]
2 nlm.nih.gov medlineplus/dianetesmellitus

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бекишева Елена Владимировна. Формы языковой репрезентации гносеологических категорий в клинической терминологии. Дисс.д.ф.н. – М. 2007.

2. Маджаева, С.И. Способы терминообразования в подъязыке медицины как фактор системности (на материале тематических областей «Диабет» и «СПИД») / С.И. Маджаева // Lingua mobilis : науч.журн. / гл. ред. А.А. Селютнн. - 2010. - № 2 (21). - С. 55-60 (0,5 п.л.).

3. Bozorova G. FORMATION OF ABBREVIATIONS IN MEDICAL TERMINOLOGY IN UZBEK LANGUAGE // Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 86-89.

4. Bozorova, G. (2023). ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПЛЕОНАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ РЕЧИ. Центр Научных Публикаций (buxdu.Uz), 34(34). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9752

5. Samandarova G. Y. Fundamentals of folk proverbs formed on the basis of the lexical-spiritual group of insects. Current research journal of philological sciences, 2 (05), 39–42. – 2021.

6. Samandarova G. Y. (2023). BASIS OF THE LEXICAL SENTENCE GROUP “INSECT” IN THE FORM OF A COMPOUND SENTENCE. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE “ INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION”*, *2*(4), 59–67. Retrieved from http://academicsresearch.ru/index.php/iscitspe/article/view/1493

7. Bozorov Z. A. “Exceptional role of motives and needs within the formation process of civic culture in students’ community.” *Journal of Advanced Zoology* 44 (2023): 3236-3244. https://jazindia.com/index.php/jaz/article/view/1595

8. Ashurovich Bozorov Zayniddin. “Great Oriental Intellectuals about Civil Culture.” *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal* 2 (2023): 21-24. https://innosci.org/wos/article/view/968

Leyla KHUSAINOVA
Associate Professor of the Department of Foreign Languages, Ph.D.
Samarkand institute of Economics and Service

CURRENT TRENDS IN TEACHING PHONETICS: TECHNOLOGIES AND METHODS

Annotation: this article examines current trends in teaching phonetics, including both traditional and innovative methods. The results of the research and discussion highlight the effectiveness of various methods and technologies in the context of modern phonetic learning, as well as the advantages and disadvantages of different approaches.

Keywords: *phonetics, pronunciation training, audio technologies, video technologies, training programs, phonetic teaching methods.*

Аннотация: в представленной статье рассматриваются современные тенденции в обучении фонетике, включая в себя как традиционные, так и инновационные методы. Результаты исследований и обсуждение подчеркивают эффективность различных методов и технологий в контексте современного фонетического обучения, а также преимущества и недостатки различных подходов.

Ключевые слова: *фонетика, обучение произношению, аудио-технологии, видео-технологии, программы для обучения, методики фонетического обучения.*

Annotatsiya: ushbu maqolada fonetikani o‘qitishning hozirgi tendensiyalari, jumladan, an’anaviy va innovatsion usullar muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari va muhokamalari zamonaviy fonetik ta’lim kontekstida turli texnika va texnologiyalarning samaradorligini, shuningdek, turli yondashuvlarning afzalliklari va kamchiliklarini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: *fonetika, talaffuzga o‘rgatish, audio texnologiyalar, video texnologiyalar, o‘quv dasturlari, fonetik o‘qitish usullari.*

Introduction

Phonetics, as the science of the sound side of speech, is one of the main disciplines in the study of any language. It helps to understand the mechanics and articulation of sounds, but also plays a crucial role in the formation of correct pronunciation and listening comprehension. Each language has its own phonetic features that make it unique. Therefore, in order to speak a foreign language fluently and correctly, it is necessary not only to learn vocabulary and grammar, but also to learn how to correctly pronounce the sounds of this language.

Modern phonetic education seeks not only to transfer theoretical knowledge about the sound system of the language, but also to the practical application of this knowledge in real communication. The main objectives of such training are:

Formation of correct pronunciation among students, which contributes to the ease of understanding their speech by native speakers.

Development of listening skills, which allows students to easily adapt to the environment of native speakers and understand various dialects and accents.

Teaching students articulatory gymnastics to increase the flexibility of the articulatory apparatus and improve pronunciation.

Thus, modern phonetic training strives for an integrated approach, combining theoretical knowledge with practical skills and the active use of modern technologies.

Literature review

Teaching phonetics, as a separate field of language learning, has a long history. Since ancient times, when people realized the need to learn the sounds of the language for correct communication, the first attempts to systematize and categorize sounds began.

Traditional teaching methods. In the nineteenth and early twentieth centuries, phonetic learning was often based on the method of direct repetition and imitation. Teachers used simple textbooks and dictionaries to demonstrate correct pronunciation and students tried to imitate these sounds as accurately as possible.

Introduction of phonetic diagrams and transcriptions. With the development of linguistics in the twentieth century, there was a need to create

universal phonetic alphabets, such as the International Phonetic Alphabet (IPA). This made it possible to standardize the learning process and give students clear tools to analyze their pronunciation.

The technological progress of the XXI century has led to a revolution in the methods of teaching phonetics. Modern research focuses on the effectiveness of the use of technology in education.

Digital applications and programs for correcting pronunciation. In recent decades, there have been many applications that analyze a student's pronunciation in real time and provide feedback to help correct mistakes.

The use of virtual and augmented reality. The latest research shows that the application of VR and AR can enhance the perception and understanding of phonetic processes, immersing students in an interactive environment where they can observe and simulate pronunciation in real time.

Online Learning Platforms. Online courses and platforms allow students to have access to high-quality resources, video lessons and interactive exercises, making the learning experience more flexible and accessible.

Methods

Traditional methods of teaching phonetics were based on methods of listening and imitation. The teachers demonstrated the correct pronunciation and the students tried to repeat it. These methods, despite their simplicity, were very effective, especially in direct contact with native speakers.

Modern methods integrate technologies aimed at individualizing learning and strengthening feedback. For example, interactive programs that adapt to the level of the student, providing materials taking into account his strengths and weaknesses.

2. The role of audio and video technologies in teaching correct pronunciation.

Audio and video technologies play a central role in modern phonetics education. Audio materials allow students to hear authentic pronunciation in a variety of contexts, practicing their listening skills. Video footage complements this process by demonstrating articulation and facial expressions in the pronunciation of sounds, which is especially important for languages with a large number of visual cues.

3. Application of programs and applications for teaching phonetics.

With the development of digital technology, many programs and applications aimed at teaching phonetics have appeared. They include pronunciation games, interactive exercises and even virtual assistants for real-time pronunciation correction. Apps like Duolingo or Rosetta Stone integrate phonetic learning into their courses, making it more interactive and engaging.

Thus, modern methods and technologies provide students with many tools to learn and hone their phonetic skills.

Results and discussion

Based on numerous studies, it was found that the combination of traditional and innovative methods is the most effective. Traditional methods, such as listening and imitation, provide students with a foundation on which further learning is based. On the other hand, the use of digital technology allows students to practice pronunciation in real time, receiving instant feedback.

Modern technology, especially mobile apps, provides constant interaction with students, allowing them to practice anytime, anywhere. Research shows that regular practice, backed by technology, leads to better results. In addition to this, the adaptive learning opportunities provided by some programs allow students to work on their weaknesses by improving their pronunciation.

The effectiveness of various methods and technologies has a direct impact on the quality of phonetics teaching. Given globalization and the growing need for high-level proficiency in foreign languages, correct pronunciation is becoming a key element of successful learning. Thus, the application of the most effective methods and tools not only ensures better educational outcomes, but also improves students' chances in the international arena.

Table 1. Advantages and disadvantages of different approaches [3]

Approaches	Traditional methods	Innovative methods and technologies
Advantages	• Great for beginner learners, providing them with a clear learning structure. • Provide a thorough study of phonetic foundations. • They help in the development of the ability to listen and recognize sounds.	• Adaptive learning: programs and applications can be adapted to the needs of each student. • Real-time feedback allowing students to quickly correct their pronunciation. • Greater accessibility and the possibility of learning anytime and anywhere.

Disadvantages	• They can be monotonous and less motivating for students. • They require an experienced teacher to conduct classes effectively.	• May require additional resources or payment for access to quality programs. • Some students may experience technical difficulties or problems with the Internet connection.

Feedback from teachers and students

Based on questionnaires and interviews with teachers and students, the following opinions were identified:

Teachers:

Confirm that the combination of traditional and new methods gives the best results.

It is noted that some students interact better with digital resources, while others prefer more traditional methods.

Students:

They note high motivation when using interactive applications and programs.

Some have expressed concerns about reliance on technology and stress the importance of having an experienced teacher to mentor.

Conclusion

Phonetic learning plays a key role in the process of learning foreign languages, since the correct pronunciation and perception of sounds are a fundamental component of communicative competence. With the advancement of technology, the methods of teaching phonetics have undergone significant changes. Modern technologies offer innovative approaches that complement traditional methods and make the learning process more flexible, interactive and motivating.

Based on the analysis of the historical context, the description of modern methods and the discussion of their effectiveness, the following conclusions can be drawn:

Integration of methods: The best results are achieved by combining traditional methods of teaching phonetics with new technological approaches.

Adaptability: Modern technology allows you to create adaptive educational platforms that can adapt to the individual needs of each student.

Feedback: The fast and accurate feedback provided by digital resources contributes to more effective learning and error correction.

The need for mentoring: Despite all the benefits of technological innovation, the role of an experienced teacher does not diminish. Expert mentoring remains an integral part of successful phonetic learning.

In general, the educational community faces new challenges and opportunities in the field of phonetic learning. Research and practice show that the right combination of traditional and new methods can significantly improve the effectiveness of the learning process.

References:

1.Васильев Л.М. (2004). Фонетические упражнения в процессе обучения иностранному языку. СПб.: Златоуст.

2.Зиндер Л.Р. (1976). Обучение произношению в школе. М.: Просвещение.

3.Кенворти Дж. (1987). Преподавание английского произношения. Лонгман.

4.Дженкинс Дж. (2000). Фонология английского как международного языка. Оксфорд: Оксфордский университетский пресс.



Sadoqat FAYZIYEVA
Teacher, Department of Translation theory and practice,
Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

THE EMERGENCE OF A SYNERGETIC PARADIGM IN LINGUISTICS

Annotation: the formation of a new transdisciplinary methodology - linguosynergetics - is noted in modern science. The article examines the origins and prospects, as well as the basic concepts of a new trend in modern linguistics. The possibility of applying a synergetic approach to language learning and speech activity; an attempt is being made to outline the boundaries and main tasks of a new field of research.

Keywords: *synergetics, linguosynergetics, attractor, self-organization, metaphor.*

Аннотатция: в современной науке отмечается формирование новой трансдисциплинарной методологии-лингвистической синергии. В статье рассматриваются зарождение и перспективы нового направления в современном языкознании, а также его основные концепции. Кроме того, предпринимаются попытки рассмотреть возможность применения синергетического подхода к изучению языка и речевой деятельности, определить границы и основные задачи нового научного направления.

Ключевые слова: *синергетика, лингвосинергетика, аттрактор, самоорганизация, метафора.*

Annotatsiya: zamonaviy ilm - fanda yangi transdisiplinar metodologiya-lingvosinergetikaning shakllanishi qayd etilgan. Maqolada zamonaviy tilshunoslikda yangi yo'nalishning kelib chiqishi va istiqbollari, shuningdek asosiy tushunchalari ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, til va nutq faoliyatini o'rganishda sinergetik yondashuvni qo'llash imkoniyatini ko'rib chiqish hamda yangi tadqiqot sohasining chegaralari va asosiy vazifalarini belgilashga harakat qilinmoqda.

Kalit so'zlar: *sinergetika, lingvosinergetika, attraktor, o'z-o'zini tashkil etish, metafora.*

Introduction

Linguistic paradigms have traditionally been viewed as the foundational elements upon which language systems and processes are constructed. However, with the rise of modern linguistics, new perspectives have emerged that provide alternative ways to understand the structure and operation of language. One such perspective is the synergetic paradigm, which incorporates the principles of synergetics — the study of self-organization and the dynamics of complex systems. Unlike traditional linear models, the synergetic paradigm posits that language is a dynamic, self-developing system where numerous elements interact. Changes in language occur not only due to external influences but also as a result of the internal dynamics of the language process itself. This approach emphasizes the flexibility, adaptability and interconnectedness of language structures, highlighting their capacity to self-organize and evolve. The article will explore how the synergetic paradigm reshapes conventional views on language, providing new insights into its structure, dynamics and functioning in relation to cognitive and social changes. Although synergetics is a relatively recent field focused on the self-organization and self-development of complex systems, it has found diverse applications across various scientific and technological domains. Numerous studies have been conducted to generalize the key patterns of complex systems identified in the natural sciences. The founder of the synergetic approach is H. Haken, who outlined several core principles of this interdisciplinary field. Synergetics (derived from the Greek word "syergētikós," meaning joint action or mutual influence) is a novel interdisciplinary area of study that explores systems composed of many components or subsystems that interact in intricate ways. Through these interactions, processes emerge that lead to the self-organization of the system.

Theoretical basis

One of the most insightful definitions of self-organizing systems was provided by B.G. Yudin: "Self-organizing systems can be defined as those capable of actively interacting with their environment to alter their structure, while maintaining their integrity and operating according to patterns inherent in that environment. They are able to choose one of several possible courses of action, considering a wide range of factors, each with significant variation. In other words, such systems are capable of controlling, regulating, or managing extremely complex processes".

The foundations of synergetics—including concepts like open nonlinear systems, deterministic chaos, dissipative structures and others—were established by G. Haken and I.R. Prigogine , and have since been further developed across various fields of both the natural sciences and humanities. These fields include physics, chemistry, biology, sociology, pedagogy, linguistics, as well as art, culture, and communication (e.g., E.N. Knyazeva, V.I. Arshinov, D.S. Chernvsky, V.G. Budanov, A.V. Voloshinov, I.A. Evin, V.G. Zinchenko).

Recently, there has been a growing convergence between the natural sciences and humanities, with increasing interest from scholars in the humanities toward synergetic ideas and methods. The synergetic perspective on a wide range of phenomena is gaining

wider acceptance globally. Linguistics has also embraced this scientific approach, with linguists further developing synergetic concepts such as the nonlinearity of the language system, its openness and its dynamic structural nature.

The synergetic worldview is described in philosophy as holistic, nonlinear and evolutionary. In terms of linguistics, this perspective on reality can be framed through the justification of the following postulate: Language "is a whole, unstable, changing and evolving world, which justifies speaking of a certain instability in relation to it".

Disscussion

Linguistic synergetics is a new paradigm of cognition of language as a human, social, biopsychic, cognitive and social phenomenon. Linguosynergetics is based on an approach to language (discourse) as a self-organizing system, closely interconnected with the external environment (the consciousness of communicants and the general system of language), whose influence, along with the internal processes of the speech system, leads to functional fluctuations (in terms of the linguosynergetics of "fluctuations"), deviation from the equilibrium state of the pragmatic field of discourse, supported by the so-called parameters of the order governing the functioning of the system. In response to the changes caused, chaotic, new, spontaneous properties arise in the semantic system, contributing to the further movement of discourse towards the most ordered point of the system – the communicative goal – the "functional attractor" as the most favorable mode of functioning. "The excess information appearing in the process of communication, being irrelevant and disorganizing elements of the discursive system, are subjected to "dissipation" – they are dispersed into the external environment, from which, in turn, resources are flowing into the system, contributing to the repayment of semantic disunity, i.e., in the development of the system based on a circular causal relationship, movement and the interaction of pragma-semantic components, which creates a complex synergistic functional space of discourse.

Linguistic synergetics represents a novel approach to understanding language as a complex, multifaceted human, social, biological, psychological, cognitive and societal phenomenon. It conceptualizes language (or discourse) as a self-organizing system that is deeply interconnected with both the external environment, which includes the consciousness of the communicators and the broader language system and the internal processes of the speech system itself. This dynamic interaction leads to functional fluctuations or "fluctuations" in linguosynergetic terms, causing deviations from the equilibrium of the pragmatic field of discourse. The system is regulated by "parameters of order," which govern its functioning.

As a result of these fluctuations, new, often chaotic properties emerge within the semantic system, which propel the discourse toward greater organization. The system moves toward a state of greater coherence, ultimately aiming for the "functional attractor" which represents the communicative goal—the most favorable state for effective functioning. The excess information generated during communication, which is irrelevant and disrupts the system, is dissipated into the external environment. This excess is released in a way that replenishes the system, helping to resolve semantic inconsistencies. This process reflects a circular causal relationship, where in the movement and interaction of pragma-semantic components generate a complex, synergistic functional space that drives the development of discourse.

From the perspective of linguosynergetics, the discourse system is viewed "as a dynamic, nonlinear, self-regulating system of discourse meanings, which are formed through their verbal expression".

Discourse is defined as "an arbitrary segment of text comprising more than one sentence or a distinct part of a sentence. It is often, though not always, centered around a central concept; it establishes a broader context that describes actors, objects, circumstances, times and actions, which are determined not by the order of sentences but by the shared world of both the discourse creator and its interpreter and which is 'constructed' as the discourse unfolds. The foundational structure of discourse takes the form of a sequence of basic propositions linked by logical relationships...".

It is important to emphasize that, in advancing the foundations of the synergetic approach to linguistics, the goal is not to mechanically transfer terminology from the natural sciences to linguistic research. Rather, it is about the appropriate application of necessary terms to develop new approaches for analyzing the functional aspects of speech activity. These approaches are based on well-established scientific ideas but are reframed through a fresh perspective. According to R.G. Piotrovsky, the subject of linguistic synergetics is "the discovery and study of the mechanisms of self-organization and self-regulation of language".

Using synergetic methodology, various complex human-centered systems are studied, such as the mental lexicon (as a dynamic self-organizing system, according to A.A. Zalevskaya), the core of the mental lexicon (viewed as a strange attractor that draws all the evolutionary trajectories of the system, as described by N.O. Zolotova), speech activity and the word (the "linguosynergetics" direction developed by the Barnaul Psycholinguistic School), text (understood as a self-organizing and self-developing system, according to N.L. Myshkina, or as a natural energy object, as per G.G. Moskalchuk), and signs (with semiosis viewed as the transformation of energy into information, according to E. Taborsky).

A fundamental tenet of synergetic linguistics is the notion of the disparity, instability, openness and nonlinearity of the language system. Disequilibrium refers

to a state in which a system is distant from equilibrium, influenced by various forces and characterized by the exchange of processes between the system and its external environment. Unequal systems are capable of perceiving differences in the external environment and "accounting for" them in their functioning.

Nonlinearity refers to the dependence of a system's properties on both the processes occurring within it and the external influences acting upon it. This concept suggests that a system can evolve in various ways or find different solutions, even when starting from the same initial conditions.

Certain principles of synergetics have been discussed repeatedly, with their relevance to linguistics being examined and the effectiveness of their application justified. These principles include the following:

A system's ability to self-organize arises from its non-equilibrium state and the existence of a hierarchy of subsystems that can model each other and their environment.

Self-organizing systems contain attractors, which help unify a wide range of explanations for how text and context are created. These attractors incorporate ideas such as extralinguistic factors, communicative intentions, the linguistic personality and the linguistic worldview.

Self-organization, a core concept in synergetics, refers to the process by which a system transitions from disorder (chaos) to a more structured state, eventually leading the system to a stable point known as an attractor.

An **attractor** is a specific point in a self-organizing system that influences its dynamics and guides its evolution. The key feature of an attractor is that it draws all possible trajectories of the system's development toward itself, regardless of the initial conditions.

Attractors are tangible structures that exist in space and time, shaped by the processes of self-organization within open, nonlinear systems. As noted, "Attractor structures resemble the goals of evolution... these goals can include chaotic states or various types of structures with symmetrical, orderly architecture, which are excited by resonance in the system".

In synergetics, an attractor is understood as a relatively stable state that "attracts" all possible evolutionary trajectories of the system, even those originating from different starting points.

In linguosynergetics, the **creative attractor**—the dominant meaning—can be described as "a zone of harmonization between symmetry and asymmetry, organization and self-organization of the text, a region that draws all the elements of the text together, allowing it to exist as a coherent whole while permitting the potential for transition to other states".

An additional type of attractor is the **strange attractor**, which differs from equilibrium states. Although solutions are drawn toward it, they exhibit "strange" behavior, acting randomly and splitting into multiple trajectories.

Conclusion

The development of the linguosynergetic paradigm faces several challenges:

Experimental testing of proposed synergetic models is difficult.

Observing the mechanisms of self-regulation and self-organization in language is nearly impossible due to the slow pace of transformation in language systems.

Identifying measurable variables that are sufficient for synergetic models is challenging, even when using representative linguistic data.

The boundaries of linguistic objects evolve as language and speech systems change over time.

A prime example of a complex, open-ended self-organizing system is the English language. One of its defining characteristics is that, during its use in speech, various elements and components of discourse interact, influence one another and, in some cases, condition each other. At the same time, these elements demonstrate the ability to dynamically adapt, regulate themselves and vary. The systemic interdependence and complexity of this interaction are evident across various linguistic norms, such as phonetics, spelling, orthography, grammar and vocabulary.

In conclusion, it is important to recognize that the concept of "consistency" in linguistics requires a re-evaluation in light of contemporary scientific understandings of systems and their properties and as such, it calls for a "modernization" of the concept.

List of literature

1.Герман, И. А. Лингвосинергетика: Монография. Барнаул : Изд-во Алтайской академии экономики и права, 2000. 168 с.

2.Демьянков, В. З. 1982а – Конвенции, правила и стратегии общения: (Интерпретирующий подход к аргументации) // Изв. АН СССР. Сер. лит. и языка, 1982. Т. 41. 4. С.327-337.

3.Дрожащих, Н. В. Лингвосинергетика: истоки и перспективы

4.// Вестник Тюменского государственного университета. 2009.

5.№1. С. 227-234.

6.Князева, Е. Н. Антропный принцип в синергетике // Вопросы философии. 1997. № 3.

7.Пономаренко, Е. В. О принципах синергетического исследования речевой деятельности/ Е.В. Пономаренко// Вопросы филологии. 2007. № 1. С. 14-23.

8.Пономаренко, Е. В. Системность функциональных связей в современном английском дискурсе : дис. д-ра филол. наук.

9.М., 2004. 447 с.

10.Хакен, Г. Синергетика. М. : Мир, 1980. С. 404.

Faridaxon TURSUNOVA,
FarPI dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori



ABDULLA QODIRIYNING HAJVIY XARAKTER, PERSONAJ QIYOFASI – PORTRETINI YARATISH MAHORATI

Annotatsiya: maqolada Abdulla Qodiriyning hajviy asarda xarakter, portret yaratishdagi mahorati ochib berilgan. Hajviy qahramon nutqi va tashqi qiyofasidagi o'ziga xoslik misollar yordamida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *qahramon xarakteri, portreti, portretning o'ziga xosligi, individuallik, tashqi qiyofa, ruhiy holat.*

Аннотация*:* в статье раскрывается мастерство Абдуллы Кадири в создании персонажа и портрета в комической пьесе. На примерах проанализирована оригинальность речи и внешности комического главного героя.

Ключевые слова: *героический характер, портреты, оригинальность портретов, индивидуальность, внешность, настроение.*

Annotation: the article reveals the skill of Abdullah Qadiri in creating a character and portrait in a comic play. Using examples, the author analyzes the originality of the speech and appearance of the comic protagonist.

Key words: *heroic character, portraits, originality of portraits, individuality, appearance, mood.*

Har qanday ijodkor hayotni har tomonlama chuqur o'rganib, ko'rgan-kechirganlarini yuksak badiiy shaklda aks ettirishga harakat qiladi. Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga salmoqli hissa qo'shgan buyuk iste'dod sohibi Abdulla Qodiriy har bir asarini hayotda o'zi ko'rgan va guvohi bo'lgan voqealar asosida yozadi. Adib o'z ijodi davomida har doim Aristotelning so'z san'atiga xos asosiy fazilatlardan biri "fikr teranligidir" degan o'gitiga amal qilgan. Bu fazilat yozuvchidan tasvirlanayotgan voqeaning mohiyati, qahramonlar yashayotgan sharoitga daxldor bo'lgan narsa va hodisalarni aniq, lo'nda, ishonarli ifodalay olish mahoratida namoyon bo'ladi. Adibning so'z tanlash mahorati borasida 20-yillarda o'zbek adabiyotiga kirib kelgan yoshlar o'rtasida "Oltoy" taxallusi bilan tanilgan shoir shunday xotirlaydi: "Abdulla aka o'z so'zida, adabiy asarda badiiy tasvir, detal va tafsilotlar chuqur fikrlar bo'lmasa, u adabiy asar bo'lishi qiyin. Adabiyot – hayot deganimiz. Yozuvchi hayotni o'zining dunyoqarashi, g'oyaviy tushunchasi orqali, jozibali so'zlar bilan tasvirlab ko'rsatishi lozim deb bilardi".[1] Chindan ham Qodiriyning bu fikrlari asosli ekanligi asarlaridagi qahramonlarning tashqi qiyofasi bilan ichki dunyosini uyg'un holda tasvirlashidan ko'rinib turadi. "Kalvak maxzumning xotira daftaridan" asarida maxzumni juda qoyillatib so'zlatadi. Chunki muallif fikrini o'ziga olgan qahramon nutqi aslida o'z yo'nalishini yo'qotmaydi va o'ziga xos ohang hamda intonatsiyalarni saqlab qoladi. Uning nutqida namoyon bo'lgan tasvir joziba kuchi bilan kitobxonni o'ziga maftun etadi. Adib tasvirda nutqni xalq tiliga nihoyatda yaqinlashtiradi. Asardagi realistik hajviy xarakterdagi obraz – Kalvak maxzum bo'lib, u xarakteri kulgili, portreti achinarli, hayoti fojiali obrazdir. Shu sababli kitobxonda goh nim tabassum, goh achchiq kinoyali, goh fosh etuvchi kulgu almashib turadi. Masalan, *Bul kasalim asnosida cho'b-ustixon bo'lub,* ***samovarning ichidan ko'rinaturgan ajiva aksdek*** *bo'lub, kishilar hazar qilaturg'on darajaga yetub, me'dam xazimadan qolub, taom botmay, ammo endilikda volidai muhtaramayn faqirni yurmasdanoq tinchgina yeguligimni yeb, o'lturishimgagina rozi bo'lg'on edilar.[2. 252.]* Maxzumning olti yoshida qadam bosishi munosabati bilan o'tkazilgan "oyoq to'yi"da nafsini tiyolmay, qozonga tashlangan echkining go'shtini to'yib yegani, mehmonlar ushatgan turshak, magiz, qurtlarni paqqos tushirib, yurolmay qolib, ichi ketishi, ko'ngil aynishi, buning evaziga eti suyagiga yopishib qolganligini tasvirlash orqali yozuvchi kitobxonda achinish hissini uyg'otadi. Maxzum o'zining tashqi qiyofasini kuldirib tasvirlashi orqali ichki dunyosining naqadar jirkanch, kirlangan, mog'or bosgan ekanligini o'z nutqi orqali yaqqol namoyon etadi. Asarda adib odatiy tasvirlardan emas, teran falsafiy va estetik ma'nolar singdirilgan, o'quvchini o'ziga xushyor torttiradigan detallardan unumli foydalanadi. Qodiriy o'quvchiga ishonarli bo'lgan bunday tasvirlar yordamida asarning hayotiyligi va badiiyligi darajasini oshirib, ko'zlagan maqsadiga erishadi, o'zini qiynayotgan, yuragi qatlarida yashirinib yotgan armonlarini ochib tashlaydi. U qahramonlari xarakteri va dunyoqarashini yorqin bo'yoqlarda shunday aks ettiradiki, kitobxon qahramonning quvonchiga sherik bo'ladi va uning ayanchli ahvoliga achinadi.

Hajviyalarda xarakterning tashqi holat o'zgarishlari, portret chizgilari, tashqi qiyofa detallari, ruhiy hayotning nafasi bilan qahramonning so'zlash ohangi, personajning rangin nutqi orqali ishonarli tarzda ochib beriladi. Hajviy qahramonning kim ekanligi, qaysi tabaqaga mansubligi, qanday oilada kamol topishi, dunyoqarashi, madaniyati, ma'naviyati, xulq-atvori uning nutqida mujassamlashadi.

Qodiriyning portret yaratish, tabiat manzarasini qahramon ruhiyati bilan chambarchas bog'liq holda

tasvirlashi hajviyalarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Aniqsa, Kalvak maxzum portreti aniq va mukammal ishlangan, ishonarli tasvirlangan. Bunda adib so‘zdan mahorat bilan foydalangan, ularni joylashtirishga alohida e’tibor qaratadi va qahramonning yuzidagi ifoda, ko‘z, mimika, xatti-harakatdan tashqari, uning qaysi millatga mansubligi, ijtimoiy kelib chiqishi haqida ham kitobxonda tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Uning qiliqlari, yurish-turishi, kiyinishi, o‘zini tutishi ma’naviyatini ko‘rsatadi. Masalan, Kalvak maxzumning madrasaga o‘qishga borishi uchun tikilgan sarupolar, ro‘zi dushanbada nonushtadan so‘ng yasanib yo‘lga chiqishi tasviriga e’tibor qarataylik: “oq surfdan yoqasiga iroqi jiyak tutilg‘on ko‘ylak, olti gaz surfdan kashta tikilgan belbog‘ va yana burun artish uchun gul tikilgan ro‘mol”[3.374-b.] belbog‘iga qistirib qo‘yiladi. Qahramonning bunday kiyinishi uning qanday oilada ulg‘ayganligi, ota-onasining unga ko‘rsatgan g‘amxo‘rligi haqida ma’lumot beribgina qolmay, uning kiyinish madaniyati va o‘zini tuta bilish odobi, ma’naviyati haqida ham o‘quvchida tasavvur hosil qilish imkonini beradi, bu esa badiiy so‘z vositasida chizilgan tashqi qiyofasi – portreti. Kalvak maxzumning gap ohangi, o‘ziga xos qiliqlari va turli ruhiy holatlar munosabati bilan uning yuzida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar (mimika) ham portret sanaladi.

Kalvak maxzum o‘zining portretini o‘z so‘zlari bilan shunday chizib beradiki, o‘quvchi uni faqat tasavvurida jonlantirib qolmay, balki ko‘zi bilan ko‘rgandek ham bo‘ladi. Adib “so‘zlab berish”dan ko‘ra, “ko‘rsatib berish”ni afzal deb biladi. Kalvak maxzumning nafaqat tashqi qiyofasi, balki tashqi ta’sir orqali shakllangan qalb olami, ichki dunyosi, ichki ruhiy holatida sodir bo‘layotgan g‘alayonlarni mahorat bilan tasvirlaydi. Kalvak maxzum o‘z nutqi orqali portretini mukammal chizib beradi: *“nazir boshim **kesak qisqon qovundek** qiyshiq bo‘lib, jovdirlog‘on ko‘zim qassobdan **et** olib, baqqol bilan muomala qilaturg‘on darajaga yetibdur. Ammo faqirning qorni kundan-kunga **g‘ovlagan tarvuzdek** o‘sib, bul ma’nidin padar birlan volida “bolamiz qorin sola boshladi”, deb benihoyat xushnud bo‘lar ekanlar.[250-b.]*

Tashqi ko‘rinish qahramon xarakteriga ham ishora qiladi. Bunday qiyofa tasvirida muallifning personajga munosabatini ko‘rish mumkin. Qodiriyning ***kesak qisqon qovun, et, g‘ovlagan tarvuz*** kabi detal va tashbehlardan foydalanishining boisi, bu detallar kitobxonga hajviy personaj qiyofasini aniq, yorqin, jonli tasavvur qilish imkonini berish bilan birga unda kuchli kulgi hamda achinish hissini qo‘zg‘atadi. Adib Kalvak maxzum portretini yaxlit yaratibgina qolmay, asar davomida uning qiyofasini yo‘l-yo‘lakay to‘ldirib boradi. Ayniqsa, ***kesak qisqon qovun, g‘ovlagan tarvuz*** kabi tasvirlar uning qiyofasini yanada bo‘rttiradi, to‘ldiradi va undagi bo‘yoqlarni tiniqlashtiradi. Maxzumning o‘z nutqi orqali berilgan misollarda uning bolaligida uzoq vaqt yurmasdan bir yerda yotaverganidan, boshining kulgili qiyofaga kelib qolganligi, olti yoshgacha yurmay, bir yerda o‘tirib tinimsiz ovqat iste’mol qilganidan, qorni tarvuzdek katta bo‘lib ketganligi g‘ovlagan tarvuzga o‘xshatilishi o‘ta kulgili hol bo‘lib, kitobxon ko‘z o‘ngida polizda dumalab yotgan qiyshiq qovun va palak yozib g‘ovlab ketgan tarvuz gavdalanib, o‘quvchida aniq tasavvur uyg‘otadi. Abdulla Qodiriy qahramonlarining tashqi qiyofasidagi achinarli ko‘rinishni bo‘rttirib ko‘rsatishda mubolag‘adan o‘rinli foydalanadi: “... *Agarda o‘zingizga ham chechak chiqqan bo‘lsa sezarsiz: misoli yuzingiz **g‘alvirak bodom...** Ammo faqirning yuzimda ba’zi chandiqlar ham zuhurga kelgani uchun go‘yoki **husni Yusuf** bizda xotima topdi... agar siz bir hovuch **tariq**ni yuzimizga qaratib sepsangizda, bir dona yerga tushsa, biz benavat”.[367-b.]*

Yuqoridagi misollarda o‘ta ziyraklik va badiiy did bilan tanlangan bunday o‘xshatish etalonlari tasvir obyektini yanada oydinroq yoritish imkonini beradi. Adib qahramon tashqi qiyofasi tasviri orqali jamiyatdagi qoloq, jirkanch din ulamosining bolaligidan achinarli qismatini, uning yuzidagi nuqsonlarini, boshidan kechirganlarini qahramon nutqi orqali tasvirlab beradi. Qodiriy hajviy qahramoni tashqi ko‘rinishini yanada chuqurroq ochish, qirralarini bo‘rttirib ko‘rsatish uchun o‘zlariga tanish bo‘lgan narsalardan foydalanib tasvirlashga katta o‘rin beradi. Bunday detallashtirilgan predmet orqali qahramonning kimligi va qandayligi kitobxonga yanada aniqroq ko‘rinadi. Bunday tasvirlar qahramon nutqining o‘ziga xosligi, ruhiy holatlarining jonli va kulgili chizilganligi, o‘z o‘rnida qo‘llanilgan tasviriy vositalar hajviya badiiyatini, satirik obrazning jonli chiqishini ta’minlagan. Portretda yozuvchi qahramonning tashqi qiyofasi orqali o‘zining ichki dunyosi va xarakterini yorqin aks ettirgan.

Abdulla Qodiriy satirik obraz yaratishda ko‘proq qahramonning o‘zini so‘zlatish, hayot voqealariga, yangi kishilarga bo‘lgan munosabatini uning o‘z nutqi orqali bayon qilish yo‘lidan boradi. Hajvchilikning bu usulida muallifning piching va kinoyalariga alohida diqqat bilan qarash lozim bo‘ladi. Yozuvchi o‘z qahramonining tashqi qiyofasidagi belgilarni aniqlash va bo‘rttirish bilan cheklanib qolmay, uning ichki va tashqi dunyosining uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan so‘zlarni tanlaydi. Adib qahramon xarakterini iloji boricha xolis turib ifodalashga harakat qiladi. Asarni o‘qiganlar qahramonning fazilatidan ham, illatidan ham to‘g‘ri xulosa chiqaradi. Hajviyada Kalvak maxzum o‘z sarguzashtlarini o‘zi hikoya qilib, o‘z xarakteri va portretini o‘zi chizib beradi. Bu hajviy qahramon nutqi g‘oyat tabiiyligi, yuksak darajada shaxsiylashganligi bilan xarakterlanadi. Nutq qahramonning sajiyasiga, dunyoqarashiga, ruhiy olamiga juda ham mos tushadi. Asardagi qahramon o‘zining orzu-istaklari, o‘y-xayollari, g‘am-u tashvishlari bilan kitobxonni o‘ziga oshno qiladi. Qahramon portretini uning ruhiy olami va zohiriy ko‘rinishi bilan uyg‘un holda tasvirlanishi, qahramonlari real hayotdan olinganligi,

real voqelikda harakat qilishining ishonarli tarzda chizib berilishi adibning yuksak badiiy mahoratini ko‘rsatib turibdi. Qodiriy qahramoni o‘z portretini o‘zi chizib berar ekan, u orqali o‘zining ma’naviy qiyofasi, ichki dunyosi, ruhiy olamini kitobxon ko‘z o‘ngida namoyon etadi. Qodiriy qahramonini so‘zlatib, o‘z xarakteri va portreti tasviri orqali uning o‘ziga xos tomonlarini ochib beradi. U tasvirda shu qadar aniqlikka intiladiki, qahramonning tashqi qiyofasi, kayfiyati, kiyinishi, o‘zini tutishi, xatti-harakati – hech birini nazardan chetda qoldirmaydi, bularning barchasi o‘quvchi ko‘z o‘ngida oynadek aks etib, asarga ko‘tarinkilik bag‘ishlaydi.

Yozuvchi qahramon obrazini gavdalantirar ekan, xarakter, portret va o‘ziga xoslik yaratish uchun monologik nutqdan shunday mahorat bilan foydalanadiki, ularni o‘z nutqi orqali ma’naviy qiyofasini, ruhiy olamini jonlantiradi, bu olamni harakatga keltiruvchi ichki va tashqi omillar to‘g‘risida tugal va yaxlit tasavvur beradi. Tasvirdagi qahramon, muhit va sharoit munosabati konkret ko‘rinishga ega. Xarakterlar xatti-harakati, ichki dunyosi, fe’l-atvorlari, yashash sharoitlari va kechinmalari doirasi o‘sha davr voqealari bilan izohlanadi. Qahramon nutqi orqali nafaqat, uning xarakteri, portreti, balki jamiyatdagi diniy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy muammolarni ochib tashlaydi. Hajviyada qahramon tashqi qiyofasini yoritishda so‘z va iboralardan unumli foydalangan holda, qahramon nutqi orqali davr illatlarini ro‘yi-rost ochib tashlaydi. Xarakter yaratishda o‘zbekona zukko iboralar bilan birga samimiy kulgi qo‘zg‘atadigan holatlarni ham qahramon xarakterida bera olgan. Hajviy xarakterning tashqi qiyofasidagi o‘ziga xoslikni belgilashda qahramonning o‘z so‘zlari orqali tasvirlab berishi muallif nutqiga qaraganda ishonarli chiqqan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов Н. Абдулла Қодирий қаерда ўқиган?/ Ўзбек адабиёти ва санъати. 2013 йил. 10 июль. №13.
2. Мисоллар: Қодирий Абдулла. Диёри бакир. III жилд. –Т. «Info Capital Group” нашриёти, 2018. –B.568.
3. Tursunova F. G‘. Hajviy asarada monologik nutqning o‘ziga xos xususiyatlari (Abdulla Qodiriy asarlari misolida) f.f.b.f.d. diss.–Farg‘ona. 2013.

Sobira JO‘RAYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbek filologiyasi fakulteti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.
sobirajorayeva65@gmail.com

SHUKURIY IJODIDA KICHIK JANRLAR

Annotatsiya: Shukuriy Sharq mumtoz nutq san’ati maktabida tarbiyalangan, Hofiz Sheroziy, Alisher Navoiy, Fuzuliy kabi buyuk shoirlarning ijodiy tajribalaridan saboq olgan iste’dodli qalamkashdir. Uning mahorati o‘zidan oldingilarga ergashib, o‘z fikrlarini turli badiiy vositalarda tasvirlashda yaqqol namoyon bo‘ladi. Darhaqiqat, har qanday shoirning mahorat saviyasi uning o‘z fikrini yangicha va ta’sirchan ifodalashi bilan baholanadi.

Ma’lumki, badiiy san’at Sharq poetikasining alohida yo‘nalishi bo‘lib, mumtoz poetika mutaxassislari she’riy san’atni ikki katta guruhga bo‘ladilar.

Kalit so‘zlar: *badiiy asar, Sharq poetikasi, mumtoz she’riy, she’riy san’at, so‘z san’ati, talmeh, tamsil, mubolag‘a.*

Annotation: Shukuri is a talented penman who was brought up in the school of classical speech art of the East and learned from the creative experiences of great poets such as Hafiz Sherozi, Alisher Navoi, Fuzuli. His skill is evident in following his predecessors and portraying his thoughts in various artistic mediums. In fact, the level of skill of any poet is judged by his new and impressive way of figuratively expressing his thoughts.

It is known that artistic arts are a special direction of Eastern poetics, and experts of classical poetics divide poetic arts into two large groups.

Key words: *artistic work, Eastern poetic, classical poetic, poetic art, verbal art, talmeh, tamsil, exaggeration.*

Аннотация: Шукури — талантливый писец, воспитанный в школе классического речевого искусства Востока и научившийся творческому опыту таких великих поэтов, как Хафиз Шерози, Алишер Навои, Физули. Его мастерство проявляется в следовании за предшественниками и изображении своих мыслей в различных художественных средствах. Фактически, уровень мастерства любого поэта оценивается по его новому и впечатляющему способу образного выражения своих мыслей.

Известно, что художественные искусства являются особым направлением восточной поэтики, а специалисты по классической поэтике делят поэтические искусства на две большие группы.

Ключевые слова: *художественное произведение, восточная поэтика, классическая поэтика, поэтическое искусство, словесное искусство, талмех, тамсил, преувеличение.*

Ma’lumki, she’riyat Sharq mumtoz adabiyotining asosiy qismini tashkil etadi. Sharqda hatto ilmiy-falsafiy asarlar ham nazmda yaratilgan. Abu Ali ibn Sino urjuzalari, qator tibbiy risolalar, falsafiy manzumalar shular jumlasidandir. Abu Rayhon Beruniy hindlar she’rda yozilmagan asarlarni hatto qo‘llariga ham olmaganlari haqida ma’lumot beradi. Natijada, Sharqda she’riyat haddi a’losida taraqqiy etib, katta-kichik rang-barang janrlarga ega bo‘ldi. Adabiyotshunos I.Haqqul “O‘zbek adabiyotida ruboiy” monografiyasida bu borada shunday fikrlarni aytgan: “O‘zbek klassik adabiyoti lirik janrlarga boy. Bu janrlar shaklda ham, mazmunda ham o‘zlariga xos sifatlarga ega. Ularning ruh, uslub, obrazlar sistemasi jihatidan ham bir-biridan farq qiladigan qirralari ko‘p. Xullas, klassik she’riyatimizdagi janrlarning har biri mohiyat e’tibori bilan o‘zicha bir olam, ma’no, mahorat va badiiyat xazinasi»[1] .

Professor olim A.Hayitmetov qit’a haqida shunday fikrlarni bayon etgan: “Qit’a janriga dastlab fors-tojik adabiyotida keng shuhrat qozongan shoir Ibn Yashin Faryumadiy (XIV asr) bo‘ldi. U mingga yaqin qit’a yozib, ulardan maxsus devon (“Devoni muqattaot”) tuzgan. Ibn Yamin qit’alari tunni yoritgan chaqmoq, dushmanga otilgan o‘q bo‘lib, ularda feodal zulmiga, mo‘g‘ul istibdodiga, axloqsizlikka qarshi g‘oyalar shoirona go‘zal va keskin ifodalangan”[2].

Bu janr Alisher Navoiy ijodida salmoqli o‘rin egallaydi. Shoir qit’alari mazmuniga ko‘ra boy, g‘oyaviy jihatdan rang-barangdir. Lutfiy, Hofiz Xorazmiy, Munis, Ogahiy kabi o‘nlab so‘z san’atkorlari ajoyib qit’alar yaratganlar.

Adabiyotshunos R.Orzibekov o‘zbek adabiyotida qit’a o‘z o‘rnini boshqa janrlardagi asarlarda ham davom ettirganligi haqida shunday ma’lumot beradi: “XVI–XIX asrlarda qit’achilikdagi eski an’analar davom ettirilib, qit’aning g‘azal, tuyuq, chiston, ta’rix va masnaviy formasida yozilgan namunasi ham yaratildi. Shuning uchun bu davrlar qit’achiligini shartli ravishda: a) g‘azal-qit’alar; b) ta’rix-qit’alar; v) masnaviy-qit’alar shaklida belgilab o‘rganish mumkin. G‘azal-qit’alar shakl jihatidan g‘azalga ham, qit’aga ham o‘xshaydilar”[3].

Shukuriy ham qit’a janrida qalam tebratib, uning o‘zbek adabiyotidagi taraqqiyotiga hissa qo‘shdi. Xususan, Amir Nasrulloning bosqinchilik yurishi haqidagi qit’a diqqatga sazovordir. Katta hajmdagi mazkur qit’a-ta’rixi quyidagi sarlavha bilan boshlangan: “Shohi jahonpanoh, sultoni shariatdastgoh, ya’ni zillulloh Sayyid Amir Nasrulloh bir safari kasir uz-zafarda Muhammad Alixon Qo‘qoniyning kulli mamlakatni ko‘lga olib, oning zurriyoti birla vujud iqlimidan adam sahrosig‘a yuborg‘oni”[4].

Shukuriy qit’a janriga tez-tez murojaat qiladi. Xususan, zamonadan shikoyat yoki amaldorlarning xalqqa qilgan shafqatsizliklari bilan bog‘liq noroziliklarni bayon etib, keng qamrovli ta’rix-qit’alarini yaratdi. Shoirning “Arzi duo namudani Shukuriy ba shukronai rasidani sarupoyi mukammal az janobi Sultoniy” deb nomlanuvchi qit’asi shunday qit’alardan biri. Davr ruhi, undagi shafqatsiz voqealar aks etgan mazkur ta’rix-qit’a quyidagicha boshlanadi:

Ey shahanshohi zamon, soyai nuri G‘affor,
Homiyi dini nabiy, xusravi iqlimmador.
Dargahing takyagahi jumla xavos ila avom,
Karaming shomili ahvoli sig‘or ila kibor.
Bu tilamchig‘a o‘shal chog‘i karomat bo‘ldi,
Po‘stin ila dog‘i fo‘ta, kafshu dastor.

O‘n besh baytdan iborat bo‘lgan bu qit’asida shoir o‘z arz-u duolarini bayon etadi. Keltirilgan misralarda shoir Xudoning yerdagi soyasi bo‘lmish zamon Sultonini madh etadi. Birinchi baytda “Ey zamon shahanshohi, Yaratuvchi nurining soyasi, Payg‘ambar, ya’ni Muhammad alayhissalom dinining homiysi, mamlakatning tayanchi bo‘lgan podshoh”, deya murojaat qiladi, ikkinchi baytda esa uni “dargohing xosu avomning suyanadigan joyi, karaming esa kattayu kichikka barobar” deb ta’riflaydi. Keyin maqsadga ko‘chib, “Sening marhamating bilan bu bechora gadoga ham belbog‘u sallayu kovush tegdi”, – degan shukronaligini izhor etadi.

“Hamdi Xolloliqi ul Robbi tamomi olam” misrasi bilan boshlanuvchi qit’a-ta’rixi esa Shukuriyning Allohning hifz-u himoyatiga umidvorligi izhoridir. O‘ttiz besh baytdan iborat bo‘lgan bu she’r shunday boshlanadi:

Lutf qil, yo Rab anga nusratu baxtu iqbol,
Tig‘i zarbidin aduv haylini qil sohibi ram.
Sarsari hodisadin sarvig‘a yetkurma nasim,
To quyosh boricha qil gulshani umrin xurram.

Bu qit’ada ham shoir Xudoga munojot qilib, podshohi zamonni o‘z hifz-u himoyasida asrashini, uning dushmanlar ustidan g‘olib bo‘lishini, uzoq umr ko‘rishni tilaydi, Sulton haqiga samimiy duolar qiladi.

Shukuriy devonida sharqda keng tarqalgan janrlardan biri – ruboiyning ham o‘ziga xos o‘rni bor. Ruboiylarning turkiy va forsiyda bitilganligi ham e’tiborga molik. Shoirning bizga ma’lum devonida to‘rtta turkiy, beshta forsiy ruboiysi mavjud. Ma’lumki, ruboiy sharq poetikasida belgilangan maxsus vaznlarda yoziladi. Ruboiy vaznining o‘ziga xosligi va imkoniyatlari to‘g‘risida A.Navoiy va Z.M.Bobur ham to‘xtalib o‘tgan. Ruboiyning mavzu ko‘lami nihoyatda xilma-xil bo‘lganligi bois uning ohanglari ham bir-biridan farqlanadi. Masalan, axloqiy, ijtimoiy, falsafiy

1 Ҳаққулов. И. Ўзбек адабиётида рубоий. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 4.
2 ҲайитметовА. Адабий меросимиз уфқлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – Б. 203.
3 Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – Б. 30.
4 Абдушукур Шукурий. Девон. – Тошкент: Наврўз, 2018. – Б. 18.

mazmundagi ruboiylarning ohangi bilan ishqiy va vatanparvarlik ruhidagi ruboiylarning ohangdorligini bir-biriga nisbat berib bo‘lmaydi. Ruboiy so‘zda ham, fikr va tasvirda ham ixchamlikni talab qilganligi uchun ruboiynavis san’atkorlik talablariga to‘liq rioya qilishga majbur bo‘lgan. Shukuriy ham shunday shoirlardan biri. Devondagi ruboiylarni shoirning o‘zi ruboiylar deb atasa-da, ular ruboiy uchun belgilangan vaznda emas. Shunga qaramay, mazmun jihatdan qimmatli hisoblanadi. Shoir o‘z devoni debochasida ham ruboiy janriga murojaat etgan va ruboiy deb nom qo‘ygan:

Agar baqoiy hayoting bo‘lunsa yuz ming yil,
Qilib bu umr ila tarixida ta’jil.
Hanuz lutfini mingdan biriga arzimagay,
Yaqindur ushbu so‘zum, oqillar muqarrar bil[1].

Shoirning bu ruboiysi chuqur va o‘tkir falsafiy mazmuni bilan o‘zbek ruboiynavisligining yaxshi namunalari qatorida turadi. Debochasida ikkita ruboiy o‘rin olgan. Birinchisi falsafiy mazmunda. Ikkinchisida esa hukmdorlarning saxovati haqida so‘z yuritiladi:

Ahado, shahga hama dahr eli tasxir o‘lg‘ay,
Nusrat avjida quyosh yanglig‘ jahongir o‘lg‘ay.
Men kabi bir necha mustanib aning dargohida,
Kimyoi nazari davrida iksir o‘lg‘ay.

Shukuriyning devon tuzishini hukmdor ham qo‘llab-quvvatlagan. Debochada buni tasdiqlovchi quyidagi fikrlar ham mavjud: “Bu kamina aqidatshior ixlossosar naqqoshlig‘ xizmatin orasida goh qasidai toza, goh g‘azali ja¬dida mashq qilib, shohi olampanohi Humoyun janobg‘a umi¬di maqbullig‘ birla manzuri nazari muborak qilur erdim. Nochor ul hazratning farmoyishin vojib bilib, nafasi muborak xosiyatidin ionat topib, devon jamiyatig‘a qo‘shish qildim”[2].

“Darhaqiqat, har qanday adabiy janrning g‘oyaviy-estetik qimmatini belgilovchi asosiy mezon bu ma’no. Ma’no butligi va chuqurligi uchun xizmat ettirilmagan janr, san’atkor mahoratidan qat’i nazar, shaklbozlik namunasi bo‘lib qolaveradi. Ruboiy tabiatiga xos yetakchi xususiyat – falsafiylik”[3]. Shu ma’noda Shukuriy ruboiylarida ham shakl va mazmun, suvrat va mohiyat uyg‘undir.

Uning ruboiylari g‘oyaviy-badiiy jihatdan puxta-pishiq asarlardir. Shuni nazarda tutishimiz kerakki, har bir davr, jumladan, XIX asr boshlarida ijod etgan shoirlar she’riyatida hukmdorlarga murojaat tez-tez uchrab turishi bu tabiiy hol edi. Zero, mumtoz adabiyotdagi deyarli barcha asarlar hukmdorlarga bag‘ishlangani barchaga ma’lum. Xususan, Shukuriy ijodida ham bunday hollarning mavjudligi davr ruhi bilan bog‘liq edi.

Muruvvat birla sultoni jahondor
Menga lutfu inoyat qildi izhor,
Shiorim ul eshikda erdi doim,
Gahi naqshi imorat, gahi ash’or.

Bu to‘rtlik hazaji musaddasi maqsur (mafoiylun ma¬foiylun mafoil (– V – – – \ V – – – \ V – –) vaznidadir.

Shukuriy lirikasida qit’a va ruboiylarning o‘rni bor. Qit’a va ruboiylarda ishqiy, axloqiy, falsafiy mavzulardan tashqari, ijtimoiy motivlar, satirik elementlar ham uchraydi. Bular Shukuriyning o‘sha davrdagi lirikasining yana bir xarakterli xususiyatidir.

1 Ўша манба. – Б. 10.

2 Ўша манба. – Б. 12. Шу маънода Шукурий рубоийларида ҳам шакл ва мазмун, суврат ва моҳият уйғундир.

3 Ҳаққулов И. Ўзбек адабиётида рубоий.. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 41.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Мугинов А.М. Уникальное собрание поэтических сочинений среднеазиатиского поэта XIX в. Шукури. Известие АН Туркменский ССР, 1959. Т. 6. – С. 125.
2. Muhabbat taronalari. Ruboiylar (Fors tilidan Ergash Ochilov tarjimalari). – Toshkent: Sharq, 2005. 259-bet.
3. Navoiy asarlari lug‘ati / Tuzuvchilar: P.Shamsiyev, S.Ibrohimov. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972. 784-bet.
4. Nosirov O. O‘zbek klassik she’riyati janrlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979. 183-bet.
5. Nosirov U. Obrazlarda uslub jilolari. – Toshkent: Fan, 1991. 196-bet.
6. Orzibekov R. Lirikada kichik janrlar. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976.
7. Orzibekov R. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Adabiyot jamg‘armasi, 2006. 272-bet.



Yulduz MUSTAFAYEVA,
ToshDO‘TAU magistranti
Ilmiy rahbar: Gulnoza Jurayeva f.f.d, prof.
mustafayevayulduz333@gmail.com

NAZAR ESHONQULNING “AJR” HIKOYASIDA RAMZIY OBRAZ VA POETIK MAZMUN

Annotatsiya: mazkur maqolada Nazar Eshonqulning “Ajr” hikoyasining poetik mazmuni tahlil qilinib, bir necha ramziy obrazlar talqinida hikoyaning asl mohiyatini tushunish tasvirlanadi. “Ajr” hikoyasining chuqur falsafiy va ijtimoiy ma’noga egaligini, inson hayotidagi qilmish va jazoning muqarrarligini, vijdon azobining cheksizligi va insoniyat tarixidagi adolatsizliklarni ifodalab beradi. Yozuvchi bu hikoyasida padarkush tushunchasiga badiiy nuqtayi nazardan yondashadi va bugunning padarkushini tarixiy padarkush bilan uyg‘unlikda ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: *ajr, hayotiy manzara, shaxsiy konsepsiya, yosdig‘, ramziy obraz*

Аннотация: в данной статье проводится анализ поэтического содержания рассказа Назара Эшонкула “Ажр”, где раскрывается суть произведения через интерпретацию ряда символических образов. “Ажр” - это рассказ, обладающий глубоким философским и социальным смыслом, отражающий неизбежность поступков и возмездия в человеческой жизни,безграничность мук совести и несправедливость в истории человечества. В своем произведении автор художественно подходит к понятию “патрицида” и показывает современного “патрицида” в созвучии с историческим “патрицидом”.

Ключевые слова: *возмездие, жизненный пейзаж, личная концепция, подушка, символический образ.*

Annotation: this article analyzes the poetic content of Nazar Eshankul’s story “Ajr” and describes the understanding of the true essence of the story in the interpretation of several symbolic images. The story of “Ajr” has a deep philosophical and social meaning, the inevitability of actions and punishments in human life, the infinity of conscience and injustices in human history. In this story, the writer approaches the concept of padarkush from an artistic point of view and shows today’s padarkush in harmony with historical padarkush.

Key words: *ajr, “life” landscape, personal concept, pillow, symbolic image*

Kirish. Adabiyotning azaliy mavzusi inson.To‘g‘ri, u qahramon qilib olgan inson.Zamon bilan, uning muammolari bilan yuzma-yuz turgan shaxs. Adib insonni yuzida va qalbida balqib turgan zamon bilan yaxlit holda, zamon bilan munosabatga kirishgan holatda, davr bilan ma’naviy-ruhiy tippa-tiklikda tasvirlasa ham, baribir, kundalik mavzularning izidan quvib yurishi shart emas [1:9].Nazar Eshonqul ijodini kuzatar ekanmiz, hikoyalarida, qissalarida bugungacha kuzatilmagan holatlar mavjud.Nazar Eshonqul asarlarida bosh qahramon hayotida kechayotgan ruhiy evrilishlarga, tarixiylik va bugungi kunning “hayotiy” manzarasiga duch kelamiz. “Ajr” hikoyasi ijodkorning shaxsiy konsepsiyasini belgilab bergan hikoya desak bo‘ladi.Chunki bu hikoyada ham tarix, ham kelajak hamohang yoritilgan.Nazar Eshonqul tomonidan 1987-yilda yozilgan “Ajr” hikoyasi chuqur falsafiy va ijtimoiy ma’noga ega bo‘lib, inson hayotidagi qilmish va jazoning muqarrarligi, vijdon azobining cheksizligi va insoniyat tarixidagi adolatsizliklar haqida o‘ylashga undaydi. Hikoyada real va ramziy obrazlar, o‘tmish va bugungi kunning ziddiyatlari, insonning hayotiy tanlovi va uning oqibatlari tasvirlanadi. Hatto hikoyaning nomi ham uning ichki tasvirini ochiq ko‘rsatib turibdi. Hatto hikoyaning nomini ham bir qancha qarashlar bilan tahlil qilsak bo‘ladi. Ajr so‘ziga O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasida shunday ta’rif berilgan.**Ajr (arab.- to‘lanadigan haq, mukofot) – islomdagi tushuncha. Qur’onga ko‘ra, odamlar bu dunyodagi yaxshi ishlari uchun oxiratda ajrini topadi, ya’ni nasib etgan mo‘min-musulmonlarga savobli ishlari evaziga turli maqom va martabalar, noz-u ne’matlar beriladi** *[2:20].* Bizning tahlilimizga ko‘ra ajr bu: 1. Hikoyada qahramon o‘z yomon amallari uchun faqat azobni mukofot sifatida oladi.2.Hikoyada qahramon sevgi (Zubayda)ni majburlagani uchun yolg‘izlikka mahkum qoladi.3.Hikoyada qahramon otasiga munosib farzand bo‘lolmay “Padarkush” mukofotini oladi.

O‘quvchi hikoyani mutolaa qilar ekan, o‘g‘il obrazida “zamonaviy padarkush”ga duch keladi. Uning ruhiyati va xarakterini, biz ko‘rmagan jihatlarini hikoyaning boshqa qahramonlari: ota va Zubayda ochib beradi. Shu o‘rinda “Padarkush”ga to‘xtalsak, chindan ham hikoya qahramoni o‘g‘ilni “Padarkush” deyishimiz to‘g‘rimi? Balki uning ham qalbida mehr bordir.Balki shu davrning tuzumi uni padarkushga aylantirgandir. Balki uning padarkush bo‘lishiga otaning o‘zi aybdordir, degan savollar tug‘iladi. Bu kabi savollarga esa kitobxon javobi turlicha bo‘ladi.Va o‘g‘ilni hikoyaning ikkita obrazi Zubayda va ota tomonidan kuzatsak ikki-

ta insonni ko‘rishimiz mumkin. Bir tomondan Zubayda uning ham yuragida, ruhiyatida-insoniy mehr-muhabbat (yor sevgisi), go‘zallikni tushunish, iztirobni, iqrorni, aybdorlik hissini ko‘rsatsa. Ikkinchi tomondan ota uning xudbin, yomon farzand, barcha otalarning dushmani - ichidan chiqqan “chayon”i ekanini ochib beradi.

Nazar Eshonqulning “Ajr” hikoyasi – o‘zining chuqur falsafiy mazmuni va badiiy obrazlar tizimi bilan insoniyat ruhiyati va hayot falsafasining sirli qatlamlarini ochib bergan nodir hikoyalardan biridir. Bu hikoyani bir marta o‘qibgina cheklanib bo‘lmaydi. Har safar uni qayta o‘qish orqali yangi ma’nolarni, yangi falsafiy jihatlarni kashf qilish mumkin. Chunki “Ajr” hikoyasi har bir satrida o‘quvchini o‘ylantiruvchi, mushohada va mulohazaga chorlovchi teran fikrlar va ramzlarni o‘zida mujassam etgan.Nazar Eshonqulning badiiy mahorati shundaki, u oddiy voqealarni falsafiy ummonga aylantira oladi.Uning hikoyasi o‘quvchini insoniyat ruhiyatining tubiga g‘arq qiladi. Bu ummonda har kim o‘ziga mos durlarni, ya’ni hikoyaning chuqur mazmunini, ramzlar va obrazlar orqali berilgan hayotiy haqiqatlarni anglab oladi.Ammo bu durlarni terib olish uchun hikoyani chuqur tahlil qilish, obrazlar va satrlar mohiyatini anglash lozim. Hikoyaning badiiy obrazlari bular: o‘g‘il (Unsur – hikoyada o‘g‘ilning ismi oxirida tilga olinadi, buni o‘quvchi ilg‘ab olishi qiyinroq), ota, Zubayda va hikoyaning asosiy mohiyatini ochib bergan (fon) obrazlar bor.

Asosiy qism. Hikoyani badiiy nuqtayi nazardan tahlil qilsak, unda falsafiy va ramziy obrazlar bor. Va bu obrazlar ijodkor tomonidan mahorat bilan tanlanganki, ularsiz hikoyani tasavvur qilish qiyinroq.Hikoyada tasvirga olingan har bir obraz, har bir detal hikoyaning falsafiyligini oshirishga xizmat qilgan. Hikoyada tizimli ravishda ramziy timsollarga ishoralar kuzatiladi. Jumladan, hikoya o‘g‘ilning Zubayda ismli qizga bergan ta’rifi bilan boshlanadi: **“...Sen qo‘shiq ayt, Zubayda, yonib-yonib qo‘shiq ayt – o‘zing ko‘rmagan bu dunyoning ranglari haqida, oftob nuri, buloq suvi, daraxt gullari, chechaklar va qizg‘aldoqlar haqida qo‘shiq ayt; sen yig‘lab-yig‘lab xirgoyi qil-u, bu qo‘shiq mening mana shu to‘qaydagi qoqi guliga, hechqursa yovshanlardan biriga aylantirsin, men seni ko‘rish va mudom birga bo‘lish uchun toki shu yulg‘unzorda qolib ketay, sening oyoqlaring tagiga qovjirab to‘kilay..”** *[3:16].*Hikoyada Zubayda obrazi - jannatning ramzi, farishta. O‘g‘il uni ta’riflar ekan uning ta’rifidan jannatni, jannat hurlarining ta’rifini ko‘rishimiz mumkin. Hikoyada Zubaydaning go‘zalligi va mohiyati oftob, gul, buloq, yulduz kabi obrazlar orqali tasvirlangan. Masalan: ***“Sening og‘ushing oftobning yotog‘iga o‘xshaydi”*** – bu yerda Zubaydaning samoviy iliqlik va tinchlik ramzi ekanligi ta’kidlangan. ***“Sen zulmat dunyoda sakrab-sakrab o‘ynab yurgan nur”*** – zulmat va nur kontrasti orqali insoniyatdagi umid va poklikning mujassamoti sifatida Zubayda ko‘rsatiladi. Ajr hikoyasining tahlili haqida Nurali Karimov o‘zining taqrizida shunday fikrlarni keltirgan: “…Hikoyadagi o‘g‘il obrazi ishchilari bilan bir kuni Ne’mat kalning to‘ng‘ich qizi bo‘lmish Zubaydani ko‘rib qoladi. U tug‘ma basir bo‘lib, yigitni o‘ziga asir etadi. Yigit uni zo‘rlaydi, Zubayda homilador bo‘lib qoladi, Ne’mat kal esa bunga chiday olmay o‘z qizini o‘ldiradi..” deb yozadi.Hikoyani qayta-qayta o‘qir ekanmiz, biz undan yana bir tahlilni chiqarishimiz mumkin, ya’ni yuqoridagi “ ..yigit uni zo‘rlaydi..” degan fikrning aksini ham ko‘rishimiz mumkin: **“...Meni sendan tortib olishadigandek bo‘ynimdan quchoqlab yig‘laganingda, bu ovloq to‘qayni pichir-pichirlaringga to‘ldirganingda, labingda tushuniksiz savollar qotganida-yu... ”** *[3:27]. Bu yerda* **“...Meni sendan tortib olishadigandek bo‘ynimdan quchoqlab yig‘laganingda..”** degan jumlaning o‘zi ham Zubaydani o‘g‘il (Unsur)ni sevganligining guvohi bo‘lamiz.

Hikoyaning asosiy qahramoni o‘g‘il insonning ichki kurashining, yomon ishlardan keyingi azobning timsolidir. U o‘zini oqlashga urinadi, lekin otasining ta’nalari va o‘z vijdoni uni tinch qo‘ymaydi.O‘g‘il insonning yovuzlikka moyilligi va undan azob chekishini aks ettiradi.

“.. ***– Bo‘ldi...- ingradi o‘g‘il. – Bo‘ldi, bas... qirq yildan beri shu bir gapni takrorlaysiz... Charchab ketdim. Bas!***

– Men-chi, men charchamadimmi? - Cholning tovushi zorlanib chiqdi. - Menga osonmi?!

– Axir qirq yil bo‘ldi! Qirq yildan beri shu savolni takrorlaysiz...Qirq yildan beri shu gap, shu ta’na! Adog‘i bormi bu yo‘lning?! Men ham odamman axir..” *[3:19].*Hikoyaning aynan shu joyidan biz o‘tmishdagi padarkushimizning qurbon “ota”si Mirzo Ulug‘bekning padarkush o‘g‘li -Abdulatifni ko‘rishimiz mumkin. **“..Shahzoda nigohi oldidagi sovuq manzarani quvish umidida ko‘k charm jildiga zarhal bezak solingan qalin kitobni oldi: Nizomiy Ganjaviy!.. Yo rab! Hozir kitobni ochganda daf’atan ko‘zi tushgan ilk misralari…tushida ko‘rgan qonli kalladan ham dahshatli edi…Shahzoda diliga dahshat solgan bu ikki baytni oxirigacha o‘qidimi, yo‘qmi, o‘zi ham bilmas edi. Lekin undagi “Padarkush, toj-u taxt, olti oy..degan so‘zlar xuddi qizdirilgan temir bilan o‘yib yozilganday miyasini jaz-jaz kuydirib, nigohi oldida yal-yal yonib turardi. “Padarkush… toj-u taxt…olti oydan oshmaydur..”** *[4:334].* Ajr hikoyasida padarkush qirq yil azob chekadi, Abdulatif esa olti oy azob chekadi. Hikoya qahramoni bilan Abdulatifning “ajr”i ya’ni mukofoti bitta bu - qilmishlari uchun azob! O‘g‘il obrazini haqiqatdan ham o‘tmish bilan bog‘lab tahlil qilsak, bu - bugungi kun Abdulatifi ya’ni “padarkushi”dir.

Ota qahramonning vijdoni va o‘tmishning guvo-

hidir.U nima qilsa ham, kim bo‘lsa ham baribir “OTA”. *“..* **Esingdami, - derdi chol o‘g‘lining harsillab qolganiga yuragi achishayotgandek va atrofdagi mudhish sukunatdan cho‘chiyotgandek shivirlab, - o‘n yilcha oldin shu yo‘lni tush ko‘rgan eding. Aynan shu yo‘lni. O‘sha tushni sen bilan bir kechada men ham ko‘rgan edim - axir qonimiz bir-da!..”** *[3:17].* Farzandi qanday bo‘lsa ham dunyoning eng gunohkor bandasi bo‘lsa ham “yuragi achishayotgan” OTA. Shu birgina tasvirdan biz bu otaning o‘g‘lini aybdor qilishi bilan birgalikda unga yuragi achishayotganini va hikoyada aytilgandek “..o‘zi o‘stirgan terakning qanday yonayotganini ko‘rishni istamayotganini” anglab yetamiz. Nazarimda, bu hikoyaning satrlaridan ota obrazining ko‘zlarida men Mirzo Ulug‘bekni ko‘rdim.Hikoya tasvirlarini sinchiklab kuzatar ekanmiz, bu hikoyadagi qahramon ota ham tinmay o‘g‘lining ayblarini o‘zining bezovta ruhi orqali so‘roq qilib, uning o‘z ayblarini ko‘rsatishga urinadi. Qoni bir bo‘lgan o‘z “padarkushi”ni faqat ayblamaydi, balki uni to‘g‘ri yo‘lga boshlashga urinadi va iztiroblari bilan ruhi bezovtalanadi. Hikoyada ota va g‘or tasviri berilgan.G‘or - insonning o‘zi ichki dunyosiga qamalishining ramzi sifatida talqin etilishi mumkin.Inson o‘z ichki dunyosiga qachon qamaladi? Qachonki, iztirob va xatolar iskanjasida qolsa, yo‘lining nihoyasi ko‘rinmasa javob topishga urinadi. Balki hikoyada g‘or tasvirida yozuvchi otaning butun umrlik hayotiy iztiroblari va hayotining xatosi “padarkush” ni tarbiyalashda qayerda xato qilganligini javobini topish uchun uni g‘orga mahkum qilgandir. Balki yozuvchi bu yerda bir paytlar Abdulatif o‘z otasi Mirzo Ulug‘bekni zindonband etish tasviri bilan uyg‘unlikda kecha va bugunning “padarkushi” ni qiyosini ko‘rsatgandir.Lekin bizning fikrimizcha, o‘tmish va bugunning padarkushlari aynan bir xil.Ular o‘z manfaati uchun otasidan voz kechgan ota “dushmanlari”.Va padarkushni yetishtirgan otalar ham o‘tmish va bugunda bir xil.Ya’ni ular farzand tarbiyasining qaysidir bir nuqtasida adashgan “qurbonlar”.

Hikoyada dubulg‘achilar va oqsoq sarkarda obrazi ham uchraydi. Dubulg‘achilar: tarixiy va ramziy obrazlar bo‘lib, insoniyat tarixida adolat, kuch va zulmni ifodalaydi. Ularning “o‘lmas”ligi, ya’ni ruhi orqali zulm va qonli janglar hech qachon unutilmasligini bildiradi. **“..dubulg‘achilarning biri oqsoq edi; mening g‘orga kelib qolish sarguzashtimni eshitishgach, sendan juda g‘azablanishdi, hatto oqsoqrog‘i hozir borib chopib tashlayman deb irg‘ib turdi, lekin men ko‘nmadim, o‘g‘lim aybdor emas, o‘zim yiqilib tushdim deb aldadim. Dubulg‘a kiyganlar men bilan uch kuncha yashashdi. Ular ham menga o‘xshab o‘z ajali bilan o‘lmagan edilar, gaplariga qaraganda biri jangda, biri suiqasdda, biri kasal bo‘lib o‘lgandi. Otliqlar yuz yillardan beri bir vaqtlar o‘zlari zabt etgan mamlakatlarni aylanib yurisharkan va har yili qish tushishi oldidan Chinmochinga yurish uyushtirishar va har doim mag‘lubiyatga uchrasharkan.Keyin ular meni o‘zlari bilan olib ketmoqchi ham bo‘lishdi, biroq oqsog‘i ko‘nmadi, aftidan, u menga ishonmadi.”** *[3:21].* Oqsog‘i – bu obraz Amir Temurga (Tamerlan) o‘xshash jihatlarni(***“oqsog‘i ko‘nmadi, aftidan, u menga ishonmadi”*** tarixiy manbalarda yozilishiga qaraganda chindan ham Sohibqiron Amir Temur hech kimga ishonmaslik xarakteriga ega juda kuchli qo‘mondon bo‘lgan) ko‘rsatadi. Amir Temur “Sohibqiron” nomi bilan tanilgan, jangovar muvaffaqiyatlari bilan mashhur bo‘lgan, biroq Chin tomonga yurish qilish rejasini amalga oshirishda muvaffaqiyatsizlikka uchragan.Bu hikoyadagi tasvirlar ramziy ravishda uning oxirgi kunlarini eslatishi mumkin.

Hikoyada yo‘l tasviri berilgan: **“...<u>Yo‘l</u> dala uzra oltin kalavadek cho‘zilgan - havo dim va tevarak jizg‘anak bo‘lib kuyib yotardi, yulduzlar lipillay-lipillay so‘nardilar - havodan kuyindi hidi kelar va qoq o‘rtasidan yolg‘izoyoq yo‘l kesib o‘tgan dala tutab yotardi.**

– Esingdami, - derdi chol o‘g‘lining harsillab qolganiga yuragi achishayotgandek va atrofdagi mudhish sukunatdan cho‘chiyotgandek shivirlab, - o‘n yilcha oldin shu yo‘lni tush ko‘rgan eding. Aynan shu yo‘lni. O‘sha tushni sen bilan bir kechada men ham ko‘rgan edim - axir qonimiz bir-da!

*– Esimda, - xirilladi o‘g‘il, - hammasi esimda.- O‘shanda men ham bir necha kun uxlay olmagan edim, bu yo‘ldan qanday o‘tarkansan, deb. U tush emas, <u>yosdig‘</u> edi. O‘sha kechasiyoq sening peshonangga **yozib qo‘yilgandi**”[3:17].* Bu yerda yo‘l inson hayotining murakkabligini va qiyin tanlovlarni ifodalaydi. Hikoyaning chuqur tahliliga kirishsak, haqiqatdan o‘g‘il tanlovlar va peshonasiga bitilganlar “azobi”da qolib ketadi. Yo‘l – hayot yo‘li yoki insonning taqdirini ramziy anglatadi. Hikoyada yo‘lning “oltin kalava” kabi tasvirlanishi taqdirning murakkab va tushunib bo‘lmas ekanligiga ishora. Va bu yerda ijodkorning so‘z qo‘llash jihatiga e’tibor beramiz: **yo‘l** va **yosdig‘** so‘zlari naqadar o‘rinli qo‘llanilgan. Yo‘l va yosdig‘ bizning fikrimizcha tanlov va taqdirni, ya’ni “Lavhai mahfuz” ni anglatyapti.

Hikoyaning atmosferasi qorong‘i va og‘ir.“Ajr” hikoyasida har bir obrazning o‘z taqdiri, o‘z kechinmasi, o‘z “o‘rni” bor. Muhimi, unda ortiqchalik va mantiqsizlik nuqtasi uchramaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Nazar Eshonqulning asarlari o‘zbek adabiyotida o‘zining badiiy topilmalari bilan ajralib turadigan, bir qator satrini olsangiz buziladigan topilma asarlardir.Chunki adabiyotda “badiiy asar” tahlilda yangicha topilmalari bilan – “haqiqiy asar”dir. Nazar Eshonqulning “Ajr” hikoyasi bu – ota va o‘g‘ilning o‘tmish va bugungi munosabatlari tasviri berilgan hikoyadir. “Ajr” hikoyasi bu – ota va o‘g‘ilning ichki kechinmalari, taqdirning “yosdig‘i” berilgan hikoyadir. “Ajr” hikoyasi bu – obraz (o‘g‘il Unsur) tilidan sevgi va hayot mohiyatini falsafiy talqin(o‘rganish) qil-

ish orqali inson ruhiyatiga chuqur sayohatdir.“Ajr” hikoyasi bu – bugunda kechani aks ettirgan ramziy obrazlarga boy falsafiy hikoyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazar Eshonqul “Adabiyot-millat ko‘nglidir” Yoshlik jurnali.2019-yil 9-son.
2. O‘zME. Husniddinov Z., Ibrohimov N. 20-bet. –T: „Davlat ilmiy nashriyoti“, 2004.
3. Nazar Eshonqul “Saylanma I”. “Akademnashr”, 2022. 512-b.
4.Odil Yoqubov “Ulug‘bek xazinasi” roman. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1994-y.334-bet.

Malohat JABBOROVA,
BuxDPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
o‘qituvchisi BuxDU mustaqil izlanuvchisi
jabborovamalohat@buxdpi.uz.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA UCHRAYDIGAN BA’ZI KOSMOGONIK POETONIMLARNING SHAKLLANISH GENEZISI VA BADIIY TALQINI

Annotatsiya: mazkur tadqiqot ishimizda o‘rta asr falakkiyot ilmining turli jabhalari, astronomik jihoz nomlari, osmon jismlarining ramziy ma’nolari Alisher Navoiy asarlari nuqtayi nazaridan tahlilga tortildi.Chunonchi, tahlil jarayonida “Saddi Iskandariy”da usturlob va astrolyabiya haqida, “Sittai zaruriya”da “billur sferalar”, “Lison ut-tayr”da Oy bilan bog‘liq poetonimlar, “Farhod va Shirin”da Zodiak yulduz turkumlari hamda burjlar bilan bog‘liq nazariy qarashlar o‘rganildi, ularning asar mazmuniga uyg‘unlashuvidagi badiiy mahorat masalalari yoritildi.

Kalit so‘zlar: *olam zarroti,armilyar sfera, Parvin yulduzi, zodiak, javzahr, zuzanab, zuzanoba, kavkabiston, laylu nahor, badr.*

Аннотатция: в данной исследовательской работе с точки зрения творчества Алишера Навои анализировались различные аспекты средневековой астрономии, названия астрономического оборудования, символические значения небесных тел.

Например, в процессе анализа в «Садди Искандарии» об астролябии и астролябии, в «Ситтай зарурия» «хрустальные сферы», в «Лисон ут-тайр» поэтонимы, связанные с Луной, в «Фарход и Ширин» с зодиакальными изучались созвездия и созвездия, связанные с ними теоретические взгляды, освещались вопросы художественного мастерства в их интеграции с содержанием произведения.

Ключевые слова: *звезда Вселенной, армиллярная сфера, звезда Парвина, зодиак, джавзар, зузанаб, зузаноба, кавкабистан, лайлу нахар, бадр.*

Annotation: in this research work, various aspects of medieval astronomy, names of astronomical instruments, and symbolic meanings of celestial bodies were analyzed from the point of view of Alisher Navoi’s works.

For example, in the process of analysis, theoretical views on astrolabes and astrolabes in “Saddi Iskandariy”, “crystal spheres” in “Sittai zaruriya”, poetic names related to the Moon in “Lison ut-tair”, and zodiac constellations and constellations in “Farhod va Shirin” were studied, and the issues of artistic skill in their integration into the content of the work were highlighted.

Key words. *universe particle, armillary sphere, Parvin star, zodiac, jewel, zuzanab, zuzanoba, kawkabistan, laylu nahor, badr.*

Kirish. O‘rta asr falakkiyot ilmi taraqqiyoti fan sohalarining turli jabhalarini qamrab oldi. Badiiy ijodda ham bu o‘z aksini topdi. Xususan, Alisher Navoiy asarlarida falakkiyot mavzusi bilan bog‘liq ma’lumotlar talaygina va ularni o‘rganish astronomiya tarixi, temuriylar davrida ilm-fan rivoji va Alisher Navoiy ijodining yangi qirralarini ochish nuqtayi nazaridan dolzarb sanaladi. Shoir ijodida osmon jismlari bilan bog‘liq so‘z va iboralar ko‘plab uchraydi. Olam zarroti(zarrachalar), laylu nahor (kun va tun), charx(falakning aylanma harakati), to‘rt unsur(borliq asosi), arz(yer shari), Yerning javhida(Yer kurrasining muallaq holati), yetti ko‘k (borliq), olti jihat(Olamning olti tarafi) kabilar shular jumlasidandir.

Metodlar. Tadqiqotda nazariy-deduktiv, komporativistik, germenevtik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va Mulohaza. Navoiy asarlarida astronomik jihozlar haqida ham ko‘plab ma’lumotlar uchraydi. Ulardan biri astrolyabiyadir. Astrolyabiya yunoncha so‘z bo‘lib, “yulduz tutuvchi” degan ma’noni anglatadi(aster-yulduz, loben-tutmoq). Astronomik jihoz-astrolyabiya milloddan avvalgi IV asrdan to millodiy XIX asrgacha amaliyotda qo‘llangan[1,2005.22-b]. Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida uni sturlob deb ataydi va ko‘zgu(oynayi jahon) bilan uyg‘unlikda qo‘llaydi. Adib osmon jismlarini olamning o‘rta asrlarda mavjud geosentrik modeliga qiyosan tadqiq etadi. Chunonchi, “Sittai zaruriya” asarida qadimgi yunon falakkiyot ilmidan meros bo‘lib qolgan “billur sferalar” ilk bor singdirilib,[2,2013,19-b.] qo‘zg‘almas yulduzlar bilan “zodiak” yulduz turkumlari boshqa-boshqa sferalarga ajratilganini ko‘ramiz.

To doirai sipehr bo‘lg‘ay,
To kim anga nuqta mehr bo‘lg‘ay[3, 1998. 176-b].

Mazmuni:“Osmon doirasi bo‘ladi va unga nuqta(markaz) quyosh bo‘ladi. “Hayrat ul-abror” dostonining to‘qqizinchi maqolatida esa “Charx fonusdek o‘ldi falak” deyilgan. Mazmuni falak osmonda bir fonusdek bo‘lib qoldi. Bu misolda uch narsa (charx, falak, fonus) qiyoslanmoqda. Ya’ni bunda falak-fonusga, fonusning piligi-Quyoshga, fonusning g‘ilofi-billur charxifalakka o‘xshatilgan. Shoir nazmiyatiga teran nazar tashlash unda ko‘k yoritqichlarini turli nomlar bilan ataganligi ko‘zga tashlanadi. Masalan, Oyning holatlarini mohi nav, mohi du hafta, badr, mohi ulvi xirom, jomi hiloliy, g‘urra, hiloli duraxshanda, hiloli jom, hiloliy, badri munir, salx kabi so‘z va iboralar bilan atagan. Jumladan, “Lison ut-tayr” dostonining me’roj tuniga bag‘ishlangan to‘rtinchi bobida “badr”- “to‘lin Oy” shunday ta’riflanadi:

Chun qamarg‘a mavkibidin yetti qadr,
Ul Quyosh tashrifidin Oy bo‘ldi badr[4, 1991, 24-b].

Mazmuni: Muhammad payg‘ambar me’roj tunida falakka Buroq otda ko‘tariladi. Uning oti Oyga yetib borganida payg‘ambar Quyosh misoli Oyni yoritadi va u to‘lin Oyga aylanadi. Bu baytda Muhammad payg‘ambarni quyoshga tashbeh qilish orqali Quyosh ta’sirida Oyning badr-to‘lin Oy shakliga kelishiga oid astronomik holat ifoda etilgan. Navoiy ijodiyotida osmon jismlaridan biri bo‘lgan kometalar haqida ham so‘z boradi. Kometalar bunda javzahr, zuzanab, zuzanoba nomlari bilan tilga olinadi.

Chun yana maydon sori ko‘rguzdi xez,
Tahtane tortib edi tig‘i tez.
Qahri o‘ti cheksa chu dudi g‘azab,
Har sharari yuz yil o‘lub zuzanab[5, 1989, 236-b].

Mazmuni: Ko‘ngul yana o‘rnidan turib boshqa maydon(osmon)ga oshiqadi. Unda qo‘liga xanjar ushlagan bir pahlavon jangchi (Mirrix) turardi. Uning qahr olovi g‘azab tutunini chiqarsa, har bir uchquni yuz yilcha dumli yulduzdek osmonda uchib yurardi. Mirrix bu Mars sayyorasidir. Odatda Mirrix qo‘lda nayza ushlagan jangchi sifatida tasvir etilgan.

Navoiy asarlarida yulduzlar ham o‘z holatiga ko‘ra turlicha nomlar bilan atalganligini ko‘rishimiz mumkin. Axtar chechaklari-charaqlagan yulduzlar; kavkabiston- yulduzlar charaqlab turgan tiniq osmon, yulduzlar makoni; axtar-yulduz, najm-yulduz; nujum-yulduzlar; anjumi uluvvi rif’at- eng baland yulduzlar; najmi soqib- yorug‘ yulduz, sobitot-turg‘un yulduzlar; tiyra anjum-xira yulduz; savobit-adashgan yulduz, sayyora; anjum ko‘zi-yulduzlarning nurli ko‘rinishi, anjum tirnog‘i- yulduz qirralari; durri anjum-yulduz durdonalari. Ushbu kosmogonik so‘z va iboralarda tun osmonidagi yulduzlar va ular hosil qilgan turli ko‘rinma shakllar tasvirlangan. “Saddi Iskandariy” dostonining “Iskandarning Hindistonda bo‘lishi”ga bag‘ishlangan 43-bobida quyidagi misralar keltiriladi:

Uzum xo‘shasi birla ahli rasad,
Sipehr uzra Parvin ko‘rub beadad.

Mazmuni:Munajjimlar osmonda uzum boshiga o‘xshash sanoqsiz Parvinlar borligini ko‘rdilar[6, 1991.275-b]. Qadimdan mavjud bo‘lgan tushuncha-osmon jismlarini yerdagi narsalarga o‘xshatish holatlari badiiy asarlarda ham ko‘plab uchraydi. Bu misralarda ham shoir Parvin yulduz to‘dasini yerdagi uzum boshi bilan chog‘ishtirgan. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida ham “Parvin” bilan bog‘liq misralar uchraydi.

Yuzing vasfin deb o‘tkan tun durri ashkim to‘kar erdim,

Tutub tog‘ keyin oy kirdi, qaro tufroqqa Parvin ham[7, 1991.275-b].

Shoir ijodida tilga olingan forsiydagi Parvin, turkiylarda Hulkar nomi bilan atalgan. Astronimik tadqiqotlardagi nomi Pleyadir. Gomerning “Iliada” va “Odisseya”, Gesiodning “Mehnat va kunlar” asarlarida ham Pleya haqida ma’lumotlar uchraydi[8, 1966.105-b]. Shuningdek, shoir she’riyatida yulduzlar yorug‘-xirraligi nuqtayi nazaridan turli ifodalarni ramzlashtirib keladi. Xususan, “Sab’ai sayyor” dostonida:

Kavkabin tiyra aylab iqboli
Chiqti nokomdin o‘lum holi[9, 1992,323-b].

Ya’ni: Uning iqboli yulduzini xiralashtirib, noiloj o‘lim holati yuzaga keldi. Ya’ni bunda yulduzning xiralashuvi – taqdir shamining o‘chishiga muqoyasa qilinadi.

Uning asarlarida osmon jismlaridan Oy, Quyosh, Merkuriy,Venera, Yer, Mars, Yupiter, Saturn, shuningdek, meteor, kometalar hamda bir qancha samoviy hodisalar (Quyosh tutilishi, kamalak chiqishi, qiron) nazm qalami bilan rang-barang bo‘yoqlarda tasvirlangani yaqqol ko‘rinadi. Masalan, “Farhod va Shirin” dostonida shunday bayt keltiriladi:

Dema o‘q, balki har bir barqi ohi,
Ki, sekrib o‘rtabon mah to ma mohi.

Mazmuni: ularni o‘q ham dema, balki ularning har birini, (yurakda chiqqan) bir oh yashini deb bil. Zero bir chaqnaganining o‘zida ko‘kdan yergacha hammayoqni kuydirib yuboradi”[10, 1989,7-b]. Baytning ikkinchi

satrida “max to ba moxi” iborasi falakkiyotga oid ma’lumot bo‘lib, kelib chiqishi mifologiyaga bilan bog‘liqdir. Baytdagi mah-Oy mohi esa baliqdir. Bunda Oy-samoviy jism, baliq esa Yer ostidagi afsonaviy mavjudotdir. Taniqli folklorshunos olim YU.E.Berezkin bu mavzu yo‘nalishida olib borgan tadqiqiqotlarida shunday fikrni keltiradi: “Yerni quruqlikda yashovchi yirik sutemizuvchi hayvon ko‘tarib turadi. Yer baliq, kit yoki suvda sudralib yuruvchi hayvon ustidadir”[11,1957,50-b]. Bu tahlildan anglashiladiki, Navoiy nazmida olamning sharq mifologik modeli bilan ilmiy astronomik tushuncha birgalikda nazm etilgan. Dostonda yozilishicha, Farhodning “Ayn ul-hayot” suvini “Bahr un-najot” hovuzi arig‘iga ochishini tomosha qilayotgan Shirin Farhod tomon oshiqadi. Bu voqea dostonning XXXIV bobida shunday keltirilgan:

Buyurdikim:“Ravonroq keltiring ot”,
Buyurg‘och ashxabi kelturdilar bot.
Ul ashhab girdu past erdiyu rahvar,
Nechukkim bo‘lsa g‘almon durri shahvor.
Chu chiqti elga gulbargi taridek,
Falak raxshiga mehri xovaridek.
Kishi Bonuga chopturdi shitobon,
Ki, qildi sayr azmi mehri tobon.
Quyoshdek sayrda bordur shitobi
Ki bir dam manzil etkay bordur obi.
“Hamul xorokani po‘lod bozu,
Ariqqa men yetishmay qo‘ymasun suv!”

Mazmuni: “Charaqlagan quyosh – shirin sayrga chiqdi, deb Mehinbonuga xabar yetkazish uchun odam yubordi.“Buyurdi chopqirroq ot keltiring!” Unga jadallik bilan ko‘k ot keltirdilar. U ko‘k ot yumaloqdan kelgan, past bo‘yli, yo‘rg‘a bo‘lib, kata va dumaloq injuga o‘xshardi. U shamolga ko‘tarilgan yangi gul yaprog‘idek otga mindi. Go‘yo quyosh ko‘k otiga minganday bo‘ldi. Zudlikda Bonuga (chopar) yuborib (dedilar): “Charaqlagan Quyosh sayrga chiqdi. U sayrda Quyoshdan ildam bormoqda. Osmondagi burjdan to dengizgacha oraliqni bir pasda bosib o‘tadi” [12, 1989,7-19-b]. Bu misralar Shirinning toshlarni kesib suvga yo‘l ochayotgan Farhodning oldiga borishga bag‘ishlangan va turli iboralar vositasida astronomik tushunchalar ifodalangan. Ya’ni bunda: Shirin–Quyoshga, uning kulrang-ko‘k oti esa osmon rangiga qiyoslangan. “Osmondagi burjdan to dengizgacha oraliqni birpasda bosib o‘tadi” degan gapda ikki xil ma’no anglashiladi. “Osmondagi burj”– o‘n ikki yulduz turkumi (zodiak); “to dengizgacha”– bu iborada Yerni qamrab olgan olam ummoni(dengizi) nazarda tutiladi. Qadimgi yunon afsonalarida yassi Yer olam ummoni bag‘rida deb tasavvur qilingan. Har kuni Quyosh xudosi– Gelios o‘zining qanotli va og‘izlaridan o‘t chaqnab turgan to‘rtta oq otlar qo‘shilgan quyosh aravasida ufq ortidan paydo bo‘lar va kun davomida samo uzra yelib, oqshomda ufqning g‘arb tomonida Olam ummoniga tushib, tuni bilan ummonda suzib, tong otarda yana ufq sharqidan osmonga ko‘tarilar ekan[13,2017,122-b]. Shuningdek, Navoiyning “Saddi Iskandariy” hamda “Badoyi ul-bidoya” asarlarida ham samoviy atributlar bilan bog‘liq nazariy qarashlar uchraydi. Chunonchi, “Saddi Iskandariy”da “Yetti kavkab” (“Yetti qaroqchi”), “Badoyi ul-bidoya”da esa “Banot un-nash” (“Tobutning qizlari”) [13,2017,128-b]. nomlar bilan qayd qilingan yulduz turkumlari bor. Bu yulduz haqidagi qarashlar yunon mualliflari asarlarida ham uchraydi. Gomerning “Illiada” dostonida uni “Arktoz” (“Ayiq”) nomi bilan atashgan. Qadimgi yunon afsonalariga ko‘ra, Zevs ma’buda Kallitso va uning o‘g‘li Arkasni, xotini Geraning qahridan himoya qilish uchun bu ona-bolani samodagi Katta ayiq va Kichik ayiq yulduz turkumlariga aylantirgan emish[14, 1966,105-b]. Beruniyning “Tafhim” asarida ham Yetti yulduz bilan bog‘liq ma’lumotlar uchraydi. Hozirgi kunda bu yulduz turkumi cho‘mich shaklida ko‘zga tashlanadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan ma’lum bo‘ldiki, Alisher Navoiy asarlaridagi falakkiyotga oid qarashlar, kosmogonik mavzular olami folklor namunalari, qadimiy yozma yodgorliklar hamda yunon va sharq manbalariga tayanilgan holda bayon etilgan. Bu kuzatuvchi o‘z nigohi bilan ko‘rsa bo‘ladigan osmon jismlarini hayotiy timsollar, figuralar bilan uyg‘un tarzda ifoda etib, koinotni anglash ilm vositasida amalga oshadi, degan qarashlarni ilgari suradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.N.A.Kun .Qadimgi yunon afsona va rivoyatlari.–Samarqand,“Zarafshon” nashriyoti,2005,22-b.
2.Saidbahrom Azizov.Alisher Navoiy asarlarida olam tuzilishiga oid ma’lumotlar//Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materallari.–T.,2013.19-b.
3.Alisher Navoiy.Mukammal asarlar to’plami. O‘n to‘rtinchi tom.Munshaot.–T.1998.176-b.
4.Alisher Navoiy.Lison ut-tayr(nasriy bayoni bilan).–T.,1991,24-b.
5.Alisher Navoiy.Hayrat ul-abror(nasriy bayoni bilan).–T.,1989,239-b.
6.Alisher Navoiy.Saddi Iskandariy(nasriy bayoni bilan).–T.:G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,1991.275-b.
7.Alisher Navoiy.Mukammal asarlar to‘plami.Devoni Foniy.–T.,2002.4-tom.312-b.nashriyot,1991.275-b.
8.A.Pannekuk.Istoriya astronomi.M.,1966.105-b.
9.Alisher Navoiy.Mukammal asarlar to‘plami.Sab’ai sayyor. –T.,1992.10-tom .323-b.
10.Alisher Navoiy .Farhod va Shirin (nasriy bayoni bilan).–T.:G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at geogra-

ficheskix proizvedeniy nashriyoti, 1989,7-b.

11.Крачковский И.ЙУ. Георафия И арабов до их первих географическихпроизведений. Избранние сочинения.Т.4.–М, 1957. С.50.

12.Alisher Navoiy .Farhod va Shirin (nasriy bayoni bilan) –T.:G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at geografficheskix proizvedeniy nashriyoti,1989,7-19-b.

13.Saidbahrom Azizov. Alisher Navoiy asarlarida falakkiyot sirlari.–Toshkent, “O’zbekiston” nashriyoti 2017,122,128-b.

14. А.Паннекук.История астрономии.–М.,1966,105-б.

15.Jabborova M.(2024).Mumtoz she’riyatda uchraydigan Oy,Yulduz,Quyosh timsollarining shaxs qiyofasida timsollanishi. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, *3*(1), 48-52.

16.She’riyatida,M.J.Z., & Timsollar mushtarakligi,I.I.V.K.Pedagogical sciences and teaching methods.-2022.T,2(18),209-211.

Sofiya DJUMAYEVA,
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

RAQAMLAR MOHIYATIGA YASHIRINGAN SIRLAR

Annotatsiya: maqolada mumtoz shoirlar asarlarida qo‘llanilgan raqamlar va ularning mohiyati Alisher Navoiy, Ogahiy, turkman shoiri Maxtumquli va boshqa shoirlar ijod misolida yoritib berilgan. Lirik asarlarda raqamlarni qo‘llash va ular mohiyatiga falsafiy, diniy va tasavvufiy qarashlarni singdirish masalasi an’anaga aylanganligi bir qator misollar yordamida dalillangan.

Kalit so‘zlar: *raqam, o‘n aql, to‘qqiz sipehr, sakkiz jannat, yetti axtar, olti jihat, besh his, to‘rt unsur, uch mavlid, ikki olam, besh kun.*

Аннотация: в статье рассмотрены фигуры, использованные в произведениях поэтов-классиков и их сущность на примере творчества Алишера Навои, Огахи, туркменского поэта Махтумкули и других поэтов. Использование числа было традицией в классической литературе. В статье доказывается на ряде примеров вопрос о привитии философских, религиозных и мистических взглядов на сущность чисел.

Ключевые слова: *число, десять умов, девять небес, восемь небес, семь звезд, шесть аспектов, пять чувств, четыре стихии, три творения, два мира, пять дней.*

Annotation: the article highlights the use and significance of numbers in the works of classical poets, with examples from the creations of Alisher Navoi, Ogahiy, Turkmen poet Makhtumkuli, and others. It substantiates, through various examples, that incorporating numbers in lyrical works and imbuing them with philosophical, religious, and mystical perspectives has become a tradition.

Keywords: *number, ten intellects, nine heavens, eight paradises, seven stars, six directions, five senses, four elements, three births, two worlds, five days.*

Inson tafakkuri, uning ijtimoiy, diniy, badiiy, falsafiy ishonch va tushunchalari raqamlarni o‘ziga xos haqiqat manbaiga aylantirgan. Shuning uchun ham raqamlarga bir-biridan sirli ma’no va mazmun singdirilgan, har turli fikr-qarashlarni ifodalashda ulardan foydalanilgan. Mifologik tasavvur, din va tasavvuf falsafasida raqam va raqam ramzlari keng o‘rin ishg‘ol etganidek, u badiiy ijodda, xususan, mumtoz she’riyatimizda ham e’tiborli mavqega erishgan. Mumtoz shoirlar ijodida raqamlar bilan bog‘liq badiiy tasvirlar, raqamlar mohiyatini yorituvchi badiiy lavhalar mahorat bilan yaratilganki, biz ularda raqamlarning o‘ziga xos silsilasini ko‘rishimiz mumkin. Muhammad Rizo Ogahiy o‘zbek mumtoz adabiyotida Alisher Navoiydan keyingi yirik siymo sanaladi. Nafaqat asarlar ko‘lami jihatidan, balki badiiy iste’dod va qobiliyatini mahorat bilan namoyon qilish va so‘zga ma’no yuklash nuqtayi nazaridan ham Ogahiy Navoiyga izdoshlik qiladi. Ogahiy ijodida shunday misralar borki, raqamlar mohiyati va ular zamiridagi ma’noni farqlay olmagan kitobxon na shoirning badiiy mahorati va iste’dodiga baho bera oladi, na she’r mag‘zini chaqa oladi. Mana o‘sha misralar:

O‘n aql, to‘qquz sipehr, sakiz jannat,
Ham yetti munir axtaru ham olti jihat,
Ham besh his, to‘rt unsur, uch mavlid,
Ham ikki jahon bir sango aylar xizmat [1.477].

Ushbu ruboiyda birdan o‘ngacha bo‘lgan raqamlar

tizimi keltirilgan bo‘lib, har bir raqam o‘ziga xos ma’no tashigan. Misralardagi raqamlarning barchasi olam va odamning yaratilishi bilan bog‘liq tushunchalarni anglatadi. Avvalo, “o‘n aql” xususida. Aql – zakovat, donolik, inson miyasining dunyoni aks ettirish va shaxsning voqelikka munosabatini boshqarib turadigan faoliyati, fikrlash qobiliyati. Aql hamma narsalarning asosidir. Inson boshqa yaratiqlardan o‘zining aql-zakovati bilan ajralib turadi. Aqlning insonga berilishi xususida diniy va tasavvufiy adabiyotlarda juda ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan. Ulardan ba’zilariga e’tiborni qaratamiz: “Alloh taolo aqlni yaratganida unga: “Kel!” – dedi, darhol keldi; keyin unga: “O‘gir!” – dedi, o‘girildi; keyin “So‘zla!” – dedi, so‘zladi; keyin “Ko‘rgil!” dedi, ko‘rdi. Alloh taolo aytdiki: “Izzatim va jalolimga qasamki, sendan go‘zalroq narsani yaratmadim. Men uchun sendan azizroq narsa yo‘q. Sen sababli beraman, sen sababli olaman, sen sababli (bandani) taniyman, sen sababli hurmatli qilaman. Sen kimda o‘rnashgan bo‘lsang, u qanday yaxshi bandadir!” [2.181]. Ammo tasavvufda aql deyilganda, solikning kashf va ma’rifatga erishgandagi bir holi nazarda tutiladi. Mutasavviflar inson aqlini “aqli juz” (“aqli avval”), “aqli majoz” (“aqli kull”) deb ataydilar. Aqli avval – a) vahdat martabasi; b) nuri Muhammadiya; d) Jabroil; e) insonning haqiqati. Alloh birinchi bo‘lib aqli avvalni, keyin uning ishtirokida boshqa yaratiqlarni yaratdi. Bunga ilohiy ilmning ilk zuhuri nomi ham berilgan. Ilohiy ilmga – “ummul kitob”, aqli avvalga “imomi mubin”, Lavhga “kitobi mubin” nomlari berilgan. Bular “Nun”, “Qalam” va “Lavh” ham deyiladi. Aqli avvalga berilgan boshqa ismlar: qalami a’lo, haqiqati Muhammadiya, durri bayzo, Nuri Muhammad, Ruhi a’zam.

Aqli kull – aqli avvaldan keyin kelgan bir martabadir. Aqli kull aqli avvalning mazharidir. Odam aqli kullning, Havo esa nafsi kullning suratidir. Aqli maosh fikrlash asosida o‘lchanadigan bir nurdir. Faqat biror vosita yordamida idrok etiladi. Kulli aqlga oid xususiyatlardan faqat bittasini idrok eta oladi. Aqli avvalning yo‘li unga yopiqdir. Mutasavviflar: “Allohni aql bilan idrok etib bo‘lmas”, – deganlarida aql kalimasida qiyos va mantiq asoslari ichida faoliyat ko‘rsatadigan aqli maoshni nazarda tutishgan. “Alloh aql bilan bilinur”, – deganlarida esa qiyos va mantiqsiz idrok etiladigan aqli avvalni nazarda tutishgan. Yolg‘iz bir nurdan iborat bo‘lgan aqli avval va qalami a’lo qulga nisbatan aqli avval, Haqga nisbatan qalami a’lo nomini olgan. Alloh Jabroil (a.s.)ni Muhammad (s.a.v)ga nisbat berilgan aqli avvaldan yaratganidan u Jabroil (a.s.)ning otasi va butun borliqning aslidir. Shu sababli ham me’rojda hazrati payg‘ambar uning to‘xtashi kerak bo‘lgan joydan keyin o‘zi yolg‘iz yuqorilab ketadi. “Hazrati payg‘ambar oldida aqlni qurbon qil”, – degan Mavlono aqli maoshni ko‘zda tutadi. Aqli maoshga aqli juz ham deyiladi. Tasavvufda qalbda paydo bo‘lgan fayz va ilhomga nisbatan qo‘llaniladi. Shoir o‘n aql kalimasini qo‘llaganda, aqlning ana shu turlari va ko‘rinishlarini nazarda tutadi.

To‘qqiz sipehr – osmonlar soni bilan bog‘liq tushuncha. To‘qqiz sipehr “to‘qqiz gunbad”, “to‘qqiz osmon”, “to‘qqiz tabaq”, “to‘qqiz torami axzar”, “to‘qqiz falak”, “to‘qqiz charx” singari birikmalar bilan qo‘llaniladi. Bu to‘qqiz sipehr quyidagilardir: 1. Falakul-aflok – osmonlar osmoni. 2. Burjlar osmoni. 3. Zuhal osmoni. 4. Mushtariy osmoni. 5. Mirrix osmoni. 6. Quyosh osmoni. 7. Zuhra osmoni. 8. Atorud osmoni. 9. Oy osmoni. Mumtoz ijodkorlar asarlarida to‘qqiz osmon tushunchasi ko‘p ishlatilgan. Lirik qahramonning turli holat va kayfiyatlarini ifoda etishda bu tushunchaga qayta-qayta murojaat qilingan. Masalan, Furqatning quyidagi bayti bunga misol bo‘la oladi:

Chiqdi nolam nay kabi to‘qqiz falakka, oh-oh,
Hasritingdin band-bandimdur nayiston bu kecha [3.28].

“Sakkiz jannat” deyilganda, “Doru-l-qaror”. “Doru-s-salom”, “Doru-l-xula”, “Jannatu-l-ma’vo”, “Jannatu-adn”, “Jannatu-na’im”, “Firdavs”, “Bog‘i Eram” nomlari bilan atalgan sakkiz jannat nazarda tutilgan. Jannat va undagi noz-u ne’matlar, hur-u g‘ilmonlaru unda oqib turgan to‘rt anhor xususidagi ma’lumotlar ilohiy kitobda berilishidan tashqari turli diniy mazmundagi risolalarda, shuningdek, diniy-tasavvufiy asarlarda mahorat bilan tasvir etilgan.

“Yetti muniri axtar” – yetti porloq (yorituvchi) yulduz degani. Yetti ko‘kda joylashgan yetti sayyora nazarda tutilmoqda. Xususan, birinchi ko‘kda Oy, ikkinchi ko‘kda Utorud, uchinchi ko‘kda Zuhra, to‘rtinchi ko‘kda Quyosh, beshinchi ko‘kda Mirrix, oltinchi ko‘kda Mushtariy va yettinchi ko‘kda Zuhal sayyoralari joylashgan. Har bir sayyora ma’lum bir soha vakillari uchun homiylik qilishi haqidagi qarashlar sharq adabiyotida keng ishlangan. Bundan tashqari, Alisher Navoiy “Xamsa” tarkibiga kiritilgan dostonlarda me’roj voqeasini tasvirlar ekan, payg‘ambarimiz (s.a.v)ning avval ushbu yetti sayyora joylashgan yetti ko‘kni, so‘ngra burjlar osmonini, keyin esa falakul aflokni bir-bir ortda qoldirib, Arshi a’loga ko‘tarilganliklarini qalamga oladi. Ammo mumtoz shoirlarimiz samoviy olam, jumladan, yetti ko‘k xususida so‘z yuritganda hamma vaqt ham jismoniy mavjudliklarni emas, balki insonga nisbat berilgan ramz va majoz orqali komil inson mohiyatini yoritishga qaratilgan fikr-mulohazalarga ham diqqatni jalb etishgan. Masalan, “Farhod va Shirin”da Navoiy shunday deydi:

Tanidin to‘rt gavhar naqshi borib,
Bo‘yi olti jihat to‘nin chiqorib.

Demakim, to‘rtu oltidin mubarro
Ki, beshu ikkidin dog‘i muarro.

Chiqorib o‘zlugi tufrog‘idin gard,
Ne o‘zlukkim, o‘zidin ham bo‘lib fard [4.24].

“Olti jihat” bu dunyoning olti tomoni – shimol, janub, sharq, g‘arb, baland (osmon), past (yer osti)ni anglatadi. “O‘ng, so‘l, old, orqa, yuqori, quyi shaklida ham talqin qilinadi. Olti taraf – jihoti sitta shaklida ham qo‘llaniladi” [5.430]. Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonida bu olti jihat, to‘rt unsur va yetti ko‘kni “nodiru oliy asosi koinot” deb ataydi:

To‘rt unsur, yetti ko‘k, olti jihot,
Nodiru oliy asosi koinot [6.250].

Navoiy dostonlarning na’t qismlarida me’roj voqealarini tasvirlar ekan, payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning “olti jihat” qaydidan xalos bo‘lganliklarini tilga oladi:

Olti jihat qaydidin ixroj o‘lub,
To‘rt guhar tarki anga toj o‘lub [7.31].

Ya’ni “olti jihat bandidan tashqariga chiqdi, to‘rt unsurni tark etish unga toj kiygandek bo‘ldi”, – deya tasvirlaydi. Demak, Ogahiy ham “olti jihat” jumlasida ana shu xususiyatlarni nazarda tutmoqda.

Yaratgan tomonidan insonga beshta sezgi ato etilgan (arab tilida “havossu xamsa”) – ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta’m bilish va sezish. Bu sezgilar ko‘z, quloq, burun, og‘iz (til) va teri kabi a’zolar yordamida faoliyat ko‘rsatadi. Ularning asosiy vazifasi olam haqida ilm hosil qilishdir. Ko‘z yordamida ko‘rib, til yordamida tatib ko‘rib, ta’m bilib, ilm hosil qilamiz. Quloq yordamida eshitib, teri yordamida his etib, ushlab ko‘rib ilm hosil qilamiz. Shu sezgi a’zolari vositasida tashqi dunyo haqida ma’lumot olamiz, tasavvur hosil qilamiz. Demak “besh his” – insondagi besh tuyg‘u (ko‘rish, eshitish, ta’m bilish, hid bilish, to‘qinish)dir.

Keyingi tushuncha “to‘rt unsur” tushunchasi bo‘lib, insonning yaratilishi uchun asos bo‘lgan unsurlardir. Bular – tuproq, suv, havo va otashdir. Sharq shoirlari inson yaratilishi uchun asos bo‘lgan bu unsurlarni qayta-qayta tilga olishgan, ayniqsa, tasavvuf falsafasi ruhi bilan sug‘orilgan, komil inson xususida so‘z yuritilgan asarlarda “to‘rt unsur” tushunchasi aslo chetlab o‘tilmagan. Sababi, Nasimiy ta’kidlaganidek, “Chor anosirdir bizni suratda qildirgan qaror”. Bu to‘rt unsur “to‘rt andom”, “to‘rt arkon”, “to‘rt asl”, “to‘rt gavhar”, “chor mix” ifodalari bilan ham ishlatiladi. “Uch mavlid” deganda olamdagi uch yaratiq – jamodot (jonsiz tabiat), nabotot (o‘simliklar olami) va hayvonot (jonzotlar) olami tushuniladi [8.125-136].

Sharq shoirlari poetik ma’no va mantiq talablariga asoslanib raqamlarga murojaat qilganda, bevosita u yoki bu raqam “chegara”sida an’anaviylashgan haqiqatlarni ham inobatga olganlar. Buni ikki raqamidan foydalanishda ham kuzatish mumkin. Azaliy mavzulardan sanalgan dunyo va oxirat xususidagi fikr-mulohazalar tazodiy xarakterga ega ekanligini zukkolik ila ilg‘agan sharq ijodkorlari ko‘pgina o‘rinlarda “ikki dunyo”, “ikki jahon” singari raqamli birikmalarni istifoda etadilar. Masalan, Amiriyning quyidagi baytlaridan birida “ikki jahon” birikmasi qo‘llanilgan bo‘lsa, boshqasida esa ikki raqami “olam” so‘zi bilan birga ishlatilgan:

Kechib ikki jahondin, ishq sahrosig‘a azm ettim,
Kel, ey, majnuni ko‘ngul, bo‘lg‘il mango bu yo‘lda hamrohim [9.233].

Yoki

Dahr taxti uzra oning soyasi ermish, Amir,
Ikki olam shavkati bir husn sultonidadur [9.95].

Turkman shoiri Maxtumqulining quyidagi misralariga e’tibor qarating:

Har kishining ishi bo‘lsa yomonlik,
U ikki dunyoda topmas omonlik [10.340].

Muallif insonlarni yaxshilik va ezgulikka chorlash, yomonliklardan qaytarishni maqsad qilgan. Diqqat qilinsa, ogohlikka da’vat kuchi baytni tashkil etuvchi so‘zlar orasida aynan “ikki dunyo” birikmasiga yuklatilgan.

Zero, ikki raqami ko‘pgina o‘rinlarda “dunyo”, “olam”, “jahon” kabi so‘zlar bilan birga qo‘llanilib, ikki dunyo – foniy (o‘tkinchi) va boqiy (abadiy) dunyo sifatlashini chuqurlashtirgan. Jumladan, tubandagi misralarda Alloh taoloni “ikki dunyoning sultoni” deb tashbehlab, o‘tkinchi va abadiy dunyoni nazarda tutadi:

Ey azizlar, musulmonlar,
Ikki dunyoning sultoni
Azal kunida yaratdi
Rasul vujudida jonni [10.239].

Ogahiy ham yuqoridagi misralarda “ikki olam” birikmasini qo‘llar ekan, ana shu haqiqatlarni nazarda tutadi. Shoir aytmoqchi, yaratilganlarning barchasi – o‘n aql ham, to‘qqiz osmon ham, sakkiz jannat ham, yetti sayyora ham, olti jihat ham, besh his-u to‘rt anosir, uch mavlid-u ikki olam – hamma-hammasi yagona yaratuvchiga – “Biru bor”ga xizmat qiladi. Bu fikrlarni ixcham va lo‘nda ifoda etish uchun esa birdan o‘ngacha bo‘lgan raqamlar sistemasidan mahorat bilan foydalanilgan.

Sharq shoirlari asarlarida o‘tkinchi dunyo ne’matlariga aldanmaslik, ularga mehr bog‘lamaslik va o‘zini dunyo ne’matlaridan uzoq tutish haqidagi fikrlarga qayta-qayta duch kelamiz. Zero, dunyoga muhabbat bog‘lash, o‘tkinchi hoy-u havaslarga berilish qattiq qoralangan asarlarda aytilishicha, “... kim dunyoni murod etsa, unga erishadi, lekin oxiratni qo‘ldan boy beradi; kimki, oxiratni murod etsa, dunyodan umidi uziladi; kimki, Mavloni murod etsa, unga Mavlo ham, dunyo ham, oxirat ham muyassar bo‘ladi” [11.161]. Shu fikrlardan keyin Qur’oni karimning “Yusuf” surasidagi voqealar bayoniga asoslanib, ibratli o‘xshatish keltiriladi, ya’ni uch nafar kishi Yusuf alayhissalomni orzu qildilar va murodlariga yetdilar: Molik ibn Za’ar mol umidida, Aziz maqtov va jalol umidida, Zulayho visol umidida bo‘ldi. Savdogar

Molik ibn Za'ar molga erishdi, Aziz maqtov va jalolga erishdi, Zulayho Yusufga va jamolga erishdi.

Dunyoga mehr bog'lashning asosi nafsdir. Nafs insonni yo'ldan chiqaradi, qaysi tomoni o'ng, qaysi tomoni chap – bilmaydi, nafsga berilgan inson qanoti kesilgan qush kabidir. Dini ham, imoni ham dunyo, surati inson bo'lgan bunday kimsalar hayvonga qiyos qilinadi. Holbuki, dunyo insonga vafo qilmaydi. Dunyo yolg'ondan iborat ekanligi, uning fitnasi ko'p ekanligini anglamagan inson g'ofilligidan dunyoga aldanib qoladi. Agar inson bu g'aflatdan qutulsa, barcha sirlarni kashf etadi. Mansurning nega dorga osilgani, Yusufning nima uchun sotilgani, Ibrohimning nechun otashga otilgani, Muhammad (s.a.v.)ning me'rojini – hamma-hammasini biladi. Jannat, jahannam, yetti qat ko'k, Kursi, Qalam, yetti qat yer – bularning barchasini anglaydi. "Ilm ul-ladun"ga yetishib, "sirri lo-yazal"ga vosil bo'ladi. Dunyo o'zini chiroyli qilib bezatgan, ammo insonni yomonliklarga undaydigan makkor ayolga qiyos qilinadi. E'tiborli jihati shundaki, mumtoz shoirlarimiz insonni ogohlikka chorlovchi ana shu fikrlarni ham raqamlar mohiyati vositasida berishga harakat qilganlar. Ogahiy Navoiyning "Charx dard ahlig'a har dam yog'durur gardi firoq" deb boshlanuvchi g'azaliga muxammas bog'lar ekan, buyuk salafiga ergashgan holda oltinchi bandda raqamlarning o'ziga xos tizimini keltiradi: "yuz balo", "yetti do'zax", "olti jihat" va Navoiy talqinidagi "besh kun", "to'rt mazhab", "uch taloq" – bular o'zaro uyg'unlashib, raqamlar tili bilan so'zlashning o'ziga xos bir shaklini hosil qilgan:

Dahr zolikim o'ziga doimo ziynat berur,
Kimga juft o'lsa, boshig'a yuz balolar kelturur,
Etti do'zax mehnatin olti jihatdin yetkurur,
Istasang besh kun farog'at garchi kobin umr erur,
Dahr zolin to'rt mazhab birla qilg'il uch taloq [1.326].

Ogahiy Navoiy tomonidan ilgari surilgan qarashning ("Bu "besh kunlik" dunyoda farog'atda yashay desang umringni "mahr"ga berishing lozim bo'ladi, shuning uchun "dahr zoli"ni "uch taloq" qil") asosiy sabablarini ko'rsatishga harakat qiladi: "Dahr zoli" – dunyo ayoli, to'g'rirog'i o'ziga maftun etuvchi jozibador ayol qiyofasidagi dunyo, o'tkinchi olam. Unga hamroh bo'lgan, unga muhabbat bog'lagan kishining boshiga turli xil ofatlar, qiyinchiliklar kelishi tabiiy hol. Hatto "olti jihat"dan yog'ilayotgan bu qiyinchiliklarni shoir mubolag'a san'atidan foydalangan holda "yetti do'zax" azoblaridan ham og'ir, deya baholaydi. Dunyoning mangu emasligi va uning albatta zavolga yuz tutishi muqarrarligini xalqimiz "besh kunlik dunyo" iborasida lo'nda qilib aytgan-qo'ygan. Sharq shoirlarining ko'pchiligi olamning o'tkinchiligi, bu dunyo hayotining juda qisqaligini ifodalashda mazkur iboraga tez-tez murojaat qilishadi. Masalan, Furqatning mashhur musaddasidagi "Besh kun seni davringda bechora xirom etsun..." misrasida yoki boshqa bir qator baytlarda shu holatni ko'rish mumkin. Bunday ifodalar nafaqat she'riyatda, balki dunyoning foniy va bebaqo ekanligini urg'ulaydigan nasriy shakldagi fikr-qarashlarda ham keladi. Masalan, Z.M.Bobur "Boburnoma"da 1507-1508-yil voqealarini so'zlar ekan, "Shayboqxon Hiriyni olg'andan so'ng, bu podshohlarning zoh va zodi bila yomon maosh qildi, ne yolg'uz bu jam' bila, bori xaloyiq bila, rustoyi va nodida kishi, besh kunluk o'tar dunyo uchun mundoq yamon ot qozondi" [12.186], – deb yozadi. Hatto ba'zi o'rinlarda mohiyat teranlashib, "besh kun"lik umr tasavvufiy mazmun tashiy boshlagani anglashiladi. Buni Maxtumquli ijodidan olingan quyidagi misralar ham dalillaydi:

Umr besh kun, manzili uch,
Davroning bir soat bilan.
Yurar karvon, bog'lanar ko'ch,
Sen yotibsan rohat bilan [10.204].

Manzilga yetish uchun dunyoni tark qilmoq lozimdir. Diniy asarlarda dunyo – mo'minlarning zindoni ekanligi qayd etilsa, tasavvuf falsafasida dunyoni tark etish – ibodatlarning boshlanishi sanalgan, manzilga yetish uchun dunyoni tark qilishga chaqirilgan. She'riyatimizda "dunyo tarki", "jahon tarki", "bilganlarning tarki", "jon tarki", "sevganlarni tark qilish", "menlik tarki", "senlik-menlik tarki", "jumla tashvish tarki", "o'z-o'zini tark" kabi shakllarda ishlatiladigan bu tushunchani Hazrat Navoiy raqamlar vositasida "Dahr zolin to'rt mazhab birla qilg'il uch taloq", – deya ifoda etmoqda. Raqamlarga aloqador bu ifodalar ijodkorlarning foniy olamga munosabati boshqalarning qarashlaridan farq qilganini, sharq shoirlari dunyo mezonlarini belgilashda ham o'ziga xoslikka intilganini tasdiqlaydi.

Raqamlar bilan bog'liq tasvirlar shular bilangina chegaralanib qolmaydi, albatta. Hayotiy, ishqiy, diniy va tasavvufiy holatlarni raqamlar mohiyati yoki raqamlar ramzi vositasida ifoda etish sharq xalqlari adabiyotida, xususan, she'riyatda o'ziga xos bir an'anaga aylangan, desak xato qilmagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ogahiy. Ta'viz ul-oshiqin. Devon. – Toshkent, 2022. 688-bet.
2. Abul-futuh Shayx Ahmad G'azzoliy. Bahrul-mahabba. – Toshkent, 2019. 181-bet.
3. Furqat. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 1975. 296-bet.
4. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 8-tom. – Toshkent, 1991. 544-bet.
5. Alisher Navoiy. Qomusiy lug'at. – Toshkent, 2016. 430-bet.
6. Alisher Navoiy. MAT. 12-tom. – Toshkent, 1996. 328-bet.

7. Alisher Navoiy. MAT. 7-tom. – Toshkent, 1991. 394-bet.
8. A.Rasulov. Jamodot sinoati / Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent, 2007.
9. Amiriy. Devon. – Toshkent, 2017. 233-bet.
10. Maxtumquli. Asarlar. – Toshkent, 2013. 534-bet.
11. Abul-futuh Shayx Ahmad G‘azzoliy. Bahrul-muhabba. Muhabbat dengizi. Yusuf surasi asosida. – Toshkent, 2019. 161-bet.
12. Z.M.Bobur. Boburnoma. – Toshkent, 1989. 186-bet.

Ziyoda SARIMSAKOVA,
University of Tashkent for Applied Sciences
Department of “Foreign languages-1”, English teacher
sarimsakovaziyoda@gmail.com

FOLKLORE: DEFINITION, FUNCTION AND GENRES

Annotation: this article examines folklore as a collection of traditional knowledge and practices passed down orally through generations. It focuses on its contributions to cultural transmission, social cohesion, education and entertainment, as well as key genres such as myths, legends and proverbs. The article emphasizes folklore’s adaptability and long-term impact on preserving cultural values and traditions.

Key words: *folklore, definition, genres, function, category, cross-cultural, literary.*

Аннотация: в данной статье фольклор рассматривается как совокупность традиционных знаний и практик, передаваемых устно из поколения в поколение. Основное внимание уделяется его роли в культурной передаче, социальной сплоченности, образовании и развлечении, а также основным жанрам, таким как мифы, легенды и пословицы. В статье подчеркивается адаптивность фольклора и его долгосрочное влияние на сохранение культурных ценностей и традиций.

Ключевые слова: *фольклор, определение, жанры, функции, категории, межкультурный, литературный.*

Annotatsiya: mazkur maqolada folklor atamasi avloddan avlodga og‘zaki ravishda yetkaziladigan an’anaviy bilim va amaliyotlar majmuasi sifatida ilmiy tahlil qilinadi. Unda folklorning madaniy uzatish, ijtimoiy birlashuv, ta’lim va ko‘ngilochar funksiyalardagi o‘rni hamda miflar, afsonalar va maqollar kabi asosiy janrlari chuqur o‘rganiladi. Maqolada folklorning moslashuvchanligi va uning madaniy qadriyatlar hamda an’analarni saqlashdagi uzoq muddatli ahamiyatini ilmiy yondashuv asosida yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: *folklor, ta’rif, janrlar, vazifalar, toifalar, madaniyatlararo, adabiy.*

Introduction

Folklore encompasses nearly every aspect of our lives. It is a part of our everyday existence. We cannot deny that it exists in speech, including jokes and riddles, as well as in our games, dances and songs. Folklore cannot be ignored in any field of study related to human life, including literature, linguistics, history and ethnography. As a distinct discipline and area of study, it is becoming increasingly significant. We must first comprehend the historical evolution of folklore as a discipline in order to appreciate its breadth and significance.

History of folklore.

The 19th century marked the beginning of folklore studies. Its origins, however, go back even farther. All races are said to have descended from certain primitive tribes, such as the ancient Persians or Medes, according to Max Muller. Thus, some physical, linguistic, social and cultural symbols appear to be universal. For instance, the German vater, old German fatar, Greek and Latin pater and Sanskrit patar or petri all contain the word “father.” Thus, we can ascertain how folk utterances and speech shared some generic roots. It is also claimed that some of the folklore of contemporary European countries is associated with Hinduism and Pagan religions.

William Thoms, a Briton, coined the term “folklore” in 1846. Folklore received a unique boost from nationalistic fervor and patriotism, as many people felt compelled to preserve and record their cultural heritage. Consequently,

numerous folklore-based national societies emerged during the 1800s. In 1878 and 1888, respectively, the English and American folklore societies were established. As a result, folklore has been crucial in helping the populace develop a sense of national identity and consciousness. According to Thoms' definitions, the term "folklore" has gained international recognition. It should be mentioned that because Hitler used the term Volk Kunde for propaganda purposes, it is becoming less and less common in Germany. Many academics, particularly those from Latin America, link folklore to colonial imperialism. The term "popular antiquities" is what they prefer. This term has a strong association with Janapada or Lok in India. However, the content of folklore studies is strongly patriotic. The goal of the folklorists has always been to gather, conserve and record their country's cultural legacy.

Scholars examined songs, stories and games during the 19th and 20th centuries, classifying them as folklore. Today, though, it encompasses a wide range of gathering places and consists of a variety of verbal and oral practices in addition to material performances like songs, theater and weaving, as well as things like building houses and cooking.

Geographical concepts or literary considerations alone can't be used to define folk culture. People of the same race, gender, religion or profession may own it. It can have close human-to-human interaction and transcend geographic boundaries. Modern society and technology can also influence it. For instance, net surfers around the world may have a unique folk culture that sets them apart from other people. Since folk is a shared experience that many people share, it always suggests some form of collectivity. If a folk culture is not shared and collective, it can't become one, even if it is created by a single person. Not every member of the folk should be acquainted with every other member. They may be far away and unrelated in any way.

Folk culture is vibrant and alive. Folklore was regarded as dead culture in the 19th century. It would be incorrect to assume so, though. Any region's vibrant, ever-evolving cultural tradition is closely linked to it. Over time, its meaning and significance may evolve, but its fundamentals never change. For instance, some proverbs and jokes have lost their social meaning. They will still be a part of folk culture, though.

Scholars of folklore have different and varied definitions. "Traditional cultural forms that are communicated between individuals through words and actions and tend to exist in variation" is what Klintberg claims it represents. However, everyone in society is a part of the folk. It has long been accepted by academics that folklore is passed down orally through unofficial channels. Additionally, they think that because folklore is primarily oral, it can vary significantly depending on the communication context.

Folklore can be public or private, national or international, or local or worldwide. For instance, legends about a hero saving a princess from evil are commonplace, but stories from Rajasthan, such as Dhola Maru, are unique to the area. Folklore has a strong connection to aesthetics and the value of beauty, as seen in things like art and handcrafts. The folklorists define this in terms of skill and style. Certain academics do not view jokes, riddles or commonplace art pieces like fabrics and clay pots as artistic or creative. Nonetheless, art objects, commonplace expressions, speech patterns and vocalizations are examples of artistic communication patterns.

Folklore is defined by family, according to many academics. They believe that this social structure is the main force behind the entire folklore process, including communication, cultural preservation and symbol conservation. The family frequently acts as a mediator for patterns of behavior, art, rituals, institutions and expressions. We can go one step further and say that folk culture is the representation and reaffirmation of a group's overall identity, whether that group is a family, community or country.

Thus, a group can be primary or secondary or large or small. Size, purpose, duration, communication patterns, social control type and the degree of individual involvement in the group are some of the criteria that can be used to distinguish between these. Usually, a primary group can be small and community members interact directly and face-to-face. A secondary group, on the other hand, is bigger and might last longer.

Thus, folk has been defined by scholars in a number of ways:

1) The country has a strong connection to folklore.

2) It is considered to be at the bottom of the social scale.

3) In contrast to the sophisticated civilization, it is considered outdated.

4) It is thought to be a creature of large, populous societies.

5) Folk is defined as a social group that is bound together by a shared custom and a unique sense of communication.

According to the aforementioned discussions, folklore is a broad category that can be defined as the culture of any group that is expressed through expressive literature or verbal communication, behaviors evident in material life (such as rituals and customs), and individual performances and public displays.

Everyone is entitled to folklore. It encompasses the entire spectrum of society. One could say that it also performs and satisfies a number of fundamental tasks. More information on this will be covered in the

upcoming unit. The following are some of the main areas in which it performs specific functional roles:

1) Psychological or individual
2) Functional
3) Religious
4) Historical-national
5) Economic
6) Cross-cultural

It is widely acknowledged that folk life encompasses all facets of traditional culture and human existence, including oral tradition, traditional art and craft and more. Folk culture's diverse genres can be categorized under four primary headings:

1) Oral literature
2) The culture of material objects
3) Social folk tradition
4) Performing in folk arts

Oral literature Spoken, sung, or simply voiced verbal communications that exhibit some repetitive behavior fall under this category. This is sometimes referred to as the communicative or verbal arts. Below are the specifics of the different subgenres:

Oral narratives, stories and tales. The desire to tell and hear stories is timeless. Folk narratives include all types of oral literature. The story conveys a sense of fantasy to the listener. Industrial expansion and urbanization have also spawned a plethora of stories. These stories can be fictitious, historical, revered or ridiculed in their treatment and plot.

Folk poetry. This differs from narrative in the manner in which it is transmitted. They do not always concentrate solely on a single poem. Oral epics fall under this category. Poetry is frequently repeated, dramatic and exaggerated. This frequently deals with materials with dramatic local significance. Epics, on the other hand, are highly ornamental poems that describe the adventures of extraordinary people. They can be heroic, romantic or historic.

Proverbs. This is easily observed and collected, and it has become a part of daily verbal resources. These are short, witty traditional expressions that appear in both everyday discourse and highly structured situations such as education. For instance, the phrase "from the frying pan into the fire" They frequently use personal experiences to create witty characters.

Conclusion

Folklore is a rich and diverse body of knowledge and traditions that reflect the cultural identities of communities all over the world. It is not limited by regional or national borders, but rather includes the practices and beliefs of any group, regardless of size, socioeconomic status or educational level. Folklore is essentially a community's lifeblood, passed down orally through generations to preserve not only stories but also a way of life. Folklore serves as a means of communication, learning and social cohesion for everything from simple daily tasks to complex rituals. Folklore encompasses all forms of knowledge passed down orally, including legends, myths, proverbs and songs. But it goes beyond words. It encompasses a diverse range of cultural expressions, including arts, crafts, food, customs, religious practices, medical traditions and even language itself. Folklore encompasses music, dance, drama and other forms of artistic expression that help define and unite a community. Understanding folklore entails not only learning about ancient myths and stories, but also recognizing how human cultures express their values, beliefs, and worldviews. Folklore is essential for passing down social norms and moral lessons, as well as instilling a sense of belonging and unity. As the world becomes more interconnected, the study of folklore allows us to appreciate the richness of cultural diversity while also preserving traditional wisdom and adapting to modern challenges. It is a discipline that not only examines the past, but also illuminates the path to a more profound understanding of human connection across time and distance.

References

1.Blank, Trevor J. Folklore and the Internet: Vernacular Expression in a Digital World. University Press of Colorado, 2009.

2.Bronner, Simon J. Explaining Traditions: Folk Behavior in Modern Culture. University Press of Kentucky, 2011.

3.Bronner, Simon J. Folklore: The Basics. Routledge, 2016.

4.Noyes, Dorothy Humble Theory: Folklore's Grasp on Social Life. Indiana University Press, 2016.

5.Oring, Elliott. Folk Groups and Folklore Genres: An Introduction. Utah State University Press, 1986.

6.Tangherlini, Timothy R. Big Data in Folklore Studies. Journal of American Folklore, vol. 131, no. 522, 2018, pp. 5-27.

7.Thomas, Green. Folklore: An Encyclopedia of Beliefs, Customs, Tales, Music and Art. California. 1997.

Shaxodat RAXMATULLAYEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti



AR BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUV TOPSHIRIQLARINING TURLARI VA TASNIF

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘quv topshiriqlaridan foydalanish, ularning tasnifi va tavsifiga doir fikr-mulohazalar, o‘quv topshiriqlarining berilishi, turlari, vazifasini tahliliy o‘rganish hamda o‘quv topshiriqlari nazariyasidagi o‘zgarishlar, yangi yondashuvlarga munosabat bildirish, darsliklardan keltirilgan o‘quv topshiriqlarining yutuq va kamchiliklari haqida yondashuvlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, ona tili, mashq, topshiriq, savol, o‘quv topshiriqlarining turlari, yangi avlod darsliklari, matn, lug‘at, ko‘nikma, malaka, bilim, xalqaro tajriba.*

Аннотация: *в статье изложены подходы к использованию учебных заданий в начальных классах, отзывы об их классификации и описании, аналитическое изучение форм, типов, задач и изменений в теории учебных заданий, реакция на новые подходы, достижения и недостатки учебных заданий из учебников.*

Ключевые слова: *начальное образование, родной язык, упражнение, задание, вопрос, виды учебных заданий, учебники нового поколения, текст, словарный запас, навыки, компетенции, знания, международный опыт.*

Annotation: *the article describes approaches to the use of educational tasks in primary classes, reviews of their classification and description, analytical study of forms, types, tasks and changes in the theory of educational tasks, reaction to new approaches, achievements and shortcomings of educational tasks from textbooks.*

Keywords: *primary education, native language, exercise, task, question, types of educational tasks, textbooks of the new generation, text, vocabulary, skills, competencies, knowledge, international experience.*

Hozirgi vaqtda pedagogikada o‘quv topshiriqlari nazariyasi bo‘yicha katta miqdordagi tadqiqotlar to‘plangan. Olimlar, jumladan, S.F.Ruykov, I.K.Juravlev, I.Y.Lerner, F.B.Sushkova, A.I.Uman, M.A.Fedorova va boshqalar o‘quv topshiriqlarining terminologiyasi, funksiyalari, tuzilishi, turli tasniflari bilan bog‘liq masalalarni o‘rganganlar.

O‘quv topshiriqlari muammosi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish ushbu tushunchaning yagona ta’rifi mavjud emasligini ko‘rsatadi. Tadqiqotchilar ushbu didaktik toifani turli yo‘llar bilan izohlaydilar, ko‘pincha “topshiriq”, “mashq”, “savol” atamalarini bir-birining o‘rnida ishlatadilar, bu esa ularda so‘zlarni nutqda erkin qo‘llash ko‘nikmasini va ularning ma’nosini tushunishni qiyinlashtiradi[1].

Umumiy ma’noda “topshiriq” atamasi subyektga biron bir harakatni amalga oshirishni yoki biron bir natijani olishni talab qiladigan topshiriqni anglatadi[2].

Bu borada G‘.Hamroyevning yondashuvlari ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Darsliklarda mashq va topshiriqlarning berilishi, mazmuni bir-biridan farqlanmaydi. Ikkalasida ham “ajrating” topshirig‘i berilmoqda.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mashq atamasiga shunday ta’rif berilgan: “mashq” 1. [Arabcha. – husnixat, rasm chizish uchun namunalar] biror faoliyatni puxta o‘rganish, malaka hosil qilish uchun bajariladigan ish, tayyorgarlik mashg‘uloti. Harbiy mashq. Mashq qilmoq. Siddiqjon ko‘kragini sandalga berib, xat mashq qilar, kanizak uning ro‘parasida kitob o‘qib o‘tirar edi. A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. – Ish yomon, – dedi kelgan militsionerlar, – ko‘p mashq ko‘rmagan, hali miltiq otishni bilmaydigan militsionerlar qo‘lidan nima kelar edi. S. Ayniy, Qullar. 2. Ma’lum maqsadda bajariladigan, qilinadigan muayyan ish, harakat. Imloga doir mashqlar. Jismoniy mashqlar. Bolalar bir-birlarining qo‘llarini ushlab, gimnastika mashqlarini yengil va chiroyli bajaradilar. Gazetadan.[3]

“Pedagogika ensiklopediyasi”da mashqqa berilgan ta’rifning ancha takomillashgan va ta’lim sohasiga moslashtirilgan shaklini ko‘rish mumkin:

Mashq (Arabcha – husnixat, rasm chizish uchun namunalar) – biror faoliyatni puxta o‘zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida ko‘p marta takrorlash. Masalan, o‘qish, yozish mashqi ta’limda ko‘nikma va malakalar hosil qilishda muhim o‘rin tutadi[4].

Topshiriq atamasiga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha ta’rif berilgan: “Topshiriq 1. Kimsaning zimmasiga yuklatiladigan ish, vazifa. Hukumat topshirig‘i. Topshiriq bermoq. Tergovchi ham xit bo‘ldi. Axir, u bu yerga o‘ynagani kelmagan-ku. Maxsus topshiriq bilan

1 Жданова Е.А. Особенности разработки многоцелевых учебных заданий в процессе формирования универсальных учебных действий у младших школьников // Герценовские чтения. Начальное образование. - 2019. Т. 10.- 2019.- № 1. - С. 30-35.

2 Закирова С.К. Учебное задание как дидактическое средство проблемного обучения: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01. - М., 2007.- 23 с.

3 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 2-жилд.–Т.: ЎзМЭ, 2004. – 562-б.

4 Педагогика Энциклопедияси. 2-жилд. –Т.: Ж – М., 2012. – 223-б.

oqni oqqa, qorani qoraga ajratgani kelgan”[1].

Ko‘rinib turibdiki, har bir atama o‘z mazmun-mohiyatiga ega. Ya’ni, mashq muayyan harakatni, bir necha bor aynan takrorlash orqali shu mashg‘ulotdan ko‘zlangan ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishni nazarda tutsa, topshiriq kishining, jumladan, o‘quvchining zimmasiga biror mavzuni mustahkamlash maqsadida bir marta bajarish uchun beriladigan ish, vazifani anglatadi.

Demak, mashq – ko‘nikma yoki malaka hosil qilish vositasi. Topshiriq esa ma’lumotlarni xotiraga kirituvchi qurilmaga o‘xshaydi. U yo‘naltiruvchi xususiyatga ega. Topshiriq orqali o‘quvchini fikrlashga, mustaqil ishlashga o‘rgatish mumkin. Zero, mashqlar ham, topshiriqlar ham “ona tili” darsliklarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Nazariy ma’lumotlar, ya’ni grammatik qoidalar o‘quvchida belgilangan mavzu doirasida bilim, tushuncha hosil qiladi. Ta’lim mazmunida o‘quvchi egallashi ko‘zda tutilgan ko‘nikma va malakani, asosan, mashqlar shakllantiradi. Topshiriqlar bu o‘rinda ko‘proq o‘quvchi bilimini boyitishga xizmat qiladi.

Maktabda, odatda, muayyan o‘quv predmetiga tegishli darslik dars jarayonida ham, hatto darsdan so‘ng ham o‘quvchi va o‘qituvchining shu o‘quv predmeti bo‘yicha bilim berish hamda ma’lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Shunday ekan, asosiy diqqatni darslikdagi o‘quv materiallarining tarkibi, tuzilishi va, albatta, mazmuniga qaratish kerak. Maktab darsliklarida millat tafakkuri va mafkurasining eng ilg‘or namunalari aks etishi kerak[2], degan ta’kid, fikrimizcha, “ona tili” darsliklariga ko‘proq tegishlidir. *O‘quv topshirig‘i didaktik tushuncha sifatida ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan o‘qituvchining o‘quvchilarga ko‘rsatma turi sifatida belgilanadi, unda o‘quv mazmunini o‘zlashtirish uchun har qanday o‘quv harakatlarini bajarish talabi mavjud*[3].

O‘quv topshiriqlari nazariyasini ishlab chiqishga katta hissa qo‘shgan A. Uman o‘quv topshirig‘ini ta’lim mazmuni prizmasi orqali ko‘rib chiqdi. Tadqiqotchi o‘quv topshirig‘ini maxsus vosita deb ataydi, uning yordamida haqiqiy o‘quv jarayonida ta’lim mazmuni bilan bevosita aloqada bo‘lmagan o‘qituvchi va o‘quvchi undan foydalanishi mumkin (o‘qituvchi – uzatish uchun, o‘quvchi – qabul qilish va o‘zlashtirish uchun)[4].

Bundan tashqari, A. I. Uman o‘quv topshirig‘ining yana bir xususiyatini – ta’lim mazmunini o‘zida mujassam etgan shakl sifatida ochib beradi. Olim ushbu qoidani o‘qituvchi ta’lim mazmunini sof shaklda emas, balki o‘quv topshirig‘i shaklida tarjima qiladi, deb ta’kidlaydi. Talaba tarkibning u yoki bu tarkibiy qismini tayinlab, o‘z faoliyatida olgan topshirig‘ini bajaradi, natijada “ta’lim mazmuni, go‘yo, o‘z qobig‘idan – topshiriqni tashlaydi va talabalarga beriladi”[5]. *Shunday qilib, o‘quv topshirig‘i o‘quvchi tomonidan ko‘rib chiqiladi va ta’lim mazmunini amalga oshirish vositasi va mujassamlashgan shakli sifatida talqin qilinadi.*

E.A. Belyayeva va N.V. Kuznetsova ta’lim mazmunini tashkil etish vositasi sifatida o‘quv topshirig‘i haqida gapirishadi. Shu bilan birga, tadqiqotchilar o‘quv topshirig‘ining maktab o‘quvchilari tomonidan shaxsiy o‘quv natijalariga erishishga va o‘quvchilarning bilim tajribasini shakllantirishga yo‘naltirilganligini ta’kidlaydilar[6].

Shunday qilib, o‘qituvchi o‘quv mazmunini topshiriqlar qobig‘iga joylashtiradi va ularni o‘quvchilarga bajarish uchun norma sifatida taqdim etadi; o‘quvchi o‘quv mazmunini o‘zlashtirgan holda topshiriq talablarini bajaradi. Shu munosabat bilan, S.I.Pozdeyeva ta’kidlaganidek, “o‘qituvchining topshiriqlarni, ularni bajarish namunalarini taqdim etish madaniyatini; algoritmlarni (eslatmalar, ko‘rsatmalar) bosqichma-bosqich qo‘llanma sifatida tushuntirish madaniyatini” nazarda tutadigan maxsus madaniyat muhimdir; mashqlarni bajarishni tashkil etish madaniyati (tayyorgarlik, ijro va nazorat bosqichlari), algoritm bo‘yicha o‘quv harakatlarining aniqligi va to‘g‘riligini ishlab chiqish; tashqi nazorat madaniyati va o‘quv topshiriqlarining to‘g‘riligini baholash»[7] *alohida ahamiyatga ega.*

S.I.Pozdeyevaning tadqiqotlari o‘quv topshiriqlarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘qituvchi (avtoritar, yetakchilik, sheriklik) qo‘shma faoliyatni tashkil etishning qaysi modelini tanlashiga bog‘liqligini asoslaydi va har bir modelni amalga oshirishda o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish texnologiyasini tavsiflaydi[8].

Didaktik tadqiqotlar mavzusi, shuningdek, o‘quv topshirig‘ining maqsadi, ilmiy adabiyotlarning retrospektiv tahlili shuni ko‘rsatdiki, dogmatik ta’lim davrida o‘quv topshiriqlari ko‘pincha o‘rganilayotgan materialni yodlash, eslab qolish talabidir. Turli xil o‘quv muassasalarida o‘quv jarayoni “o‘qish-eslab qolish-takrorlash” algoritmi yordamida amalga oshirildi.

K.D.Ushinskiy boshlang‘ich ta’lim metodologiyasining nazariy prinsiplarini asoslab berib, shunday deb yozgan edi: “Ona tilini osongina va qiyinchiliksiz o‘rganish orqali

1 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 4-жилд.–Т.: ЎзМЭ, 2004, – 150-б.

2 Каримов И. А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998.–4-19-б

3 Бимбад Б.М. Педагогический энциклопедический словарь. - М.: Большая Российская энциклопедия, 2008.- С. 89-90.

4 Шилова Е.С. Учебные задания развивающего характера как средство повышения эффективности обучения: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01. - М., 1980. - 12 с.

5 Уман А.И. Учебное задание и его типы // Новые исследования в педагогических науках. -М.: Педагогика, 1983. - №2.- С. 32-35.

6 Беляева Е.А. Учебное задание как педагогическое средство достижения личностных результатов обучения в основной школе: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01. - Тверь, 2019. - 24 с. Кузнецова Н.В. Учебные развивающие задания как средство формирования познавательного опыта школьников: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01. - Владимир, 2010. - 25 с.

7 Поздеева С.И. Типология уроков в концепции педагогики совместной деятельности // Научно-педагогическое обозрение (Pedagogical Review). - 2016. - Вып. 3.- С. 39-40.

8 Поздеева С.И. Типология уроков в концепции педагогики совместной деятельности // Научно-педагогическое обозрение (Pedagogical Review). - 2016. - Вып. 3.- С. 36-41.

har bir yangi avlod bir vaqtning o‘zida o‘zidan oldingi avlodlarning fikrlari va his-tuyg‘ularini o‘zlashtiradi”[1]*. Ushbu qonuniyatdan, birinchi navbatda, tilning boyligini – uning so‘zlarini, nutq burilishlarini, so‘z ustalari tomonidan o‘zbek tilida yaratilgan eng yaxshi asarlarning matnlarini va shu asosda – tilning tuzilishi va mexanizmlarini ramziy tizim sifatida o‘rganish zarurati kelib chiqadi. “Bolalar nafaqat so‘zlarni, ularning qo‘shimchalarini o‘rganadilar, balki cheksiz tushunchalar to‘plami, obyektlarga qarashlar, teran fikrlash, his-tuyg‘ular, badiiy tasvirlar, til mantig‘i va falsafasini ham oson o‘zlashtiradilar.*

Tilni o‘qitish metodikasi ba’zan amaliy tilshunoslik deb ataladi.

Darhaqiqat, metodologiya – bu tilning xususiyatlari va qonuniyatlarini, nutqni,

ularni o‘zlashtirish jarayonlariga qo‘llash yo‘llarini o‘rganadi. Masalan, tilda (tilshunos L. V. Shcherba asarlariga ko‘ra) uch mintaqa:

– nutq faoliyati (ya’ni gapirish, tinglash, yozish, o‘qish);

– til materiallari – barcha aytilgan va yozilgan, eng yaxshi adabiyot namunalarida yaratilgan barcha matnlar to‘plami;

– til tizimi, ya’ni uning darajalari, tuzilishi, bo‘limlari: fonetika, grafika, imlo, orfoepiya, leksika, frazeologiya, morfemika, so‘z shakllanishi, morfologiya, sintaksis, semantika, stilistika, matn sintaksisi.

Didaktik pedagogika, psixologiya bilan birgalikda ta’lim tushunchalarini ilgari suradi, ta’lim taraqqiyotini ta’minlaydi. Natijada, mavjud usullar tarixini o‘rganish o‘quvchilarning bilim faolligi va mustaqilligining asta-sekin o‘sib borish tendensiyasini ko‘rsatadi. Didaktik olimlar M.N.Skatkin va I.Y.Lerner quyidagi tipologiyani ishlab chiqdilar va maktab o‘quvchilarining bilim faolligi darajasini uning asosi sifatida qabul qilib, o‘qitish usullarini quyidagicha belgiladilar:

1. Dogmatik usullar: material majburiy tushunmasdan yodlanadi.

2. Reproduktiv usul: material nafaqat yodlanadi, balki takrorlanadi.

3. Tushuntirish va illyustrativ usul: materiallar tushuntiriladi, misollar keltiriladi, namoyish etiladi va o‘quvchilar tomonidan tushunilishi kerak.

4. Samarali usullar: material nafaqat tushunilishi, balki amaliy harakatlarda ham qo‘llanilishi kerak.

5. Evristik, qisman da’vo usullari: o‘quvchining o‘zi yangi bilimlarni individual elementlarini maqsadli kuzatuvlar, kognitiv muammolarni hal qilishi orqali oladi.[2]

Tilni o‘zlashtirish orqali o‘quvchi: uning o‘nlab, yuz minglab umumiy so‘zlarni o‘z ichiga olgan lug‘at tarkibini, uning frazeologiyasini uning eng boy so‘z yasash tizimini, morfemikasini bilib oladi. Ularda modellar, uning grammatikasi, tilning ishlash mexanizmlarini qayta tiklash, shakllarni shakllantirish va ularni jumlada birlashtirish kabi qobiliyati shakllanadi, ya’ni shaxsning shakllanishi sodir bo‘ladi. Shuningdek, sintaktik xilma-xillikning cheksiz xilma-xilligi, intonatsiyalar bilan bo‘yalgan tuzilmalar fikrning eng nozik soyalarini yetkazishga imkon beradi.

Til (va tillar) bilan doimiy shug‘ullanish aqlni boyitadi. Bu o‘quvchida, aniq leksik vositalar va katta-kichik jumlalarni tez, xatosiz qurish, ularni matn tarkibiga bog‘lash; mantiqiy aloqalar va asoslilikka rioya qilish kabi qobiliyatlarni shakllantiradi. Nutq – bu to‘liq tinglash va o‘qish, qayta o‘qish orqali tilning tuzilishi va mexanizmlarini tushunish, tilning estetikasi – nutqning ekspressivligi, chiroyli, xattotlik yozuvi, adabiy ijodning birinchi tajribalarini o‘zlashtirish orqali yuzaga chiqadi.

Tilni chuqur o‘rganish yangi mavzularni qo‘shish, nazariy materialni miqdoriy kengaytirish bilan emas, balki analitik materialni chuqurlashtirish bilan belgilanadi. Maktabga kelgan bolalar ona tilidan allaqachon erkin amalda foydalanadilar, mohiyatan, namunali materialni o‘rganishda nazariy ma’lumotga ehtiyoj sezmaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflar uchun yaratilayotgan o‘quv metodik materiallarning mazmuni nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilishi kerak. Bunda asosiy, tayanch vosita o‘quv topshiriqlari hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quv topshiriqlaridan, asosan, mashqlardan samarali foydalanish zarur, zero o‘quvchida nutqiy ko‘nikmalar boshlang‘ich sinfda, shu yoshda shakllanib bo‘ladi. Keyingi bosqichlarda juda kam ijobiy natijaga erishish mumkin.

1 Ушинский К.Д. Педагогическая поездка по Швейцарии //Педагогические сочинения: В 6 т. Т.2 /сост. С.Ф. Егоров. - М.: Педагогика, 1988.- 496 с.

2 Методика преподавания русского языка в начальных классах: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / М. Р. Львов, В. Г. Горецкий, О. В. Сосновская. – 3-е изд., стер. – М.: Издательский центр «Академия», 2007. – 464 с.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жданова Е.А. Особенности разработки многоцелевых учебных заданий в процессе формирования универсальных учебных действий у младших школьников // Герценовские чтения. Начальное образование. - 2019. Т. 10.- 2019.- № 1. - С. 30-35.

2. Закирова С.К. Учебное задание как дидактическое средство проблемного обучения: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01. - М., 2007. 23 с.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 2-жилд.–Т.: ЎзМЭ, 2004. 562-б.

4. Педагогика Энциклопедияси. 2-жилд. –Т.: Ж – М., 2012. 223-б.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 4-жилд.–Т.: ЎзМЭ, 2004, 150-б.

6. Каримов И. А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. 4-19-б.

7. Бимбад Б.М. Педагогический энциклопедический словарь. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2008.- С. 89-90.

Shohruh ABDIRAIMOV,
1. Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
2. Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bosh mutaxassisi
Rashid TOJIBOYEV,
Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bo‘lim boshlig‘i

TEST, O‘LCHASH, BAHOLASH VA BAHO BERISH ATAMALARINING MAZMUNIY CHEGARALARI

Annotatsiya: tadqiqotlarda qo‘llaniladigan terminlarning mazmuniy chegaralarini farqlash, o‘zaro munosabatini aniqlash, izohlarini bir xillashtirish mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Bunda tegishli nazariy tushunchalarga soha vakillarining bergan ta’riflarini o‘zaro qiyoslash, izohlarini qayta ishlash qulay tahlil amaliyoti hisoblanadi. Ushbu maqolada “test”, “baholash”, “o‘lchash” va “baho berish” terminlariga soha olimlari tomonidan berilgan izohlar qiyoslandi, tahlil qilindi. Tahlil jarayonini tashkil etishda qiyoslash va solishtirish usullaridan foydalanildi. Natijada mazkur tushunchalar o‘rtasidagi mazmuniy chegaralar, ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni aniqlandi.

Kalit so‘zlar: *ta’lim, test, baholash, o‘lchash, baho berish, vosita, jarayon.*

Аннотация: выделение семантических границ используемых в исследовании терминов, определение их взаимосвязи и унификация их объяснений осуществляется путем анализа существующей научной литературы. В этом случае удобной аналитической практикой является сопоставление определений, данных представителями отрасли, с соответствующими теоретическими концепциями, обработка их комментариев. В данной статье сравниваются и анализируются объяснения ученых отрасли к терминам «тестирование», «оценка», «измерение» и «оценивание». Для организации процесса анализа использовались методы сравнения и контраста. В результате были определены содержательные границы между этими понятиями и их место в образовательном процессе.

Ключевые слова: *образование, тест, оценка, оценивание, измерение, оценивание, инструмент, процесс.*

Annotation: the differentiation of semantic boundaries for terms used in research, determination of their interrelationships, and standardization of their interpretations are carried out through analysis of existing scientific literature. In this context, comparing definitions given by field representatives for relevant theoretical concepts and refining their interpretations is considered a convenient analytical practice. This article compares and analyzes interpretations of the terms “test,” “assessment,” “measurement,” and “evaluation” provided by scholars in the field. Comparison and contrasting methods were used in organizing the analysis process. As a result, the semantic boundaries between these concepts and their roles in the educational process were identified.

Keywords: *education, test, assessment, measurement, evaluation, tool, process.*

Kirish. Ilm-fanning taraqqiyoti yangidan yangi fan tarmoqlarining paydo bo‘lishiga, muhim sohalarning taraqqiyotiga yo‘l ochadi. Shular qatorida pedagogika sohasida ham ta’limning muhim bir jihatlarini tadqiq etadigan ichki tarmoqlar vujudga kelmoqda. Jumladan, raqamli pedagogika, pedagogik o‘lchovlar va boshqalar.

O‘zbek milliy pedagogikasi tarixi ham Sharq xalqlarining uzoq yillik o‘qitish an’analariga borib taqaladi. O‘ziga xos shart-sharoitlarda taraqqiy etgan. Mustaqillikdan keyingi davr o‘zbek pedagogikasi haqida to‘xtalsak, mazkur davrning mavjud pedagogik qarashlarini tahlilga tortsak, mustaqillikning dastlabki 10 yilida Sobiq sovet ittifoqi ta’siridan xalos bo‘la olmagan ta’lim va tarbiya jarayoni namoyon bo‘lishini ko‘ramiz. Biroq so‘nggi yigirma yillikni esa o‘zbek pedagogikasi jahonning ilg‘or tajribalaridan andoza olish, milliy ta’lim tamoyillarini izlash davri deya olamiz. Jumladan, bu davrda uzviylashtirilgan ta’lim tizimiga o‘tish yoki kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan pedagogika ustuvorlik qildi. Eng diqqatni tortadigan tomoni mustaqillikdan keyin uzoq vaqt zamonaviy pedagogik sohalar yurtimiz ta’lim tizimiga ilmiy tarmoq sifatida olib kirilmadi. Jumladan, pedagogik klinika, pedagogik politika, pedagogik kvalimetriya kabi sohalar. Sobiq sovet ittifoqi an’anasidagi pedagogik tarmoqlar atrofida tadqiqotlar olib borildi. Yangi pedagogik tarmoqlar bo‘yicha qilingan ishlar ham mavjud an’anaviy tarmoqlar talabi asosida “qaychilandi”. Pedagogikada “Yuqoridan pastga kelish” tamoyili asosida yirik tadqiqotlar qilinmadi. Ayniqsa, ta’lim tizimining muhim komponenti hisoblangan “Baholash jarayoni” bilan bog‘liq tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmadi. Bu esa sohada tizimli muammolar

yig‘ilib qolishiga olib keldi. Biroq so‘nggi besh yillikda esa davlatimiz xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish uchun tayyorlanishi va dastlabki natijalar shuni ko‘rsatdiki, faqatgina sifatli baholash orqali sifatli ta’limga erishish mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, baholash nazariyasidagi asosiy tushunchalar: “test”, “baholash”, “o‘lchash” va “baho berish” atamalarining mazmuniy chegaralarni aniqlash, aniq izohlarini berish ahamiyatga molik.

Manbalar tahlili. Butunjahon baholash nazariyasida baholash tushunchasi bir-biridan farqli tushunchalar bilan nomlanadi. Jumladan, ingliz tilida “test”, “assesment”, “measurement” va “evaluation” ifodalari bilan beriladi. Ushbu tushunchalar mazmun-mohiyatidagi farqlarni va mazmuniy qamrov chegaralarini aniqlash borasida jahon pedagogikasida bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Frederik Lord (Frederick Lord) va Melvin Novik (Melvin Novick) tadqiqotida “o‘lchash” va “baholash” atamalarini bir-biridan farqlashga harakat qilgan (Lord F. and Novick M. Statistical. 1968). Dr. Bob Kizlik esa “test”, “baholash”, “o‘lchash” va “baho berish” atamalarining farqlarini ochib berishga uringan (Kizlik, Bob. 2015.). Boshqa bir osiyolik olim Ali Bastanfar “test”, “baholash”, “o‘lchash” va “baho berish” tushunchalarini izohlashga va ular o‘rtasidagi mazmuniy chegaralarni qo‘yishga harakat qiladi va sxematik tarzda tasvirlaydi (Bastanfar, Ali. 2012). Boshqa bir olimlar jamoasi “test”, “o‘lchash”, “baho berish” tushunchalarining ta’lim bilan munosabati haqida to‘xtalib, ularning mazmuniy chegaralarini bayon etadi (M. David Miller, Robert L.Linn, Norman E. 2009).

O‘zbek tilidagi manbalarda esa “test”, “imtihon”, “nazorat ishi” va “baholash” tushunchalari deyarli farqlanmaydi (Roziqov O. 2005). Boshqa bir o‘zbek olimi K.Jalilov ham “test” va “baholash” tushunchalarini umumiy kontekstda qo‘llaydi, farqlamaydi (K.Jalilov. 2020).

Tadqiqot metodologiyasi. Baholash nazariyasidagi “test”, “baholash”, “o‘lchash” va “baho berish” atamalarining mazmuniy chegaralarini aniqlashtirish hamda ta’lim tizimidagi o‘rnini belgilash maqsadida ilmiy tadqiqot bazalaridan tegishli maqolalar ajratib olindi. Bunda google akademiyasida Ta’limni baholash, o‘lchash va baho berish, Ta’limda o‘lchash va baho berish, Ta’limda test va baholash, Alternativ baholash mavzulari asosida ilmiy tadqiqotlar saralandi. Natijada mavzularga doir 234 ta maqola aniqlandi. Ulardan 10ga yaqini alohida o‘rganib chiqildi. Quyida ularning ayrimlarini tahlil etamiz.

Milliy pedagogikamizda “test”, “baholash”, “o‘lchash” va “baho berish” atamalarining mazmuniy chegaralarini aniqlashtirish borasida maxsus tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Biroq K. Jalilov qo‘llanmasida “test”, “assesment”, “measurement” va “evaluation” tushunchalarining o‘zbek tilidagi ifodasini topishga harakat qilgan. Jumladan,

Baholash – biron-bir domenning (bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar majmuining) ta’lim oluvchilarda (test topshiruvchilarda) shakllanganlik darajasini o‘lchash jarayoni.

Test – baholanishi lozim bo‘lgan domen va konstrukt haqida xulosa chiqarishga asos bo‘ladigan topshiriq yoki topshiriqlar yig‘indisi.

O‘lchash tushunchasiga esa klassik test nazariyasining asoschilaridan Frederik Lord (Frederick Lord) va Melvin Novik (Melvin Novick) izohini keltiradi: “O‘lchash – bu tajriba obyektining konkret xususiyatlariga raqamlar (ballar)ni biriktirish jarayoni” (K.Jalilov. 2020).

Olim “baholash” va “o‘lchash” tushunchalariga jarayon sifatida, “test”ga esa vosita, instrument sifatida izoh beradi. Ammo “evaluation” atamasining o‘zbekcha ifodasi hamda mazkur tushunchalar o‘rtasidagi mazmuniy chegaralari haqida alohida to‘xtalmaydi.

Ta’limda “test”, “baholash”, “o‘lchash” va “baho berish” atamalari ko‘p ishlatiladi, shuning uchun ularni bir-biridan farqlash muhim ahamiyatga ega. Biroq jahon pedagogikasida ham ularning mazmuni va qamroviga ko‘ra farqlarini aniqlash dolzarbligicha qolmoqda. Dr. Bob Kizlik tadqiqotida ularni farqlash uchun quyidagicha izoh beradi:

Test: o‘quvchining ma’lum topshiriqlarni bajarish qobiliyatini aniqlash, ko‘nikma yoki o‘zlashtirilgan bilimlarni namoyish etish usuli. Ularning ba’zi turlari, muqobil javobli testlar, moslashtirishni talab qiladigan yoki ochiq turdagi testlar ham bo‘lishi mumkin. U odatda baholash yoki hatto baho berish bilan bir-birining o‘rnida ishlatilsa-da, u baholashning bir shakli ekanligi bilan ajralib turishi mumkin.


Baholash: ta’lim taraqqiyotini kuzatish va kerak bo‘lganda ta’lim qarorlarini qabul qilish uchun ma’lumot to‘plash jarayoni. Testning ta’rifida ta’kidlanganidek, baholash testni o‘z ichiga olishi mumkin, ammo undan tashqari kuzatishlar, suhbatlar, xatti-harakatlar monitoringi va boshqalar kabi usullarni ham o‘z ichiga oladi.

Baho berish: olingan yoki o‘rganilgan bilim oldindan belgilangan mezonlarga javob berishi yoki bermasligi haqida qaror qabul qiluvchi jarayondir. Bu jarayon oldindan belgilangan mezonlarga muvofiq malakani aniqlash uchun testdan foydalanadi.

O‘lchash: Ta’lim jarayonida test natijasiga miqdoriy o‘lchov beruvchi jarayondir. Ta’limni baholashda o‘lchashning asosiy tamoyillaridan ba’zilari xom ballar, foizli darajalar, tahlil qilingan ballar, standart ballar va boshqalar bo‘lishi mumkin (Kizlik, Bob. 2015).

Olim “baholash”ga umumiy jarayon, “o‘lchash”ga miqdoriy o‘lchash jarayoni sifatida, “test”ga esa usul sifatida izoh beradi. “Baho berish” atamasini esa xulosa berish jarayoni sifatida izohlaydi. Biroq mazmuniy chegaralar haqida alohida to‘xtalmaydi.

Boshqa bir osiyolik olim Ali Bastanfar tadqiqotida



bu tushunchalarni izohlashga va o‘rtasidagi mazmuniy va qamrovli chegaralarni qo‘yishga harakat qiladi va sxematik tarzda tasvirlaydi. (1-rasmga qarang)

1-rasm. Baho berish, o‘lchash va test o‘rtasidagi munosabatlar.

Bu rasmda olim baho berish, o‘lchash va test o‘rtasidagi munosabatlarning kengaytirilgan ko‘rinishini tasvirlagan.

Bu rasmdagi 1 dan 5 gacha raqamlangan maydonlar ularning munosabatlarini ko‘rsatishini qayd etadi va quyidagicha izohlaydi:

1-soha – na o‘lchashni, na testlarni o‘z ichiga olmaydigan baho berish (evaluation): masalan, o‘quvchilarning o‘quv dasturlarini o‘rganishdagi muammolarini sifat tavsiflaridan foydalangan holda tashxislash.

2-soha – testni o‘z ichiga olmagan baho berish (evaluation): masalan, o‘qituvchilar o‘quvchilarning reytingini aniqlash uchun miqdoriy o‘lchovdan foydalanishi.


3-soha – baho berish maqsadida foydalaniladigan test: masalan, o‘quvchilarning muvaffaqiyatini aniqlash uchun muvaffaqiyat testlaridan foydalanish.

4-soha – muhim qarorlar qabul qilinmaydigan test: masalan, tadqiqot nuqtayi nazaridan o‘quvchilarning ikkinchi til bilish ko‘nikmasini aniqlash testi.

5-soha – muhim qarorlar qabul qilinmaydigan testsiz o‘lchov: masalan, ona tiliga ko‘ra ikkinchi til tadqiqotida fanlarga kod raqamlarini biriktirish” (Bastanfar, Ali. 2012).

Olim mazkur tushunchalar o‘rtasidagi munosabatni vizual tarzda tushunarli ochib bergan, biroq ularning baholashga munosabati mavhumligicha qolib ketgan.

Boshqa bir olimlar jamoasi “test”, “o‘lchash”, “baholash” va “baho berish” tushunchalarining ta’lim bilan munosabati haqida to‘xtalar ekan, o‘z qarashlarini quyidagi sxema orqali ifodalaydi (M. David Miller, Robert L.Linn, Norman E. 2009).



2-rasm. “Baho berish”, “test”, “o‘lchash”, “baholash” va “ta’lim” tushunchalari o‘rtasidagi munosabatlar

Ko‘rinadiki, ularning fikricha, “test”, “o‘lchash”, “baholash” ta’limning tarkibiy qismi hisoblanadi. “Baho berish” esa ta’limdan tashqarida hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Jahon pedagogikasida ham “test”, “o‘lchash”, “baholash” va “baho berish” tushunchalarining mazmuniy chegaralari hamon bahsli masala ekanligicha qolmoqda. Ayrim olimlar “baholash”ni umumiy tushuncha, “test”, “o‘lchash” va “baho berish”ni uning tarkibiy qismi sifatida talqin etishsa, boshqa olimlar bu tushunchalarni bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalar sifatida talqin etishmoqda.


O‘zbek baholash nazariyasida mazkur terminlarning qo‘llanishini tahlilga tortganimizda “test”, “baholash”, “sinov”, “pedagogik nazorat” tushunchalari tartibsiz va chegarasiz foydalanilmoqda. K.Jalilov esa “test” va “baholash”ni umumiy kontekstda qo‘llagan bo‘lsa, O.Roziqov va boshqalar tomonidan e’lon qilingan darslikda esa “imtihon”, “nazorat ishi” va “baholash” tushunchalari o‘rtasidagi farq sezilmaydi.

Biz mazkur tushunchalarni umumlashtirib, o‘zbek tilidagi ifodasini quyidagicha berish maqsadga muvofiq deb

hisobladik:


Ingliz tilida	O‘zbek tilida
assesment	baholash
test	test topshirig‘i
measure(ment)	o‘lchash/o‘lchov
evaluation	baho berish
exam	imtihon/nazorat ishi

Mazkur atamalar o‘zbek tilidagi pedagogik manbalarda faol qo‘llanadi, ammo ularning bir-biriga munosabati, baholash jarayonidagi o‘rni farqlanavermaydi. Shuning uchun ularni farqlash muhim ahamiyatga ega. Mazkur baholash jarayoni tartibi va bosqichlari quyidagicha hisoblanadi (3-rasmga qarang.).



3-rasm. Ta’lim tizimida baholash jarayoni sxemasi

Xulosa va takliflar. Umuman, pedagogikada baholash, test, o‘lchash va baho berish tushunchalari bir-biridan farq qiladi. Ushbu atamalar o‘rtasidagi mazmuniy munosabat quyidagi sxemada berilgan (4-rasmga qarang.)



4-rasm. “Baholash”, “baho berish”, “o‘lchash”, “test” va “ta’lim” tushunchalarining sxema orqali ko‘rinishi

Demak, yuqoridagilar asosida mazkur tushunchalarga quyidagicha izoh berish mumkin:

Test – ta’lim jarayonida o‘quvchining o‘zlashtirish darajasini o‘lchashda, tashxislashda, baho berishda foydalaniladigan baholash vositasi.

O‘lchash – o‘quvchining ta’lim jarayonida o‘zlashtirish darajasini miqdoriy ko‘rsatkichlarda o‘lchash, hisoblash jarayoni.

Baho berish – o‘lchash va monitoring natijasida o‘qitish jarayonida belgilangan ta’limiy maqsadlarga erishilgani yoki erishilmagani haqida qaror qabul qilish jarayoni.

Baholash – ta’lim taraqqiyotini kuzatish va zarur bo‘lganda ta’limga oid qarorlarni qabul qilish uchun ma’lumot to‘plash jarayoni.

Test, o‘lchash va baho berish baholashning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Bu tushunchalarning barchasi ta’limning ajralmas tarkibi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Anthony J. Nitko, Susan M. Brookhart Educational Assessment of Students Sixth Edition – Pearson New International Edition. 2014. – P. 487

2.Bastanfar, Ali. “Alternatives in assessment” Islamic Azad University, Khoy, Iran (2012). [https://www.academia.edu/download/43362488/DrJJ-Measure-assess-evaluate-ADPRIMA-n-more-17052012.pdf]

3.Dr. Effendy Gultom. “Assessment and evaluation in EFL teaching and learning”. Proceedings of the Fourth International Seminar onEnglish Language and Teaching (ISELT-4). the University of Riau, Pekanbaru, Indonesia (2016). [https://ejournal.unp.ac.id/index.php/selt/article/viewFile/6928/5462]

4.Kizlik, Bob. “Measurement, assessment, and evaluation in education.“ Retrieved October 10 (2012): 2015. [https://www.academia.edu/download/43362488/DrJJ-Measure-assess-evaluate-ADPRIMA-n-more-17052012.pdf]

5.M. David Miller, Robert L.Linn, Norman E. Gronlund Measurement and Assessment in Teaching Tenth Edition – Pearson. 2009. – P. 560

6.Madkur, Ahmad, and Dedi Irwansyah. “The Students’ Perceptions of National Examination Washback: A Case Study at MTS Daarul ’Ulya Metro.“ Al-Ta lim Journal 25.2 (2018): 153-162.

7.Melissa Lee Farrall, PhD, SAIF, Pamela Darr Wright, MA, MSW, Peter W. D. Wright, Esq. Wrightslaw All About Tests and Assessments, 2nd Edition – Harbor House Law Press. 2018. – P. 173

8.Yambi, Tomas & Yambi, Caluyua. “Assessment and evaluation in Education”. (2020). [https://www.researchgate.net/publication/342918149_ASSESSMENT_AND_EVALUATION_IN_EDUCATION]

9.Lord F. and Novick M. Statistical Theories of Mental Test Scores. – Reading, MA: Addison-Wesley Pub. 1968.

10.O. Roziqov v.b. Ona tili didaktikasi. Darslik. –Toshkent. Yangi asr avlodi. 2005. 388-bet.

Latofat NAMOZOVA,
Samarqand shahar 55- umumiy o‘rta ta’lim maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

ADABIYOT DARSLARIDA ZAKOVAT INTELLEKTUAL O‘YINLARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada yangi baholash tizimi haqida fikrlar keltirib o‘tilgan. Blum taksonomiyasi haqidagi umumiy ma‘lumotlar berilgan. Mavzuga doir zakovat savollaridan namunalar keltirilib, bilimlarni Blum taksonomiyasi darajasida baholash yo‘llari tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: *yangicha baholash tizimi, Blum taksonomiyasi, bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, sintez, yaratish.*

Annotation: this article provides ideas for a new grading system. An overview of Blum’s taxonomy is given. Examples of intellectuals on the topic are given, and methods of assessing knowledge at the level of Blum’s taxonomy are analyzed.

Keywords: *a new evaluation system, Blum’s taxonomy: know, understand, apply, analyze, synthesize, create.*

Аннотация:в этой статье представлены идеи о новой системе грейдинга. Дан обзор таксономии Блюма. Приведены примеры интеллектуалов по теме, а также проанализированы способы оценки знаний на уровне таксономии Блюма.

Ключевые слова:*новая система оценки, таксономия Блюма: знать, понимать, применять, анализировать, синтезировать, создавать.*

Zamonaviy ta’lim tizimida umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi islohotlardan biri yangi baholash tizimi bo‘lib, tizim o‘zlashtirgan materiallarning darajasiga qarab o‘quvchiga baho berishga asoslanadi. O‘quvchiga qo‘yiladigan ballar olgan bilimi, amaliyotda qo‘llashi va mulohaza yurita olishiga qarab taqsimlanadi. Shu sababli yangi baholash tizimi bo‘yicha olingan har bir nazorat o‘quvchini mustaqil tarzda o‘z ustida ishlashga, olgan bilimlarini amaliyotda bog‘lashga, xulosalar chiqarib mulohaza yuritishga, kreativ fikrlashga undaydi.Shu o‘rinda, bilimni baholashning Blum taksonomiyasi haqida ma’lumot keltirib o‘tish o‘rinlidir. Blum taksonomiyasi o‘quvchilar o‘zlashtirishining ma’lum bir darajasidan darak beruvchi konkret harakat-

lari, mazmunan obyektlarni tabiiy o‘zaro bog‘liqlik asosida murakkablashib borishini ketma-ket joylashtirish orqali tizimlashtirishni maqsad qiladi.

Taksonomiya – borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasidir. Shuningdek, yangicha baholash tizimida ham Blum taksonomiyasi asosida baholashga mos talablar o‘z ifodasini topgan,

O‘quvchilar bilim darajasini oshirishda zakovat savollarining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Chunki zakovatda Blum taksonomiyasining barcha darajasiga javob bera oladigan bilimni tarkib toptirish imkoniyati mavjud. Quyida Blum taksonomiyasi bo‘yicha o‘quvchi bilimining darajalarini aniqlashda zakovat savollaridan foydalanish usullarini keltirib o‘tamiz.

Bilish – axborotni takrorlash yoki tanib olish, ma’lumot va ma’lumotlarni esga olish yo‘li bilan yodlab olinadigan toifadir.Bilish va fikrlash darajasi past. Ushbu darajada testlar, yetishmayotgan belgilarni almashtirish, ta’riflar va nomlarni yodlash yoki takrorlash, jarayonlarning takrorlanishi kabi vazifalar qo‘llaniladi. Amaldagi atamalarni eslaydi va takrorlaydi, haqiqiy faktlarni biladi. 8-sinf adabiyot fanidan Muhammad Yusufning ijodini o‘rganish” mavzusida ushbu savoldan foydalanish maqsadga muvofiq.

Falastin Bosh vaziri Muhammad Shtaye G‘azodagi urush sabab halok bo‘lgan bolalar haqida gapirib turib “Bu ish”ni qiladi. Marhum shoir Muhammad Yusufning aytishicha esa, uning qizlari hatto “Bu ish”ni qilishni bilishmas ekan.

Savol: Aytingchi, “Bu ish” deganda nima nazarga tutildi?

Javob: Yig‘lash.

Izoh: Muhammad Yusuf bir she‘rida agar vafot etsam, hatto yig‘lashniyam bilmas qizlarim degan fikrlarni yozadi.

Tushunish – bilim va fikrlash darajasi o‘rtacha. O‘quv materialini tushunish sifatida quyidagi harakatlar ko‘rib chiqilishi mumkin: talqin – o‘quv materialini “o‘z so‘zlari bilan”, qisqacha tavsif; Bashorat qilish –suhbatning nima bo‘lishini, uning oqibatlari va natijalarini o‘quv materiallari asosida bashorat qilish. Faktlarni, qoidalarni, tamoyillarni tushunish. 8-sinf adabiyot darsida Yesenin ijodini o‘rganishda quyidagi zakovat savolini qo‘llash tavsiya etiladi.

Nodir Jonuzoqning “Shahnoza” she’ridan parcha:

Chayqalaman tig‘day rasanda,
Tanhoman-ku, keling - toqsiz Siz.
Men ..... bo‘lolmasam-da,
Shahinadan suluvroqsiz siz!

Savol: Shoir Shahnozani “Shahina”ga qiyoslagan bo‘lsa, o‘zini kimga qiyoslagan?

Javob: Yesenin.

Izoh: Yeseninning “Fors taronalari” to‘plamidan joy olgan “Shahinam” she’riga ishora.

Qo‘llash – bilim va fikrlash darajasi o‘rtacha. Ushbu toifaga o‘quv materiallarini haqiqiy vaziyatda va mutlaqo yangi vaziyatda qo‘llash kiradi. Bunga qoidalar, usullar, tushunchalar, qonunlar, tamoyillar, nazariyalarning amaliy qo‘llanilishi kiradi. Ta’lim natijalari materialning rang darajasidan ko‘ra chuqurroq mahorat talab qiladi. Konsepsiya va prinsiplarni yangi vaziyatlarda qo‘llaydi; haqiqiy vaziyatlarda qonunlar va nazariyalarni amalda qo‘llaydi. Maktabda 8- sinf adabiyot fanidan “G’azal haqida nazariy ma’lumot” mavzusini o‘zlashtirish mobaynida quyidagi savolni qo‘llash o‘rinli. Ba’zan nigohlar ajalday, ba’zan so‘zlar zaharday, ba’zi kipriklar nashtarday bo‘lishi, favqulodda inson ham shamolday yelishi mumkin.Biz yuqorida to‘rt holatga 4 ta turli o‘xshatishlar qildik.

Savol: Bu turli o‘xshatishlar o‘rnida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan bitta qisqa so‘zni yozib bering.

Javob: O‘q, o‘qday.

Izoh: O‘qday nigohini qadadi.
Aytilgan so‘z – otilgan o‘q.
Qoshi kamon, kipriklar o‘q.
Raqibini ortidan o‘qday otildi.

Tahlil qilish– bilim va fikrlash darajasi eng yuqori darajadir. O‘quv materialining tuzilishini aniq qilish uchun uni tarkibiy qismlarga ajratadi: butun qismlarni ajratib oladi; butunning qismlari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlaydi, butunning qanday tashkil etilganligini his qiladi. Ushbu kategoriya, o‘quv materialining mazmunini idrok etishdan tashqari, uning ichki tuzilishi qanday shakllanganligini ham anglatadi. Yashirin (ko‘rinmas) narsalarni ochib beradi; fikrni rivojlantirishdagi xato va kamchiliklarni aniqlaydi, faktlarni va ularning oqibatlarini farqlaydilar; taqdim etilgan dalillarning ahamiyatini aniqlaydi. 8- sinfda adabiyot fanida tahlil qilish darajasidagi quyidagi zakovat savolidan foydalanish mumkin.

Muhammad Yusufning “Vatanim” she’rida:

Kim Qashqarni qildi makon,

Kim Enasoy tomonda jumlalari bor. Shoir bu gapni bejizga yozmagan. Bir yurtdoshimiz Qashqarda, vatandan uzoqda vafot etgan bo‘lsa, yana biri Enasoyda qatag‘onga uchragan.

Savol: har ikkala yurtdoshimizni yozib bering?

Javob: Furqat va Usmon Nosir.

Izoh: Jumlalarda Qashqar tuprog’ida xoki qolgan Furqat va Sibir o‘rmonlarida daraxt kesib umri chirigan Usmon Nosir yodga olingan.

Sintez – bilim va fikrlash darajasi eng yuqori darajadir. O‘quv materialining elementlaridan

innovatsion tabiatning bir butunini (natijasini) yig’ish. Yangi natija sifatida biz ta’lim materiallarini mutlaqo boshqacha tartibga soluvchi xabarni eslatib o‘tamiz. Bunday o‘quv natijalari yangi mazmun va yangi tuzilmalarni yaratadigan ijodiy faoliyatdan foydalanishni talab qiladi. Har qanday muammoni hal qilish uchun o‘z bilimlaridan ijodiy foydalanadi. Bu yo‘nalishda 6- sinf adabiyot darsida Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodiga doir quyidagi savolni qo‘llash mumkin.

(Boshlovchiga eslatma: matndagi to‘xtatib va xudo bergan so‘zlarini aniq va urg‘u bilan o‘qing).

Shoir Obidxon Mamadaliyev ijodidan to‘rtlikni tinglang:

Yana bir dahoni kuzatamiz jim,
Undan bizga buyuk meros qoldi-da.
Ajalni to‘xtatib qololmas hech kim,
Xudo bergan edi, O‘zi oldi-da!

Savol: Ushbu she’r qaysi ijodkorga bag‘ishlangan edi?

Javob: Xudoyberdi To‘xtaboyev

Izoh: She’r matnidagi to‘xtatib va xudo bergan so‘zlari shoir ism familiyasiga ishora edi.

Yaratish **–** blim va fikrlash darajasi eng yuqori darajadir. Ushbu daraja oldingi toifalarning o‘rganish natijalariga erishishni anglatadi. O‘quv materialining tuzilish mantig‘ini yozma ravishda baholaydi; ichki yoki tashqi mezonlar asosida o‘quv materialining ahamiyatini aniqlaydi, qaror va xulosalarning faktlarga bog’liqligini aniqlaydi. 5- sinf adabiyot darsida “Ertaklar” mavzusini o‘rganishda quyidagi savoldan foydalanish tavsiya etiladi. Bir zolim podshoh o‘z xizmatkorini qilgan aybi uchun jazolamoqchi bo‘ldi va unga shunday dedi “Senga o‘lim jazosini beraman, faqat sen qanday o‘limni tanlasang, shunday o‘ldiramiz!”

Shunda aqlli xizmatkor bir o‘lim turini tanladi va o‘lim jazosidan qutulib qoldi.

Savol: xizmatkor qanday o‘limni tanlagan?

Javob: O‘z ajali bilan o‘lim topishni

Bilish darajasida berilgan savol asosida o‘quvchilar Muhammad Yusufning agar o‘zi vafot etsa, qizlari hatto yig‘lashniyam bilmasligini aytib o‘tganiga e‘tibor qaratadilar va bu ma’lumot orqali ikkinchi ma’lumotni ham oydinlashtiradilar.

Tushunish darajasidagi savolda qahramon Shahina obrazi orqali o‘quvchilar muallifni aniqlashga muvaffaq bo‘ladilar.

Qo‘llash darajasidagi savolda berilgan ta’riflar o‘rniga mos boshqa so‘zni qo‘llash imkonidan foydalaniladi.

Tahlil qilish darajasidagi Muhammad Yusufning “Vatanim” she’rida keltirilgan ma‘lumotlar asosida o‘quvchilar yodga olingan ijodkorlarni topishga harakat qiladilar.

Sintez darajasidagi she’rda ifodalangan ilmoqli ma‘lumotlarni bir-biriga bog‘lagan holda o‘quvchilar ijodkorning ism- sharifini aniqlaydilar.

Yaratish darajasidagi savolda o‘quvchilar ertak-savolning davomini to‘g‘ri yaratadilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish mumkinki, darslarda qiziqarli zakovat savollaridan foydalanish darsning sifatini oshirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarni vaziyatlarni baholashga, tahlil qilishga, ularni bir-biriga bog‘lab xulosa chiqarishga, mantiqiy fikrlashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-yanvardagi ““Zakovat” intellektual o‘yinini aholi o‘rtasida ommaviy-ma’rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o‘yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-96-son Qarori

2.“Zakovat” intellektual klubi” NNT tomonidan 2022- yilda ta’lim muassasalari o‘rtasida “Zakovat” intellektual o‘yini bo‘yicha o‘tkazilgan musobaqalar savollari. – Toshkent. Zabarjad Media, 2023.336-b

3.https://www.researchgate.net/profile/Manzura/Abjalova/publication/349608435_Blum_taksonomiyasi.

Nigora ALIMOVA,
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi direktori

Nazira ESHDAVLATOVA,
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi umumiy o‘rta ta’limni tashkil etish bo‘yicha pedagog xodim

GOSPITAL TA’LIM DA ADABIYOT FANINI O‘QITISH METODIKASI ORQALI O‘QUVCHILARNING NUTQINI O‘STIRISH

Annotatsiya: maqolada “Gospital ta’limda adabiyot fanini o‘qitish metodikasi orqali o‘quvchilarning nutqini o‘stirish” mavzusi yoritiladi. Adabiyot fanining ta’lim jarayonidagi o‘rni va uning o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati ko‘rsatiladi. Gospital ta’lim orqali adabiyotni o‘rganish, o‘quvchilarga nafaqat adabiy asarlar haqida bilim berish, balki ularning so‘zlashuv mahoratini, mantiqiy fikrlashini va nutqiy madaniyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada metodik yondashuvlar, adabiyot darslarida qo‘llaniladigan innovatsion usullar va o‘quvchilarni nutqiy faoliyatga jalb etishning samarali usullari tahlil qilinadi. Adabiyot fanining metodikasi yordamida o‘quvchilarning fikrlarni aniq ifodalash, og‘zaki va yozma nutqini yaxshilashda erishiladigan natijalar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: *gospital ta’lim, adabiyot fani, nutqni rivojlantirish, ta’lim metodikasi, o‘quvchilarni jalb etish, nutqiy madaniyat, innovatsion usullar, og‘zaki nutq, yozma nutq, mantiqiy fikrlash.*

Аннотация: в статье освещается тема «развитие речи учащихся через методику преподавания литературы в хосписном образовании». Показана роль предмета литературы в образовательном процессе и его значение в развитии речи учащихся. Хоспис играет важную роль в изучении литературы через образование, не только предоставляя учащимся знания о литературных произведениях, но и повышая их разговорные навыки, логическое мышление и речевую культуру. В статье анализируются методические подходы, инновационные методы, применяемые на уроках литературы, эффективные способы вовлечения учащихся в речевую деятельность. С помощью методики литературоведения представлены результаты, которые достигаются в совершенствовании четкого выражения мыслей, устной и письменной речи учащихся.

Ключевые слова: *госпитальное воспитание, литературоведение, развитие речи, методика воспитания, вовлечение учащихся, речевая культура, инновационные методы, устная речь, письменная речь, логическое мышление.*

Annotation: the article highlights the topic «the development of students’ speech through the methodology of teaching literature in hospice education.» The role of the subject of literature in the educational process and its importance in the development of students’ speech is shown. Hospice plays an important role in the study of literature through education, not only providing students with knowledge about literary works, but also improving their conversational skills, logical thinking and speech culture. The article analyzes methodological approaches, innovative methods used in literature lessons, and effective ways to involve students in speech activity. Using the methodology of literary criticism, the results are presented, which are achieved in improving the clear expression of thoughts, oral and written speech of students.

Keywords: *hospital education, literary studies, speech development, methods of education, student involvement, speech culture, innovative methods, oral speech, written speech, logical thinking.*

Gospital ta’lim o‘quvchilarga nafaqat sog‘liqni saqlash sohasida zarur bilimlarni berish, balki ularning umumiy madaniyatini, shu jumladan, nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Adabiyot fani esa bu jarayonda o‘quvchilarning nutqini o‘stirish uchun eng samarali vosita hisoblanadi. Adabiyot o‘rganish faqat kitoblarni o‘qishdan iborat bo‘lmay, balki tahlil qilish, fikrlash va o‘z fikrini aniq ifodalashni o‘rgatish orqali nutqni rivojlantirishga yordam beradi.

Gospital ta’limda adabiyot fanining metodikasi orqali o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini yaxshilash, ularning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash va ifodali nutqni o‘rgatish, bugungi ta’lim tizimida eng dolzarb vazifalardan biridir. Ushbu maqolada, adabiyot fanining ta’lim metodikasi yordamida o‘quvchilarning nutqini o‘stirishning asosiy usullari va innovatsion yondashuvlar haqida so‘z boradi. Adabiyotning ta’limdagi o‘rni va uning nutqiy ko‘nikmalarni oshirishdagi ahamiyati, shuningdek, samarali metodik yondashuvlar haqida batafsil tahlil olib boriladi. Bu jarayon o‘quvchilarni nafaqat adabiy asarlarni tushunishga, balki o‘z fikrlarini aniq va mantiqiy ravishda

ifodalashga ham o‘rgatadi. [1]

Adabiyot fani o‘qitilishining metodik yondashuvlari 5–11-sinflar o‘quvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Gospital ta’limda ayniqsa, adabiyot fanini o‘qitishda o‘quvchilarning nutqini yaxshilashda samarali usullarni qo‘llashni talab qiladi. Adabiyot faqat adabiy asarlarni o‘qishdan iborat bo‘lmay, balki o‘quvchilarni fikrlashga, tahlil qilishga, o‘z fikrlarini mantiqiy ravishda ifodalashga va og‘zaki nutqni rivojlantirishga ham o‘rgatadi.

Gospital ta’limda adabiyot fanini o‘qitish metodikasi orqali o‘quvchilarning nutqini o‘stirish, faqat adabiyotning nazariy jihatlarini o‘rganish bilan chegaralanmaydi. Bu jarayon o‘quvchilarning so‘zlashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlashini oshirish va ularning kommunikatsiya qobiliyatini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Adabiyot fanini o‘qitish metodikasida qo‘llaniladigan innovatsion usullar, guruh ishlari, rolli o‘yinlar, tahlil va baholash metodlari orqali o‘quvchilar o‘z nutqiy ko‘nikmalarini takomillashtiradilar. [2]

Birinchidan, **guruh ishlari** o‘quvchilarga birgalikda ishlash, fikr almashish va o‘zaro muloqotda bo‘lish imkoniyatini yaratadi. Bu metod orqali o‘quvchilar birgalikda adabiy asarni tahlil qilish, undagi asosiy g‘oyalarni muhokama qilish va o‘z fikrlarini erkin ifodalashga o‘rganadilar. Guruhda ishlashda o‘quvchilar bir-birlarining fikrlariga hurmat bilan yondashishni, ijobiy va salbiy nuqtayi nazarlarni tahlil qilishni o‘rganadilar. Bu esa ularning nutqiy madaniyatini va fikrlarini aniq va izchil ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“Tahlil va baholash” metodlari orqali o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini oshirishda yana bir muhim jihat sifatida, adabiy asarni tahlil qilishda o‘quvchilar kritik fikrlash va dalillarga asoslangan baholashni o‘rganadilar. Adabiy asarni tahlil qilish va uning mazmunini tahlil etish, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Shu bilan birga, ularning o‘z fikrlarini mantiqan to‘g‘ri ifodalashga yordam beradi. Tahlil metodlari orqali o‘quvchilar asarlarni yanada chuqurroq tushunishadi, undagi personajlar va voqealarning ichki mohiyatini aniqlashga o‘rganadilar.

“Suhbatlar va munozaralar” metodlari orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va tushunarli tarzda ifodalashga o‘rgatiladi. Bunday metodlar o‘quvchilarga o‘z fikrlarini asoslab, qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni tinglash, baholash va tanqidiy yondashish imkonini beradi. Suhbatlar orqali o‘quvchilar nafaqat nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, balki shaxsiy fikrlarni erkin ifodalashda ishonch hosil qiladilar. Munozaralarda qatnashish, o‘quvchilarga o‘z fikrlarini tizimli va asosli ravishda taqdim etish ko‘nikmasini shakllantiradi. [3]

Adabiyot fani metodikasi yordamida o‘quvchilarda nutqiy faoliyatni rivojlantirish uchun bir qator yondashuvlar qo‘llaniladi. Ijodiy ishlash va rolli o‘yinlar orqali o‘quvchilar o‘zlarining fikrlarini erkin ifodalashni o‘rganadilar. Bu metodlar o‘quvchilarga mantiqiy fikrlash va tahliliy yondashuvni rivojlantirishda yordam beradi. Ijodiy ishlar, masalan, she’rlar yozish, hikoyalar tuzish yoki adabiy asarlarni yangi shaklda taqdim etish orqali o‘quvchilar o‘z nutqiy ko‘nikmalarini takomillashtiradilar. Guruh ishlari ham samarali metodlardan biri bo‘lib, bunda o‘quvchilar birgalikda adabiy asarni tahlil qilishadi, fikr almashadilar va o‘z fikrlarini muntazam ravishda bayon qilishadi. Guruh ishlarida o‘quvchilar o‘zaro muloqotda bo‘lib, nutqiy faoliyatni rivojlantiradilar.

Tahlil va baholash metodlari orqali o‘quvchilar o‘qilgan asarlarni chuqur tahlil qilishni o‘rganadilar. Tahliliy yondashuvlar yordamida o‘quvchilar asarlardagi asosiy g‘oyalarni tushunadilar, shuningdek, muallifning uslubi va voqealarga bo‘lgan yondashuvini o‘rganadilar. Bu metod o‘quvchilarda mustahkam fikr va tahliliy yondashuvni rivojlantiradi. Suhbatlar va munozaralar metodlari esa o‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin va aniq ifodalash imkoniyatini beradi. O‘quvchilar bunday faoliyatlar davomida turli nuqtayi nazarlarni tinglash, o‘z fikrlarini asoslash va jamoaviy fikr almashish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. [4]

Yozma ishlar ham o‘quvchilar nutqini o‘stirishda samarali metod hisoblanadi. Yozma ishlar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va lo‘nda ifodalashga, grammatika va imlo qoidalariga rioya qilishga o‘rganadilar. Bu metod orqali o‘quvchilar yozma nutqni yaxshilash bilan birga, adabiy asarlar haqida chuqurroq fikrlash imkoniga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar yordamida interaktiv metodlarni qo‘llash ham samarali natijalar beradi. Masalan, onlayn munozaralar, virtual adabiyot klublari yoki elektron dasturlar yordamida o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish mumkin.

Gospital ta’limda adabiyot fanini o‘qitishda qo‘llanilgan metodik yondashuvlar orqali o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarida sezilarli yaxshilanishlar kuzatildi. O‘quvchilar og‘zaki nutqni rivojlantirishda o‘zlarini yanada ishonchli his qildilar va nutqiy ifodalilikda aniqroq bo‘ladilar. Rolli o‘yinlar va ijodiy ishlash metodlari orqali ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari oshdi, tahliliy yondashuvlarni qo‘llash ko‘nikmasi mustahkamlanadi. Guruh ishlarida o‘quvchilar fikr almashish va birgalikda yechimlar topish orqali nutqiy madaniyatlarini oshiradilar.

Shuningdek, yozma ishlar va suhbatlar metodlari orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, lo‘nda va asosli ravishda bayon qilishni o‘rganadilar. Adabiyot metodikasi yordamida o‘quvchilar nafaqat yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirishadi, balki fikrlash va ijodiy yondashuvlarni ham kuchaytiradilar.

Natijada, adabiyot fani yordamida o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda aniq ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi. O‘quvchilarni nutqiy faoliyatga

jalb etish, ularga ijodiy yondashuvlarni qo‘llash va samarali metodlarni tatbiq etish orqali ularning nutqi yanada rivojlanadi. Shu bilan birga, adabiyot darslari o‘quvchilarda nutqiy madaniyatni va fikrlashni yaxshilashda katta rol o‘ynaydi.

Gospital ta’limda adabiyot fanini o‘qitish metodikasi, o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. 5–11-sinflar kesimida nutqni shakllantirishda qo‘llaniladigan metodlar o‘quvchilarga adabiy asarlarni chuqurroq tushunish, so‘zlashuv ko‘nikmalarini oshirish va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Quyida keltirilgan metodikalar, adabiyot fanini o‘qitishda o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini o‘stirishda samarali bo‘lishi mumkin: [5]

1. Rolli o‘yinlar (Dramatizatsiya).

Rolli o‘yinlar o‘quvchilarga adabiy asarlarni amaliyotda tushunish imkonini beradi. O‘quvchilar turli personajlarga kirib, asarni ijro etadilar. Bu metod orqali o‘quvchilar nutq madaniyatini oshiradilar, og‘zaki nutqlarini yaxshilaydilar va personajlar o‘rtasidagi dialogni tushunib, o‘z fikrlarini mustaqil ravishda ifodalashni o‘rganadilar.

2. Guruh ishlari.

Guruh ishlari o‘quvchilarga bir-birlarining fikrlarini tinglash va o‘z fikrlarini aniq ifodalashni o‘rgatadi. Adabiyot fani doirasida guruh ishlari yordamida o‘quvchilar birgalikda adabiy asarni tahlil qilish, uning mavzusi, personajlari va g‘oyasini muhokama qilishadi. Bu metod o‘quvchilarni fikr almashishga va guruhda ishlashga o‘rgatadi, bu esa nutqiy madaniyatni rivojlantiradi.

3. Tahlil va baholash.

Adabiy asarni tahlil qilish va baholash metodikasi o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. O‘quvchilar asarni o‘qib, uning mazmunini tahlil qiladilar va o‘z fikrlarini dalillar bilan isbotlaydilar. Bu metod o‘quvchilarni batafsil fikr yuritishga va o‘z nuqtayi nazarlarini izchil tarzda ifodalashga o‘rgatadi.

4. Suhbatlar va munozaralar.

Suhbatlar va munozaralar metodikasi o‘quvchilarga o‘z fikrlarini ifodalashda va boshqalarning fikrlarini tinglashda yordam beradi. Bu metodda o‘quvchilar turli nuqtayi nazarlarga asoslanib, adabiy asarlarni muhokama qiladilar. Munozaralar o‘quvchilarga o‘z fikrlarini asoslab, argumentlarni rivojlantirishni o‘rgatadi, bu esa og‘zaki nutqning sifatini oshiradi.

5. Yozma ishlar.

Yozma ishlar metodikasi o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish uchun samarali usul hisoblanadi. O‘quvchilarga adabiy asarlar bo‘yicha hikoyalar, esse yoki insho yozish topshiriladi. Yozma ishlar orqali o‘quvchilar grammatika, imlo, punktuatsiya qoidalariga rioya qilishni, shuningdek, o‘z fikrlarini lo‘nda va aniq tarzda bayon qilishni o‘rganadilar.

6. Interaktiv metodlar.

Interaktiv metodlar o‘quvchilarning fikr almashish va turli nuqtayi nazarlarni ko‘rib chiqish jarayonini samarali tarzda tashkil etadi. Onlayn platformalarda yoki interaktiv taqdimotlar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifodalashga va boshqalarning fikrlarini tahlil qilishga o‘rgatiladi. Ushbu metod o‘quvchilarga mustaqil fikrlashni rivojlantirish va og‘zaki nutqni yanada kuchaytirish imkonini beradi.

7. Adabiy asarlarni yaratish.

Adabiyot fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarga o‘z hikoyalarini yoki she’rlarini yozish topshirilishi mumkin. Bu metod o‘quvchilarga ijodiy tafakkur va nutq madaniyatini oshirishga yordam beradi. Yangi asar yaratish orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va tushunarli tarzda ifodalash hamda mustaqil ravishda tahlil qilishga o‘rganadilar.

8. Sarlavha va konspekt qilish.

Adabiy asarlarni o‘qish davomida o‘quvchilar sarlavhalar yoki konspektlar tayyorlashadi. Bu metod orqali o‘quvchilar o‘qilgan matnning asosiy g‘oyalarini ajratib olishga, ularni mantiqan bog‘lashga o‘rganadilar. Sarlavhalar yordamida o‘quvchilar matnning mazmunini aniqlash va uning asosiy fikrlarini yozma shaklda taqdim etishda ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

9. Audio-vizual metodlar.

Audio va video materiallarni qo‘llash o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda samarali bo‘lishi mumkin. O‘quvchilar turli audio kitoblarni tinglab, nutqning to‘g‘ri talaffuzini va ifodali o‘qish usullarini o‘rganadilar. Video materiallar yordamida o‘quvchilar adabiy asarni ko‘rish, voqealarni tushunish va ular bo‘yicha muhokama qilish orqali nutqlarini yanada rivojlantiradilar.

10. Jurnal va esse yozish.

Jurnal yoki esse yozish metodikasi o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishning samarali usulidir. O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va lo‘nda ifodalashga o‘rgatiladi, shuningdek, o‘z tasavvurlarini, qarashlarini va hissiyotlarini yozma ravishda ifodalashni o‘rganadilar. [6]

Gospital ta’limda adabiyot fanini o‘qitish metodikasi orqali o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan metodlar turli yondashuvlar va texnikalarga asoslanadi. Ushbu metodlar o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini oshiradi, ularning fikrlarini aniq va mantiqan to‘g‘ri ifodalashga yordam beradi. Rolli o‘yinlar, guruh ishlari, tahlil va baholash metodlari orqali o‘quvchilar o‘z nutqlarini yanada mustahkamlaydilar, og‘zaki va yozma nutqni rivojlantiradilar. Interaktiv metodlar va texnologiyalarni qo‘llash, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini va nutqiy madaniyatini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, metodikaning samaradorligi o‘qituvchining ijodiy yondashuvi, dars jarayonida interfaol usullardan foydalanishi va o‘quvchilarni faol jalb eta olishiga bog‘liq. Shu orqali o‘quvchilarda adabiyotga bo‘lgan qiziqish ortib, ular o‘z fikrlarini ravon va aniq ifoda etishni o‘rganadilar. Natijada, nafaqat adabiy bilimlar oshadi, balki o‘quvchilarning

og‘zaki va yozma nutq madaniyati ham yuqori darajaga ko‘tariladi.

Mazkur metodika kelajak avlodning ma’naviy va intellektual kamolotida muhim omil sifatida ta’lim tizimida keng qo‘llanilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.05.2022-yildagi 234-son qarori.

2.Бондаревская Е.В. Гуманитарная парадигма личносто ориентированного образования // Педагогика 1997. - № 4. – С. 11-14.

3.Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – М.: Педагогика, 1998. – 493 с.

4.Tolipov O‘.Q. Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya asoslari // “Maktab va hayot” jurnaliga ilova. – T.: O‘zPFITI, 2003. 32-b.

5.Yo‘ldoshev J.G‘, Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish // O‘qituvchilarni ilg‘or pedagogik texnologiyalar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarini oshirish kurslari trenerlari uchun qo‘llanma. / mas’ul muharrir: S.Hasanov. – T.: A.Avloniy nomidagi XTXQTIOMI, 2008. 130-b.

6.Питюков В.Ю. Основы педагогической технологии. – М.:Изд-во “ГНОМ и Д”, 2001. –188 с.

Ma’rifat BUTAYOROVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’limda matematika va
ona tili kafedrasi o‘qituvchisi
marifatbutayorova@gmail.com
Zarina SUVONQULOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’limda matematika va
ona tili kafedrasi o‘qituvchisi
Zarinasuvonqulova91@gmail.com

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJTIMOIY KO’NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BADIIY ASARLAR BILAN ISHLASHNING SAMARADORLIGI

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang’ich sinf o‘quvchilarini badiiy asarlar, qissa, hikoya, she’r, rivoyatlar bilan tanishtirish, matn ustida ishlash ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi, matndagi ijobiy va salbiy qahramonlar haqida munosabat bildira olishga o’rgatish, matndan xulosa chiqara olishga o‘rgatish ta’lim jarayonida samarali ta’sir ko‘rsatishi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy asar , o‘quvchi, qahramon , xususiyat, idrok etish, matn , jarayon, munosabat, texnika vositalari, tahlil qilish.

Аннотация**:** в данной статье учащиеся начальных классов познакомятся с произведениями искусства: рассказами,стихотворениями, повестями, значением

работы над текстом в формировании их социальных навыков, умения еагировать на положительное и отрицательное. Утверждается, что обучение, обучение делать выводы из текста оказывает эффективное воздействие на учебный процесс.

Ключевые слова: художественное произведение, читатель, персонаж, характер, восприятие, текст, процесс, отношение, технические средства, анализ.

Annotation: in this article, elementary school students will be introduced to works of art: short stories, stories, poems, narratives, the importance of working on the text in the formation of their social skills, and the ability to respond to the positive and negative characters in the text. It is stated that teaching, teaching to draw conclusions from the text has an effective effect on the educational process.

Key words: work of art, reader, character, character, perception, text, process, attitude, technical means, analysis.

Bugungi kunda respublikamizda boshlang‘ich sinflar uchun yangi dastur va darsliklar yaratildi. O‘qish darsturlarida badiiy asarni tahlil qilishga ko‘proq ahamiyat berilib, matn ustida ishlash yuzasidan xilma-xil topshiriq

turlaridan, texnika vositalaridan foydalanishga ko‘proq e’tibor berilmoqda . Badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

Asar mazmunini tahlil qilish va to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakasini shakllantirish bir jarayonda boradi.

Asarning g‘oyaviy-tematik asoslarini uning obrazlari, syujet chizig‘i, qurilishi va tasviriy vositalarini tushuntirish o‘quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga, bog‘lanishli nutqning o‘sishini ta’minlaydi.

O‘quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish, asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Sinfda o‘qish o‘quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish va atrof muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish vositasi hisoblanadi.

Asarni tahlil qilishda uning hissiy ta’sirini ham hisobga olish zarur. O‘quvchi matnni o‘qibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqeadan hayajonlansin. Matnni tahlil qilishda o‘quvchilarda fikr uyg‘onsin, ularda estetik didni tarbiyalasin. Sizga ma’lumki, badiiy asarda hayot obrazlar orqali aks ettiriladi. Uning markazida inson, uning tabiat va jamiyatga munosabati turadi. Badiiy asarda borliqni, voqelikni obrazlar vositasida tasvirlash, obyektiv mazmun va subyetiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun katta nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Badiiy asar ustida ishlashni muallifning asarida tasvirlangan voqealarga munosabati o‘qituvchining diqqat markazida turadi. O‘quvchilar voqelikni obrazlar orqali tasvirlashning o‘ziga xos xususiyatlarini asta tushuna boshlaydilar. Ikkinchidan, har qanday badiiy asarda aniq tarixiy voqealar tasvirlanadi. Asardagi voqealarga tarixiy yondashilgandagina asarga haqqoniy baho berish mumkin. Uchinchidan, yozuvchining hayoti va qarashlari bilan o‘quvchilarning yoshlariga mos ravishda tanishtirish maqsadga muvofiq. To‘rtinchidan, badiiy asarni tahlil qilishda o‘quvchilarni asarning g‘oyaviy yo‘nalishini tushunishga o‘rgatish muhimdir. Asarda qatnashuvchi shaxslarga baho berishda o‘quvchilar o‘z shaxsiy tushunchalaridan foydalanadilar. Qahramonning boshqa fazilatlarini bog‘lash uchun ularda so‘z boyligi, tajriba yetishmaydi. O‘qituvchining vazifasi o‘quvchilar payqay olmagan sifatlarni ko‘rsatish va o‘quvchilar nutqiga kiritishdir. Badiiy asar ustida ishlash murakkab jarayon bo‘lib, o‘qituvchi o‘qish darslarining ta’lim tarbiyaviy vazifalari, badiiy asarining o‘ziga xos xususiyatlari va o‘quvchilarning tayyorgarligini hisobga olishni taqozo qiladi. Badiiy asarda barcha komponentlar o‘zaro bog‘langan bo‘ladi. Asarda obrazlar rivojlanib boradi. Voqealar rivojlanib borgan sari qahramonlarning yangi-yangi tomonlari ochila boradi. Bu xususiyatlari asar ustida ishlashda uni yaxlit o‘qishni, idrok etishni, ya’ni sintezni talab qiladi. Asar boshidan oxirigacha o‘qilgandan so‘ng analiz qilinadi, keyin yana yuqori sifatli sintezga o‘tiladi. Asarni o‘qishga kirishishdan oldin o‘quvchilarni badiiy asarni o‘qishga tayyorlash lozim bo‘ladi. Demak, tayyorgarlik davrida — sintez-analiz-sintez jarayoni yuz beradi. O‘quvchilar asar mazmunini to‘g‘ri idrok etishlari uchun hayot haqida ma’lum tasavvurga ega bo‘lishlari zarur. Buning uchun tayyorgarlik ishlari o‘tkaziladi. Tayyorgarlik ishlarining vazifalari:

O‘quvchilarning asarda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqidagi tassavurlarini boyitish, matnni ongli idrok qilishga ta’sir etadigan yangi ma’lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan faktlarni o‘quvchilar o‘z hayotida kuzatganlari bilan bog‘lay olishlariga sharoit yaratish.

Yozuvchining hayoti bilan tanishtirish, yozuvchiga, uning hayotiga, ijodiga qiziqish uyg’otish.

O‘quvchilarni asarni emotsional idrok etishga tayyorlash.

Asar mazmunini tushunishga halal beradigan so‘zlarning lug‘aviy ma’nolarini tushuntirishdan iborat.

Tayyorgarlik ishlarining shakllari xilma-xil bo‘lib, o‘qituvchi asar mazmunini va sharoitga qarab ish turini tanlaydi. Tayyorgarlik davri uchun 2-5 daqiqa ajratiladi. **Ekskursiya**. Bu ish turidan tabiat tasviriga bag‘ishlangan yoki ishlab chiqarish, qurilish, shahar, qishloq hayotiga doir mavzular o‘rganilganda foydalanish mumkin. Chunonchi, 2-sinfda «Metropoliten», 1-sinfda «Issiqxonada» kabi materiallarni o‘rganishdan oldin ekskursiya qilish maqsadga muvofiqdir. Ekskursiya uchun reja beriladi va matn o‘rganilishidan kamida bir hafta oldin o‘quvchilarga e’lon qilinadi.

Film namoyish qilish. Inqilobdan oldingi hayot voqealari tasvirlangan matnlardan oldin film namoyish qilinsa, o‘quvchilarning asarni idrok qilishlari faollashadi. Albatta, hozir o‘quv filmlari yetarli emas. Ammo videofilmlardan foydalanish mumkin.

O‘qituvchi hikoyasi. Asar muallifi haqida ma’lumot berishda eng samarali metod hisoblanadi. Chunonchi 4-sinfda Q.Muxammadiyning she’ri o‘rganilayotganda shoirning bolalar uchun yozgan asarlari namoyish etilib, ular haqida qisqacha ma’lumot so‘zlab berilsa, o‘quvchilarning asarni o‘qishga qiziqishlari ortadi.

Tayyorgarlik davridan so‘ng 1-bosqich amalga oshiriladi. Bu bosqichning asosiy vazifasi matnni yaxlit idrok etish jarayonida asarning aniq mazmuni bilan, uning syujet chizig‘i bilan tanishtirish, asarning emotsional ta’sirini aniqlashdir.

Matn ifodali o‘qib beriladi. Masalan, 2-sinfda o‘rganiladigan «Mehribon qiz» matni magnitafon orqali o‘qib eshittiriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga umumiy taassurotlarini aytishni talab qiladigan savollar beradi.

Hikoyani qaysi qismi sizga yoqdi?

Qahramonlardan qaysi biri sizga ayniqsa yoqdi?

Hikoya o‘qilganda “Siz hikoyaning qaysi qismida juda xursand bo‘ldingiz?” kabi savollar beriladi.

Badiiy asar ustida ishlashning keyingi bosqichi tahlil qilishdir. Bu bosqichning vazifasi: syujet rivojining sabab natija bog‘lanishini belgilash, ishtirok etish,

shaxslarning xulq-atvorini va asosiy xususiyatlarini aniqlash, asar kompozitsiyasini oshirishdir.

Xulosa qilib aytganda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan badiiy asar ustida turli ko‘rinishda va usulda ishlashni talab etadi. Bunday ish turlari o‘quvchilarni asarni to‘la idrok etish va mazmunini tushunib yetishlarini ta`minlaydi. Boshlang‘ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash jarayonini o‘yin shaklida o‘tkazish, ya`ni yangi texnologiyalar yordamida guruhlar bilan ishlash, yuqorida berilgan ta’limiy – didaktik o‘yin elementlaridan foydalangan holda, asar ustida ishlash dars samaradorligini yanada oshirib, o‘quvchilarning faolligi va qiziqishlarini, umuman badiiy, turli janrdagi asarlarni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqning o‘sishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K. Qosimova, S. Matchonov, X. G‘ulomova va b. “Ona tili o‘qitish metodikasi” – Toshkent.2009
2. U. Nishonova “O‘zbek xalq ertaklari”. “Sangzor” nashriyoti 2013.
3. T. G’afforova, E. Shodmonov, G. Eshturdiyeva. 1- sinf “O‘qish kitobi”. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. –Toshkent – 2019.
4. T. G‘afforova, Sh. Nurullayeva, Z. Mirzahakimova; 2-sinf “O‘qish kitobi”. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent . 2018. “Science and Education” Scientific Journal / Impact Factor 3,848 (SJIF) February 2023 /

Shoxsanamxon XUDOYBERDIYEVA,
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
xudoyberdiyeva83@mail.ru

TALABALARGA EKSPERIMENTAL YONDASHUV ASOSIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya: mazkur maqola talabalarga eksperimental yondashuv asosida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish texnologiyalari mavzusini yoritishga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqolada sinfdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ahamiyati va asosiy maqsadi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: eksperimental metodi, ilmiy ommabop, ko‘rgazmali qurollar, ilmiy dunyoqarashlari, ilmiy tadqiqot metodlari, ommaviy ishlar.

Аннотация: данная статья посвящена теме технологий организации внеклассных работ на основе экспериментального подключения к классам. Также в статье раскрывается воспитательная значимость и основная цель внеклассных действий.

Ключевые слова: экспериментальные методы, научная публичность, научные кружки, научные мировоззрения, научные методы исследования, общественные работы.

Annotation: this article is devoted to covering the topic of technologies for organizing extracurricular activities for students based on an experimental approach. The article also reveals the educational significance and main purpose of extracurricular activities.

Key words: experimental method, popular science, visual aids, scientific worldviews, scientific research methods, public works.

Kirish.Hozirgi paytda, fan va madaniyatning eng so‘nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir.Binobarin, jamiyatda yuksak ma’naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an’analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Sinfdan tashqari ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo‘nalishlarini topib joriy etishga bog‘liq. Mazkur maqolada talabalarga eksperimental yondashuv asosida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish texnologiyalari haqida mulohaza qilar ekanmiz, eng avval eksperimental metodining asl mohiyatini tushunib olishimiz darkor.

Asosiy qism. Eksperiment (lot. yexreptepgshp — tajriba, sinab ko‘rish) — fanda narsa va hodisalarni sezgi predmet faoliyati bilan tadqiq qilish, o‘rganish[1]. Kuzatishga qaraganda yuksakroq bilish usuli. Mohiyat e’ti-

bori bilan tajriba tushunchasini ifodalasada, eksperiment fanga nisbatan ishlatiladi. Eksperiment zarur shart-sharoit yaratishni, turli vositalar bilan obyektni qayd etishni yoki hodisani sun’iy ravishda yuzaga keltirishni, tegishli texnika va moslamalarni tatbiq etish va o‘lchash ishini o‘z ichiga oladi. Eksperiment bilish obyektini takror hosil qiladi, farazlarni tekshiradi.Eksperiment insonning obyektiga moddiy ta’sir ko‘rsatishiga, voqelikni amaliy o‘zlashtirishiga, bilimlarni boyitish va rivojlantirishga yordam beradi. Tabiiy va texnika fanlarida eksperimentdan haqiqatni bilish va uni isbotlash vositasi sifatida foydalaniladi.Eksperiment ijtimoiy hodisalarni, xususan, ijtimoiy fanlarni tadqiq etishda ham keng qo‘llanadi. Eksperiment metodining asosiy farqi va afzalligi shundan iboratki, bunda tadqiqotchi o‘z xohishi bilan qandaydir psixik jarayon yoki xususiyatni yuzaga keltirib, psixik hodisaning tashqi sharoitga bog‘liqligini tekshirib ko‘rishi mumkin. Eksperiment metodining ana shu afzalligi uning psixologiyada keng qo‘llanilishi bilan tushuntiriladi.Empirik, ya’ni tajriba yo‘li bilan qo‘lga kiritilgan faktlarning asosiy ko‘pchiligi psixologiyada eksperimental yo‘l bilan olingandir. Biroq har qanday tadqiqot qilinadigan vazifalarga eksperimentni qo‘llab bo‘lmaydi. Masalan, agarda psixik jarayonlar va funksiyalar ko‘proq eksperiment yo‘li bilan o‘rganilsa, shaxsning birmuncha sodda xususiyatlari (temperament, ko‘pgina qobiliyatlari) ham shu metod yordamida o‘rganiladi. Lekin xarakter va qobiliyatlarning murakkab turlarini eksperiment metodi bilan o‘rganib bo‘lmaydi.

Hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida xar bir yoshning sanoat korxonalarida va kishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida faol, ijodiy ishtirok etishi uchun fan va texnika yuzasidan mukammal bilimga ega bo‘lishi talab qilinmoqda. Chunki har bir yosh o‘zi egallagan kasblarning mohir ustasi bo‘lmog‘i shu kun talabidir. Sinfdan tashqari ishlarda faqat bilim berishga berilib ketmasdan, ishning tarbiyaviy tomoniga jiddiy e’tibor berish lozim[2].Bu hol hozirgi sharoitda ayniqsa muhim. Talabalarimiz mamlakatimiz tinchligi, osoyishtaligi, haqidagi bilimlarga ega bo‘lishi lozim.Sinfdan tashqari mushg‘ulotlarda yoshlar turli-tuman kasb-hunarga oid amaliy ishlarni bajarishadi. Masalan, kechalar, uchrashuvlar, ko‘rgazmalar tayyorlashi mumkin. Umumta’lim va kasb-hunar kollejlarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning shakllari. Sinfdan tashqari olib boriladigan mashg‘ulotlar asosan 3 turga bo‘linadi:

1. Ayrim talabalar bilan yakka tartibda olib boriladigan mashg‘ulotlar.

2. Talabalar guruhi bilan olib boriladigan mashg‘ulotlar.

3. Talabalar bilan ommaviy ravishda olib boriladigan mashg‘ulotlar.

Ayrim talabalar bilan yakka tartibda olib boriladigan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ilmiy ommabop kitoblar o‘qish, ko‘rgazmali qurollar yasash, kuzatish va tajribalar o‘tkazish kabi tadbirlar amalga oshiriladi. Talabalar guruhi bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarda to‘garak mashg‘ulotlari, fizika, qishloq xo‘jaligi texnikalari kabinetlarini jihozlash, devoriy gazetalar, fotomontajlar chiqarish, o‘quv filmlari namoyish qilish, albomlar tayyorlash, ekskursiyalar uyushtirish kabi ishlarni amalga oshirish mumkin.

This article seeks to examine the concept of “communicative competence” in English as a foreign language used in young learners’ classroom. The teaching and learning of foreign languages have been a subject of ongoing debate for many years. Numerous theories and methods have been proposed throughout history. For decades, the Grammar Translation Method dominated the field of foreign language instruction and it continues to be used today. Additionally, the field was significantly influenced by behaviorist theory, which viewed language as a social behavior that could be learned like any other habit through repetition. This led to the development of various language drills designed to promote habit formation. Communicative competence refers to the ability to effectively communicate in a language. This competence can be expressed in various forms, such as oral, written or nonverbal communication. It is a broad term that encompasses both knowledge of the language and the ability to use it effectively in real-world situations to meet communicative needs. Language, according to many scholars, is a tool for communication and it includes four key skills: listening, speaking, reading and writing. To acquire these skills, learners must not only master grammatical rules but also practice using these skills in various contexts until they become fluent. When learners are able to use these skills effectively and appropriately in different situations, we can say they have achieved a sufficient level of communicative competence. The concept of “communicative competence” was first introduced by Dell Hymes in 1966 during his lecture at a conference titled Developing the Language of Disadvantaged Children. It was later published as a paper entitled On Communicative Competence in 1972 and republished in 2001. Hymes introduced this notion as a response to Chomsky’s distinction between competence and performance. According to Chomsky, competence refers to “the ideal speaker-listener’s knowledge of their language”, and he argued that linguistic theory should focus on characterizing the abstract abilities that enable a speaker to produce grammatically correct sentences. In contrast, Hymes argued that communicative competence goes beyond grammatical knowledge and includes sociolinguistic competence. He emphasized that “rules of use” are essential because without them, grammar rules alone would be insufficient. Hymes defined communicative competence as “tacit knowledge” of a language and the ability to use it effectively for communication. From this, we can infer that, while Chomsky’s competence equates to grammatical competence in Hymes’ model, it only represents one aspect of communicative competence.

Savignon defined communicative competence as “the ability to function in a truly communicative setting”. This definition aligns closely with Hymes’ view. For Savignon, communicative competence is about functioning in real-world communication, which cannot be achieved through linguistic competence alone, as proposed by Chomsky. According to Savignon, competence refers to “what one knows” while performance refers to “what one does”.

Communicative competence is not just about knowing grammar or vocabulary, but it encompasses four main components: ***Grammatical competence*** (knowledge of language structure, such as syntax and morphology). ***Sociolinguistic competence*** (understanding how language varies in different social contexts) ***Discourse competence*** (ability to construct meaningful and cohesive speech or writing). Strategic competence (the ability to manage communication breakdowns by using various strategies, such as rephrasing). In young learners, these competencies are developed through engaging and practical methods that foster real-world language use. One of the most enjoyable and effective ways to develop language skills in young learners is through **games**. Games help reinforce vocabulary, grammar and communication skills in a relaxed and engaging way. Some examples of game-based activities include:

Role-playing: Children act out everyday situations such as shopping, traveling or going to a restaurant. These activities allow them to practice language in real-life contexts and build confidence.

Word games: Simple activities like crossword puzzles, memory games or word searches enhance vocabulary acquisition while keeping the learning process fun.

Storytelling games: Through these games, students create and tell stories, which encourages the use of new words and phrases. This also enhances creativity and fluency.

Using games encourages **active participation** and makes language learning less intimidating, especially for younger learners.

Interactive activities are essential for keeping students engaged and encouraging them to practice

language in real communicative situations. These activities promote **peer interaction**, which is crucial for language development. Examples include:

Pair work: Students work together on a task, such as writing a conversation or conducting an interview. This promotes **communication** and allows students to practice conversational English in a low-pressure setting.

Group discussions: Activities like debates or collaborative problem-solving encourage children to express opinions, share ideas and interact with others in English.

Interactive activities encourage students to actively use the language and build their **speaking and listening skills** in a collaborative environment.

Visual aids such as flashcards, images, videos and posters are invaluable tools for young learners. These resources help contextualize new vocabulary, grammar structures and practical language use. Visuals also support the learning process for **visual learners**. For example:

Flashcards and pictures help children connect words with their meanings.

Videos and animated stories offer examples of authentic language use in real-world situations.

Interactive posters encourage students to engage with language structures by manipulating visual materials.

Visual aids make language learning more **concrete** and support the development of listening and speaking skills by presenting language in context.

Task-based learning (TBL) focuses on completing meaningful tasks that require the use of language in real-world contexts. TBL encourages students to communicate for practical purposes, which helps build communicative competence. Some examples of task-based activities include:

Information gap activities: Students need to share information to complete a task, such as filling out a survey or solving a puzzle. These activities encourage **questioning** and **problem-solving** in English.

Project work: Collaborative projects such as creating posters or conducting surveys require students to use language to work together and achieve a common goal.

Task-based learning ensures that students are using language in **authentic, functional ways**, which is key for developing communicative competence.

In summary, developing **communicative competence** in young learners requires the use of engaging and varied teaching methods. By incorporating games, interactive activities, visual aids, storytelling, task-based learning and strategies for boosting motivation, teachers can create a dynamic environment where students can practice English confidently and effectively. Through these approaches, students not only learn the language but also understand how to use it practically in real-world contexts. By emphasizing communication, creativity and confidence, educators can help young learners develop the necessary skills to communicate fluently in English, preparing them for future academic and social success.

The list of used literature

1.Amirovich, K. S., Zamirovich, G. E., Grigoryevna, R. E., Khabibullayevna, K. M., & Mirvaxidovna, K. N. (2021). FORMATION OF STUDENTS'SPEAKING SKILLS IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH AT HIGHER EDUCATIONAL ESTABLISHMENTS. *Psychology and Education*, *58*(1), 5551-5557 p.

2.Hymes, Dell. (2001) “On communicative competence.” Linguistic anthropology: A reader: 53-73p

3.Naomi S., Thompson T., Driscoll L (2009). Family and Friends 1 // Class book. – Oxford University Press,. 113 c.

4.Grigoryevna, R. E. (2023). ELABORATING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN JUNIOR CLASSES. *Western European Journal of Historical Events and Social Science*, *1*(3), 58-61 p.

5.Kattaboeva D. K. (2023). Application of linguistic, communicative and pragmatic competences for foreign language teaching . Western European Journal of Historical Events and Social Science, 1(3), 42-45 p.

6.Savignon, Sandra J. (1972). Communicative competence: An experiment in foreign-language teaching. Vol. 12. Marcel Didier. 28 p

Umidaxon AHMADOVA,
Buxoro davlat universiteti,
O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
u.s.ahmadova@buxdu.uz
uaxmadova477@gmail.com

O‘ZBEK TILIDA HUNARMANDLAR LEKSIKASI LINGVISTIK TAHLIL OBYEKTI SIFATIDA

Annotatsiya: maqolada hunarmandchilik sohasiga oid perifrazalar xususida mulohaza yuritilgan. Perifraza haqida tilshunos olimlarning qisqacha qarashlari keltirilgan bo‘lib, o‘zbek tili hunarmandchilik sohasi perifrazalari lingvistik jihatdan tahlil qilinib, ularning lisoniy xususiyatlari, nutqdagi o‘rni, lingvomadaniy xususiyatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, lingvistika, perifraza, til, A.Hojiyev, R.Qo‘ng‘urov, lison, nutq.*

Аннотация: в статье рассматриваются перифразы, связанные с областью ремесел. Представлены краткие мнения лингвистов о перифразах, лингвистически проанализированы перифразы сферы ремесел узбекского языка, рассмотрены их языковые особенности, место в речи, языковые особенности.

Ключевые слова: *узбекский язык, языкознание, перифраз, язык, А. Ходжиев, Р. Конгуров, язык, речь.*

Annotation: the article discusses the periphrasis related to the field of crafts. Brief views of linguists about periphrasis are presented, periphrasis of the field of crafts of the Uzbek language are analyzed linguistically, and their linguistic features, their place in speech, and linguistic features are discussed.

Key words: *Uzbek language, linguistics, periphrasis, language, A. Hojiyev, R. Kongurov, language, speech.*

Kirish qism. XXI asrga kelib jahon va o‘zbek tilshunosligi yangicha taraqqiyot bosqichiga o‘tdi. Ilm-fan taraqqiyotida turli sohalarning integratsiyalashuvi tildan amaliy foydalanishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar tufayli til va xalq madaniyati yuksalishi yanada kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda o‘zbek tilshunosligi muammolarini jahon tilshunosligida erishilgan yutuqlar asosida chuqur hal qilishga e’tibor ortmoqda. Jahon va o‘zbek tilshunosligida perifrazologiya hodisasining keng ko‘lamda o‘rganilishi mazkur hodisaning semantik va funksional tabiatini talab darajasida ochib berish, uning matn tuzilishida bajaradigan vazifalarini aniqlash imkonini beradi. Hunarmandchilik sohasiga oid perifrazalar o‘zbek tilshunosligida o‘rganilmaganligini hamda ularning yuzaga kelishiga turtki beruvchi omillar batafsil tavsiflanmaganligini kuzatish mumkin.

Asosiy qism. Davlatimiz rahbari tomonidan milliy hunarmandchilik turlarini, xalq badiiy-amaliy san’atini rivojlantirish, qo‘li gul hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash va mehnati mahsullarini keng targ‘ib etish bo‘yicha “Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 1-noyabrdagi “Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorlari [1] hunarmandlar madaniyatini, tilini o‘rganishga yanada kengroq imkoniyat eshigini ochdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy va ma’naviy merosini asrab-avaylash, boyitish va yanada ko‘paytirish, yosh avlodni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalalarini davlat siyosati darajasida ko‘tarib turgan bir vaqtda o‘zbek tili hunarmandchilik sohasi perifrazalarini lingvistik hamda lingvomadaniy birlik sifatida tadqiq qilish dolzarblik kasb etadi. Umuman olganda, o‘zbek tilshunosligida perifrastik birliklarni o‘rganish XX asrning 90-yillaridan boshlangan. O‘zbek tilshunosligida ko‘chim turi sifatida perifrazani o‘quv qo‘llanmasiga olib kirgan tilshunos olim R.Qo‘ng‘urov 1983-yilda nashr etilgan “O‘zbek tili stilistikasi” qo‘llanmasida: “...kishilarning otlarini yoki boshqa predmetlarning nomini to‘g‘ridan-to‘g‘ri gapirmasdan, ularni turli xil so‘z yoki tasviriy iboralar vositasida bayon qilish perifraz deyiladi. Bu termin perifraza, parafraz, parafraza deb ham yuritiladi” [3], deb ta’riflaydi.

A.Hojiyevning “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati”da quyidagicha izoh keltirilgan: “Narsa, hodisani o‘z nomi bilan emas, tasviriy usul bilan ma’lum kontekst, situatsiyadagi xarakterli belgi-xususiyati orqali ifodalaydigan stilistik priyom. Masalan, dala malikasi, (makkajo‘xori)” [4, 67] tarzidagi qarashlari mavjud. Bugungi kunga kelib perifrazalar jamiyat a’zolari nutqida anchagina faol qo‘llanadigan birlikka aylanib ulgurdi. Shu jumladan, hunarmandlar nutqida, ular turmush tarzida tasviriy ifodalardan bevosita foydalanganligini kuzatish mumkin.

Hunarmandlar nutqi va hunarmandchilik sohasida qo‘llanilgan terminlar til va madaniyatning hamkorligi natijasida shakllangan lisoniy birliklardir. Milliy

madaniyatga, milliy tilga, milliy jamiyatga aloqador tushunchalarni ifodalashda perifrazalar ko‘makka keladi. Jumladan:

Hayot daraxti shaklidagi toj – boshtuzi, osmatuzi.

Xorazm ayollarining boshga taqiladigan ziynat buyumi, “shoxlar” yoki “qanotlar” bilan o‘ralgan hayot daraxti shaklidagi toj. Ushbu shohona bosh taqinchog‘ining dastlabki namunalari saljuqiylar haykaltaroshligidan ma’lum, XI – XII asrlar [2, 35].

Bir bog‘ gul, hayot daraxti hosilasi – guldasta

Forscha, *bir bog‘ gul*. 1) tashqi devorlar tutashgan burchakda qad rostlagan, odatda, dumaloq shaklda ishlangan minora; 2) minoraning yuqori qismi; 3) gullayotgan novda va *guldastalar naqshi, hayot daraxti hosilasi*; Buxoro, Nurota, Shahrisabz kashtado‘zligida, devor bezaklarida, kitob miniatyuralarida – unumdorlik, *jannat bog‘ining klassik ramzi* [2, 46].

Dovud yulduzi – Dovud qalqoni

Iivrit, aynan: “Dovud qalqoni” olti burchakli yulduz, ko‘plab xalqlarda keng tarqalgan himoya qiluvchi sehrli tumorning qadimiy ramzi. …O‘zbekiston me’moriy bezaklarida ko‘p uchraydi [2, 54].

Boy chavandozning ayili, ayiq terisi – julhirs, julvaraq

*Arabcha, tojikcha, turkcha; uzun tukli (20 mm gacha) tikilgan yoki bir qatorli to‘qish usulida yaxlit to‘qilgan yerga to‘shama, to‘shak sifatida ishlatiladigan gilam. … Julhirs atamasining **“ayiq terisi”** (arab.-toj.) sifatidagi keng tarqalgan tarjimasini savdogarlar o‘ylab topishgan. V.G.Moshkovaning so‘zlariga ko‘ra, o‘zbek hunarmand ayollari bu atamani **“boy chavandozning ayili”** (jul – “egar tagidagi to‘shama”, hirs – “boy odam”) deb tarjima qilishgan…* [2, 67].

Har bir til shaxsi ayni holatda madaniy shaxs hisoblanadi. Shuning uchun til belgilari madaniyatning tili ham hisoblanadi hamda til egasining milliy-madaniy o‘zligini ko‘rsatib beradi. Shunday ekan, hunarmandchilik leksikasini o‘rganish mamlakatimiz rivojlanishining yangi bosqichida madaniy taraqqiyot va merosimizni saqlash, uni tarannum etish, jahonga tan oldirish borasidagi muammolarni hal qilishda dasturilamal hisoblanadi.

Til tizimida perifrazalarning o‘rni va amaliy ahamiyati, jahon va o‘zbek tilshunosligida perifrastik birliklar tadqiqi, bu tadqiqot jamiyatga nima berishi, hunarmandchilik sohasi leksikasi xususiyatlari, boshqa sohalardan farq qiluvchi alohida xususiyatlari bir paradigmada yoritilishi tilning jamiyat bilan aloqador ekanligi, ular bir-birini to‘ldiruvchi hamda boyituvchi manba ekanligi yana bir bor isbotini topdi. Hunarmandlar leksikasi boy til sanaladi. Unda nafaqat milliylik omili, balki o‘zbek xalqining eng qadimgi davrlarga borib taqalishi xususidagi ma’lumotlarni olish mumkin. O‘zbek tili leksikasining imkoniyatlari kengroq ekanligini o‘z sohasida qo‘llangan terminlarda asoslaydi. Adabiy tilni jonli tilga yaqinlashtiradi. Xalqdan olib, uni boyitib, sayqallashtirib xalqqa beradi. Quyida keltiriladigan misol ayni fikr tasdig‘i hisoblanadi. Masalan:

Ayol bekaning ziynati – kalit bog‘i ramzi

O‘zbekcha ko‘krak-bel taqinchog‘i, osma zanjirlarga quyidan to gumbazga qadar kalitlar bog‘langan, bu kalitlar uy, sandiq eshigi va er qalbidagi qulfni ochish ifodasi sanalgan; ayol-bekaning ziynati, baxt va boylik ramzi bo‘lgan (Xorazm) [2, 89].

Muqaddas matnli taxta – sarlavha

Forscha sar/zar – “tilla”, lavha – “varaq”, “muqaddas matnli taxta”. Kitobni bezash san’atida: kitobning ichki sarvarag‘i yoki sarlavhali beti, oltin hal yordamida butun sahifaga naqsh solingan. Shuningdek: zarvaraq (aynan tilla varaq), lavha, zarlavha [2, 167].

Ta’kidlash joizki, perifraza uch a’zoli tuzilishga ega bo‘lib, quyidagi jadvalga e’tiborni qaratamiz (Qarang: 1.1-rasm).

Birinchi, eng muhim a’zosi nominativ so‘z – nominant	Perifrazalanayotgan so‘z	***zarvaraq***
Ikkinchi a’zo	Perifrazalanayotgan komponent	***varaq***
Uchinchi komponent	Perifrazalangan tarkibiy qism	***oltin***

To‘liq matn bilan tanishamiz:

Oltin varaq – zarvaraq

*Fors., aynan: **“oltin varaq”**. Kitobat san’atida: qo‘lyozma kitob sarvarag‘idan oldin qo‘yiladigan ikki yoki bir sahifali, oltin hal ishlatilgan, naqshlar bilan ziynatlangan varaq. Kitobning g‘oyat mahorat bilan bezak beriladigan qismi. Shuningdek: lavha, sarlavh – sar/zar – oltin, lavh – lavha, varaq; zarlavha* [2, 71].

Bir so‘z bilan aytganda, perifraza ekspressiv baholovchi, ham shaklan, ham mantiqan murakkab tabiatli hodisadir.

Xulosa qism. Hunarmandlar tili nutq madaniyatini, lingvokulturologiyani rivojlantirishga zamin hozirlaydi. Uzoq

ming yillik tariximizni, ma’naviyat-u madaniyatimizni o‘zida jonli aks ettiradi. Xalqona an’ana va urf-odatlarimizni bag‘rida asraydi. Shuning uchun ham hunarmandlar leksikasini o‘rganish, lingvistik jihatdan tahlil qilish tilimiz uchun samara beradi. Hunarmandchilik bilan bog‘liq mahsulotlarda jamiyat a’zolariga xos bo‘lgan milliy-madaniy xususiyatlarning aks etishi hunarmand nutqi samaradorligiga xizmat qiladi. Ma’lum bir diskursdagi milliy-madaniy xususiyatlarni tadqiq etish lingvokulturologiya, shuningdek, sotsiolingvistikaning tadqiq markazida turadi.

Mohir hunarmandlarning mehnatidan bugungi jamiyatimizning har bir a’zosi foydalanadi. Mana shu soha vakillarining nutqida qo‘llangan perifrazalar ham kattagina guruhni tashkil etadi. Tilni boyitish va jamiyatni taraqqiy toptirishda ularning xizmati beqiyos. Mehnati bilan jamiyatimiz rivoji uchun xizmat qilsa, tili va til uslubi bilan o‘zbek tilini boyitish uchun, uni to‘ldirish uchun hissa qo‘shadi. Ona tilimizning serqirra imkoniyatlarini butun nozikliklari bilan tahlil qilish, milliy, ma’naviy, madaniy xususiyatlarini saqlab qolish va uni yana tilning o‘z ijodkori – xalqqa qaytarishda perifraza (tasviriy ifoda)lar ko‘makka kelayotganligi ahamiyatga molikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2021-yildagi PQ-77-son. “Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston an’anaviy san’ati atamalari badiiy ensiklopediya. – Toshkent, 2023. 268-bet.
3. Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 148.
4. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 67-б.

Begzod ABDULLAYEV,
“University of economics and pedagogy” NOTM v.b. dotsenti,
PhD, Andijon davlat universiteti doktoranti,
ADCHTI o‘qituvchisi

BOZOR MUNOSABATLARIDA NUTQIY AKTNING RIVOJLANISHI

Annotatsiya: reklama diskursini lingvistik aspektda tahlil qilishimiz uchun reklamaning kommunikativ-pragmatik tomonlarini o‘rganish talab etiladi. Ushbu maqolada reklamada nutqiy aktning o‘rni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *nutqiy akt, pragmatika, pragmatik ta’sir, semiotika, fe’l, lokutsiya.*

Аннотация: чтобы проанализировать рекламный дискурс с лингвистической точки зрения, необходимо изучить коммуникативный и прагматический аспекты рекламы. В данной статье говорится о роли речевого акта в рекламе.

Ключевые слова: *речевой акт, прагматика, прагматический эффект, семиотика, глагол, высказывание.*

Annotation: in order to analyze the advertising discourse from a linguistic point of view, it is necessary to study the communicative and pragmatic aspects of advertising. This article talks about the role of the speech act in advertising.

Key words: *speech act, pragmatics, pragmatic effect, semiotics, verb, locution*

O‘zbek tilshunosligida M. Hakimovning “O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida *nutqiy akt nazariyasi, lokutiv, illokutiv, perlokutiv* aktlar, *tagbilim* va *tagma’no* singari masalalar yuzasidan o‘zbek tilshunosligi tarixida ilk marta fikr-mulohazalar yuritilgan edi.[8]

Nutqiy akt nazariyasi J. L. Ostin va J. R. Syorl tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u til vositalari yordamida amalga oshiriladigan kommunikativ harakatlarni o‘z ichiga oladi. Bozor munosabatlarida nutqiy aktlar quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi:

Lokutsiya: nutqning ma’lum bir grammatik va semantik mazmun bilan ifodalanishi.

Illokutsiya: aytilayotgan gapning maqsadi (taklif, tavsiya, undov).

Perlokutsiya: aytilgan gap orqali auditoriyada hosil bo‘ladigan ta’sir (xarid qilish qarori, qiziqish uyg‘otish).

Rus va sovet sotsiologi professor F. I. Sharkov reklama matni haqida quyidagilarni bayon qilgan: “…reklamaning barcha funksiyalari, shuningdek, marketing aralashmasining boshqa elementlari marketing kommunikatsiyalarining asosiy maqsadlariga erishish uchun qisqartiradi: talabni shakllantiradi va sotishni rag‘batlantiradi. Reklama xabarlari, odatda, reklama beruvchini xarid qilishga undash uchun unga ta’sir qilish usullarining turli kombinatsiyasi hisoblanadi. Buning uchun ular sotilayotgan mahsulot atrofida qulay muhit yaratishga, uni o‘ziga xos fikrlar bilan o‘rab olishga harakat qiladilar” [1]. Reklama diskursini lingvistik aspektda tahlil qilishimiz uchun reklamaning kommunikativ-pragmatik tomonlarini o‘rganish talab etiladi.

Pragmatika atamasiga turlicha talqinda ta’rif berilgan:

1. Odamlarning og‘zaki nutqqa munosabati bilan shug‘ullanadigan semiotikaning bir bo‘limi.[2]

2. U har qanday belgi tizimini idrok etuvchi va ishlatadigan subyektlarning belgi tizimining o‘zi bilan munosabatlarini o‘rganadi[3].

3. “Pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo‘lib, uning tadqiqot doirasiga muloqot jaryonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo‘llash hamda ushbu qo‘llashdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta’siri o‘rganiladi”. [4]

4. Semiotikada, tilshunoslikda: til vositalari va bu vositalardan foydalanadiganlar o‘rtasidagi munosabatni o‘rganuvchi yo‘nalish[5].

5. Belgilarning ularni hosil qiluvchi va izohlovchi subyektlarga munosabatini o‘rganadi.

Reklamada pragmatik diskursni tatbiq qilishda sotuvchi – nutq subyekti bilan o‘zaro bog‘liq holda quyidagi masalalar o‘rganiladi:

1. Sotuvchining reklama matnidagi oshkora va yashirin maqsadlari:

a) mahsulot haqida iste’molchiga xabar berish;

– Quvnoq shou. Turkiston san’at saroyida!(Quvnoq shou konserti)

– Artel kompaniyasi o‘zining yangi invertorli konditsionerlarini taqdim etadi! (Artel)

b) so‘roq yoki ritorik so‘roq gaplardan foydalanish;

– Radarga tushib charchadingizmi?(maxima antirodari).

– Aka bunaqa moshinani qayerdan sotib oldiz?(avtoe’lon.uz).

– “IELTS Intensive” kurslari haqida eshitganmidingiz?!(IELTS Intensive kurslari).

– Bilasizmi, insonlar haftani qanday boshlasa, ularni hafta davomida shu kayfiyat tark etmasligiga ishonishadi?

– Bringo orqali istalgan turdagi palovni buyurtma qiling va yaqinlaringiz bilan haftani a’lo darajada boshlang! (Bringo platformasi)

2. Nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari:

– Assalomu alaykum, hurmatli xaridorlar. Dusel Kristal Galogenlarining ushbu turlari sotuvda to‘liq mavjud. Buyurtma berishingiz mumkin. (Dusel Kristal Galogen).

– “Hurmatli xaridorlar! Bunisiga nima deysiz?! Ayni yoz chillasida siz uchun yumshoq va mayin mato! (“Luxury Abaya” do‘koni).

3. Suhbat va so‘zlashish qoidalari:

– Biz bilan birga bo‘lganingiz uchun rahmat!(WhiteLine jamoasi).

– Ucell bilan aloqada qoling va biz bilan birga bo‘lganingiz uchun yana bir bor tashakkur! Ucell. Hayotni yaxshilik sari o‘zgartirib! (Ucell)

4. Sotuvchining maqsadi – xaridor ongida mahsulot yoki xizmatga ta’rif berib, sotib olish motivini shakllantirish:

– Immunitet va limfa tizimini mustahkamlaydi va kekirdak to‘qimalarining oziqlanishini yaxshilaydi;
– Tomirlarni kengaytiruvchi ta’sirga ega va artikulyar qon aylanishini yaxshilaydi;
– Regeneratsiya jarayonini boshlaydi va sinovial suyuqlik sifatini yaxshilaydi, uning normal aylanishini tiklaydi;
– Toksinlarni yo‘q qilishga yordam beradi va to‘qimalarning tiklanishiga ta’sir qiladi, uni kerakli moddalar bilan oziqlantiradi;
– Metabolizmni tezlashtiradi, ovqat hazm qilishni yaxshilaydi, ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarini yo‘q qiladi;
– Ichaklarni tozalaydi, yog‘ qatlamlarini yo‘q qiladi, jigarda ortiqcha yog‘larni yo‘q qiladi;
– Yog‘li terining yog‘ ajralishini tartibga soladi, turli dog‘lar paydo bo‘lishidan himoya qiladi;
– Shuningdek, og‘riqni yo‘qotishga yordam beradi va qisqa vaqt ichida salomatlikni tiklashga imkon beradi;

MAHSULOTNI -50% CHEGIRMADA XARID QILING

Aksiya oxirigacha qoldi 00***kun:08soat:49minut:05sekund***

Raqamingizni qoldiring va bizning mutaxassislarimiz siz bilan tez orada bog‘lanishadi.

NUTVA Complex – Bu Markaziy Osiyo va Yevropa shifokorlarining tabiiy giyohlar kombinatsiyasi asosida kimyoviy yoki issiqlik bilan ishlov berishsiz tayyorlangan tabiiy, ekologik toza mahsulotdir.

5. Sotuvchi tomonidan iste’molchining umumiy bilimi, dunyoqarashi, qiziqishlari va boshqa xislatlariga yuksak baho berilishi:

– “Siz Bunga loyiqsiz! Individual e’tibor – yuqori natija garovidir! (wall_street.uz).

– O‘qisangiz universitetni zo‘rida o‘qing, siz bunga loyiqsiz! Har doim eng zo‘ri bo‘lishga intiling, shunda yuqori natijalarga erishasiz! (Farovon Consulting).

– O‘zingizni shirinliklar bilan siylang! Siz bunga arziysiz! Bringo! (Bringo platformasi)

6. Sotuvchining o‘zi taklif qilayotgan mahsulot xabariga munosabati – baho berishi.

– Yevropa sifati endi Romitanda! (do‘kon).

– Roger Italiya mahsuloti. 900 y.e. Рекламировать Поднять. Частное лицо. Описание. Siznig uyingizga avtomatlashtrilgan darvazani ochip yopish qulayligi! (Roger).

– Turkiyani tozasi!

– Xitoyni tozasi-da! Pulizga arziydi.

Yana bir shunga o‘xshash holatga Shahrixon buyum bozorida duch keldik.

– Siz uchun Turkiyaliklar atay tikishibdi.

7. **Milliylikni targ‘ib qilish. Milliy g‘urur, milliy mahsulot!**

– O‘zimizda ishlab chiqarilgan! (Artel). Eshik – Milliy mahsulot, milliy g‘urur, sifat VA go‘zallik uyg‘unligi. 1 399 999 so‘m. (VA eshik va romlari).

Milliylikni targ‘ib qilish do‘kon yoki savdo markazlariga ham nom berish orqali amalga oshiriladi. Bux-

oroda “aynimo” savdo kompleksi faoliyat yuritadi. Tojikchadan tarjima qilsak, “O‘zimizniki” degan ma’no kelib chiqar ekan.

Bu kommunikativ jarayonda nutq parametrlarining adresat dunyoqarashi, ma’naviy ongi va milliy mentalitetiga muvofiqligi muloqot maqsadining amalga oshirilishini ta’minlaydi. Bu holat adresatning ijtimoiy modelini shakllantiradi. Kommunikativ jarayonda har bir xatti-harakat qabul qiluvchining ma’lum bir ijtimoiy modeliga mo‘ljallangan bo‘ladi.

Bozor munosabatlarida nutqiy akt mazmunining tarkib topishi va voqealanishi bevosita sotuvchining niyat va maqsadiga bog‘liq.

Bozor munosabatlarida nutqiy aktlarning rivojlanishi bir necha bosqichlarda amalga oshadi:

Boshlang‘ich bosqich:

E’tiborni jalb qilish va dastlabki aloqa o‘rnatish. Masalan, reklamadagi yorqin sarlavhalar yoki chaqiruvlar.

Interaktiv bosqich:

Savol-javob, mahsulot bo‘yicha ma’lumot berish yoki xaridorning ehtiyojlarini aniqlash jarayoni.

Xulosa bosqichi:

Xaridorni qaror qabul qilishga undash va u bilan aloqa o‘rnatishni davom ettirish.

Keyingi yillarda uning fikriga asoslanib, N.D. Arutyunova nutq aktidagi qabul qiluvchi omili muammosi haqida gapirganda, nutq aktining pragmatik ma’nosi nafaqat nutq mavzusiga, balki nutqiy vaziyatga, shuningdek, sezilarli darajada qabul qiluvchiga bog‘liqligini ta’kidlaydi.[10]

Nutqiy akt matnni va diskursning tarkib topishida muhim rol o‘ynaydi. Nutqiy aktda mazmun verbal va noverbal elementlardan tashkil topadi.

«Lisoniy muloqot birligi, odatda, taxmin qilganlaridek, simvol (ramz), so‘z yoki gap emas, hatto simvol so‘z yoki gapning belgisi ham emas, balki simvol, so‘z yoki gapning *nutqiy akt ijrosi jarayonida yaratilishi va qo‘llanishidir*. …Yanada aniqrog‘i, gap belgisining ma’lum sharoitda yaratilish va qo‘llanishi nutqiy aktdir va nutqiy aktlar lisoniy muloqotning asosiy va eng kichik (minimal) birligidir».[11]

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi fikrdan anglanishicha, gap nutqiy muloqot jarayonida yaratiladigan hodisa bo‘lib, nutqiy akt nazariyasi uchun tayyor material sifatida foydalaniladigan lisoniy birlik hisoblanmaydi. Demak, o‘zaro muloqotda nutqiy aktning yaratilishi ko‘zlangan kommunikativ maqsadga bog‘liq jarayon desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Шарков Ф. И. Реклама в коммуникационном процессе*: Учебник /. *Ф. И. Шарков*. — 2-е изд. — М.: Издательско торговая корпорация «Дашков и К°», 2009. — 348 с.

2. *Комлев*, Николай Георгиевич. *Словарь иностранных слов* [Текст] / *Н. Г. Комлев*. – М.: ЭКСМО, *2006*. - 669, [2] с.

3. Лингвистический *энциклопедический словарь* / гл. ред. В.Н. Ярцева. – 2-е изд., доп. – М.: Большая рос. энцикл., 2002. – 709 с.

4. *Сафаров Ш. Прагмалингвистика*. – Т.:ЎзМЭ. 2008. – 71-91 б.

5. *Ожегов* С.И.,Шведова *Н.Ю*. «*Толковый словарь русского языка*» ; ISBN. 978-5-905542-46-6; год издания. 2020. – 896 с.

6. “Zarqaynar” oshxonasi indoor reklamasidan. Samarqand. Yozib olingan sana: 7.05.2023.

7. Арутюнова Н.Д. Дискурс / Лингвистический энциклопедический словарь [Текст] Сов. энциклопедия, / – М., 1990. – 378-392 с.// http://lingvisticheskiy–slovar.ru/description/diskurs/168

8. Нурмонов А. Имманентликдан когнитивликка / Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 2009.– №6. – Б. 104-107.

9. ҲакимовМ. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини:Филол. фан. док-ри ...дисс. автореф. –Т., 2001. – Б. 26.

10. Арутюнова, Н.Д. Понятие пресуппозиции в лингвистике [Текст] / Н.Д. Арутюнова . Изд-во АН СССР, – М., 1973. 84-92 с.

11. A.Primov, X.Qodirova. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Urganch, 2020. 99-bet.

12. Abdullayev Begzodbek Xoldaraliyevich. (2024). Bozor munosabatlarida nutqiy aktning o‘rni. *Samarali ta’lim va barqaror innovatsiyalar jurnali*, *2*(2), 477–486-betlar.

13. Abdullayev B. (2023-yil, iyun). LINGVISTIKADA MATN TUSHUNCHASI. *Ko‘p tarmoqli tadqiqotlar va ta’lim bo‘yicha akademik xalqaro konferensiyada* (1-jild, № 9. 13-15-betlar).

14. KH, Abdullaev B. “A LOOK AT ADVERTISING AND THE HISTORICAL FORMATION OF ADVERTISING IN UZBEKISTAN.” *Open Access Repository* 8.12 (2022): 684-686.

15. Abdullaev, B. (2021). FACTORS DETERMINING THE PLACE OF DISCOURSE IN ADVERTISING TEXT AND ITS INFLUENCE ON THE SOCIAL STRUCTURE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(9), 24-27.

Sanobar DJUMANOVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o‘qituvchisi
marifat.88@mail.ru

MEDIATA’LIMNI MILLIY TA’LIM TIZIMIGA JORIY ETISHDA FANLARGA INTEGRATSIYALASH MASALALARI

Annotatsiya: maqolada muallif tomonidan ishlab chiqilgan mediata’limning “o‘zbek modeli”, uning prinsiplari, uni milliy ta’lim tizimiga joriy etish, fanlarga, xususan adabiyot, ona tili va xorijiy til fanlariga integratsiyalash, joriy etish shakli va kutilayotgan natijalar masalalari ko‘rib chiqiladi. Bu yondashuv o‘quvchilarda mediamatnlarni tahlil qilish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: *mediata’lim, mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, axboriy kompetensiya, ijtimoiy immunitet.*

Аннотация: в статье рассматриваются разработанная автором «узбекская модель» медиаобразования, ее принципы, вопросы ее внедрения в национальную систему образования, интеграции в учебные дисциплины, в частности, литературу, родной язык и иностранный язык, формы реализации и ожидаемые результаты. Данный подход позволяет учащимся развивать навыки анализа медиатекстов и критического мышления.

Ключевые слова: *медиаобразование, медиаграмотность, критическое мышление, информационная компетентность, социальный иммунитет.*

Annotation: this article explores the “Uzbek model” of media education developed by the author, including its principles, implementation in the national education system, and integration into various subjects, particularly literature, native language, and foreign language courses. It examines the form of implementation and expected outcomes. This approach aims to develop students’ skills in analyzing media texts and critical thinking.

Key words: *media education, media literacy, critical thinking, information competence, social immunity.*

Kirish. Mediata’lim ta’lim jarayonining tobora muhimroq qismiga aylanib bormoqda, chunki zamonaviy o‘quvchilar axborotga to‘yingan raqamli dunyoda yashaydilar. Mediata’limni alohida fan sifatida emas, balki boshqa fanlarga integratsiyalab o‘qitish ilg‘or ta’limli mamlakatlarda o‘zini oqlagan tajriba bo‘lib, masalan, Buyuk Britaniyada mediata’lim ingliz tili darsalariga integratsiyalashtirib o‘qitiladi. Deylik, ona tili, adabiyot va xorijiy til darslarida mediata’limni joriy etish o‘quvchilarga nafaqat adabiy asarlarni chuqurroq anglash, balki tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, axborot oqimlarida yo‘l topa olish, uning ishonchliligini baholash va ommaviy axborot vositalari orqali manipulyatsiya usullarini tushunish qobiliyatlarini shakllantiradi. Masalan, Abdulla Qodiriy ijodini o‘rganishda “O‘tkan kunlar” kinosidan lavhalar ko‘rsatilishi, ona tili darslarida oddiy insho emas, ijtimoiy tarmoq uchun ma’rifiy post yozish topshirig‘i berilishi mumkin. Kichik tadqiqotimiz mediata’limni milliy ta’lim tizimiga joriy etish, mediata’limning “o‘zbek modeli”ni ishlab chiqish masalasining dolzarbligi, fanlarga integratsiyalashdagi yondashuvlarni o‘rganishga qaratilgan.

Asosiy qism. Jahonda mediata’limni joriy etish tajribasida ustuvorlik kasb etayotgan “Global fikrlash, lokal harakat qilish” tamoyili ham har bir hududda milliy va mahalliy model hamda standartlar yaratishni nazarda tutadi. Mediata’limning tarixiy, nazariy, amaliy, metodologik asoslarini o‘rganib, olingan xulosalar asosida mediata’limning “o‘zbek modeli” ta’rifi va xususiyatlari quyidagicha keltirilishini taklif etamiz:

Mediata’limning “o‘zbek modeli” – bolalar, o‘smirlar, yoshlarning mediaolamga moslashuvini ta’minlovchi, umuman, uzluksiz ta’lim shaklida barcha yoshdagilarining axborot bilan munosabatlarini tartibga soluvchi, o‘zbekona tarbiya bilan parallel olib boriluvchi, mediamakondagi har qanday axboriy xurujlarga qaramay, barcha shart-sharoitda milliy g‘oyalarga sodiq, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega axborot iste’molchilarini tayyorlovchi, axborot odobi, madaniyati, ma’naviyatini shakllantiruvchi, insonning sotsioembrion darajadan umrining so‘ngigacha davom etuvchi, mediamahsulotlarni tafakkur chig‘irig‘idan o‘tkazib, saralab qabul qilish, baho berishda ijtimoiy immunitet, zirh vazifasini o‘tovchi, mediamahsulotlar yarata olish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni yuzaga chiqaruvchi, o‘quv jarayonida sharqona didaktik asoslarga tayangan, raqamli olamda xavfsizlik qoidalarini o‘rgatuvchi, ommaviy kommunikatsiyadagi muammolarni hal etib, axboriy olamdagi konfliktlarni bartaraf etuvchi, milliy mentalitetga xos bo‘lmagan nomaqbul axborotlarning ta’sirini minimallashtiruvchi ta’lim modelidir. U mediata’limning tanqidiy tafakkur, himoyalovchi, estetik-badiiy, amaliy nazariyalari bilan bir qatorda O‘zbekiston va jahon uchun dolzarb va zarur bo‘lgan yangi “diniy-ma’rifiy” nazariyani o‘z ichiga olishi maqsadga muvofiq. Chunki diniy masalada noto‘g‘ri talqin, soxta axborotlar ko‘pligi,

ijtimoiy tarmoqlarda diniy mavzulardagi tortishuvlar kuzatilishi mazkur yo‘nalishga mediasavodxonlikning bir yo‘nalishi sifatida qarashni taqozo etadi.

Mediata’limning “o‘zbek modeli”ni amaliyotga joriy etish davlat xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi, O‘zbekistonning axboriy va kiber xavfsizligini mustahkamlaydi, milliy manfaatlar yo‘lida auditoriyani dezinformatsiyadan himoyalash va jamiyatda sog‘lom axborot muhitini shakllantirish uchun global tarmoq yoki OAVdan foydalanishda texnik cheklovlarni qo‘yishga zarurat qolmaydi, mediaga qaram insonlar soni kamayadi. Sog‘lom axboriy muhit iqtisodiyotning barcha tarmoqlari – ishlab chiqarishdan sog‘liqni saqlash tizimigacha – rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.


Mediata’limni joriy etishda xorijiy tajribani ko‘chirmay, milliy modelni yaratish zarurati mentalitet, axboriy muhit va axboriy muammolar turlichaligi bilan ham izohlanadi. Masalan, mediata’limga doir xorijiy qo‘llanmalarda axloqiy og‘ishlar va diniy masalalardagi ba’zi misollar, qarashlar, nuqtayi nazarlar o‘zbek milliy mentaliteti, asriy qadriyatlariga mos emas, buni o‘zbek auditoriyasida muhokama etish maqbul emas. Milliy model yaratilishi milliy o‘quv materiallari, darslik va qo‘llanmalar yaratishga asos bo‘ladi. Milliy ta’lim tizimining o‘ziga xosligi – ta’lim va tarbiyaning parallel olib borilishi mediata’limni joriy etishga qulaylik yaratadi. Milliy didaktik asoslarga tayanib dars o‘tish esa o‘zbek auditoriyasida samarali. Shuning uchun mediata’lim dasturlari va o‘quv materiallarini yaratishda xalq og‘zaki ijodi, Sharq allomalarining boy merosiga murojaat qilish maqsadga muvofiq. Masalan, “Yolg‘onga yo yalqov ishonar, yo anqov” maqoli axborotni tekshirishga erinmaslik, “Yomon so‘zning qanoti bor” negativ informatsiyaning tez tarqalishi, “Quloqdan ko‘z yaxshi” hikmati o‘zi guvoh bo‘lmaguncha axborotga ishonib bo‘lmasligi kabilarni o‘rgatadi.

Shuningdek, O‘zbekistonda bolalarni salbiy ta’sirli axborot, mediamahsulotlardan himoyalashda oila ijtimoiy institutidan samarali foydalanish zarur. Bola oilasi bilan ko‘p vaqt o‘tkazishi, oilada uning media iste’moli nazorat qilinishi, ota-onasi bu borada namuna bo‘lishi, mediaolam haqida dastlabki ko‘nikmalar shakllantirilishi kerak. Buni quyidagi ko‘rinishda ifodalashni taklif etamiz: **bola – oila – ta’lim muassasasi – mediamakon**. Ya’ni mediamakonga yo‘l oila va ta’lim muassasasi orqali bo‘lishi kerak. Bu ota-onalar uchun mediasavodxonlik qo‘llanmalarini yaratish zaruratini keltirib chiqaradi.

Tadqiqot ishimiz mediata’limning ko‘rinishi va vazifalari kengligi, mediasavodxonlik malakasi zarur bo‘lgan soha va tarmoqlarning ko‘pligi, axborot iste’moli natijasida kelib chiqayotgan muammolar turli-tumanligi, axboriy makondagi xavflar o‘zgarib turishi, o‘zlashtirish kerak bo‘lgan raqamli malakalar takomillashib borishi sababli uning barcha ko‘rinishlarini yagona o‘quv dasturida qamrab olish imkonsizligini ko‘rsatdi. Shuningdek, mediata’limni milliy ta’lim tizimiga joriy etishda ***o‘quv reja va dasturlarining moslashuvchanligi*ga** e’tibor qaratish talab etiladi. Ma’naviy ishlarning bir qismi sifatida qaramay, gumanitar fanlarga integratsiyalash bilan cheklanmasdan, uni aniq fanlarga ham kiritish maqsadga muvofiq. Chunki mediata’lim axborot texnologiyalari, huquq, iqtisod, mantiq, psixologiya kabi fanlar bilan bevosita aloqador.

1. Mediata’limni joriy etishning asosiy bosqichlari. Milliy modelda mediata’limni joriy etishni uzluksiz tarzda (1-rasmga qarang) amalga oshirish tavsiya etiladi, chunki media iste’moli umrbo‘yi davom etadi.

1-rasm. *Mediata’limni joriy etish bosqichlari.*




2. Mediata’limni joriy etish shakllari. Umumiy o‘rta ta’limda mediata’limni integratsiyalashgan shaklda, ya’ni boshqa fanlar mazmuniga singdirib o‘qitish kerak. Alohida fan sifatida o‘qitish milliy ta’lim tizimida fanlar ko‘pligi va informatika fanida raqamli savodxonlik, shaxsiy ma’lumotlar konfidensialligini ta’minlash, raqamli ijodkorlik kabi yo‘nalishlarda bilim berish; ona tili fanida ingliz va rus tillaridagi mediamatnlarni o‘rganishda qulayligi uchun kontentni tahlil qilish, mafkuraviy maqsadlarni aniqlash, adovat va nafrat tilini aniqlash kabi vazifalarni kiritish, huquq darsida axborot huquqi, internetda mualliflik huquqini buzganlik, yolg‘on xabar tarqatganlik, shaxsning sha’ni, qadr-qimmati, ishchanlik obro‘siga putur yetkazganlik uchun javobgarlik bo‘yicha tushunchalar berish, tarbiya fanida raqamli gigiyena va etiketni shakllantirish vazifasini yuklash mumkin. Shuningdek, tasviriy san’atga vizual mediata’lim komponentlarini kiritish, kimyo, biologiya, geografiya darslarida ham mediata’lim instrumentidan foydalangan holda dars sifatini oshirish, masalan, zarur ma’lumotlarni topish, axborot manbalariga murojaat qila olish, tabiiy jarayonlar haqida film ishlash, tarix darsida mediasavodxonlikka doir tarixiy misollar berish orqali ham integratsiyalash mumkin. O‘qituvchi

qaysi fan bo‘lishidan qat’i nazar, so‘z erkinligi prinsipiga amal qilishi, OAVga murojaat qilishi, o‘quvchi bilan teng dialogga kirishishi, mustaqil fikrlashga o‘rgatishi, mediata’lim prinsiplariga amal qilishi muhim. Mediata’lim bolalar, o‘quvchilarni, umuman, maktabni media izolyatsiyasidan chiqaradi.

2***-rasm.*** *Mediata’limni fanlarga integratsiyalash.*

Mediata’limni umumta’lim fanlariga integratsiyalash natijasida shakllanadigan transchegaraviy kompetensiyalar




Tahsil oluvchilarning mediasavodxonligini oshirishda fakultativ shakldagi to‘garaklar imkoniyatidan maksimal foydalanish zarur. O‘zbekistondagi maktablarda to‘garaklar, o‘quv-ishlab chiqarish majmualarida 51 kasb mavjud bo‘lsa, ularda ko‘proq tikuvchilik, duradgorlik kabi hunarlar o‘rgatiladi. Bu mazmun jihatidan to‘garaklar eski qoliplarda ishlayotgani, zamonaviy bilimlarni qamrab ololmayotganini ko‘rsatadi. “Jurnalistika”, “Mediata’lim”, “Kino”, “Radio”, “Televideniye”, “Kopirayting”, “Veb-dizayn”, “Ijtimoiy mediamarketing”, “Yaxshi narsalar interneti”, “Reklama agenti bo‘lmoqchiman” kabi to‘garaklar ochilishi o‘quvchi-yoshlarning mediasavodxonligini oshirish bilan birga kasbga yo‘naltirish vazifasini ham o‘tab, mediaolam uchun professional mutaxassislar yetishtirishga hissa qo‘shadi. To‘garaklarda mediasavodxonlikni shakllantirishga e’tibor berish ta’lim standartlarini talab etmasligi, dasturlarning moslashuvchanligini ta’minlash qulayligi sababli ham samaralidir.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida mediata’limni alohida mustaqil fan, tanlov fan yoki mustaqil kurs sifatida o‘qitish maqsadga muvofiq. Bunda faktcheking platformalari bilan ishlash, sun’iy intellekt bilan ishlashda mediasavodxonlikni shakllantirish vazifalari kiritiladi.

Demak, mediata’limni joriy etish shakllari quyidagicha ifodalanadi:

3-rasm. *Mediata’limni joriy etish shakllari.*



3. Mediata’limning “o‘zbek modeli”ning prinsiplari quyidagicha bo‘lishini taklif etamiz:

1. Mediata’lim oiladan boshlanadi.
2. Axborotdan himoyalanish emas, axborotga ochiq bo‘lish afzal.
3. Mediata’lim tarbiya bilan birga olib boriladi.
4. “Fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat” bilan kurashiladi.
5. Mediasavodxonlik, tanqidiy tafakkur media, OAV bilan hamkorlikda shakllantiriladi.
6. Mediata’limni milliy didaktik asoslarga tayanib o‘rgatish samarali.
7. Axboriy va raqamli ijodkorlik – asosiy natija.

“Mediasavodxonlik, tanqidiy tafakkur media, OAV bilan hamkorlikda shakllantiriladi” tamoyili izoh talab etadi. Fikrimizcha, OAV aholining mediasavodxonligini oshiruvchi vosita bo‘la oladi. “Mediasavodxonlik” atamasining to‘la mazmunini anglash uchun ilmiy adabiyotlarga ko‘ra unga aniqlik kiritib o‘tamiz.

D.Adams va M.Hamm mediasavodxonlikka shunday ta’rif beradi “...individning televideniye, reklama, film va raqamli media orqali kundalik qabul qilayotgan vizual va verbal simvollar mazmunini anglash qobiliyati... Bu olinayotgan axborotlarni shunchaki dekodlashtirishdan ko‘proq narsa: mediasavodxonlik, shuningdek, olinayotgan axborotlarni qabul qilishi, insonni o‘rab olgan medisanoatda yo‘nalishni aniq belgilash salohiyati, zarur hollarda axboriy xabar yarata olishdir”. [1]

J.A.Anderson fikricha, mediasavodxonlik “...medianing qaysi turi bo‘lishidan qat’i nazar, axborotlarni mohirona yig‘ish, talqin qilish, tekshirish va qabul qilishdir”. [2]

D.Barton va M.Xamilton ta’rifi: “...odatda fikr va matn orasidagi makonda paydo bo‘luvchi faoliyat. Bu individda mavjud ko‘nikmalarning shunchaki majmui emas, u insonning boshqa ko‘plab faoliyat turlari bilan bog‘langan, me-

diasavodxonlik mazmuniga ko‘ra ijtimoiy hodisa bo‘lib, insonlarning o‘zaro ta’sir jarayonida yuzaga keladi”.[3]

D.Sholle va S.Denski: “...mediasavodxonlik tanqidiy pedagogikada konsepsiyalashuv va siyosiy, ijtimoiy, madaniy amaliyot sifatida tushunilishi kerak [4]”.

A.Silverblatt va E.Eliceiri: “...insonning mediaxabarlar mazmuni to‘g‘risida mustaqil fikrini bildirish uchun tanqidiy fikrlash orqali ommaviy kommunikatsiya vositalaridan olingan ma’lumotni “rasshifrovkalash” qobiliyati”[5].

S.M.Sterdenkoning ta’rificha, mediamadaniyatli kishi “...ning mediaga bog‘lanishlari soni va davomiyligi rejalashtirilgan bo‘ladi. O‘ziga kerakli axborotni to‘g‘ri tanlay oladi. Axborotga tanqidiy yondashadi, chunki u medianing zararli ta’sirlarini biladi, qarshisida ochilgan mediamatnni o‘z filtridan o‘tkazib, keyin qabul qiladi. Mediamahsulotdan foydalanishda axloq me’yorlariga amal qiladi. Mediamahsulot yarata oladi” [6].

B.Duncan: “Mediasavodxonlik – o‘quvchi va talabalarga media bilan muloqotda, ularning hayotidagi media mazmunini tushunishda tanqidiy nuqtayi nazar bilan qarashga yordam beradi. Mediasavodxon o‘quvchi yoki talaba mediamatnlarga baho berishda tanqidiy va tahliliy yondashishi, ommaviy madaniyat bilan munosabatda tanqidiy masofada bo‘lishi, manipulyatsiyaga qarshilik qilishi kerak”. [7]

C.M.Worsnop: “Mediasavodxonlik — mediamatnlarni sharhlash/tahlil etish va yaratish qobiliyati”. [8]

R.Kubey: “Mediasavodxonlik — turli shakllardagi axborotlarni olish, tahlil etish, baholash va uzatish qobiliyati”. [9]

Ijtimoiy-gumanitar fanlar xalqaro ensiklopediyasi: “Mediasavodxonlik — mediasavodxon odamni zamonaviy dunyodagi kodli va reprezentatsion tizimlarda faoliyat yuritayotgan medianing ijtimoiy-madaniy, siyosiy kontekstini tushunishga, mediamatnlarni idrok etish, yaratish, tahlil etish, baho berishga tayyorlash jarayoni”. [10]

C.Firestone va P.Aufderheide: “Mediasavodxonlik — …insonlarga bosma matnlarning madaniy ahamiyati, mazmunini tushunishga, yaratishga va baholashga yordam berishga undovchi harakat. Har bir inson mediasavodxon bo‘la oladi”.[11]

Lauri Palsa: “Mediasavodxonlik – insonning jamiyatda madaniy, ijtimoiy va demokratik ishtirokini ta’minlovchi asosiy omildir. Mediasavodxonlik ko‘nikmasi himoyalanish, yaxshi ish, farovonlik beradi va milliy xavfsizlikning kafolati hisoblanadi”. [12]

Ayni kunda telekanallar va matbuotda internetning salbiy ta’siridan ogohlantiruvchi materiallar beriladi. Faktcheking jurnalistikasi shakllanmoqda. Jurnalistlar to‘g‘ri va xolis axborot tarqatish orqali axboriy muhit sofligiga xizmat qilishi mumkin. Ko‘rinib turibdiki, OAV mediasavodxonlikni oshirishga hissa qo‘shmoqda. Faqat bunda OAVning teskari targ‘ibot quroliga aylanib qolishiga yo‘l qo‘ymaslikka e’tibor qaratish lozim. Shuningdek, ta’lim muassasalari jurnalistikasiz, OAV amaliyotisiz mustaqil ravishda mediasavodxonlikni oshirishi qiyin. Shuning uchun ta’lim muassasalari mediata’limni joriy etishda OAV bilan mustahkam hamkorlik o‘rnatishi samara beradi. Bu OAV vakillari bilan uchrashuvlar o‘tkazish, matbuot haftaliklari tashkil etish, to‘garaklarga OAV xodimlarini jalb etish kabi shakllarda bo‘lishi mumkin.

Ta’lim jarayoni doirasida mediata’limni amalga oshirish dars va darsdan tashqari vaqtlarda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni nazarda tutadi. Boshqacha aytganda, mediata’lim innovatsion vosita sifatida namoyon bo‘lib, zamonaviy metodikalar va texnologiyalar asosida o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiya, audiovizual va axborot savodxonligini shakllantira oladi.

Zamonaviy adabiyot darsi nafaqat adabiyot asarlarini o‘rganishni, balki o‘quvchilarning mustaqil ijodida namoyon bo‘ladigan ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishni ham o‘z ichiga oladi. O‘rta maktab adabiyot darslarida mediata’lim texnologiyalarini joriy etish bosqichida shuni tushunish kerakki, asosiy mahsulot sifatida turli shakllarda taqdim etiladigan mediamatn bo‘ladi: gazetadagi maqola, televizion ko‘rsatuv, videoklip yoki film, audiokitob yoki o‘rganilayotgan asar bo‘yicha teatr tomoshasi [13; 9].

Adabiyot darslarida mediata’lim integratsiyasiga yangiliklar, maqolalar, reklama materiallari, blog-postlar va ijtimoiy tarmoqlar kabi mediamatnlar tahlili ham kiradi. Mediamateriallarni talqin qilish va tanqidiy fikrlash zamonaviy jamiyat sharoitida muhim ko‘nikmaga aylanib bormoqda. O‘qituvchi o‘quvchilarga mediamatnlarni adabiy asarlar bilan taqqoslashni taklif qilishi mumkin, bu o‘quvchilarga badiiy va axborot matni o‘rtasidagi farqlarni ko‘rish, shuningdek, adabiyot va medianing o‘zaro bog‘liqligini tushunishga yordam beradi. Adabiyot darslarida zamonaviy texnologiyalar va multimedia resurslaridan foydalanish ham mediata’limning integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Raqamli taqdimotlar, onlayn viktorinalar, audiokitoblar va videodarslar o‘quvchilarga matnlar bilan faol muloqot qilish va ularni turli media platformalar orqali tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, o‘quvchilar o‘z fikrlari va asarlarga taqrizlarini joylashtirish uchun shaxsiy bloglar yaratishlari mumkin. Bu nafaqat matnni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki ularni o‘z fikrlarini media formatda ifoda etishga o‘rgatadi. Shunday qilib, o‘quvchilarda mediasavodxonlik va ular iste’mol qiladigan hamda tarqatadigan axborotga ongli munosabat shakllanadi [14].

Xulosa. Mediata’limni milliy ta’lim tizimiga joriy etish shakli, bosqichlari, fanlarga integratsiyalash masalalari juda dolzarbdir. Kichik izlanish davomida mediata’limni milliy ta’lim tizimiga joriy etish shakllari, bosqichlari, mexanizmlari ishlab chiqildi, boshqa fanlarga integratsiyalash masalalari ko‘rib chiqildi. Mediata’lim milliy modelining prinsiplari taklif etildi.

Xulosa o‘rnida aytganda mediata’limni milliy ta’lim

tizimiga milliy mentalitetni inobatga olgan holda, milliy didaktik asoslarga suyanib, tarbiya bilan parallel ravishda, oila institutining bevosita ishtirokida, media bilan hamkorlikda joriy etish, ona tili va adabiyot kabi fanlarga mediata'limni integratsiyalash bolalar, o'smirlar va yoshlarning raqamli salomatligini saqlash, mamlakatda sog'lom va taraqqiyotga intiluvchan axborot muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adams D., Hamm M. (2001) Literacy in a Multimedia Age. – Norwood, MA: Christopher-Gordon Publishers. P. 33.
2. Anderson J.A. (1981) Receivership Skills: An Educational Response. In Ploghoft M., Anderson J.A. (Eds.), Education for the Television Age. Springfield, IL: Charles C. Thomas. P. 22.
3. Mackey M. (2007) Literacies across Media, 2nd ed. New York: Routledge. P. 3.
4. Sholle D., Denski S. (1995). Critical media literacy: Reading, remapping, rewriting. In P. McLaren, R. Hammer, Sholle, D., & S. S. Reilly (Eds.) Rethinking media literacy: A critical pedagogy of representation (pp. 7-31). New York: Peter Lang. P. 17.
5. Silverblatt A., Eliceiri E. (1997). Dictionary of media literacy. Westport, CT:Greenwood Press. P. 48.
6. Ma'rifat. 2012-yil, 7-noyabr.
7. Duncan, B. (Ed.) (1989). Media Literacy Resource Guide. Toronto: Ministry of Education of Ontario, Publications Branch, the Queen's Printer, 232 p.
8. Worsnop, C. M. (1999). Screening Images: Ideas for Media Education. Mississauga: Wright Communication, P. 179.
9. Kubey, R. (1997). Media Education: Portraits of an Evolving Field. In: Kubey, R. (Ed.) Media Literacy in the Information Age. New Brunswick & London: Transaction Publishers, p.2.
10. International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences, 2001, p.9494
11. Aufderheide, P., Firestone, C. (1993). Media Literacy: A Report of the National Leadership Conference on Media Literacy. Queenstown, MD: The Aspen Institute, p.1.
12. https://newreporter.org/uz/2022/06/30/media-savodxonlik-qandaj-targib-qilinadi-finlandiya-tazhribasi/
13. Пкин Д.В. Реализация медиаобразования на уроках литературы, посвященных современной русской литературе //Вестник магистратуры. 2021. № 11-3 (122) с. 9-12.
14. https://solncesvet.ru/book_work/72134/

Gulbahor RAXIMOVA,
Farg'ona viloyati Pedagogik mahorat markazi
Pedagogika va psixologiya, ta'lim
texnologiyalari kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MATBUOT VA TELEVIDENIYENING O'QUVCHILAR ONGI, DUNYOQARASHIGA TA'SIR ETISHDAGI SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya: maqolada, o'quvchilarning ongi va dunyoqarashiga ta'sir etishda matbuot hamda televideniyening o'rni va ularni ta'sir etishdagi shart-sharoitlarini o'ziga xos jihatlari tahlil etilgan. Axborotlashgan jamiyatda o'quvchilarni axborotlar bilan ishlash ko'nikmasini tarbiyalash yo'llari, foydalana olish madaniyatini tarbiyalash zarurati xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: *axborotlashgan davr, axborot almashuv, prosotsial xulq, axborot hujumlari, axborot markazi, axborotlashgan muhit, axborot ma'naviyati.*

Аннотация: в статье анализируются специфические аспекты роли прессы и телевидения в воздействии на сознание и мировоззрение читателей и условия их воздействия. В информативном обществе рассматриваются пути воспитания у учащихся навыков работы с информацией, необходимость воспитания культуры доступности.

Ключевые слова: *информационная эпоха, информационный обмен, просоциальное поведение, информационные атаки, информационный центр, информационная среда, информационная духовность.*

Annotation: the article analyzes the role of the press and television in influencing the minds and worldviews of teenage students and the specific aspects of the conditions for influencing them. In the information society, the ways of training students to work with information, the need to educate the culture of using information were discussed.

Key words: *information age, information exchange, prosocial behavior, information attacks, information center, information environment, information spirituality.*

Kirish. Ma'lumki, axborot oqimining jadallashuv jarayonini, pedagogik nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, bugungi kunda kishilik jamiyatining barcha sohalarida, insonlarning ma'naviy-axloqiy qarashlarida, ayniqsa, yoshlarning qadriyatlar tizimiga alohida ta'sir etayotgani namoyon bo'lib bormoqda. Bugun, axborot oqimining jadallashuvi jarayonidagi tub o'zgarishlar, jamiyat ruhiyatida va ta'lim tizimida, kishilar saviyasida o'z ifodasini yaqqol namoyon etyapti. Aslida, bu sohadagi o'zgarishlar boshqa sohalardagi o'zgarishlarga zamin yaratadi. Buni, ayniqsa, matbuot va televideniye misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Axborot – insoniyat taraqqiyoti uchun juda zarur. Eng muhimi ma'naviy-axloqiy jihatlariga suyanadigan hayotiy element hisoblanib, insonlarning tafakkurini oshiradi, axloqini boyitadi va ma'naviyatini yuksaltiradi hamda o'zgartirish va shakllantirishga xizmat qiladi. Jamiyat taraqqiyoti negizida, insonning axborotga nisbatan olganda, axloqiy va ma'naviy normalari turadi. Shuni yana ta'kidlash kerakki, «Axborot tevarak-atrofdagi turli xil manbalardan to'plangan omillar bo'lib, bu bilimlarni qayta bayon etish» turi ham hisoblandi [1. 180].

Axloq va ma'naviyatning mazmun mohiyatini tahlil etmay turib, uni tushunib bo'lmaydi. Xuddi shuning uchun ham anglab olingan axloq keyingi bosqichda tushunish holatiga kiradi. Inson axloqining mohiyatini tushunib yetgach, uning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi to'g'risida fikr bildiradi va ma'naviyatini boyitadi. Inson tomonidan o'zlashtirib olingan bilimlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlariga, xohish-istaklariga, bir so'z bilan aytganda, hayotiy manfaatlariga mos tushsa, ana shunda yoshlarda (insonda) o'zlashtirib olgan bilimlarni turmushga tatbiq etish istagi hosil bo'ladi. Shunday ekan, axborot vositalarining bugungi kun jamiyatida tutgan o'rnini ta'kidlash shart emas, bizningcha. Ammo ularning tafakkur doiramizning qamroviga aloqador ekani hech kimni befarq qoldirmasligi zarur.

Matbuot ham jonli muloqot, uyg'oq fikr orqali vatanga, uning ravnaqiga ongli ta'sir o'tkazadigan vositadir. Agar televideniye tomonidan modellashtiriladigan munosabatlar uslubi va muammolarini hal qilish usullari haqiqatan ham asosan, yosh tomoshabinlarda taqlidchanlikni harakatga keltirsa, unda prosotsial xulqni shakllantirish ijtimoiy ma'qullashga sazovor bo'ladi. Televideniye o'z ta'sirining nozikligi bilan yoshlarga haqiqatan ham ijobiy xulq darsini bera oladi.

Prosotsial xulq ijobiy, amaliy-ijtimoiy, foydali xulqdir. Biz televideniyening tarbiyaga ta'siri to'g'risida fikr yuritdik. Televideniyeda berilgan ko'rsatuvlarni ijobiy yoki salbiy ta'sir doirasiga ko'ra, tomoshabinga ta'sir etib bilim beradi. O'z nuqtayi nazarida fikr-mulohaza yuritib to'g'ri, sog'lom fikrlash imkoniyatiga ega bo'lish, kishilarda axborotlarni mantiqiy nuqtayi nazardan mulohaza qila oluvchiga aylantiradi. Bordi-yu, holat aksincha bo'lsa, unda uning fikrlari vayronkorlikka xizmat qilishi mumkin. Demak, tarbiya intizomi bilan fikr intizomi bir-biri bilan uzviy bog'liq holda amalga oshadi.

Televideniyening turli xorijiy kanallari orqali namoyish etiladigan jangari, urushga da'vat etuvchi behayo filmlari o'smirlar vaqtini behuda o'tkazishga yanada og'riqli tomoni ular ongini zaharlashga sababchi bo'layotgani hech kimga sir emas. Nazarimizda, yoshlarimizni xorijiy axborot hujumlaridan asrash, ularning navqiron umrini behuda sovurishdan qaytarish uchun undanda kuchliroq vosita topish zarur. Yoshlarimiz ongi, shuuriga ko'proq bilim olish g'oyasini singdirish, diniy va dunyoviy ilmlarni mukammal tarzda qiyosiy tahlil qilib, berib borish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish uchun muayyan faoliyatlarga jalb etish va band qilish zarur. Shundagina ularni nobop fikrlashdan saqlagan bo'lamiz. Yot g'oyalardan xalos etgan, agressiv holatlardan ozod etgan bo'lamiz. Fikrlash uchun muhit, shart-sharoit deganda, ham tabiiy (hayratlanish, qiziquvchanlik, ishontirish kabi) ham sun'iy yaratilgan sharoitlar (mahalla, qo'shnilar bilan munosabati va muloqoti, bog'cha tarbiyasi, maktabdagi ta'lim va tarbiya jarayoni, gazeta-jurnallar, radio, televideniye va ijtimoiy tarmoq kabilar) jamlanmasini nazarda tutamizki, unda bular o'smir yoshidagi o'quvchilarning muayyan maqsadda fikrlash imkoniyatining rivojlanishini ta'minlab beradi. Mustaqil fikrlashning tabiiy asoslari har bir insonning hayoti va ruhiyatini ajralmas qismi bo'lgan. Uni atrof-muhitni bilishini ta'minlovchi psixologik jarayonlar, deb ham tushunishimiz kerak. Bu jarayonlar qisqa holda bilish jarayonlari deb atalib, ularga bizdagi sezgilar, idrok qilishimiz, xayol va tasavvur qilishimiz, diqqat va xotira kiradi.

Yoshlarning o'y-fikrlari, dunyoqarashi, tafakkuridagi rivojlanish mexanizmlarini o'rganish hozirgi kunda muhimdir. Xususan, yoshlar ongiga ta'sir etayotgan materiallarni televideniye qanday yoritayotgani, ommaviy axborot vositalarini ulardagi mafkuraviy dunyoqarashni shakllantirishdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatlarini empirik tadqiqot materiallari bilan asoslash va tahlil qilish zarurdir.

Tadqiqotdan ko'zlangan maqsad, o'quvchilarning yurtimizdagi televideniyelarning ko'rsatuvlariga munosabati hamda ko'rsatuvlarning dunyoqarashlariga qanday ta'sir etayotganini bilish edi.

"Ommaviy axborot vositalaridan qaysi birini ma'qul ko'rasiz?", degan savolga o'quvchilarning 84,7% televideniyeni, 51,4% internetni 13,2% radioni, 2,2% matbuot deb javob berishdi. Bu javoblardan televideniyening mavqeyi ancha yuqoriligi ko'rindi. Lekin internet va undagi ijtimoiy tarmoqlar undan keyingi o'rinni egallab turibdi. Axborotni qabul qilishda televideniyening afzalligi shundaki, u audiovizual vositadir, ya'ni ovozli nutq va obrazli ko'rsatuv. Televideniye bu xususiyati bilan radio va matbuotdan ustun. So'nggi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlar ham

bu borada tenglashib bormoqda televideniyega. Televideniye kanallari bo‘yicha berilgan savollarga “Yoshlar”, “ZO‘R”, “SEVIMLI”, “MENING YURTIM” kabi kanallarning ko‘rsatuvlari boshqa kanallar tayyorlagan ko‘rsatuvlarga qaraganda yoshlarning ijtimoiy hayotlariga kirib borayotganligi aytilgan. So‘rovda ishtirok etganlarning 65%i ushbu kanallarning ko‘rsatuvlarini ma’qul ko‘rishgan.

Milliy g‘oya va milliy istiqlol mafkurasi yoshlar ongiga qanday singdirilayotganini bilish maqsadida “Siz tomosha qiladigan ko‘rsatuvlar qaysi jihatlari bilan sizning xatti-harakatlaringizga o‘z ta’sirini o‘tkazadi?” degan savolga yigitlar va qizlarning 30,3% vatanparvarlik, 30,3% mehr-oqibat, 27,4% halollik, 27,3 % maqsadga intilish, 26,6 % rahm-shafqat, 26,3% vijdonlilik, 26 % mehmondo‘stlik jihatlari bilan javob berishdi.

O‘quvchilar orasida olib borilgan so‘rovlar natijalarini tahlil qilar ekanmiz, ularning hayotlarida televideniye muhim ahamiyatga molik ekanini ko‘ramiz. Televideniye borasida yana shuni alohida ta’kidlash kerakki, qarashlarimizni, did-farosatimizni va istaklarimizni rivojlantirish bizning ehtiyojlarimizdan kelib chiqadi. Axborotlarni olish manbasi bo‘lgan teledasturlarni o‘quvchilarda ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyatni oshirish samaradorligini, shu bilan birga teledasturlarining ijtimoiy-pedagogik saviyasini yuksaltirish shart-sharoitlariga yanada katta ahamiyat berish vaqti keldi.

Yoritilayotgan teledasturlar orqali, ommaviy axborot vositalari (mahalliy televideniye va ijtimoiy tarmoqlar) da yoshlarimizga ma’naviy-madaniy, vatanparvarlik, insonparvarlik hamda millataro totuvlik tuyg‘ularini, aqliy-axloqiy qadriyatlarmizni ongi va qalbiga singdirishga jonbozlik ko‘rsatmog‘i zarur. Bugungi kunda uzatilayotgan turli axborotlarga, insonlarni yo‘ldan urishga qaratilgan g‘oyaviy-mafkuraviy tajovuzlarga qarshi o‘z vaqtida munosib javob berish, ko‘p asrlar davomida ota-bobolarimiz qalbiga singib ketgan qadriyatlarni yoshlarimiz tarbiyasiga singdirish kerakligini bugungi zamonning o‘zi talab etmoqda. Ma’naviy-axloqiy jihatdan xalqimizning milliy urf-odatlari, diniy qadriyatlariga hurmatsizlarcha bo‘layotgan urinishlarning ildizini quritish va millatimiz jasorati hamda kuchini, bilim orqali dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga qo‘shish ma’naviy intellektual salohiyatini oshirishni taqozo etmoqda[7].

Faylasuf olim Ibrohim Karimovning «Noosfera: geosiyosat va mafkura» tadqiqotidagi noosfera konsepsiyasini olib qaraydigan bo‘lsak [8. 208], unda dunyoda siyosiy sohada ham axborotlashtirish jarayonlari tufayli jiddiy o‘zgarishlar yuz bergani, chunonchi, davlat hokimiyati markazlashishi barham topib, uning o‘rniga shaxs erkinligi oshib borayotgani, bu narsa axborotlarga egalik qilish natijalari bilan bog‘liq ekani ta’kidlanadi.

«Bu hayotiy haqiqat biz hamisha amal qiladigan tamoyilga, jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog‘i hamda o‘zida yaxlit bir tizimni mujassam etmog‘i lozim. Bu tizim markazida ma’naviyat, axloq-odob, ma’rifat kabi o‘lmas qadriyatlar turmog‘i kerak», degan edi I.Karimov [3. 33].

Shunday ekan, bizning pedagog va psixologlarimiz axborot oqimi jarayonining jadallashuvi davrida yoshlarimiz ruhiyatini salbiy ma’lumotlardan saqlash uchun mahalliy televideniyelar orqali namoyish qilinayotgan dahshatli zo‘ravonliklar, qotilliklar aks etayotgan filmlarni, birgalashib cheklashlari lozim. Erix Frommning «Hozirgi jamiyatning belgilari» degan maqolasida bunday ta’sirlarni, inson ongiga ta’sir qiluvchi vositalarni yo‘qotish uchun jamiyatda maxsus madaniy-psixologik kengash yaratib, dastavval, ommaviy axborot vositalarining faoliyatini mukammal o‘rganib, xalq va kishilar ongiga ta’sir etuvchi, psixolog va pedagoglarni bu kengashga jamlab, ularning ma’suliyatini yuksaltirish lozimligini ta’kidlagan edi [4. 108].

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Davronov Z. Ilmiy ijod metodologiyasi. – T.: Iqt.-moliya, 2007.
2.G‘oziev E. Tafakkur psixologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1990.
3.Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. 11-jild. – T.: O‘zbekiston, 2008.
4.Fromm E. Imet ili вьıt. Moskva. Progress. 1990.
5.Aripdjanova A. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta’lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. Avtoref. – T., 2017. 50-b.
6.Davlatov O. G‘. Talabalarda axborot xavfsizligini ta’minlash kompetentligini tarixiy-madaniy meros vositasida rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss-ya. – Toshkent, 2018. 36-bet. (177-b.)
7.Primov B. Axborot oqimi jadallashuvining yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ta’siri. Diss. – Toshkent, 2020.
8.Karimov I. Noosfera: geosiyosat va mafkura. – T.: Fan, 2007.

Javoxirbek SAYIDOLIMOV,
FarDU adabiyotshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
sayidolimovjavoxir@gmail.com

AGIOGRAFIYA ATAMASI XUSUSIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada jahon adabiyotida keng o‘rganilgan agiografik asarlarning genezisi va tadrijiy rivojlanishi haqida so‘z yuritilgan. Bu turdagi asarlarning o‘zbek mumtoz adabiyotida shakllanishi va ularni yuzaga keltirgan omillarga ham e’tibor qaratilgan. Shu bilan bir qatorda agiografiya atamasi atrofidagi munozarali qarashlar va tadqiqot jarayonida G‘arb va Sharq adabiyotining o‘ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda atamaga berilishi taklif qilingan ta’rif ko‘rsatib o‘tilgan. E’tiqodiy qarashlarning agiografik asarlarni yuzaga kelishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: agiografiya, apokrif, qissa, payg‘ambar, avliyo, badiiy adabiyot, qissa, жития святых, agiologiya, havoriy, apostol, muqaddaslik**.**

Аннотация: в этой статье рассматривается Генезис и историческое развитие агиографических произведений, широко изучаемых в мировой литературе. Внимание также уделяется формированию произведений этого типа в узбекской классической литературе и факторам, которые их породили. В качестве альтернативы указываются противоречивые взгляды на термин агиография и определение, которое было предложено дать этому термину с учетом уникальных аспектов Западной и восточной литературы в процессе исследования. Освещается значение религиозных взглядов в создании агиографических произведений.

Ключевые слова: агиография, апокриф, повествование, пророк, святой, художественная литература, повествование, житие святителя, агиология, апостол, святость.

Annotation: this article talks about the Genesis and evolutionary development of agiographic works, which are widely studied in world literature. Attention is also paid to the formation of works of this type in Uzbek classical literature and the factors that caused them. In parallel, the controversial views surrounding the term agyography and the research process show the proposed definition to be given to the term taking into account the specific aspects of Western and Eastern literature. The importance of ecclesiastical views in the occurrence of agiographic works is covered.

Key words: agyography, apocryphal, qissa, prophet, saint, fiction, qissa, jitiya svyatikh, agiology, apostle, holiness.

Kirish. E’tiqod insoniyatning qarashlari va g‘oyalari to‘g‘riligi, orzu-umidlarining asosli ekani, shu bilan bir qatorda, xatti-harakatlarining umumiy maqsad va talablariga mos bo‘lgan chuqur ishonchidan paydo bo‘ladi. U inson hissiyotining yo‘nalishlari, irodasi sobitligi va amaliy faoliyati izchilligini ham belgilaydi, ularni boshqaradi, shaxsni sog‘lom turmush tarziga undaydi. Diniy qarashlarning mazmun-mohiyatini ommaga yetkazgan va o‘z hayoti orqali ibrat ko‘rsatgan payg‘ambarlar, ulardan so‘ng nabiylarning yo‘lida sobitqadam bo‘lgan aziz-u avliyolarning hayot yo‘li esa namuna bo‘lib xizmat qiladi. Ularning ko‘rsatgan mo‘jizalari, karomatlari, bashoratlari xalq orasida keng tarqalgan bo‘lib, e’tiqodiy qarashlarga ta’sir qilish barobarida, o‘ziga xos adabiyotning yuzaga kelishi uchun ham xizmat qildi.

Asosiy qism. Agiografik manbalarda tarixiy ma’lumotlar mufassal bayon etilgani sababli ularga aksariyat hollarda tarixiy asarlar sifatida yondashilgan. “Qur’on oyatlari zamiriga jo etilgan va qadimgi zamon xalqlarining tarixidan hikoya qiluvchi ibratomuz qissalar mazmun va mohiyat jihatidan o‘ta ahamiyatga molikdir. Ular nafaqat oddiy xalqlar hatto, qalam ahlining, xususan, shoirlarning ilhom manbayi bo‘lib xizmat qilib kelgan”[1.3]. Mazkur tarixiy voqea-hodisalar badiiylik asosida berilishi, tarixiy shaxslarning obrazli qilib tasvirlanishi kabi masalalar e’tibordan chetda qolgan. Istiqlolga erishganimizdan so‘ng adabiyotda ham birmuncha yangilanishlar ro‘y berdi, xususan, adabiyotimiz tarixida yaratilgan diniy-tasavvufiy asarlarga bo‘lgan munosabat ham o‘zgardi. Agiografik asarlarda payg‘ambarlar, avliyolar, din peshvolari, e’tiqodiy jihatdan boshqalardan ajralib turadigan shaxslarning hayotida ro‘y bergan voqea-hodisalarga bog‘liq holda diniy tushunchalarning mazmun-mohiyati yoritilgan. Mazkur atamaga turli xil ta’riflar berilgan bo‘lsa-da, ularning barchasida umumiylikni ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, N.Xatamov va B.Sarimsoqovlar “Payg‘ambarlar va avliyolarning hayoti va sarguzashtlarini tasvirlovchi hikoya va qissalar. Masalan, Rabg‘uziyning “Qisas ul-anbiyo” (“Payg‘ambarlar qissalari”), Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” (“Payg‘ambarlar va donishmandlar tarixi”) shular jumlasidandir. Bunday asarlar “Manoqib” (masalan, “Manoqibi Xoja Ahror”) yoki “Tazkira” (masalan, “Tazkirat ul-avliyo”) nomi bilan ham tuzilgan, jam etilgan”[2.21] deb ta’rif berishgan. “Islom ensiklopediyasi”da Sharq adabiyotiga xos bo‘lgan janr (manoqib, maqomot, tazkira)lar haqida gap ket-

ganda ayrim o‘rinlarda agiografiya atamasi haqida so‘z yuritilsa-da, aynan ma’lum bir ta’rif berilmagan. Bundan tashqari, matnshunoslik doirasida amalga oshirilgan bir qancha tadqiqot ishlarida ham qisman ma’lumotlar berilgan. “Agiografiya – mashhur tarixiy va diniy shaxslar hayoti haqida ma’lumot beruvchi janr bo‘lib, payg‘ambarlar, avliyolar hayoti xususida yoziladigan asarlarning umumlashma nomi. Bu so‘z yunonchadan olingan bo‘lib, “hagios – muqaddas, graphe – yozaman” degan ma’noni anglatadi. Agiografiya dastlab har qanday muqaddas yozuvni ifodalagan”[3.278]. I.Ostonakulov atamani quyidagicha izohlaydi: “Agiografiya grekcha “muqaddas” va “yozaman” so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, u muqaddas xulqli kishilar – avliyolar, ruhoniylar haqidagi tarixiy-madaniy va diniy adabiyotlar haqidagi bilimlar tizimidir”. Bu yerda avliyo va ruhoniylar deyilsa-da, dastlabki jumlaga ham e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. “Muqaddas xulqli kishilar”, eng avvalo, payg‘ambarlar hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, ayrim adabiyotlarda bunday manbalarga avliyolar haqidagi adabiyot sifatida yondashilsa-da, anbiyolarga bag‘ishlangan asarlar ham nazardan chetda qolmaydi. “Agiografiya so‘zi yunoncha “avliyo” va “yozaman” so‘zlaridan tuzilgan bo‘lib, bunday asarlarda payg‘ambarlar, avliyolar, shayx, pir va tasavvufda kamolga yetgan kishilar hayoti va faoliyati haqida hikoya qilinadi”[4.63]. Bizningcha, bunday ta’riflarning keltirilishiga yunon tilidagi “ἅγιος” so‘zi muqaddas va avliyo kabi ma’nolarni anglatishi sabab bo‘lgan. S.Ro‘zimboyev va H.Ro‘zimetov hammuallifligida nashr etilgan “Folklor atamalarining qisqacha lug‘ati”da masalaga quyidagicha izoh berilgan: “Agiologiya payg‘ambarlar, avliyolar va diniy arboblar hayotiga bag‘ishlangan qissa va dostonlarning umumiy nomi. “Bobo Ravshan”, “Ibrohim Adham” kabi dostonlar bunga misol bo‘la oladi”. Mazkur lug‘atda “agiografiya” atamasi o‘rnida “agiologiya” so‘zi qo‘llanilgan. Ikromiddin Ostonakulov mazkur ikki atamani quyidagicha izohlaydi: “Bir xil ildizga ega bo‘lgan ikki atamaning farqi shundaki, agiografiyada shaxslarning xulqiy qudsiyati o‘rganiladi, agiologiyada esa, insonning qudsiy xususiyati bilan bir qatorda, inson tomonidan muqaddas deb e’zozlanuvchi jamiyat va tabiatdagi moddiy narsa-buyumlar, shuningdek, ma’naviy-abstrakt qadriyatlar ham o‘rgatiladi. Agiologiya muqaddaslik nazariyasi haqidagi fandir”.

G‘arb olimlari tomonidan mazkur atamaga Sharq agiografiyasiga o‘xshash holda: “Agiografiya O‘rta asrlar adabiyotining asosiy janrlaridan biri sifatida cherkov tomonidan avliyo deb e’lon qilingan shaxslarning hayoti”[5.259]; “Жития святых, агиографиya – (yunon. “hagios” – avliyo, “grapho” – yozaman) xristian dinidagi taqvodor, avliyo shaxslarning ibratli hayotida tutgan yo‘l-yo‘riqlari; o‘rta asrlar adabiyotining asosiy janri” [6.108] deya turlicha ta’riflar keltirilgan. Rus mutaxassislari tomonidan, dastavval, agiografiya atamasi o‘rnida “житийная литература” jumlasi qo‘llanilgan. Ayrim manbalarda bu atamalarni ekvivalent sifatida qo‘llash hollari ham kuzatiladi.

Agiografik adabiyot mazkur soha bilan shug‘ullangan olimlar tomonidan quyidagicha tasniflangan: “Agiografik adabiyot shartli ravishda uchga bo‘linadi. Ulardan biri “Xristian agiografiyasi”, ikkinchisi “Buddaviy agiografiyasi”, uchinchisi “Musulmon agiografiyasi”dir” [5.260]. Sharq adabiyotshunosligida ham shunday qarashlar mavjud deyish mumkin. “Agiografik adabiyot, umuman olganda, jahonda keng tarqalgan bo‘lib, u asosan, diniy g‘oyalarning mazmun-mohiyatini omma orasiga yoyish, nabiylar va valiylar hayotini tasvirlash orqali xalq mehr-muhabbatini qozonishga mo‘ljallangan. Shunga binoan, dunyodagi uchta katta din – buddaviylik, nasroniylik va islomning o‘ziga xos agiografik adabiyoti tarkib topgan va rivojlangan.” [7.20]. Tadqiqot jarayonida agiografik asarlar tarixiylik, qiyosiy tahlil, xronologik kabi usullaridan foydalangan holda tahlil etildi. Manbalardan olingan ma’lumotlar tahlili mavzuga xolisona, ilmiylik va tarixiylik qoidasi asosida yondashuvni talab etadi.

Buddaviy agiografiyasi miloddan avvalgi VI-V asrlarda vujudga kelgan va mazkur din bilan bog‘liq holda rivojlangan. Muqaddas kitobi “Tripitaka”, ya’ni “Uch savat donolik” bo‘lib, unda buddaviylik dinining asoslari bayon etilgan. Bu dinning asoschisi hisoblangan Sidharta Gautama haqida yaratilgan “Maxovostu”, “Lalitavstara”, “Buddaxacharita”, “Nidanakaxta” kabi asarlar buddaviy agiografiyasining dastlabki yirik namunalari hisoblanadi. “Islomiy agiografiya Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyati hamda harbiy yurishlari haqidagi xabarlar jamlangan… arab tilida yozilgan asarlardan boshlandi. F.Rouzentalning fikricha, VII asrdayoq bunyodga kelgan islom lashkarining mamlakatlarni zabt etish tarixi va Muhammad (s.a.v.) va uning izdoshlari faoliyati bilan bog‘liq voqealarni aks ettirgan ko‘plab kitoblarda agiografik adabiyotga xos bo‘lgan elementlar mavjud” [7.20]

Musulmon agiografiyasi o‘zidan oldingi ikki agiografik adabiyot singari rivojlanish jarayonini bosib o‘tdi. Lekin buddaviy va xristian manbalariga qaraganda keng hududlarga yoyildi. Bundan tashqari, o‘zidan oldingi mazkur turdagi asarlardan ko‘ra ko‘proq janrlar va shakllarda yaratildi.

Xulosa va takliflar. Eslatib o‘tish lozimki, jahon, xususan, rus adabiyotida V.M.Jivov, fransuz adabiyotida Jasques Paul Mignelarning agiografik adabiyot borasidagi lug‘atlari anchayin mashhur hisoblanadi. Bu o‘z navbatida mazkur asarlar yuzasidan olib boriladigan tadqiqot ishlari uchun muhim manba vazifasini bajaradi. Lekin o‘zbek adabiyotida hozirgi kunga qadar agiografiyaga oid lug‘atlar yaratilmagan. Shu sababli agiografik adabiyot bo‘yicha olib boriladigan ilmiy izlanishlar vaqtida ma’lum bir atamaga turlicha ta’riflar keltirilmoqda. Keltirilgan izohlarda struktur va mazmun-mohiyatida umumiylik ko‘zga tashlansa-da, ayrim jihatlari

bilan farqlanishi ham kuzatiladi. Yuqorida mazkur atamaga jahon, rus hamda o‘zbek adabiyotida berilgan ta’riflarni umumlashtirib, quyidagicha xulosaga kelish mumkin: “Agiografiya – anbiyolar, sahobalar (havoriylar), tobeinlar, chahoriyorlar, azizlar, avliyolar, tariqat pirlari, diniy rahnamolarning hayoti va faoliyatini o‘zida namoyon etuvchi hamda badiiy jihatlari ustun bo‘lgan asarlar”. Bunday ta’rifning keltirilishi xilma-xillikning oldini olish va Sharq agiografiyasidagi asarlarni tasniflash hamda tushunishni osonlashtiradi deb hisoblaymiz. Xulosa qilib aytganda, agiografik asarlarni o‘rganish, ularda ilgari surilgan g‘oyalarni anglay olish, voqea-hodisalarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish e’tiqodiy qarashlarni mustahkamlash barobarida badiiy adabiyot imkoniyatlarini ham namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Қуръон қиссалари: Пайғамбарлар қиссалари / таржимон: Абдуқаҳҳор Шоший. – Тошкент: “CredoPrint Group”, 2023. – Б. 3.

Ҳатамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 21.

Sulaymonov Z. XIV asr o‘zbek adabiyotida yaratilgan agiografik asarlarning til xususiyatlari (“Najh ul-farodis” asari misolida). // O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari, 2022. 278-bet.

Тоғаева Г. Ўзбек матбуотида тасаввуф таълимотининг ёритилиши: муаммолари, тамойиллари ва шаклларн. Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент: 2007. – Б. 63.

Тўхтасинова Н. Агиографик йўналишдаги тадқиқотлар тўғрисида айрим мулоҳазалар. – // Ўзбекистон миллий университет хабарлари. 2020, [1/6]. – Б.259.

Литературный энсикилопедический словар. – М:. – С.108. [Абдуллаева Д. Мумтоз адабий асарлар таркибидаги “масал”лар генезиси, типологияси, функционал таҳлили. – Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2020. – Б. 222.].

Назаров Б. Ислом агиографияси тизимида мақомотнинг ўрни ва унинг бадиий-услубий хусусиятлари (Баҳоуддин Нақшбанд мақомотлари асосида). Филол. фан. док... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 20.

Alisher PARMONOV,
Qo’qon davlat pedagogika instituti o’qituvchisi
Email: parmonovalisher@bk.ru
ORCID: https://orcid.org/0009-0007-0393-8933

KINOYANING DISKURSDAGI STRATEGIYALARI VA VAZIFAVIY

Annotatsiya: ushbu maqola badiiy diskursda kinoyaning strategiyalari va vazifalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Muallif kinoya va ironiya atamalarining lingvistik va stilistik jihatlarini tahlil qilib, ularning badiiy matndagi pragmatik va semantik o‘rnini o‘rganadi. Kinoya san’atining turlari, xususan, verbal, situativ, dramatik va sokratik kinoya ko‘rinishlari tafsilotli misollar yordamida yoritilib, ushbu san’atning madaniy tasavvurlarini aks ettirishdagi o‘rni ta’kidlanadi. Maqola kinoya vositasida shakllangan murakkab semantik qatlamlarning badiiy diskursdagi ta’sirchanlik darajasini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy diskurs, kinoya, ironiya, pragmatika, semantika, lingvistik tahlil, stilistik usullar.

Annotation: this article explores the strategies and functions of irony within artistic discourse. The author examines the linguistic and stylistic aspects of irony and irony, analyzing their pragmatic and semantic roles in literary texts. Various forms of irony, including verbal, situational, dramatic, and Socratic irony, are explained through detailed examples, emphasizing their role in reflecting cultural perceptions. The article aims to assess the impact of complex semantic layers created through irony on the effectiveness of artistic discourse.

Key words: artistic discourse, irony, sarcasm, pragmatics, semantics, linguistic analysis, stylistic techniques.

Аннотация: в статье рассматриваются стратегии и функции иронии в художественном дискурсе. Автор анализирует лингвистические и стилистические аспекты иронии, исследуя их прагматическую и семантическую роль в литературном тексте. Различные виды иронии, включая вербальную, ситуационную, драматическую и сократическую, объясняются на примерах, подчеркивая их роль в отражении культурных представлений. Цель статьи – оценить, как сложные семантические слои, созданные с помощью иронии, усиливают выразительность художественного дискурса.

Ключевые слова: *художественный дискурс, ирония, сарказм, прагматика, семантика, лингвистический анализ, стилистические приемы.*

Kirish.Semantika nuqtayi nazaridan, kinoya qo‘llaniladigan semantik muhitning bir qancha turi, ko‘rinishlari va voqelanish imkoniyatlari mavjud. Quyida shulardan ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

Hozirgi o‘zbek adabiyotshunosligida “kinoya” atamasini “ironiya”ning o‘zbekcha ekvivalenti sifatida qo‘llash odati qat’iylashgan. Ko‘chim turi sifatida kinoya nisbatan kam istifoda etilsa-da, uslubiy vosita sifatida kinoya nutqiy muloqotda juda keng qo‘llaniladi. Tor ma’nodagi kinoyaning ikkala ko‘rinishi ham badiiy asar tilida namoyon bo‘ladi. Keng ma’noda kinoya tasvirlanayotgan voqelikka munosabatni anglatadi va badiiy asarning g‘oyaviy-tematik, syujet-kompozitsion jihatlarini ham qamrab oladi, o‘rni bilan asar poetik strukturasini belgilovchi omilga aylanadi. Adabiyot nazariyasiga oid ishlarda tragizm, satira, romantika, dramatizm va komizm kabi kategoriyalar voqelikka g‘oyaviy-hissiy munosabat, pafos turlari (G.N.Pospelov)[1]86, muallif hissiyotlilik tiplari (V.E.Xalizev)[2]87, badiiylik moduslari (V.I.Tyupa)[3]88 ko‘rinishida umumlashtiriladi. V.E.Xalizev va V.I.Tyupa kinoyani ana shu kategoriyalar qatorida sanaydilar.

Materiallar va metodlar. XX asrdagi estetik izlanishlar, xususan, B.Dzemidok, V.Propp, L.Boldina tadqiqotlarida komiklik turlarida obyektiv va subyektiv ibtidolar nisbati bir xil emas, degan xulosaga kelindi[4]89. B.Dzemidok ta’kidlaganidek, kinoyaviy nuqtayi nazar obyektga hech qanday ijobiy idealni qarshi qo‘ymasligi mumkin[5]90.

S.Kerkegorning fikricha, kinoya subyekti uchun “mavjud voqelik o‘z qimmatini yo‘qotadi. Uning uchun bu voqelik har jihatdan noqulay va nomukammaldir. Ammo u boshqa tomondan bu voqelikka qarshi qo‘yish uchun yangi bir namunaga ega emas. U faqat mavjud voqelik idealga muvofiq emasligini biladi, xolos”[6]91.

Kinoya (ironiya) til va madaniyatning o‘ziga xos keng qamrovli hodisasidir. Kinoya turli fanlarda turlicha yondashuvlar asosida o‘rganilib kelinmoqda. Ayrim olim va mutaxassislar kinoyani trop, ya’ni stilistik va komik effekt yaratuvchi vosita deb bilsalar, yana bir guruh olimlar modallikning alohida turi, til o‘yinining o‘ziga xos shakli, intellektual hissiyot, dunyoqarashni ifoda etishning o‘ziga xos mexanizmi ekanligini qayd etadilar.

Nutqda komiklikni yuzaga keltirib, ma’lum bir pragmatik mazmunni ifodalashga xizmat qiladigan uslubiy vositalardan biri kinoya hisoblanadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *kinoya* quyidagicha izohlanadi: *“Kinoya* [ar. - belgi; shama, ishora; piching, kesatiq] 1. Masxaralash, kulish uchun asl ma’nosidan boshqa, majoziy ma’noda aytilgan so‘z, gap; qochirim, istehzo, piching, kesatiq ifodasi...” 2. ad. Uslubiy vosita: badiiy asardagi inkor etish usullaridan biri bo‘lib, biror shaxs yoki narsa ustidan kesatiq, qochiriq vositasida yashirin kulishdan iborat[7]63. Kinoyada so‘z yoki ifoda nutqda asl ma’nosiga teskari, hatto uni rad etuvchi mazmunni ifodalaydi. Ilmiy manbalarda keltirilgan izohlar asosida shuni aytish mumkinki, *qochiriq, piching, kesatiq, mazax* ma’nolarini ifodalashda kinoyaning sinonimi yoki uning tarkibiy qismi ***ironiya*** hisoblanadi.

Badiiy asarlardagi inkor etish usullaridan biri *ironiya* (gr. *eironeia* – «bilib bilmaganga olish») bo‘lib, biror shaxs yoki narsa ustidan *kinoya, qochiriq, kesatiq, piching* kabi yashirin ma’nolarni ifodalash vositasi sifatida qo‘llaniladi. Shuning uchun ham kinoyaning muhim belgisi so‘z yoki gapning hamma vaqt ikki ma’noli bo‘lishida, haqiqiy ma’no aytilgan so‘z yoki gapning teskari ma’nosi orqali anglashilishida namoyon bo‘ladi. Kinoya o‘zining ta’sir darajasiga qarab fosh etuvchi yoki shunchaki qochiriqdan iborat bo‘lishi mumkin[8]64.

Izlanishlar va muhokamalar. Kinoya tilda so‘zlashuvchilarning barchasi intuitsiya yordamida tushunib oladigan ifoda vositasi sanaladi. U belgi yoki xususiyatni mavjudligi yoki mavjud emasligi holatiga asoslanib birini ikkinchisi o‘rnida qo‘llanish imkoniyatini yaratadi. Ya’ni belgini bu belgi mavjud bo‘lmagan kontekstda ishlatish asosida referensial situatsiyani hosil qiladi va ifoda rang-barangligini ta’minlab, ma’noni yuzaga chiqaradi. Bu o‘rinda kinoyaning quyidagi turlarini qayd etish mumkin:

verbal kinoya;
situativ kinoya;
dramatik kinoya;
sokratik kinoya.

Verbal kinoya leksik birliklarni asl ma’nosidan tashqari turli ma’nolarda qo‘llanilishidan yuzaga chiqadi. Verbal kinoya muallifning niyati o‘zi bildirayotgan fikrga zid (teskari) holatda bo‘lganda hosil bo‘ladi. Masalan, tashqaridagi chang-to‘zonli

1 [86] Поспелов Г.Н. Проблемы исторического развития литературы. – М.: Просвещение, 1972. – С.134.

2 [87] Хализев В.Э. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1999. – С. 97-99.

3 [88] *Тюпа В.И. Художественность литературного произведение. Вопросы типологии.* – Краснодар: *Изд. КГУ, 1987.* – С. 140-160.

4 [89] Дземидок Б. О комическом. Перевод с польского. – М.: Прогресс, 1974. – С.104; Пропп В.*Я.* Проблемы комизма и схема. – М.: Лабиринт, 1999. – С.108.; Болдина Л. И. Ирония как вид комического: ***Автореф. дисс. …. канд. филол. наук.*** – М., 1982. – С.16.

5 [90] Дземидок Б. О комическом. Перевод с польского. – М.: Прогресс, 1974. – С. 112.

6 [91] https://predanie.ru/book/219873-o-ponyatii-ironii/ [murojaat sanasi: 14.05.2023].

7 [63] ЎТИЛ. 5 жилдли. 2-жилд. –Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – Б. 370.

8 [64] Хатамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б.128.

ob-havoga nisbatan “What beautiful weather!” (“Qanday ajoyib ob-havo!”) deya ta’rif berilsa, asl ma’noga qarama-qarshi bildirilgan ushbu hukm orqali kinoya yuzaga chiqayotganini sezish mumkin. Chunki chang-to‘zonli ob-havoga nisbatan hech kim “Qanday ajoyib ob-havo!” deya hukm chiqarmasligi aniq. Bunda muallif o‘zi bildirayotgan fikrning asl ma’nosiga zid (teskari) fikrni nazarda tutayotganligini anglash qiyin emas. Verbal kinoyaning yana bir asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, u muallif tomonidan nutqda atayin qo‘llaniladi. Bunda muallif leksik birliklarning asl ma’nosidan to‘g‘ridan - to‘g‘ri farq qiladigan zid (teskari) ma’nosini nazarda tutishga intiladi.

“Katta rahmat sizlarga! Hech qaysi jadval to‘liq to‘ldirilmagan, qanday qilib men hozir buni boshliqqa topshiraman?”

Bu kinoya orqali o‘z ishiga nisbatan sovuqqon va mas’uliyatsiz kishilarni kuchli tanqid ostiga olinayotganligini anglash qiyin emas. Shu bilan birga, unda muallifning qo‘rquvi va umidsizlik kayfiyatini ham sezish mumkin.

Ko‘pincha istehzo va verbal kinoyaning bir-birining o‘rnida ishlatilish holatlarini uchratish mumkin. Lekin, ikkalasaining bir-biridan farqli jihatini ko‘rish mumkin. Istehzoda ko‘pincha adresantning adresatni yerga urishiga, haqorat qilishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin: “Shu ham san’at asarimi?” – dedi u zaharxandalik bilan.

Verbal kinoyada esa, aslida tilga olingan narsaning zid (teskari) ma’nosi anglashilsa, istehzoda esa, asosan, kimgadir tanbeh berish yoki hafa qilishga qaratilgan kuchli, qattiq va to‘g‘ridan - to‘g‘ri yo‘llangan hukmni ko‘rish mumkin.

Situativ kinoya bu taqdir hazili, ya’ni sodir bo‘lishini hech kim kutmagan joyda biror voqeaning sodir bo‘lishi tushuniladi. Situativ kinoyadan nimadir sodir bo‘lishini oldindan sezib turib kutilganda va natijada kutilgan voqeaga mutlaqo zid (teskari) bo‘lgan o‘zgacha holatga guvoh bo‘linganda, ya’ni kutilayotgan voqea bilan sodir bo‘ladigan voqea o‘rtasidagi nomuvofiqlikni anglanganda foydalaniladi. Masalan, biror kimsa o‘zini himoya qilish uchun biror bir qurol – aslahadan foydalansayu, ammo o‘sha qurol o‘zining boshiga (yetsa) balo bo‘lsa, bunday holatda qurol xavfsizlik vositasi emas, aksincha jarohat yetkazuvchi vositaga aylanib, situativ kinoyaga sabab bo‘layotganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Biroq situativ kinoya bilan tasodif yoki omadsizlik o‘rtasidagi farqni kuzatishimiz mumkin. Masalan, siz avtomashinangizni yaxshilab tozalasangiz-u, to‘satdan yomg’ir yog’ib qolsa, bu shunchaki omadsizlik sanaladi, ya’ni siz buni umuman xayolingizga ham keltirmagan bo‘lasiz. Yoki televideniyedagi axborot beruvchi diktor to‘satdan kutilmagan bo‘ronga tushib qolsa, bu ham juda kulguli kinoyali vaziyat yaralishiga sabab bo‘ladi, sababi u ob-havoning o‘zgarishidan o‘zi boxabar holatda bo‘la turib, aynan o‘zining shu holatga tushib qolishidir.

Situativ kinoya ko‘pincha vaziyatli komediyalarda qo‘llaniladi. Masalan, biror bir oiladagi farzandlar o‘z onalariga nisbatan naqadar mehribon ekanliklarini ko‘rsatish maqsadida unga sezdirmay, kutilmagan sovg‘a tayyorlab, ko‘p vaqti va pulini sarflagancha onalarining tug‘ilgan kunini tantanali tashkil qilsalar-u, biroq ularning hech biri onasining tug‘ilgan kuni sanasini aniq eslolmasa va onaning tug‘ilgan kuni keyingi oyda ekani ma’lum bo‘lgach, farzandlar qattiq xijolat bo‘lsa, onalari qattiq g‘azablanadi. Aynan shu vaziyatda farzandlarning soxta mehribonchiligi situativ kinoyaga sabab bo‘layotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Situativ kinoyaga ko‘plab misollarni keltirib o‘tish mumkin:

Masalan, o‘t o‘chirish stansiyasidagi yong‘in. (Soha egalarining vazifasi binolarni yong‘indan saqlash bo‘lsa-da, o‘zining binosi yonib ketgan)

Doktor da’vosi yo‘q kasallikka chalindi. (Holbuki, bu kasb egalarining o‘zlari kasallarni da’volaydi)

Qassobxona egasi vegetarian. (Bu kasb egasi o‘zi go‘sht sotadi, lekin o‘zi umuman go‘sht iste’mol qilmaydi)

Etikdo‘zning oyog‘idagi poyafzali yirtilgan edi. (Aslida uning o‘zi oyoq kiyimlarni yamaydi)

“Vafodoringman” qo‘shig‘ini kuylagan qo‘shiqchi ayol aslida uch marta turmushga chiqqan. (Qo‘shiqchining kuylagan qo‘shig‘i bilan qilgan amali to‘g‘ri kelmaydi)

Dramatik kinoya badiiy diskursda matn yaratish vazifasini bajaradi, unga ko‘ra personaj qandaydir sababga ko‘ra juda katta xatoga yo‘l qo‘yadi. Dramatik kinoya asosan badiiy filmlar, nasriy, she’riy va drama asarlarida kuzatiladi. Dramatik kinoyada tomoshabinlar yoki kitobxonlar biror bir film, asar yoki roman qahramonlari bilmagan syujetning keskin burilishidan yoki ular bilmaydigan asosiy ma’lumotlardan xabardor bo‘lishadi va bu haqiqatdan qahramonni ham tezroq xabardor bo‘lishini sabrsizlik bilan kutishadi.

Sokratik kinoya - bu inson o‘zini biror narsani bilishi yoki qilayotganini tan olishi uchun o‘zini bexabar, nodon qilib ko‘rsatishi. U o‘z shogirdlaridan ma’lumot olish uchun ushbu usuldan foydalangan yunon faylasufi Sokrat sharafiga nomlangan. Sokratik kinoyada bayon “ishonib bo‘lmaydigan shaxs” tomonidan amalga oshiriladi. Sokratik kinoya bu ironiyaning dialogik turi bo‘lib unda avtor o‘zini hech narsani bilmagan qilib ko‘rsatadi va bolalarcha soddalik bilan suhbatdoshining fikrlarini

noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatishga urinadi.

Unga ko‘ra, so‘zlovchiga biror fikrni uqtirish uchun o‘zini ko‘p narsadan bexabar, omi odam qilib ko‘rsatish va shu yo‘l bilan tinglovchi ayni haqiqat deb qabul qiladigan tushuncha, so‘z va iboralardan foydalanish nazarda tutiladi. Masalan:

What a noble illustration of the tender laws of the favoured country they let the paupers go to sleep!

(Ch. Dickens. Oliver Twist. p.24)

Bu gapda biz *“noble”* (oliyjanob) so‘zini ilova, ifoda, misol so‘zlariga nisbatan, *“tender”* (nafis) so‘zini qonunga nisbatan, *“favoured”* (sevimli) so‘zini mamlakat so‘zlariga nisbatan ishlatilganligini ko‘rishimiz mumkin. Misol yoki namunaning oliyjanob bo‘lishi mantiqqa to‘g‘ri kelmaydigan holat, lekin muallif tinglovchini shu fikrga ishontirmoqchi bo‘ladi, ammo muallifning o‘zi ham bu fikrga ishonmaydi.

Kinoyaning ta’rif, usul, yo‘llari va turlari shu bilan cheklanmaydi. Ilmiy bilimlarning turli sohalarida (falsafa, adabiy tanqid, tilshunoslik) istehzoning ko‘plab tadqiqotlariga qaramay, ushbu hodisaning umumiy qabul qilingan yagona ta’rifi mavjud emas. Falsafiy talqinda ironiya estetik kategoriya, dunyoni bilish usulidir. Aksariyat adabiyotshunoslar istehzoni hazil va satiraning asosi bo‘lgan komiks turlaridan biriga bog‘lashadi. Tilshunoslik doirasida kinoya tanqidiy, masxaraomuz mazmundagi gapning emotsional va baholovchi ma’nosi kabi talqin qilinadi. Bu istehzoning pragmatik vazifalarini yuzaga chiqaruvchi maqsadlarga o‘xshashligi bilan izohlanadi – insonning haqiqiy va ideal dunyolari o‘rtasidagi uyg‘unlikka erishish, kamchiliklarni, me’yorga nomuvofiqlikni ko‘rsatadi. Har qanday turdagi matn doirasida, xususan, badiiy matnda tarkibiy va semantik qismlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bularga tavsif, bayon va mulohaza kiradi. Bizning qiziqish doiramiz – bu bir vaqtning o‘zida va ketma-ket hodisalarda voqelikni aks ettiruvchi nutqning “tavsif” va “hikoya” turlarini aniqlash.

Ta’riflovchi matn keng ma’noda mavzu haqida ma’lumotni o‘z ichiga oladi va ushbu mavzuning xususiyatlarini tasdiqlaydi. Nutqning tavsif turi bir qancha turlar bilan ifodalanishi mumkin, jumladan tavsif-xarakteristik, tavsif-portret, tavsif-peyzaj, tavsif-interyer, predmetning tavsifi. Badiiy tavsif turli xil obrazlilik vositalarining mavjudligi, tasvirlangan voqelik obyektiga muallifning bahosini yetkazish bilan tavsiflanadi.

Ta’riflovchi matnning mantiqiy va semantik o‘zagi bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lgan obyektlarni nomlaydigan bir qator aktantlardir. Tasvirlashning barcha obyektiv aktantlari “mavjudlik” predikatlari bilan bog‘lanib, ekzistensial gaplar qatoriga tuziladi. Ta’riflovchi matnning aktant yadrosining tuzilishi obyektning xususiyatlarini ochib beruvchi aktant-holonim (“xususiylashtiruvchi” ya’ni ifoda etilayotgan belgi bu diskursda faqatgina aynan shu qahramonga xos) va aktant-partonimlar (qism, bo‘lak ma’nolarini bildiruvchi aktantlari) mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Xulosa. Kinoya o‘zining ta’sir darajasiga qarab fosh etuvchi yoki shunchaki qochiriqdan iborat bo‘lishi mumkin. *Kinoya* va *ironiya* tushunchalarining izohi deyarli o‘xshash. Faqat ularning manba tillarigina farq qiladi. Ironiya yunoncha so‘z bo‘lsa, kinoya arab tilidan kirib kelgan tushuncha sifatida ironiyaning muqobili, sinonimi sanaladi. Ironiya ham, kinoya ham qochirim, istehzo, piching, kesatiq ifodasiga ega. Bundan ma’lum bo‘ladiki, *ironiya-kinoya-qochirim* uchligi turli tillardagi bir tushuncha va hodisaning yagona ifodasi sifatida uslubiy vositaning bitta turi yoxud turjins munosabatini namoyon etadi. Yuqorida qayd etilgan barcha atamalar orasida *piching* so‘zi izohida faqat qochirim tushunchasining uchrashi bu atamaning leksik-semantik paradigmada ma’no jihatidan ancha tor ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. – Toshkent, Akademnashr, 2012. 40-b.

2.Nurmonov A. Sepir-Uorfning lingvistik nisbiylik nazariyasi haqida mulohazalar / O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. – Toshkent, 2011. – 19 b.

3.Абдуазизов А. А. Ўзбек тилининг фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент, Ўқитувчи, 1992. 136 б.

4.Belva Plain. Whispers. – Sydney, New English library Press, 1994, – 131 p.

5.De Wohle Louis. Imperial Renegade. – New-York, Popular Library, 1914 – 300 p.

6.Hailey A. Airport. – New-York, KAPO, 2009, – 636 p.

Shahlo HALIMOVA,
Alfraganus university "Sharq filologiyasi" kafedrasi o'qituvchisi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti f.f.d.,dots. M.X.Abdulxayrov taqrizi asosida
E-mail: shahlokhalimova41@gmail.com

O'ZBEK ADABIYOTIDA "NOMA" JANRI TALQINI

Annotatsiya: maqola o'zbek adabiyotida "Noma" janrining tarixiy kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari va xususiyatlarini tahlil qiladi. Maqolada xalq dostonlarida "Noma" motivining qanday ifodalanganligi, turli xil yo'nalishlarda "Noma" janrining rivojlanishi va har bir davr ijodkorlarining bu janrda qoldirgan hissasi ko'rib chiqiladi. Maqolada "Noma" atamasiga "Navoiy asarlari lug'ati"da berilgan ta'rif bilan bir qatorda, janrning zamonaviy talqini ham yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: *noma, doston, qushnoma, ramz, motiv, soqiynoma, janr, maktub.*

Аннотация: в статье анализируется историческое происхождение, этапы развития и особенности жанра «нома» в узбекской литературе. В статье рассматривается, как мотив «Нома» выражается в народном эпосе, развитие жанра «Нома» в разных направлениях, вклад художников каждой эпохи в этот жанр. Помимо определения термина «Нома», данного в «Словаре произведений Навои», в статье освещена и современная трактовка этого жанра.

Ключевые слова: нома, эпос, стихотворение, символ, мотив, сокинама, жанр, письмо.

Annotation: the article analyzes the historical origin, stages of development and features of the "Noma" genre in Uzbek literature. The article examines how the "Noma" motif is expressed in folk epics, the development of the "Noma" genre in different directions, and the contribution of artists of each era to this genre. In addition to the definition of the term "Noma" given in the "Dictionary of Navoi's Works", the article also highlights the modern interpretation of the genre.

Key words: *noma, epic, poem, symbol, motive, sokinama, genre, letter.*

Kirish (Introduction). Sharq mumtoz adabiyotida noma janrining vujudga kelishi uzoq o'tmishga va taraqqiyot davriga ega. Noma fors tilidan olingan so'z bo'lib, "xat", "maktub" degan ma'noni bildiradi. Mazkur so'z o'zbek tilining izohli lug'atida va O'zbekiston milliy ensiklopediyasi asosida jami quyidagi to'rt mazmunni anglatadi:

1) xat, maktub, farmon, rasmiy yozishma va yozilgan narsa;

2)adabiy janr; Sharq mumtoz adabiyoti, xususan, o'zbek va fors mumtoz adabiyotlarida yaratilgan, real yoki xayoliy to'qima shaxsga asosan she'riy maktub tarzida yozilgan badiiy asar turi;

3) biror tarixiy shaxs yoki asar qahramonining sarguzashtlari, safar taassurotlari, ichki kechinmalari nazm yoki nasrda bayon etilgan har qanday (badiiy, ilmiy, memuar va boshqa) asar turi. Masalan, Boburning "Boburnoma", Muqimiyning "Sayohatnoma", Shayxzodaning "Toshkentnoma" asarlari;

4)mazmunan murakkab, yirik epik asar, doston. Masalan, Firdavsiyning "Shohnoma", Nizomiyning "Iskandarnoma", Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asarlari.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Adabiy janr sifatida nomaning paydo bo'lishi XI asrda fors adabiyotiga borib taqalsa-da, professor N.Rahmonov nomaning ilk ko'rinishlari O'rta Osiyo tarixida yozuv paydo bo'lmasidan oldin buyumlar vositasida amalga oshirilganini ifodalaydi. Agar nomaga xat deb qaraydigan bo'lsak, o'zbek xalq og'zaki ijodining dostonlari tarkibida xat tushunchasini ko'plab uchratishimiz mumkin. "Alpomish" dostoni qahramoni Oybarchinning Alpomishga yozgan maktubini misol qilib olishimiz mumkin. Ishqiy-sarguzasht turidagi "Kuntug'mish" dostonida Kuntug'mish to'ra va Xolbeka oyimning tushlarida chiltanlar va mardon g'oyiblar ruhini uchrashtiradilar. Uyqudan uyg'ongan Xolbeka to'rasining hijroni ishqida nima qilishini bilmay, kanizi Bahragulga suratkash keltirishini so'raydi. Surat chizilgandan so'ng "…o'zining sochidan bir tola soch olib, to'raning uzugini o'zining suratiga qarab, *necha arzi hollarini ham arz qilib,* sandiqni qulflab…"[1;76-b.] suvga oqizib yuboradi. Ravshan" dostonida esa Avliyoyi Qoraxon Zulxumorga oshiq bo'lgan Ravshanni bandi qilib zindonga tashlaydi. Zulxumoroyim nima qilishini bilmay, lahm qazdirib Ravshan bilan ko'rishadi va ota- onasiga xat yuborishga jazm qiladi. "Hasan mardning o'g'li, Xon Dallining jon-u dili, oti bek Ravshan, Shirvon mamlakatiga kelib bandi bo'ldi. Ravshanning murabbiylari bo'lsa, kelsa, ayirib olsa" mazmunidagi xatni o'rgatilgan mayna qushining bo'yniga bog'lab, maynani Chambilga jo'natadi. [2;102-103-b.]

"Alpomish" dostonida esa Barchinoy alp Hakimbekka arzini yozib, maxsus o'n to'rt mahram yozib ma'lum qilgani, xat esa Boybo'rining qo'liga tushgani, Qaldirg'ochoyim nomani qo'lga kiritgani voqealari rivoji o'zbek adabiyotshunoslariga ma'lum. Xalq dostonlari shuni isbotlaydiki, xat, noma, maktub motivi azal - azaldan yetakchi rol ijro etgan. Nomalar ba'zan jonsiz predmetlar vositasida (sandiq, "Kuntug'mish" misolida) ba'zan jonivorlar vositasida (mayna "Ravshan" dostoni) amalga oshirilgan.

Tadqiqotmetodologiyasi(ResearchMethodology) O'zbek adabiyotida noma deganda tarmoqqa ajraluvchi yo'nalishlar mavjud. Ya'ni noma bir turdagi, bir janrdagi asarlarni anglatmaydi. Olima Shahnoza Raxmonova noma janrini ikkiga bo'lib tasniflagan:

1. Noma – she'riy maktub shaklida yozilgan asar. Bu

guruhga Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Xo‘jandiyning “Latofatnoma”, Said Ahmadning “Taashshuqnoma”, Yusuf Amiriyning “Dahnoma” kabi nomalari kiritilgan. Bu nomalarning umumiy xususiyati, oshiqning ma’shuqaga yozgan ishqiy maktublaridir.

2. Noma – masnaviy shaklida yozilgan asar. Bu guruhga “noma” so‘zi bo‘lgan, masnaviy shaklda bitilgan, aruz tizimi vaznlarida yozilgan asarlar: Qosimiyning “Haqiqatnoma” va “Ilohiynoma” hamda Miriyning “Gulnoma” si kiritilgan. Bu mezon B.Valixo‘jayevda ham shunday.

“Noma” atamasiga “Navoiy asarlari lug‘ati”da quyidagicha ta’rif berilgan: “Noma – xat, maktub, risola; Nomai iqbol – mehribonchilik xati; xursandchilik xati; Noma sabt etmak – xat yozmoq; Nomayi a’mol, amallar (tiriklikda qilingan yaxshi, yomon – gunoh, savob ishlar) deb ataladi.[3;234-b.] Y.Is’hoqovning fikricha, “noma” oshiqning ma’shuqaga yo‘llagan maktublari tarzida yozilganligi tufayli ana shunday nom bilan atalgan. [4;56-b.] Noma janri o‘zbek mumtoz adabiyotida qo‘llanilish jihatidan ham farqlanadi. Shu janr asosida boshidan oxirigacha yozilgan asarlar turkumi va ma’lum bir asar tarkibida obrazlarning bir-biriga yo‘llagan nomasi shaklida bo‘lishi mumkin. “Muhabbatnoma”, “Latofatnoma”, “Taashshuqnoma”, “Dahnoma” asarlari boshdan oyoq noma janri asosida qurilgan. Bu asarlarning barchasi o‘n nomadan tashkil topgan. Asarlar tarkibida uchraydigan nomalarda qahramonning ichki kechinmalari, orzu - intilishlari o‘z ifodasini topadi. Bunday nomalar Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlarida uchraydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ammo tilimizda shunday asarlar borki, ularning nomlari tarkibida “noma” uchraydi. Masalan, shohnoma, qushnoma, sayohatnoma, mug‘anniynoma, soqiynoma. Mazkur asarlarda xat, maktub ma’nosi, dastlabki yaratilgan nomalarning biror xususiyati aks etmagan. Adabiyotshunos O. Jo‘raboyevning aytishicha, “Mumtoz adabiyot tarixida yana bir she’r turi borki, uni mug‘anniynoma (mug‘anniy, kuychi, bastakor, xonanda) deb ataladi.” [5; 37-b.] Soqiynoma esa soqiyga murojaat bilan boshlanuvchi, masnaviy shaklida qofiyalanuvchi mumtoz adabiyot janri. “Shohnoma”, “Qushnoma”, “Sayohatnoma” asarlari tarkibida uchraydigan noma esa “xabar”, “darak”, “turkum” ma’nosini ifodalashga xizmat qiladi, desak xato bo‘lmaydi. “Shohnoma” asarlari tarixda o‘tgan buyuk shohlarning tarixi, qahramonliklari haqida darak berib, ming yillardan beri yashaydi. “Sayohatnoma” turkum asarlari esa ijodkor shoirlarning qilgan sayohatlari haqidagi o‘y-xayol, taassurotlaridan darak beradi. Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Tajalliy kabi shoirlar sayohatnoma janrining paydo bo‘lishi va rivoji orqali o‘zbek adabiyotida yangi bir tarmoqqa hissa qo‘shdilar. Adabiyotimizda “Qushnoma” turkumidagi dostonlar ham borki, ularni aytmaslikning iloji yo‘q. Mazkur mavzuga bag‘ishlangan asarlar sirasiga Ibn Sinoning “Tayr qissasi”, Abu Homid G‘azzoliyning “Risolat at-tayr”, Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr”, Alisher Navoiyning “Lison ut - tayr” asarlarini kiritamiz. Ushbu dostonlarning qahramonlari qushlar. Bu asarlarning ramziy ma’noda “qushnoma” deb atalishining ikki asosi bor. Ma’lumki, qushlar azaldan xat tashuvchilik, insonlarning vafodor do‘sti, yaxshi-yomon kunida hamrohi, yomonlikdan qutulish yo‘lini ko‘rsatuvchi obraz sifatida tasvirlanadi. Shuningdek, qushlar va hayvonlar vositasida insoniyatga yetkazilmoqchi bo‘lgan ma’lumotlar badiiy asarda ramziy-allegorik yo‘nalishni belgilaydi. Yuqorida sanab o‘tilgan asarlar ilohiyot, ruh va nafs bilan chambarchas bog‘liq. Ibn Sinoning “Tayr qissasi”, Muhammad G‘azzoliyning “Risolat at-tayr”, Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr”, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonlarini ilohiy ilmlar, botiniy ma’nolarining poetik va falsafiy tafsiri deb aytish mumkin. Ibn Sino o‘z asarida qushlar vositasida bu dunyo tuzoqlaridan qutulish mashaqqatli ekanligini ifodalaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations). Mazkur asarlarda don-dun sepilgan tuzoqlar dunyoning hoy-u havasiga, makriga o‘xshatiladi. Inson ham dunyoning makridan qochib, o‘z nafsini jilovlay olsa ilohiy komillikka yetishishi mumkin. “Tayr qissasi”da tuzoqqa tushgan qushlar bu qorong‘ulikdan ularni qutqaruvchi qudratli podshoh sari harakatlanadilar. Imom G‘azzoliyda esa qushlar g‘aybdan ovoz orqali ogohlantiriladi: “Oldingizda bosh-oxiri yo‘q sahrolar, o‘tkir, tik qoyali tog‘lar, bo‘ronli dengizlar, ayovsiz sovuq va jazirama mintaqalar bor. Maqsadga yetmasdan halok bo‘lishingiz, tanlagan yo‘lingiz ham sarob bo‘lishi mumkin”. Ammo qushlar baribir dunyoga muhabbat qo‘yadilar. G‘azzoliyning “Tayr risolasi” tugal asar va mavzusi ham dunyo hayotining tuzoqlaridan qutulib, erkin parvoz qilib yashash uchun intilish emas, balki sevib ardoqlashga, ilohiy muhabbatga munosib adolatli podshoh izlashdir. Ramziy-allegorik qissa va hikoyatlarning tub ildizi Qur’onga borib taqaladi. Qushlar Alloh taolo tomonidan nazar qilingan, tasbeh aytishga buyurilib, bo‘yinsundirilgan jonzotlardir.(“Ey Muhammad) Allohga osmonlar va Yerdagi barcha jonzot, saf tortgan qushlar ham tasbeh aytishni ko‘rmadingizmi?”) [6; 233-b] Shu sababli ham “Qushnoma” turkumidagi asarlarda bosh obraz qush qilib tanlangani bejiz emas. Adabiyotshunos Z.Mamadaliyeva o‘zining “Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonidagi ramziy obrazlar tizimi” nomli tadqiqotida Hudhudning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatadi. Hudhud komil inson ramzi sifatida talqin qilingan. “Mantiq ut-tayr”da qushlar Semurg‘ning soyasi, qushlar, ya’ni insonlarning bu dunyodagi hayoti hijron va ayriliqda. Navoiy esa inson bu dunyoda ayriliqda emas, balki Allohning hikmatidadir deb ta’kidlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, noma janri umumiy ma’noda xat, xabar, darak ma’nosida ishlatiladi. Shu ma’no ostida butun boshli asarlar ham yaratilishi yoki qisman darak berishi mumkin. “Qushnoma” nomi ostida birlashgan asarlar esa majozan qushlar vositasida insoniyatning Alloh vasliga yetishishdagi tasavvufiy to‘g‘ri yo‘lni topishi, vahdat ul- vujudga, komillikka erishish yo‘lining darakchisi sifatida talqin qilish mumkin. Qushlar xalq og‘zaki ijodida ham ezgulik darakchisi, tasavvuf adabiyotida esa Allohga tasbeh aytuvchi ilohiy

obrazlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Kuntug‘mish: O‘zbek xalq ijodi//aytuvchi: Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, yozib oluvchi: Hodi Zarif. – T.: G‘afur G‘ulom, 1975. 264 –bet.

2.Ravshan: O‘zbek xalq ijodi// aytuvchi: Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, yozib oluvchi: Hodi Zarif. – T.: G‘afur G‘ulom, 1975.172-bet.

3.Навоий асарлари луғати (тузувчилар:П.Шамсиев, С.Иброҳимов) – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти,1972.782-б.

4.Is’hoqov Y. “So‘z san’ati so‘zligi. – T.:O‘zbekiston, 2014. 138- bet.

5.Jo‘raboyev O. “Mumtoz adabiyotda mug‘anniynoma”. – T., 2016.106-bet.

6.Qur’oni karim ma’nolar tarjimasi. Tarjimon:Abdulaziz Mansur. – Toshkent. 2021. 618- bet.

Doniyor TOJIBOYEV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti erkin tadqiqotchisi

HOJI MUINNING “O‘RTA TURK TILI”NI YARATISH G‘OYASIGA MUNOSABATI

Annotatsiya: maqolada ma’rifatparvar jadid adibi Hoji Muinning XX asrning 20-yillarida ilgari surilgan “o‘rta turk tili”ni yaratish g‘oyasiga munosabati, davr adabiy tilining leksik, grammatik me’yorlarini belgilash borasidagi lingvistik qarashlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *chig‘atoy lahjasi, usmonli tili, avom tili, jonli xalq tili, funksional uslub, lisoniy norma, terminologik tizim, panturkizm, “chig‘atoy gurungi”.*

Аннотация: в статье рассматривается отношение просвещенного современного писателя Хаджи Муина к идее создания “среднетурецкого языка” выдвинутой в 20-е годы XX века, и его лингвистические взгляды на определение лексических и грамматических значений литературного языка.

Ключевые слова: *чигатайский диалект, Османский язык, общий язык, живой разговорный язык, функциональный стиль, языковая норма, терминологическая система, пантюркизм, “чигатой гурунги”.*

Annotation: the article examines the attitude of the enlightened modern writer Haji Muin to the idea of creating a “middle Turkish language” put forward in the 20s of the 20th century, and his lexical and grammatical norms of the literary language of the period.

Key words: *chigatai dialect, Ottoman language, common language, a living vernacular, functional style, linguistic norm, terminological system, Pan-Turkism.*

O‘zbek publitsistikasi tarixida XX asrning 20-yillar matbuoti mavzular ko‘lamining kengligi, rang-barangligi bilan ajralib turadi. Mazkur davr milliy matbuotimizda jadidlar tomonidan ma’rifatparvarlik, uning asosida ozodlik uchun kurash g‘oyalari yetakchilik qilishi bilan birga, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muammolar, milliy-madaniy merosga munosabat masalalari ham kun tartibiga qo‘yib borilgan. Ana shunday millat va milliyat taqdiri bilan bog‘liq masalalardan biri – til masalasi edi. Davr ziyolilarining oldingi safida qadam tashlagan jadid adiblarining deyarli barchasi bu masalada o‘z fikrlari bilan matbuotda chiqishlar qilishgan. Bular orasida ma’rifatparvar adib Hoji Muin Shukrullo o‘g‘lining publitsistik maqolalarida ham o‘zi yashab ijod etgan davrdagi sotsiolingvistik jarayon, milliy adabiy tilga munosabat masalalarida ayrim fikrlar uchraydiki, ularni ilmiy o‘rganish davrning milliy adabiy tili holati haqida muayyan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Ma’lumki, turkiy xalqlar XX asr boshlarida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy sohada yaqinlashish imkoniyatini izladilar. Ular madaniy-ma’rifiy sohada yaqinlashishning birinchi yo‘li sifatida “umumturkiy til va adabiyot”ni yaratish g‘oyasini ilgari surdilar. Davr ziyolilari tomonidan bu bo‘yicha bir qator nazariy fikrlar o‘rtaga tashlanib, bir necha amaliy harakatlar ham qilindi. Turkiston jadidlari orasida bu harakatning faol namunasini Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, G‘ozi Olim, Vadud Mahmud, Abdurauf Fitrat ijodi misolida kuzatish mumkin bo‘ladi. Ularning bu yo‘nalishdagi faoliyati hozirgacha bir qator tadqiqotlarda qayd etilgan. Jumladan, “Chig‘atoy gurungi” tashkilotining rahbari sifatida A.Fitratning panturkizm ta’sirida dastlab turkiy til va adabiyotni birlashtirish g‘oyasini yoqlab chiqqanligi va o‘z o‘rnida bu g‘oyani tashviq qilganligi, mazkur g‘oyaning mohiyat va mazmuni hamda oqibatini tushunib yetgach, bu yo‘ldan qaytganligi tilshunos Y.Sayidovning tadqiqotida atroflicha o‘rganilgan. Y.Sayidov Fitratning panturkizm g‘oyalaridan chekinganligini, keyinchalik unga qarshi chiqishining sabab va omillarini quyidagicha tavsiflaydi: a) maktablarda aslida ona tili darslari o‘rnida umumturkiy adabiyot va umumturkiy til darslarini o‘tish o‘rniga usmonli adabiyot va usmonli til darslarining o‘tilishi; b) o‘zbek tili nazariy qoidalarining usmonli turk tilining nazariyasiga zo‘rlab moslashtirilishi; v) o‘rta

asrlardagi yagona turkiy til shevalarining XX asrga kelib alohida adabiy til holatida rivojlanish jarayoniga to‘sqinlik qilinishi [1.B.30-31]. Tadqiqotchi kuzatishlari asosida Abdurauf Fitrat umumturk tilini yaratish muayyan bir turkiy til hisobidan bo‘lmasligi, bu vazifani o‘sha davrda turkiy tillar orasida katta mavqega ega bo‘lgan o‘zbek, usmonli turk, tatar tillari lug‘at tarkibidan arabcha, forscha, ruscha so‘zlarni chiqarib tashlash orqali amalga oshirish mumkinligi tarafdori bo‘lganligini atroflicha izohlaydi.

Hoji Muin “Zarafshon” gazetasining 1924-yil 7-fevraldagi sonida ushbu masalaga bag‘ishlangan “Vaqtsiz mubohasa” (til birlashtirish to‘g‘risida) nomli maqolasini e’lon qiladi. Maqola quyidagi so‘zlar bilan boshlanadi: “Bir-ikki oydan beri “Zarafshon” gazetasida til birlashtirish to‘g‘risida mubohasa bo‘lib turadur. Ba’zi o‘rtoqlar barcha turklar uchun umumiy adabiy tilning tarafdori bo‘lsalar-da, o‘zlari bu haqda tublik bir chora va yo‘l ko‘rsata olmaydur. Boshqa o‘rtoqlar esa ko‘b shevalarga bo‘linib ketgan turk tilini birlashtirish mumkin emasligini isbot etmakchi bo‘lib, bir oz dalillar ham keltiradurlar. Menimcha, bu masala qancha muhim bo‘lsa, o‘shancha qiyindir. Quruq tilak yoki bir necha maqola bilan bu og‘ir va mushkul masalani hal etib bo‘lmaydur” [4.B.133]. Demak, “o‘rta turk tili”ni yaratish masalasi mazkur davrda Turkiston o‘lkasidagi asosiy masala sifatida kun tartibida turgan, bunday sotsiolingvistik jarayonda turli tortishuv va munozaralar bo‘lgan. Muallif ta’kidlaganidek, ba’zi ziyolilar bu fikrni qo‘llab-quvvatlashgan bo‘lsa, ba’zilari o‘z qarashlari bilan bu g‘oyaga monelik ko‘rsatishgan. Bunda masalaning asosiy murakkab tomoni “o‘rta turk tili”ni yaratishga asos bo‘luvchi tilni tanlash va shu asosda uning grammatik qonun-qoidalarini ishlab chiqish edi.

Maqolada muallif mazkur masalaga o‘z munosabatini bildirishdan oldin Ismoilbek Gaspirali, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Zaki Validiy kabi jadidlarning bu yo‘ldagi nazariy qarashlari va amaliy harakatlariga baho beradi: “Marhum Ismoilbek o‘zining “Tarjumon” gazetasi bilan til birlashtirish to‘g‘risida 25 yil fikr tarqatdi. Lekin tajriba natijasida bu ishning mumkin bo‘lmasliq darajada qiyinlig‘i ko‘runa boshladi. Totoristondagi ba’zi “tavhidi lison”chilar o‘zlari ma’qul ko‘rgan o‘rta turkcha shevasini quyub sodda totorcha yozishg‘a majbur bo‘ldilar. To‘g‘risi, ularni muhitning o‘zi xalq tiliga yozishg‘a majbur etdi” [4.B.134]. E’tibor berilsa, XX asr boshlarida turk shoiri Ziyo Ko‘k Alp tomonidan asos solingan va tatar ziyolisi Ismoilbek Gaspirali tomonidan rivojlantirilgan turkiy tillarni va turk adabiyotini birlashtirish, ya’ni “panturkizm” g‘oyasining amalga oshmaganligiga Hoji Muin tomonidan aniq tavsif berilmoqda.

Muallif fikrida davom etib shunday yozadi: “Behbudiy afandi umrining oxirig‘acha shu fikridan qaytmagandek ko‘rungan bo‘lsa ham, lekin o‘zi bora-bora soddaroq o‘zbekcha yoza boshladi... Zaki Validiy To‘g‘on esa “Bizning yo‘l” jurnalidagi maqolasida hozirgi kunda turk-totor xalqlaridek madaniyatda yayov bo‘lg‘on xalqlarning oldida tillarni birlashtirishdan ko‘ra tilni xalqqa yaqinlashtirish, uni keng o‘lchovda maorif quroli etish muhim ekanligi ta’kidlaydur” [4.B.135]. Kuzatganimizdek, muallif bu masalaga munosabat bildirishdan oldin yigirma besh yil davomidagi bu harakat natijasiga to‘xtalib, masalaning murakkab tomonlariga e’tibor qaratmoqda. Ya’ni har qanday adabiy til avvalo jonli xalq tili asosiga qurilishi lozimligini, umumturkiy til uchun asos bo‘luvchi til masalasini yechish mushkul ekanligini, g‘oya tarafdorlarining o‘zi ham bunday nazariy qarashlarini amalda isbotlay olmaganliklarini ta’kidlamoqda.

Darhaqiqat, o‘sha davrda ona tilining sofligi uchun kurashish, uni keng ommaga tushunarsiz arab va fors tili so‘zlaridan, rus tili va u orqali yevropa tillaridan kirib kelayotgan leksemalardan tozalash harakati ham mavjud edi. Iste’moldan chiqarilgan so‘zlar o‘rni ona tili yoki genetik jihatdan turkiy bo‘lgan so‘zlar bilan to‘ldirilishi lozim edi. Ba’zi hollarda mana shunday so‘zlar o‘zbek tili uchun qardosh turkiy tillar leksikasidan ham axtarildi. Aslida mana shunday harakatlar natijasi o‘laroq Behbudiy, Avloniy, Fitrat va boshqa jadidlar umumturkiy til yaratish g‘oyasi ta’siriga tushgan edilar. Shu sababli ham XX asr boshlaridagi o‘zbek matbuoti va badiiy adabiyoti tilida umumlashtirilgan holda “g‘arbiy turk tili unsurlari” deb nomlangan lisoniy hodisalar paydo bo‘lgandi.

Hoji Muin o‘zining lisoniy qarashlarida bu masalaga munosabat bildirishda ehtiyotkorlik yo‘lini tutganligi seziladi: “Men bu so‘zlar bilan til birlashtirishga qarshi ekanligimni bildirmakchi emasman. Men shu ishning vujudg‘a chiqishini istayman. Lekin bo‘lishi g‘oyat ko‘b sharoitg‘a bog‘liq bo‘lg‘on bunday bir ishning orqasidan ovora bo‘lib yurishni hozircha vaqtsiz deb bilaman. Menga qolsa til birlashtirishdan ko‘ra hozirda o‘z tilimiz bo‘lg‘on o‘zbekchani xalqimizg‘a qulayroq tushuntira olurliq darajada soddalashtirish lozimdir. O‘zbekcha sarf-nahv va nazariyoti adabiyalar tuzish, tugal lug‘at kitoblari yozib, bosdirish zarur” [4.B.134]. Albatta, bu fikrlaridan boshqa jadidlar qatorida Hoji Muinning lisoniy qarashlarida ham “o‘rta turk tili”ni yaratish g‘oyasiga qo‘shilmaslik sezilmaydi. Biroq yondashuv sal boshqacharoq, ya’ni uning fikrida umumturkiy til yaratishdan ko‘ra jonli xalq tili asosidagi davr adabiy tilini yaratish, uning grammatik qonun-qoidalarini ishlab chiqish, adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirish ishlari ustida ishlash muhimroq ekanligi seziladi.

Hoji Muin bunday lisoniy jarayonga berilayotgan munosabati, fikrini yanada oydinlashtirish maqsadida jahon, Yevropa tillaridagi bunday holatlarni izohlab, o‘z qarashlari asosli ekanligini mustahkamlaydi: “Xalqlarning yengil anglashishlari, madaniyatda keng olish-berish qilishda, albatta, tillarning yaqinligi muhim omil bo‘lur. Lekin buning uchun tillarning butunlay birlashishlari lozim emas. Yaqinliqlari kifoya etadur. Hozirgi Ovrupo (masalan, germon, rumon ham slavyan) tillarining birini bilgach, ikkinchisini bilish juda yengildir. Xalq o‘qumishlik ham madaniyatlik bo‘lsa, unga maxsus adabiy til vujudga keltirish shart emas. 5-6 miliyunlik

gollandiyolilar tillarining nemischaga juda yaqin bo‘lishig‘a qaramasdan, uni o‘zlariga maxsus adabiy tili holida saqlab keladilar. O‘shandoq lotish, gruzin, arman kabi xalqlarning ham o‘zlariga maxsus, boyg‘ina adabiy tillari bor” [4.B.135].

Umuman olganda, Hoji Muin adabiy til me’yorlarini yaxshi tushungan, o‘sha davr ziyolisi sifatida umumturkiy til yaratish borasidagi lisoniy qarashlarga o‘z munosabatini aniq va asosli izohlashga harakat qilgan. Yuqoridagi maqolada bildirgan fikrlari asosida adibning bu masaladagi qarashlarini nazariy jihatdan quyidagicha umumlashtirish mumkin: 1) Hoji Muin boshqa jadid ma’rifatparvarlari qatori umumturk tilini yaratish tarafdori bo‘lgan, biroq keyinchalik buni amalga oshirish mumkin emasligini anglab, bu g‘oyani qo‘llab-quvvatlamagan; 2) uning fikricha, o‘sha davrda 70 miliondan ortiq turkiy xalqlar uchun yagona, mushtarak adabiy tilni yaratish amalda mumkin emas. Chunki bu tilga aynan bir turkiy tilni asos qilib olish imkonsiz; 3) o‘zi ta’kidlaganidek, bunday yaratiladigan sun’iy adabiy til jonli xalq tilidan uzilgan bo‘ladi. Uni faqatgina jamiyatning ziyoli qatlami tushunishi mumkin bo‘ladi, oddiy xalq uchun bu til tushunarsiz bo‘ladi; 4) davr adabiy tilidan arabcha, forscha, ruscha baynalmilal so‘zlarni iste’moldan chiqarish lozim. Ular o‘rnini xalq shevalari, qolaversa, genetik jihatdan turkiy bo‘lgan so‘zlar bilan to‘ldirish. Shu asosda turkiy xalqlar milliy tillarini bir-biriga yaqinlashtirish; 5) adib qarashlarida umumturkiy adabiy til yaratishdan ko‘ra, o‘zbek tilini davr adabiy tili darajasiga ko‘tarish, uning fonetik, leksik, grammatik qoidalarini qayta yaratish ma’qulligi ustuvorlik qiladi. Demak, u umumturkiy adabiy tilni yaratish emas, turkiy xalqlar tillarini bir-biriga yaqinlashtirish tarafdori bo‘lgan. Xulosa qilib aytsak, adib o‘z davrining yetuk tilshunosi sifatida “o‘rta turk tili”ni yaratish borasidagi lisoniy qarashlarini asosli ifoda etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сайидов Ё. Фитрат бадиий асарлари лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2001.30-31-b.
2. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Тошкент: Маънавият, 2002. Б. 316-324.
3. Намозова Н. Ҳожи Муиннинг публицистик ва муҳаррирлик фаолияти: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. 26-б.
4. Ҳожи Муин. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2010. Б. 256.

Maftuna MAMARASULOVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAUning 1-kurs doktoranti
maftunamamarasulova@7gmail.com



O‘ZBEK TILIDA UNLI TOVUSHLAR FONOSEMANTIKASI

Annotatsiya: ushbu maqolada fonosemantik nazariyalarga va bir necha eksperimentlarga tayangan holda o‘zbek tilidagi unli tovushlarning shakl va hajm ma’nosiga ta’siri masalasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *tovush ramziyligi, mil/mal effekti, maluma/takete effekti, old qator unlilar, orqa qator unlilar.*

Аннотация: в данной статье на основе фоносемантических теорий и ряда экспериментов освещается вопрос влияния гласных звуков на значение формы и громкости в узбекском языке.

Ключевые слова: *звуковая символика, эффект мил/мал, эффект малума/такете, гласные первого ряда, гласные заднего ряда.*

Annotation: in this article, relying on phonosemantic theories and several experiments, the issue of the effect of vowel sounds on the meaning of form and volume in the Uzbek language is covered.

Key words: *sound symbolism, mil/mal effect, maluma/takete effect, front row vowels, back row vowels.*

Ma’lumki, fonosemantika sohasining muhim yo‘nalishlaridan biri nutq tovushlarining ramziyligi hisoblanadi. Tovush ramziyligi yoki tovush simvolizmi atamalari ostida birlashuvchi fonosemantik hodisa ayrim fonemalar va semantik elementlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglatadi. Ya’ni nutq tovushlari leksemalarni tashkil etuvchi qism bo‘lishi bilan bir qatorda leksemalarning ma’nosini tashkil etuvchi ramziy birlik ham hisoblandi. Xususan, ayrim nutq tovushlari ma’lum o‘lcham, shakl-hajm bilan ramziy aloqadorlik hosil qila oladi. Tovushlarning ma’lum ramziy ma’noga ega ekanligi qadimgi yunon faylasufi Platonning qarashlariga borib taqaladi. Qadimgi yunon faylasufi Platonning fikricha, biz obyektlar nomini erkin tanlashimiz mumkin, ammo nomlash jarayoni tushunchaga xos va nutq tovushlariga xos xususiyatlar aloqadorligida yuzaga keladi. Ya’ni narsa va hodisalarda *tez, yupqa, katta, yumaloq* va hokazo sifatlar mavjud bo‘lgani holda nutq tovushlari ham *tezlik, ingichkalik, kattalik, yumaloqlik* kabi ko‘plab xususiyatlarga ega

bo‘ladi. Shunday qilib, “*tezlik, jadallik* xususiyatiga ega bo‘lgan tovushlardan iborat nomlar tezlik bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalarni nomlaydi, “nozik” tovushli nomlar “nozik” narsalarga mos keladi; “ulkan” obyektlarning nomlari esa “katta” tovushlardan tarkib topadi”. [1: 7].

Ayrim nutq tovushlarining ma’lum shakl-hajm bilan semantik jihatdan bog‘liqligi amirekalik olim E.Sapirning “Fonetik simvolizm bo‘yicha tadqiqot”ida ilk marotaba ilmiy asosda ochib berilgan. Ushbu tadqiqot uchun o‘tkazilgan eksperiment *mal/mil effekti* nomi bilan mashhur bo‘lgan. Ushbu eksperiment quyidagi tartibda o‘tkazilgan. E.Sapir turli yoshdagi 500 kishiga hech qanday mazmunga ega bo‘lmagan *mal /mil* stimul so‘zlarini taqdim etadi va noma’lum bir tilda ushbu ikki so‘zdan biri katta hajmdagi stol, ikkinchisi kichik hajmli stol degan ma’noni anglatishi aytiladi, eksperiment ishtirokchilari ichki intuitsiyasiga tayangan holda *mal/mil* ni katta va kichik stol bilan moslashtirish kerak edi. Natijaga ko‘ra, kattalarning 96 %i, bolalarning esa 86%i *mal* – katta stol, *mil* – kichik stol deya moslashtirishgan. [2:228] Ushbu eksperiment boshqa olimlar tomonidan turli shakllarda bir necha marta o‘tkazilgan. [3: 133] Natijada, old unlilar kichik narsalar bilan, orqa unlilar esa katta jismlar bilan bog‘liqlik hosil qiladi, degan xulosa yuzaga keldi. Fonosemantika sohasida tadqiqotlar olib borgan tilshunos olim J.Ohala o‘zining “Tovush ramziyligi” (“Sound symbolism”) maqolasida yopiq unlilar tabiatan kichik degan ma’noni anglatishini ingliz tilidagi ***tiny*** – *mayda,* ***mini*** – *eng kam*, ***little*** –*kichik* fransuz tilidagi ***petit*** – *kichik,* nemis tilidagi ***kleine*** – *kichik* hamda yapon tilidagi ***chiisai*** – *kichik* so‘zlari misolida dalillaydi. Ochiq unlilar esa *“katta”* ma’nosini anglatishini esa ingliz tilidagi ***large***, nemis tilidagi ***gross***, fransuz tilidagi ***grand*** va yapon tilidagi ***ookii*** so‘zlarini keltirib o‘tadi. [3:330] 1929-yilda yana bir mashhur tajriba o‘tkazilgan bo‘lib, *maluma /takete effekti* nomi bilan ataladi. [7:203] Ushbu eksperiment ma’lum fonemalarning yumaloq shakllar bilan, ayrim fonemalarning esa keskin, qirrali shakllar bilan bog‘lanish hosil qilishini ko‘rsatadi.



1-rasm

Eksperiment ishtirokchilaridan yuqoridagi shakllar (1-rasm) ni *maluma/takete* so‘zlari bilan moslashtirish so‘ralganda ko‘pchilik respondentlar *takete* so‘zini qirrali shakl bilan, *maluma* so‘zini esa yumaloqsifat shakl bilan moslashtirishadi. 2001-yil ushbu eksperiment biroz o‘zgarish olgan holda *bouba/ kiki* so‘z stimullari yordamida o‘tkaziladi. [8:150] Respondentlar *kiki* so‘zini qirrali shakl bilan, *bouba* so‘zini esa yumaloqsifat shakl bilan moslashtirishgan. Natijada, jarangsiz undoshlar va old unlilar o‘tkir, qirrali shakllar bilan bog‘liqlik hosil qilsa, sonorlar, jarangli undosh b hamda orqa unlilar yumaloq shakllar bilan aloqadorlik hosil qiladi degan xulosa yuzaga keldi.

Yuqoridagi nazariyalarga hamda eksperiment natijalariga tayangan holda o‘zbek tilidagi unli tovushlarning shakl-hajm bilan munosabatini fonosemantik jihatdan tahlil qilishga harakat qildik. Yuqoridagi nazariyalarni umumlashtiradigan bo‘lsak, old qator tor unlilar, ya’ni (*u,i*) *kichik, tor, ingichka, uchli, qirrali* kabi belgilarni ifodalasa, orqa qator keng unlilar (*o,a*) esa *keng, katta, yumaloq, semiz,* kabi xususiyatga egalik belgisini namoyon qiladi. Ushbu gipotezani isbotlash uchun o‘zbek tilidagi *kattalik, kenglik, yumaloqlik* hamda *kichiklik, torlik, ingichkalik* belgisiga ega bo‘lgan so‘zlarni va ushbu so‘zlar tarkibidagi unli tovushlarni tahlilga tortdik.

Orqa qator, keng unlilar faol qatnashgan so‘zlar	**So‘zlarning izohi**	**Tarkibidagi unlilar**	**Old qator, tor unlilar faol qatnashgan so‘zlar**	**So‘zlarning izohi**	**Tarkibidagi unlilar**
Katta	Hajmi, o‘lchami me’yordan ortiq yoki nisbatan ortiq	(a,a) Ikki keng unli	**Kichik**	Tuzilishi, hajm, o‘lcham jihatdan nisbatan katta bo‘lmagan, tor	(i,i)ikki tor unli
Aka	Bir onadan tug‘ilgan katta o‘g‘il (o‘zidan kichiklariga, ukalariga nisbatan)	(a,a) Ikki keng unli	**Uka**	Bir ota-ona o‘g‘illaridan kichigi, kichiklari (katta yoshdagi farzandlarga nisbatan	(u) bir tor unli va (a) bir keng unli
Og‘a	Eng katta aka	(o,a) ikki keng unli	**Ini**	Uka (eski turkiy tildagi faol shakli)	(i,i)ikki tor unli

Opa	Bir ota-onadan tug‘ilgan farzandlar ichida o‘zidan kichiklarga nisbatan katta qiz; o‘zidan katta, ba’zan kichik ayollarga hurmat bilan murojaat qilish Qiz farzand keyin tug‘ilgan farzandlarga nisbatan,	(o,a) ikki keng unli	**Singil**	1.Bir ota-onadan tug‘ilgan qizlarning kichigi (opalari va akalariga nisbatan) 2.O‘zidan kichik qizlarga, ayollarga murojaat qilganda qo‘llanadigan so‘z	(i,i)ikki tor unli
Baqaloq	Semizligidan eni bo‘yiga tenglashib qolgan, me’yordan ortiq semiz	(a,a,o) uchta keng unli	**Xipcha**	ingichka, nozikkina, kelishgan	(i) bir tor unli va (a) bir keng unli
Boshmaldoq	Panjadagi birinchi yo‘g‘on barmoq	(a,a,o) uchta keng unli	**Jimjiloq**	Qo‘l yoki oyoqning beshinchi, eng kichik barmog‘i	(i,i) ikki tor unli va (o) bir keng unli
Tog‘	Yer sathining tepalikka nisbatan ancha baland ko‘tarilgan qismi	(o) keng unli	**Qir**	Yassi tog‘, baland tekislik	(i) bir tor unli
Babaq	Jussasi katta, durkun(t-ovuq, xo‘roz haqida)	(a,a) ikki keng unli	**Zig‘irdek**	1. Juda oz, oz-gina, jindek 2. Juda kich-kina, zig‘ir urug‘icha	(i,i) ikki tor unli va (e) bir o‘rta keng unli
Bo‘rdoqi	So‘yish uchun boqib semirtirilgan, semiz	(o‘) bir o‘rta keng, (o) bir keng va (i) bir tor unli	**chizimcha**	Ingichka, pishiq chilvir	(i,i) ikki tor unli va (a) bir keng unli
Og‘ir	Vazni katta bo‘lgan, tosh bosadigan, vaznli	(o) bir keng va (i) bir tor unli	**chiviq**	Ingichka, egiluvchi novda	(i,i) ikki tor unli
Bosqon	Temirchilarning katta og‘ir bolg‘asi	(o,o) ikki keng unli	**xipchin**	Uzun ho‘l novda, xivich	(i,i) ikki tor unli
Yo‘g‘on	Ko‘ndalang kesimi odatdagidan katta, sem-iz	(o‘) o‘rta keng unli va (o) keng unli	**ingichka**	Ko‘ndalang kesimi juda kichik	(i,i) ikki tor unli va (a) bir keng unli
Yalpoq	Eniga va bo‘yiga keng, yapaloq	(a,o) ikki keng unli	**teshik**	Teshish natijasida hosil bo‘lgan joy	(e)bir keng va (i) bir tor unli
Dumaloq	Shar shaklidagi, yum-aloq	(a,o) ikki keng unli va (u) bir tor unli	**Qisiq**	1.Qisilgan, siqilgan; 2.Kichik, tor, yumil-gan	(i,i) ikki tor unli

Non	Xamirdan tayyorlanib, tandir, o‘choq, tova shu kabilarda pishiriladigan yegulik (odatda yumaloq shaklda)	(a,o) ikki keng unli	**Qiyiq**	Qisiq yoki suzuk; qisilgan yoki suzilgan qiyg‘och ko‘z haqida	(i,i) ikki tor unli
Nog‘ora	Urib chalinadigan musiqa asbobi. Kosasi tuvaksimon bo‘ladi	(o) bir keng unli	**Qirra**	Narsalarning ensiz yoki o‘tkir qirg‘og‘i; chet, zih, qir.	(i) bir tor unli va bir keng (a)
Yoy	Urush va ov quroli, kamalaksimon	(o,o) ikki keng unli	**Uch**	Narsalarning ingichkalashgan, o‘tkir tomoni	(u) bir tor unli
Qalqon	Qilich, nayza zarbidan himoyalanish uchun tashqi tomoni bo‘rtiq qilib ishlangan himoya quroli	(o) bir keng unli	**Qilich**	Xanjardan uzun bir tig‘li qurol	(i, i) ikki tor unli
			Tish	1.Ovqat yeyish, tishlash, chaynash, tutib turish uchun xizmat qiladigan a’zo. 2.Qurol, asbob, mashina qismlari va shu kabilarning o‘tkir uchli qismi	
			Ixcham	Tuzilish, bichimi yig‘iq va qulay	
			Ichak	Ovqat hazm qilishga xizmat qiladigan naysimon elastik a’zo	
			Ip	Tolalarni eshib tayyorlangan ingichka tikish buyumi	
			Ipak	Pilladan olinadigan ingichka pishiq mayin tola	

Yuqorida keltirilgan tahlillarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, orqa qator keng unlilar a,o faol ishtirok etgan so‘zlardan *katta, aka, opa, og‘a, babaq, tog‘* kabi so‘zlarda ushbu unlilar kattalik belgisiga ishora qilsa, *yo‘g‘on, bo‘rdoqi, bosqon, og‘ir* kabi so‘zlar semantikasida semizlik va og‘irlik belgisiga ishora qilmoqda. *Yalpoq, jahon, olam, oy, osmon, non, doira, nog‘ora, yoy, qalqon* kabi so‘zlarda orqa qator keng unlilar asosan, kenglik va yumaloqlik belgilarini namoyon qilishda ishtirok etmoqda.

Old qator tor unlilar faol ishtirok etgan so‘zlar ham umumiy kichiklik ma’nosiga ishora qilmoqda. Ushbu tor unlili so‘zlarni ham bir necha guruhga ajratadigan bo‘lsak, *kichik, mitti, jimitdek, zig‘irdek, uka, ini, singil, jimjiloq, qir* kabi so‘zlarda kichiklik ma’nosi aniq ko‘rinsa, *chizimcha, qiyiq, ixcham, xipchin, teshik, qisiq, ichak, ip, ipak* kabi so‘zlarda ingichkalik, torlik ma’nolari ustunlik qiladi. *Qirra, uch, qilich, tish* kabi so‘zlarda esa old qator tor unlilar qirralilik, uchlilik semalariga ishora etayotganligiga guvoh bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Xakimova M.K. Semasiologiya. – Toshkent: “Nodirabegim” nashriyoti, 2023.

2. Sapir, E. (A study in phonetic symbolism. Journal of Experimental Psychology, 12, 225–239

3. Ohala, J. J. (1994). The frequency code underlies the sound-symbolic use of voice pitch. In L. Hinton, J. Nichols, & J. Ohala (Eds.), Sound symbolism (pp. 325–347). Cambridge, UK: Cambridge University Press. 4. Jakobson, R., & Waugh, L. (1979). The sound shape of language. Bloomington: Indiana University Press.

5. Bremner, A. J., Caparos, S., Davidoff, J., de Fockert, J., Linnell, K. J., & Spence, C. (2013). “bouba” and “kiki” in Namibia? A remote culture make similar shape-sound matches, but different shape-taste matches to Westerners.

6. David.M; Penny.M Five mechanisms of sound symbolic association. University of Calgary, Calgary, AB, Canada, 2017

7. Köhler, W. (1929). Gestalt psychology. New York: Liveright

8. Ramachandran, V. S., & Hubbard, E. M. (2005). The emergence of the human mind: Some clues from synesthesia. In L. C. Robertson & N. Sagiv (Eds.), Synesthesia: Perspectives from cognitive neuroscience (pp. 147–192). Oxford: Oxford University Press.

Kamola TEMIROVA,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
kamolatemirova28@gmail.ru



GASTRONOMIK BIRLIKLARDA OMONIMLIK HODISASI VA ULARNING LEKSIKOGRAFIK TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada omonimlar, ularning ma’no xususiyatlari, shuningdek, gastronomik birliklar orasida omonimlikni vujudga keltiruvchi leksemalarning ma’no ifodalari haqida fikr yuritilgan. Shavkat Rahmatullayevning “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da qayd etilgan omonimlikni vujudga keltiruvchi gastronomik birliklar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *omonimiya, omonim, lug‘atlar, gastronomik birliklar, taom nomlari, shirinlik, ichimlik, uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari, sumalak, pashmak, salat, rom va hokazo.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются омонимы, их семантические особенности, а также семантические выражения лексем, создающих омонимию среди гастрономических единиц. Анализируются гастрономические единицы, образующие омонимы, упомянутые в «Аннотированном словаре омонимов узбекского языка» Шавката Рахматуллаева и «Аннотированном словаре узбекского языка».

Ключевые слова:*омонимы, омонимы, словари, гастрономические единицы, названия еды, десерта, напитка, названия предметов быта, сумах, пашмак, салат, ром и т.д.*

Annotation: this article discusses homonyms, their semantic features, as well as the semantic expressions of lexemes that create homonymy among gastronomic units. The gastronomic units that \create homonymy listed in Shavkat Rahmatullayev’s “Explanatory Dictionary of Uzbek Language Homonyms” and “Explanatory Dictionary of the Uzbek Language” are analyzed.

Keywords: *homonymy, homonym, dictionaries, gastronomic \\units, names of dishes, sweets, drinks, names of household items, sumalak, pashmak, salad, rum, etc.*

Kirish. Omonimlarning til taraqqiyotidagi o‘rni beqiyosdir [1:6]. So‘zlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida gap ketganda omonimiya masalasiga ham to‘xtalib o‘tish lozim. Jahon tilshunosligida omonimiya nafaqat tilning asosiy birligi – so‘z chegaralarini o‘rnatish bilan bog‘liq muhim nazariy masala, balki amaliy leksikografiyaning murakkab masalalaridan biri sifatida o‘rganilgan. XX asrga kelib tilshunoslik fani empirik bosqichdan nazariy bosqichga ko‘tarildi. Sinonimiya va polisemiya tillar uchun qonuniy hodisa tarzida baholanadi. Aslida omonimiya ham, til sistemasi uchun immanent va zaruriy qonuniyatlardan biri hisoblanadi. Demak, omonimiya tillarning leksika va grammatikasini boyituvchi, til sistemasining qonuniy hodisasidir. Ta‘kidlash joizki, omonimiya – tilning deyarli barcha qatlamlari, tuzilishi va semantikasi jihatidan murakkabligi turlicha bo‘lgan birliklari uchun universal hodisadir [2:4-bet].

Omonimiya xuddi sinonimiyada va antonimiyada bo‘lganidek, minimum ikki til birligi orasida yuzaga keladi. Bunday munosabatlarni belgilashda til birliklarining har ikki tomoni – ifoda va mazmun ko‘lami ham hisobga olinadi. Sinonimiya va antonimiyada til birliklarining mazmun ko‘lami asosga olinsa, omonimiyada, aksincha, ifoda ko‘lami yetakchilik qiladi [3:4].

Omonimiya va omonimlar lug‘atda quyidagicha izohlangan: Omonimiya [“omonim” s.dan] *tlsh.* Birdan ortiq til birligining talaffuz va yozilish jihatidan bir xil bo‘lish hodisasi, shakldoshlik [7:488].

Omonimlar [fr.omonyme < yun. Homos teng, bir xil + onyma – nom, ism] *tlsh*. Shakl va talaffuzi, ya’ni yozilishi va aytilishi bir, ammo ma‘nosi boshqa-boshqa so‘zlar, shakldosh so‘zlar [7:488].

Omonimlar, avvalo, bir til doirasida belgilanadi: boshqa tilga mansub, hali o‘zbek tiliga o‘zlashmagan leksema bilan o‘zbek tilidagi leksemani o‘zaro omonim deb bo‘lmaydi [3:4].

Barcha tillarda bo‘lgani kabi o‘zbek adabiy tilida ham shakli bir xil, lekin ma‘nosi har xil bo‘lgan leksik birliklar ko‘plab uchraydi. Shunga ko‘ra o‘zbek tilshunosligida ham omonimlarni o‘rganishga yetarli e’tibor berib kelingan. Mazkur masalani nafaqat darsliklarda keng yoritilganligi, balki uni o‘rganishga bag‘ishlangan qator ishlarning yuzaga kelganligi shundan dalolat beradi. To‘g‘ri, bu ishlarning barchasi faqat adabiy til doirasidagi omonimlarni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, ular leksikologiya va leksikografiyaning rivojiga hissa qo‘shdi.

Asosiy qism. Shavkat Rahmatullayevning “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” – hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi shakldosh so‘zlarni jamlagan filologik lug‘at sanaladi. Ushbu lug‘atda lug‘at maqolasi omoifoda bilan boshlanadi. Omoifoda talaffuzi va yozilishi bir necha leksema borligini ko‘rsatadi. Omoifoda satr boshidan katta qora harflar bilan terilgan. Lug‘atda berilgan 497 omoifodaning 372 tasi ikki omoleksemali, 93 tasi uch omoleksemali, 21 tasi to‘rt omoleksemali, 7 tasi besh omoleksemali va 4 tasi olti omoleksemali bo‘lib, 1160 dan ortiq leksemani birlashtiradi [3:13].

Tadqiqotimiz doirasida lug‘atga murojaat qilganimizda gastronomik terminlar omonimiyasini ham uchratdik. Gastronomiya terminologiyasi o‘ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega bo‘lgan tarixiy, ijtimoiy-madaniy va etnik ovqatlanish odatlari hamda pishirish usullari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ajralmas tizim. “Gastronomiya” etimologik jihatdan ikkita yunoncha so‘zdan “gastros” – oshqozon va “nomos” – qoida yoki tartibga solish degan ma‘noni anglatib [11], umumiy ma‘noda oziq-ovqatlar, taom tayyorlash va iste’mol qilish madaniyatidir.

Shavkat Rahmatullayevning “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” da gastronomik birliklar bilan omonimlikni vujudga keltiradigan 24 ta omoifoda, 1 ta omofon (*talaffuzda o‘zaro mos keluvchi so‘zlar*), 4 ta omograf (*yozilishi bir xil, urg‘usi har xil so‘zlar*) larni semantik jihatdan guruhlashtirib, ma‘no ifodalari bilan tanishib chiqdik: *taom nomlari* (atala, osh, og‘iz, salla, sumalak, xo‘rda, yupqa, qazi, qarta,), *ichimlik nomlari* (qiyom, may, rom,); *shirinlik nomlari* (pashmak) *oziq-ovqat mahsulotlari nomlari* (pay, sir, sirka, so‘k, til, tuz, un, qurt, sut); *meva-sabzavotlar* nomlari (turp, qizilcha, qovoq, tok); degustatsion atamalar (sho‘r); uy-ro‘zg‘or buyumlari (qozon, jom). Shulardan 20 tasi ikki omoleksemali, 5 tasi uch omoleksemali va 4 tasi to‘rt omoleksemali so‘zlardir. (1-jadvalga qarang)

1-jadval

Ikki omoleksemali	***Uch omoleksemali***	***To‘rt omoleksemali***
Atala, og‘iz, pashmak, salla, sirka, sumalak, til, turp xo‘rda, yupqa, qazi, qiyom, qizilcha, qovoq, *qozon, qurt,* jom, may, tok, tort	*osh, qarta so‘k, tuz, sho‘r,*	*pay, sir, un,* rom

1981-yilda nashr etilgan 2 jildli izohli lug‘at, 2006-2008-yillarda qayta nashr, 2020-yilda nashr etilgan 5 jildli izohli lug‘at, shuningdek, avvalgi nashrdan farqli ravishda lotin grafikasi asosida 2022-yilda nashrdan chiqqan 6 jildli izohli lug‘atda ham omonimlar qatoriga alohida e’tibor qaratilgan.

Lug‘atning 2022-yildagi nashriga tayanib, lug‘atda gastronomik birliklarning alohida o‘ringa egaligini, shuningdek, birliklar orasida omonimlik hosil qilgan 40 dan ziyod gastronomik leksemalarning omonimiyasini o‘rganib chiqdik. (2-jadval)

2-jadval

Taom nomlari	ichimliklar	shirinliklar	uy-ro‘zg‘or buyumlari	Oziq-ovqat mahsulotlari	Meva-sabzavotlar
Beshbarmoq,barak, dimdim, gazak, halim, patir, qarta, quymoq, salat, salla, sumalak, xonim, xo‘rda, o‘rama, chakka	Bo‘za, may, musallas, qiyom, shirchoy, rom	Nabot// novvot, pashmak, obaki	Ayoq, qoshiq, cho‘lpi	Baliq, maska, qadoq, qurt, sir, sirka, tuz, un	Bargak, mandarin, qizilcha, qoqi, qovoq, qoraqand (qovun navi), turp

O‘zbek tilining izohli lug‘atida omonimlar alohida-alohida so‘z sifatida rim raqamlari bilan (nuqtasiz) bosh so‘z qilib berilgan. Yuqorida keltirilgan ba’zi gastronomik birliklarga izoh berib o‘tishni joiz bildik.

Taom nomlari orasida omonimlik: Sumalak ot so‘z turkumiga mansub bo‘lib, asli suma – “undirilgan don” + lak – kichraytirish-erkalash ifodalaydigan qo‘shimcha ma’nosini ifodalab, undirilgan bug‘doyni tuyib, maxsus usul bilan uzoq pishirib tayyorlanadigan holvaytarsimon ovqat (har yili erta bahorda ko‘p xonadon xotinlari birgalikda tayyorlaydi) [3:121]. ***Sumalak*** undirib yanchilgan bug‘doy, un va yog‘ aralashmasidan tayyorlanadigan, servitamin, xushxo‘r holvaytarsimon ovqat. *Binobarin, sumalak yilda bir martagina tayyorlash mumkin bo‘lgan noyob taomdir. K.Mahmudov, O‘zbek tansiq taomlari.* [8:758]; ***Sumalak*** – irib tushayotgan qorning bo‘g‘ot, tarnovlarda konussimon shaklda muzlagan holati. *Tomlarda, bo‘g‘otlarda osilib turgan sumalaklar oftobda yiltillardi-yu, chak etmasdi. Rahmat Fayziy, Hazrati inson* [3: 121]; ***Halim*** *arabcha so‘zdan olingan bo‘lib,* suvga bug‘doy yormasi va go‘sht solib, uzoq (hil-hil bo‘lib ketguncha) qaynatib pishiriladigan quyuq ovqat. *Pishgan halimning bug‘doyi ezilib, go‘shti esa hil-hil bo‘lib ketadi.* K. Mahmudov, O‘zbek tansiq taomlari. Unga omonimlik hosil qiluvchi ***halim*** kishiga qattiq botmaydigan, muloyim, yoqimli kishi ma’nosini ifodalaydi, shuningdek, ***Halim*** erkaklarning ismi hamdir. [6:297]; ***Salat*** leksemasi italyancha *“salato”* – tuzli, tuzlangan ma‘nosini bildirib, turli sabzavotlar (pomidor, bodring), tuxum, go‘sht va shu kabilardan tayyorlanadigan yaxna taom va ***salat*** – iste’mol qilinuvchi, vitaminlarga boy bir yillik ko‘kat; poliz ekini kabi ma’nolarda qo‘llanib, omonimlik hosil qilgan. [8:502]

Ichimlik nomlari omonimiyasi: ***bo‘za*** forscha so‘zdan olingan bo‘lib tariqdan qilingan ichimlik, ya’ni oqshoq, tariq, arpa va shu kabi donlardan tayyorlanadigan, kayf beradigan ichimlik sanaladi. Unga omonimlikni hosil qiluvchi so‘z ***bo‘za*** binokorlik termini sanalib, g‘isht terish yoki poydevor qo‘yish uchun tayyorlangan qorishma ma’nosini ifodalaydi. [5. 717-bet]; ***shirchoy*** – (forscha+xitoycha – sutli choy) maromi bilan choy, tuz, sariyog‘ va murch solib qaynatilgan sut; ***shirchoy*** – atirgullilar oilasiga mansub, ildizi bo‘yoq va ishqor moddalariga boy ko‘pyillik o‘t [10. 647]; ***may*** – [tojikcha] ot; eskirgan. Boda sharob, musallas [vino]; *may* – kalendar yilining beshinchi oyi nomi; ***Rom*** 4 omoleksemali so‘z bolib, ***rom*** [ing.rum] – shakarqamishning achitilgan shirasi yoki qiyomidan haydash yo‘li bilan tayyorlanadigan kuchli ichimlik bo‘lib [8:454], o‘z o‘rnida ***rom I***: [tojikcha] ot – fol, biror belgi-alomatlarga suyanib, oldindan aytib berish; ***rom II***: [tojikcha] sifat. mute, tobe; ***rom III:*** [<Ruscha rama; so‘zlashuv nutqida bu so‘zdagi unli o‘zbekcha talaffuz qilinadi; adabiy tilda rama ishlatiladi] so‘zlari bilan omonimlikni yuzaga keltirgan.

Shirinlik nomlari omonimiyasi: “***pashmak*** – “tola-tola shaklli holva”, yog‘da qovurilgan un va qiyomdan tola-tola qilib tayyorlangan va maxsus o‘lchovda kesilgan mahalliy shirinlik nomi; ***pashmak*** – sho‘radoshlar oilasiga mansub, tanasi qalin tola va tangachalar bilan qoplangan bir yillik o‘simlik [7:698]; ***“novvot”*** *[*f. kristall shaklli qand, shakar] Shakar qiyomidan maxsus tayyorlanadigan yaltiroq kristall, qattiq oq yoki sarg‘ish shirinlik. ***Novvot*** – to‘qimachilik dastgohida: tayyor mato o‘raladigan yog‘och valik [7:409]**;** ***obaki*** – *“suvli, suyuq; sersuv, shirali”* ma’nosini anglatib, oq chillakiga o‘xshash, o‘rtapishar mahalliy uzum navi, ***obaki*** – shakar qiyomidan tayyorlangan shirinlik turi [7:422] kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Xulosa. Gastronomik terminologiya boshqa sohalardagi terminologiyadan xalqning o‘ziga xos turmush tarzi, e’tiqodi, madaniyati, etnografiyasi, iqlimi va boshqa xususiyatlarini mujassam etganligi bilan farqlanadi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, gastronomik birliklar, ya’ni oziq-ovqat nomlarini o‘rganish hozirgi kun talabi bo‘lib, o‘z o‘rnida gastronomik birliklar orasidagi omonimlikni vujudga keltirgan leksemalarni semantik jihatdan tasniflab o‘rganganimizni inobatga olgan holda, ushbu maqoladagi birliklar mavzu doirasida ideografik lug‘atlarni vujudga keltirishga va ularni kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Usmonova.S. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida omonimlar va sinonimlar. – Toshkent. 1959-yil.

2.Худжаева Р.М.Инглиз ва ўзбек тилидаги генетик боғланмаган лексик омонимларнинг самарадорлиги ва уларнинг лексикографик тадқиқи. Фил.фан.ном илмий дар.олиш учун тақдим этилган диссертация – Тошкент, 2017.

3.Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984.

4.Nabiyeva R. Oziq-ovqat mahsulotlari nomlarida sinonimlik va omonimlik hodisasi haqida. // International scientific-practical conference: Vol.2 / No. 18.10 (2024). «PROBLEMS OF RESEARCH AND EDUCATION OF THE UZBEK LANGUAGE». Proceedings homepage: https://www.myscience.uz/index.php/language.

5.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. I jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2022.

6.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. II jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2022

7.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. III jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2022

8.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. IV jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2022.

9.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. IV jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2022.

10.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. IV jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2022.

11.Kivela J., Crotts J.S. Tourism and Gastronomy: Gatronomy‘s Influence on HowTourists Experience a Destination. Journal of Hospitality and Tourism Research, 30 (3), 2006. – P

Dilobar ODILOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti
diloshodilova@.gmail.com

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O‘XSHATISHLARGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligidagi o‘xshatishlarga oid ilmiy tadqiqotlar va nazariy qarashlar haqida so‘z yuritilgan. O‘zbek olimlarining o‘xshatishlar bo‘yicha amalga oshirgan asosiy tadqiqot yo‘nalishlari, o‘xshatishlarni tasniflashdagi o‘ziga xos yondashuvlari tahlil qilingan. Shuningdek, olimlarning ilmiy yutuqlari va ularning zamonaviy tilshunoslikka ta’siri ilmiy jihatdan yoritilgan. O‘xshatishlar – tanlangan subyekt yoki obyekt ma’lum xususiyatini boshqa subyekt yoki obyektga qiyoslash sanalib, ularning tilshunoslik nuqtayi nazaridan ilmiy tahlili ularning ushbu fan sohasi uchun naqadar muhim ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.

Kalit so‘zlar: *o‘xshatish, badiiy tasvir vositasi, tahlil, til birligi, tadqiqot, etalon, tasavvur, qadriyat, obraz.*

Annotation: this article discusses scientific research and theoretical views on similes in Uzbek linguistics. The main research areas carried out by Uzbek scientists on similes, their unique approaches to classifying similes are analyzed. The scientific achievements of scientists and their impact on modern linguistics are also scientifically highlighted. Similes are considered to be a comparison of a certain feature of a selected subject or object with another subject or object, and their scientific analysis from the point of view of linguistics indicates how important they are for this field of science.

Key words: *simile, means of artistic depiction, analysis, language unit, research, standard, imagination, value, image.*

Аннотация: в данной статье рассказывается о научных исследованиях и теоретических взглядах на сравнения в узбекском языкознании. Анализируются основные направления исследований узбекских учёных по сравнениям, их уникальные подходы к классификации сравнений. Также научно освещаются научные достижения учёных и их влияние на современную лингвистику. Сравнения представляют собой сравнения определенного признака выбранного предмета или объекта с другим предметом или объектом, и их научный анализ с точки зрения лингвистики показывает, насколько они важны для этой области науки.

Ключевые слова:*сравнение, средство художественного изображения, анализ, единица языка, исследование, ориентир, воображение, значение, образ.*

O‘xshatish – ikki narsa yoki voqea-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslangan, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatib berishdan iborat badiiy tasvir vositasi, ko‘chimning sodda turi [11: 655]. O‘xshatishlar jahon va o‘zbek tilshunosligida keng qamrovda o‘rganilayotgan lingvistik hodisalardan biri hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida ham o‘xshatishlar tadqiqini amalga oshirgan olimlar salmoqli bo‘lib, ularning ilmiy qarashlari turli yo‘nalishlarga ega. Jumladan, o‘xshatishlar grammatik, morfologik, sintaktik, semantik-stilistik xususiyatlari hamda lingvomadaniy talqini ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganilgan.

Hozirgi vaqtda o‘xshatishlarning mohiyatini aniqlashga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar mavjud. O‘zbek tilshunosligida o‘xshatishlarning lingvistik xususiyatlariga oid dastlabki tadqiqotlar M. Mukarramov nomi bilan bog‘liq. Olimning “O‘zbek tilida o‘xshatish” nomli qo‘llanmasida o‘xshatish komponentlari, o‘xshatishning boshqa hodisalar bilan aloqadorligi, o‘xshatish turlari hamda o‘xshatishni ifodalovchi vositalar bo‘yicha qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Uning fikricha, badiiy adabiyot tilining tasviriy vositasi hisoblangan o‘xshatishlarni lingvistik jihatdan o‘rganish badiiy adabiyot tilining emotsional-ekspressivlik, badiiy obrazlilik, ko‘chim kabi masalalarini aniqlashga imkon beradi [5: 83].

N.Mahmudov o‘zbek tilida o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqini boshlab bergan olim hisoblanadi [4: 17]. U o‘xshatishlar bo‘yicha bir qator maqolalar e’lon qilgan bo‘lib, ushbu maqolalarida o‘xshatishlarning to‘rt unsurdan tashkil topishiga, o‘xshatishlarning turiga ko‘ra farqlanishiga alohida urg‘u beradi. Muallif o‘xshatishlarni quyidagicha tasniflaydi:

1) *individual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar*;

2) *umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar*.

Bundan tashqari, olim 2013-yilda D.Xudoyberganova hammuallifligida “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” ni yaratdi. Ushbu manbada o‘zbek tilidagi 530 dan ziyod turg‘un o‘xshatishlarning izohi keltirilgan. Lug‘at hozirgi kungacha amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan hamda o‘zbek tilining ichki imkoniyatlarini ko‘rsatib beruvchi qimmatli manba sifatida xizmat qilib kelmoqda.

R.Qo‘ng‘urov “O‘zbek tilining tasviriy vositalari” nomli asarida o‘xshatishlarning sintaktik xususiyatlarini yoritib bergan hamda o‘xshatishni unga aloqador bo‘lgan boshqa tasviriy vositalardan, ya’ni metafora, epitet, jonlantirishdan farqli jihatlariga batafsil to‘xtalib o‘tgan [10: 55].

M.Yoqubbekova “O‘zbek xalq qo‘shiqlarida o‘xshatish” nomli monografiyasida xalq qo‘shiqlaridagi obrazlilik, ta’sirchanlik, mavzularning rang-barangligi, ohangdoshlik, ruhiy kechinmalarning bo‘yoqdorliligida o‘xshatishlarning alohida o‘rni borligini ta’kidlaydi [2: 34]. Shuningdek, o‘zbek xalq qo‘shiqlaridagi o‘xshatishlarni tahlil qilishda quyidagi uch xususiyatni nazardan qochirmaslik kerakligini aytib o‘tadi:

– *mantiqiy;*
– *lisoniy;*
– *badiiy*.

Matnning antroposentrik tadqiqi bo‘yicha ish olib borgan D.Xudoyberganova o‘zining monografiyasida o‘xshatish mazmuni ifodalangan matnlar xususiyati haqida to‘xtalib o‘tgan [9: 94]. Olima ushbu matnlar o‘zbek tilida so‘zlashuvchi til egalarining ijodiy tafakkuri, fikrlash tarzi va milliy mentalitetining o‘ziga xosligini, shuningdek, tilning yaratuvchanlik imkoniyatini ko‘rsatuvchi lingvomadaniy birlik sifatida namoyon bo‘lishini turli xil misollar orqali dalillab bergan. Shuningdek, tilshunos o‘zbek tilidagi inson bilan bog‘liq turg‘un o‘xshatishlarni 8 ta ma’noviy guruhlarga ajratadi hamda ular orasida insonning holati va harakatini ifodalovchi o‘xshatishlar miqdori yetakchi o‘rinda turishini alohida ta’kidlaydi.

F.Usmanov o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqini amalga oshirgan [8: 15]. Olim o‘z izlanishlari natijasida o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlar o‘zbek millatiga xos olamning lisoniy manzarasini namoyish etuvchi lingvomadaniy birliklar ekanligini isbotlagan, o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlar semantikasida milliy-madaniy konnotatsiyaning o‘rnini aniqlagan, turg‘un o‘xshatishlar etalonlarini lingvomadaniy kodlar nuqtayi nazaridan yoritib bergan. Shuningdek, o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlar vositasida ifodalanuvchi o‘zbek madaniyatiga xos tayanch qadriyatlarni aniqlagan.

Z.Mamajonov esa o‘xshatish asosidagi she’riy san’atlarning tavsifi va tasnifini amalga oshirgan bo‘lib, u o‘z tadqiqotida o‘xshatishning mumtoz she’riyatga xos obrazli tafakkur va badiiy san’atlar tizimidagi o‘rnini aniqlagan hamda o‘xshatish asosidagi she’riy san’atlarning strukturaviy va funksional xususiyatlarini ochib bergan [3: 7].

D.Toshevaning “Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari” nomli dissertatsiyasida zoonim komponentli maqollarda shaxs tavsifida qo‘llangan o‘xshatishlarning o‘rniga, xususiyatlariga alohida to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib,

muallif tomonidan ular shartli ravishda quyidagi ma'noviy guruhlarga bo'lingan:

1. Tashqi ko'rinish va tana tuzilishi o'xshashligini ifodalovchi zoonimlar.

2. Ovoz, ohang o'xshashligini ifodalovchi zoonimlar.

3. Xatti-harakat o'xshashligini ifodalovchi zoonimlar.

S.Babanazarovaning dissertatsiyasi o'zbek tilidagi turg'un o'xshatishlarning kognitiv tahliliga bag'ishlangan. Tadqiqotchi o'zbek tilidagi turg'un o'xshatishlar misolida til birliklarining konseptuallashish jarayonida xalqning o'ziga xos tafakkur tarzi, dunyo haqidagi tushuncha va tasavvurlari aks etishini ko'rsatib bergan, o'zbek tili egalarining lisoniy ongida tafakkuri mahsuli sifatida shakllangan ***erkinlik, do'stlik, iroda, quvonch, go'zallik*** kabi milliy konseptlarning turg'un o'xshatishlarda verballashuvi jarayonini tahlil qilgan hamda o'xshatish etalonlarining tanlanishidagi milliy o'ziga xos jihatlarni ingliz, rus va o'zbek tillaridagi o'xshatishli qurilmalar qiyosi misolida aniqlagan [1: 8].

Jo Min Yong o'zbek va koreys tillaridagi turg'un o'xshatishlarning qiyosi va lingvomadaniy xususiyatlarini o'rgangan olim sifatida tilga olinadi.Jo Min Yong tadqiqotida o'zbek va koreys tillaridagi turg'un o'xshatishlar biomorf kodlar nuqtayi nazaridan guruhlashtirilgan hamda har ikkala xalq assotsiativ tafakkuridagi o'xshash va farqli jihatlar tahlilga tortilgan.Shu bilan bir qatorda, tadqiqotchi izlanishlarida o'zbek va koreys lingvomadaniyatlarida Yevropa lingvomadaniyatlaridan farqli o'laroq, peyorativ o'xshatishlarga nisbatan meliorativ o'xshatishlarning ko'pligini ta'kidlaydi [7: 24]. Shuningdek, ikki millatning inson xarakteridagi ijobiy shaxsiy sifatlarga ko'proq ahamiyat berilishini, har ikkala jamiyat uchun ham odob-axloq me'yorlarining ustuvor hisoblanishi bilan izohlash mumkin degan xulosaga keladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, jahon va o'zbek tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar bir-biridan o'xshatishlarga qay jihatdan yondashuvning yuzaga kelganligi bilan farq qiladi. O'xshatishlarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish, uning mohiyatidan o'rin olgan nazariy ifodalarni anglash tilshunoslar oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida o'xshatishlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar salmoqli o'rinni egallabgina qolmasdan, balki o'xshatishlarni tadqiq etish ularning til va tafakkurdagi rolini chuqurroq anglashga, turli madaniyatlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бабаназарова С. Ўхшатишларда оламнинг лисоний консептуаллаштирилиши. Филол. фан. фал. док (PhD) …дисс. – Тошкент, 2022.122-б.

2. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларида ўхшатиш. –Тошкент: Фан, 2003. 95-б.

3. Мамажонов З. Ўхшатиш асосидаги шеърий санъатларнинг назарий тавсифи ва таснифи Филол. фан. фал. док (PhD) …дисс. – Тошкент: 2017.158-б.

4. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: «Маънавият», 2013.320- б.

5. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. –Тошкент: Фан, 1976. 88-б.

6. Тошева Д. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокулътурологик хусусиятлари. Филол. фан. фал. док (PhD) …дисс. – Тошкент, 2017.151-б.

7. Жо Мин Ёнг. Ўзбек ва корейс тилларида ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол. фан. фал. док (PhD) …дисс. – Тошкент, 2022.142-б.

8. Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол. фан. фал. док (PhD) …дисс. – Тошкент, 2020.173- б.

9. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик тадқиқи. Филол.фан. док.дисс…автореф. – Тошкент, 2015. 46-б.

10. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. 152-б.

11.O'zbek tilining izohli lug'ati. V jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2023. 964-b.

Zaxro ABRUYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti
Zaxroabruyeva99@gmail.com

KONSEPTUAL METAFORANING MUROJAAT SHAKLLARI KOGNITIV ASOSIDA TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada konseptual metaforaning tilshunoslikdagi ahamiyati, til birliklarining lingvokognitiv tahlil jarayonida konseptual metafora tahlil usulidan foydalanish hamda uning turlari xususida nazariy ma’lumotlar beriladi. Shuningdek, o‘zbek tilidagi murojaat shakllarining lingvokognitiv asosini tahlil qilishda konseptual metaforaning tutgan o‘rni xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *kognitiv tilshunoslik, konsept, konseptual metafora, murojaat shakllari, laqablar.*

Annotation: this article provides theoretical insights into the significance of conceptual metaphor in linguistics, the application of conceptual metaphor analysis in the linguocognitive examination of language units, and its various types. Additionally, it discusses the role of conceptual metaphor in analyzing the linguocognitive foundation of forms of address in the Uzbek language.

Keywords:*cognitive linguistics, concept, conceptual metaphor, forms of address, nicknames.*

Аннотация: в данной статье представлена теоретическая информация о значении концептуальной метафоры в лингвистике, использовании метода концептуальной метафоры в процессе лингвокогнитивного анализа языковых единиц и ее разновидностях. Также рассматривается роль концептуальной метафоры в анализе лингвокогнитивной основы форм обращения в узбекском языке.

Ключевые слова: *когнитивная лингвистика, концепт, концептуальная метафора, формы обращения, прозвища.*

Ijtimoiy ongning shakllanish tamoyillarini tahlil qilish turli madaniyatlarning o‘zaro munosabatlarini hamda ularni tushunish, idrok etish mexanizmlarini tadqiq qilish imkoniyatlarini vujudga keltirdi. Bu tilshunoslikda til va madaniyat munosabatlarining keng miqyosda tadqiq qilinishiga asos bo‘ldi. Tilda lisoniy ong va madaniy qadriyatlar obyektiv olam tasvirining mental modellari ko‘rinishida ifodalanadi. Shu asosda tilda madaniy an’analar kontekstiga tayanilgan holda olamni milliy idrok qilish va tushunish kategoriyalari shakllandi. Insonning atrof-muhitni idrok qilishi, undagi bilimlarni o‘zlashtirishi, o‘z navbatida, milliy mentalitetsiz amalga oshmaydi. Mazkur bilimlar zamirida milliy qadriyatlar, insonga xos bo‘lgan shaxsiyat va dunyoqarash o‘z aksini topadi. Shunday ekan, kognitiv tilshunoslikni milliy qadriyatlardan ayri holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Kognitiv tilshunoslik lisoniy tafakkur faoliyati va milliy mentalitetni muayyan shaxsga, ijtimoiy yoki etnik guruhlarga xos bo‘lgan hamda ongdagi kognitiv stereotiplar majmuasiga tegishli bo‘lgan, borliqni idrok qilish va tushunishning o‘ziga xos vositasi deb qaraydi.

Tildagi har bir birlik konsept sifatida lisoniy ongda aks etadi. Konseptning mazmunan shakllanishi bir necha bosqichli kognitiv mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu mexanizmning eng so‘nggi bosqichida u verbal ifodaga ega bo‘ladi. Mazkur tadqiqotimizda murojaat shakllarining vujudga kelishida faol ishtirok etuvchi quyidagi kognitiv mexanizmlar xususida fikr yuritamiz:

Konseptual metafora
Konseptual metonimiya
Konseptual integratsiya

Tilshunoslikda metafora tadqiqi uzoq tarixga borib taqaladi. Antik davrdan boshlangan an’anaviy ritorika doirasida metafora ifoda vositasi sifatida o‘rganilgan. Diaxronik semantikada metaforaga so‘z semantik taraqqiyoti usuli sifatida yondashilgan. Sinxron leksikologiya va leksikografiyada esa metaforaga so‘zning ko‘chma ma’no turlaridan biri sifatida qaralgan [5: 92]. V.N.Teliya metafora muayyan tilning lug‘at boyligini oshiruvchi universal usul bo‘lish bilan bir qatorda ikkilamchi nominatsiya jarayonlarida ham faol qo‘llanishini ta’kidlagan[3: 181].

E.S. Kubryakova yangi so‘z hosil qilish jarayonlari tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlarida bu hodisalar amalga oshishida kuzatiladigan ikki amaliy vazifani ajratib ko‘rsatadi:

1. Biror narsani nomlash uchun, avvalo, referentni tanib olish, uning til egasi kognitiv tizimidagi o‘rnini aniqlash va uni muayyan kategoriyaga kiritish;

2. Mazkur referentni boshqa ayni toifaga mansub o‘xshash referentlar bilan taqqoslash hamda nomlangan referentni unga o‘xshash bo‘lganlaridan farqlovchi jihatini ajratish. Olima ushbu jarayonda eng avval umumiy kategoriyalashtirish, so‘ng subkategoriyalashtirish sodir bo‘lishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, nomlash akti voqelikning biror-bir hodisasini boshqalar bilan taqqoslab, ular orasida

muayyan munosabatlarni aniqlashdir[2: 200].

XX asr oxiriga kelib tilshunoslik yangi nazariya konseptual metafora nazariyasi kirib keldi va u J.Lakoff va M.Jonson muallifligida chop etilgan “Biz bilan yashayotgan metaforalar” asari orqali ilmiy asoslandi. Ushbu nazariyaning mohiyati shundaki, mualliflar metaforani shunchaki stilistik ifoda vositasi emas, balki konseptual maqomga ega bo‘lgan muhim hodisa ekanligini e’tirof etgan holda metaforaning yangi xususiyatini ochib berdilar. Shuningdek, metaforalar inson konseptual tizimidan o‘rin olgani uchun tilda ifoda vositasi sifatida mavjud. Aniqroq aytganda, metaforalar aslida tafakkurga xos, lisoniy metaforalar esa ana shu hodisaning tashqi tomonidir[1: 242].

Anglashiladiki, metafora shunchaki ifoda vositasigina emas, balki tafakkur va madaniyatga aloqador hodisadir. Shunday ekan, konseptual metaforalar oddiy ma’no ko‘chishi natijasida hosil bo‘lgan hosila ma’no emas, balki inson tafakkurida sodir bo‘ladigan murakkab kognitiv jarayon natijasidir. Bu borada olib borgan kuzatuvlarimiz shuni ko‘rsatdiki, konseptual metafora yangi nom yasalishining eng sermahsul usuli sanaladi. Shu jumladan murojaat shakli sifatida qo‘llanayotgan birliklarning ayrimlari ham konseptual metafora usuli asosida vujudga keladi.

J.Lakoff va M.Jonson metaforani tushunishni ta’minlab beruvchi fenomen deb ataydilar. Ularning fikricha, madaniyat va din tizimi tabiatan metaforikdir, an’anaviy metafora faqat tilga mansub, kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan metafora kundalik hayot va tushunish tizimi tuzilmasi darajasida talqin qilinadi [1: 265].

J.Lakoff va M.Jonson metaforani quyidagicha talqin etishadi:

- birinchi navbatda metafora tafakkur va faoliyat bilan bog‘liq, uning til bilan aloqasi ikkilamchi o‘rinda;
- metaforalar o‘xshashlikka asoslanadi, ammo ko‘p hollarda bunday o‘xshashlik munosabati o‘xshashlik kategoriyasiga aloqasi bo‘lmagan konvensional metaforalarga asoslanadi;
- madaniyatimizda konvensional metaforalar orqali hosil bo‘lgan o‘xshashlik munosabati haqiqiydir, chunki konvensional metaforalar biz real hisoblagan voqelikka qisman aniqlik kiritadi;
- metaforaning asosiy vazifasi uning qisman orttirilgan bilimni boshqa orttirilgan bilim asosida tushunishni ta’minlashida. Bu orqali mavjud o‘xshashlik asosida yangi o‘xshashlik xususiyati aniqlanadi [1: 182].

Anglashiladiki, metafora olamni idrok etishning o‘ziga xos vositasi, tilda yangi ma’noni yuzaga keltiruvchi kognitiv mexanizmdir. Tashqi olamda jadal sur’atlar bilan yuz berayotgan o‘zgarishlar, turli kashfiyotlar natijasi o‘laroq ongimizda hosil bo‘lgan yangi tushunchalarga nom berishda metafora muhim o‘rin tutadi. Demak, metafora nafaqat til hodisasi, balki tafakkur hodisasi hamdir. Bu xulosa o‘z vaqtida boshqa olimlar tomonidan ham qayd etilgan. Konseptual metaforalarni o‘zbek tili materiallarida tahlil qilgan D. Xudoyberganova ularni quyidagi guruhlarga bo‘lgan holda o‘rganishni taklif qiladi:

a) so‘z shaklidagi metaforalar;
b) so‘z birikmasi shaklidagi metaforalar;
c) gap shaklidagi metaforalar;
d) mikromatn shaklidagi metaforalar [4: 50].

Olima konseptual (kognitiv) metaforaga quyidagicha ta’rif beradi: “Kognitiv metafora – shaxs kognitiv faoliyatiga xos hodisa bo‘lib, bir tushuncha yoki hukm haqidagi bilim strukturalari asosida ikkinchi tushuncha yoki hukmni kategoriyalashtirishdir” [4: 136]. Ko‘rinadiki, o‘zbek tilshunoslari ham metaforaning nafaqat sof til hodisasi, balki shaxs kognitiv faoliyati, uning tafakkuri bilan bog‘liq hodisa ekanini e’tirof etishadi.

Murojaat shakllarining kognitiv xususiyatlari xususida fikr yuritar ekanmiz, yuqoridagi izlanishlardan aniqlashadiki, mazkur shakllarning vujudga kelishida nutqqa verbal holda ko‘chishida konseptual metaforaning o‘rni ahamiyatlidir. Biz bugun murojaat shakli sifatida nutqimizda qo‘llayotgan laqablar aynan metaforik hamda metonimik ma’no ko‘chishi asosida yuzaga kelgan. Masalan:

Xumkalla – hech narsani tushunmaydigan, miyasi xumdek katta va bo‘sh kishilarga nisbatan qo‘yilgan laqab. Inson tana a’zosi, ya’ni boshni narsa-predmetga, ya’ni xumga o‘xshatish asosida vujudga kelgan qo‘shma so‘z, asosan, tengdosh o‘smir yigitlar o‘rtasida, shuningdek, kattalar tomonidan yoshlarga nisbatan qo‘llanuvchi xarakter-xususiyatni ifodalovchi laqab murojaat shakli sifatida qo‘llanishining guvohi bo‘ldik.

Narsa-predmet + Tana a’zosi Xarakter-xususiyat

Roltonbosh – sochi o‘ta mayda jingalak ko‘rinishda bo‘lgan shaxslarga nisbatan qo‘llanuvchi laqab. Mazkur birlik ham inson tana a’zosini narsa-predmetga o‘xshatish asosida metaforik yo‘l bilan hosil qilingan, tashqi ko‘rinishga ishora qiluvchi murojaat shakli hisoblanadi.

Narsa-predmet + Tana a’zosi Inson tashqi belgisi

Tovuqmiya – fahm-farosatini ishlatmaydigan, aqli past, kaltafahm kimsalarga nisbatan ishlatiluvchi laqab. Inson tana a’zosini parrandaga qiyoslash asosida xarakter-xususiyatni ifodalash vazifasidagi laqab murojaat so‘z sifatida qo‘llangan.

Parranda + Tana a’zosi Xarakter-xususiyat

Cho‘chqaburun – burni cho‘chqanikidek puchuq kishilarga nisbatan qo‘yilgan laqab. Inson tana a’zosini hayvonnikiga qiyoslash asosida vujudga kelgan laqab tashqi belgini ifodalovchi murojaat so‘z sifatida qo‘llangan.

Hayvon + Tana a’zosi Inson tashqi belgisi

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, metaforik ma’no ko‘chishi yordamida hosil bo‘luvchi murojaat shakllarining ma’nolari uning komponentlari bilan bog‘liq konseptning kognitiv maydoni va konseptual metafora deb nomlanuvchi kognitiv struktura asosida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We live by. –The University of Chicago Press, 1980.

2.Кубрякова Е С. Типы языковых значений Семантика производного слова – М.: Наука, 1981.

3.Телия В.Н. Метафоризация и ее роль в создании языковой картины мира // Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира. – М.: Наука, 1988.

4.Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадкики – Т.: Фан, 2013.

5.Юлдашев А.Идиоматик қўшма сўзларнинг лингвокогнитив аспекти. Ф.ф.ф.д (PhD) дисс. – Тошкент, 2017.

Sadoqat RAJABOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasi tayanch doktoranti



ISHTIXON TUMANI O‘ZBEKLASHGAN ETNIK ARABLAR SHEVASIDA UCHROVCHI BA’ZI SO‘ZLAR IZOHI

Annotatsiya: maqolada Samarqand viloyati Ishtixon tumani Ulug‘ qishloq, Arabxona, Ravot qishloqlarida istiqomat qiluvchi etnik arablar nutqida uchrovchi ba’zi bir so‘zlarning sinonimlari bilan solishtirilgan holda izohi keltirib o‘tilgan. Bu so‘zlar boshqa shevalarda ham qo‘llaniladimi, qo‘llanilmasa o‘rniga qaysi sinonimi qo‘llaniladi kabi savollarga javob beriladi.

Kalit so‘zlar: *“ǯejnähli”* , “*kättäzäŋ*”, *tartibli, saranjom, sarishta,* kerilgan, kekkeygan, manman…

Аннотация: в статье дается объяснение некоторых слов, встречающихся в речи этнических арабов, проживающих в селе Улуг, селах Арабхана и Равот Иштихонского района Самаркандской области, в сравнении с их синонимами. Даются ответы на такие вопросы, как используются ли эти слова в других языках, а если нет, то какие синонимы используются вместо них.

Ключевые слова: *“ǯejnähli”, “kättäzäŋ”, упорядоченный, организованный, блондин, вытянутый, гордый..*

Annotation: in the article, the explanation of some words encountered in the speech of ethnic Arabs living in Ulug‘ village, Arabkhana and Ravot villages of Ishtikhon district of Samarkand region is given, compared with their synonyms. Questions such as whether these words are used in other languages, and if not, what synonyms are used instead, are answered.

Key words: *“ǯejnähli” , “kättäzäŋ”, orderly, organized, blond, stretched, kekkeygan, proud..*

O‘zbek shevalari o‘zbek milliy tilining tarkibiy qismi sifatida umumiy leksik qatlamga egadir. Har bir shevaning leksik qatlami o‘sha shevaning hayotiy zarur so‘zlarini qamrab oladi. [Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. B.77.] Darhaqiqat, mana shu zarur so‘zlar hayotimizning turli jabhalarida qo‘llaniladi.

Samarqand hudud shevalari bo‘yicha Ye.D.Polivanov, X. Doniyorov, M.Valiev, N.Rajabov, V. Egamov, Z Tillayevalar o‘z tadqiqot ishlarini olib borganlar. Bu ishlarda Samarqand o‘zbek shevalarining turli xususiyatlari fonetik, leksik, morfologik jihatlari tadqiq etilgan. Biz obyekt sifatida olgan Ishtixon tumani Ulug‘ qishloq, Arabxona, Ravot qishloqlari o‘rganilmagan. Biz mana shu hududda qo‘llaniladigan ba’zi so‘zlarning leksik xususiyatlarini tadqiq qilamiz.

Shevada ***“ǯotalli”,*** *“*ǯejnähli*”* va “***kättäzäŋ***” so‘zlarini bugungi tadqiqotimizga obyekt sifatida oldik.

“ǯejnähli**”** so‘zi shevada *tartibli, saranjom, sarishta, orasta, batartib* so‘zlari o‘rnida qo‘llaniladigan so‘z hisoblanadi. O‘zbek shevalarida, asosan, ***tartibli*** so‘zi va ruscha **“**порядок**”** **tartib** so‘ziga o‘zbek tilidagi “**-li**” qo‘shimchasi qo‘shilib hosil qilingan “***pärjätkäli***” so‘zi ham keng qo‘llaniladi. Shevaga xos so‘zlar lug‘atida **“**ǯejnähli**”** so‘ziga ta’rif berilmagan. Shuning uchun uning sinonimlarining izohini keltirib bu so‘zga ta’rif beramiz.

Tartibli so‘ziga izohli lug‘atlarda quyidagicha ta’rif berilgan:

Tartibli *– muayyan tartibga keltirilgan, o‘z o‘rnida, tartib bilan joylashgan*. Bu so‘z ikki xil ma’noda qo‘llaniladi.

Ma’lum tartib, qonun-qoida talablariga javob beradigan; tartib asosida izchil. Masalan, *tartibli uy, tartibli ish.*

Marhamatning ko‘ziga uning ust-boshi har vaqtidagidan tartibli, ozoda ko‘rindi. H.Nazir, Yonar daryo.

Tartib-intizomga rioya qiladigan, intizomli. Masalan, tartibli o‘quvchi…[O‘TIL, 2022, V,121]

Saranjom-[arabcha so‘z bo‘lib, oxir, intiho, xotima; nihoyat, oxir-oqibat].

Hamma ishni tartib bilan, joy-joyiga qo‘yib bajaradigan, tartiblilikni xush ko‘radigan, uy-ro‘zg‘orini, asbob-anjomini batartib tutadigan, sarishta. *Saranjom ayol. Saranjom xodim.*

Hamma narsa tartibga solingan joy-joyida, batartib; orasta, ozoda, sarishta. *Saranjom hovli. – Hamma narsa o‘z yerida, saranjom edi.* M. Ismoiliy, Farg‘ona t.o. [O‘TIL, 2022, IV, 535-536]

Orasta – [bezatilgan, ziynatlangan; tarbiyali, odobli]. **Tartibga solingan, oro berilgan, yasatilgan, bezatilgan.** *Tillarang sochlari orasta qilib taralgan, ko‘zlari havorang bu juvon, qo‘llarini xalati cho‘ntagiga tiqqancha bizga kulib qarab turardi.* “Yoshlik”. [O‘TIL, 2022, III, 516]

“ʒejnä**hli”** so‘zi *tartibli* so‘zining birinchi mazmuni, *saranjom* so‘zining barcha ma’nolariga, *orasta* so‘zining esa *tartibga solingan* ma’nolariga mos keladi.

Shunday qilib, **“**ʒejnähli**”** so‘ziga *tartibli, tartibga solingan, hamma ishni tartib bilan, joy-joyiga qo‘yib bajaradigan, tartiblilikni xush ko‘radigan, uy-ro‘zg‘orini, asbob-anjomini batartib tutadigan, sarishta, saranjom, batartib* kabi ta’rif bersak bo‘ladi.

Yana bir so‘zimiz bu “***kättäzäŋ***” so‘zi bo‘lib, u kerilgan, kekkeygan, kerik, kalandimog‘, manman kabi ma’nolarda qo‘llaniladi. Bu so‘zni shevada kattazang, kekkeygan variantlari faol qo‘llaniladi. Samarqand viloyatining Oqdaryo, Ishtixon, Bulung‘ur, Qo‘shrabod tumanlarida, Farg‘onaning Beshariq tumani, Namangan viloyati, Buxoro viloyati Olot tumani Arabxona qishloqlarida keng qo‘llaniladi. Namanganda shu ma’noda ***kerik*** so‘zi qo‘llaniladi. Surxondaryo, Toshkent viloyatlarida “***kättäzäŋ***” so‘zi qo‘llanilmaydi, bu so‘z o‘rniga ***katta ketadigan, manman, kalandimog‘*** so‘zlari foydalaniladi. Bu so‘zga izohli lug‘at quyidagicha ta’rif berilgan:

KATTAZANG *s.t. Ulug‘, martabali shaxs; o‘zini shunday shaxslarga mos, kibrli tutuvchi kishi. [Abduvose’ning] Uyiga borsam, Safoxo‘ja, Abdishukur **kattazanglar** so‘rini to‘ldirib o‘tirishibdi. “Sharq yulduzi”.* [O‘TIL, 2022, II,783]

KEKKEYGAN so‘zi izohli lug‘atda fe‘lning noaniqlik shakli bilan berilgan bo‘lib: **Kekkeymoq 1.** Gavdani tik, g‘oz tutmoq. *Baland bo‘yli, qirra burun, kelishgan va har doim yaxshi keyinib, kekkeyibroq yuradigan bu chiroyli qorato‘ri yigit o‘sha Fotimaga oshiq bo‘lib yurgan bo‘ydoq o‘qituvchi Karimov edi.* P.Tursun, O‘qituvchi.

2. ko‘chma O‘zini hammadan yuqori tutmoq, gerdaymoq, mag‘rurlanmoq. *Kekkayganga kekkaygin boshing ko‘kka yetguncha.* Matal.

MANMAN. O‘zini katta tutadigan, bosar-tusarini bilmay qolgan; takabbur. *Manman odam. Kamtarga —kamol, manmanga —zavol.* Maqol. — *U ilgarigi “manman” Tojiboy emas: xiylagina hovurdan tushgan va anchagina muloyimlashib qolgan edi.* P.Tursun, O‘qituvchi. [O‘TIL,2022, III, 97]

KALANDIMOG‘ – [kibr-havosi baland, takabbur; *ayn.* Katta kalla] O‘zini juda yuqori tutadigan va shunday muomalada bo‘ladigan; dimog‘i baland. *Gap kamtarlik haqida borar ekan, ko‘z o‘ngimda ajoyib fazilatli kishilar, shu bilan birga, gerdaygan, mag‘rur, kalondimog‘ ba’zi kimsalar jonlanadi.* Gazetadan. *Kenjaga dastlab muommasi dag‘alroq, o‘zi **kalondimog‘** ko‘ringan bu kishi suhbat oxirida g‘oyat ta’bi nozik bir shinavanda bo‘lib chiqdi.* H. Nazir, Mayoq sari. *U [qorovul] kotibning kalondimog‘ odam ekanligini juda hurmat qilardi.* N.Eshonqul, Yalpiz hidi. [O‘TIL,2022, II, 724]

Kattazang, kekkeygan, manman, kalandimog‘ so‘zlarida shaxslarning o‘zini boshqalardan yuqori tutish ottenkasi yuqori darajada mavjud.

Bu *“*ʒejnähli*”* va **“*kättäzäŋ*”** so‘zlar, asosan, shaxslarning xususiyatlarini ifodalash uchun qo‘llaniladi.

“ʒotallï***”*** so‘zi shevada “uddaburon, abjir, chaqqon” shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Bu so‘zning izohli va sheva lug‘atlarida izohi mavjud emas, shuning uchun biz ushbu shevadagi mazmuniga qarab uning sinonimlarini keltirib, qiyoslab olamiz va oxirida umumlashtirib, bu so‘zga izoh keltiramiz. ***“***ʒotallï***”*** so‘zi ***uddaburon, ustomon, gapga chechan, chaqqon, abjir*** so‘zlari bilan ma‘nodoshlik hosil qiladi. Har bir ma’nodosh so‘zlarimizni birma-bir izohlab, aynan mana shu so‘zga sinonim bo‘la oladimi yoki qaysidir ma’no nozikligi bilangina sinonim bo‘ladimi yoki sinonim bo‘la olmaydimi – mana shularni tahlil qilamiz.

UDDABURO(N) — har ishni udda qila oladigan, eplay oladigan; epchil, abjir, tadbirkor. *Homidxo‘ja Mirvalining **uddaburo** bola ekanini yaxshi bilardi (S. Ahmad, Saylanma* [O‘TIL,2022, V, 554]. Uddaburon so‘zi ishning uddasidan chiqadigan, epchil shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Ushbu xususiyatga ega shaxslar biron faoliyatni qiyinchiliklarsiz tezda amalga oshirishga harakat qiladi. Bu so‘z ***“***ʒotallï***”*** so‘zining aynan ma’nosini beradi va og‘zaki nutqda bemalol biri o‘rnida boshqasini qo‘llashimiz mumkin.

Shevada ***häŋämä, häläkäti joq, dïmäylarïz*** čäγma***,*** ʒotallï***, qumïr*** kabi tahlilga tortilishi zarur bo‘lgan so‘zlar mavjud. Bu so‘zlarni keyingi tadqiqotlarimizda davom ettiramiz. **ABJIR —** Oyoq-qo‘li tez, tez harakat qila oladigan; epchil, chaqqon. Abjir bola, *Yo‘lchiboy… barvastaligiga qaramasdan **abjirgina** yigit.* Oybek, “Tanlangan asarlar” . *Otamdan yoshi katta bo‘lsa ham, lekin o‘zi **abjir**, g‘o‘labir kishi edi.* M. Ismoiliy, “Bizning roman” [O‘TIL,2022, I, 37] .

Shevada ***abjir*** so‘zi ***“***ʒotallï***”*** so‘zi bilan parallel ravishda, fonetik o‘zgargan holatda ***abjir-abjil*** shaklida foydalaniladi.

ʒotallï ***jigit –*** äbʒil ***jigit.***

CHAQQON — 1 *sft.* Epchillik bilan harakat qiladigan; chapdast. *Burgut – ancha yirik,* ***chaqqon*** *va kuchli qush*. “Fan va turmush” . *Qo‘shnisining* ***chaqqon*** *qizini ko‘z ostiga olib qo‘ygan edi.* “Yoshlik” .

2 *rvsh.* Tez, epchillik bilan. *U* ***chaqqon*** *kiyina boshladi.* “Yoshlik” . *Qizil chuvaklari bilan yumshoq bosib,* ***chaqqon*** *yelib xizmat qilmasa, o‘zini qayoqqa qo‘yishni bilmay qoladi.* A. Muxtor, “Davr mening taqdirimda” [O‘TIL,2022, VI, 737-738] .

Chaqqon so‘zining har ikkala ma’nosi ham ***“ǯotalli”*** so‘ziga ma’nodosh bo‘la oladi. Chaqqon so‘zi shevada **“čaqqan”** tarzida talaffuz qilinadi

Bundan tashqari shevada ushbu so‘zning rus tilidagi “шустрый” varianti ham parallel ravishda keng qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev, S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
3. Поливанов Е.Д. Вокализм говора города Самарқанд // Доклады АН. СССР, – М, 1928. №14.
4. Х.Дониёров. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. –Т. 1979.
5. М.Валиев. Ўзбек тилининг Найман шеваси. С.1963.
6. Н.Ражабов. Ўзбек тилининг ғарбий Самарқанд шевалари. С.1977.
7. В.Эгамов. Самарқанд областининг Ғаллаорол шеваси. С.1954.
8. З Тиллаева. Самарқанд шаҳри ўзбек шеваларининг лексик хусусиятлари. – С., 2023. Б.111
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T., 2022, I jild.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T., 2022, II jild.
11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T., 2022, III jild.
12. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T., 2022, IV jild.
13. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T., 2022, V jild.
14. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T., 2022, VI jild.

Dilorom ZAKIROVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Xorijiy tillarni o‘qitish kafedrasi, katta o‘qituvchisi



RUHIY HOLATNING TILDAGI IFODASIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotasiya:inson ruhiy holatining tilda ifodalanilishi o‘rganish, hamda unga ta’sir etuvchi omillarni tasniflash xozirgi kunga qadar tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri sifatida o‘rganilib kelinmoqda. Lingvistikada inson ruhiy holatining tildagi o‘lchovi ko‘plab olimlarni qiziqtirgan, buning sababi esa ruhiy holatni ifoda etuvchi so‘zlar aniq ta’rifga va ularning birlashtirilgan klassifikatsiyasiga ega emaslik, turli tillarda emotsional ma’nolarni ifodalash muammolari (bu masala ayniqsa chet tillarini o‘rganishda dolzarbdir) bilan bog‘liqdir.

Kalit so‘zlar: *til, ta’lim, semantik kategoriya, ruhiy jarayon, tahlil, lingvistika, tilshunoslik.*

Аннотация: изучение выражения психического состояния человека в языке, а также классификация факторов, влияющих на него, изучаются как одна из актуальных проблем языкознания. В лингвистике измерение психического состояния человека в языке интересует многих ученых, причина этого в том, что слова, выражающие психическое состояние, не имеют четкого определения и единой их классификации, проблемы выражения эмоциональных значений в разных языках. (этот вопрос особенно важен для изучения иностранных языков, актуален в обучении).

Ключевые слова: *язык, образование, смысловая категория, психический процесс, анализ, языкознание, языкознание.*

Annotation:the study of the expression of a person’s mental state in language, as well as the classification of factors influencing it, are studied as one of the pressing problems of linguistics. In linguistics, the measurement of a person’s mental state in language is of interest to many scientists, the reason for this is that words expressing a mental state do not have a clear definition and a unified classification, problems of expressing emotional meanings in different languages.

Key words: *language, education, semantic category, mental process, analysis, linguistics, linguistics*


B.I. Dodonovning kuzatuvlariga ko‘ra, “kundalik amaliyotda biz turli tuyg‘ularni, ruhiy holatni anglatuvchi bir

xil so‘zlardan foydalanamiz, ularning haqiqiy mohiyati faqat kontekstdan ma’lum bo‘ladi” . Shu bilan birga, bir xil holatlar turli so‘zlarda aks etishi mumkin. Yuqoridagi fikrga asoslangan holda, inson ruhiy holatining tildagi asl ifodasi bu so‘z orqali amalga oshadi deb xulosalash mumkin. Yana bir olim A. Vejbitskayaning fikricha, “ruhiy holatlarni so‘zlarsiz aniqlash mumkin emas, chunki so‘zlar ma’lum bir madaniyatga tegishli va ma’lum bir nuqtayi nazarni ifoda etadi” deb, so‘zning ruhiy holatni ifoda etishdagi rolini ko‘rsatib beradi.

Olima N. A. Bagdasarova esa ruhiy holatni turli madaniyatlar kontekstida umumiylashtirib ifoda etuvchi bir nechta so‘zlarni tavsiflaydi: “quvonch, hayrat, qiziqish, hayajon, g‘am, azob, nafrat, qo‘rquv, uyat, jirkanish, ayb” .

Ushbu so‘zlar orqali biz inson ruhiy holatini ifoda etishimiz, holatni baholashimiz mumkin.

Sigmund Freyd ham o‘z tadqiqotlarida ruhiy holatning tildagi ifodasiga ta’sir etuvchi omillarga to‘xtalib o‘tgan bo‘lib, u “tilning faqatgina aloqa vositasi emas, balki ruhiy jarayonlarni tahlil qilish va tushunish uchun kalit vazifasini bajaradi” degan fikrni ilgari surgan. U ruhiy holatlar va til o‘rtasidagi munosabatlarni tushunishda ong osti tushunchalari markaziy rol o‘ynaydi deb ta’riflaydi. Freyd ong ostini inson psixikasining eng muhim qismi deb hisoblagan, bu yerda esa turli xil xotiralar, istaklar va hissiyotlar joylashgan. Uning fikricha, bu ruhiy holatlar vaqti-vaqti bilan ongli faoliyatga, shu jumladan tilga ta’sir ko‘rsatib, xatti-harakatlarimiz va qarorlarimizga olib kelishi mumkin. Demak uning qarashlariga asoslangan holda, til orqali biz ong ostimizdagi eng chuqur va yashirin ruhiy jarayonlarga nazar solishimiz hamda shu orqali o‘zimiz va boshqalarning psixologik tuzilishini yanada yaxshiroq tushunishga erishishimiz mumkin.



Ruhiy holatlarni tasniflashning murakkabligi shundan iboratki, ular tez-tez bir-biri bilan kesishadi yoki hatto shu qadar yaqinlashadiki, ularni ajratib olish qiyin bo‘ladi. Masalan, ma’lum bir taranglik holati charchash, monotoniya, agressiya va boshqa holatlar fonida tez-tez uchraydi.Shunga qaramay, ularni tasniflashning ko‘plab variantlari mavjud.Ular odatda emotsional, kognitiv, motivatsion va ixtiyoriy holatlarga bo‘linadi. Asosiy ruhiy integratorlarning (shaxsiyat, intellekt, ong) joriy faoliyat xususiyatlarini umumlashtirishda, shaxsiyat holati, intellekt holati va ong holati atamalari ishlatiladi. Shuningdek, funksional, psixofiziologik, astenik, chegaraviy, inqirozli, gipnotik va boshqa turdagi holatlar tavsiflanadi va o‘rganiladi.

Y.V. Shcherbatykh o‘zining psixik holatlarni tasniflash usulini taklif qiladi, bu tasnif yetti doimiy va bitta vaziyatga bog‘liq komponentdan iborat: “ifodalilik darajasi, emotsional-ixtiyoriy komponent, faollashtirish darajasi, o‘z-o‘zini anglash darajasi, shaxsiyatning holati, shaxsiy yoki vaziyatga bog‘liq omillar” .

Z.X.Saidova esa o‘z tadqiqotlarida: “Ruhiy jarayonlar va shaxs xususiyatlari konseptual zonasi bo‘yicha taqsimlanishi natijasida sakkizta tematik guruhga ajratiladi: sezgilar, idrok, xotira, tasavvur, fikrlash, hissiyotlar, iroda, shaxsiy xususiyatlar. Ushbu sakkizta tematik guruhlarning har biri turli xil sohalarda: vizual(ko‘rish) sezgilar; eshitish sezgilari; hid bilish sezgilari; taktil sezgilar; ta’m bilish sezgilari; ochlik, chanqoqlik, to‘yish hissi; og‘riq hissi; charchoq hissi; kinestetik; tebranish va statik-dinamik va boshqa sezgilar kabi sohalar doirasida tahlil qilinadi” degan g‘oyani asoslab bergan.

Inson ruhiy holatining shakllanishida atrof-muhitning o‘rni katta. Voqelikning insonga ta’siri, atrof-muhit bilan

insonning munosabatga kirishishi oqibatida ruhiy holat va uning ifodalanishi hosil bo‘ladi. Ob-havo sharoiti, kishilar bilan muloqot, iqtisodiy ahvol kabilar mana shular jumlasiga kiradi.Muayyan obyektni aks ettiruvchi sinonimlarning ekspressiv bo‘yoqdor¬likka ega bo‘lishini inson ruhiy holati bilan bog‘lash mumkin. Masalan, o‘zbek tilida insonning yuz qismini aks ettiruvchi bir necha sinonimlar mavjud: chehra, ruxsor, yuz, aft, bashara, turq.

Bular ichida “chehra” va “ruxsor” so‘zlari ekspressiv bo‘yoqdorligiga ko‘ra ijobiy ma’noni anglatadi va subyektning obyekt tashqi ko‘rinishi haqidagi ijobiy taassurotini bildiradi. Tashqi go‘zallik avvalambor ayol ko‘rinishi bilan bog‘liq holda belgilanganligi uchun ham bu so‘zlar asosida asosan ayollar ismi yasaladi: “Ruxsora”, “Gulruxsor”, “Gulchehra”.

“Aft”, “bashara”, “turq” so‘zlari ularni qo‘llovchi kishilarning obyekt tashqi ko‘rinishidan noroziligi va bundan hosil bo‘lgan kayfiyatining yomonligini ko‘rsatadi. Bu birliklar subyekt tomonidan obyektning salbiy baholanishiga asoslanadi.

“Yuz” va “bet” so‘zlari neytral ifoda ekanligi bilan ajralib turadi. Shu sababli ular subyekt ruhiy holatini aniq tarzda ifodalamasligi mumkin. Lekin bu so‘zlar ham boshqa so‘zlar bilan sintagmatik munosabatda ruhiy holat ifodasiga xizmat qilishi mumkin. O‘zbek xalq qarg‘ishlarida uchraydigan “Beting qursin” iborasi sintaktik qurshov tarkibida ruhiy holat ifodasi uchun xizmat qiladi.

Ingliz tilida ushbu omilga asoslangan jumlalar tez-tez uchrab turadi. Misol tariqasida “My chronic pain makes it difficult to enjoy things I love” (Doimiy og‘riqlarim sevgan narsalarimdan zavq olishimni qiyinlashtiradi) misolini olsak, bu yerda doimiy jismoniy og‘riqlar insonning umumiy ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ko‘rsatilgan. “Chronic pain” (doimiy og‘riq) iborasi uzoq muddat davom etuvchi, davolanmaydigan va muntazam his qilinadigan og‘riqni anglatadi. Bu so‘z turmush sifatiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatishini bildiradi. “Difficult to enjoy” (zavq olish qiyin) iborasi esa doimiy og‘riqlar tufayli odamning sevimli mashg‘ulotlaridan zavq olish qobiliyatining pasayganini ko‘rsatadi.

O‘zbeklar nutqida kishining jismoniy holatini aks ettiruvchi turli jumlalar qo‘llanadi. Jumladan, “A’zoyi badanim zirqirab og‘ridi”, “Hamma yog‘im sirqirab og‘riyapti”, “Oyog‘im simillab og‘riyapti”, “Boshim lo‘qillab og‘riyapti” kabilar betoblikni ifoda etadi. Nutqda mazkur gaplarning birinchi shaxs birlikdagi shaxs tomonidan berilishi bejiz emas. Chunki ular faqat shu grammatik shakldagina o‘sha shaxsning fiziologik holati bilan bog‘liq ichki ruhiy holatini aks ettira oladi. Bir shaxs o‘zga shaxsda kechayotgan og‘riq hissini yuqorida keltirilgan gaplarga mos tarzda ikkinchi yoki uchinchi shaxs nomidan (“A’zoi badaningiz chirqirab og‘ridi”, “Hamma yog‘i sirqirayapti” tarzida) gapira olmaydi.

XX asr boshlarida tilshunoslikda “Til qanday qurilishga ega?” degan savol kun tartibiga qo‘yilgan bo‘lsa (bunda asosiy e’tibor tilning struktural qurilishiga qaratildi), asr so‘ngiga kelib “Til nutqda qanday voqelanadi?” degan savolga javob topish muhimroq bo‘lib qoldi. Ya’ni tilning grammatik qurilishini nazariy jihatdan o‘rganishdan ko‘ra, amaliy jihat – tilning nutqda qanday voqelanishi, unda inson omili muammosini o‘rganish muhimroq bo‘lib qoldi.

Xulosa.Hozirgi vaqtga kelib, tilshunoslikda til va nutq hodisalarini o‘rganishga qaratilgan turli yo‘nalish va maktablar shakllangan. Albatta, bu sohada faqat biror bir yo‘nalish g‘oyalariga asoslanish to‘g‘ri yo‘l emas. Tahlil jarayonida har bir yondashuvni hisobga olib, boshqalari bilan sintezlashtirish lozim. Chunki har bir yondashuv o‘rganilayotgan obyektning muayyan bir tomonini ko‘rsatib beradi, ammo yagona yoki oxirgi xulosa bo‘la olmaydi. Shunday ekan, til hodisalarini o‘rganishda yondashuvlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, tadqiqot natijalari shunchalik samarali bo‘lishi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. –T.: Fan.

2. Xaratova, S. K. GLOBAL TRANSFORMATSIYADA MASOFAVIY TA’LIMNING RIVOJLANISH TENDENTLARI. Sharq uyg‘onishi: Innovatsion, ta’lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar, 1(10),2021. 353-362.

3. Mamatov A.E. "O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi". –T.,1997.37-b.

4. Yo‘ldoshev B."Frazeologik uslubiyat asoslari" –SamarqandDU., 1999.86-b.

5. Xaratova, S. K. (2021). O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY FAOLIYATNI TASHKILOTISHNING STRATEGIK MASALLARI. Ta'lim fanlari bo‘yicha akademik tadqiqotlar, 2(11), 313-320. 7. Narimonova Z. Frazeologik iboralarning tarjimasi haqida. –T.:O‘zMU to‘plami.2007

6. Haydarov A., Jo‘raqulova G. Frazeologik iboralar tarjimasi xususida. Tilning leksik-semnatik va qiyosiy tipologik izlanishlar: sinxroniya, dioxroniya materiallar to‘plami. –T.: Muharrir, 2012.10-13-b.

7. Kharatova, S. K., & Ismailov, T. X. O. G. L. (2022). Use of innovative technologies in the educational process. Science and Education, 3(3), 713-718. 10. Niyazmetova D.



Sanobar TURSUNOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti

MUROD MANSUR IJODIDA QUR’ONI KARIM OYATLARIDAN FOYDALANISHI

Annotatsiya: shariatda ilm, amal va ixlos asosdir. Allohning ilmi, amal–Alloh yo‘lidagi solih va ezgu ishlar, ixlos–Allohning yakka-yu yagonaligiga iymon keltirish, uning roziligini qozonishdir. Muallif kerakli o‘rinda muhokama, isbot-dalil bilan kerakli joyda nasihat, o‘git bilan asardagi muddaoni oydinlashtirgan. Murod Mansur islom dinini yuksak ma’rifat va pok axloq dini deb ataydi. Yuksak ma’rifat, pok axloq bu ikkalasi qo‘shilsa inson martabalari oshaveradi…ham bu dunyoda, ham u dunyoda aziz bo‘ladi. “Islom bir qo‘lida moddani, ikkinchi qo‘lida ma’noni, bir qo‘lida dunyoni, ikkinchisida oxiratni, bir qo‘lida ilm va aql, boshqasida qalb va Haqqa bog‘liqlikni tutib turadi”, deb yozadi muallif. Murod Mansur asarlarida insoniylik vazifalari, odob mas’uliyati, ya’ni va’dani bajarish, muomala madaniyati, shayxlar suhbatidan bahramand bo‘lish, ulardan keladigan ma’naviy-ruhiy yaqinlik insonni o‘ziga xos muhabbatga chorlaydi. Asarni o‘qiyotganingizda yana qimmatli ma’lumotlarning guvohi bo‘lasiz.

Kalit so‘zlar: *Qur’oni karim, hadis, islom dini, insoniylik, odob-axloq, tavba.*

Аннотация: знания, действия и искренность – основа шариата. Познание Бога, праведность и добрые дела на пути Божием, искренность – это верить в единство Бога и снискать Его одобрение. Автор уточняет содержание работы с обсуждением в нужном месте, советами в нужном месте с доказательствами и доказательствами. Мурад Мансур называет ислам религией высокого просвещения и чистой нравственности. Если эти две вещи сочетаются с высокой просвещенностью и чистой нравственностью, карьера человека повысится... его будут почитать и в этом мире, и в следующем. «Ислам держит суть в одной руке, смысл — в другой, мир — в одной руке, будущую жизнь — в другой, знание и интеллект в одной руке, а сердце и привязанность к Истине — в другой», — пишет автор. В произведениях Мурада Мансура обязанности гуманности, ответственность этикета, то есть выполнения обещаний, культура поведения, наслаждение беседой шейхов, духовная и духовная близость, исходящая от них, приглашают человека к особая любовь. Читая произведение, вы станете свидетелем более ценной информации.

Ключевые слова: *Священный Коран, хадисы, исламская религия, гуманность, мораль, покаяние.*

Annotation: knowledge, action and sincerity are the basis of Sharia. The knowledge of God, righteous and good deeds in the way of God, sincerity is to believe in the oneness of God and to gain His approval. The author clarifies the content of the work with discussion at the right place, advice at the right place with proof and evidence. Murad Mansur calls Islam the religion of high enlightenment and pure morality. If these two things are combined with high enlightenment and pure morals, a person’s career will increase...he will be honored both in this world and in the next. “Islam holds the substance in one hand, the meaning in the other hand, the world in one hand, the hereafter in the other, knowledge and intellect in one hand, and the heart and attachment to the Truth in the other,” writes the author. In the works of Murad Mansur, the duties of humanity, the responsibility of etiquette, that is, the fulfillment of promises, the culture of behavior, enjoying the conversation of sheikhs, the spiritual and spiritual closeness that comes from them, invites a person to a special love. As you read the work, you will witness more valuable information.

Key words: *Holy Qur’an, hadith, Islamic religion, humanity, morality, repentance.*

Yozuvchi Murod Mansur asarlarida, tarixiy dalillar hayotdagi ibratli hikmatlar, rivoyatlar orqali o‘zining g‘oyalarini ilgari suradi. Ma’lum bir ma’naviy maqsadni yoritishda asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Bilamizki, badiiy asarlarda, she’rlarda yozuvchi asar g‘oyasini to‘laqonli ochib berish maqsadida Qur’oni karim oyatlari, hadislardan foydalanishi an’anaga aylangan. Ba’zi asarlarda Qur’oni karim oyatlari va hadislardan keltirilishini kuzatamiz. Masalan, Alisher Navoiyning diniy-tasavvufiy asarlaridan “Arba’in” (Qirq hadis)– hadislarning she’riy tarjimasi bo‘lib, 886-yili yaratilgan. Yozuvchi asarida, payg‘ambarimiz (s.a.v.) ning hadislarini arab tilida beradi. Yana “Siroj ul-muslimin” (Musulmonlar nuri) asari sof diniy yo‘nalishda bo‘lib, islom dini ahkomlarini yoritishga bag‘ishlangan. “Saddi Iskandariy” dostonining birinchi bobi hamd – Allohning sifatlari tarixiga bag‘ishlangan hamda 3-bobi ham payg‘ambarlar ulug‘i rasuli akram vasfi haqida yoritib beradi. Shoh va shoirimiz Zahiriddin Muhammad Bobur ham “Mubayyan” asarida sog‘lom islomiy aqiyda – Ahli sunnat val-jamoat aqoidi va islom dini ruknlari fiqhiy masalalari ravshan bayon qilingan.

Bundan tashqari Mustaqillik davri yozuvchilaridan Tohir Malik “Odamiylik mulki” asarida ham Qur’oni karim sura

va oyatlaridan mohirona foydalangan. Bu orqali ijodkor asarning umumiy g‘oyasini o‘quvchiga yetkazishga harakat qilgan. Murod Mansurning “Judolik diyori” romanida ham epigraf sifatida asar boshida “Allohning bo‘yog‘ini (lozim tuting), Allohning bo‘yogidan chiroylirоq bo‘yoq berguvchi kim bor?! Va biz unga ibodat qiluvchilarmiz (Qur’oni karim, 2/138)” keltirilgan.

Ushbu kitobda epigraf qilib keltirilgan oyatning botiniy ma’nosi asar mazmuni bilan evrilib,voqealar silsilasiga chambarchas bog‘lanib, uning ruhiyatiga singib ketadi. “Allohning “bo‘yog‘i” ga (diniga kiringiz!) Allohnikidan yaxshiroq “bo‘yoq” (din) bormi?! Biz Ungagina sig‘inuvchilarmiz. (Qur’oni Karim, 2/138)”

Shayx Abdulaziz Mansur hazratlarining Qur’oni karim tafsirining izohida ushbu oyat shunday sharhlanadi:

“Nasroniylar yangi tug‘ilgan farzandini maxsus sariq suvga botirib oladilar va bu marosimni “ma’mudiya” – cho‘qintirish deb ataydilar. Ularning e’tiqodiga ko‘ra shundan keyin bola haqiqiy nasroniy sanaladi. Oyatdagi bo‘yoq o‘sha oyatga muqobil ravishda din yoki imon ma’nosidadir”[1]

Oyatda keltirilgan Allohning bo‘yog‘i – uning dinini lozim tutish: taqvo, din, iymon uchun kurashdir. Bu dunyoda hamma iymon bilan tug‘iladi, ammo iymon bilan hayotni tark etish barchaga ham nasib etavermaydi. Kimdir hidoyat, haq yo‘lida sobitqadam bo‘lsa, yana kimdir Allohning bo‘yog‘idan yuz o‘girib zalolatga botadi.

Asarda haq yo‘lida sobitqadam, din, iymon uchun kurashuvchan hidoyatli insonlar va ularga zid bo‘lgan zalolat botqog‘iga botgan zolim kimsalar borki, ularning hayoti, kechmishlari va qilmishlariga yozuvchi aynan mana shu epigraf qilib keltirilgan oyat orqali ishora qiladi, desak xato bo‘lmaydi.

Yana bir o‘rinda Imom G‘azzoliyning quyidagi hikmatli so‘zlari keltiriladi:

“Ey inson… o‘z asling nimarsadur va ne yerdin kelibsan va ne yerga borgungdur? Bu olam manzilgohiga nima ishga kelibsan va seni nima uchun ofarida qilibdur? Saodating ne ishdadur?.. ” Imom G‘azzoliydan olingan parchalarning keltirilishi hamda asarning ikkinchi kitobni yozmoqdan avval Alloh taolodan izn so‘rab qilgan iltijolari: “Avvalo: Bismillahir rohmanir rohiym” deb boshlab, “Ich-ichimdan sezib turibman, nimadir monelik qilyapti. Nima qilsam, tizginni qo‘lga olaman? Axiyri topdim! Yolg‘iz O‘zidan so‘ramoq lozim ekan. Murod doram – umidim bor, deb iltijo etsang albatta, baroyad, Yo rab – iloyo, yetgin, javobi berilgusi ekan!... Iloho, nihoyasiga adashmay oson yetmagimga O‘zing musharraflar aylagaysan. Omin ya Robbil olamiyn” [Judolik diyori 1, 5-bet] deb, so‘ng asarning davomini yozishga kirishganligi, yana ikkinchi kitobni bitmoqlikka Ramazoni Sharif kunlarida ixtiyor etganligi bunga yaqqol misol bo‘ladi. Romanni o‘qish jarayonida “Subhanolloh”, “Astag‘firulloh”, “La ilaha illolloh”, “Alhamdulillah” kalimalariga duch kelamiz. Yozuvchi “Judolik diyori” asarida Alloh taologa, Uning borligiga, oxirat kuniga, farishtalarga, kitobga iymon keltirish haqida hamda qarindoshlarga yaxshilik qilish, miskinlarga yaxshilik qilish haqidagi duolarni, nasihatlarni Nusrat pochcha obrazi orqali namoyon etadi. U asarda Qur’on ilmini yaxshi bilgan domla, xudojo‘y kishi sifatida gavdalanadi: “Tepa masjiddan azon tovushi eshitilib, o‘tirgan yerimizda jim qoldik. Pochcha xumdek boshlarini solintirib, ora-sira pichirlab qo‘yar edilar: sollallohu alayhi vasallam… La havla vala quvvata illa billohil aliyil aziym… moshaolloh, moshaolloh… So‘ng uzoq duo o‘qidilar-da, kosani sal surib, o‘rinlaridan qo‘zg‘aldilar: – Men machitga chiqib kelaqolay, ovqatni keyin icharman, – deb tashqari yo‘naldilar”[Birinchi kitob,208].

“Xorijda qolib ketgan qarindoshlarimiz… mujda yo‘llashibdi. Pochcha hovliqib qoldilar.

-Subhanalloh! Kim ekan? Sultonmurodmi?

-Yo‘q, Bahriddin? akam.”

-Astag‘firulloh! Qaysi Bahriddin? Mukarram pochchaning…

-Ha-ha, Asol xolamning yolg‘iz dilbandlari…

-U axir…

-Yo‘q, o‘lganiyam bekor ekan, qora xatiyam, pochcha.

-Yo Qodir Olloh! La havla va la quvvata… [Birinchi kitob, 371].

Yozuvchi bu bilan asar qahramoni Bahriddinning qaytishiga, qiyin vaziyatga tushganida ushbu kalimani aytish mustahab ekanligini ochiq bayon etgan.

Darhaqiqat, “La havla va la quvvata illa billahi” kalimasi gunohlar kechirilishiga sabab bo‘luvchi, dard, balo-ofatlardan xalos bo‘lish kalimasidir. Rasulullo (s.a.v.) sahobalari “La havla va la quvvata illa billahi” ila mushkullar yechilishini va balo-ofat daf bo‘lishini o‘z tajribalarida sinab ko‘rgan.

Yozuvchi asarda ko‘p o‘rinlarda qahramonlarning iltijolarini, duo qilib istig‘for aytishlarini ta’kidlaydi. Qur’oni Karimdagi sura va oyatlar insonni fikr yuritishga, Allohga iymon keltirishga, tavba qilishiga undaydi: “Astag‘firulloh, allazi-mallazi, la ilaha illa huval hayyul qayyumu va atubu ilayhi”, deb istig‘for aytib, sajdaga bosh qo‘ydim-u tavallo eta ketdim: “Ya Robbim – Alloh, hammasidan O‘zing voqifsan, O‘zing ko‘rib, bilib turibsan: zimmamga qanday yumushlar yuklanmish. Rozilik berib to‘g‘ri qildimmi, adashdimmi, hikmatini bilguvchi yolg‘iz O‘zingsan. Agar yaxshilikka yo‘ysang – yo‘limni och, mushkulimni oson et. Agar nafsimni so‘zlariga kirib adashgan bo‘lsam, bandaman, O‘zing kechir. Kechir-da balo-qazolardan, yomonliklardan o‘zing asra. Hidoyatingni darig‘ tutma, ojiz bandangman. Ne qilay qaytar yo‘llarim berkilgan. O‘zing najot ber” [Ikkinchi kitob,33].Yoki boshqa o‘rinda: “Allohumma inniy au’zu bika min va’saka safara va kabatil munqalab va suil munzili val ahli val valadi”. Ma’nosi budir: “Ey bor Xudoyo, safar xatarlaridan saqla, qaytib kelishda mol, jon yoki oila ichida ko‘ngilsiz ishlar ustidan chiqishdan asra”

1 Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. Тошкент. 2001-йил, 21-бет.

[Ikkinchi kitob,86] deb ta’kidlaydi. Shu o‘rinda asarda keltirilgan yana bir oyati karimaga, ya’ni Fajr surasining 27-28-oyatiga e’tibor qaratsak: “Yaa ayyatuxannafsul mutumainnah! Irrujii ilaa robbiki roziyatammaruziyax. Fad xulii fii ibaadii vad xulii jannatii. Ma’nosi bunday edi: “Ey qaror va orom topgan jon. Qaytgil Parvardigoring tarafiga rozi bo‘lingan holda. Va dohil bo‘l bandalarim oralariga va dohil bo‘l jannatimga”. [Ikkinchi kitob,301].

Taniqli yozuvchi Qur’oni karim va hadis kalimalarini asarda juda chiroyli jamlagan. Va buni aql egalari yaxshi biladilar. Albatta, daryo o‘z o‘zanidan ayrilmaydi. Yuqorida aytilgan fikrlar, san’atlarning ta’bir, istiloh va lafzlarining ko‘pchiligi bilan tasavvuf ilmi ham juda go‘zal bir reja, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, milliy, ilmiy va amaliy sabablar o‘rtaga chiqqan. Biz Murod Mansurning “Judolik diyori” asari asosida bayon qilingan ko‘p qirrali mavzulardan ayrimlarini baholi qudrat tahlil qilishga jazm etdik. Undan har bir kishi o‘z bilimi saviyasi va e’tiboriga yarasha bahramand bo‘ladi. Kichik bir maqolamizda ko‘p gap aytish amri mahol. Shunday bo‘lsa ham dengizdan bir tomchidek Murod Mansurning ayrim fikr-qarashlarini sharhlab, munosabat bildirib, yoshlarga ibratli jihatlarini ko‘rsata olsak, o‘zimizni baxtiyor deb hisoblaymiz .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдулазиз Мансур. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Тошкент. 2001-йил, 21-б.
2. Мурод Мансур. Жудолик диёри.Биринчи китоб. –Т.: “Шарқ”, 2007.384- б.
3. Мурод Мансур. Жудолик диёри.Иккинчи китоб. – Т.: “Шарқ”, 2007. 317- б.
4. Мурод Мансур. Жудолик диёри.Учинчи китоб. – Т.: “Шарқ”, 2006. 384- б.
5. Мурод Мансур. Жудолик диёри.Тўртинчи китоб. – Т.: “Шарқ”, 2014.495- б.
6. Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Иймон. – Т.: “Hilol-Nashr”, 2021.368-б.
7. Тоҳир Малик. Одамийлик мулки туркумидан/Маърифий рисола. – Тошкент: “Sano-standart”, 2017 йил. 336-б.
8. Yusupova Dilnavoz. Adabiyot: universal qo‘llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2020. 672-b.
9. Заҳируддин Муҳаммад Бобур. Мубайян ва насрий баёни, “Рисолаи Волидиййа” асари назмий таржимаси ва шарҳи. Насрий баён ва шарҳлар муаллифи М. Кенжабек; – Т.: ”SHARQ” 2014. 448- б.

Dilnoza URALOVA,
FarDu 2-kurs tayanch doktoranti
uralova.dilnoza1992@gmail.com

ULUG‘BEK HAMDAM HIKOYALARIDA TUSH MOTIVI

Annotatsiya:hozirgi davr nasrida badiiy tafakkur tadriji davomida tush motivining adabiyotimizda keng qo‘llanilishi asar mohiyatini belgilashda muhim unsurlardan biri sifatida qo‘llanib kelinmoqda. Hozirgi kunda ham nasr, ham nazmda birdek qalam tebratib kelayotgan ijodkorlarimizdan, Uug‘bek Hamdam, ijodida ham tush motivi keng qamrovni tashkil etadi. “Vatan haqida qo‘shiq” to‘plamiga kiritilgan o‘n ikki hikoyaning oltitasi tush-hikoyalar hisoblanadi. Jumladan, “Tosh”, “Unutilgan nay navosi”, “Ko‘nglimdagi daryo”, “Ko‘zini ochib-yumgan odam”, “Bir piyola suv”, “Lola” hikoyalari tush bitiklar hisoblanadi.

Kalit so‘zlar:*tush, voqea, hikoya, monolog, peyzaj, psixologik timsol, ramz, dialektika, parallelizm, motiv.*

Аннотация:широкое употребление мотива сновидения в нашей литературе в период развития художественного мышления в прозе текущего периода используется как один из важных элементов в определении сущности произведения. Улугбек Хамдам, один из наших творцов, пишущий в настоящее время как прозу, так и стихи, имеет в своем творчестве широкий спектр мотивов снов. Шесть из двенадцати рассказов, вошедших в сборник “Песня о Родине”, являются рассказами-мечтами. В частности, рассказы “Камень”, “Забытая трубка навоси”, “Река в моем сердце”, “Человек с закрытыми глазами”, “Чашка воды”, “Тюльпан” являются депрессивными историями.

Ключевые слова: *сон, событие, рассказ, монолог, пейзаж, психологический символ, символ, диалектика, параллелизм, мотив.*

Annotation:the widespread use of the dream motif in our literature during the development of artistic thinking in the prose of the current period is used as one of the important elements in determining the essence of the work. Uugbek Hamdam, one of our creators who is currently writing both prose and poetry, has a wide range of dream motifs in his work. Six of the twelve stories included in the collection “Song of the Motherland” are dream stories. In particular, the stories “Stone”, “Forgotten pipe navosi”, “River in my heart”, “A man with his eyes closed”, “A cup of water”, and “Tulip”are depressing stories.

Key words: *dream, event, story, monologue, landscape, psychological symbol, symbol, dialectic, parallelism, motive.*

Kirish. Insoniyat paydo bo‘lgandan buyon tush unga hamroh. Ibtidoiy tuzum davridan to hozirgi davrgacha ifodalanayotgan tushlar timsoliy til hisoblangan. XX asrga kelib tushlarga bo‘lgan munosabat o‘zgardi. Avstriya vrach-psixiatri, psixolog, psixoanaliz asoschisi – Z.Freydning izlanishlari tush motivining ochilishiga sabab bo‘ldi. Erix Fromm “Unutilgan qalb” asarida tushni ramziy til deb atagan. “Ramziy til – insonning ichki kechinmalari, hissiyotlari va fikrlari, tashqi olamdagi voqea-hodisalarni sezgi orqali qabul qilish va ifodalash shaklidir. Bu til biz yashayotgan olamdagi zamon va makon qonunlariga mantiqan to‘g‘ri kelmaydi”[1;12]. Tush – uyqudagi ongimizning holati hisoblanadi. Talmud (iudaizmda muqaddas hisoblangan ko‘p jildlik diniy yozuvlar to‘plami) da tush haqida shunday deyilgan: “Mohiyati tushunarsiz bo‘lgan tush ochib o‘qilmagan maktubga o‘xshaydi”, Emersonning: “Tush o‘zining ochiq-oydinligi bilan bizni cho‘chitib qo‘yadi va har qanday istagimiz voqelikka aylanishga shoshiladi. Tajribali odam o‘zligini anglash uchun uni tushunishga intiladi, to‘la tushunmasa ham mohiyatini payqab qoladi”. Tush haqidagi nazariyalar Z.Freyd tomonidan fanda o‘rganilgach, badiiy adabiyotda ham o‘z aksini topa boshladi.

Ma’lumki, 1960-yillardan dunyo virtuallashdi. Inson yaratgan ato qilgan ilm bilan mislsiz kashfiyotlar: robotlar, klonlar yaratish qobiliyatiga ega bo‘ldi. Insoniyatning sun’iylikka moyilligi orta boshladi, tabiiylik o‘z mohiyatini barcha jabhada yo‘qota boshladi, natijada insonlarda hayratlanish, tabiat in’om etgan yaratiqlarga taffakkur qilish susaya boshladi, insonlarda hayratning kamayishi ko‘rayotgan tushlarining mohiyatiga e’tibor bermaslikni keltirib chiqardi. Intellekt har jabhada rivojlangani bilan inson o‘zini yakkalash prinsipiga o‘ta boshladi. Inson murakkab yaratiq, fenomen bo‘lib uni haligacha hech kim to‘liq o‘rgana olmaganligini hisobga olsak, botini ham xuddi shunday: uning his-tuyg‘ulari, o‘y-xayollarining chegarasi yo‘q, shu sababli ongsiz holatda kechadigan tushlarning ham mohiyatiga hali-hanuz to‘liq yetib borilmagan.Tush motivi makon-zamon tanlamasligi ijodkorlarning anglatmoqchi bo‘lgan badiiy g‘oyani keng qamrovda ifodalash imkonini beradi.

Asosiy qism. Qur’oniy qissalarga nazar tashlasak, unda tush motividan ilohiy hikmatni insoniyatga yetkazishda foydalanilganligining guvohi bo‘lamiz. Xususan, bir necha qissalarda tush yordamida halokatlardan, turli xil balolardan ogohlikka da’vat etilgan. Tush Yaratganning insoniyatga ato etgan ilohiy ne’matlaridan sanaladi. Qur’oni Karimda “Yusuf” surasida keltirilgan voqealarni tush motivi bilan izohlanadi va tushning ilohiy yaratiqlardan biri ekanligi ayonlashadi. Adabiyotshunos olima Umida Rasulova: Ilohiy hikmatning tushdagi ta’vili bu motivning sinoatga tahayyuliy mezonda yondashishga imkon yaratganidan darak beradi”[2;249]. Aynan tush motivi bilan bog‘liq suralarda qavm taqdiriga tush orqali ishoralar berilganligi tushning ahamiyatini belgilaydi.

Hozirgi kunda ham nasr, ham nazmda birdek qalam tebratib kelayotgan ijodkorlarimizdan, Uug‘bek Hamdam, ijodida ham tush motivi keng qamrovni tashkil etadi. “Vatan haqida qo‘shiq”, “Yaxshiyam, sen borsan”, “To‘lin oy qissasi” asarlarida ijodkorning qalamining qayrog‘i hisoblanmish hikoyalari keng o‘rin egallagan. Yozuvchi ham ilk ijodiy mashqlarini aynan hozirjavob janrdan boshlagan. “Yaxshiyam, sen borsan” kitobiga so‘ngso‘z yozgan olim X.Do‘stmuhammad hikoya janri haqida fikr bildiradi: “Hikoya – tabiatan ixcham janr, fe’li, peshonasiga bitilgan qismat shu, aslida”[3:227]. Yozuvchining o‘nga yaqin hikoyalari rus tiliga tarjima qilingan, “Tosh” hikoyasining adabiyotshunos olima Zulxumor Mirzayeva tomonidan Amerikadagi e’tirofi ijodkorning bu janrga katta badiiy g‘oya yuklaganligidan darak beradi. Xususan, xorij olimlarining tadqiqotlari: Michigan universiteti muallimasi Reychel Xarel va Kolumbiya universiteti o‘qituvchisi Richal Narrid tadqiqotlari Ulug‘bek Hamdamning yozuvchi sifatida o‘zbek adabiyoti, umuman, adabiyot rivojiga qo‘shgan hissasi ilmiy tadqiq etiladi. Ijodkorning hikoyalari mazmunan an’anaviy-realistik, xayoliy-romantik, so‘fiyona ilohiy mazmunni tashkil etsa-da, katta qismini tush motiviga yo‘g‘rilgan modern hikoyalar egallaydi. Yozuvchi hikoyalarida qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy dunyosining tasvirini chizishda tushning keng imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanilgan. Har bir hikoya syujetida tush motivining alohida poetik vazifasi bor. Jahon adiblari: X.Ortega-i-Gasset, V.Vulf, X.Martinson, A.Arbazino, E.P.Kustsius, M.Merri, U.Oyetti, E.Frommlarning ijodiy yutuqlari yozuvchi ijodida modern hikoyalarining paydo bo‘lishiga zamin hozirladi. “Vatan haqida qo‘shiq” to‘plamiga kiritilgan o‘n ikki hikoyaning oltitasi tush-hikoyalar hisoblanadi. Jumladan, “Tosh”, “Unutilgan nay navosi”, “Ko‘nglimdagi daryo”, “Ko‘zini ochib-yumgan odam”, “Bir piyola suv”, “Lola” hikoyalari tushbitiklar hisoblanadi. “Yaxshiyam, sen borsan” kitobiga so‘zboshi yozgan adabiyotshunos olima, professor Saodat Komilova kitobga shunday ta’rif beradi: “Badiij ijod va tush o‘rtasida mustahkam bir ko‘prik bor. Zamonaviy o‘zbek nasrida tush motividan foydalanish har doim bo‘lgan. Lekin boshdan oyoq badiiy asarni tush asosiga qurish o‘ziga xos yangilik sanaladi, o‘zbek adabiyotida birinchilardan bo‘lib zamonaviy munaqqidlar ‘snovella” deb ataydigan yangi janrga asos soldi” [4;5]. Xususan, tush hikoyalarida tasvirlangan qahramonlarning barchasi ismsiz, ularning tashqi qiyofalaridan ko‘ra ruhiy dunyosini yoritish yozuvchining ijodiy kredosini belgilaydi. Yozuvchining tush-hikoyalarida inson botinining taftishi yaqqol namoyon bo‘ladi. Zero, ijodkor hikoyalaridagi bosh tayanch nuqta – inson va uning qalbi.

Xulosa. Yozuvchining yangi asr boshida yaratgan qator hikoyalaridagi qahramon kechinmalari kuchli va rang-barang tasvirlar orqali ifodalangan. U inson botin-

ida ro‘y beradigan turli his-tuyg‘ularni tush motivi orqali adabiy qahramon botiniga ishonarli ko‘chirishni uddalagan. Bu esa “Tosh”, “Unutilgan nay navosi”, “Ko‘nglimdagi daryo”, “Ko‘zini ochib-yumgan odam”, “Bir piyola suv”, “Lola” hikoyalari tahlili misolida o’z tasdig‘ini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Фромм Э. Инсон қалби. – Т.:Ўзбекистон, 2016. −Б. 12.
2.Расулова У. Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). филол.фан.д-ри... дисс., – Т., 2021. 249 б.
3.Hamdamov. U. Yaxshiyam, sen borsan. –Toshkent: Akademnashr, 2023.−Б. 227.
4.Hamdamov. U. Yaxshiyam, sen borsan. –Toshkent: Akademnashr, 2023.−Б. 5.
5.Кенжаева П. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида қаҳрамон руҳиятини тасвирлаш тамойиллари. ф.ф.н.дисс., –Т., 2008.
6.Дўстмуҳаммедов Х. Ҳозирги ўзбек ҳикоячилигида бадиий тафаккурнинг янгиланиши. Филол.фанлари номзоди дисс. –Т.: ЎзР ФА ТАИ, 1995.
7.Каримов Ҳ. Ҳозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80-йиллар). Фил.фан.док... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 51 б. 251.
8.Rahimjonov N. Bugunning qahramoni kim?// O‘zbek tili va
9. adabiyoti. - 2001.- №6. - S. 8-12.
10.Normatov U. Tafakkur yog‘dusi. –T., 2006..

Sanobar SAYDAZIMOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
saidazimova2595@gmail.com

“GALATEPAGA QAYTISH “QISSASINING PARANORMAL TABIATI

Annotatsiya: ushbu maqolada paranormal epizod tushunchasining ilmiy istiloh sifatida qo‘llanishi va Murod Muhammad Do‘stning “Galatepaga qaytish” qissasidagi paranormal epizodlar va ularning badiiy vazifasi, ayrim obrazlarning paranormal tabiati va xurofiy qarashlari, yanglish e’tiqodlari ifodalagan ramziylik tahlilga tortilgan. Shuningdek, qissaning asl qo‘lyozma holati va tahrirlangan varianti orasidagi farqlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *paranormal epizod, jin, demonologik personaj, ijobiy, salbiy, mistika, psixologiya, rom, sotsrealistik.*

Annotation: this article examines the concept of the paranormal episode as a scientific term and analyzes the paranormal episodes in Murad Muhammad Dost’s novella “Return to Galatepa”, along with their artistic functions. The study delves into the paranormal nature of certain characters, the symbolic expression of superstitious views, and misguided beliefs. Additionally, it highlights the differences between the original manuscript and the edited version of the novella.

Key words: *paranormal episode, jinn, demonological character, positive, negative, mysticism, psychology, novel, socialist realism.*

Аннотация: в данной статье рассматривается использование понятия паранормального эпизода как научного термина и паранормальных эпизодов в рассказе Мурада Мухаммада Доста «Возвращение к Галатепе» и их художественная функция, паранормальный характер некоторых образов и суеверных взглядов, выраженный символизм. по ложным убеждениям анализируются. Также упоминаются различия между исходным рукописным состоянием рассказа и отредактированной версией.

Ключевые слова: *паранормальный эпизод, демон, демонологический персонаж, позитив, негатив, мистика, психология, ром, соцреализм.*

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida Murod Muhammad Do‘st ijodi muhim ahamiyatga ega. Uning “Qaydasan, quvonch sadosi?”, “Bir toychoqning xuni”, “Dashtu dalalarda” kabi hikoyalari, shuningdek, “Galatepaga qaytish”, “Iste’fo”, “Mustafo” qissalari va “Lolazor” romani o‘zbek nasridagi badiiy tafakkurning shakllanishi va rivojlanishida salmoqli o‘rin tutadi. Jumladan, adibning “Galatepaga qaytish” qissasi sho‘ro tuzumining so‘nggi davrlarida o‘zbek ziyolilari ongida yuz bergan ijtimoiy va psixologik o‘zgarishlarni tadqiq etish, o‘z “men”ini qidirayotgan insonning ichki kechinmalari va yozuvchining kinoyaviy uslubi nuqtayi nazaridan asar alohida ahamiyat kasb etadi. Asar

hajmi va qamrovi jihatidan romanga yaqin turadi, ammo muallif qissa deya nomlagan.

Muhammad Do‘st ijodida obrazlarning xarakter xususiyati va ulardagi ma’naviy, g‘oyaviy o‘zgarishlar muallifning shaxsiy dunyoqarashi va asarlarining rivoji bilan uzviy bog‘liqdir. Dastlab yozuvchining asarlarida istehzoga asoslangan talqinlar vaqt o‘tishi bilan jiddiy tus oldi, so‘ngra esa tobora achchiq va keskin ohangda namoyon bo‘ldi. Bu o‘zgarishlarning ildizi muallifning hayot voqeliklariga bo‘lgan ishonchi susaygani va insoniy munosabatlarning o‘ziga xos qonuniyatlarini teran anglay boshlagani bilan izohlanadi. Yozuvchi inson hayotidagi vaziyat va manfaatlarning yashirin “ssenariy”ga bo‘ysunishini sezib, bunday mexanizmning aslida yangilikdan yiroq ekanligini tushunib yetdi.Shu jarayonda u hayotdagi o‘z mavqeyini, unga berilgan rol va uning davomiyligini chuqur o‘rganishga intildi. Bu izlanishlar Muhammad Do‘stning ijodiy uslubida sezilarli burilish yasadi: jo‘n va yuzaki sotsrealistik yondashuv o‘rnini murakkab, falsafiy va tahliliy tasvirlar egalladi. Endilikda uning asarlarida “salbiy” yoki “ijobiy” deb atash mumkin bo‘lgan obrazlar o‘rniga inson ruhiyatini, shaxsiy izlanishlarni va o‘zligini anglash jarayonini aks ettiruvchi qahramonlar paydo bo‘ldi.

Qissa bosh qahramoni – Toshpo‘lat G‘aybarov, avtor ta’biri bilan aytganda “saodatmand G‘aybarov”– islomshunos olim, fan nomzodi yuqoridagi yondashuvning yorqin namunasidir.Samad G‘aybarovning ta’biricha, “shahar bir, davra bir, xullas, oradan qil o‘tmas qalin oshna edilar.” Asar haqida Rahmon Qo‘chqor quyidagi fikrlarni bildirib o‘tadi: “Qissa mana shu qalb uyining bolalik – beg‘uborlikdagi saodatli kunlari, vaqti yetib unga hayotning goh iliq, goh izg‘irin shamollarining esib kirishi, unda mehmon bo‘lgan ming turli, ming qiyofali insonlar, xona devorlarida ular qoldirgan iz va dog‘lar, qarovsizlik va e’tiborsizlik ortidan bu uyning asta-sekin ohori keta borishi, oxir-pirovardida o‘zidan beza boshlagan uy egasining uni tambalab tashlashi tarixidan hikoya qiladi.” [4]

Murod Muhammad Do‘stning “Galatepaga qaytish” qissasida paranormal epizodlar uchraydi va bu epizodlarning o‘ziga xos badiiy vazifasi, g‘oyaviy ahamiyati, ularga ishora qilingan o‘rinlarda ramziylik kasb etib, voqelikka singdirib yuboriladi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi, mifologiya, ilohiy haqiqatlar, maishiy turmush tarzida doimo duch kelinadigan g‘ayritabiiy voqealar, sirli karomatlar, mavhum hodisotlar, shuningdek, jin, ajina, iblis, shayton, oziqchi, alvasti, olabo‘ji, arvoh, pari, dev, yovuz ruhlar kabi tashqi olam kuchlari azal-azaldan badiiy adabiyotga ko‘chgan va bu tushuncha sifatida ilmiy atama bilan izohlanmagan.Yuqorida sanalgan tashqi kuchlar folklorshunoslikda demonologik personajlar deya atalagan.Bizning fikrimizcha, demonologik personaj atamasi tor ma’noda obrazlarni qamrab olgan. Shu nuqtayi nazardan badiiy asarlardagi noodatiy syujet va voqealar, g‘ayritabiiy karomatlar hamda demonologik personajlar bilan bog‘liq hodisalarni umumlashtirib “paranormal epizod” istilohini ilk bora qo‘llaymiz va zamonaviy o‘zbek nasridagi, jumladan qissalardagi talqini, tavsifi, badiiy vazifasini tahlilga tortamiz.

“Paranormal epizodlar”real hayotiy asosga ega. Zotan islom dinining muqaddas manbasi Qur’oni Karimga “Jin” surasi nozil qilingan.“Qur’oni Karim”da jinlar haqida o‘nta surada qirqqa yaqin oyat bor. Alloh taolo “Rahmon” surasida: “Insonni sopolga o‘xshash qurigan loydan yaratdi. Va jinlarni o‘t-alangadan yaratdi”, degan (14-15-oyatlar).[4:10-11-bet]. Jinlar haqiqatda bor mavjudotlar bo‘lib, asli olovdan yaratilgandir. Jin so‘zining lug‘aviy ma’nosi esa “to‘silgan”, ya’ni, odamlar ko‘zidan to‘silgan narsa. Shu sababli ham u insonlarga ko‘rinmaydi, ammo ular o‘zlari ko‘rinmay turib, bizlarni va boshqa narsalarni ko‘rishlari mumkin.

Jumladan, asar bosh qahramoni Toshpo‘lat G‘aybarov ilmiy rahbari Haykal G‘aniyevichning talab va taklifi bilan bir guruh ziyolilarga ma’ruza qilish uchun seminarga chaqiriladi. Ma’ruza dev va jinlar haqida bo‘lib, jinlarning kelib chiqish tarixini hazil tariqasida tavsiflaydi. Umuman olganda, G‘aybarov fan nomzodiga nomunosib tarzda o‘ta yuzaki va yanglish fikr bildirib, olim shaxsiyatiga mos emasdek taassurot qoldiradi. Aslida esa yozuvchi G‘aybarov tilidan bejiz jin va devlar mavzusiga to‘xtalib o‘tilmaydi. Yozuvchi Ahmad A’zam aytganidek: “G‘aybarov nutq irod qilgan majlis sahnasida muallifning materialga nisbatan tazyiqi ortgani seziladi”.[3, 114-bet].

Asarning tub mohiyati ochilib borilar ekan, jinlar ta’rifi sababsiz keltirilmagani o‘z isbotini topadi va jinlarning yaqqol inson qiyofasidagi tasvirini qissa qahramonlaridan birining qilmishlarida uchratamiz. G‘aybarov: “Qadimiy arablar xotinlarning og‘ushidan qochib chiqqan jazmanlarni jinlar edi, deb e’lon qilgan bo‘lishlari mumkin… Deylik, o‘sha badaviy er, ming xiyonatkor bo‘lsa-da, xotinini yaxshi ko‘radi. Bir tarafdan yaxshi ko‘radi, keyin turli mish-mishlar tarqalishidan qo‘rqadi. Balki shunda bechora er oson yo‘lni tutib, aybni xotin bilan jazmanning bo‘ynidan olsa-yu, qandaydir jinning ustiga ag‘darsa.” [1, 160-bet] - keltirib o‘tgan bu fikrlari bilan xiyonatkor, zamondosh insonlarga ishora seziladi. Masalan, Samadning Mazluma va Inara bilan bo‘lgan axloqsiz munosabatlarida Samad jin misolida gavdalanadi va shu epizodlar fonida Samadning xarakter xususiyati, shaxsiyati ochib beriladi. Bundan ko‘rinadiki, jin haqidagi ma’ruza o‘ziga xos ramziylik va ishoraviylik kasb etgan.“Qissadan hissa shuki, biz o‘rganayotgan afsonaviy mavjudotlar aslida unchalik ham afsonaviy

emas.Jin, dev, ajina va alvastilar, xullas, jamiki, afsonaviy mavjudotlar niqobi ostida odamlar yashirin, turfa tabiatli odamlar – yaxshi va yomon, go‘zal va xunuk, mard va nomard, aqlli va axmoq, adolatli va razolatli!.. Tasavvurdagi ilohiy dunyo va ilohiy tartibot aslida kishilik dunyosining ayni nusxasi, xolos”.[1, 149-bet]

Shuningdek, insonda paranormalikka moyillik ruhiy muvozanatning buzilishidan, iymon va e’tiqodning sustligidan paydo bo‘ladi. Adabiyotshunos olim Uzoq Jo‘raqulov ta’biri bilan aytganda: “Inson psixologiyasiga ko‘ra, umuman mistikaga moyillik tushkun ruhiyatdan, umidsizlik kayfiyatidan kelib chiqadi”.[2, 262-bet] Demak, G‘aybarov obrazida ongsiz ravishda paranormalikka moyillik bor.Shu o‘rinda shuni ta’kidlab o‘tishimiz joizki, muallif bir suhbatida “Galatepaga qaytish” qissasi haqida qiziq ma’lumotlar beradi. Murod Muhammad Do‘st aytmoqchi,“Odam Atoni yaratmoqdan avval Jabroilni zaminga yubordi. Jabroil pastga tushdi, yerdan bir kaft tuproq olib, tag‘in osmonga uchdi.Zamin uning ortidan: “Dod, bag‘rimdan uzib ketyapsan!”-deb faryod qildi.Jabroil uning nolasiga chidolmadi, quruq qaytdi. So‘ng, Xudo Mekoilni yubordi.Zamin yana dod soldi, dodiga Mekoil ham chiday olmadi.Oxirida Azroil keldi, bir siqim tuproqni olib, tepaga uchdi. Zamin uning ham ortidan faryod qildi: “Dod bag‘rimdan uzib ketding!..”[1;23-bet] deya ushbu rivoyatni misolni keltirib “Galatepaga qaytish” qissasida aynan jin liniyasi kiritilgan o‘rinlarni olib tashlanganini, asl qo‘lyozmada jin G‘aybarov bilan doimo yonma-yon yurganini, yolg‘onlar ichida asl haqiqatni jin ta’kidlab turganini, oxir-oqibatda jin G‘aybarovning taniga kirib olganini va aslida G‘aybarovning asl meni – Jin ekanligini ta’kidlaydi. Aynan asarning G‘aybarov do‘sti Abduvali bilan suhbatida: “…ko‘zimga allanima-balolar ko‘rinaveradi, goh jin, goh ajina deganday…”[1;199-bet] -deydi. Shuningdek, qissaning ayrim qismlarida va G‘aybarovning o‘z-o‘zi bilan bo‘lgan dialoglarida jin epizodining o‘rni seziladi.

Umuman olganda asarning aksar o‘rinlarida asar qahramonlarining ruhiyatida, mushkullarini oson qilishda xurofotga moyillik, paranormal holatlar ko‘zga tashlanadi. Misol sifatida ikki o‘rinda G‘aybarovning onasi bilan bog‘liq epizodlarda shunday tasvirlarni ko‘rishimiz mumkin. Yoshligida kasal bo‘lgan bolasini ona va amma birgalikda borib oq qo‘chqorni aziz avliyolarning xonaqohlariga atab so‘yishgani va qonini avliyoning mozori ustiga to‘kishgani, amma jiyanini xonaqoh devorlaridan tavof olishga majburlagani, ammaning o‘zi esa tavof qilishda “peshonasini ayamasligini” muallif kinoyaviy tarzda keltirib o‘tadi. Yoki, Raim oqsoqolning qamoqdan qaytib kelishi haqidagi xabarni ona bir devonadan eshitadi, lekin ishonmaydi.Sababi folbin kampirlarga rom ochiraverib, bechoraning yuragi qolmagan edi. Ishonishdan-da boshqa chorasi qolmagan ona devonaga o‘g‘lining og‘ziga tupurishini, devonadek vali bo‘lishini so‘raydi. “Norboy vali olti yashar bolaning og‘ziga tupurdi: “Yigirmaga kirganda Xizrni ko‘rasan bolam” [1,172-bet]-dedi. Bu kichik paranormal epizodda muallifning Xizr (a.s) ga ishorasi seziladi.Zotan, xalq orasida “mushkullarni oson qiluvchi”, “baxt-saodatga eltuvchi” sifatida ramziylik kasb etgan obraz Xizr (a.s) dir. Asarning boshqa bir o‘rnida Mulla Chori G‘aybarov bilan suhbatida Xizr alayhissalomni Hotami Toy bilan adashtirib, hikoya qilishi va bunda Mulla Chorining ilmi-yu a’moli haminqadar gumroh ekanligi tasviri bilan soxta e’tiqodli kishining qiyofasi chiziladi. Shuningdek, Mulla Soat tilidan aytilgan “Galatepada hamma ellik yoshgacha tuppa-tuzuk odam, ellikdan keyin bari ayniydi, erkagi mullalikka, urg‘ochisi folbinlikka o‘tadi”[1, 24-bet]- kabi fikrlari yuqoridagi fikrimizni dalillaydi. Demak, qissa tarkibidagi paranormal epizodlarga: G‘aybarovning ko‘ziga goh-gohida ko‘rinadigan jin obrazi, Galatepa qishlog‘ining xurofiy qarashlari va yanglish e’tiqodlari kiradi. Jin obrazining asardagi badiiy vazifasi G‘aybarovning asl “men”ini topishida, o‘z-o‘zi bilan dialoglarida ko‘rinadi. Xurofiy qarash va yanglish e’tiqodlar orqali esa qissadagi obrazlarning badiiy xarakteri va shaxsiyatini ochib berishda muhim vosita sanaladi. Jumladan turli irim-sirim, folga ishonadigan G‘aybarovning onasi, peshonasi sajdaga tegmasdan, toshga tavof etadigan amma yaqqol misol bo‘la oladi.

Xulosa qilib aytganda, Murod Muhammad Do‘stning “Galatepaga qaytish” qissasi o‘zbek nasrining badiiy va falsafiy imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqqan muhim asardir. Qissa o‘z davridagi ijtimoiy va psixologik o‘zgarishlarni, insonning ichki kechinmalari va o‘zligini anglash jarayonlarini chuqur tadqiq etadi.Bunda muallif o‘ziga xos kinoyaviy uslubi vositasida voqeliklarni ramziy obrazlar orqali ifodalab, paranormal holatlarni aks ettiradi. Asar qahramoni Toshpo‘lat G‘aybarovning asl “men”ini qidirishi, ruhiy chalkashliklari va jamiyatdagi qarama-qarshiliklarga bo‘lgan munosabati muallifning falsafiy qarashlari bilan uyg‘unlashib ketadi. Jumladan, paranormal epizodlar va jin obrazining ramziy talqini insonning ichki olamini, axloqiy munosabatlarning chegaradan chiqishini yoritishda muhim vosita sifatida ishlatiladi. Bu epizodlar orqali yozuvchi inson xatti-harakatlaridagi gumon va xurofotlarga ishora qilib, iymon va e’tiqodning nechog‘lik ahamiyatli ekanligini ta’kidlaydi. Yozuvchi asarlarini tahlil qilar ekanmiz, muallifning yozganlaridan-da, anglaydiganimiz ko‘p ekanligi ko‘rinadi. Jumladan, tafakkur ila voqeliklarning asl mohiyatini ko‘ra olishimiz bilan achchiq kinoyaga yo‘g‘rilgan asarning tag zamirida turli talqin va tavsiflar paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Мурод Муҳаммад Дўст. Галатепага қайтиш. Матн: қиссалар. Factor books, –Тошкент, 2022.336-бет.

2.Узоқ Жўрақулов Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп (Илмий-назарий тадқиқотлар, адабий-танқидий мақолалар) –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. 262-бет

3.Аъзам А. Даврадан ташқаридаги одам.Китобда: Масъул сўз. – Т., 1987.103-115-бет.

4. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/rahmon-qo-chqor-yana-galatepa-ga-qaytib

5. https://kh-davron.uz/yangiliklar/murod-muhammad-dostning-galatepaga-qaytish-qissasidagi-ikki-obraz-tahlili.html

Dildora SHARIPOVA,
NDU tayanch doktoranti

MA'NAVIYATGA OID MAQOLLAR VA SEMANTIK PRESUPPOZITSIYA

Annotatsiya: maqolada ma'naviyatga oid maqollar tarkibidagi axloqiy qadriyatlarning semantik ifodalanishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda maqollar tarkibidagi atov birliklarida yashirin ma'lumotlar (presuppozitsiyalar)ni aniqlashga, shuningdek, bu presuppozitsiyalarni leksik-semantik xususiyatlari, sinonimiyasi va antonimiyasi asosida tahlil qilishga qaratilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, presuppozitsiya hodisasi so'z ma'nosini chuqurroq tushunishda muhim vosita hisoblanadi. Ma'naviyatga oid maqollar semantik xususiyatlari va ulardagi yashirin ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *lingvoma'naviyatshunoslik, pragmatika, presuppozitsiya, umumiy ma'no, xususiy ma'no, sinonim, antonim, maqol.*

Annotation: the article analyzes the semantic expression of moral values in proverbs about spirituality. The study aims to identify hidden information (presuppositions) in the attributive units in proverbs, as well as to analyze these presuppositions based on their lexical-semantic properties, synonymy and antonymy. The analysis shows that the phenomenon of presupposition is an important tool for a deeper understanding of the meaning of words. The semantic properties of proverbs about spirituality and the hidden information in them are analyzed.

Key words: *linguistic-spiritual studies, pragmatics, presupposition, general meaning, specific meaning, synonym, antonym, proverb.*

Аннотация: в статье анализируется смысловое выражение нравственных ценностей в пословицах о духовности. Целью исследования является выявление скрытой информации (пресуппозиций) в именных единицах пословиц, а также анализ этих пресуппозиций на основе их лексико-семантических свойств, синонимии и антонимии. Анализ показывает, что феномен пресуппозиции является важным инструментом более глубокого понимания значения слова. Анализируются смысловые особенности духовных пословиц и их скрытая информация.

Ключевые слова: *языкознание и духовность, прагматика, пресуппозиция, общий смысл, конкретный смысл, синоним, антоним, пословица.*

Kirish. Bugungi ommaviy madaniyat globallashayotgan, raqamli iqtisodiyot va fan-texnika shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda insonlarning ma'naviy sifatlari sog'lom shakllanishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot va g'oyaviy xurujlar kuchayib borayotgan davrda milliy ma'naviyatimizni saqlab qolish dolzarb masalalardan biri bo'lmoqda. Buning uchun esa ma'naviyatni chuqur anglash, uni yuksak darajaga ko'tarish, yoshlar ongiga singdirish muhimdir. Shuning uchun ham "ma'naviyat" umumiy semali leksemalarning semantik tarkibi, til tizimidagi o'rnini belgilash, ularning lisoniy tabiatlarini o'rganish ilmiy jihatdan dolzarblik kasb etadi.

Til va ma'naviyat munosabatlarining lingvistik xususiyati lingvoma'naviyatshunoslik yo'nalishida tadqiq etiladi. Bugungi kunda lingvoma'naviyatshunoslik yangi paradigma sifatida rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib, uning semantik maydoni, assotsiativ munosabatlari, til tizimidagi derivatsiyasi haqida tadqiqotlar olib borilmoqda[1]. Ma'naviyatni yuksaltirish, ma'naviy-ma'rifiy sohaning rivoji uchun olib borilayotgan

1 Yuldashev F. O'zbek tilining "ma'naviyat" leksik-semantik kategoriyasi "e'tiqod" ma'noviy guruhi atov birliklari tizimi": Filol. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Termiz, 2021. 52-b.
Tojiyeva G. O'zbek tili ma'naviy-ma'rifiy leksikasining mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti ("milliy g'oya" atov

tadqiqotlar davlat siyosati darajasiga ko‘tarilmoqda. Bugungi kunda tilshunos olimlar tomonidan lingvoma’naviyatshunoslik yo‘nalishi ustida olib borilayotgan tadqiqotlar o‘z yechimini topmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

“Ma’naviyat” umumiy atov birliklarida ifodalangan, ma’naviyat yadrosida birlashadigan presuppozitsion sinonimlar mavjud. Mazkur presuppozitsiya hodisasi “ma’naviyat” umumiy ma’noli atov birliklarning semantikasini anglashda muhimdir va bu hodisa tilshunoslar tomonidan turlicha izohlanadi. O‘z davrida o‘zbek tilshunosligida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, sistem-struktur yo‘nalishlar chuqur o‘rganilgan va o‘rganilmoqda.Keyingi yillarda esa zamonaviy tilshunoslik jadal rivojlanib, til sathini antroposentrik paradigma nuqtayi nazaridan o‘rganish boshlandi. Kognitiv tilshunoslik, psix-olingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, etnolingvistikaga, lingvoma’naviyatshunoslikka oid tadqiqotlar qatorida pragmalingvistika, sohasida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Presuppozitsiya matndan anglashilgan ma’noga, nutqiy vaziyatdan kelib chiqib anglashiladigan ma’lum fikrga ega bo‘lgan birlikdir. Presuppozitsiya bu lisoniy jihatdan o‘zaro ma’lum bo‘lgan, so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan anglashilgan, asosli dalillarga ega bo‘lgan, zamirida ishonilgan hukm anglashiladigan fikr bo‘lib, matndagi yashirin xulosani anglashdir.

Jahon tilshunosligida ushbu atama ancha oldinroq ilgari surilgan bo‘lib, bu hodisani o‘rganishda ulkan yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilshunosligida XX asrning 80-yillarida kirib keldi. N.Mahmudov o‘zining “Presuppozitsiya va gap”[1] ilmiy maqolasida o‘zbek tilida presuppozitsiyalarning ritorik so‘roq gaplarda ifodalanishini tahlil qildi va bunday gaplar sintaktik strukturasi orqali presuppozitsiyaga yo‘l ochib berishini asoslab berdi.[2] A.Nurmonov esa leksik presuppozitsiya haqida fikr yuritar ekan, “Kishilarning o‘zi qurshab turgan olam haqidagi universal bilimlari va til haqidagi ko‘nikmalari natijasida ayrim so‘zlarning leksik ma’nolarida ham presuppozitsiyaga o‘rin ochilishi mumkin”[3] deya ta’riflaydi. Keyingi yillarda ushbu hodisa xususida bir qancha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. D. Lutfullayevaning “O‘zbek tilidagi sodda gaplarda zidlanuvchi uzvlar presuppozitsiyasi”[4] maqolasida presuppozitsiya xususida ma’lumotlar berilgan bo‘lsa, filologiya fanlari doktori, professor M.Qurbonovaning “Bolalar nutqiga xos semantik presuppozitsiya”[5] ilmiy maqolasida bolalar nutqida keng qo‘llanuvchi fe’l leksemalarining semantik tabiati orqali ifodalanuvchi presuppozitsiyasi haqida fikr bildirilgan. Yuqoridagi ma’lumotlardan shuni anglaymizki, presuppozitsiya tushunchasi leksema ma’nosini anglashda muhim hisoblanadi. Quyida esa ma’naviyatga oid maqollarda ifodalangan presuppozitsion sinonimlar haqida ba’zi mulohazalarni aks ettiramiz.

Muhokamalar va natijalar. Maqollarda ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyat va millatga munosabat, ijobiy fazilatlar mujassamlashgan bo‘lib, ularning mazmun-mohiyatini tushunishda presuppozitsiya hodisasi muhim omil hisoblanadi. Har bir xalqning ijtimoiy kelib chiqishi, an’ana va urf-odatlaridan kelib chiqib, presuppozitsiyalar to‘g‘ri aniqlansa, maqollarning mazmun-mohiyati tushuniladi. Bu haqida tilshunos olim U.Rahimov “O‘zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi” nomli dissertatsiyasida “Xalq maqollari, matallari va iboralarini ham mazmuniy, ham grammatik xususiyatlarini aniqlashtirishda hamda ularning to‘liq badiiy qiymatini belgilashda, qolaversa ularni to‘g‘ri tushunishda presuppozitsion tahlil qo‘l keladi”[6] deya ta’kidlagan. Presuppozitsiya hodisasi xalq maqollarining mazmuniy, grammatik, stilistik, badiiy xususiyatlarini aniqlashda va ularning mazmunini to‘g‘ri tushunishda imkoniyat yaratadi.

Semantik tabiati orqali presuppozitsiyaga ishora qiluvchi maqollar nutqimizda keng qo‘llanadi. Bunday maqollar sirasida “ma’naviyat” umumiy ma’noli maqollar alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, mazkur maqollar sirasiga kiruvchi axloq va adolat mavzuli maqollarning semantikasini aniqlashda presuppozitsiya hodisasi muhim. Maqollarda presuppozitsiya hodisasini aniqlashda sinchkovlik bilan xulosa qilish kerak. Masalan, quyida “axloq” semali maqollarda presuppozitsion sinonimiyani

birliklari misolida): Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD)... diss. avtoref. – Samarqand, 2017. 44-b.

Tojiyeva G. O‘zbek tilini “Til va ma’naviyat mushtarakligi” tamoyili asosida tadqiq qilish masalalari” Filol. fan.. dokt. (DSc)... diss. avtoref. – Qarshi, 2021. – B. 45.

Xojiyev Y. “Alpomish” dostonidagi shaxs ma’naviy sifatlarini ifoda etuvchi atov birliklarning semantik-struktur, konseptual va leksikografik xususiyatlari. Falsafa doktori (RhD) ... diss. – Toshkent, 2020. 43-b.

Axmedova M. O‘zbek tilidagi “ma’naviyat” va ingliz tilidagi “spirituality” umumiy semali atov birliklari tipologiyasi Falsafa doktori (PhD) ... diss. – Buxoro, 2019.43-b.

1 . Махмудов Н Пресуппозиция ва гап // Узбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986.

2 Qarang: Махмудов Н Пресуппозиция ва гап // Узбек тили ва адабиёти. – Тошкент. 1986,28-б.

3 Нурмонов А. ва бошкалар. Узбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент.1992. 115-б.

4 Lutfullayeva D O‘zbek tilidagi sodda gaplarda zidlanuvchi uzvlar **presuppozitsiyasi**. 1996-y.5-son

5 Qurbonova M. Bolalar nutqiga xos semantik presuppozitsiya. Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. 2024,593-596-b.

6 Рахимов У. Узбек тилида юкламалар пресуппозитсияси. – Андижон, 1994

tahlilga tortamiz. Tahlillar natijasida xalq maqollardagi presuppozitsiyalarni to‘g‘ri aniqlasak, ularning mohiyatidagi turli chalkashliklar va xatoliklarga yo‘l qo‘yilmaydi. Ayniqsa maqollardagi presuppozitsion tahlilda sinonimiya hodisasi muhim hisoblanadi.

Presuppozitsiya – bu biror jumla yoki ibora ishlatilganida, gapirilmay turib ham haqiqat deb qabul qilinadigan yashirin ma’no. Uni aniqlashda lingvistik tahlil qilish, jumlaning semantik qatlamlarini ochish va matnning kontekstini hisobga olish kerak. Masalan: **Odob – insonning eng ulug‘ fazilatidir** maqolida “insonda turli fazilatlarning mavjudligi, ammo fazilatlar ichida odob eng yuqori qadrlanishi aks ettirilgan. Bundan tashqari “shaxsning fazilatlari odob orqali namoyon bo‘lishi” presuppozitsiya orqali namoyon bo‘ladi.

Har bir maqolni presuppozitsion tahlil qilganda, uning yashirin ma’nolari, badiiy qimmati va lingvistik xususiyatlarini batafsil izohlashi lozim. **Masalan, Odob – har qanday munosabatlarning poydevori**. Mazkur maqolda “kishi munosabatlarida odobning zarurligi” haqidagi presuppozitsiyani anglaymiz. Shuningdek, “Munosabatlarda odob eng kerakli munosabat turi ekanligi”, “munosabatlar odobdan boshlanishi” kabi presuppozitsion ma’no aks etadi.

“Adolat” umumiy ma’noli maqollarni presuppozitsion tahlilga tortganimizda, maqollarning mazmuniy xususiyatlari, semantikasidagi yashirin hukm yuzaga chiqadi. Quyida “adolat” umumiy ma’noli maqollar tahliliga e’tibor qaratamiz.

“Haq nohaq bo‘lmas” maqolida “haqiqat har yerda qaror topar” ma’nosi bilan ma’nodosh hisoblanadi. Presuppozitsion tahlilda sinonimiya va antonimiya hodisalarini ishlatish mumkin, ammo ular matnning mazmuniy bog‘lanishlarini aniqroq ko‘rsatishi kerak. Sinonimiya o‘xshash ma’noli, antonimiya qarama-qarshi tushunchalarni bog‘lashda ishlatiladi. Har bir maqolni presuppozitsion tahlil qilganda, uning yashirin ma’nolari, badiiy qimmati va lingvistik xususiyatlarini batafsil izohlash lozim. Ikkala ibora ham haqiqatni asosiy qadriyat sifatida tasvirlaydi.

Haqiqat egiladi, bukiladi, sinmaydi. Bu maqolni presuppozitsion tahlilga tortsak, “haq” ma’nosi “haqsizlik” so‘zining mazmuniy bog‘lanishidan anglashilib turadi. Ya’ni, “Haq egiladi, bukiladi, sinmaydi” maqoli “haqsizlik sinadi” presuppozitsiyasi antonimiya hodisasi orqali anglashiladi.

“Adolat qilichi keskir bo‘lar” maqolida ham xuddi shunday presuppozitsion ma’noni anglaymiz. Ya’ni mazkur maqolda “Adolatsizlik qilichi o‘tmas”, “adolatsizlik sinadi”, “adolat qilichi o‘tkir, adolatsizlik ojiz yoki zaif, adolat qilichi kuchli, u hamisha g‘alaba qozonadi” kabi presuppozitsiyalarni antonimiya hodisasi orqali anglashiladi. Sinonimiya va antonimiya hodisalarida presuppozitsion tahlil maqollarning o‘ziga xos qirralarini ochishda ko‘makchi bo‘ladi.

Xulosa. Maqollar verbal holatda namoyon bo‘lsa-da, u ifodalayotgan umumiy yashirin fikr presuppozitsion tahlillar yordamida yuzaga chiqadi. Maqollar mazmunini yanada teranroq va chuqurroq anglash uchun presuppozitsion tahlil usuli badiiy va semantik qatlamlarini yanada boyitadi.

“Ma’naviyat” umumiy ma’noli maqollarning presuppozitsiyasi mazkur maqollardagi mazmuniy, stilistik, badiiy xususiyatlarini aniqlashda va ularning mazmunini to‘g‘ri tushunishda imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Махмудов Н Пресуппозиция ва ранюЎзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986. №6.30-б.
2. Нурмонов А. ва бошкалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент, 1992.54-б.
3. Lutfullayeva D O‘rniga ko‘makchili konstruksiyalar presuppozitsiyasi o‘zbek tili va adabiyoti.1996-y.5-son.
4. Qurbonova M. Bolalar nutqiga xos semantik presuppozitsiya. Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari.2024-y.593-596-b.
5. Рахимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси.– Андижон, 1994.
6. O‘zbek xalq maqollari.“Sharq” nashriyoti, matbaa aksiyadorlik komp. 2005-y.

Alisher TURSUNOV,
Nukus innovatsion instituti
Filologiya kafedrasi o‘qituvchisi

SO‘ZLARNI LEKSIK-GRAMMATIK TARKIBIY TUZILMASINING TAHLILIY ASPEKTLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada tarkiblashtirilgan to‘plamlarda til uslubi, grammatika va muayyan nutqiy vaziyatda qo‘llaniladigan so‘zlar bo‘yicha taqsimlanishini o‘rganish orqali leksik birlikning leksik va grammatik tarkibiy tuzilmasini aniqlash, o‘rganilayotgan leksik birlikni nafaqat kasbiy yo‘naltirilgan til materialida, balki ma’lum bir nutq turi uchun mumkin bo‘lgan grammatik va leksik muhitda qo‘llash imkoniyatlariga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: *tarkiblashtirilgan to‘plam, leksik va grammatik tarkibiy tuzilma, leksik birlik, taqsimlanish, nutq, muvofiqlik, ibora, model, intuitsiya, vaziyat.*

Аннотация: в данной статье основное внимание уделяется выявить лексико-грамматический структурный состав лексической единицы путем изучения распределения по жанрам и регистрам корпуса, предъявлять и отрабатывать изучаемую лексической единицы не только на профессионально ориентированном языковом материале, но также употребления в вероятном для данного типа дискурса грамматическом и лексическом окружении.

Ключевые слова: *корпус, лексико-грамматический структурный состав, лексической единицы, распределение, речь, строк конкорданс, фраза, модель, интуиция, контекст.*

Annotation: this article focuses on identifying the lexico-grammatical structural composition of a lexical unit by studying the distribution by genres and registers of the corpus, presenting and practicing the studied lexical unit not only on professionally oriented language material, but also on use in the grammatical and lexical environment likely for a given type of discourse.

Key words: *corpus, lexical and grammatical structural composition, lexical unit, distribution, speech, line concordance, phrase, model, intuition, context.*

Matnda satrlarning muvofiqligi, so‘zlardan foydalanish foizi haqida ma’lumotlar, janr va tarkiblashtirilgan to‘plamlarda til uslubi, grammatika va muayyan nutqiy vaziyatda qo‘llaniladigan so‘zlar bo‘yicha taqsimlanishini o‘rganish bizga leksik birlikning leksik va grammatik strukturani aniqlash imkonini beradi. Taqsimlanishning bunday ehtimoli bizga o‘rganilgan leksik birlikni nafaqat kasbiy yo‘naltirilgan til materialida, balki ma’lum bir nutq turi uchun mumkin bo‘lgan grammatik va leksik muhitda taqdim etish va amaliyotda qo‘llash uchun asos bo‘ladi. Ayrim yoki umumiyligini ko‘rsatish til faktlariga ongli munosabatda bo‘lishni talab etadi.

So‘zlarni leksik-grammatik tarkibiy tuzilmasining tahlilini amalga oshirayotganda ilmiylikka amal qilish juda muhim. Leksik-grammatik tarkibiy tuzilmaning nazariy-amaliy asoslari bo‘yicha bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiylik – til hodisalarining tabiatini to‘g‘ri ko‘rsatish, qanday mavjud bo‘lsa, shunday ta’riflash demakdir. Tahlil o‘tkazishda sistemalilik va izchillikka rioya qilish lozim. Har bir til hodisasiga aniq yondashish, uning boshqa hodisalarga munosabatini, uzoq yoki yaqinligini, ayrim yoki umumiyligini ko‘rsatish til faktlariga ongli munosabatda bo‘lishni talab etadi.

Shunday qilib, izlanuvchi tadqiqot vazifalarini bajarishi va shuningdek so‘z va iboraning uslubiy jihatdan qurilishi, leksik-grammatik majmuani aniqlashi va bunday birliklarni o‘z nutqida qo‘llashni o‘rganishi mumkin bo‘ladi. Tilda turg‘un iboralarning katta qatlami mavjud bo‘lib, ular tilshunoslar tomonidan turli darajada ishlab chiqilgan va bu iboralar tildan mukammal darajada foydalanuvchilari tomonidan faol qo‘llaniladi, masalan: *foregone conclusion, the writing is on the wall, the order of the day, something of a mixed blessing, sweeping generalization* va hokazo. Bu vaziyatda, lug‘atda berilgan iboraning ma’nosini ifodalaydigan faqat bitta misol bo‘lishi mumkin, ammo kelgusidagi nutqni ifodalash uchun uni o‘zlashtirishga yordam bermaydi.

So‘zning leksik ma’nosi – so‘zning material qismi – leksema bildiradigan ma’no, muayyan tovushlar majmuyini ma’lum obyektiv voqelikka bog‘lash bilan kishi ongida yuzaga keladigan mazmun mundarija sanaladi. Masalan, *“Bolalarni o‘ynatdik”* gapidagi birinchi so‘z hali yosh, voyaga yetmagan odamni, go‘dakni, ikkinchi so‘z esa harakatni (bola bilan bog‘langan harakatni) ifodalaydi. Demak *“bola”* va *“o‘yna”* so‘zlaridan ifodalanadigan mazkur ma’nolar shu so‘zlarning leksik ma’nolaridir. So‘zning leksik ma’nosi muayyan so‘zning aniq mazmunini (narsa, belgi, harakat tushunchalarini ifodalash, shaxsning muayyan voqelikka nisbatan o‘z munosabatini bildirish) tashkil etadi. So‘zning leksik ma’nosi o‘zak negizning o‘zi bilan ifodalanadi; so‘z yasovchi affikslar ham so‘zdagi material qismning ichiga kiradi. Shu jumladan leksik ma’no so‘z yasalishi va leksikologiya bilan bog‘liqdir. So‘zning leksik ma’nosi shu so‘zning o‘zigagina tegishli xususiy ma’no bo‘lishi bilan bir qancha o‘xshash so‘zlar

uchun umumiy hisoblanadigan, umumiylik xarakteriga ega bo‘lgan grammatik ma’nodan farq qiladi.

So‘zning grammatik ma’nosi – grammatikada so‘z shakli, grammatik ma’no, grammatik shakl, grammatik kategoriya haqidagi tushunchalar markaziy o‘rinni egallaydi. Tilda o‘zining doimiy ifodalovchisiga ega bo‘lgan so‘z shakli va gapga xos umumlashgan ma’no grammatik ma’no hisoblanadi. Ma’lum grammatik ma’noni ifodalash uchun xizmat qiladigan moddiy vosita grammatik shakl hisoblanadi. Grammatik shakllarni grammatik kategoriyani tashkil etgan unsurlar deyish mumkin. Aslida grammatik shakl deganda, ma’lum grammatik ma’noning moddiy tomoni tushuniladi. Grammatik shakl grammatik kategoriyani tashkil etgan qismlarning bir tomoni – shakliy tomonini ifodalaydi. Ohang – grammatik ma’no ifodalashning fonetik vositasi hisoblanadi. Bu vosita yordamida gapning turi, gap bo‘laklariga ajratish, farqlash mumkin. So‘z tartibi grammatik ma’no anglatishning yana bir vositasi. So‘zlarning gapda ma’lum tartibda oldinma - keyin joylashtirilishi ham grammatik ma’no ifodalash uchun xizmat qiladi. Yuqorida ta’kidlangan fikrlarni umumlashtirib grammatik ma’no deganda til (fonetik, leksik, morfologik va sintaktik) birliklarning nutqni shakllantiruvchi umumlashma abstract ma’nolari tushuniladi.

Ma’lumotlar bazasidan foydalangan holda o‘qitishda pedagogik yo‘naltirilgan tahlil uchun tarkiblashtirilgan to‘plamlarda doimiy tarzda satrlarning muvofiqligiga yoki moslik qatorlariga e’tibor qaratiladi.

Tarkiblashtirilgan to‘plamlar imkoniyatlaridan foydalanish uchun talaba ham, pedagog ham tarkiblashtirilgan to‘plam talabining sintaksisi bilan tanishishi va tarkiblashtirilgan to‘plamlar bilan ishlashning asosiy ko‘nikmalarini egallashi, ya’ni to‘plamlarni tarkiblashtirish kompetensiyalariga ega bo‘lish kerak.

Tarkiblashtirilgan to‘plamlarning asosiy usullaridan foydalanish so‘zlarning leksik grammatik tarkibiy tuzilmasini tahlil qilishga imkon beradi, jumladan:

Ma’lum bir kontekstda iboralarning qo‘llanilishi nuqtayi nazaridan e’tibor qaratganimizda o‘rganilayotgan so‘z atrofida statistik jihatdan ahamiyatga ega bo‘lgan tez-tez uchraydigan so‘zlarni ko‘rishimiz mumkin;

Iboralar (idiomprone) hamda binominal qurilishlarni (binominals) hosil qilish tendensiyasi, masalan: *rough and ready, willing and able*;

Sintaktik modellar / konstruksiyalar (syntacticpatterns), iborali fe’llar, ergash gapli qo‘shma gaplarda gap bo‘laklarining joylashuvi (bosh, ergash), fe’l zamonlarining ishlatilishi kabi ehtimoliy sintaktik cheklovlarni kuzatishimiz mimkin;

Semantik cheklovda so‘z faqat odamlarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, u hech qachon kuchaytirgichlar bilan bog‘lanmaydi;

Prosodik xususiyatlarda so‘zning muayyan holatlarda paydo bo‘lish tendensiyasini ko‘rishimiz mumkin.

Shu munosabat bilan “semantik prosodiya” (semantic prosody) tushunchasi paydo bo‘lib, u semantik nuqtayi nazardan ma’lum bir muhitga jalb qilish sifatida tushuniladi (Gvishiani 2008). Masalan, cause so‘zi 90% dan ortiq hollarda salbiy vaziyatlarda, salbiy ma’noli so‘zlar bilan qo‘llanilishi qayd etilgan: *cancer, commotion, crisis, delay*. Aksincha, provide so‘zi ijobiy vaziyatlarda kelib hodisalarning xarakterli belgi-xususiyatlarini o‘zida aks ettiradigan so‘zlar bilan keltirilgan: *care, food, help, jobs, relief, support* (Stabbs 1995). Something of klasteri 50% holatlarda salbiy ma’noli ot so‘z turkumiga xos bo‘lgan so‘zlarning old qismida (*something of a stigma, disappointment, two-edgedsword*) qo‘llaniladi. Til tahlilining kompyuterlashtirilgan davriga qadar, bu hodisa haqiqiy ingliz tili darslik materiallarida tizimlashtirilmagan. Leksik-grammatik tarkibiy tuzilmasining tahlili – muvofiqlik satrlarini vertikal o‘qish, so‘zlardan foydalanish nisbati haqidagi ma’lumotlar va tayanch so‘zlar ro‘yxatida berilgan so‘zning mavjudligidan kelib chiqadi.

Kompyuterlarning keng qo‘llanila boshlanishigacha bo‘lgan davrda, ingliz tilida ma’lum bir iborani qo‘llash mumkin yoki mumkin emasligini baholashning asosiy usuli N. Xomskiy tomonidan fanga kiritilgan bo‘lib, ingliz tilida so‘zlashuvchilarning sezgi deb atalmish intuitsiyasi, qo‘shimcha dalillarga muhtoj bo‘lmasdan, iborani qo‘llashning maqbulligini baholash uchun yetarli deb hisoblangan.

S. Hanston va S. Laviozalarning ta’kidlashicha, ingliz tilidagi iboraning to‘g‘riligini intuitiv baholash ko‘plab odamlarning, ayniqsa xorijiy til fani o‘qituvchilarining kundalik hayotining ajralmas qismi bo‘lib, ular ko‘pincha grammatik jihatdan ifoda etish mumkin bo‘lgan iboralar tabiiy yoki tabiiy emasligini hal qilishlari kerak bo‘ladi (Hanston va Lavioza 2000).

Ingliz tilidagi juda ko‘p sonli so‘zlar va so‘z birikmalarning kombinatsiyalarini hisobga olgan holda, birgina intuitsiyaning o‘zi hatto ingliz tilida so‘zlashuvchilar uchun ham nutqni asoslab berishlari uchun ko‘p hollarda yetarli bo‘lmaydi deb taxmin qilish oqilona bo‘lar edi. Shunday qilib, tarkiblashtirilgan to‘plamlar bilan ishlash tadqiqoti nutqda nima mumkinligini emas, balki nutqda nima ishlatilishini aniqlay oladi. Ona tilida so‘zlashuvchining sezgisi unga nimani ifoda etishi mumkinligi to‘g‘risida ishora berishi mumkin, tarkiblashtirilgan to‘plam ma’lumotlari esa nutqni ifoda etishda faqatgina sezgining o‘zi kamlik qilishini isbotlaydi. S. Hanston va S. Lavioza intuitsiya va tarkiblashtirilgan to‘plam ma’lumotlarini birlashtirishda yechimni ko‘rishadi (Hanston, Laviousa: 112-bet).

Shuni ham ta’kidlash kerakki, bir qator mualliflar tarkiblashtirilgan to‘plam tadqiqoti va materiallar individual ona tilida so‘zlashuvchilarning sezgi monopoliyasiga chek qo‘yadi va ona tilisi ingliz bo‘lmagan pedagoglarga tarkiblashtirilgan to‘plam ma’lumotlari asosida iboradan foydalanish mumkinligi

to‘g‘risida qaror qabul qilish imkonini beradi deb hisoblashadi (Tolstova 2009).

Shunday qilib, tarkiblashtirilgan to‘plamlar bilan ishlashning usullari nutqdan oldingi bosqichda ham, keyingi bosqichlarda ham leksik ko‘nikmalarni shakllantirish davrini qisqartirishga yordam beradi.

Birinchidan, so‘zning leksik-grammatik tarkibiy tuzilmasining tahlilini tuzish mumkin bo‘lgan kontekstlarni hisobga olgan holda grammatik ko‘nikmalarni shakllantirish uchun zamin tayyorlaydi.

Ikkinchidan, ko‘plab misollar nafaqat grammatik, balki vaziyat xususiyatidan kelib chiqqan holda qo‘llash imkoniyatini ta’minlaydi, bu esa o‘quvchining nutqida ham grammatik, ham vaziyat bo‘yicha lug‘atdan, ya’ni so‘zdan to‘g‘ri foydalanishga olib keladi.Har bir vaziyatda so‘zning kuchi uning ma’no anglatishida va uni aytuvchi tomonidan to‘g‘ri, o‘rinli qo‘llay olishida. Bu esa muloqot jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gvishiani N.B. Praktikum po korpusnoy lingvistike: Ucheb. posobie po angliyskomu yaziku. — M.: Visshaya shkola, 2008.
2. Stubbs M. Corpus evidence for norms of lexical collocation // Cook G.,
3. Seidlhofer B.(eds.)Principle and Practice in Applied Linquistics: Studies in Honour of H.G. Widdowson. — Oxford:Oxford University.Press, 1995.
4. Hunston S., Laviosa S.Corpus Linguistics. Birmingham: Centre for English Language Studies.The University of Birmingham, 2000.
5. McEnery T., Wilson A.Corpus Linguistics. — Edinburgh:Edinburgh University.Press, 1999.
6. Oakes M. Statistics for Corpus Linguistics. — Edinburgh: Edinburgh University. Press, 1998.
7. Tolstova T.V. Korpusnaya lingvistika v obuchenii angliyskomu yaziku delovogo obsheniya // Voprosi prikladnoy lingvistiki: 2009.
8. Conrad S., Biber D. Real Grammar: A Corpus-Based Approach to English. — Pearson: Longman, 2009.



Nigina TEMIROVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

TARJIMASHUNOSLIKDA KOGNITIV MODELLAR VA LINGVOKOGNITIV TAHLIL

Annotatsiya: maqolada og‘zaki tarjima jarayoni tarjimani o‘rganish va modellashtirishga zamonaviy kognitiv yondashuvlar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi va tahlil etiladi. Tarjima lingvokognitiv jarayon sifatida talqin etilib, uning doirasida tarjimonning vositachilik faoliyati orqali turli tillar va madaniyatlarda so‘zlashuvchilar uchun semantik makonni taqqoslash va uyg‘unlashtirish amalga oshiriladi. Tarjima oldidan matn tahlilining varianti sifatida lingvokognitiv tahlil taklif etilib, uning ayrim bosqichlari bilvosita nutq akti tarjimasini tahlil qilish misolida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *og‘zaki tarjima jarayoni, modellashtirish, tarjima modeli, lingvokognitiv tahlil, nutq akti.*

Annotation: the article examines and analyzes the process of oral translation from the perspective of modern cognitive approaches to the study and modeling of translation. Translation is interpreted as a linguocognitive process, within which comparison and harmonization of the semantic space for speakers of different languages and cultures is carried out through the mediation activity of the translator. As a variant of text analysis before translation, linguocognitive analysis is proposed, and some of its stages are considered as an example of indirect speech act translation analysis.

Key words: *oral translation process, modeling, translation model, linguocognitive analysis, speech act.*

Аннотация: в статье рассматривается и анализируется процесс устного перевода с точки зрения современных когнитивных подходов к изучению и моделированию перевода. Перевод трактуется как лингвокогнитивный процесс, в рамках которого осуществляется сопоставление и гармонизация смыслового пространства носителей разных языков и культур посредством посреднической деятельности переводчика. В качестве варианта анализа текста перед переводом предлагается лингвокогнитивный анализ, а некоторые его этапы рассматриваются как пример перевода косвенного речевого акта.

Ключевые слова: *процесс устного перевода, моделирование, модель перевода, лингвокогнитивный анализ, речевой акт.*

Insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyoti tarixida shunga guvoh bo‘lish mumkinki, og‘zaki tarjima turli millat va madaniyat vakillari o‘rtasidagi muloqot va aloqaning eng muhim vositasi vazifasini bajargan va hamon shunday bo‘lib qolmoqda. Rus olimi A. Savchuk og‘zaki tarjimaga shunday ta’rif beradi “… og‘zaki tarjima jarayoni muayyan axborotni bir belgi tizimidan boshqa bir belgi tizimiga o‘tkazishgina bo‘lib qolmasdan, uning tabiati nafaqat intralingvistik muammolarni o‘z ichiga qamrab oladi, balki u ko‘p tarmoqli soha hisoblanadi” . Tarjimashunos olimlardan Gayl, Ferreyra va Shviterlar ham yozma hamda og‘zaki tarjima jarayonining turli va yanada chuqurroq tadqiq etilishi tabiiy ravishda turli sohalar, xususan, kognitologiya bilan chambarchas bog‘lanib borishi haqida ma’lumot beradi . Darhaqiqat, tarjimashunoslik, xususan, ketma-ket va sinxron tarjima sohasidagi tadqiqotlar rivojining natijasida tarjima, tarjimonning shaxsi va uning tarjima faoliyati nafaqat tilshunoslik, balki psixologik va kognitiv jihatdan tahlil etila boshlandi. Tilshunoslikning antropotsentrik, kommunikativ va kognitiv yondashuvlarning shakllanishi va rivojlanishi bilan tarjimaga kognitiv jarayon sifatida qarala boshladi.

Atrofimizdagi dunyo haqiqatlari, hodisalari, jarayonlarini kognitiv jihatdan anglash til va tafakkurning o‘zaro ta’siri o‘laroq yuzaga keladi, bu bog‘liqlik tarjima uchun matn tanlash, asliyat matnni idrok etish, tarjima oldi tahlil qilish va tushunish bosqichlarida vujudga keladi. Asliyatdagi mazmunni tarjima tilida verballashtirish bosqichida kognitiv-lingvistik bog‘liqlik tarjima strategiyasini shakllantiruvchi va taktik harakatlarni tanlashni belgilovchi yetakchi omillardan biriga aylanadi.

Tarjimaning lingvistik modellari (denotativ, semantik, transformatsion, kommunikativ, informativ) tarjimaning mohiyatini tushunishga olib boruvchi bosqichlar bo‘lib, barcha lingvistik modellar asosida ma’no til birliklari orqasida “yashirin” degan g‘oya yotadi.Shuning uchun tarjimaning kognitiv modeli ushbu murakkab hamda hayajonli jarayonning yangi, boshqa bir bilim darajasi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Tarjimashunos olim A.Minchenkov o‘zining kognitiv-evristik modelda tarjimani murakkab aqliy jarayon sifatida ta’riflab, ushbu jarayonning chiziqli (linear) jarayon emasligiga e’tibor qaratadi.Bunda asliyat manbani idrok etish, tushunish, xotirada qayta ishlash va tarjima tilida qayta ishlash ham ketma-ket, ham sinxron tarzda amalga oshirilishi mumkin.I.N. Remhe tarjimaning kognitiv modeliga “tarjimonning aqliy operatsiyalarini dinamik ramkalar (tasniflovchi va situatsional) doirasidagi bilimlarning freym muvofiqliklarini izlash qobiliyatiga asoslangan shartli tavsiflash imkonini beruvchi faraziy konstruksiya” sifatida qaraydi. Tarjima jarayonini tahlil qilishni so‘zdan boshlaymiz, uni atrofdagi dunyoning moddiy va mavhum obyektlari bilan bog‘laymiz (tarjimaning denotativ modeli), uning ushbu tizimdagi o‘rnini topamiz va uning boshqa obyektlar bilan aloqasini aniqlaymiz (tarjimaning situatsion modeli). So‘zning bevosita kontekstdagi va butun matndagi boshqa so‘zlar bilan bog‘lanishi orqali uning semantik obrazini yaratamiz (semantik model). Assotsiativ aloqalar bu obrazni chiziqli sathdan konseptual sohaga o‘tkazadi, bu yerda chiziqli bo‘lmagan munosabatlar obrazning dunyo manzarasidagi o‘rnini aniqlaydi. Z.D. Popova va I.A. Sterninning fikriga ko‘ra “individning ongida dunyoning kognitiv tasviri tizimli bo‘lib, uning atrofidagi olamni idrok etishiga ta’sir qiladi” . Olamning kognitiv tasviri bilan birgalikda lisoniy tasviri ham mavjud va “lingvokognitiv tuzilmalar dunyoning lisoniy tasvirini shakllantirishda eng bevosita ishtirok etadi” . Yuqorida keltirilgan fikrlarni jamlagan holda muallifning olam manzarasi hamda tarjimon va tayyor tarjimani qabul qiluvchining olam manzarasi ham lingvokognitiv tizimlar bo‘lib, unda til birliklari ishtirokchilarning voqelik haqidagi ma’lumotlarini aks ettiruvchi dunyoning milliy-kognitiv, lingvistik va individual tasvirlari asosida qayd etiladi.

S.E. Pastuxova va E.V. Nikitinalarning fikricha, tarjimon tarjima vaziyatida har uch ishtirokchining kognitiv maydonlarini taqqoslaydi . U muallif nazarda tutayotgan tasvirni qabul qiluvchiga tushunarli bo‘lishi uchun uning nazaridagi olamning lingvokognitiv tasviri vositalari yordamida yetkazadi. Bunda tarjimon “muzokarachi” vazifasini bajaradi, bunda muallif va suhbatning maqsadiga muvofiq to‘g‘ri semantik xulosa chiqarish ko‘nikmalarining ahamiyati va zarurligini tushungan va qabul oluvchining kutishlariga e’tibor qaratgan holda, ma’lumot uzatuvchi va qabul qiluvchining lingvokognitiv tuzilmalari o‘rtasidagi muvofiqlik va nomuvofiqliklarni qidiradi va topadi.

Tarjima jarayonida muallifning kognitiv maydoni tarjimonning kognitiv maydoni bilan uyg‘unlashadi. Ikki maydonning konseptual yaqinlik darajasi obyektiv (uzatuvchi va qabul qiluvchining lingvistik va madaniy dunyoqarashidagi tasodif/ nomuvofiqliklar) va subyektiv (tarjimonning fikrlash xususiyatlari) omillari bilan belgilanadi . Tarjimon vositachi sifatida ushbu maydonda muallifning strategiyalari, muloqotning kommunikativ strategiyalari va ushbu sohaga oid ham aslida ham tarjima tilidagi o‘z bilimlariga asoslangan holda tarjimani amalga oshiradi. Bunda esa unga tarjima strategiyalari yordam beradi. Ularni makro va mikro strategiyalarga bo‘lish mumkin.

Makrostrategiyalar tarjimaning umumiy maqsadi bilan belgilanadi va shu sababli ularni maqsadni belgilovchi strategiyalar deb atash mumkin. Makrostrategiyalarga murosa strategiyasi, madaniyatlararo moslashtirish strategiyasi kabilarni misol qilishimiz mumkin. Ushbu strategiyalar asliyat va tarjima tilida so‘zlovchilarning olamining kognitiv, madaniy, lingvistik manzaralarida asliyat va tarjimaning o‘rnini belgilaydi. Mikrostrategiyalarga misol sifatida matnning

janri va uslubiy bog‘liqligini tushunish strategiyasi, matnning dominant zichligini aniqlash strategiyasi, ehtimollik strategiyasi, kompressiya va dekompressiya strategiyalarini, o‘zgartirish strategiyasi, sinov va xatolar strategiyasi, so‘zma-so‘z tarjima strategiyalarini keltirishimiz mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olsak, tarjimaning sof lingvistik yoki kognitiv modellari mavjud emas, shuning uchun ularni lingvokognitiv modellar va quyida sanab o‘tiladigan darajalarda matn tahlilini lingvokognitiv tahlil deb atash mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Kognitiv darajada tarjimon makrostrategiyalardan foydalanib, ramkalar va ssenariylar bilan bog‘langan tushunchalarning tarjimoni vazifasini bajaradi. Freymlar va ularning konseptual mazmuni ekstralingvistik vaziyat bilan belgilanadi. Bu darajadagi tarjima birliklari tushunchalar va freymlardir.

Ikkinchi daraja semantik tahlil bo‘lib, bu olamning lisoniy tasviri elementi bo‘lgan ma’lum bir matn vaziyatiga mos keladigan turli til darajalaridagi til birliklari bilan semantik birliklar orqali tushunchalarni o‘zaro bog‘lash imkonini beradi. U pragmatik va lingvistik quyi darajalardan iborat.

Pragmatik darajada muallifning kommunikativ maqsadlari va niyatlari, ularni asliyat tilida ifodalashga xizmat qilgan strategiya va taktikalari, nutqning semantik va pragmatik presupozitsiyalari tahlil qilinadi. Lingvistik darajada esa tarjimon mikrostrategiyalardan foydalanib, ularni asliyat nutqning lingvistik konteksti, uning pragmatik, grammatik, leksik va stilistik xususiyatlari bilan bog‘lagan holda bir tilning lingvistik birliklarini boshqa tilga o‘giradi.

Lingvokognitiv modelning tarkibiy murakkabligi, bir tomondan, tasvirlangan jarayonning murakkabligi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bir xil matn uchun bir nechta tarjima variantlari mavjudligini isbotlaydi. Lingvokognitiv tahlil tarjimonga bir nechta variantlardan, matn g‘oyasiga, vaziyatga va xarakter xususiyatlariga eng mos keladigan variantni tanlashga yordam beradi. Nutq maqsadli xatti-harakat mahsuli sifatida tarjima nuqtayi nazaridan qiziqarli. Ko‘pincha tarjimon tarjima qilish uchun boshqa nutq aktidan foydalanadi. Quyidagi misollar orqali tarjimonning tanlovini tahlilning yuqorida ko‘rsatilgan lingvokognitiv bosqichlaridan foydalangan holda asoslash mumkin.

Well, why doesn’t he keep his wife where she belongs?

Xotiniga qarasa o‘ladimi .

Bu misol E.Xemingueyning “Frensis Makomberning omonat baxti” hikoyasidan olingan.Misol matnida “er” va “xiyonat” tushunchalari zohiran mavjud bo‘lib, ular vaziyat freymini tashkil qiladi. So‘roq shaklidagi nutq akti bu freymning bir qismidir.

Well, why doesn’t he keep his wife where she belongs? - bu ritorik savol va lokativ akt, qahramon javob olmasligini bilib, uni izlamagan holda ushbu jumladan foydalanadi, jumlani kengroq kontekstual tahlil qilish orqali savol ma’lumot so‘rash emas balki ma’lumot berish vazifasini bajarayotganini ko‘rish mumkin. Aytishimiz mumkinki, bilvosita nutq aktlari tarjima variantlari paydo bo‘lishiga olib keladigan tanlov holatini vujudga keltiradi.

Gapning semantik presuppozitsiyasi o‘zgarishsiz qolgan. Lingvistik darajada tarjimon to keep feliga e’tibor qaratadi– kimnidir yoki biror narsani nazorat qilmoq; birovga g‘amxo‘rlik qilmoq, va hokazo.

Yuqoridagi fikrlar va misollar tahlilidan xulosa qilgan holda shuni aytish mumkinki, bir xil ahamiyatga ega ikkinchi yoki uchinchi variantlar mavjud bo‘lganda, nima uchun tarjimon ma’lum bir variant foydasiga tanlov qiladi, degan savol bizni tarjimonning lingvistik shaxsi muammosiga va uning tarjimaning lingvokognitiv modellarida tutgan o‘rniga murojaat qilishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Гусева А.Х Когнитивная модель лингвистической обработки текстового корпуса как образовательная технология построения стратегии перевода // Современные научные исследования и разработки. М.: Изд-во: Научный центр «Олимп». N. 1(30). 2019. С.332-335.

2.Минченков А.Г. Когнитивно-эвристическая модель перевода: к постановке вопроса // Вестник Санкт-Петербургского университета, Сер.9. 2007. Вып.2 Ч.II. С. 208-217.

3. Пастухова С.Е, Никитина Е.В. Когнитивный подход в переводоведении // Приоритетеные научные направления: от теории к практике. Сборник материалов XXXVI Международной практической конференции, 2017. С. 157-163.

4. Ремхе И.Н. Когнитивные особенности перевода научно-технического текста (на материале текстов металлургической промышленности): автореф. дис. … канд. филол. наук. Челябинск, 2007.

6. Фурсова И.Н. Когнитивный подход в переводоведении // Lingua Mobilis. Научный журнал. Челябинск. N 6 (45). 2013. С. 66-73.

7. Hemingway E. The Short Happy Life of Francis Macomber // Американская новелла XX в. На английском языке с параллельным переводом / сост. Г.В. Лапина. М.: Изд-во Радуга, 1989. С. 302-372.

8.https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/ernest-heminguey-frensis-makomberning-omonat-baxti.html

Marjona BEGMATOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili adabiyoti universiteti 1-bosqich tayanch-doktoranti

“SHAJARAYI TAROKIMA” ASARIDAGI AYRIM ARABCHA O‘ZLASHMALARNING HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILIDAGI HOLATI

Annotatsiya: ushbu maqolada XVII asr o‘g‘uzlar tarixi va shajarasi haqida yozilgan “Shajarayi tarokima” asaridagi o‘zlashma qatlamidagi, ya’ni ayrim arabcha so‘zlarning qo‘llanilishi va ushbu so‘zlarning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi holati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *Shajarayi tarokima, tashqi manba, arabcha o‘zlashmalar, leksema, sema, gibrid, qorishiq*

Annotation: in this article, there is a word about the usage of certain Arabic words in the work “Shajarayi tarokima” written about the history and geneology of the Oghuz of the 17th century, that is, some Arabic words and the status of these words in the current Uzbek literature language.

Key words: *Shajarayi tarokima, external source, Arabic acquisitions, words, hybrid, mixed.*

Аннотация : в данной статье есть слово об употреблении некоторых арабских слов в произведении Шаджарайи тарокима написанном об истории и генеологии огузов 17 века , то есть некоторые арабские слова и статус етих слов в нынешний узбекские литературный язык.

Ключевые слова : *Шаджарайи тарокима, внешний источник, арабские заимствования, лексема, сема, гибрид, смешанный.*

Dunyo tillari lug‘at sathi asosan, 2 omil asosida boyiydi. Bular birinchisi ichki manba bo‘lib, har bir til o‘z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib shevalardan so‘z olish, yangi so‘z yasash, chetdan kirib kelgan so‘zlarning o‘z tilida muqobil variantini yaratish orqali boyisa, ikkinchi omil qo‘shnichilik, siyosat, din, ta’lim yoki savdo aloqalari va h.k.lar orqali chetdan so‘z kirib kelishidir. Turkiy til ham bu holatdan mustasno emas va hozirgi kunda ham tilimizda forsiy, arabiy, mo‘g‘ulcha, yunoncha so‘zlar keng iste’molda.

Markaziy Osiyoga arablar bosqini VII asrdan boshlangan bo‘lsa, aynan shu davrdan boshlab bu hududda islom dini bilan birgalikda turkiy xalqlar tiliga arabcha so‘zlarning kirib kelishi ham boshlangan. Dastlab, arabcha so‘zlarning o‘zlashishga arablar hukmronligi sabab bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik islom dinining ommalashishi bu holatni yanada tezlashtirdi. Bir vaqtning o‘zida siyosat, din va ta’lim tili bo‘lib yetakchi o‘ringa chiqqan arab tili albatta yerli xalqning ona tiliga ham ta’sir qilmay qolmadi. Arab tilining o‘zbek tiliga kirib kelishi , ayniqsa VII-VIII asrlarda ko‘proq yuz bergan. XIV-XV asr eski o‘zbek tilida arab tili leksikasi sezilarli qatlamni tashkil etgan. Shu bois Navoiy asarlari tilida ma’lum tarixiy sabablar natijasida arab va fors-tojik tillaridan olingan so‘z va iboralar har qachongidan ham ko‘p. Shoir poetik va ilmiy asarlari tildagi so‘z boyligining taxminan 30-33 foizini arab tilidan kirgan so‘zlar tashkil qiladi, fors-tojik leksik unsurlari ham 18-20 foizgacha boradi. [1:15]

Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi tarokima” asari XVII asrda yaratilgan, turkman xalqi shajarasi haqida yozilgan tarixiy asar bo‘lib, asarning muqaddima qismida muallif barcha biling kim, bizdan burun turkiy tarix aytqanlar arabiy lug‘atlarni qo‘shub tururlar va forsiyni ham saj’ qilib tururlar, o‘zlarining hunarlarin va ustodliqlarini xalqg‘a ma’lum qilmaq uchun biz munlarning hech qaysisini qilmaduq, aning uchun kim bu kitobni o‘qug‘uchi va tinglag‘uchi, albatta, turk bo‘lg‘usi turur.[2:7] deb ta’kidlaydi, ammo asar lug‘at sathining asosiy qismini turkiy so‘zlar tashkil etsa-da, o‘zlashgan qatlam so‘zlari ham salmoqli o‘rin egallaydi. Jumladan arabcha, forscha va mo‘g‘ulcha so‘zlar. E’tiborli jihati shundaki, asarda keltirilgan so‘zlarning aksariyat qismi hozirgi kunda ham tilimizda keng iste’molda. Tadqiqot obyekti qilib olingan asarda arabcha so‘zlar ham anchagina bo‘lib, bu o‘zlashmalar hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham faol leksemalar qatorida. Jumladan:

Hokim – arab tilidan o‘zlashgan bu leksema bugungi kunda “hukm yurituvchi”, “ma’lum bir hududda rahbarlik qiluvchi” semalariga ega va ayni asarda ham shu ma’noda kelgan : *Boshi Sayram, ayog‘i Misrgacha bolg‘an viloyatlarining barchasina hokimlar qo‘yub, qaytib, o‘z yurtina ketdi*. [2:17]

Anlarni sevmaganimning sababi bu kim men musulmon, anlar kofir, xarchand musulmon bo‘ling tedim qabul qilmadilar. [2:11]**Kofir** arabiy leksema bo‘lib, ko‘pligi “kuffor” ikki xil ma’noda keladi: 1. Tanimovchi, inkor etuvchi, islom dinini tanimovchi, g‘ayri din; 2. Kofiri ne’mat – ne’matlarni qadrlamaydigan, yaxshilikni bilmaydigan, nonko‘r.[3:319] Tadqiqot obyekti qilib olingan asarda bu so‘z birinchi ma’nosida kelgan.

Muxr so‘zining asosi mahara fe’lining “tamg‘a bosdi” ma’nosi bilan hosil qilingan bo‘lib, lug‘atlarda quy-

idagi ma’nolarda keladi: 1.“tamg‘a, belgi”; 2. “Shaxs nomi yozilgan qabariq yoki botiq tasviri bo‘lgan bosma shakli. [4.20] Bu so‘z yuqorida keltirilgan ikki semada ham hozirgi o‘zbek adabiy tilida foydalaniladi. “Shajarayi tarokima” asarida esa bu leksema quyidagicha kelgan: *Isfixonning dorug‘alig‘ini savdogarning otig‘a bitib, muxr qilib qo‘liga berdi.* [2:16]

Maosh leksemasining ma’nosi arabchada tirikchilik, yashash uchun kerakli narsalar. [3.362] O‘zbek tilining izohli lug‘atida esa ushbu leksemaga quyidagicha izoh berilgan: Xizmat, ish uchun biror tashkilot, muassasa tomonidan belgilanadigan, beriladigan pul. (O’TIL.541) ammo “Shajarayi tarokima” da ushbu so‘z tirikchilik, ya’ni yashash uchun qilingan harakat, hayot tarzi ma’nosida kelgan: *Gulerkini xon qildilar, xalq birlan yaxshi ma’osh qilib o‘lturdilar.* [2:27]

Hozirda asosan, badiiy uslubda bechora, kambag‘al, yo‘qsul ma’nolarida ishlatiluvchi **faqir** leksemasi XVII asrda keng iste’molda bo‘lgan. Arabchada **faqr** so‘zi kambag‘allik, yo‘qsullik ma’nosini bildirib, holatni anglatsa, i unlisi orttirilib faqir holida kambag‘al insonga nisbatan qo‘llangan: *Barchasi ayshu ishratga mashg‘ul bo‘lub, qarilar yoshin unutdi va faqirlar molsizlig‘in, boylar o‘lumun unutdilar*. [2:27] Biz tadqiq qilyotgan asarda faqir so‘zi bilan sinonim yorli leksemasi ham qo‘llanilib kelgan.

Leksikologiyada so‘zning asosi boshqa tilga, qo‘shimcha esa boshqa tilga oid holatda yangi leksema yasalganda bu leksemaga nisbatan gibrid (qorishiq) termini ishlatiladi. Biz tadqiq qilayotgan asarda ham gibrid leksemalar mavjud bo‘lib asosi arabcha, so‘z yasovchi affikslari esa asosan turkiy, qisman forsiy affikslardir. Quyida arabiy + forsiy shaklda yasalgan bir nechta leksemalarni keltiramiz.

Fors-tojik tilidan kirgan -ba, -na, -gah, - zada (zoda) kabi affikslar arab va fors tillaridan yangi leksemalar yasaydi. [4.26] –zada (zoda) affiksi ma’lum bir qavm, guruh yoki toifaga oidlik anglatuvchi so‘zlarni yasashda foydalanilgan va bugungi kunda ham iste’molda mavjud.

Izohli lug‘atlarda **halol** leksemasi arabcha “hal qiluvchi, yechuvchi” degan ma’nolarni anglatadi, O‘zbek tilining izohli lug‘atida bu leksemaning bir qancha o‘z va ko‘chma ma’nolari keltirilib o‘tilgan: 1. din. Shariat tomonidan ruhsat etilgan, yesa, ichsa, foydalansa bo‘ladigan: “Pulni olmadim, ming marta roziman, sizga ona sutiday halol bo‘lsin.” (A. Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari); 2. Nikohlab olingan, qonuniy xotin haqida. “O‘zining bir emas, ikki xotini bo‘laturib, birovning haloliga ko‘z olaytirish…” (A.Qodiriy. O‘tkan kunlar).

Tadqiq qilinayotgan asarda halol leksemasiga ma’lum bir nasl-nasabga, urug‘ga, guruhga mansublik ma’nosini beruvchi fors-tojikcha -zoda affiksini qo‘shib gibrid leksema yasalgan, **halolzoda** nikohli ayolidan tug‘ilgan farzand ma’nosida kelgan: *To tirikmiz ushbu aytilg‘an so‘zdan qaytmasbiz, agar bizdin bo‘lg‘an o‘g‘lonlar halolzoda bo‘lsalar to dunyo oxir bo‘lg‘uncha bu ahdnomani o‘qub amal qilg‘aylar.* [2:24] Halalzada leksemasi “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ham uchraydi.

Aynan yuqorida keltirilgan leksemaga antonim qilib **haromzoda** leksemasi keladi. Harom leksemasi shariatga zid bo‘lgan, Alloh buyurmagan narsa, buyum, amal va vazifalarga aytiladi. Asarda bu so‘z nikohida bo‘lmagan ayoldan tug‘ilgan farzandlarga aytilgan: *Agar haromzoda bo‘lub, yurtni buzali tesalar amal qilmag‘aylar tedilar.* [2:24]

“Shajarayi tarokima” asarida yuqoridagilarga o‘xshash ikki yuzdan oshiq arabcha o‘zlashmalar keltirilgan bo‘lib, bu leksemalarining aksariyati hozirgi kunda ham aynan asarda keltirilgan semalarda adabiy tilimizda mavjud va qo‘llanib kelinmoqda. Asar muqaddimasida muallif tomonidan “arabiy va forsiy” lug‘atlarni ishlatmaslik haqida ta’kidlab o‘tilgan holatda ham bir qancha arabcha so‘zlarga murojaat qilinishi XVII-XVIII asrlarda o‘zlashma qatlamning xalq tiliga qanchalik singiganligi va aksariyat hollarda turkiy muqobil varianti mavjud emasligini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Абдуллаев Ф. XV аср ўзбек адабий тилининг диалектал асослари масаласи//Навоий ва адабий таъсир масалалари. –Т., 1968.

2.Абулгозий Б., Шажарайи тарокима. –Тошкент, 1995

3.Шамсиев П., Иброхимов С., Навоий асарлари лугати. –Тошкент, 1972

4. Абдушукуров Б., Туркий манбалар лексикаси. –Тошкент, 1972

5. H.A.Dadaboyev, Z.T.Xolmonova, Turkiy tillarning qiyosiy tarixiy grammatikasi. –Toshkent, 2015

Go‘zal AXADOVA
Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti o'qituvchisi

CHET TILINI O‘QITISHDA GAPIRISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: mazkur maqola chet tilini o‘qitishda gapirish ko’nikmasini shakllantirish mavzusini yoritishga bag’ishlangan bo’lib, maqolada bugungi kunda chet tilida so’zlashish ko’nikmasini oshirishda qo‘llaniladigan interaktiv metodlardan namunalar ko’rib chiqilgan. Shuningdek, chet tili o’rganuvchilari uchun zarur bo’lgan maslahatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *nutqiy faoliyat, verbal muloqot, nutq material, intuitiv tarzda, monolog, dialog, replika, faol gapirish, reaktiv, reproduktiv, kommunikativlik.*

Annotation: this article is devoted to the topic of developing speaking skills in teaching a foreign language. The article considers examples of interactive methods used today to improve speaking skills in a foreign language. It also provides advice necessary for foreign language learners.

Keywords: *speech activity, verbal communication, speech material, intuitively, monologue, dialogue, replica, active speaking, reactive, reproductive, communicative.*

Аннотация: данная статья посвящена теме формирования навыков говорения при обучении иностранному языку, а также в статье рассматриваются примеры интерактивных методов, используемых для совершенствования навыков говорения на иностранном языке. Также даны необходимые советы для изучающих иностранный язык.

Ключевые слова: *речевая деятельность, речевое общение, речевой материал, интуитивно, монолог, диалог, реплика, активная речь, реактивная, репродуктивная, коммуникативная.*

Kirish.Gapirish nutqiy faoliyatning murakkab, ko‘p qirrali jarayonini o‘z ichiga olgan turi bo‘lib, uning vositasida og‘zaki verbal muloqot amalga oshiriladi. Gapirishga o‘rgatish va umuman og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirish tilni o‘rgatishda eng qiyin vazifalardan hisoblanadi. Bu insonning o‘zga til vositalari yordamida fikr va his-tuyg‘ularini mustaqil tarzda ifodalashi bilan bog‘liq. Ongli ravishda nutq yaratish va til shakllarini tahlil qilish til o‘rganishning dastlabki bosqichlariga xosdir. O‘zbek tilini o‘zga til va madaniyatlar vakillariga o‘rgatish jarayonida gapirish nutqiy faoliyatning tinglab tushunish ko‘nikmasi bilan bir vaqtda rivojlantiriladi. Ta’lim natijasi esa til va nutq materialini intuitiv tarzda egallashga olib kelishi kerak.

Adabiyotlar tahlili. Gapirish ko‘nikmasi ikki turda, ya’ni monologik va dialogik nutqda namoyon bo‘ladi. Gapirish ko‘nikmasi ikki turda – monolog va dialogda namoyon bo‘ladi. Bu turlar muloqot ishtirokchilarining nutqiy jarayondagi roliga qarab farqlanadi. Monologik nutqda muloqot ishtirokchilarining har biri muayyan vazifani – axborotni uzatish (nutq yaratish) yoki axborotni qabul qilish (retsepsiya) funksiyasini bajaradi. Dialogda muloqotning ikkala ishtirokchisi navbatma-navbat so‘zlovchi va tinglovchi rolini bajaradi. Monolog – bu bevosita gapirish, dialog esa gapirishning tinglab tushunish bilan birga amalga oshiriladigan turidir. Monolog – bir shaxsning kimgadir qaratilgan nutqi bo‘lib, unda fikrni aniq, to‘liq, tushunarli tarzda ifodalash zarur. Monologda so‘zlovchi o‘zining nutqini o‘zi rejalashtiradi, kengaytiradi, til vositalarini tanlaydi. Monolog uzviy va mantiqli bo‘lsa, dialog vaziyatga qarab tuziladi. Dialog nisbatan tez yuz beradigan nutq almashinuvi bo‘lib, uning har bir bo‘lagi replika (luqma) deyiladi va bir replika boshqasiga bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, gapirishning quyidagi turlari farqlanadi:

1) tashabbusli, faol gapirish – so‘zlamoqchi bo‘layotgan insonning ichki motivlari, niyatidan kelib chiqadigan nutq, ya’ni uning o‘z tashabbusi bilan, mustaqil tarzda yaratgan nutqi;

2) reaktiv, javob tariqasida gapirish – suhbatdoshning so‘zlashi yoki savoliga javob bo‘ladigan nutq;

3) reproduktiv, taxminiy gapirish – yodda qolgan matnni aytib berishdan iborat nutq;

So‘nggi paytlarda chet tillarini o‘rganish sohasida “kommunikativlik” va “kommunikativ yondashuv” tushunchalari ayniqsa keng qo‘llanila boshlandi. Xorijiy metodik adabiyotlarda bu tushuncha tilni kommunikativ o‘qitish yoki kommunikativ yondashuv deb yuritiladi. Keng ma’noda bu atamalar chet tilini o‘qitishda shunday yondashuvni anglatadi, bunda muloqot, nutq sherigi bilan o‘zaro ta’sir qilish jarayoni o‘rganishning ham vositasi, ham maqsadi hisoblanadi. Ta’limga bunday yondashuv o‘tgan asrning 70–80-yillarida Yevropada ham, AQShda ham ko‘plab mustaqil tadqiqotlar va ishlanmalar natijasida paydo bo‘ldi. Kommunikativ kompetentsiyaning asosiy tarkibiy qismi til ko‘nikmalari, shuningdek, lingvistik va madaniy bilimlar asosida shakllanadi. Kommunikativ yo‘nalish prinsipi o‘qitishni to‘g‘ri tashkil etish, muloqotni amalga oshirish uchun turli tashkiliy shakllardan foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Kommunikativ kompetentsiyaning I.R. Altunina, V.I. Kashnitskiy, A.V. Molozhavenko, Yu.V.

Mryakina, E.V. Prozorova va boshqa ko‘plab mutaxassislarning ilmiy qiziqishlari doirasining turli jihatlarini ifodalaydi. Biroq ilmiy va amaliy ishlarda kommunikativ kompetensiyani fanlararo hodisa sifatida tahlil qilish natijalari deyarli topilmaydi. Shu sababli, biz kommunikativ kompetensiyani, avvalambor, hodisa sifatida, so‘ngra pedagogik toifa sifatida bosqichma-bosqich ko‘rib chiqish kommunikativ kompetensiyaning nazariy modelini va ushbu integrativ shaxsni shakllantirish tizimini yaratishga yordam beradi, deb hisoblaymiz.

Natija va muhokama. Agar avval chet tili o‘qitish shu til sistemasini o‘rganish deb qaralgan bo‘lsa, keyingi yillarda o‘qitishdagi muhim ko‘zlangan narsa bu o‘quvchilarni chet til nutqini o‘stirishdan iborat bo‘ldi. Shuni aytish kerakki chet tili o‘rganishdagi bu maqsadlar, o‘z-o‘zidan yoki boshqa kimsalar yoki shaxs tomonidan qo‘yilmaydi, balki lingvistika va psixologiya fanlaridagi o‘zgarishlar va jamiyatning ijtimoiy rivojlanib borishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan: Audiolingval metodni olib ko‘raylik. Bu metodning yuzaga kelishiga lingvistika fanidagi o‘zgarishlar, ya’ni struktural oqimning ta’siri bo‘ldi. U quyidagi omillarni o‘z ichiga oladi:

– Chet til o‘rgatish avval og‘zaki nutqqa o‘rgatishdan boshlanmog‘i zarur;

– Til o‘rganish turli strukturalar, nutq namunalari asosida amalga oshiriladi;

– Mashqlar ham tilga asoslangan holda til materialini ko‘p marta takrorlashni talab qiluvchi mashqlar bo‘lishi kerakligini taqozo etadi;

– Grammatik namunalar va leksikani tanlash chet tili bilan ona tilini qiyoslashning natijalariga bog‘liq bo‘lishi kerak.

– Talaffuzga katta e’tibor talab etiladi. Bu metodning asosiy kamchiligi, mexanik mashqlarning ko‘pligi va haqiqiy nutq mashqlarining ozligidir.

Bu metod asoschilari metodist olimlar Ch.Friz va R.Ladolardir. Masalan: Ch.Friz: boshlang‘ich etapning asosiy mazmuni strukturalarni o‘rganishni tashkil qilishi kerak deydi. Grammatikaning ko‘nikmalarni hosil qilishi ham shunga asoslangan bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Ko‘pgina adabiyotlarda hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta’lim metodlar “Keys-stadi” (yoki “O’quv keyslari”), “Blist-so’rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim” ekanligi qayd etiladi. Ma`lumotlarga ko`ra interfaol ta’lim strategiyalari qatoriga “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” uslublar kiradi. Interfaol ta’lim metodlari tarkibidan interfaol ta’lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma’lum ma’noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko’proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo’lib, ularning orasida boshqa farqlar yo’q. Oxirgi vaqtlarda ingliz tilini o’rganadigan har qanday yoshdagi insonlar soni kundan-kun juda oshmoqda. Chunki hayot jarayonida ingliz tilini tushunmasdan yashash tobora murakkablashib bormoqda. Lekin til o’rganish ham yosh davrlariga bog’liq. Hatto, olimlar bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o’zlashtirib olishini isbotlashgan. Bolalarda til o’rganishga bo’lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining til o’rganish uchun yetarliligi va o’rgangan ma’lumotlarni tez xotirada saqlashi buning asosiy sabablarida hisoblanadi. Shu o’rinda chet tilida erkin muloqot qilish borasida bir necha maslahatlarni ko’rib chiqamiz.

Erkin bo’ling. O’zingiz va bemalol gapiring. Murakkab so’z birikmalaridan foydalanish haqida ortiqcha tashvishlanmang, ravon bo’lish muhimroqdir. Ammo tez gapirmang va grammatikangizga ahamiyat bermang.

Namuna savollariga javob berishni mashq qiling. Turli xil resurslardan ayniqsa savoli bilan birga javobi ham berilgan manbalarni o‘qing. Men sizlarga Jeremy Chironning IELTS speaking va Maximiserning IELTS speaking kitoblarini tavsiya qilaman.

Ovozingizni yozib oling.Diktofonga o‘z javobingizni yozib oling va qayta eshitib xatolaringizni to‘g‘irlang.

Emotsiyaga boy bo’ling!Tuyg’ular bilan gapiring. Hech narsa tajribali ma’ruzachini yangi boshlanuvchilarni nutq ohangi sifatida ajratib turmaydi. O’z ona tilingizdan foydalanganingizda his-tuyg’ularingizni ifoda eting.

Nutqingizni kengaytiring.Agar sizga bitta jumla yordamida savol berilsa, ikki yoki undan ko’p gaplar bilan javob bering. Albatta, bu maslahatlar juda oddiy, ammo kunlik odatga aylantirsangiz bemalol native speakerlardek gapira oladigan darajaga erishasiz.

Xulosa. Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, chet tilini rivojlantirish orqali dunyo tan olgan davlatlar standartiga javob bera oladigan maktab dars, darslik yaratish biz pedagoglarning vazifamizdir. Quvonarlisi, ingliz tilida biyron so`zlasha oladiganlar maktabning birinchi sinfidayoq topilayotgani, tizimda ingliz tili mutaxassislarning ko`p mehnati singayotganidan dalolatdir. Ayniqsa, chet tilida xalqaro darajalarga erishayotgan o`quvchilar safi kundan kunga ko`payib bormoqda. Shuningdek, milliy oliygoharimizdan tashqari dunyoning top 1000 talikka kirgan universitetlarga bir o`quvchining yettitadan ortig`iga talaba bo`layotgani ham bizni quvontiradi. Darvoqe, fanni o`zlashtirish biroz murakkab jarayon. O`zga tilni o`z tilidek mukammal o`zlashtirishda esa pedagogning mahoratiga bog`liq. Bunda yangi pedagogik uslublardan foydalanish ham muhim ham samaralidir. An`anaviy darsdan ko`ra o`quvchi yangi texnologiyalardan foydalanib o`tilgan darsda o`zlashtirish ko`rsatkichi yuqori bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun ingliz tili o‘quv dasturi. Tuzuvchilar: J. J. Jalolov, M. T. Irisqulov. – Xalq ta’limi. – №4 – Toshkent, 2013. 44-b.

2.Jalolov Jamol. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.

3.Passov E.I. Chet tilidagi nutqni o‘rgatishning kommunikativ usuli. – M.: Akademia, 2005-yil

4.Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o’qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil

5.To‘lqinboyeva Mahliyo. Qanday qilib speakingni oshirish mumkin? Международныйнаучныйжурнал No5(100), часть1«Научный импульс» Январь, 2023

Jamshid XOLMIRZAYEV,
University of Economics and Pedagogy
“Filologiya” kafedrasi assistant o‘qituvchisi
E-mail:john1209@mail.ru

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA ANGLO-AMERIKANIZMLARNING TADQIQI MASALASI

Annotatsiya: ushbu maqola anglo-amerikanizm deb ataladigan so‘zlarning o‘zbek tiliga tobora ko‘proq ta’sir ko‘rsatayotganini, ayniqsa texnologiya, biznes va ommaviy madaniyat sohalarida qanday faol qo‘llanilayotganini tahlil qiladi. Maqolada, xususan, ingliz tilidan olingan so‘zlar va iboralarga—anglo-amerikanizmlarga—qaratilgan tadqiqotlar, G‘arb va Sharq tilshunoslari, shuningdek, o‘zbek olimlarining ishlanmalari batafsil yoritilgan.Maqola, anglo-amerikanizmlarning o‘zbek tiliga qanday kirib borayotgani, bu so‘zlarning til lug‘aviy boyligini oshirish bilan birga madaniy identifikatsiyaga qanday ta’sir qilayotgani haqida ham fikr yuritadi. Shuningdek, ushbu jarayonning ortidagi sabablar, masalan, texnologiya, biznes atamalari va G‘arb ommaviy axborot vositalarining global ta’siri o‘rganiladi.Maqola, bu o‘zgarishlarning o‘zbek tili va madaniyatiga ta’siri haqida ham fikr yuritib, til taraqqiyotini madaniy merosni asrab qolish bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: *anglo-amerikanizmlar, o‘zbek tili, texnologiya, biznes, ommaviy madaniyat, til o‘zgarishi, madaniy identitet, globalizatsiya, til taraqqiyoti, madaniy saqlanish.*

Annotation: this article examines how Anglo-American terms are increasingly influencing the Uzbek language, especially in areas like technology, business, and popular culture. In this article, the research conducted by both Western and Eastern linguists, as well as scholars from Uzbekistan, regarding borrowed words—particularly Anglo-Americanisms—has been thoroughly examined. It shows how Anglo-Americanisms are being adopted into Uzbek, adding to the language’s vocabulary but also impacting its cultural identity. The article looks into the reasons behind this trend, such as the global reach of technology, business terms, and Western media. It also considers the effects these changes have on Uzbek language and culture, emphasizing the need to balance linguistic development with cultural preservation.

Key words: *anglo-americanisms, Uzbek language, technology, business, popular culture, linguistic change, cultural identity, globalization, language development, cultural preservation.*

Аннотация: эта статья исследует, как англо-американские термины все больше влияют на узбекский язык, особенно в таких областях, как технологии, бизнес и популярная культура. В статье подробно рассматриваются исследования, проведенные как западными, так и восточными лингвистами, а также учеными из Узбекистана, касающиеся заимствованных слов — особенно англо-американизмов. Анализируется, как англо-американизмы проникают в узбекский язык, обогащая его словарный запас, но также влияя на культурную идентичность. Статья исследует причины этого процесса, такие как глобальное распространение технологий, бизнес-терминов и западных СМИ. Также рассматриваются последствия этих изменений для узбекского языка и культуры, с акцентом на необходимость сбалансировать языковое развитие с сохранением культурного наследия.

Ключевые слова:*Англо-американизмы, узбекский язык, технологии, бизнес, популярная культура, языковое изменение, культурная идентичность, глобализация, развитие языка, сохранение культуры.*

Kirish. Bugungi kunda ingliz tili - xalqaro tashkilotlar va konferensiyalar, ilmiy nashrlar, internet-kommunikatsiyalar, onlayn-konferensiyalar, xalqaro huquq va qonunlarning tili hisoblanadi. Ingliz tilining axborot texnologiyalari va madaniyatlararo kommunikatsiyalar sohasida keng tarqalishining natijasida tilimizning lug‘at boyligi sezilarli ravishda oshib bormoqda. Tilning ahamiyati uning jamiyat hayoti bilan yaqin aloqada bo‘lib, xalqning madaniy qadriyatlarini o‘zining lug‘aviy tarkibida jamlashi va saqlashi, yozma va og‘zaki nutqda amalga oshirishida yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zlashgan leksika (olinma so‘zlar) nafaqat o‘zining so‘z yasash tizimini qabul qiluvchi tilga olib kiradi, balki uning dunyoni lisoniy manzarasini o‘sha lingvomadaniyatda shakllantirish usulini ham takomillashtiradi.

Lingvistlar, madaniyatshunoslar va boshqa tadqiqotchilar tomonidan anglitsizmlar tadqiqot obyekti sifatida qiziqish uyg‘otishi lug‘aviy tarkib qabul qiluvchida dunyo va qadriyatlar tizimiga oid o‘ziga xos tasavvurni shakllantirishi bilan bog‘liq. Boshqacha qilib aytganda, anglisizmlarning ongli ravishda qo‘llanilishi jamiyatning rivojlanish tendensiyalari va kayfiyatlarini aks ettiradi. Shu munosabat bilan anglisizmlar hisobiga turli tizimdagi tillar lug‘aviy tarkibining shakllanishiga bag‘ishlangan tadqiqotlar, qabul qiluvchi til egalarining chet til leksikasiga bo‘lgan munosabati, anglisizmlarning mazmunli tuzilishining o‘zlashtirgan tildagi ekvivalentlari bilan taqqoslanishiga oid tahlillar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Anglisizmlarning o‘zbek tili lug‘aviy tarkibiga ommaviy ravishda kirib kelishi san’at, texnika, iqtisodiyot, siyosat, servis sohalaridagi ko‘pgina tendensiyalar aynan ingliz tilidagi mamlakatlardan boshlanishi bilan bog‘liq. [1] Shuningdek, ingliz tili bugungi kunda dunyo miqyosida universal kommunikatsiya vositasi sifatida qaralmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XXI asrning boshlaridan boshlab anglo-amerikanizm atamasidan faoydalanish tilshunoslar ishlarida keng tus ola boshladi. Dastlab, tilshunoslar o‘z tadqiqot ishlarining obyekti sifatida faqat ingliz tilidan olingan so‘zlar kesimida umumiy holatda ko‘rib chiqishgan. Anglo-amerikanizmlarni tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish keng tarqalmagan edi va bu nisbatan yangi tadqiqot sanaladi.Anglitsizm va anglo-amerikanizm ingliz tilining boshqa tillarga ta’sir ko‘rsatadigan unsurlarini ifodalovchi atamalardir, ammo ularning ma’nosi o‘zaro farqlidir:

Anglisizm atamasi ingliz tilidagi so‘zlar, iboralar yoki xususiyatlarning boshqa tilga olingan shakllarini ifodalaydi.Anglitsizmlar ko‘pincha Britaniya ingliz tilidan kelib chiqadi va lug‘at, idiomalar, iboralar va hatto grammatik tuzilmalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Masalan, “hafta oxiri”, “kompyuter” va “noutbuk” (laptop) kabi so‘zlar ko‘plab tillarda anglitsizm sifatida qabul qilinadi.Bu atama odatda kengroq ma’noda bo‘lib, ingliz tilining qaysi hududdan kelib chiqqanidan qat’iy nazar, har qanday ingliz tilidagi ta’sirni o‘z ichiga oladi.

Anglo-amerikanizm atamasi esa aynan Amerika ingliz tilidan olingan so‘zlar, iboralar yoki madaniy unsurlarni anglatadi.Barcha anglo-amerikanizmlar texnik jihatdan anglitsizm sanalsa-da, barcha anglitsizmlar anglo-amerikanizm emas. Anglo-amerikanizmlarga “cool”, “movie”, va “OK” kabi so‘zlar kiradi, ular AQShda paydo bo‘lgan va boshqa tillarga tarqalgan. Bu atama Amerikaning madaniy va lingvistik ta’sirini Britaniyadan ko‘ra ko‘proq aks ettiradi.

Dunyoning turli mamlakatlari tilshunos olimlari anglo-amerikanizm tushunchasini quyidagicha ko‘rib chiqishni taklif qiladilar:

– ingliz tilidan o‘zlashgan va boshqa tilda foydalaniladigan so‘z;

– psevdoso‘z – so‘zlarning “qirindilarini” ko‘pincha noaniq xalqaro yoki anglo-amerikan manbasidan olib birlashtirish yo‘li bilan shakllangan; [2,383]

– ingliz tilining Amerika Qo‘shma Shtatlarida faoliyat yurituvchi xususiyatlarini aks ettiruvchi yoki amerikalik ingliz tili variantidan olingan so‘z (ibora, nutq aylanmalar).[5]

Ushbu tadqiqot ishimizning obyektini aynan anglo-amerikanizmlar deb nomlashimizga asosiy sabablar quyidagilardir. Dunyo bo‘ylab ko‘plab sohalarda, xususan fan va texnikada eng so‘nggi yangiliklar va kashfiyotlar asosan Amerika Qo‘shma Shtatlarida bo‘ladi va tabiiyki ular anglo amerikancha nomlanadi. Yangi terminlar va tushunchalar uchun qabul qiluvchi turli tizimdagi tillarda muqobil nomlarning yo‘qligi, xususan, OAV, iqtisodiyot, musiqa, sport, texnika kabi sohalarda anglo-amerikanizmlarning paydo bo‘lishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Masalan, “plotter” so‘zini o‘zbek tiliga tarjima qilish mumkin, lekin buni o‘zbekcha quyidagicha tushuntirish mumkin: “chizmalar, sxemalar, rasmlar va diagrammalar kabi grafik axborotlarni kompyuterdan katta hajmda chop etish qurilmasi”.Ushbu keltirilgan misoldan shuki anglashimiz mumkinki, anglo-amerikanizmlardan foydalanish orqali tilning ixchamligi va qisqaligiga erishish mumkin. Shu munosabat bilan anglo-amerikanizmdan foydalanishni til iqtisodiyoti

va muvaffaqiyatli kommunikatsiya maqsadida oqlangan deb hisoblash mumkin.

L.P. Krisin o‘zining “So‘z yaratish yoki so‘z o‘zlashtirish?” asarida anglisizmlar va anglo-amerikanizmlar bo‘yicha eng ko‘p hajmni egallagan tematik guruhlarni ko‘rsatadi. L.P. Krisin bu guruhlarga biznes, iqtisodiyot, kompyuter texnikasi va menejment sohalarini kiritadi. [7,196-202]

OAV va reklama sohasi nemis madaniyatida anglo-amerikanizmlarning rivojlanishi va tarqalishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.A.A.Piskareva o‘zining “Globalizatsiyaning tilga ta’siri” asarida yoshlarni “reklamalar biznesining eng yirik maqsadli auditoriyasi” sifatida ko‘rsatadi.Nemis yoshlar tilida anglo-amerikanizmlarning keng tarqalishi sabablarini umumlashtirgan holda, muallif anglo-amerikanizmlar ko‘pligini “kundalik va oddiy narsalarni ekzotikalashtirish va o‘z dunyosini kattalar dunyosidan ajratish” bilan izohlaydi.[11,233]

T.V. Nechiporuk va N.V. Chex o‘zining “Nemis davriy nashrlaridagi reklamalar matnlarida inglizcha o‘zlashmalar” asarida zamonaviy nemis tilida anglo-amerikanizmlardan foydalanishning asosiy sabablaridan biriga jurnallar misolida ishora qiladilar: “Cosmopolitan,” “Brigitte,” “Freundin” va boshqalar. Mualliflar anglo-amerikanizmlarning o‘quvchilarga psixologik ta’sirini ta’kidlab, ularning diqqatni jalb qilish, reklamani yorqinroq qilish va sotiladigan tovarning imijini boshqa madaniy-til muhitiga yaxshiroq olib o‘tishga yordam berishini ta’kidlaydilar.[10]

S.V.Kudryashova anglo-amerikanizmlarning tematik tasnifi ustida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazgan.U olti asosiy tematik so‘z guruhini ko‘rsatadi, ular: artefaktlar, texnik-iqtisodiy faoliyat, madaniyat, san’at va shou-biznes sohasidagi realiyalar, shaxs (inson), sport.[8]

I.A.Sibova fransuz tili materiallari asosida ekzotik so‘zlar, yoki ekzotizmlarni, boshqa madaniyatning hayotidagi narsalar va hodisalarni belgilaydigan anglo-amerikanizmlar sifatida ko‘rib chiqadi.I.A.Sibova bularga shaxsiy ismlar, etnografizmlar va regionalizmlarni ham qo‘shadi (Times, General Motors, British Airways, John).[12,125]

1867-yilda V.Butuzovning“Словарь особенных слов, фраз и оборотов английского народного языка и употребительнейших американизмов, не введенных в обыкновенные словари. Настольная книга для изучающих английский язык, для переводчиков и читателей английских литературных произведений.”(“Ingliz xalq tilining o‘ziga xos so‘zlari, iboralari va aylanishlari hamda oddiy lug‘atlarga kiritilmagan eng ko‘p ishlatiladigan amerikanizmlar lug‘ati. Ingliz tilini o‘rganayotganlar, tarjimonlar va ingliz adabiy asarlarining o‘quvchilari uchun qo‘llanma kitob”) lug‘ati chop etilgan.[3,373] Lug‘atlarning paydo bo‘lishi rus jamoatchiligining ingliz va amerikalik madaniyatiga bo‘lgan qiziqishini ko‘rsatgan. 150 yildan keyin bunday lug‘atlarning nashr etish zarurati yana paydo bo‘ldi; faqatgina 20-asrning 90-yillari oxirida ikki qo‘llanma chop etildi: “***Краткий англо-русский словарь американизмов и слэнга***” Tuzuvchilar: A. V. Bushuev va boshqalar (Smolensk, 1997); [4] Maksimov T. V. “Словарь англицизмов” (50—90-yillari 20-asr) (Volgograd, 1998). [9,136]

Amerikanizmlarning ingliz tilida qo‘llanilishi masalasi doimiy ravishda mahalliy va xorijiy olimlar hamda pedagoglarning e’tiborini tortib kelmoqda – V. D. Arakin, G. A. Veykhman, A. A. Evseev, K. V. Dushenko, N. K. Ivanova, Ya. A. Goldovanskiy, L. P. Kislyuk, A. V. Klimenko, M. M. Moskovtsev, H. V. Nesterchuk, A. I. Smirnitskiy, H. D. Tomaxin. Bu mavzuga bag‘ishlangan ko‘plab kitoblar, jurnallar, maqolalar buni tasdiqlaydi, masalan: “Stages of development of words of foreign language origin in the system of the recipient language”(Chet tilidan kirib kelgan so‘zlarning qabul qiluvchi til tizimidagi rivojlanish bosqichlari) (Ya. A. Goldovanskiy), “To the sources of the term “Americanism” (Amerikanizm atamasining manbalari) (A. A. Evseev), “Realities-Americanisms”(Realliklar-Amerikanizmlar” (H. D. Tomaxin) va boshqalar. Shunga qaramay, zamonaviy ingliz tilida amerikanizmlarning qo‘llanilishi muammosi hali ham yetarli darajada o‘rganilmagan.

Ingliz-amerikanizmlarning kirib kelish sabablarini A.A.Pisareva, O.S. Mjelskaya, Ye.I. Stepanova, S.V. Mangushev, V.M. Pavlov, Ye.V. Rozen kabi olimlar o‘rgangan; ingliz-amerikanizmlarni tasniflashga harakat qilganlar orasida esa T.V. Nechiporuk, N.V. Chex, Yu.V. Kobenko, N.A. Kuleshova, A.E. Zemska, P. Polents va boshqalar bor.

Anglo-amerikanizmlarni tarjima qilish muammosi ko‘plab olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan va hozir ham shunday. Bu borada M.A. Banshikova, L.S. Barxudarov, V.S. Vinogradov, A.A. Patrikeeva, A.V. Moreva, V.N. Komissarov, M.S. Omelchenko va boshqa ko‘plab olimlarning asarlarini eslash lozim. Ingliz-amerikanizmlar nafaqat ommaviy axborot vositalari, reklama, iqtisodiyot sohalariga, balki badiiy adabiyotga ham chuqur kirib kelgan. Shunday qilib, ushbu ishning dolzarbligi ingliz-amerikanizmlarni, ayniqsa, badiiy adabiyotda, yanada chuqurroq o‘rganish zaruratida namoyon bo‘ladi; shuningdek,

bunday birliklarni tarjima qilish masalalari hali ham to‘liq o‘rganilmagan bo‘lib qolmoqda.[6]

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, anglo-amerikanizmlarni tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish ko‘plab muhim xususiyatlarga egadir.Xususan, anglo-amerikanizmlar tilning o‘zgarish jarayonlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Chunki ular yangi so‘zlar, iboralar va grammatik tuzilmalar orqali boshqa tillarga ta’sir ko‘rsatadi.Bu ta’sirni o‘rganish orqali tilning rivojlanishi va zamonaviylashuv jarayonlarini tahlil qilish mumkin;

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolaning tadqiqot metodologiyasi anglo-amerikanizmlarning o‘zbek tiliga kirib kelishini o‘rganishda bir nechta metodlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Avvalo, leksik tahlil yordamida inglizcha so‘zlarning o‘zbek tilidagi semantik, fonetik va grammatik o‘zgarishlari o‘rganiladi. Etimologik tahlil orqali anglo-amerikanizmlarning kelib chiqishi va ularning tarixiy rivojlanishi aniqlanadi.Komparativ tahlil yordamida o‘zbek tilidagi anglo-amerikanizmlar va boshqa tillardagi o‘xshash so‘zlar solishtiriladi.Madaniy tahlil metodida esa ingliz tilidan olingan so‘zlarning o‘zbek madaniyatiga ta’siri va ijtimoiy roli o‘rganiladi.Empirik tadqiqotda anglo-amerikanizmlarning kundalik muloqotdagi qo‘llanilishi va ularning tarqalish darajasi o‘rganiladi. Tadqiqotda lingvistik va madaniyatshunoslik yondashuvi birgalikda qo‘llanilib, bu jarayonning til va madaniyatga qanday ta’sir ko‘rsatgani aniqlanadi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Anglo-amerikanizmlarning o‘zbek internet muloqotda qo‘llanish misollar kartotekasi ishlab chiqildi;

Anglo-amerikanizmlarning assimilyatsiya darajasiga ko‘ra va struktur-semantik jihatdan tasniflash amaliy tarzda ishlab chiqildi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish joizki, ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlarni anglisizmlar yoki anglo-amerikanizmlar termini ostida farqlab, tadqiqotlar olib borish nisbatan yangi jarayon hisoblanadi. O‘zbek leksikologiyasida Anglo-amerikanizmlardan foydalanishning eng katta foydali tomoni shundaki, mamlakatimiz fuqarolari tomonidan jahonda yuz berayotgan eng so‘nggi siyosiy, iqtisodiy va texnologik yangiliklardan xabardor bo‘lish imkoniga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Crystal, D. *English as a Global Language.*Cambridge University Press, 2012.
2. Zimmer, D. E. *Deutsch und anders: die Sprache in Modernisierungsfieber.* Hamburg: Rowohlt, 1997. 383 S.
3. Бутузовъ, В. *Словарь особенныхъ словъ, фразъ и оборотовъ англійскаго народнаго языка и употребительнѣйшихъ американизмовъ, не введенныхъ въ обыкновенные словари.* Санктпетербургъ: Типографія Императорской Академіи Наукъ, 1867. 373 с.
4. Бушуев, А.В.; Бушуева, Т.С.; Уткин, А.Л. *‘Краткий англо-русский словарь американизмов и слэнга’.* Смоленск: ТОО «Инга», 1997 г.
5. Ефремова, М.В. *Взаимосвязь гражданской и религиозной идентичности с экономическими установками и представлениями.*
6. Касицкая, П. Г.*“Проблемы перевода англо-американизмов в немецком романе ильдико фон кюрти «тариф на лунный свет”.* Томск, 2019.
7. Крысин, Л. П. *Словообразование или заимствование?*//. Москва: Наследие, 1998. С. 196–202.
8. Кудряшова, С. В. *Тематическая классификация англо-американских заимствований в испанском языке.* Текст научной статьи по специальности «Языкознание и литературоведение». 2014.
9. Максимова, Т.В. *Словарь англицизмов (50–90-е гг. XX в.).* Волгоград: Изд-во Волгоград, гос. ун-та, 1998. 136 с.
10. Нечипорук, Т.В.; Чех, Н.В. *Англоязычные заимствования в немецких рекламных текстах периодических изданий* // Vernadsky National Library of Ukraine. Вопросы духовной культуры – Филологические науки.
11. Пискарева, А. А. *Языковые следствия глобализации (на материале функционирования англицизмов в немецком языке): диссертация ... кандидата филологических наук: 10.02.19.* Москва: Военный университет, 2015. 233 с.
12. Цыбова, И.А. *Словообразование в современном французском языке: учебное пособие.* Москва: Высшая школа, 2008. 125 с. ISBN 978-5-06-005016-5.

Durdona ERMATOVA,
ToshDO‘TAU 10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik (Ingliz tili) stajyor-tadqiqotchisi
durdonaxon97@gmail.com



INGLIZ VA O‘ZBEK BADIIY MATNLARDA AXBOROT UZATISHNING LINGVISTIK ORTIQCHALIK VA TEJAMKORLIK KOGNITIV TAMOYILLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida axborot uzatishning lingvistik tejamkorlik va ortiqchalikning kognitiv tamoyillari o‘rganiladi. Unda hikoya tuzilishi, madaniy kontekst va til xususiyatlari o‘quvchining qabul qilishi va tushunishiga qanday ta’sir qilishi tahlil qilinadi. Maqola axborot uzatuvchi omillarning farq va o‘xshashliklarini ochib beradi hamda mualliflar tomonidan o‘quvchini jalb qilish, hissiyot uyg‘otish va ma’no yetkazish uchun qo‘llaniladigan kognitiv strategiyalarga e’tibor qaratadi. Ingliz va o‘zbek matnlarini solishtirgan holda, tadqiqot til, madaniyat va kognitsiya (bilish) o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni o‘rganadi .

Kalit so‘zlar: *lingvistik tejamkorlik va ortiqchalik, hikoya tuzilishi, madaniy kontekst.*

Аннотация: в данном исследовании рассматриваются когнитивные аспекты, такие как языковая экономия и избыточность распределения информации в английских и узбекских литературных текстах, с акцентом на то, как повествовательная структура, культурный контекст и языковые особенности влияют на восприятие и понимание читателя. Анализ выявляет различия и сходства в организации информации, подчеркивая когнитивные стратегии, используемые авторами для вовлечения читателей, вызова эмоций и передачи смыслов. Сравнение английских и узбекских текстов позволяет изучить взаимодействие языка, культуры и когниции, давая представление о том, как различные литературные традиции формируют поток и интерпретацию информации.

Ключевые слова: *языковая экономия, языковая избыточность, структура повествования, культурный контекст*.

Annotation: this study examines the cognitive aspects such as linguistic economy and redundancy of information distribution in English and Uzbek literary texts, focusing on how narrative structure, cultural context, and linguistic features influence the reader’s perception and understanding. The analysis highlights the differences and similarities in the organization of information, emphasizing cognitive strategies employed by authors to engage readers, evoke emotions, and convey meaning. By comparing English and Uzbek texts, the study explores the interplay between language, culture, and cognition, providing insights into how distinct literary traditions shape the flow and interpretation of information.

Key words: *linguistic economy, linguistic redundancy, narrative structure, cultural context.*

Kognitiv tamoyillar matnda ma’lumotni tashkil qilishning kognitiv shartlari va cheklovlari, ma’lumotni ketma-ket uzatishning kognitiv asoslari sifatida tushuniladi. Matnda axborot uzatishning bir nechta kognitiv tamoyillari mavjud: ikoniklik, mos kelish (relevantlik), saliyentlik (ajratilganlik), ilgari surish, lingvistik tejamkorlik va ortiqchalik. Ushbu maqolada lingvistik tejamkorlik va ortiqchalik tamoyillari alohida ko‘rib chiqiladi.

Matnda axborotni uzatishning kognitiv tamoyillaridan bu – ***lingvistik tejamkorlik***. Ushbu atama 1955-yil fransuz tilshunosi A.Martinetning “Economie des changements phonétiques” kitobiga “classical definition” (mumtoz ta’rif) nomi bilan kiritilgan. Andre Martinet lingvistik tejamkorlikning fonologiya va sintaksisda paydo bo‘lish hodisalarini o‘rgangan hamda uni muloqot ehtiyojlari – har doim o‘zgarib turadigan va tabiiy inson inertsiyasi o‘rtasidagi beqaror muvozanat sifatida ta’rif bergan. A.Martinetning tadqiqot ishlariga tayangan holda, amerikalik tilshunos olim G.K.Zipf ham lingvistik tejamkorlik tamoyili yuzasidan ilmiy ishlarni olib borgan. Kingsley Zipf ushbu tamoyilga “Principle of least effort” (kamroq harakat qilish tamoyili” deb ta’rif bergan . Uning aytishicha, kam harakat qilish tamoyili shuni anglatadiki, masalan, inson o‘zining darhol hal qilishi kerak bo‘lgan muammolarini, o‘zining ehtimoliy kelajak muammolariga nisbatan baholaydi. Bundan tashqari, u muammolarini hal qilishda, darhol hal qilishi kerak bo‘lgan muammolari va ehtimoliy kelajak muammolari uchun sarflanadigan umumiy ishni minimal darajaga tushirishga harakat qiladi. Bu o‘z navbatida, insonning ish sarfi ehtimoliy o‘rtacha darajasini (vaqt o‘tishi bilan) minimal darajaga tushirishga intilishidir. Shunday qilib, kam harakat qilish, shuning uchun, kam ish qilishning bir o‘zgarishi hisoblanadi. G.K.Zipf nutqni tabiiy fenomen sifatida o‘rganishga harakat qilgan va tejamkorlikka bo‘lgan intilish inson xulq-atvorining

har qanday jihatini tartibga soluvchi mezon ekanligini aniqlagan.

Lingvistik tejamkorlik nutqdagi turli vositalar bilan amalga oshiriladi. Morfologik jihatdan so‘zlashuv nuqtida ko‘pincha grammatik qisqartmalar ishlatiladi. Masalan, ingliz tilidagi I will = I’ll, he had = he’d, do not = don’t, o‘zbek tilidagi quyoshli emas = quyoshlimas, borar edim = borardim, yeyayotgan edik = yeyayotgandik singari misollarni keltirish mumkin. Leksik jihatdan til tejamkorligi uchun juda ko‘p qisqartirilgan so‘z va iboralardan foydalanish mumkin. Jumladan, ingliz tilida *fridge = refrigerator, doc = doctor, comp = computer, ad = adverticement, morning = good morning, bye = good-bye,* o‘zbek tilidagi *biofak = biologiya fakulteti, jurfak = jurnalistika fakulteti, O‘Zas= O‘zbekiston adabiyot va san’ati* kabi so‘zlarni, iboralardan *when in Rome = when in Rome, do as the Romans, the last straw = the straw that broke the camel’s back* larni misol sifatida keltirish mumkin.


“Xudoga shukr, Rahmatillasi yaxshi bola chiqdi. Ichmaydi, chekmaydi, yomon yo‘lga yurmaydi. ***Uyam*** *shu yerda* ***o‘qirdi****.* ***Biofakda****. Birinchi kursni bitirib armiyaga ketdi. Nasib etsa, keladi, erta-indin”* . Ushbu parchada ko‘rinib turibdiki, muallif badiiy matnda asosiy gap mazmunini tinglovchiga aniq va ixcham shaklda yetkazish uchun ham grammatik, ham leksik qisqartmalardan, ya’ni *uyam (u ham), o‘qirdi (o‘qir edi), biofak (biologiya fakulteti)* foydalangan.

Sintaktik jihatdan esa lingvistik tejamkorlik turli shakllarda, ya’ni *to‘liqsiz, uyushiq bo‘lakli, atov gaplarda* namoyon bo‘ladi. So‘zlashuv uslubidagi lingvistik tejamkorlikka moyillikni britaniyalik tilshunos olim P.Gris tomonidan shakllantirilgan asosiy kommunikativ tamoyillar bilan izohlash mumkin: qisqa bo‘lish, gapni to‘g‘ri aytish, fikrni aniq ifodalash va hokazo.

Shuni ta’kidlash kerakki, har xil matn turlarida lingvistik tejamkorlik tamoyili turlicha rol o‘ynaydi. Gazeta matnlari uchun bu tamoyil, ayniqsa, muhimdir. Gazeta maqolalarining, xususan, qisqacha yangiliklarning asosiy vazifasi o‘quvchini xabardor qilish hisoblanadi. Shuning uchun izohlar batafsil tavsiflarsiz faktlarni bayon qiladi. Ammo gazeta uslubidagi lingvistik tejamkorlikning asosiy vositasi turli xil, xususan, mamlakatlar va shaharlar nomlari, siyosiy tashkilotlar, kompaniyalar va firmalar, jamoat va davlat organlari qisqartmalaridan foydalanishdir. Ularga misol qilib ingliz tilidagi *UK (United Kingdom of Great Britain and Northern Ireland), NY (New York), UNO (United Nations Organization), BBC (British Broadcasting Company), P.M. (Prime Minister), M.P. (Member of Parliament),* o‘zbek tilidagi *BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), ShHT (Shanxay hamkorlik tashkiloti), MDH (Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi), O‘zRFA (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi), O‘zXDP (O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi), O‘Zr (O‘zbekiston Respublikasi), SQB (Sanoat qurilish bank), MFY (Mahalla fuqarolar yig‘ini), OAK (Oliy attestatsiya komissiyasi)* va boshqalarni misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Shuningdek, ilmiy matnlarda ham lingvistik tejamkorlik vositalari faol ishlatiladi. Shu boisdan ham ilmiy matnning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu “alohida qisqartmalar” dan foydalanish hisoblanadi. Masalan, ingliz tilida ilmiy atamalar va darajalar “*prof (professor), doc (doctor), lab (laboratory), fig (figure)”* kabi shaklida berilsa, o‘zbek tilida *“prof.(professor), f.f.d (filologiya fanlari doktori), t.f.n. (tarix fanlari nomzodi), f.f.f.d. (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori)”* shu tarzda qisqa shaklda ilmiy matnlarda keng ishlatiladi. Bundan tashqari, har bir sohaga oid ilmiy atamalar ham til tejamkorligini saqlash maqsadida qisqa shaklda qo‘llanilishi mumkin: *SD (stylistic device), FS (functional style), OE (Old English), COD (Coincise Oxford Dictionary), KT (Kognitiv tilshunoslik), IL (Izohli lug‘at), FOT (Fonetik o‘qitish tizimi), TQ (Til qurilishi) va hokazo.*

Badiiy matnda lingvistik tejamkorlik tamoyiliga asoslangan stilistik vositalar mavjud. Bularga misol sifatida jonlantirish, tashbeh, metafora, metonimiya kabilarni keltirish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, konseptual integratsiya mexanizmi asosida qurilgan barcha stilistik vositalar shaklning qisqaligi va mazmunning chuqurligi bilan ajralib turadi. Kontseptual integratsiya atamasi ilk bor tilshunos olimlar G.Fauconnier va M.Turnerlar tomonidan fanga kiritilgan. Ularning fikricha, konseptual integratsiya ikkidan ortiq konseptual makonlarni, umumiy konseptual xususiyatlarni birlashtirishga qaratilgan bilim jarayoni bo‘lib, buning natijasida yangi ma’nolar shakllanadi . Konseptual integratsiya nazariyasi, shuningdek, aqliy makonlar nazariyasi va konseptual metafora nazariyasining rivojlanishi sifatida qaraladi. G.Fauconnier va M.Turner tomonidan belgilanganidek, konseptual integratsiya jarayoni kamida to‘rt konseptual makonni o‘z ichiga oladi: dastlabki, markaziy, umumiy va integratsiyalashgan konseptual makonlar . “Domen” atamasi ko‘pincha ilmiy nashrlarda “makon” tushunchasi o‘rniga ishlatiladi. Manba/mohiyat makoni yoki domen (domen/kirish makoni) — o‘ziga xos leksik ma’noga ega bo‘lgan va o‘ziga xos konseptual xususiyatlar bilan ajralib turadigan konseptni o‘z ichiga olgan aqldagi maydon. Umumiy makon esa, asl va markaziy aqliy makonlarda mavjud bo‘lgan tipik konseptual elementlarni o‘z ichiga oladi. Manba va markaziy makonlarni o‘rganish ko‘pincha birinchi navbatda, bir xil aqliy makonni ochib beradi. Asl va markaziy aqliy makonlar birlashtirilganda, integratsiyalashgan makon (blend) deb ataladigan yangi ma’no hosil bo‘ladi. Demak, konseptual integratsiya jarayoni integratsiyalashgan makonni keltirib chiqaradi. Konseptual integratsiya qanday ishlashini ko‘rsatish uchun quyidagi kognitiv jarayonning sxemasini ko‘rsatish mumkin:



Masalan, Choʻlpon “Kecha va Kunduz” asarida Zebi ismli asosiy qahramonni tasvirlash uchun Dovud paygʻambariga murojaat qilgan. Muallif Zebi ovozini Dovud paygʻambar ovozi bilan taqqoslab, *“**U Dovudiy** ovoz sohibi”* degan jumlani keltiradi. Dovud paygʻambar — Qur’onda nomi zikr etilgan 27 paygʻambardan biridir. Shunday qilib, bu ikkita tushuncha ikkita aqliy makonda tahlil qilinadi: “U” — Input I (markaziy domen) va “Dovud” — Input II (asl makon). Jins kategoriyalar xilma-xilligini inobatga olgan holda, ularning bir qobiliyati oʻrtasidagi oʻxshashlik aniqlanadi.

*“Bu soʻnggi kalta jumlaning aytilishidagi samimiyat bir-biri bilan yaqin oʻrtoq tutishgan yosh qizlardagina boʻladi. “Xafa boʻlmang-a?” deb turgan vaqtida Zebining yuzini koʻrish kerak edi, bir qoʻlida supurgi, bir qoʻli tizzasida, supurgi ham yerdan uzib olingan emas, faqat bosh yuqori koʻtarilganu butun vujud Saltining ixtiyorida! **Koʻngil, orzu, sevgi, sevinch**... bular hammasi Saltiga tomon uchadi, unga tomon otiladi, uni oʻrab, uni aylantirib, uni quchadi! Zebining yuzlaridagi — **oyday tiniq va quyoshday yorugʻ** bu holat moddiy haqiqatlar qadar ochiq koʻrinardi*”.

*“— Orangizda **dongʻi ketgan ashulachi**ngiz bor turib, menga osilganlaring qiziq! — dedi. — Biz, “suv boʻlmasa tayammum”ga yaraydigan ashulachilardan... Qizlar hammasi Zebiga qarashdilar. Har tomondan har xil ovozlar chiqdi:*

— Ha, rost!

— Chinakam, indamay oʻtirganimizni qaranglar-a!

*— **Ashulachi** oramizda-ku.*

***Zebi** “churq” etmasdan oʻtirardi”.*

*“Bir-ikki bayt oʻtgandan keyin Zebining **tiniq, gʻuborsiz, jonon piyoladek jaranglab chiqadigan chiroyli va oʻtkir ovozi** qoʻshildi. Bu ovoz, peshona ustida pilpillagan eng **yorugʻ yulduz** singari, boshqa ovozlardan ochiq ajralib turardi. Shu choqqacha “yor-yor”ga quloq berib, indamasdan, asta-asta otini qamchilab ketayotgan aravakash bu ovoz chiqishi bilan ogʻir bir “uh” tortdi, qoʻlidagi qamchisi daraxtdagi kuzgi yaproq singari zoʻrgʻa-zoʻrgʻa barmoqlariga osilib qoldi.*

*Saltining didi toʻgʻri chiqqan edi; endi, Zebi “yoryor”ni oʻzi yolgʻiz aytardi. Aravakash bilan birga, qolgan qizlar — hammasi bir quloqqa aylangan edilar. Ot bu **goʻzal ovoz**ning **shirin kuylari** ostida boshini quyi solib, boʻynini asta-asta likillatib bitta-bitta qadam bosardi... “Yor-yor”lar bitib, boshqa har xil kuylarga oʻtildi, endi Zebini toʻxtatmoq mumkin emasdi. Zotan, uning toʻxtashini kim istar edi, deysiz? Dalalarning keng quchoqlaridan uchishib kelgan mayin shabadalar qiz ogʻzidan chiqqan unlarni oʻz qanotlariga mindirib, allaqayerlarga, olislarga olib ketardilar”.*

Yuqorida keltirilgan asar parchalaridan shular ma’lum boʻldiki, muallif Zebining xushovozligini ***dongʻi ketgan ashulachi, tiniq, gʻuborsiz, jonon piyoladek jaranglab chiqadigan chiroyli va oʻtkir ovozli, goʻzal ovoz**ning **shirin kuylari*** kabi tavsiflar berish orqali Dovud paygʻambarning ovozlariga qiyoslagan.

Dovud paygʻambarning ovozlarini haqiqatdan shirali va ohangrabo ekanligini isboti sifatida Nosiruddin Rabgʻuziyning “Qissasi Rabgʻuziy” asarida ularga nisbatan berilgan quyidagi ta’rifni keltirish mumkin:


*“Tevalar ularning **ovozlariga xushlanib** oʻzlariga xushlanib oʻzlaridan kechalar, ilikka ilinurlar”.*

*“Ey Dovud, biz seni yer yuziga **podshoh** qildik”.*

*“Hamd boʻlsin U zotgaki, menga Zaburni beribdi va menga **temirni ishlatish ilmini** oʻrgatibdi va togʻlarni va qushlarni menga itoat qiladigan qilib beribdi va menga iroda qilish va hukm chiqarish siyosatini beribdi. Bu zot*

*Dovud **alayhissalom** ekanlar”.*

Ikkita makonda berilgan yuqoridagi tasniflardan kelib chiqqan holda, quyidagi integratsiyalashgan makonni (blend) yuzaga keltirish mumkin:



Yuqoridagi chizmada ma’lum bo‘ldiki, Dovud payg‘ambarning ovoz tomonlama qobiliyatini muallif o‘z asarida Zebi qahramonida aks ettirgan. Ikkita makonda berilgan qahramonlar ta’riflarining integratsiyalashuvi natijasida o‘xshash tomonlari birlashtirilib, inson sifatini bildiruvchi yangi so‘z hosil bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, bitta nomdor nomdan foydalanish ko‘plab sahifalarni keng va batafsil tavsiflarni almashtirishi mumkin. Ingliz adabiyotida T.Drayzer tomonidan Aladdin ismi “Sister Carrie” deb ishlatilgan. Drayzer unda “Arab kechalari” ertagiga ishora qiladi. Ishorali ism adabiy bilim tuzilmalarini faollashtiradi.

Badiiy matndagi lingvistik tejamkorlikning sabab va ta’siri ushbu matn turining noaniqlik kabi o‘ziga xos xususiyati bilan izohlanadi. Ko‘pincha badiiy matnda ishlatiladigan so‘zlar juda ko‘p yashirin ma’lumotlarni taqdim qiladi. Ushbu ma’lumotni dekodlash matnni talqin qilishning ustuvor vazifasidir, chunki aniq ma’lumotlarga nisbatan yashirin ma’lumotlar konseptual jihatdan muhimroq hisoblanadi.

Badiiy matnda axborot uzatuvchi yana bir tamoyillardan biri bu – ***Lingvistik ortiqchalik.*** Til ijtimoiy hodisa sifatida shakllanganligi uchun nutq uslubi ixchamlikka, turli ortiqcha vositalardan foydalanmaslikka harakat qiladi. Nutqdagi turli ortiqchalik holatlarni o‘rganuvchi tamoyil bu ortiqchalik tamoyili hisoblanadi. XIX asrga kelib ortiqchalik tamoyilini o‘rganishning metodologik asoslari N.Grech, F.Mikloshich, A.Meye, F.Buslayev, G.Paul, A.Potebnya kabi olimlar tomonidan fanga ma’lum qilingan. Ortiqchalik tamoyiliga asoslangan hodisalardan biri bu pleonazmdir. Pleonazm yunoncha “pleonasmos” so‘zidan olingan bo‘lib, “ortiqchalik” degan ma’noni bildiradi. Pleonazm deganda, bir xil til birliklarining matnda semantik jihatdan takror holda qo‘llanilishi tushuniladi. Ushbu hodisa ilk bora antik davr olimlari, xususan, Kvintilian, Donat, Diomedlar tomonidan o‘rganilgan. Keyinchalik bu tamoyil G.Paul, Ch.Xokket, A.Martine, O.Yesperson kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Masalan, G.Paulning fikriga ko‘ra, har qanday ortiqchalik til uchun begona hodisadir (G.Paul, 1960). Ortiqchalik tamoyiliga asoslangan hodisalardan yana biri bu takroriylikdir. Rus tilshunosligida takroriylik va pleonazm hodisalari batafsil o‘rganib chiqilgan. Xususan, rus lingvisti L.N.Buruxin tildagi pleonazm hodisasi yuzasidan tajriba o‘tkazgan. “Плеоназмы в индивидуальном лексиконе (экспериментальное исследование)” deb nomlangan maqolasida 30 nafar talaba bilan tajriba o‘tkazgani, tajriba jarayonida ularning nutqida qo‘llanilgan ortiqchalik vositalari qay darajada talabalar tomonidan anglanilganligi haqida yozilgan. Tajriba natijasiga ko‘ra, talabalar o‘zlari qo‘llagan nutq brikmalarini qayta-qayta ishlatganda tushunmagan va ularning o‘rniga boshqa yangi birikmalarni ishlatgan hamda tamoman

boshqa yangi so‘z birliklarini hosil qilishgan.

O‘zbek tilshunosligida pleonazm va takroriylik hodisalari N.Mahkamovning “Adabiy norma va pleonazm” nomli tadqiqotida, R. Yusupovaning “Hozirgi o‘zbek poeziyasida lisoniy tejamlilik va ortiqchalik tamoyili” nomli dissertatsiyasida tadqiq etilgan.

Ortiqchalik tamoyili quyidagi shakllarda qo‘llanilishi mumkin:

1) sintaktik jihatdan – bir xil ma’noni ifodalash uchun xizmat etuvchi turli qoidalar va gap qurilmalari mavjud. Masalan, ingliz tilida ega+kesim+to‘ldiruvchi gap bo‘laklari tartibi ortiqchalik tamoyilini keltirib chiqaradi. Chunki ega va kesim gapda joylashuvini o‘zgartirishidan qat’i nazar, gapda ishlatilgan boshqa so‘zlarni aniqlashga yordam beradi;

2) semantik jihatdan – so‘zlar va iboralardagi ortiqchalik vositalari sinonimlar, takror va uning turlari orqali tahlil etiladi. Masalan, *“hot fire”* so‘z birikmasini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu yerda ortiqchalik tamoyili yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki *“fire”* ning o‘zi juda issiq bo‘lishi tinglovchiga ma’lum, lekin unga qo‘shimcha ravishda “hot” sifatining qo‘shilishi tilda ortiqchalik hodisasini keltirib chiqaradi. S. Moemning “The Lion’s Skin” asarida ishlatilgan quyidagi sinonimlarni ko‘rish mumkin:

“Oh, don’t be so damned gentlemanly with me, Bob. We’re a couple of bums and that’s all, there is to it. We could have some grand times together if you’d only have a little sense. You are ***a liar, a humbug and a cheat****, but you seem to be very decent to your wife, and that’s something in your favour. She just dots upon you, doesn’t she? Funny, women are. She is a very nice woman, Bob”*[1].

Ushbu parchada yozuvchi tomonidan bir gapning o‘zida *“liar”* so‘zining ma’nodoshlari, ya’ni *“humbug va cheat”* ishlatilgan.

Cho‘lponning “Buzilgan o‘lkaga” nomli she’rida ishlatilgan takrorni ham ko‘rish mumkin:

Nega seni bir qul kabi qizg‘anmasdan yanchalar?
Nega sening qalin tovshing “ket” demaydi ularga?
Nega sening erkli ko‘ngling erk bermaydi qullarga?[2]

Ushbu she’riy parchada muallif tomonidan *“nega”* so‘zi har bir qatorda mazmun ma’nosiga urg‘u berish maqsadida qo‘llanilgan.

3) fonetik jihatdan – nutqdagi tovush birliklaridan urg‘u, ohang, ritmlar ham ortiqchalik tamoyilini yuzaga keltiradi. Ushbu tovush birliklari tinglovchiga yozuvchining matndagi asosiy maqsadini tushinib olishga yordam beradi. Masalan Longfellovning “The rainy day” she’rini olaylik:

The day is cold and dark and ***dreary***
It rains and the wind is never ***weary***
The wines still cling to the mouldering ***wall,***
But at every gust the dead leaves ***fall,***
And the day is cold and dark and dreary[3].

Ushbu she’rda muallif tomondan ohang jihatdan bir-biriga qofiyadosh so‘zlar *“dreary – weary”, “wall-fall”* ishlatilgan.

O‘zbek adabiyotidan Uvaysiyning “Sog‘indim” radifli g‘azalida ham qofiyadosh so‘zlarning ishlatilganligini ko‘rish mumkin:

Bugun, ey do‘stlar, farzandi ***jononimni*** *sog‘indim,*
Gado bo‘lsam, ne ayb, ul shohi ***davronimni*** *sog‘indim.*
Musofirman, g‘aribman, bekasu ham benavodurman,
Vujudim darda to‘ldi, emdi ***darmonimni*** *sog‘indim*[4].

“Jononimni, davronimni, darmonimni” so‘zlarida bir xil tovush *“-on”* muallif tomonidan mahorat bilan ishlatilgan.

4) pragmatik jihatdan – kundalik muloqotda tushunmovchiliklarni oldini olishdan, ma’lumotni aniqlik bilan gapirishdan ko‘ra ko‘proq ma’lumot yetkazish muhim sanaladi. Ortiqchalik tamoyili esa tinglovchining xatti-harakatidan, yuz ifodasidan ma’lum bo‘ladi.

Xulosa sifatida quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

Badiiy matnlarda axborot uzatishda lingvistik tejamkorlik va ortiqchalik kabi kognitiv tamoyillarni qo‘llash samarali muloqot va tushunish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi;

Axborot uzatuvchi vosita sifatida badiiy matnda lingvistik tejamkorlik muallif tomonidan tinglovchilarga asosiy mazmunni to‘g‘ri mazmunda va shaklda yetkazish uchun turli xil qisqartmalar, qisqa grammatik qurilmalardan foydalaniladi;

O‘quvchilar ma’lumotni qanday qabul qilishlari, qayta ishlashlari va saqlashlarini tushunib, yozuvchilar matn tuzilishi va taqdimotini optimallashtirishlari mumkin. Berilgan axborotni qabul qilish, aniq ierarxiyalarni o‘rnatish, g‘oyalar o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash, diqqatni jalb qilish va ortiqchalik orqali asosiy fikrlarni ta’kidlash – bularning barchasi o‘qish va saqlashni yaxshilashga yordam beradi. Bundan tashqari, interfaol elementlar va mavjud sxemalardan foydalanish ma’lumotning mazmunliroq bo‘lishiga va o‘quvchini jalb qilishga yordam beradi. Ushbu tamoyillarga rioya qilgan holda, yozuvchilar nafaqat ma’lumotni samarali yetkazib berish, balki o‘z o‘quvchilari bilan chuqurroq tushunish va ishtirok etishni osonlashtiradigan matnlarni yaratishi mumkin. Shunday qilib, kognitiv tamoyillarni axborot tarqatishda integratsiya qilish nafaqat foydali, balki turli kontekstlarda muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun zarur sanaladi.

1 Rafael Sabatini. The Lion’s skin. Boston and New York Houghton Mifflin company. The Riberside Press Cambrige, 1926, p.88

2 Q.Yo‘Ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, — Toshkent, 2017, 306- b.

3 Your Daily Poem.com

4 Q.Yo‘ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, — Toshkent, 2017, 227- b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Fauconnier. G and Turner M. Conceptual integration networks. Cognitive science. 1998, p.301

2.Rafael Sabatini. The Lion's skin. Boston and New York Houghton Mifflin company. The Riberside Press Cambrige, 1926, p.88

3.V.Alessandra. The economy principle in language notes and observations from early modern English grammars. Universita di Milano. Mots Palabras Words: /2003 http://www.ledonline.it/mpw/ , 2003, p.39

4.V.Alessandra. The economy principle in language notes and observations from early modern English grammars. Universita di Milano. Mots Palabras Words: /2003 http://www.ledonline.it/mpw/ , 2003, p.40

5.Your Daily Poem.com

6.Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. Ikkinchi kitob. "Yozuvchi" nashriyoti, – Toshkent, 1991, 128- b.

7.Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy.Ikkinchi kitob. "Yozuvchi" nashriyoti, – Toshkent, 1991, 255 -b

8.Q.Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, – Toshkent, 2017, 227- b.

9.Q.Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo'Ldoshbekov. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, – Toshkent, 2017, 306 -b.

10.Sinjapova Rusana Ruslanovna. The notion of conceptual integration theory. Texas Journal of multidisciplinary studies, – Tashkent, 2022, p.98

11.O'.Hoshimov. O'zbeklar. Nurli dunyo nashriyot uyi – Toshkent, 2022, 14 -b.

12.Cho'lpon. Kecha va Kunduz. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, – Toshkent, 2007, 9- b.

13.Cho'lpon. Kecha va Kunduz. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, – Toshkent, 2007, 23- b.`



Елена САТТАРОВА,
доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент Термезского университета экономики и сервиса

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ КЛАССИФИКАЦИЙ ТЕМАТИЧЕСКИХ ГРУПП ЭВФЕМИЗМОВ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация: данная статья посвящена основным классификациям тематических групп эвфемизмов русского и узбекского языков, так как эвфемистическая речь русского и узбекского народов объединяет в себе, огромный состав в современной речи.

Ключевые слова: *эвфемизм, эвфемизация, классификация, прономинальные, эвфемия, эвфемизмы-табуизмы.*

Annotation: this article is devoted to the main classifications of thematic groups of euphemisms in the Russian and Uzbek languages, since the euphemistic speech of the Russian and Uzbek peoples combines a huge composition in modern speech.

Key words: *euphemism, euphemization, classification, pronominal, euphemism, euphemisms-tabooisms.*

Annotatsiya: ushbu maqola rus va o'zbek tillaridagi evfemizmlarning tematik guruhlarining asosiy tasniflariga bag'ishlangan, chunki rus va o'zbek xalqlarining evfemistik nutqi zamonaviy nutqda ulkan kompozitsiyani birlashtiradi.

Kalit so'zlar: *evfemizm, evfemizatsiya, tasnif, pronominal, evfemiya, evfemizm-tabuizm.*

Введение

Стратегия изучения различных классификаций тематических групп эвфемизмов русского и узбекского языков, предполагает собой крайне важное явление в лингвистической концепции образа языкового поведения двух совершенно разных народов. Эвфемизм представляет собой очень важный элемент речевого общения, устного или письменного, цифрового или религиозного. Он играет важную роль в процессе исторического развития языка. Это непрерывный процесс замены плохого, грубого, негативного, неприятного слова или выражения на благозвучие, в целях успешной речевой коммуникации.

Основная часть

Среди особенностей тематических групп эвфемизмов выделяются классификации таких русских ученых, как Б.А. Ларин, В.П. Москвин, Л.П. Крысин, Е.П. Сеничкина, Д.Н. Шмелев А.М. Кацев, М.Л. Ковшов и узбекских лингвистов, таких, как Н. Исматуллаев и А.Ж. Омонтурдиев.

При рассмотрении проблемы в данном ракурсе, необходимо отметить классификацию В.П. Москвина. Он считает, что: «эвфемизм используется для замены названий пугающих объектов. Его также используют, для замены имен различного рода неприятных, вызывающих отвращения объектов; в-третьих, для обозначения того, что считается неприличным. Для замены прямых именований из боязни шокировать окружающих, также необходим эвфемизм. Для маскировки подлинной сущности обозначаемого, а также, для обозначения организаций и профессий, которые представляются непрестижными» [5, с. 33].

Необходимо также остановиться на классификации Б.А. Ларина в основе которой положена социальная природа эвфемии. Он пишет, что: «эвфемизмы – это слова, которые сочетают в себе деление на старые эвфемизмы, т.е. слова-заменители по запретам других религий, табу и новые эвфемизмы», которые он делит по их социальной природе: общеупотребительные эвфемизмы национального литературного языка; классовые и профессиональные эвфемизмы и семейно-бытовые эвфемизмы» [4, с. 78].

Более подробную тематическую классификацию эвфемизмов составил Л.П. Крысин, где разделил эвфемизмы на личные и социальные. Он отмечал, что: «первую тематическую группу составляют личные эвфемизмы, это слова и выражения, заменяющие некоторые физиологические процессы и состояния, отношения между полами, болезни и смерть. Ко второй группе относятся социальные эвфемизмы, имеющие прямое отношение к различным дипломатическим процессам, репрессивным действиям власти, административному воздействию на людей, деятельность органов власти, сферу распределения и обслуживания, отношения между различными национальными и социальными группами, а также некоторые виды профессий и т.д.» [3, с. 389].

Лексикограф Е.П. Сеничкина предлагает разделить эвфемизмы на конкретно называющие и прономинальные (от лат. pronomen – местоимение). Примером для данных эвфемизмов могут послужить местоимения *он, она, оно, некоторые, неизвестно кто, другие, те, там, то, это* и т.п. Это те эвфемизмы, которые отличаются неопределенностью денотата. Она также предлагает: «Эвфемизмы классифицировать по их происхождению, исторические, языковые и функциональные» [8; с. 13]. И так как в дальнейшем мы будем работать со словарем эвфемизмов Е.П. Сеничкиной, следует отметить, что она предлагает снабдить эвфемизм пометой «эвф.» в лексикографических источниках.

Более развернутую классификационную характеристику эвфемизмов в современном русском языкознании разработали Т.В. Жеребило и А.С. Мейриева. Ученые, создают функционально-типологическую модель эвфемизмов, состоящую из четырнадцати обширных тематических групп, которые обычно подвергаются эвфемизации в речи. В данную классификационную модель они относят: наименования физиологических процессов и состояний, это, прежде всего беременность, роды, рождение детей, физиологические отправления, эвфемизмы обозначения частей тела, связанных с «телесным низом» мужских и женских половых органов, и женской груди, а также ягодиц. Следующую группу по классификации ученых составляют наименования половых отношений и сопутствующих им действий. Подробно останавливаются на характеристике эвфемизмов, обозначающих отношения между людьми в быту, на работе в речевых ситуациях, характеризующиеся такими противоречивыми особенностями, как проявление вежливости, деликатности. Определяют при помощи эвфемизмов наименования умственных и моральных дефектов, обозначение ситуаций, связанных с наличием или отсутствием финансов, рассматривают группу эвфемизмов, называющих различные проступки, преступления, последствия, а также наименования процессов, связанных с дипломатией. В группу эвфемизмов по их классификационной модели, входят эвфемизмы, обозначающие репрессивные действия власти, наименования государственных и военных тайн и секретов, на эвфемизацию государственных органов власти, а также наименования, используемые в сфере распределения и обслуживания. При помощи эвфемизмов создают замены в названиях, обозначающих межнациональные отношения и отношения между социальными группами и т. п. Заменяют эвфемизмами названия профессий, престиж которых может повыситься в результате процессов эвфемизации [1, с.1110].

В основу классификационной модели узбекского лингвиста А.Ж. Омонтурдиева заложена следующая тематическая лексико-семантическая классификация эвфемизмов, состоящая из 13 тематических подгрупп:

1) эвфемистические средства, связанные со сватовством и семейными узами;

2) эвфемистические средства, связанные с безнравственными отношениями;

3) эвфемистические средства, связанные с по-

ловыми отношениями, половой связью;

4) эвфемизмы-обращения, прямо не называющие объект;

5) эвфемизмы, называющие половые органы у женщин и мужчин;

6) эвфемистические средства, связанные с названиями болезней и психическими недостатками человека;

7) эвфемистические средства, связанные с питанием человека и его перевариванием;

8) эвфемистические средства, связанные с негативной деятельностью человека; эвфемизмы, связанные с отрицательными явлениями и моральными недостатками человека;

9) эвфемизмы, связанные с суеверием, обычаями, обрядами и традициями; 10) сфера политических наименований;

11) эвфемизмы, называющие старость;

12) эвфемизмы, связанные со смертью;

13) вопросы эвфемистической синонимии [6, с. 128].

Обобщив существующие классификации, мы предлагаем тематическую группу эвфемизмов, которая состоит в основном из эвфемизмов современности: эвфемизация обозначения взаимоотношения людей в бытовой среде, в обществе, в любой иной коммуникативной обстановке, где проявляются воспитанность, вежливость, самоуважение людей, деликатность, национально-культурные особенности, щепетильность, заменяя негативную лексику и сквернословие; эвфемистические средства, связанные с половой зрелостью молодых людей, наличием или отсутствием девственности, любовными отношениями молодых людей до бракосочетания, сватовством и семейными узами; гендерно-вежливые наименования различных физиологических процессов и состояний женщин во время беременности или родов; эвфемизмы, порождаемые стыдливостью по отношению к незаконнорожденным и детям-сиротам; эвфемистические средства, заменяющие слово «целоваться», связанные с безнравственными отношениями, называющие половые связи; эвфемизмы, связанные с отрицательными явлениями и моральными недостатками человека (алкоголем, пристрастию к алкоголю, алкоголизмом); эвфемизмы, заменяющие названия ареста, тюрьмы, наименования осужденного, психиатрической клиники и публичного дома, обозначений воровства, названий взяток; наименования моральных дефектов человека: лживости, лени, злословия, трусости и др.; обозначение ситуаций, связанных с отсутствием финансов: наименования бедности, безденежья, нищеты; эвфемизмы, связанные с душевной и физической болезнью: психическими недостатками, умственной отсталостью, недугов, телесных повреждений, физических дефектов человека, а также наименования, заменяющие названия заболеваний, приобретенных половым путем (ЗППП); эвфемизмы, заменяющие физические, физиологические недостатки человека (лысый, слепой, глухой); слова, заменяющие имена сверхъестественных существ и имя Бога; эвфемизмы, порождаемые вежливостью к преклонному возрасту; эвфемизмы, обозначающие названия, ритуалов, названий, связанных со смертью, мест захоронения, самоубийства; эвфемизмы, употребляемые с целью избежать названия животных прямым именем; эвфемизмы, заменяющие грубую речь и обсценную (бранную) лексику [7, с. 67].

Выводы

Стоит отметить, что на различных стадиях формирования общества встречаются различные категории эвфемизмов. В процессе культурного развития не все языковые эвфемизмы сохраняют свою актуальность.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1.Жеребило Т.В., Мейриева А.С. Классификация эвфемизмов, используемых в современном русском языке // Фундаментальные исследования. – 2015. – № 2-5. – С. 1107– 1110.

2.Кацев А. М. Языковое табу и эвфемия: учеб. пособие к спецкурсу. – Л.: ЛГПИ им. А. И. Герцена, 1988. – 80 с.

3.Крысин Л.П. Эвфемизмы в современной русской речи // Русский язык конца XX столетия (1985-1995). – М.: Языки русской культуры, 2000. – С. 389–400.

4.Ларин Б.А. Об эвфемизмах//История русского языка и общее языкознание. – М., 1977. – 110 с.

5.Москвин В. П. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка. – М.: ЛЕНАНД, 2010. – 264 с.

6.Омонтурдиев А. Ўзбек нутқининг эвфемик асослари. – Тошкент: Халқ мероси, 2000. – 128 б.

7.Саттарова Е.А. Несовместимость эвфемизмов русского и узбекского языков как основное препятствие для лингвокультурологического сопоставления / Проблемы современной науки и образования. № 7 (152). – С. 67. – DOI: 10.24411/2304-2338-2020-10703 (a)

8.Сеничкина Е.П. Эвфемизмы русского языка: спецкурс: учеб. пособие / Е. П. Сеничкина. – М.: ФЛИНТА, 2012. – 120 с.

Нилуфар ХАЙДАРОВА,
студентка Университета Экономики и Педагогики,
Дилдор БАЗАРОВА,
доцент Университета Экономики и Педагогики

РОДИТЕЛЬНЫЙ ПАДЕЖ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ: ЕГО ЭСТЕТИЧЕСКОЕ И ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация: в данной статье речь идет об особенностях вариантов форм родительного падежа в узбекском языке. А также их художественной, эстетической роли.

Ключевые слова: *родительный падеж, оформленный родительный падеж, неоформленный родительный падеж, оттенки значения, поэтичность, выразительность.*

Annotatsiya: ushbu maqolada qaratqich kelishigi variantlarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birga ularning badiiy estetik vazifalari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *qaratqich kelishigi, qaratqich kelishigining belgili shakli, qaratqich kelishigining belgisiz shakli, ma’no ottenkalari, poetik daraja, estetik vazifa.*

Annotation: this article deals with the features of the variants of the genitive case forms in the Uzbek language. As well as their artistic, aesthetic role.

Keywords: *genitive case, formal genitive case, informal genitive case, shades of meaning, poetic quality, expressiveness.*

Родительный падеж является одним из важнейших элементов грамматической системы узбекского языка, выполняющим разнообразные функции, включая выражение принадлежности, части целого, а также происхождения и источника. Помимо своей функциональной роли, родительный падеж имеет большое значение в художественной речи, придавая тексту эмоциональную окраску и выразительность.

Некоторые формы падежа так же отличаются высокой поэтичностью. Особенно, формально невыраженный вид родительного падежа, краткий, диалектный вариант (-im) отличаются стилистической окраской.

Известно, что формально невыраженный вид родительного падежа отличается от оформленного варианта высокой поэтичностью, широким семантическим охватом. Вот что пишет Х. Неъматов о неоформленном варианте данного падежа: «Все формы глагола делятся на две части – оформленные формы, имеющие определенное оформление при контрасте форм в категории и неоформленные (нейтральные) формы, не имеющие определенного оформления при этом контрасте. Пользование и значительные оттенки оформленной формы первой группы ограничиваются знаком относящихся категории и знаком оппозиции в категориях каждой формы. Пользование и сфера значительной оттенки неоформленной формы второй группы ограничивается только знаком относящейся категории (например, определенный залог, форма времени с окончанием *-ar,* деепричастие ***-(i)b).*** То есть, сфера использования и значительные оттенки форм первой группы определяется отношением внутри категории, а сфера пользования и значительные оттенки форм второй группы определяется отношением среди категорий и эти категории играют роль репрезентанта этой категории. Поэтому значение форм определенной категории определяется значением репрезентантной формы этой же категории» [1]. Из этого следует, что неоформленная форма сближается с главной формой, его использование, семантические и стилистические возможности расширяются.

Ochib nigohim chiqsa,
Chopgan qilich zulfmidur.
Sohibdilim – diloro,
Qaqnus gulxani qani.
(Abduvali Qutbiddin, “Hofizga”)

Словосочетание “Qaqnus gulxani” является вариантом словосочетания “Qaqnusning gulxani”, эта вариативность обусловлена наличием оформленной и неоформленной форм родительного падежа. Использование словосочетания “Qaqnus gulxani” в отличие от своего варианта основано на трех причинах.

а) по требованию литературной формы;
б) по требованию литературного значения;
п) по требованию грамматического значения.

Стих написан в силлабическом размере, состоит из двухсложных стоп, семислоговых срок. Если использовать словосочетание «Qa*qnusning*

gulxani» количество слог увеличится на одну и в результате, стих ритма разрушится.

“Qaqnus gulxani” является крылатой фразой, его «полет» равен узбекской классической литературы просвещения. В качестве литературного образа упоминается один из традиционных символов узбекской художественной литературы. Поэтому, совсем не обязательно подчеркивать его, использовать оформленную форму родительного падежа. Также, литературная цель поэта – поручить ученику цельно осмыслить понятия “gulxan” и “qaqnus”.

Оформленные и неоформленные формы родительного падежа имеют лингвистические основы [2]. При этом, задача неоформленного варианта родительного падежа является образование оппозиции между значением художественной «точности» и грамматической «неточностью». Например, в словосочетании “*kitob varrog‘i”* суйествует грамматическое значение «неточности». Если оно оформляется в форме родительного падежа, то на него еще возлагается задача выделения, обособления (что он не лист другого предмета). Созидатель успешно использует эту возможность. Так как форма текста гармонирует с литературным и грамматическим значениями. А это, в свою очередь, обеспечивает полную реализацию художественной цели автора.

Payg‘omlar yo‘lladim, uyg‘on, hilolim,
Junun oqshomlari ochdi jamolin,
Poyalar bog‘ladim domingga sening.
(Abduvali Qutbiddin, “Hofizga”)

Пробежав глазами по строкам стихотворения, несложно понять, что слова – *oqshom* и *junun* следует оценивать по искусству пропорциональности. В этих строках они требует друг друга. А это, является результатом стремления к их – цельному литературному осмыслению. Использование в словосочетании «*Junun oqshom*» неоформленного варианта формы родительного падежа, выступающего в качестве выражения и лингвистического, и литературно-логического значения. Грамматическая возможность подчиняется литературному значению.

Неоформленный вариант винительного падежа в стихотворении тоже используется в летуратурных целях. Он поддерживает использование неоформленного варианта родительного падежа, и, в свою очередь, на форму родительного падежа возлагает такую же задачу. В стихах поэта Сираджиддина Саййида также можно встретить подобное явление:

Ilk og‘rig‘im, ilk yomg‘irim.
Naysonim, Vatan.
Qir ustida yonboshlagan
Bobom chaylasi,
Bu dunyoda kimlarningdir
Orzu-havasi.

Поэт цельно созидает значении слов «бобо» и «чайла». Эта целостность укрепляется внешними приметами, физическим состоянием национальностью, связанностью бытии. Понятие старения (безусловно, результат тяжелого труда на протяжении всей жизни) диалектически связывается с утомленной избой, живущей вместе. Схожие значения слов «чайла» и «бобо» требуют использование неоформленного варианта литературной формы словосочетания в родительном падеже.

Краткий вариант родительного падежа в особенности представлен согласно требованиям литературного значения и формы. Эту форму варианта безусловно можно оценить, как литературный вариант.

Olamda fojia ko‘p erur, biroq,
Bunisin alami haddan ziyoda.
Oh, nechog‘ dahshatdir, tirik turgan chog‘, Umring oyoqosti bo‘lsa dunyoda...
(Abdulla Oripov, “Fojia”)

Использование местоимения «бу» в неоформленном родительном падеже не является нормой языка. Однако, использование его краткой формы реализовано как результат обеспечения соответствия требованиям литературной формы и ритма. Также, придает пафос и обеспечивает поэтическое звучание. Использование слово «*bunisi*» тоже, иногда является поэтическим требованием. Но в грамматической норме правила, не позволяющие возможность его использования, связываются с литературными правилами. Также краткая форма мотива относительно гармонируют со словом «*umring*» в четвертой строке (*bunisin-umring*). В общем, правила «неиспользование неоформленного родительного падежа» в местоимениях также в этих строках применяется согласно требованиям литературной формы:

Necha ming musulmon tunu kun bedor,
Ka’ba atrofini tinmay aylanar,
Barchasin murodi ilohiy diydor,
Sajdaga har biri har zum shaylanar.
(Abdulla Oripov, “Alloh dargohi”)

Краткая форма родительного падежа, употребленная в нижеуказанных строках Шавката Рахмона служит одной из особенностей художественной формы – уравниванию метрической системы и частично используется для рифмовки.

So‘yib Roza Kamboroning
mammalarin jandarmlar,
qo‘yib ketar darvozasin
tokchasiga laganlarda.
(Shavkat Rahmon, “Ispan jandarmlari haqida romans”)

Потому что здесь употребляется тип неполной рифмы. (*Kamboraning-darvozasin, jandarmlar-laganlarda*).

Следовательно, краткая форма родительного падежа часто употребляется как – н в словах, оканчивающихся на гласную букву, или имеющим притяжательную форму, как – *in* в словах, оканчивающихся на согласный звук. Этот вариант использования форм определяет особенность творческого стиля авторов. При этом, если в творчестве выше указанных авторов мы видим использование – *im*, то в стихах таких поэтов, как Эркин Вахидов, Омон Матжон, Икбол Мирзо примеры подобного типа не встречались.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Неъматов Ҳ. Феъл, унинг форма ва категориялари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972. -№ 1. – Б. 39–47;
2. Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М. Расулов И. Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1980.

Маруфжон ГАНИЕВ,
старший преподаватель кафедры узбекского и иностранных языков Ферганского медицинского института общественного здоровья



ЗНАЧЕНИЕ СЛОВА В ЖИЗНИ ЛЮДЕЙ

Аннотация: в данной статье выражается влияние слова на настроение, внутренне состояние человека, на взаимоотношение людей. Самое главное, слово имеет огромное значение в появлении речи людей, развитии и формировании общества. Также слово играет основную роль в формировании международных политических и экономических взаимоотношений. Слово может улучшить состояние здоровья, если оно имеет положительное значение, или же наоборот.

sifatida tarixan chuqur ildizga ega bo‘lgan mahalla institutini davlat va aholi o‘rtasidagi tayanch ko‘prik vazifasini bajaruvchi organga aylantirish tashabbusi davlat va jamiyat boshqaruvi instrumentlari tizimida muayyan tarkibiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning - “Mahalla shunchaki jamiyat boshqaruvining quyi tizimi bo‘libgina qolmay, asrlar o‘sha milliy urf-odat va an’analarni bezavol saqlab kelayotgan ezgulik va tarbiya beshigi, yaxshi qo‘shnichilik va hamjihatlik maskani hamdir. Insonning eng nozik jihati — e’tiqodi, iymoni mahallasidagi ma’naviy muhitdan ozuqa olib ravnaq topadi” –degan gaplari mahallaga nafaqat boshqaruv instituti balki aholining ma’naviyatini shakllantirish omili sifatida qarash imkonini beradi. Xulosa sifatida ta’kidlash joizki bugungi globallashuv davrida jamiyat boshqaruvining muhim instituti sifatida mahalla ham davr talablariga mos ravishda o‘zgarishi ahamiyatlidir. Odamlar, ularning ehtiyojlari, turmush tarziga rivojlangan axborot asri elementlarining ta’sir etishi o‘z o‘zidan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xususan mahalla tizimida faoliyat yuritayotgan kadrlar oldiga ham muhim va murakkab vazifalarni qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar yig‘ini raisi saylovi to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. “O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni. // www.lex.uz
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017 y.
6. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. – T.: “O‘zbekiston”, 2017-yil.

Shuxrat IBRAGIMOV,
Qarshi davlat universiteti erkin tadqiqotchisi



HUQUQIY TA’LIM VA PREVENTIV TADBIRLARNING SAMARALI BAJARILISHINING ASOSIY TAMOYILLARI

Annotatsiya: huquqiy ta’lim va preventiv tadbirlarning samarali bajarilishining asosiy tamoyillari jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirishga, huquqiy tartibni mustahkamlashga yordam beradi. Ular fuqarolarni huquqiy bilimlar bilan ta’minlash, huquqiy xatoliklarni oldini olish va jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan. Samarali ta’lim va tadbirlar tizimli, doimiy va amaliy bo‘lishi lozim.

Kalit so‘zlar: *huquqiy ta’lim, preventiv tadbirlar, samarali bajarish, tamoyillar*.

Аннотация: основные принципы эффективного правового образования и профилактических мероприятий способствуют развитию правовой культуры и укреплению правопорядка в обществе. Они направлены на обеспечение граждан правовыми знаниями, предотвращение правовых ошибок и снижение преступности. Эффективное образование и мероприятия должны быть систематичными, постоянными и практичными.

Ключевые слова: *правовое образование, профилактические мероприятия, эффективное выполнение, принципы.*

Annotation: the main principles of effective legal education and preventive measures help in developing legal culture and strengthening legal order in society. They focus on providing citizens with legal knowledge, preventing legal errors, and reducing crime. Effective education and measures should be systematic, continuous, and practical.

Key words: *legal education, preventive measures, effective implementation, principles*

Kirish. Huquqiy ta’lim va preventiv tadbirlar har bir jamiyatda muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab davlatlarida huquqiy ta’lim va preventiv tadbirlar nafaqat huquq tizimining samarali ishlashini ta’minlash, balki fuqarolarni huquqiy madaniyat bilan tanishtirish, jinoyatchilikni kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni saqlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Huquqiy ta’lim va preventiv tadbirlarning samarali bajarilishi jamiyatdagi huquqiy xatoliklarni oldini olishga, jinoyatchilikni kamaytirishga, shuningdek, fuqarolarni o‘z huquq va majburiyatlarini bilishga o‘rgatishga yordam beradi. Ushbu maqolada huquqiy ta’lim va preventiv tadbirlarning samarali bajarilishi uchun zarur bo‘lgan asosiy tamoyillarni ko‘rib chiqamiz.

Huquqiy ta’lim va preventiv tadbirlar jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va huquqiy tartibni

mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Jamiyatdagi huquqiy muammolarni hal qilish va jinoyatchilikni oldini olishning samarali usullaridan biri sifatida huquqiy ta’lim va preventiv tadbirlar har bir davlatda alohida e’tibor bilan rivojlantirilmoqda. Bu jarayonlar fuqarolarni o‘z huquq va majburiyatlari haqida xabardor qilish, huquqiy bilimlar asosida ularni to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga undashga, shuningdek, huquqiy xatoliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Huquqiy ta’lim va preventiv tadbirlar jamiyatda jinoyatchilikni kamaytirish, huquqiy xatoliklarni oldini olish va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishda muhim vositadir. Bunday tadbirlar jamiyatda mustahkam huquqiy va ijtimoiy tartibni yaratishda, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirishda o‘zining beqiyos o‘rniga ega. Ushbu maqolada huquqiy ta’lim va preventiv tadbirlarning samarali bajarilishining asosiy tamoyillari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Huquqiy ta’lim va preventiv tadbirlar sohasidagi ilmiy adabiyotlar, keng qamrovli va turli yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilgan. O‘zbekiston, Rossiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari va Yevropa davlatlarida huquqiy ta’lim va preventiv tadbirlar jamiyatdagi ijtimoiy tartibni saqlash va huquqiy madaniyatni rivojlantirishda ahamiyatli o‘rin tutadi. Tadqiqotchilar huquqiy ta’limni fuqarolarni huquqiy bilimlar bilan ta’minlash va huquqiy madaniyatni oshirishning samarali vositasi sifatida ko‘rib chiqadilar.

Masalan, O‘zbekistonning yuridik ta’lim tizimi haqida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda, huquqiy ta’limning jamiyatdagi o‘rni, uning fuqarolarni huquqiy ong bilan ta’minlashdagi ahamiyati va zamonaviy metodlarni qo‘llash zarurligi ta’kidlanadi. Shuningdek, huquqiy ta’limda interaktiv usullar, masalan, seminarlar, treninglar va huquqiy maslahatlar tizimi o‘rganilib, ularning samaradorligi tahlil qilinadi. O‘zbekiston huquqiy ta’limida so‘nggi yillarda qo‘llanilayotgan yangi yondashuvlar, jumladan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar orqali fuqarolarni huquqiy bilish bilan ta’minlash imkoniyatlari e’tiborga olinadi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili, huquqiy ta’lim va preventiv tadbirlarning samarali bajarilishi uchun ilmiy yondashuvlarning mavjudligini va ular orasida o‘xshashliklarni ko‘rsatadi. Bunda tizimli va amaliy yondashuvlar, fuqarolarning huquqiy bilimi va ongini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Boshqa tomondan, huquqiy ta’lim va preventiv tadbirlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, jumladan, internet platformalari va onlayn resurslar orqali huquqiy bilimlarni tarqatish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Tahlil va natija. Huquqiy ta’lim fuqarolarga o‘z huquq va majburiyatlari haqida to‘liq ma’lumot berish va huquqiy bilimlarni oshirishga qaratilgan tizimli jarayondir. Uning asosiy maqsadi jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish, fuqarolarni o‘z huquq va erkinliklarini himoya qilishga, shuningdek, jamiyatdagi huquqiy tartibni saqlashga undashdir. Huquqiy ta’lim orqali fuqarolar huquqiy xatoliklar va jinoyatlarning oldini olish, huquqiy jarayonlarda to‘g‘ri harakat qilishni o‘rganadilar.

Huquqiy ta’limning samarali bo‘lishi uchun bir nechta asosiy tamoyillar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

Tizimlilik. Huquqiy ta’lim tizimli tarzda, qamrovli bo‘lishi kerak. Bu huquqiy bilimlarni faqatgina umumiy darajada emas, balki har bir fuqaroning kunlik hayotida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan huquqiy holatlar bilan bog‘lab taqdim etishni anglatadi.

Doimiylik. Huquqiy ta’lim doimiy va uzluksiz bo‘lishi kerak. Bu huquqiy bilimlar va ko‘nikmalarni doimiy ravishda yangilab turish zarurligini bildiradi, chunki huquqiy tizim va normativ hujjatlar doimo o‘zgarib turadi.

Amaliyotga yo‘naltirilganlik. Huquqiy ta’lim faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmasdan, amaliyotga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Fuqarolarni hayotda yuzaga keladigan huquqiy vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Individual yondashuv. Har bir fuqaroning huquqiy ehtiyojlari va imkoniyatlari turlicha bo‘ladi. Shu sababli, huquqiy ta’limda individual yondashuvni tatbiq etish zarur. Bu turli ijtimoiy guruhlarga moslashtirilgan huquqiy ta’limni ta’minlashni anglatadi.

Huquqiy ta’limning samarali bo‘lishi uchun, interaktiv va innovatsion metodlarni qo‘llash zarur. Bu metodlar orqali talabalarga huquqiy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyati beriladi. Seminarlar, treninglar, forumlar va boshqa interaktiv shakllar huquqiy ta’limning samaradorligini oshiradi.

Preventiv tadbirlar jamiyatda huquqiy xatoliklar va jinoyatchilikning oldini olishga yo‘naltirilgan choralardir. Ular jinoyatlarning ro‘y berishiga sabab bo‘ladigan omillarni aniqlab, ularga qarshi kurash strategiyalarini ishlab chiqish maqsadida amalga oshiriladi. Preventiv tadbirlarning asosiy maqsadi jinoyatchilikni kamaytirish, jamiyatda xavfsizlikni ta’minlash va ijtimoiy barqarorlikni oshirishdir.

Preventiv tadbirlarning samarali bajarilishi uchun quyidagi tamoyillarni inobatga olish zarur:

Komplekslik. Preventiv tadbirlar faqatgina bitta yo‘nalish bo‘yicha emas, balki turli jihatlar bo‘yicha amalga oshirilishi kerak. Bunda huquqiy ta’lim,

jamoat xavfsizligi, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish kabi bir nechta sohalarda chora-tadbirlarni qo‘llash muhimdir.

Erta aniqlash va oldini olish. Preventiv tadbirlarning samarali bo‘lishi uchun jinoyatlarning va huquqiy xatoliklarning oldini olish zarur. Bu jarayonda jamiyatda jinoyatchilikka olib keladigan omillarni erta aniqlash va ularga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Ommaviylik. Preventiv tadbirlar jamoatchilikni keng qamrab olgan holda amalga oshirilishi kerak. Fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, jinoyatchilikka qarshi kurashishda ularning faol ishtirokini ta’minlash muhimdir.

Preventiv tadbirlar ko‘plab yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Ular quyidagilarga bo‘linadi:

Huquqiy ta’lim: fuqarolarni huquqiy bilimlar bilan ta’minlash, huquqiy xatoliklarning oldini olish.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish: jinoyatchilikka qarshi chora-tadbirlar, jamoat xavfsizligini oshirish.

Ijtimoiy tadbirlar: ijtimoiy holatlarni yaxshilash, jamiyatda barqarorlikni saqlash.

Psixologik tadbirlar: jinoyatchilikka olib keluvchi psixologik omillarni aniqlash va ularga qarshi kurashish.

Huquqiy ta’lim va preventiv tadbirlar faqat tizimli yondashuv orqali samarali bo‘ladi. Bu ularning nafaqat qisqa muddatli, balki uzoq muddatli ta’sirini hisobga olishni talab qiladi. Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va jinoyatchilikni kamaytirish uchun uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqish zarur.

Huquqiy ta’lim va preventiv tadbirlar hukumat, ta’lim muassasalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jamoat tashkilotlari va fuqarolar o‘rtasidagi hamkorlikni talab qiladi. Bunday hamkorlik jamiyatdagi huquqiy muammolarni samarali hal qilishga yordam beradi.

Zamonaviy texnologiyalar huquqiy ta’lim va preventiv tadbirlarning samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar kabi texnologiyalar orqali fuqarolarni huquqiy ta’lim olish va preventiv tadbirlarga jalb qilish mumkin.

Xulosa. Huquqiy ta’lim va preventiv tadbirlarning samarali bajarilishi jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish, jinoyatchilikni kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ularning asosiy tamoyillari tizimlilik, doimiylik, amaliyotga yo‘naltirilganlik, komplekslik va erkin aniqlash kabi omillardan iborat. Shuningdek, huquqiy ta’lim va preventiv tadbirlarning samarali bo‘lishi uchun hukumat, ta’lim muassasalari, jamoat tashkilotlari va fuqarolar o‘rtasidagi hamkorlik zarur.

Shuningdek, huquqiy ta’lim va preventiv tadbirlarning samarali bajarilishi jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish, jinoyatchilikni kamaytirish va huquqiy xatoliklarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, huquqiy ta’lim va preventiv tadbirlarning samarali bo‘lishi uchun tizimli yondashuv, doimiylik, amaliyotga yo‘naltirilganlik va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash zarur. Ushbu tamoyillarni amaliyotda tatbiq etish orqali jamiyatda huquqiy barqarorlikni ta’minlash va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Qosimov, A. *Huquqiy ta’lim va jamiyatdagi huquqiy madaniyatni rivojlantirish.* – Toshkent: Yuridik fakulteti nashriyoti, 2020.

2.Mirzayev, Sh. *Preventiv tadbirlar va jinoyatchilikni oldini olish.* – Toshkent: O‘zbekiston yuridik akademiyasi nashriyoti, 2017.

3.Ergashev, B. *O‘zbekistonda huquqiy ta’lim va uning samaradorligini oshirish yo‘llari.* – Toshkent: “Ilm va ta’lim” nashriyoti, 2018.

4.Abdullayev, M. *Huquqiy ta’lim va jinoyatchilikka qarshi kurashish.* – Toshkent: Yuridik nashriyoti. 2016.

5.Xo‘jayev, U. *Preventiv huquqiy ta’lim va uning ijtimoiy-psixologik aspektlari.* – Toshkent: “Ma’rifat” nashriyoti, 2019.

6.Azimov, D. *Huquqiy ta’lim va uning jamiyatdagi ijtimoiy rolini oshirish.* – Toshkent: “Akademnashr” nashriyoti, 2015.

7.Yusufov, M. *Preventiv tadbirlar va huquqiy madaniyatni rivojlantirish.* – Toshkent: “Yuridik olam” nashriyoti, 2021.

Vasila MAMADAYUPOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: vmamadayupova@tsul.uz
TDYU p.f.f.d. (PhD), professor D. Xashimova taqrizi asosida

CHET TILINI O‘QITISHDA GOLOGRAMMALARNING TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada chet tilini o‘qitishda gologrammalarning ahamiyati, ularning o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi samaradorligini oshirishga ta’siri va ta’lim tizimidagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi. Gologramma texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning vizual idroki va interaktiv o‘quv jarayonini kuchaytirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *chet tillari, gologrammalar, ta’lim, texnologiyalar, innovatsiyalar*

Аннотация: в данной статье рассматривается важность голограмм в обучении иностранным языкам, их влияние на повышение эффективности учебного процесса и их роль в системе образования. Особое внимание уделено применению голограмм для улучшения визуального восприятия и интерактивного обучения студентов.

Ключевые слова: *иностранные языки, голограммы, образование, технологии, инновации*

Annotation: this article discusses the importance of holograms in teaching foreign languages, their impact on improving the efficiency of the learning process, and their role in the education system. Special emphasis is placed on the use of holographic technologies to enhance students’ visual perception and interactive learning experience.

Key words: *foreign languages, holograms, education, technologies, innovations.*

Kirish. Hozirgi zamonaviy jamiyatda texnologik rivojlanish barcha sohalarda, jumladan, ta’lim tizimida ham o‘zining ta’sirini ko‘rsatmoqda.Innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonini takomillashtirishga va o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini oshirishga imkon yaratadi. Ayniqsa, chet tillarini o‘rgatishda yangi metodlar va vositalarni qo‘llash, shu jumladan, gologramma texnologiyalarining ta’lim jarayonida yangi usul sifatida paydo bo‘lishi munosib ahamiyatga ega.

Gologrammalar, odatda, uch o‘lchamli tasvirlar yaratish imkonini beruvchi texnologiya sifatida tanilgan.Bu texnologiya o‘quvchilarning ma’lumotni vizual idrok qilish qobiliyatini kuchaytiradi, ularning diqqatini jalb etadi va ta’lim jarayoniga qiziqish uyg‘otadi. Masalan, chet tili darslarida murakkab grammatik konstruktsiyalar yoki leksik birliklarni interaktiv ko‘rinishda namoyish etish mumkin bo‘ladi.

Xalqaro miqyosda ta’lim sohasida gologramma texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha bir qancha muvaffaqiyatli tajribalar mavjud.Masalan, AQShning bir qator universitetlarining virtual sinflarida gologramma vositasida chet tillarini o‘rgatish yo‘lga qo‘yilgan.Mahalliy tajriba sifatida esa O‘zbekistondagi ayrim ta’lim muassasalarida gologrammalar asosida dars o‘tish tajribasi muvaffaqiyatli qo‘llanila boshlagan.

Metodologiya. Mazkur maqolada gologrammalarning chet tilini o‘qitishda qo‘llanilish usullari va samaradorligi o‘rganiladi. Ularni o‘rganish metodologiyasi quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

1.Adabiyotlarni tahlil qilish. Gologrammalarning ta’lim jarayonida qo‘llanilishi bo‘yicha xalqaro va mahalliy manbalar o‘rganildi. Bunda xorijiy va mahalliy olimlarning tajribalariga tayangan holda texnologiyaning ta’limda samaradorligi aniqlangan.

2.Ko‘rgazmali materiallarni tahlil qilish. Gologramma vositalari orqali interaktiv ko‘rgazmali darslar tashkil etish imkoniyatlari tahlil qilindi.Bu usul o‘quvchilarning til o‘rganishdagi qiziqishlarini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

3.Taqqoslash usuli. Gologrammalarni qo‘llagan holda olib borilgan darslar an’anaviy usullar bilan solishtirildi.Ushbu tahlil o‘quvchilarning bilim olish samaradorligini baholash imkonini berdi.

4.Tajribalarga asoslangan tahlillar. Gologrammalarning chet tilini o‘qitishda qo‘llanilishi, ularning vizual va interaktiv imkoniyatlari o‘quvchilarning bilim olish jarayonida qanday o‘rin tutishi amaliyot asosida tahlil qilindi.

Mazkur metodologiya orqali gologrammalarni ta’limda qo‘llashning afzalliklari va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari aniqlandi.Gologrammalarning o‘quv jarayonida innovatsion yechim sifatida samaradorligi tahlil qilinib, maqolaning ilmiy yondashuviga asos yaratildi.

Adabiyotlar tahlili. Chet tilini o‘qitishda gologrammalarning o‘rganilganligi haqida ilmiy manbalarda bir qancha tadqiqotlar mavjud. Ushbu jarayonda xalqaro va mahalliy olimlarning asarlari tahlil qilinadi, ular gologramma texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi ahamiyatini ochib beradi.

Jumladan, J. Andersonning [2; 34] “Educational Holograms and Their Applications” asarida gologrammalarning o‘quv jarayonidagi samaradorligi haqida so‘z yuritiladi. Muallif gologrammalar yordamida murakkab mavzularni o‘rgatish osonlashishini va ularning o‘quvchilarning qiziqishini oshirishdagi o‘rni-

ni yuqori ekanligini tahlil qiladi, gologrammalardan foydalanish orqali yangi texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari kengayishini e’tirof etadi.

A. Robertsonning [8; 16] “Technology in Language Teaching” nomli ilmiy asarida chet tillarini o‘qitishda texnologiyalar, xususan, gologrammalar qo‘llanilishi o‘rganiladi. Muallif o‘z ishida interaktiv texnologiyalarning talabalarning tilni eslab qolish va o‘rganish jarayonidagi muhim ahamiyatini ta’kidlaydi.

O‘zbekistonda gologrammalarni ta’limga tatbiq qilish borasida bir qator olimlar qiziqarli ishlarni amalga oshirgan. Jumladan, B. Islomov [14; 48] gologrammalarni qo‘llash usullarini va ularning o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatiga ta’sirini o‘rganadi.U gologrammalar yordamida o‘quvchida ma’lumotni vizual idrok etish imkoniyatlari kengayishini ta’kidlaydi.

G. Mamatovning [9; 27] tadqiqotlari esa gologrammalarning chet tillarini o‘rgatishda qanday o‘rin tutishini o‘z ichiga oladi.U ayniqsa, ushbu texnologiyani o‘quvchilarning mustaqil bilim olishiga ko‘maklashuvchi vosita sifatida tavsiya qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xalqaro va mahalliy olimlarning tadqiqotlari gologrammalarning ta’lim sifatini oshirishdagi salohiyatini isbotlab beradi.Ularning ishlari ushbu texnologiyani ta’lim tizimiga kengroq integratsiya qilish zaruratini ta’kidlaydi.

Tahlil. Chet tilini o‘qitishda gologramma texnologiyalarining samaradorligi bo‘yicha tahlillar talabalarning o‘quv jarayoniga jalb etilishi, bilim olish darajasi va qiziqishini oshirishga qaratilgan. Ushbu bo‘limda amalga oshirilgan kuzatishlar va eksperimentlar asosida olingan natijalar tahlil qilinadi.

Jumladan, Toshkent davlat yuridik universitetida olib borilgan eksperimentda gologrammalarni chet tili darslarida qo‘llash talabalarning diqqatini jalb etishda an’anaviy usullarga qaraganda samaraliroq ekanligi aniqlandi.Gologrammalar yordamida talabalarning murakkab grammatik qoidalarni tushunishi va mustahkamlashi 28% ga yaxshilandi [3; 21].


Gologrammalar yordamida ma’lumotlarni vizual idrok qilish imkoniyatlari kengaydi. Masalan, talaffuz o‘rgatishda gologrammalar orqali og‘zaki nutq jarayonini jonli namoyish qilish talabalarga to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda yordam berdi.

Gologrammalar yordamida o‘quv jarayonini interaktiv va qiziqarli tashkil etish talabalarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirgan. So‘rovnomalar natijasida talabalarning 90% gologramma texnologiyalari yordamida bilim olish jarayoni ancha samarali va qiziqarli ekanligini ta’kidlashdi [12; 40].

An’anaviy metodlar va gologramma texnologiyalari asosida o‘tilgan darslar samaradorligi taqqoslandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy usullarda talabalarning faolligi va bilim olish darajasi nisbatan pastroq bo‘lgan. Biroq gologrammalar yordamida o‘quvchilarning mavzuni tushunish darajasi sezilarli darajada oshgan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, gologrammalarni ta’lim tizimiga joriy etishda mahalliy sharoitlarga moslashtirish imkoniyatlari mavjud. Texnologik uskunalarni ta’minlash va o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish orqali bu texnologiyani keng tatbiq qilish mumkin.

Natijalar.



Yuqorida ko‘rsatilgan diagrammada an’anaviy metodlar va gologramma texnologiyalari asosida o‘tilgan darslarning samaradorligi solishtiriladi.

1. O‘quvchilar faolligi:

An’anaviy metodlar: An’anaviy darslar o‘quvchilarning faolligini faqat 65% darajasida ushlab turgan. Buning sababi, odatiy usullar ko‘pincha talabalarning faqat passiv ishtirokiga asoslanadi. Bu yerda vizual va interaktiv vositalarning yetishmasligi kuzatiladi.

Gologramma texnologiyalari: Gologrammalar yordamida o‘quvchilarning faolligi 90% ga oshdi. Buning asosiy sababi, gologrammalarning interaktiv va qiziqarli ko‘rinishida bo‘lib, ular o‘quvchilarni bevosita ta’lim jarayoniga jalb qiladi. Masalan, talaffuz yoki yangi leksikani o‘rganishda gologrammalar o‘quvchilarga bevosita vizual ko‘mak beradi.

2. Bilimni eslab qolish.

An’anaviy metodlar: an’anaviy metodlar o‘quvchilar uchun bilimni eslab qolish bo‘yicha 55% natija ko‘rsatgan. Ko‘pchilik mavzularning quruq nazariya yoki tushuntirish orqali o‘tilishi o‘quvchilarda ma’lumotni yodda saqlashni qiyinlashtiradi.

Gologrammalar yordamida o‘qitish: gologrammalar orqali bilimni eslab qolish ko‘rsatkichi 85% ga oshdi. Sababi, ma’lumotlar jonli va ko‘rgazmali tarzda yetkazib berilganda, o‘quvchilar ularni osonroq yodda saqlashadi. Masalan, yangi so‘zlar va jumlalarni gologramma yordamida kontekstual va vizual tarzda ko‘rsatish, ularning miyaning vizual qismida o‘z o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi.

3. Motivatsiya.

An’anaviy metodlar: an’anaviy darslarda motivatsiya darajasi 60% atrofida bo‘lgan. O‘quvchilarning o‘quv jarayoniga jalb qilinishi cheklangan bo‘lib, ular ko‘pincha bir xil usullardan zerikishadi.

Gologramma texnologiyalari: gologrammalar yordamida talabalar motivatsiyasi 95% ga yetgan. Ushbu texnologiya o‘quvchilarga nafaqat bilim olish, balki jarayondan zavqlanish imkonini ham beradi. Masalan, virtual o‘qituvchi sifatida qo‘llanilgan gologramma talabalar bilan bevosita aloqa o‘rnata oladi, bu esa ularning o‘quv jarayoniga qiziqishini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa. Chet tilini o‘qitishda gologramma texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqishga imkon beradi. Ushbu maqolada amalga oshirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, gologrammalar yordamida ta’lim jarayoni nafaqat samarali, balki qiziqarli va interaktiv ham bo‘lishi mumkin.

Tahlil natijalariga ko‘ra, gologrammalar an’anaviy metodlarga qaraganda ko‘proq samaradorlikni ta’minlaydi. Ular talabalarning quruq nazariy ma’lumotlar bilan emas, balki jonli va interaktiv ko‘rgazmalar bilan bilim olishlariga imkon yaratadi. Gologrammalarni chet tillarini o‘qitish jarayonida foydalanish nafaqat bilim berishni, balki o‘qitish jarayonining o‘zini ham qiziqarli va zavqli jarayonga aylantirib, o‘quvchi va o‘qituvchiga ko‘tarinki ruh bag‘ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anderson, J. (2018). Educational holograms and their applications.Cambridge University Press.

2. Roberts, A. (2019).Technology in language teaching. Oxford University Press.

3. Marshall, C. (2020).Holographic methods in interactive education. Routledge.

4. Brown, H. D. (2015). Principles of language learning and teaching (6th ed.). Pearson Education.

5. Islomov, B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari [Innovative educational technologies]. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

6. Mamatov, G. Axborot texnologiyalari va ta’lim [Information technologies and education]. –Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2020.

7. Abduqodirov, D. Ta’limda raqamli texnologiyalar [Digital technologies in education]. –pSamarqand: Zarafshon, 2022.

8. Chugh, R. (2019). Holograms in education: A modern pedagogical tool. Springer.

9. Jones, K. (2017).Visual learning and technology integration. New York: HarperCollins.

10. Khan, S. (2021).Emerging technologies in education.Wiley.

Madina ABDUQODIROVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
madina_abdukodirova@mail.ru

JAHON OLIMLARINING O‘QITUVCHI LAYOQATIGA OID ILK QARASHLARI

Annotatsiya: maqolada o‘qituvchilarning kasbiy mahorati va layoqatini tashkil etish va ta’limga oid qarashlar Erasmus, Rabelais, Volfgang Ratke, Jon Amos Komenskiy, Fenelon, Jon Lok, Jan-Jak Russo, Denis Diderot, Immanuel Kant, Pestalozzi kabi g‘arb olimlari misolida o‘rganilgan va ularning asarlarida berilgan fikrlar tahlil qilingan. O‘qituvchi faoliyatida bolalarning psixologiyasi, yosh xususiyatlarini hisobga olish, yetarli bilim va malakalarga ega bo‘lish, o‘qitishda adabiyot va san’atdan foydalanish, amaliy harakatlar orqali ularga namuna bo‘lish kabi xususiyatlar sanab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, g‘arb olimlari, ta’lim, tarbiya, o‘qituvchi faoliyati

Annotation: the article studies the professional skills, competence and views on education of teachers based on the works of Western scholars such as Erasmus, Rabelais, Wolfgang Ratke, John Amos Comenius, Fenelon, John Locke, Jean-Jacques Rousseau, Denis Diderot, Immanuel Kant, and Pestalozzi. In educational processes, the teacher is required to take into account the psychology and age of children; have sufficient knowledge and skills; use literature and art in teaching; and be an example to them through practical actions.

Key words: teacher, Western scholars, education, upbringing, teacher’s competence

Аннотация: в статье рассматриваются профессиональные навыки, компетентность и взгляды на образование учителей на основе трудов западных ученых, таких как Эрасмус, Рабле, Вольфганг Ратке, Ян Амос Коменский, Фенелон, Джон Локк, Жан-Жак Руссо, Денис Дидро, Иммануэл Кант, Песталоцци. В образовательных процессах от учителя требуется учитывать психологию и возраст детей, иметь достаточные знания и умения, использовать литературу и искусство в обучении, быть для них примером практическими действиями.

Ключевые слова: учитель, западные ученые, образование, воспитание, работа учителя

Jahon ta’limiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘qituvchilarning kasbiy mahorati va layoqatini tashkil etish va takomillashtirishga doir ilk ta’limiy va tarbiyaviy qarashlar g‘arb olimlari Erasmus, Volfgang Ratke, Jon Amos Komenskiy, Fenelon, Jon Lok, Jan-Jak Russo, Denis Diderot, Immanuel Kant, Pestalozzi kabilarning asarlarida o‘z ifodasini topgan. G‘arb olimlaridan bo‘lmish Erasmus (1466-1536) o‘zining ko‘plab mashhur asarlari, tarjimalari, o‘quv qoidalari, pedagogik asarlari bilan G‘arb madaniyatining yirik namoyondalaridan biri, pedagog va faylasuf olim sifatida tarixda qolgan.Uning ko‘plab darslik va qo‘llanmalari ta’lim bilan bog‘liq bo‘lib, “Xat yozish tartibi to‘g‘risida”, “Yoshlar uchun odob-axloq qoidalari” asarlarida o‘qitishning amaliy jihatlariga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, “O‘qish tartibi” asarida esa adabiyot va uning nazariy qoidalarini o‘qitishga, grek va lotin ijodkorlari asarlarini sharxlashga, xotirani mustahkamlashga oid qarashlari aks ettirilgan. Uning “Bolalarning birinchi ta’limi” asari hozirgi kun uchun ham eng muhim asarlardan biri bo‘lib, butun ta’lim tizimini qamrab oladi. Asarda o‘qituvchi tomonidan ta’lim berish jarayonida bola xarakteriga xos xususiyatlarni hisobga olish, ta’lim berishning samarali metodlari haqida ma’lumot beriladi va maktablarda mavjud qora intizom qoralanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, Erasmus birinchilardan bo‘lib, ta’lim jarayoniga o‘qituvchi tomonidan xushmuomilalik bilan dars jarayonlarini tashkil etish lozimligi haqidagi fikrlarni ilgari suradi. Xususan, o‘quvchilar ta’lim berishda to‘rt asosiy vazifa: birinchisi diyonatli bo‘lishga o‘rgatish; ikkinchisi ularni adabiyot va san’atni sevishga o‘rgatish; ijtimoiy hayotda o‘rnini topishga, xushmuomila bo‘lishga va oxirgisi bolalar yoshlikdan axloqiy me’yorlar asosida tarbiyanishlari lozimligi haqida aytib o‘tadi. Erasmus “Ta’lim maqsadi va metodlari” asarida o‘qituvchi uchun kerakli bo‘lgan eng asosiy xususiyatlarni sanaydi:

1. Yuksak xulqli va o‘ziga ishongan bo‘lishi;
2. Faol va yaxshi odatlarni egallagan bo‘lishi;
3. Yoshlar bilan ishlashda tajribaga ega bo‘lishi;
4. Jiddiy va sabrli bo‘lishi;
5. Ota-onalar bilan odil va do‘stona munosabatlarda bo‘lishi;
6. Yetarli bilimga, oliy toifaga, kompetensiyaga ega bo‘lishi;

Shuningdek, Erasmus o‘qituvchilar dars jarayonlarini tashkil etishda, o‘z qiziqish va loyoqatidan kelib chiqqan holda emas, “o‘quvchilar hali ham bola ekanligi, o‘zi ham bola bo‘lganligini” hisobga olgan holda shakllantirilishi kerakligi haqidagi fikrlarni bildiradi.

O‘qitish sohasida sezilarli o‘rin qoldirgan jahon olimlaridan yana biri Volfgang Ratke (1571-1635) nemis ta’limiy islohatchisi hisoblanadi. U didaktika deb nomlangan o‘qituvchilik san’atini targ‘ib etish bilan birgalikda, ta’lim beruvchilarga bir narsa o‘z vaqtida va o‘z tartibida tabiiy usullar bilan osondan qiyinga

qarab o‘rgatilishi, bir darsda faqat bitta mavzu o‘tilishi (bitta qozonda bir vaqtning o‘zida bir necha ovqat pishirib bo‘lmagandek) va darsda o‘tilgan ma’lumotlar bir necha bor takrorlantirilishi lozimligi haqida aytadi. Shuningdek, mavzu o‘tilishida oldin umumiy ma’lumot berilib, keyin xususiylashtirib borilishi kerakligi kabi qarashlarini bildiriladi .

Jon Amos Komenskiy (1592-1671) esa ta’lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirish g‘oyasini ilgari surgan bo‘lib, bunda o‘qituvchining o‘zlari hammadan ajralib turadigan namuna bo‘lishlari, yaxshi o‘qituvchi doimo o‘z ustida ishlashi va kichik bo‘lsada foydali bo‘lgan narsalarni o‘rganishdan qochmasligi haqida fikr bildiradi . Komenskiy o‘qituvchi bilgan narsalarni o‘quvchiga sabr bilan o‘rgatishi, faol va mehnatsevar bo‘lishi, o‘quvchi qilgan barcha xatolarini to‘g‘rilashi, intizomga qat’iy rioya qilishi (lekin u zo‘ravonlik bilan amalga oshirilishi mumkin emas), egallanayotgan bilimlarni tekshirib borishi lozimligi haqida fikrlarni bidiradi . Shuningdek, u har bir tushuntirilayotgan qoidalar mavhum bo‘lib qolmasligi, o‘quvchi ko‘ra oladigan va tushuna oladigan narsalardan iborat bo‘lishi lozim deb hisoblaydi.

Xalqaro darajada o‘ringa ega olimlardan biri Fenelon (1651-1715) “Qizlar ta’limi” asarida o‘qituvchilarga ta’lim berish jarayonida bosim bermaslik, tushuntirishda oddiy tildan foydalanish lozimligi, har bir bolaga alohida shaxs sifatida qarashlari, ularning qiziqishlarini bilishlari, kamchiliklarini asta-sekin bartaraf etishlari, xatolarni tuzatishni o‘rgatishlari, ularni jazolashdan qochishlari lozimligi haqida aytadi . O‘qituvchilar o‘quvchilarning qiziqishlari birin-ketin uyg‘onishi, ularni darsning natijasi orqali erishishlari mumkin bo‘lgan natijani ko‘rsata olishlari, shuningdek, ular o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otishda adabiyot va san’atdan foydalanish yaxshi natijalarga olib kelishi haqida aytadi va albatta oddiygina so‘zlardan ko‘ra o‘z harakati orqali na’muna bo‘lishi lozimligi haqida uqtiradi .

Keyingi asrlarda yashagan Jon Lok (1632-1704) ham o‘qituvchilarning eng asosiy mahorati sifatida o‘quv jarayoni davomida bilim beruvchilarining e’tiborini jalb qilish va ushlab turish ekanligini, buning uchun esa bolaga o‘rganilayotgan narsaning qanchalik foydali ekanligi iliq so‘zlar orqali tushuntirilishi lozimligi haqida so‘z yuritadi . Ya’ni o‘qituvchilarning xushmuomila bo‘lishlari, dars davomida ovoz tonlarini nazorat qila olishlari dars sifatini oshirishga xizmat qiladigan omillar sifatida ta’kidlanganini ko‘rishimiz mumkin.

G‘arb taniqli olimlaridan biri bo‘lgan Jan-Jak Russo (1712-1778) esa o‘qituvchi o‘quvchilarining yoshiga qarab munosabatda bo‘lishi, ularning vaziyatlarida o‘zini his qilib keyin ish tutishlari lozimligi, axloqiy ta’lim so‘z bilan emas, amaliy harakatlar orqali o‘rgatilishi va barcha yaxshi fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi haqida fikr bildiradi . O‘quvchilar uchun eng birinchi na’muna sifatida o‘qituvchilarning o‘zlari keltirilgan bo‘lib, ta’lim oluvchilar birinchi navbatda ko‘rgan narsalarini takrorlashlari, shuning uchun ham o‘qituvchilar har tomonlama o‘zlarida eng yaxshi fazilat va odatlarni mujassamlashtirgan bo‘lishlari lozimdir. Shuningdek, dars davomida har qanday turdagi mavzularni emas, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olganda yondashish eng samarali natijalarga erishishga yordam beradi.

Fransuz yozuvchisi va faylasufi bo‘lmish Denis Diderot (1713-1784) o‘qituvchi faoliyati xususan, adabiyot o‘qituvchisi uchun katta vazifa yuklaydi. Ularning boshqa soha vakillari bilan hamsuhbat bo‘lishlari va o‘zlarida bo‘lgan bilimlarni ularga ham ilinishlari kerakligi aytadi. Chunki adabiyot o‘qishni juda kam insonlar bilishi va bu ular uchun ham eng yaxshi sovg‘a bo‘la olishi haqida aytadi .

Mashhur faylasuf olimlardan biri Immanuel Kant (1724-1804) insonlarga ta’lim-tarbiya berish eng qiyin va mashaqqatli kasb ekanligi, to‘g‘ri ta’limiy metodlar asosida o‘qituvchilarning bilimlari, malakalari oshirib borilsa, yaxshi natijalarga erishish mumkinligi haqida fikr bildiradi . O‘qituvchi faqat boshlang‘ich bilimlar bilan qolib ketmasdan o‘z ustida ishlashi, malakasi to‘g‘ri usullar yordamida yangilab borishi yanada o‘qish jarayonlarini ijobiy tomonlarga o‘zgartishga yordam beradi.

Keyingi asrlarda o‘qituvchi layoqatiga oid fikrlar Pestalozzi tomonidan bildirilgan bo‘lib, uning “Gertud bolalarni qanday o‘qitadi” deb nomlangan asari ta’lim-tarbiya jarayoniga bog‘liq holda yoritiladi . Xususan, u o‘qituvchilarning o‘quv faoliyatlarini boshlashdan avval bolalar psixologiyasi va o‘quv jarayoni haqida tushunchalarga ega bo‘lishlari lozimligi haqida aytdi. Shuningdek, dars jarayonlarida o‘quvchilarning mustaqil rivojlanishlari uchun shart-sharoit yaratilishi, ular bilan ota-o‘g‘il kabi munosabatda bo‘lishlari va kasblariga mehr-muhabbat bilan yondashishlari kerakligi haqida fikr bildiradi .

Jahon olimlarining qarashlarini tahlil qilish davomida ularning bir-biriga o‘xshash hamda farqli jihatlarini ko‘rish mumkin.O‘qituvchilar bolalarga ularning psixologiyasi, yoshi va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda ta’lim berishlari lozimligi haqida bir necha takrorlanadi. Xususan, ular dars berishdan oldin yetarli ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari, mavzu tushuntirishda turli metod va usullardan foydalanishlari, malakalarini doimiy oshirib borishlari va ayniqsa o‘zlarining iliq so‘zlari va harakatlari bilan na’muna bo‘lishlari kabi bugungi kun o‘qituvchisi uchun ham zarur bo‘lgan xususiyatlar sanab o‘tiladi. Yuqorida keltirilgan jahon mutaffakkir olimlarining ilmiy mulohazalarini o‘rganish hozirgi kun ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishga, o‘qituvchi malakasi va layoqatiga oid ko‘nikmalarning tarixiy asoslarini tahlil etishga va yanada ijobiy natijalarga erishishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cotton Charles. Essays of Montaigne. Volume Four. –New York: 1910.Luther Martin. Works of Martin Luther. – Philadelphia: 1915.
2. Harrison William. Desiderius Erasmus concerning tha Aim and Method of Education. Cambridge: at the University Press. 1904.
3. Hebert Robert. Essays on Eeducational reformers. –New York: 1896.
4. Пережовская, А. Н. Вклад Я. А. Коменского в развитие педагогической науки / А. Н. Пережовская. — Текст : непосредственный // Инновационные педагогические технологии : материалы II Междунар. науч. конф. (г. Казань, май 2015 г.). — Казань: Бук, 2015. — С. 27-30. — URL: https://moluch.ru/conf/ped/archive/150/7993/ (дата обращения: 06.11.2024).
5. Коменский Я. А. Избранные педагогические сочинения. Том первый. –Москва: 1982.
6. Ioannou, A. X., & Malafantis, K. D. (2020). The Literary Works of François Fénelon on the Achievement of Child Well-being.Pedagogical Research, 5(2), em0061. https://doi.org/10.29333/pr/7939.
7. Fénelon, F.The Education of girls. Boston: Ginn & company, 1891.
8. Locke, John.The Works, vol. 8 (Some Thoughts Concerning Education, Posthumous Works, Familiar Letters). Rivington, 1690.
9. Dung Bui Xuan, Thanh Bui Xuan. Rousseau's Philosophical and Educational Innovation in Vietnam Today. Journal of Social Studies Education Research. 2021:12 (4).
10. The history of pedagogy.
11. Kant Immanuel. Educational Theory. –Philadelphia & London: J.B. Lippincott company:1904.
12. https://uz.wikipedia.org/wiki/Fran%C3%A7ois_Rabelais
13. https://en.wikipedia.org/wiki/Erasmus

Ozoda ACHILOVA,
amarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi



MULOQOT DISKURSIDA PROXIBITIVLIKNI FAOLLASHTIRUVCHI OMILLAR

Annotatsiya:maqolada muloqot diskursida suhbat kechishini ta'minlovchi omillar qatoriga yosh va gender xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etishi va taqiq nutqiy aktini yoshi katta va kichik shaxslar ijro etishi mumkin, ammo yoshi kattalarning bunga huquqi ko'proq ekanligi sezilib turishi hamda tadqiqotda to'plagan materiallar yoshi kattalarning ulushi 28% ni tashkil etishi bilan bog'liq ilmiy qarashlar misollar yordamida asoslangan. Suhbatdoshlarning ijtimoiy maqomi rasman belgilangan bo'lganida esa yosh ko'rsatkichining ta'siri unchalik sezilmasligi bilan bog'liq misollar qatori tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: *diskurs, axloq me'yorlari, nutqiy akt, ijtimoiy xatti-harakat, taqiq, ruxsat, qatnashchi-so'zlovchi, tinglovchi, suhbatdosh.*

Аннотация: в статье среди факторов, обеспечивающих беседу в диалоговом дискурсе, важное место занимают возрастные и гендерные характеристики, причем запретительный речевой акт может совершаться как старшими, так и младшими людьми, но чувствуется, что пожилые люди имеют на него больше прав, и процент пожилых людей составляет 28% Материалы, собранные в исследованиях, связаны с научными взглядами на примерах. При официальном определении социального статуса собеседников анализируется ряд примеров, связанных с тем, что влияние возрастного показателя не столь заметно.

Ключевые слова: *дискурс, моральные нормы, речевой акт, социальное поведение, запрет, разрешение, участник-говорящий, слушатель, собеседник.*

Annotation: the article substantiates the scientific views that age and gender characteristics play an important role in the factors ensuring the conduct of a conversation in dialogical discourse, and that the prohibitive speech act can be performed by both older and younger persons, but it is felt that older people have more rights to it, and that the share of older people in the materials collected in the study is 28%. A number of examples are analyzed, including the fact that the influence of age is not very noticeable when the social status of the interlocutors is officially determined.

Key words: *discourse, moral norms, speech act, social behavior, prohibition, permission, participant-speaker, listener, interlocutor.*

Kirish. Muloqot kechishini ta’minlovchi omillar qatoriga yosh va gender xususiyatlari ham kiradi. Taqiq nutqiy aktini yoshi katta va kichik shaxslar ijro etishi mumkin, ammo yoshi kattalarning bunga huquqi ko‘proq ekanligi sezilib turadi. Jumladan, tadqiqotda to‘plagan materiallar yoshi kattalarning ulushi 28% ni tashkil etishini ko‘rsatadi. Suhbatdoshlarning ijtimoiy maqomi rasman belgilangan bo‘lganida esa yosh ko‘rsatkichining ta’siri unchalik sezilmaydi. Masalan, shahar hokimi korxona boshlig‘i, shuningdek, ustoz-shogird kabi o‘zidan katta yoshdagi xodimga biron bir harakatni bajarishni bevosita yoki bilvosita taqiqlashi ko‘p marotaba kuzatilgan holatdir. Qiyoslang:

先生「岡本君、私はこれからエゲレス語（英語のこと）に宗旨替えして、勉強することにしたよ。

岡本「わかりました。塾のほうは私が精いっぱいお手伝いしますから、先生は思い通りエゲレスにはげんでください。

（福沢諭吉 「天は人の上に人をつくらず」 : 66 b).

Ustoz: Okamoto, men bundan buyon ingliz tilini ixlos qilib o‘rganmoqchiman.

Okamoto: tushunarli. Ustoz, men qo‘shimcha darslaringizni o‘tishga yordam beraman, siz rejalashtirganingizdek ingliz tilini o‘zlashtiravering.

Ushbu jumladan shogirdning ustoziga yo‘naltirilgan nutqida bevosita taqiqqa urg‘u berilgan. Ya’ni *“... qo‘shimcha darslaringizni o‘tishga yordam beraman, siz esa rejalashtirganingizdek ingliz tilini o‘zlashtiravering”* degan jumlasini “qo‘shimcha darslardan xavotir olmang” kabi bevosita proxibitiv nutqiy akti sifatida idrok etish ham mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Biz tahlil qilayotgan materiallar taqiqning nutqiy voqelanishida erkak va ayollar o‘rtasida unchalik katta farq yo‘qligini ko‘rsatdi. Adresati erkak kishi bo‘lgan taqiq nutqiy aktlarining umumiy miqdori 52,6% tashkil qilsa, ayollar tomonidan bajarilgan proxibitivlarning soni 47,4% dan iboratdir. Ularning shaxslararo munosabat ko‘lamidagi taqsimoti quyidagicha: ayol-ayolga 19,5%, ayol-erkakka 24,2%, erkak-erkakka 20,5%, erkak-ayolga 21%. Ushbu holatni quyidagi jadvalda tasvirlashga harakat qilamiz:

Proxibitiv nutqiy aktlarining gender ko‘rsatkichlari.

3.2.1-Jadval

Shaxslararo munosabat	%
ayol - ayol	19,5
ayol – erkak	24,2
erkak - erkak	20,5
erkak - ayol	21

Jadvaldagi ijro etilgan taqiq nutqiy aktlarining miqdori ayol-erkak munosabati doirasida nisbatan ko‘proq uchrashidan (24,2%) darak bersa-da, lekin bu ko‘rsatkich ushbu nutqiy aktining ayollar muloqotida yetakchilik qilishi haqida xulosa chiqarish imkoniga ega emasmiz.

Natijalar. Demak, tadqiqotchilarning har qanday nutqiy aktning faollashuvi diskurs talablariga asoslanishi haqidagi fikri haqiqatdir. Ayniqsa, direktivlar sifatiga kiruvchi nutqiy aktlarning asosiy qismi so‘zlovchining xohish-istagini namoyish qiladi. Xohish istakning izhori darajasiga qarab, taqiq nutqiy aktlarining qat’iyligini me’yoriy aniqlash mumkin. Buni, ayniqsa, taqiqning tahdid ohangiga ega bo‘lishida yaqqol ko‘ramiz. Masalan：「もうその話は止めよう」と彼が云いました。*Keling, bu suhbatni bas qilaylik*. （夏目漱石 「こころ」 ： 284 b).

「遺書には「決して同じ中平の墓に入れないでください」って書いておくつもり。」（ 白石一文「一瞬の光」 : 288 b).

Vasiyatnomamga “Meni Nakahira qabristoniga aslo qo‘ymanglar”, deb yozib qoldirmoqchiman.

Mazkur guruhdagi misollarda so‘zlovchi o‘z xohishini hech qanday qoida-qonunlarga tayanmasdan tahdid ila bayon qilayotganini ko‘ramiz:

Ayni paytda, taqiq adresat foydasini ko‘zlab ma’lum qilinayotgan vaziyatlar ham mavjud. Ammo ushbu turdagi proxibitiv nutqiy aktlarining bizning kartotekamizda juda kam miqdorni (2,1%) tashkil qiladi, xolos. Ushbu turdagi nutqiy aktlarda taqiq maslahat mazmuniga yaqinlashadi va ogohlantirish bilan birikadi. Bunday jumlalarni asosan suhbatdosh foydasi uchun qo‘llaniladigan paremiyalarda tez-tez uchratish mumkin. Qiyoslang: 虻も取らず蜂も取らず。 （ミニことわざ辞典，1993:87)

Pashshani ham, arini ham quvlama.

Izoh: ikki hashoratni baravar quvlama, ikkisini ham tuta olmaysan.

Ushbu vaziyatda taqiq ma’lum darajada sarhadga qarab siljiydi. Chunki u mazmun jihatidan va illokutiv yo‘nalishi bilan tinglovchi manfaati uchun maslahatga yaqinlashadi va bunga “取らず(quvlama)” jumlasi ham ishora qilmoqda. Taqiq nutqiy harakatining ogohlantirish ruhiga ega bo‘lishi so‘zlovchi tinglovchini noto‘g‘ri va befoyda harakatdan saqlab qolish istagida ekanligida namoyon bo‘ladi.

Muhokama. Bundan tashqari, taqiq o‘zini himoya qilish yoki atrofni tartibga keltirish maqsadida ham voqelanishi mumkin. Masalan:

–おい！しゃべるな！」厳しい声が飛んできた。
–余計なことをしゃべるなと言われているだろう。
–分かった。 (赤川次郎 「赤いこうもり傘」 : 151 b)
-Jiddiy ohangda "Hoy, gapirma!" degan ovoz eshitildi.
-Keraksiz gaplarni aytma deyapdi senga!
-Tushunarli.

Quyidagi misollarda yaqin munosabatdagi shaxslarning bir-biriga biron harakatni bajarishni taqiqlamoqda:

「私が脱いだ服を片付けていると、着換えを終えた瑠衣が慌てて駆け寄ってくる。「いいよ、これくらい自分でやるよ」。「駄目」そう言って横取りした服をハンガーにかけている。」 (白石一文 「一瞬の光」:122 b).

yechilgan kiyimlarimni yig'ar ekanman, allaqachon liboslarini alishtirib bo'lgan Rui shoshilib oldimga keldi. "To'xta , bu ishlarni o'zim bajaraman", dedim unga. U esa " Yo'q, mukin eams" deya kiyimlarni ilgakka ilar edi.

Xulosa. Bu holatda so'zlovchining buyrug'i adresatni g'azablantirmoqda, chunki u birinchi bor uchratayotgan shaxs bo'lgani uchun bunday qo'pol ohangdagi buyruqni berish huquqiga ega emas. Shu bois, taqiqqa nisbatan adresatning nafratli nigohi orqali taqiqli javob qaytarilmoqda. Muloqotning kechishi, uning ishtirokchilarining o'zaro munosabati taqiq nutqiy akti sodir bo'lishining usullarini nazorat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алиқулов Т. Русча-ўзбекча луғат. –Т.: "Комуслар бош таҳририяти", 1993.304-б.
2. Абакумова О.Б. Пословицы в языке, сознании и коммуникации. - СПб: Издательский дом «Алеф-Пресс», 2012. -С. 354 .
3. Lutfilloeva F., Madaminovich T. I. Teaching Japanese Hieroglyphics Based on Mnemonics //Available at SSRN 3567573. – 2020.
4. Lutfilloeva F., The Japanese language teaching technologies based on computer simulation models //Asian Journal of Research in Marketing. – 2020. – Т. 9. – №. 4. – С. 1-7.
5. Кирино Нацуо (桐野夏生) 「顔に降りかかる雨」東京：講談社、1996. *- P.320.*
6. Курода Тошио (黒田敏夫) 「雑学事典」東京：照文社，*1988. - P. 304.*
7.Мацуги Шигеру (松木茂) 「ミニことわざ辞典」東京：金園社、1993. – P.409.

Shaxzoda USMONOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchisi



JISMONIY MASHQLARNI BAJARISHNING FIZIOLOGIK MEXANIZMLARI VA ULARDA SOG`LIQNI SAQLASH GIGIYENASI TALABLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqola jismoniy tarbiya gigiyenasi va sportning tibbiy-fiziologik asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda ta'lim muassasalarida jismoniy mashg'ulotlarning gigiyenik talablariga rioya qilish va ularning inson salomatligiga ta'siri o'rganilgan. Eksperimentlar va kuzatishlar davomida muntazam jismoniy faollikning yurak-qon tomir tizimi, nafas olish va muskul-skelet tizimiga ijobiy ta'siri aniqlangan

Kalit so'zlar: *jismoniy tarbiya, gigiyena, sport, tibbiy-fiziologik asoslar, salomatlik, ta'lim tizimi, jismoniy faollik, sog'lom turmush tarzi, mushak-skelet tizimi, yurak-qon tomir tizimi, nafas olish tizimi, immunitet, o'quv muassasalari.*

Annotation: this article is dedicated to the study of the medical and physiological foundations of physical education hygiene and sports. In the study, compliance with the hygienic requirements of physical training in educational institutions and their impact on human health were studied. During the experiments and observations, the positive effect of regular physical activity on the cardiovascular system, respiratory system and musculoskeletal system was determined.

Key words: *physical education, hygiene, sports, medical-physiological foundations, health, educational system, physical activity, healthy lifestyle, musculoskeletal system, cardiovascular system, respiratory system, immunity, educational institutions.*

Аннотация: данная статья посвящена изучению медико-физиологических основ гигиены физического воспитания и спорта. В ходе исследования изучено соблюдение гигиенических требований физического

воспитания в образовательных учреждениях и их влияние на здоровье человека. В ходе экспериментов и наблюдений установлено положительное влияние регулярных физических нагрузок на сердечно-сосудистую систему, систему дыхания и опорно-двигательный аппарат.

Ключевые слова: *физическое воспитание, гигиена, спорт, медико-физиологические основы, здоровье, система образования, физическая активность, здоровый образ жизни, опорно-двигательный аппарат, сердечно-сосудистая система, дыхательная система, иммунитет, образовательные учреждения.*

Kirish. Jismoniy tarbiya gigiyenasi va sportning tibbiy-fiziologik asoslari bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib, bu inson salomatligini mustahkamlash va jamiyatning umumiy farovonligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Jismoniy tarbiya nafaqat tananing jismoniy rivojlanishi, balki ruhiy barqarorlik va ijtimoiy uyg‘unlikka ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanining dolzarb ekanligi yosh avlodni sog‘lom hayot tarziga jalb qilish zarurati bilan bog‘liqdir.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida ekologik ta’lim va ekologik kompetentlikni rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Tabiiy resurslarining kamayishi, iqlim o‘zgarishlari va atrof-muhitning ifloslanishi kabi global muammolar shaxslarning ekologik tafakkurini shakllantirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda ekologik kompetentlikni shakllantirish o‘quvchilarning kelajakdagi atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli munosabatini belgilaydi. Bu jarayonni yanada samarali qilish uchun fanlararo yondashuv va integratsiyalashgan metodikalardan foydalanish zarurdir.

USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Ekologik kompetentlik — bu insonning atrof-muhitni tushunishi, ekologik muammolarni aniqlash va hal etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik kompetentlikni shakllantirishda quyidagi asosiy vazifalar amalga oshiriladi:

Tabiatni anglash va ekologik bilimlarni egallash: o‘quvchilarga atrof-muhit, ekologik tizimlar, biota (organizm turkumlari) va ularning o‘zaro aloqalari haqidagi bilimlarni taqdim etish.

Mas’uliyatli munosabatni rivojlantirish: o‘quvchilarda tabiatga nisbatan mas’uliyatli, ehtiyotkorona va sevgi bilan munosabatni shakllantirish.

Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish: ekologik masalalarni hal qilishda amaliyotga oid faoliyatlar orqali o‘quvchilarning kompetentligini oshirish.

Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: ekologik masalalar haqida mustaqil fikr yuritish va yechimlar ishlab chiqish ko‘nikmalarini oshirish.

Natijalar.Boshlang‘ich sinfda ekologik kompetentlikni rivojlantirishda fanlararo yondashuvning ahamiyati beqiyosdir. Bu yondashuv, turli fanlar orqali ekologik bilimlarni o‘rgatish, o‘quvchilarni ko‘p qirrali fikrlashga, muammolarni kompleks yondashuv orqali hal qilishga undaydi. Fanlararo yondashuvning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Ko‘p qirrali bilimlarni shakllantirish: o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida ekologik masalalarni tahlil qilish uchun bir nechta fanlardan foydalanadilar, masalan, ekologiyani matematika, san’at, adabiyot, texnologiya va boshqalar bilan integratsiya qilish orqali.

Amaliy kompetentlikni rivojlantirish: ekologik muammolarni hal qilishda o‘quvchilar nafaqat bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham egallaydilar. Masalan, ekologik loyiha yaratish yoki tabiatni asrab-avaylashga oid reja ishlab chiqish.

Ijodiy va kritika ko‘nikmalarini rivojlantirish: fanlararo yondashuv orqali o‘quvchilarning ekologik tafakkuri kengayadi, ular ekologik masalalarda ijodiy va kritika fikrlashni o‘rganadilar.

Tahlil va muhokama. boshlang‘ich sinfda ekologik kompetentlikni rivojlantirishda quyidagi metodik usullar samarali hisoblanadi:

Loyihalar asosida ta’lim: o‘quvchilarga ekologik muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan loyihalar tayyorlash. Misol uchun, “Chiroyli bog‘ yaratish” yoki “Chiqindilarni qayta ishlash” kabi ekologik loyihalar o‘quvchilarda ekologik tafakkurni rivojlantiradi.

Interfaol va kooperativ darslar: ekologik mavzularda o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lish va birgalikda muammo yechish, muhokama qilish orqali ta’lim berish. Bu metod o‘quvchilarda jamoaviy fikrlash, muammolarni yechish va ekologik mas’uliyatni shakllantirishga yordam beradi.

Tabiatga sayohatlar va ekskursiyalar: tabiatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatish va ekologik muammolarni amalda o‘rganish uchun ekskursiyalar tashkil etish. O‘quvchilar nafaqat tabiiy jarayonlarni, balki insonlarning tabiatga ta’sirini ham o‘rganadilar.

San’at va ekologiya integratsiyasi: san’at, musiqani ekologik mavzular bilan birlashtirish orqali o‘quvchilarda ekologik sezgirlikni oshirish. Rasm chizish, qo‘shiqlar yaratish, hikoyalar yozish orqali tabiatni sevsalar, uni asrab-avaylashni ham o‘rganadilar.

Muvaffaqiyatli dialoglar va munozaralar: o‘quvchilarga ekologik masalalarda o‘z fikrlarini erkin ifodalash, boshqalarning fikrlarini tinglash va muhokama qilish imkoniyatini berish. Bu metod orqali o‘quvchilar ekologik masalalarda tanqidiy fikr bildirishni o‘rganadilar.

Tabiatshunoslik va matematika integratsiyasi: tabiiy resurslar haqida ma’lumotlar to‘plab, ularni statistik tahlil qilish. Masalan, qayta ishlanadigan chiqindilar sonini hisoblash va ularni kamaytirish bo‘yicha yechimlar ishlab chiqish.

Adabiyot va ekologiya integratsiyasi: ekologik mavzuda hikoya yozish yoki she’rlar yaratish. O‘quvchilar ekologik muammolarni badiiy tarzda ifodalaydilar va tabiatni sevish va unga ehtiyotkorlik bilan yondashish haqidagi fikrlarni o‘z ijodida aks ettiradilar.

San’at va ekologiya integratsiyasi: tabiatni asrab-avaylashni aks ettirgan rasm yoki skulptura yaratish. O‘quvchilar chiqindilardan foydalangan holda ekologik san’at yaratadilar, shu orqali atrof-muhitni himoya qilish g‘oyalarini ilgari suradilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik kompetentlikni fanlararo takomillashtirish metodikasi — o‘quvchilarda ekologik bilish, ong va ko‘nikmalarni shakllantirishni maqsad qilgan kompleks ta’lim yondashuvi. Ekologik kompetentlik — o‘quvchilarning atrof-muhitni anglash, ekologik muammolarni hal qilishga tayyor bo‘lishi va shu orqali ekologik mas’uliyatni his qilish qobiliyatidir. Ushbu kompetentlikni fanlararo yondashuv asosida takomillashtirish ekologiya, biologiya, geografiya, kimyo va boshqa fanlar yordamida amalga oshiriladi. Fanlararo integratsiya, o‘quvchilarga nafaqat individual fanlar bo‘yicha bilimlarni, balki turli fanlarni birlashtirgan holda atrof-muhitga oid masalalarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Fanlararo yondashuv o‘quvchilarga ko‘p qirrali va chuqur tushuncha beradi. Ekologik masalalar ko‘pincha turli fanlarni, masalan, biologiya, kimyo, geografiya va matematika kabi fanlarni o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv ekologik kompetentlikni shakllantirishda samarali bo‘lishi mumkin, chunki u o‘quvchilarga ekologik muammolarni keng qamrovli tarzda tushunishga yordam beradi**.**

Boshlang‘ich sinfda ekologik kompetentlikni rivojlantirishda fanlararo integratsiyani qo‘llash juda muhim. Bu yondashuv ekologik tushunchalarni o‘quvchilarga turli fanlar orqali yetkazish va ular orasida bog‘lanishlarni tushunishga yordam beradi. Masalan:

Biologiya va geografiya integratsiyasi: tabiiy resurslar, hayvonlar va o‘simliklar haqida o‘qish orqali ekologik muammolarni tushunish.

Kimyo va ekologiya integratsiyasi: havo ifloslanishi yoki suv resurslarining ifloslanishi bilan bog‘liq kimyoviy jarayonlarni o‘rganish.

Matematika va ekologiya integratsiyasi: tabiiy resurslarni hisoblash, ekologik ko‘rsatkichlarni tahlil qilish.

c. Muammolarni hal qilish metodikasi: bu usulda o‘quvchilarni real hayotdagi ekologik muammolarni hal qilishga jalb qilish mumkin. Misol uchun:

O‘quvchilarni havo ifloslanishini kamaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha maslahatlar berishga undash.

Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilish va muqobil energiya manbalarini taklif qilish.

Ekologik kompetentlikni rivojlantirishni o‘lchash uchun o‘quvchilarni turli o‘quv faoliyatlarida ishtirok etishga undash, ular bilan ekologik muammolarni muhokama qilish va natijalarni tahlil qilish kerak. Bu quyidagi metodlar yordamida amalga oshiriladi:

Formativ baholash: o‘quvchilarni ekologik masalalarni hal qilishda qanday yondashuvlar qo‘llashayotganini doimiy ravishda kuzatib borish.

Loyiha ishlari: o‘quvchilarga turli ekologik loyiha ishlari taqdim etib, ularning yechimlarni qanday ishlab chiqqanligini baholash.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik kompetentlikni fanlararo yondashuv yordamida rivojlantirish, o‘quvchilarning tabiatga nisbatan mas’uliyatli va mulohazali munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu metodika orqali ekologik bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, ijodiy fikrlash va ekologik sezgirlikni oshirish mumkin. Ekologik kompetentlikni shakllantirish nafaqat o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki ularni ekologik mas’uliyatni anglaydigan va amalda qo‘llay oladigan shaxslar sifatida tarbiyalaydi. Shu sababli, ekologik kompetentlikni boshlang‘ich ta’limda takomillashtirish – barqaror rivojlanishga erishish yo‘lida katta qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.**Xasanova, S. (2020).** “Ekologik ta’lim va ekologik kompetentlikni rivojlantirish.” –Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashriyoti.

2.Ismoilov, N. (2019). “Boshlang‘ich ta’limda ekologik ta’lim metodikasi.” –Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

3.Muminova, D. (2021). “Ekologiya va boshlang‘ich ta’limda innovatsion metodlar.” Ta’lim va pedagogika, 5(3), 42-48.

4.Abduqodirov, A. (2022). “Fanlararo integratsiya: Nazariya va amaliyot.” –Toshkent: Moliya nashriyoti.

5.Nazarov, F. (2018). “Pedagogik texnologiyalar va ekologik ta’lim.” Ta’lim metodikasi, 6(4), 37-44.`

Gulnoza SHODIEVA
Senior teacher of Tashkent KIMYO International University, Samarkand branch
e-mail: shodievagulnoza@gmail.com



THE CONTRIBUTION OF INTERNET RESOURCES AS A VALUABLE TOOL FOR EDUCATION

Annotation: this article explores internet resources, their role in enhancing the teaching and learning process, and includes helpful tips for teachers to use the internet effectively.

Key words: *internet, phenomenal apparatus, face-to-face teaching, facilitation, real world.*

Аннотация: это статья рассматривает интернет-ресурсы, их роль в улучшении процесса обучения, а также включает полезные советы для учителей по эффективному использованию интернета.

Ключевые слова: *интернет, феноменальный аппарат, очное обучение, фасилитация, реальный мир.*

Annotatsiya: ushbu maqola internet resurslarini, ularning o‘qitish va o‘rganish jarayonini yaxshilashdagi rolini o‘rganadi va o‘qituvchilarga internetdan samarali foydalanish uchun foydali maslahatlarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: *internet, fenomenal apparat, yuzma-yuz o‘qitish, fasilitatsiya, haqiqiy dunyo.*

The internet offers a vast array of resources that teachers can access to help prepare teaching materials. These include websites tailored for educators and students, as well as resources from national and international newspapers, museums, galleries and more. Teachers can utilize these materials just like traditional print resources, creating worksheets and activities for their students. The rise of the internet has transformed the way teachers view their tools, as online resources have become increasingly reliable. Today, the internet is widely used in foreign language teaching, with more educators and students embracing its potential. It brings the “real world” into the classroom, allowing students to explore learning in new ways. However, as students engage with computers instead of directly interacting with the teacher, educators need to remain attentive and vigilant during internet-based lessons.

Creating a multimedia package is a creative, engaging and rewarding endeavor, but it is also complex and demands significant time, effort and financial resources to be effective. Developing such a package requires various skills, which are often not possessed by university lecturers, who tend to be more focused on content expertise rather than programming these types of packages. The internet enables students and teachers to collaborate more easily through online forums, discussion groups and video conferencing platforms. It supports global interactions, allowing students to connect with peers and experts worldwide, enhancing cultural exchange and expanding their perspectives. Many online educational tools and materials are free or low-cost, reducing the financial burden on educational institutions and students. This makes high-quality education more accessible and equitable, especially in underfunded or rural areas. Therefore, the time, effort and budget needed for multimedia development should be carefully considered. To ensure success, attention must be paid to the composition and size of the project team and the compatibility of the package with future hardware and software. While multimedia packages have potential for both in-person and distance education, the high production costs mean that it will take time before their use in teaching becomes standard practice.

The internet may be a phenomenal apparatus for teachers. It’s not the reply to basic educating or learning, but it is a fantastically motivating resource for both instructors and learners. You’ll be able discover materials for utilize in conventional classes, you’ll access message sheets and talk bunches for your possess intriguing, improvement and to induce thoughts and exercises for lessons, you’ll utilize it as a communication apparatus which permits your understudies to connected with individuals around the world in English and you’ll utilize it as the premise of lessons with understudies getting to the web live amid lessons. It’s not continuously simple to utilize and it has its issues but it’s a spurring and locks in asset for both understudies and the teachers.

Here are some top tips for teachers using the internet.

Don’t be afraid of the technology, it’s not difficult to learn to use.

Learn how to search effectively and evaluate the materials you find

Prepare internet lessons and materials carefully, remember to have alternative material ready in case of technological or other problems

Before using the internet in class, check any sites that you will be asking the students to use.

During the lesson, monitor the students carefully

Finally - have fun and be creative!

The Internet has made a vital alter into instruction

within the past decade. Moreover, The Web has brought critical benefits to instructors and understudies alike. In spite of the fact that the potential of the Web for instructive utilize has not been completely investigated however and the normal school still makes constrained use of computers, it is apparent that we have entered a modern data age in which the joins between innovation and English Language Educating have as of now been set up.

With computers and the internet now widely available, the multimedia packages can provide further resource support for students involved in off-campus, industry experience or for those enrolled in distance education programs. In general, such packages can complement face-to-face teaching and thus can be readily integrated into existing teaching programs. The internet allows students to learn at their own pace. The internet has revolutionized education by providing a wealth of resources that are invaluable for learning. Here are several key contributions of internet resources to education:

Access to Information: The internet serves as a vast repository of information. Websites, online journals, e-books and educational videos allow students and educators to access a wide range of resources at their fingertips. This wealth of information can enhance learning and research opportunities, making education more comprehensive and dynamic.

E-Learning Platforms: Online learning platforms like Coursera, Udemy, Khan Academy and edX offer courses on a wide range of subjects. These platforms provide flexible learning opportunities, allowing individuals to learn at their own pace and often at a fraction of the cost of traditional education. They also offer certifications and degrees, making education more accessible globally.

Collaboration and Communication: Tools like email, forums and collaborative platforms (e.g., Google Classroom, Microsoft Teams) enable seamless communication between students and teachers, as well as peer-to-peer collaboration. Students can work on group projects, share resources and receive feedback in real time, facilitating a more interactive and engaging learning environment.

Global Learning Opportunities: The internet breaks down geographical barriers, enabling students to access education from institutions around the world. This creates opportunities for cross-cultural exchange and the ability to study diverse subjects that may not be available locally.

Many online resources, such as adaptive learning platforms, can adjust the difficulty level based on a student‘s progress, providing a more personalized learning experience. By using multimedia packages, student learning can be more effective, and staff time more productive, because students are able to access concepts cover, If necessary, students can deepen their understanding of the concepts presented in the package by discussing and consulting with peers and resource staff. The use of computers, the internet and e-learning is growing in universities globally, with more courses being offered through distance education. In distance education, student learning is often supported by providing teaching resources online and using tools like WebCT.

In conclusion, I would say that the web can be a powerful tool for teachers. While it may not be a solution to traditional teaching or learning, it serves as an incredibly motivating resource for both educators and students. It offers materials for classroom use, ideas and activities for lessons. Additionally, it can be used as a communication tool, enabling students to interact with people worldwide in English. And the contribution of internet resources to education is profound. It enhances accessibility, engagement, and personalization, while supporting collaboration and providing teachers with tools for professional growth. The internet has transformed education by making it more inclusive, flexible and dynamic.

Used literatures:

1.Попов В.Б. Интернет-технологии и развитие образования. – Воронеж: ВГПУ, 2001. – с. 18.
2.Владимирова Л.П. Интернет на уроках иностранного языка. – Москва: ИЯШ, 2002. – с.41.
3.Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам. – Москва: АРКТИ, 2004. – с. 52.
4.Rashid M.J. Use of IT in teaching foreign languages. –Islamabad: National Book Foundation, 1998. – p. 179.
5.Zhao, Y., & Tan, H. “What makes the Internet an effective tool for learning.” Educational Technology Research and Development, 53(4), 2005. -p.94.

Muattar NASIMOVA,
PhD Student of Samarkand State University named after Sharof Rashidov
nasimovamuattar@gmail.com

THE IMPACT OF TASK-BASED READING STRATEGIES ON ACADEMIC PERFORMANCE IN HIGH SCHOOL STUDENTS

Annotation: this study explores the effect of task-based reading strategies on high school students' academic performance in reading comprehension. A sample of 100 students was divided into a control group and an experimental group that was trained in task-based reading techniques. The results show a statistically significant improvement in reading scores for the experimental group, suggesting that task-based reading is an effective tool for enhancing comprehension.

Key words: *task-based reading, academic performance, experimental group, comprehension, complex texts, skimming, scanning, intensive.*

Аннотация: в этом исследовании изучается влияние стратегий чтения на основе задач на успеваемость студентов института по чтению и пониманию. Выборка из 100 студентов была разделена на контрольную группу и экспериментальную группу, которая обучалась методам чтения на основе задач. Результаты показывают статистичеески значимое улучшение ptзультатов чтения для экспериментальной группы, что позволяет предположить, что чтение на основе задач является эффективным инструментом для улучшения понимания.

Ключевые слова: *чтение на основе задач, успеваемость, экспериментальная группа, понимание, сложные тексты, беглое чтение, сканирование, интенсивный.*

Annotatsiya: ushbu tadqiqot vazifaga asoslangan o'qish strategiyalarining o'rta maktab o'quvchilarining o'qishni tushunishdagi akademik samaradorligiga ta'sirini o'rganadi. 100 nafar talabadan iborat namuna nazorat guruhi va eksperimental guruhga bo'lingan, ular topshiriq asosida o'qish texnikasi bo'yicha o'qitildi. Natijalar eksperimental guruh uchun o'qish ballarida statistik jihatdan sezilarli yaxshilanishni ko'rsatadi, bu vazifaga asoslangan o'qish tushunishni kuchaytirish uchun samarali vosita ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *topshiriq asosida o'qish, o'quv faoliyati, eksperimental guruh, tushunish, murakkab matnlar, intensiv.*

Introduction

Background. Reading comprehension is a critical skill that affects students' overall academic performance. Traditional reading strategies often involve reading for general understanding without a specific purpose, which can limit the effectiveness of comprehension, especially for complex texts. Task-based reading, in contrast, involves reading with a clear purpose, focusing on extracting specific information needed to complete a given task. This approach has shown promise in educational settings by enhancing reading efficiency and retention.

Literature review

Task-based learning, originally developed in language education (Ellis, 2003), enhances reading comprehension by engaging students in purposeful activities that simulate real-life scenarios. This approach has shown considerable promise for enhancing reading comprehension by structuring reading as a means to achieve specific goals or complete concrete tasks. Task-based reading involves a set of targeted strategies—such as skimming, scanning and intensive reading—that allow students to focus on relevant information quickly and accurately, which has proven effective in various educational settings (Nunan, 2004). For instance, skimming allows readers to gain an overall understanding of a text by reading headlines, introductory sentences and topic sentences, while scanning helps locate specific information by focusing on keywords or data points. Intensive reading, on the other hand, is used for in-depth analysis of selected passages and critical reflection. Task-based reading has been shown to improve cognitive engagement, particularly for students who may struggle with staying focused during longer, dense readings (Grabe & Stoller, 2011). Task-based reading minimizes extraneous cognitive load by directing students to focus on specific tasks, thereby improving their processing efficiency and comprehension (Sweller, Ayres, & Kalyuga, 2011).

Problem Statement

Despite the potential benefits, task-based reading strategies are underutilized in high school curricula. There is limited empirical evidence examining how these strategies impact academic performance in reading among high school students.

Objective. This study aims to determine whether training high school students in task-based reading strategies can improve their reading comprehension and overall academic performance.

Methods

Participants

The study recruited 100 high school students aged 15-17 from two institutes of Uzbekistan. Participants were randomly assigned to an experimental group (50 students) or a control group (50 students).

Materials

Reading comprehension tests were adapted from standardized assessments. Additionally, task-based reading worksheets and training materials were developed to guide the experimental group.

Reading Comprehension Tests

Pre-Test and Post-Test: Choose a standardized reading comprehension test.

Practice Texts: Gather various short passages (around 1-2 pages each) that are suitable for high school students.

Task-Based Reading Strategy Materials for the Experimental Group

Strategy Handouts: Create simple handouts explaining each task-based reading strategy. These can include: skimming, scanning and summarizing.

Control Group Materials

Standard Reading Passages: Provide the control group with the same reading passages but without strategy-specific instructions.

Comprehension Questions: After each passage, ask general questions to check understanding without using specific strategies.

Procedure

The study involved a pre-test to assess baseline reading comprehension skills in both groups. The control group followed standard reading activities without specialized training. After six weeks, a post-test was conducted to evaluate changes in reading comprehension.

Data Analysis

Data were analyzed using paired t-tests to compare pre-test and post-test scores within each group and independent t-tests to compare results between the experimental and control groups. Statistical significance was set at $p < 0.05$.

Results

Descriptive Statistics

The mean reading comprehension scores for the pre-test and post-test in both groups are shown in Table 1. The experimental group showed a mean improvement of 15%, while the control group showed a 5% improvement.

Group	Pre-Test Mean (SD)	Post-Test Mean (SD)	Mean Difference
Experimental	65.2 (8.5)	74.9 (7.6)	+9.7
Control	66.0 (9.0)	69.3 (8.2)	+3.3

Inferential Statistics.

The paired t-tests revealed a statistically significant improvement in the reading scores for the experimental group ($t(49) = 6.34$, $p < 0.001$) but not for the control group ($t(49) = 1.56$, $p = 0.12$). An independent t-test also indicated a significant difference between the post-test scores of the experimental and control groups ($t(98) = 4.89$, $p < 0.001$), supporting the hypothesis that taak-based reading training positively affects reading comprehension.

Discussion

The findings suggest that task-based reading strategies can significantly enhance reading comprehension in high school students. The experimental group's substantial improvement over the control group aligns with prior research, which has shown that purposeful reading methods improve cognitive engagement and comprehension. This study highlights the value of incorporating task-based reading strategies into high school curricula. Educators might consider training students in skimming, scanning and summarizing techniques to boost their reading efficiency, especially for subjects that require intensive reading.

Conclusion. The results of this study demonstrate that task-based reading strategies are effective for improving reading comprehension in high school students. Integrating these techniques into classroom practices could significantly benefit students' academic performance, helping them to become more efficient and purposeful readers.

References

1.Broughton, G., Brumfit, C., & Pincas, A. (2003). Teaching English as a Foreign Language. Routledge.

2.Bruner, J. S. (1996). The culture of education. Harvard University Press.

3.Cerdan, R., Vidal-Abarca, E., Martinez, T., Gilabert, R., & Gil, L. (2009). Impact of task-based reading on comprehension of historical texts among middle school students. Journal of Educational Psychology.

4.Ellis, R. (2003). Task-based language learning and teaching. Oxford University Press.

5.Grabe, W., & Stoller, F. L. (2011). Teaching and researching reading (2nd ed.). Routledge.

6.Nunan, D. (2004). Task-based language teaching. Cambridge University Press.

7.Pressley, M. (2006). Reading instruction that works: The case for balanced teaching (3rd ed.). Guilford Press.

8.Snow, C. (2002). Reading for understanding: Toward an R&D program in reading comprehension. RAND Education.

9.Sweller, J. (1988). Cognitive load during problem solving: Effects on learning. Cognitive Science, 12(2), 257–285.

10.Sweller, J., Ayres, P., & Kalyuga, S. (2011). Cognitive load theory. Springer.

Nilufarxon ISMOILOVA,
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti o‘qituvchisi
nilufar021996@gmail.com



MANTIQIY FIKRLASH: KREATIVLIK VA TANQIDIY FIKRLASH KONTEKSTIDA KOMPLEKS YONDASHUV

Annotatsiya: ushbu tadqiqotda, mantiqiy fikrlashning asosiy komponentlari, ya’ni kreativlik va tanqidiy fikrlash o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro ta’sirlar tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqotda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida qanday metodlar va strategiyalar qo‘llanilishi mumkinligi ham muhokama qilinadi. Mantiqiy fikrlashning kreativ va tanqidiy jihatlarini birlashtirish orqali shaxsning muammolarni hal etish qobiliyatini oshirish, innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish va qaror qabul qilish jarayonini yaxshilash mumkinligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *mantiqiy fikrlash, o‘qituvchi, kreativ qobiliyat, pedagogik texnologiya, mantiqiy masala, kreativlik, tanqidiy fikrlash.*

Annotation: in this study, the interrelationships and interactions between the main components of logical thinking, i.e. creativity and critical thinking, are analyzed. The research also discusses what methods and strategies can be used in the educational process to develop logical thinking. It is argued that by combining the creative and critical aspects of logical thinking, an individual’s ability to solve problems, develop innovative ideas and improve the decision-making process can be improved.

Key words: *logical thinking, teacher, creative ability, pedagogical technology, logical problem, creativity, critical thinking.*

Аннотация: в данном исследовании анализируются взаимосвязи и взаимодействия между основными компонентами логического мышления, т.е. креативностью и критическим мышлением. В исследовании также обсуждаются, какие методы и стратегии можно использовать в образовательном процессе для развития логического мышления. Утверждается, что путем объединения творческого и критического аспектов логического мышления можно улучшить способность человека решать проблемы, развивать инновационные идеи и совершенствовать процесс принятия решений.

Ключевые слова:*логическое мышление, учитель, творческие способности, педагогическая технология, логическая задача, креативность, критическое мышление.*

Ma’lumki, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning tajriba orttirishlari, amaliyotda o‘z bilimlarini qo‘llay olishlari uchun zarur. Natijada, bu jarayon shaxsiy rivojlanishga, ijodkorlik va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Shuning uchun, ta’lim jarayonida mantiq qonunlarini amaliyotga tatbiq etish muhimdir, bu esa o‘quvchilarga o‘z bilimlarini real hayotda muvaffaqiyatli qo‘llash imkoniyatini beradi.

G.Ernazarova va Q.Isroilovlarning “zamonaviy kasbiy pedagogik ta’limning muhim kamchiliklaridan biri bu – uning bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatini, rivojlantirishga zaif ta’siridir. Ularning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik amaliyot darajasi yetarli darajada emas, [1;1048-1056-b] degan fikrlarini to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz. Chunki bu holat, o‘qituvchilarning innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos keladigan darslarni tashkil etish imkoniyatlarini cheklaydi. Natijada, o‘qituvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlari va pedagogik ijodkorlik darajasi pasayadi.

Mantiqiy masalalarga yechim izlash talabani masalaning mazmunini chuqur tahlil qilishga, undan zarur xulosalar chiqarishga va kreativ fikrlash qobiliyatini ishlatishga undaydi. Bunday yondashuv masalada bayon qilingan vaziyatni chuqur tushunish va anglashga qaratilgan bo‘lib, u bilimga asoslangan ta’lim modelini qo‘llab-quvvatlaydi. Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – shaxsning yangi g‘oyalarni ishlab chiqishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsning bir butun sifatida yoki uning ayrim o‘ziga xos jihatlarini, jumladan, zehn o‘tkirligini ko‘rsatib beradi. Bu fazilat, shuningdek, iqtidorning ajralmas qismi hisoblanadi. P.Torrensning fikriga ko‘ra, kreativlik insonning muammolar va ilmiy farazlarni ilgari surishi, farazlarni tekshirish va zarur bo‘lsa o‘zgartirish qobiliyatini anglatadi [2;62-b]. Bunda muammo va yechimlarni aniqlashda bilim va amaliy harakatlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarga sezgirlik, ya’ni ularni nozik his etish orqali ijodiy yechimlar topish qobiliyati ham muhim o‘rin tutadi. Shu o‘rinda, aytish lozimki, kreativlik – bu faqat yangilik kiritish emas, balki murakkab masalalarni yechishda mavjud bilim va tajribalarni o‘zgacha tarzda uyg‘unlashtira olish san’atidir.

N.Vishnyakovaning fikricha, kelajakdagi pedagog

shaxsida kreativlikni rivojlantirish uchun o‘ziga xos bir qator shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish zarur. Bu xususiyatlar ijodiy individuallikni namoyon etish, tashabbuskorlik, kasbiy faoliyatda faol va g‘ayrioddiy yondashuvdan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bunday pedagog standart bo‘lmagan, noodatiy fikrlaydigan va murakkab masalalarga samarali yechim topish qobiliyatiga ega bo‘ladi, bu esa uning ta’limdagi muvaffaqiyatiga xizmat qiladi[3;33-b].Bu esa o‘z o‘rnida shaxs kreativligi tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. “Shaxs kreativligi” tushunchasi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak – bu insonda ijodiy faoliyatga, ijtimoiy munosabatlarga va dunyoqarashga bo‘lgan ehtiyojlar, motivlar hamda qiziqishlarning mustahkam va chuqur namoyon bo‘lishidir.

Kreativlik tushunchasini aniqlashda Y.Ilinning ta’rifi nazariy-pedagogik jihatdan alohida ahamiyatga ega. Uning ta’kidlashicha, kreativlik – bu shaxsning noodatiy g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati, an’anaviy tafakkur doiralaridan chetga chiqish va pedagogik jarayonda innovatsion yondashuv orqali muammoli holatlarga samarali yechim topish malakasini qamrab oluvchi xususiyatdir [4;448-b]. Ushbu ta’rifdan kelib chiqib aytish mumkinki, bizning vaziyatda ijodkorlik insonning ijtimoiy shartlangan yaratuvchan faoliyati sifatida qabul qilinadi.Unda yangi va original mahsulotning barcha muhim elementlari mavjud bo‘lib, estetik jihatdan mukammal madaniy qadriyatlarni yaratishga qaratilgan. Kreativlik esa shaxsning yangi g‘oyalar yaratishga tayyorligini, muammoni bir vaqtning o‘zida bir nechta yechimlar orqali hal etishga intilishini, yangi variantlar va yechimlar modifikatsiyalarini izlash qobiliyatini anglatadi.

Kreativlik maxsus ijodiy qobiliyat sifatida ijodiy jarayonda namoyon bo‘ladi va amalga oshiriladi, ya’ni kreativlik ijodkorlikka erishishda faqatgina bir bosqich hisoblanadi. Tadqiqotchilar fikriga k o‘ra, shaxsning turli yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ular orasida gumanistik, ekologik, axloqiy, qadriyatlarga yo‘naltirilgan, ijodiy (ya’ni, kreativ) va boshqalarni ajratish mumkin.Ushbu yo‘nalishlar shaxsni har tomonlama boyitish va uning shaxsiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Ushbu tadqiqotda “shaxs kreativligi” tushunchasi muhim ahamiyatga ega, chunki u insonning o‘z- o‘zini va o‘z ijodiy faoliyati natijalarini teran anglab, har tomonlama qabul qilishiga asoslanadi.

K.Platonov fikriga ko‘ra, pedagogning kreativligi uning intellektual salohiyati bilan o‘zaro bog‘liq. U uchun kreativlik nafaqat yangi g‘oyalarni taklif qilish qobiliyati, balki o‘quv jarayonini ijodiy va qiziqarli qilish, har bir o‘quvchining shaxsiy ehtiyojlariga mos yondashuvlar topishdir [5;256-b]. Shu tariqa, pedagog kreativligi ta’lim jarayonini faol va noodatiy yo‘llar bilan boyitish imkonini yaratadi, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki “Pedagogik mahorat – bu har bir o‘quvchiga o‘rgatish san’ati bo‘lib, unda eng samarali usullar va yondashuvlardan foydalangan holda ularga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishda yordam berish ko‘zda tutiladi”[6]. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, ta’lim tizimida innovatsion yondashuv va metodlarni joriy qilish bolajak o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi va ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Pedagogik mahorat va professional kompetensiya o‘qituvchi kasbiy faoliyatining yanada rivojlanishiga xizmat qiladigan muhim omillar bo‘lib, ular o‘quv jarayonidagi tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va innovatsion vositalardan samarali foydalanish orqali rivojlanadi. Chunki professional kompetensiya – bu pedagogning o‘z sohasiga oid zamonaviy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va ta’sirchan aloqalarni samarali ishga solish mahoratidir. Bu mahorat o‘quvchilarga o‘ziga xos yondashuv bilan yordam berishni, innovatsion texnologiyalarni qo‘llashni va pedagogik jarayonda yangi yo‘llarni topishni talab etadi.

Ta’limdagi innovatsion muhit – ta’lim jarayonidagi yangicha yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradigan tizimdir.Bu muhit ijodiy va innovatsion yondashuvlar orqali har bir o‘quvchining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. G.Gutman ta’kidlaganidek, kreativ faoliyatni to‘liq tushunish uchun fikrlash jarayonlari bilan bir qatorda, ularni harakatga keltiruvchi dinamik kuchlarni ham hisobga olish kerak.Ko‘pchilik tadqiqotchilar (F.V.Basin, A.N.Luk, A.Ye.Sheroziya va boshqalar) fikriga ko‘ra, bunday dinamik kuchlardan biri motivatsiya bo‘lishi mumkin.Kreativ faoliyatning asosiy motivlari – qiziqish, boshqalarning hurmatini qozonishga bo‘lgan intilish, o‘z-o‘zini hurmat qilish va raqobatchilikdir.Ushbu shaxsiy sifatlarning rivojlanishi insonning motivatsiyasi, qadriyatlari va hayot hamda atrofdagi olamga refleksiv munosabati bilan bog‘liq [7;149-b].R.A.Mavlonova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan tanishar ekanmiz, ularning barchasini umumlashtirgan holda quyidagi fikrlarni e’tirof etish mumkin:

1. Kreativlik shaxsni innovatorlikka (yangilik yaratish) undovchi pedagogik kategoriya hisoblanadi.

2. Kreativ salohiyat o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlarining integratsiyasidir.Chunki, o‘qituvchi tabiatan qiziquvchan, intiluvchan bo‘lmas ekan, u hech qachon ijodkorlikni namoyon eta olmaydi.

3. Kreativlik o‘qituvchilarda o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan sifat emas, u o‘qituvchining yangiliklarga intilishi, yangiliklarni o‘zlashtirish va o‘zining pedagogik faoliyatida qo‘llay olish jarayonlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yenga olishi, innovatsion yangiliklarni o‘z faoliyatida faol, ijodkorona foydalana olish va o‘z mualliflik g‘oyalariga egaligi, optimal yechimlarni topa olishi bilan bog‘liq. [8]

A.Zulfikar, A.Hayyat talabalar tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari va akademik muvaffaqiyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga harakat qilganlar.Ularning tadqiqotlari tanqidiy fikrlash qobiliyatlarining talabalar

ilmiy yutuqlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ta’kidlaydi.Tanqidiy fikrlash talabalarga ma’lumotlarni tahlil qilish, asosiy nuqtalarni aniqlash va o‘zlarining qarashlarini aniqroq ifoda etish imkonini beradi, bu esa ularning umumiy o‘qish samaradorligini oshiradi va akademik muvaffaqiyatga erishishda yordam beradi.[9;640-650-b] Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchi kreativlik faoliyat yuritishi uchun, u albatta o‘zining sohasidagi eng so‘nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bo‘lishi, innovatsion yangiliklarni o‘z faoliyatida o‘rinli foydalana olishi lozim. Yuqorida bildirilgan fikrlar yurtimizda olib borilayonga tub islohotlar zamirida o‘z aksini topayotgani barchamizga ma’lum. Mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta’lim sohasida ishlayotgan o‘qituvchilarning hurmatini oshirishni, ularning faoliyatiga yangicha va ijodiy yondashuv olib kirishni juda muhim ekanligini qayd etib, 2019-yil 23-avgustda xalq ta’limi, oliy ta’lim xodimlari bilan bo‘lgan muloqotda uzluksiz ta’lim tizimida olib borilishi kerak bo‘lgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritib, “… bugungi kunda ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning obro‘sini ko‘tarish, shu bilan bir qatorda bugun o‘qituvchilarning o‘zlari ham ta’lim-tarbiya jarayoniga yangicha ijodiy yondashishi lozim” [10], degan fikrni bildirib o‘tdi. Bu esa ta’lim tizimida o‘qituvchilarga yuklatilgan mas’uliyatni yanada yuksak darajada qadrlashini ko‘rsatadi. U o’qituvchilarning faqat bilim beruvchi emas, balki yoshlarga axloqiy va ma’naviy yo‘nalishda ham o‘rnak bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. O‘qituvchilarni zamon bilan hamnafas, ijodiy fikrlovchi, o‘z bilim va tajribalarini o‘quvchilarga qiziqarli va samarali tarzda yetkazadigan shaxs sifatida ko‘radi. Shu boisdan, o‘qituvchi o‘quvchilarga faqat dars o‘tuvchi emas, balki ularni hayotga tayyorlovchi, hayotiy y o‘nalish beruvchi shaxs sifatida qaralishi kerak. U o‘quvchilarga nafaqat bilim berib, balki ularga hayotiy tajribadan saboq beradigan, jamiyatda o‘z o‘rnini topishda ko‘mak beradigan muhim namuna bo‘lib xizmat qilishi zarurligini uqtiradi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, kreativ salohiyat o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faqat tayyor bilimlarni olish bilan cheklanmay, mustaqil va ijodiy yondashuvni qo‘llashlarini ta’minlaydi. Bu salohiyat ularning tanlagan faoliyat turlarida o‘zligini namoyon qilish, tadqiqotchilik va yangilikka intilish orqali rivojlanadi. Shuningdek, o‘quvchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirish zamonaviy ta’lim sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu salohiyat bilim va texnik ko‘nikmalarni yangi usullarda qo‘llashga imkon beradi va tayyor ko‘rsatmalardan chetlashishni rag‘batlantiradi. Ularning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish ham kreativ fikrlash ko‘nikmalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, bu esa zamonaviy ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli shaxslarni shakllantirish uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ernazarova G.O., Isroilov Q.T. O‘qituvchilarda kreativlikni rivojlantirish. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-1. – 1048-1056 p.
2. Torrance E.P. Guiding creative talent – Englewood Cliffs, W.J.: Prentice-Holl, 1964. – C. 62.
3. Вишнякова Н.Ф. Психологические основы развития креативности в профессиональной акмеологии: дисс. на соиск. уч. степ. док. псих. наук. – М.: 1996. – С. 33.
4. Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности / Е.П.Ильин. – СПб.: Питер, 2009. – 448 с.
5. Платонов К.К. Структура и развитие личности / К.К.Платонов. – М.: 1986. – 256 с.
6. https://proogorodik.ru/polezno/cto-znacit-pedagogiceskoe-masterstvo
7. Гордиенко О.В. Креативный подход к развитию лингвометодического мышления студента-филолога: дисс... на соиск. уч. ст. док. пед. наук. – М.: 2019. – С. 149.
8. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X. Boshlan g‘ich ta’limda innovatsiya. – T.:TDPU, 2007.
9. Zulfqar A., Hayat A. Think How to Think: Studying the Relationship between Critical Thinking Skills and Academic Achievement of Learners at Higher Education // Journal of Social Sciences Review. – 2023. – Vol. 3. – P. 640–650. DOI: 10.54183/jssr.v3i2.305.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq ta’limi va oliy ta’lim tizimi o‘qituvchilari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda so‘zlagan nutqi. 2019.08.23.

Gulxayo G‘ANIYEVA,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

IJTIMOIY TAFAKKUR, UNING TARKIBIY TUZILMASI VA UNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada 3-sinf o‘quvchilarida ijtimoiy tafakkurni fanlararo mediata’lim vositalari asosida shakllantirish metodikasi xususida so‘z yuritilgan. Shuningdek, ijtimoiy tafakkurning tarkibiy tuzilmasi va uni rivojlantirish imkoniyatlari xususida fikrlar bildirilgan. Ijtimoiy tafakkurni fanlararo mediata’limdan foydalangan holda olib borish bu o‘quvchilarning tezkorligini hamda bugungi kun axborotlashuv jarayoniga mos holda ulg‘aytiradi. Uzluksiz ta’lim jarayonida o‘quvchilarni axborot texnologiyalari bilan tarbiyalash yurtimizda va xorijda juda keng o‘rganilgan bo‘lib, ular turlicha nazariyalar, konsepsiyalar, yondashishlar, yo‘nalishlarga asoslangan holda tadqiq qilingan. Maqolada bu yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy tafakkur, tarkibiy tuzilma, tarbiya, mediata’lim, ijtimoiy ong, tafakkur, barkamol shaxs.*

Аннотация: в данной статье говорится о методе формирования социального мышления у третьеклассников на основе междисциплинарных инструментов медиаобразования. Также были высказаны мнения о структурной структуре социального мышления и возможностях его развития. Проведение социального мышления с использованием междисциплинарного медиаобразования повысит гибкость студентов и адаптируется к современному информационному процессу. Обучение студентов информационными технологиями в процессе непрерывного образования широко изучается в нашей стране и за рубежом, исследуется на основе различных теорий, концепций, подходов, направлений. В статье этим направлениям уделено особое внимание.

Ключевые слова: *социальное мышление, структурная структура, образование, медиаобразование, общественное сознание, мышление, всесторонняя личность.*

Annotation: this article talks about the method of forming social thinking in 3rd graders based on interdisciplinary media education tools. Also, opinions were expressed about the structural structure of social thinking and the possibilities of its development. Conducting social thinking using interdisciplinary media education will increase students’ agility and adapt to today’s information process. Education of students with information technologies in the process of continuous education has been widely studied in our country and abroad, and they have been researched based on various theories, concepts, approaches, directions. The article pays special attention to these directions.

Key words: *social thinking, structural structure, education, media education, social consciousness, thinking, well-rounded person.*

Kirish. Ilmiy bilimlar tadrijiy rivoji, tarixiy, ijtimoiy,iqtisodiy o‘zgarishlar tabiat, jamiyat sir-asrorlaridan insonni xabardor qila boshlagani sari tabiat, jamiyat kuchlaridan xavfsirash, qo‘rqish, hadiksirash o‘rnini tabiatni o‘ziga bo‘ysundirish, uning ustidan hukmronlikni o‘rnatishga bo‘lgan istak hissi inson qalbini qamrab ola boshladi. Lekin tabiat insoniyat uchun qadrli makon ekanligi to‘g‘risidagi g‘oyalar jamiyatning to‘g‘ri fikrlaydigan, fidoyi, mushohada va mulohaza qiladigan kishilari tomonidan ilgari surib kelindi. Shu bois goho diniy, goho dunyoviy fikr asosida tabiat va jamiyatni avaylab asrash, uning boyliklarini e’zozlash, ko‘paytirish, ularni sofligicha kelgusi avlodlarga etkazib berish vazifalari kishilar tomonidan kundalik zaruriy xatti - harakat sifatida talqin etilgan.

Insoniyatning tadrijiy taraqqiyoti tarixida tabiat va jamiyatga nisbatan ongli munosabatda bo‘lish, unga zarar yetkazuvchi holatlarning barchasi ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy me’yorlar yordamida tartibga solingan. Inson manfaatlari kesishgan nuqtada shaxsning ta’lim olganlik va tarbiyalanganlik darajasi ma’naviy, axloqiy, ma’rifiy yetuklik va ijtimoiy tafakkur bilan o‘lchangan [6.].

XX asrning 70 - yillarida fan, texnika, texnologiya taraqqiyotining misli ko‘rilmagan darajada o‘sib borganligi bois bu holat o‘z - o‘zidan tabiiy, ijtimoiy muhitga ijobiydan ko‘ra, ko‘proq salbiy ta’sir ko‘rsatganligi, insonning tabiiy-ijtimoiy makon sarhadlarini tobora ko‘proq darajada o‘zlashtirishga bo‘lgan harakati, ya’ni urinishi ko‘plab muammolarni keltirib chiqardi [8]. Tirik organizmlarning yashash joyi, shart - sharoitlari u bilan tabiiy muhit orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish, tahlil qilish hamda xulosalashning muayyan fan doirasida o‘rganilishiga bo‘lgan

ehtiyoj yuzaga keldi. Endilikda inson faoliyati ijtimoiy onglilik va ongsizlik, ijtimoiy tafakkurlilik va tafakkursizlik, ijtimoiy mas'ullik va mas'uliyatsizlik, ijtimoiy faollik va faoliyatsizlik, ijtimoiy madaniyatlilik va madaniyatsizlik, ijtimoiy ma'naviyatlilik va ma'naviyatsizlik, ijtimoiy ma'rifatlilik va ma'rifatsizlik kabi tushunchalar asosida baholanmoqda. O'z-o'zidan ayonki, keltirilgan tushunchalar mazmun - mohiyatida axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, ijtimoiy asoslar muhim ahamiyatga ega.

Tahlil va natija. Bizningcha, subyekt ijtimoiy tafakkuri quyidagi holatlarning namoyon bo'lishida ko'rinadi:

ijtimoiy tizim borasida ma'lumotga ega bo'lish, ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy hamda ijtimoiy tafakkurga oid tabiiy-ijtimoiy bilim asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojga egalik, tabiiy-ijtimoiy bilimlarni puxta va chuqur egallash, egallangan nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash borasida amaliy ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo'lish; jamiyat va atrof - muhitda sodir bo'layotgan o'zgarishlar mazmun -mohiyatini tahlil eta olish, ijtimoiy munosabatlar va tabiiy - geografik, iqlim o'zgarishlari o'rtasida o'zaro aloqadorlikni yetarli darajada baholay olish, ijtimoiy tafakkurga doir bilimlar tashviqot va targ'ibotini tashkil etishda ijtimoiy faollikka ega bo'lish.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirish asosida subyekt ijtimoiy tafakkurini quyidagi qismlarga ajratish mumkin:

ijtimoiy tafakkur, ijtimoiy faoliyat.

Subyekt ijtimoiy tafakkuri shu ikki jihatning o'zaro uyg'unligi, aloqadorligi, uzviyligi va rivojlanish darajasi bilan tavsiflanadi.

Ijtimoiy tafakkur atrof – muhitga, jamiyatga ijodiy va ijobiy yondashuv, ijtimoiy tafakkurni rivojlantirishni yo'lga qo'yish jarayonida sodir bo'ladi.

Ijtimoiy tafakkur murakkab tuzilishga ega. Shaxs tafakkuri tizimlangan ijtimoiy tafakkurga oid bilimlarni o'rganishi, bu boradagi o'tmish qadriyatlar mazmunini anglash, atrof - muhit va jamiyat haqida to'la va chuqur ma'lumotga ega bo'lish, tabiat va jamiyatni muhofaza qilish borasida yaratilgan dastur, g'oya va nazariyalar, konsepsiyalar mazmun - mohiyati bilan tanishish orqali hosil qilingan qarash, tasavvur, hissiyot va e'tiqodlar tizimi.

Ijtimoiy tafakkurning quyidagi jihatlari e'tiborli:

ijtimoiy tafakkurni hissiy idrok etishlik jihati - subyektning atrof-muhitga, jamiyatga yondashuvi jarayonida yuzaga keladigan his-tuyg'u, sezgi, kayfiyat hamda ehtiyojlarning yuzaga kelishi va ularning yig'indisi mazmunida aks etdi; ijtimoiy tafakkurning intellektual (aql-zakovatli)lik jihati - ijtimoiy bilimlar, dunyoqarash, aqliy - amaliy ko'nikma, malaka, va kompetensiyalarning egallanishi, ijtimoiy idrok va ongga ega bo'lishiga olib keluvchi nazariy va amaliy ijtimoiy bilimlarni o'rganish, tabiat va jamiyatga oid ma'lumotlarga ega bo'lish asosida hosil qilinadi; ijtimoiy tafakkurning shaxsiy (individual)lik jihati - ijtimoiy faoliyat motivlari, atrof – muhit va jamiyatga munosabat, uni baholash, tabiat va jamiyatni muhofaza qilishga ishonganlik darajasi sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy tafakkurning irodaviylik jihati – ijtimoiy tafakkur tizimga nisbatan ehtiyotkorona yondashuv, tabiat va jamiyatni asrash, uning boyliklarini ko'paytirishga nisbatan mas'ullik, ijtimoiy faoliyat jarayonida va xatti - harakatlarda o'z nuqtayi nazarini amalga oshirish ehtiyojiga ega bo'lishlikdan iborat.

Tahliliy tafakkur. Tahliliy ijtimoiy tafakkurning har bir bosqichi aniq ifodalangan va fikrlayotgan 3-sinf o'quvchisi ularni boshqa o'quvchiga aytib berishi mumkin. Tahliliy fikrlovchi o'z fikrini va uni tashkil etuvchilarning mazmun - mohiyatini aniq tasavvur etadi.

Ijtimoiy intuitiv, tahliliy tafakkur bir - birini to'ldiradi. Intuitiv tafakkur yordamida masalalarni yechishi yoki muammolarni hal qilish mumkinki, inson bu masalalarni yoki muammolarni tahliliy tafakkur vositasida yecha olmagan yoki hal qila olmagan bo'lar edi.

Intuitiv tafakkur. Unda aniq bosqichlarning yo'qligi bilan tavsiflanadi. U barcha muammolarni qisqartirib, idrok qilishga asoslangan. Boshqacha aytganda, biror tushuncha va uning tuzilishini o'rganish, ayrim bo'g'inlarni tashlab yuborish (sakrash) ko'rinishida amalga oshiriladi. Shu bois intuitiv tafakkur yordamida chiqarilgan xulosalarni tahliliy vositalar bilan tekshirish lozim.

Abstrakt tafakkur. Abstraksiya - ijtimoiy tafakkurning asosiy turlaridan biri bo'lib, subyekt, o'rganilayotgan obyektning biror belgisini ajratib olib, qolganlarini qaramaslikdan iborat. Bu jarayon natijasini aqliy mahsulot (tushuncha, model, nazariya, tasnif va hokazolar) tashkil etadi.

Amaliy tafakkur. Ijtimoiy tafakkur ko'rinishlaridan biri bo'lib, odatda, nazariy tafakkur bilan taqqoslanadi. Ushbu ijtimoiy tafakkur maqsadining qo'yilishi, reja va loyiha tuzilishi bilan bevosita bog'liq.

3-sinf o'quvchilarida ijtimoiy tafakkurni tabiiy va ijtimoiy fanlararo rivojlantirish quyidagi komponentlar va alomatlar asosida yo'lga qo'yildi

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy tafakkurni rivojlantirish vositalari haqida fikr yuritar ekanmiz, tafakkur qanday va qaysi vositalar va asoslarga ko‘ra shakllanadi, rivojlanadi? Uning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning o‘ziga xos xususiyatlari nimadan iborat? degan savollarga javob topish va undan o‘quvchilarda mustaqillik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta’lim-tarbiyaviy munosabatlarda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki yuqorida aytib o‘tganimizdek, 3-sinf o‘quvchilarida ijtimoiy tafakkurning shakllanish va rivojlanish jarayoni nimanidir bilib olishga va o‘rganishga yo‘naltirilgan aqliy - tahliliy xatti - harakatlar jarayoni bo‘lib, mazkur jarayonda 3-sinf o‘quvchilari o‘zlari uchun yangilik bo‘lgan qaysidir hodisa, jarayon va voqealarning vujudga kelish sabablarini o‘rganadilar va tahlil qiladilar.

Mazkur yangilik avvaldan mavjud bo‘lishi, ya’ni subyektiv bo‘lishi mumkin. Lekin bu 3-sinf o‘quvchilari uchun yangilik hisoblanadi, chunki 3-sinf o‘quvchilari mazkur yangilikning kelib chiqish sabablari, xususiyatlari, ahamiyatini o‘rganish va tahlil qilish asosida qaytadan kashf etadi. Mazkur jarayonni ijtimoiy tafakkurning shakllanish va rivojlanish jarayoni deb aytish mumkin. Demak, ijtimoiy tafakkurning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida tasavvur, tushuncha va dunyoqarash asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, 3-sinf o‘quvchilariga ijtimoiy tafakkur mazmun - mohiyati, ahamiyati va zaruriyati yuzasidan tushunchalar berish, ularda mazkur soha bo‘yicha tasavvurni shakllantirish, kelajakka ishonch uyg‘otish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish ularda ijtimoiy madaniyat shakllantirish va rivojlantirishning asosiy vositalari sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. Mamlakatimiz, hamdo‘stlik mamlakatlari va xorijiy davlatlarda ushbu sohada qilingan tadqiqotlar, mavjud o‘quv–me’yoriy hujjatlar va darsliklar taqqoslanib, maktab ijtimoiy fanlariga integrallashgan mediata’lim modeli ishlab chiqildi.

Mediata’lim va tabiiy-ijtimoiy fanlar integratsiyasini ta’minlash uchun MO‘D mazmuni singdirilishi kerak bo‘lgan mediata’lim elementlari aniqlashtirildi.

Mediata’lim asosida ishlab chiqilgan “Natural sciences 3” elektron o‘quv dasturining tuzilishi va didaktik imkoniyatlari ko‘rsatib berildi.

Tabiiy-ijtimoiy fanlarni o‘qitishda ba’zi bir murakkab tushunchalar borki, uni so‘z orqali tushuntirib bo‘lmaydi. Bu tushunchalarga turli ommaviy axborot vositalari orqali har xil izohlar berib o‘tiladi. Ularning to‘g‘risini tanlab olish o‘qituvchi va o‘quvchidan yetarlicha mahoratni hamda bu tushuncha haqida shakllangan bilimni talab qiladi. Bu kabi tushunchalarni tanlash va unga nisbatan munosabat bildirish bo‘yicha tavsiya va takliflar keltirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O ‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son-Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi qarori.

2. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-apreldagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” gi PF-5024-son farmoni. 21-04-2017.

3. G‘aniyeva G.I. 3-sinflarda tabiiy fanlarni mediata’lim vositalari asosida o‘qitishga doir dars ishlanmalari metodikasi. Uslubiy qo‘llanma. –Toshkent:Factor press, 2023.48-b.

4. Komenskiy Ya.A. Buyuk didaktika. – Toshkent: O‘qituvchi, 287-b.

5. Коменский Я.А., Локк Д., Руссо Ж.Ж., Песталоци И.Г. Педагогическое наследие. -М.: Педагогика,1989. 416 с.

6. G‘aniyeva G.I. 3-sinf o‘quvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirishda fanlararo aloqadorlik. // Ta’lim, fan va innovatsiya. Ma’naviy-ma’rifiy,ilmiy-uslubiy jurnal. – 2023. – 5-son. -B-75-78.

7. G‘aniyeva G.I. Formation of 3rd class student’s imagination and concepts about nature. // Miasto Przyszlosci” Impact Factor: 9.2 SJIF:6.567.Vol.39 09(2023). -P 27-29.

8. G‘aniyeva G.I. Formation of Media Literacy in teaching natural science in primary grades. // International Journal on Integrated Educatio Impacfactor: 7.6 https:/journalseeker.researchbib.com/view/issn/2720-6874 SJIF factor:5.587 https:/sjifactor.com/passport.php?id=22296 Vol.6. No.9(2023).

Shaxloxon KO‘CHIMOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent Davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti



YURISTLAR MULOQOTIDA IJTIMOIY MUNOSABATLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: yurist nutqidagi muloqot xulqining funksionallashuvi tabiiy va ijtimoiy ekologiya bilan o‘zaro bog‘liqdir, chunki ularning har biri yuristning professionallashgan nutqiga ta’sir ko‘rsatadi. Tabiiy ekologiyaning ta’limda, jamiyatda va muhitdagi o‘zgarishlarga bog‘liq qoidalar yuristlar uchun ijtimoiy muhit bilan integratsiyalanadi. Bu esa har bir jamiyatdagi muammolarni, urf-odatlarni va madaniyatni hisobga olishni talab qiladi. Yuristning nutqi faqatgina qonuniy aniqlikni ta’minlash bilan chegaralanmay, balki jamiyatda adolatni, hurmatni va o‘zaro tushunishni ham ko‘zlaydi. Ushbu maqolada tabiiy va ijtimoiy ekologiyaning o‘zaro ta’siri yurist nutqida tutgan o‘rni va ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *yuridik nutq, muloqot xulqi, ijtimoiy muhit, axboriy-kommunikativ funksiya, regulyativ-kommunikativ funksiya, affektiv - kommunikativ funksiya.*

Аннотация: функционализатsiя поведения общения юриста в его речи тесно связано с природной и социалной экологией, посколку каждая из этих экосистем влияет на профессиональную речь юриста. Правила, зависящие от изменений в образовании, обществе и окружающей среде, интегрируются в социальную среду юристов. Это требует учета проблем, обычаев и культуры каждого общества. Речь юриста не ограничивается лишь обеспечением юридической точности, но направлена также на достижение справедливости, уважения и взаимопонимания в обществе. В данной статье рассматриваются взаимные влияния природной и социальной экологии и их роль и значение в речи юриста.

Ключевые слова: *правовой дискурс, коммуникативное поведение, социалная среда, информатsiонно-коммуникативная функция, регулятивно-коммуникативная функция, аффективно-коммуникативная функция.*

Annotation: the functionalization of communication behavior in a lawyer’s speech is closely linked to natural and social ecology, as each of these ecosystems influences the professional speech of a lawyer. Rules related to changes in education, society, and the environment are integrated into the social environment of lawyers. This requires taking into account the issues, customs, and culture of each society. A lawyer’s speech is not only aimed at ensuring legal accuracy but also at achieving justice, respect, and mutual understanding within society. This article explores the mutual influences of natural and social ecology and their role and significance in the speech of a lawyer.

Key words: *legal discourse, communication behavior, social environment, Information-communicative function, Regulatory-communicative function, Affective-communicative function.*

Muloqot psixologik jihatdan bir-birlari bilan bog‘liq bo‘lgan odamlar o‘rtasida u yoki bu vositalar orqali maqsadga muvofiq, bevosita yoki bilvosita aloqani o‘rnatish va saqlab turish jarayonidir [1]. Misol uchun quyidagi misolda muloqot inson hayotida qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini ham ko‘rishimiz mumkin. 1938-yil Richar Bard o‘z xohishi bilan Antarktida muzliklarida 6 oy tanho qoladi. Bir tomondan u tajriba natijalariga qiziqsa, ikkinchi tomondan, kundalik hayotning g‘ala-g‘ovurlaridan biroz dam olishni istagan edi. Keyinchalik u mazkur davrni quyidagi so‘zlar bilan eslaydi: “Bu yerdagi hayotim davomida bora-bora har bir harakatim, har bir ishim tobora mazmunsiz, mantiqsiz, maqsadsiz bo‘lib borayotganday edi. Xavf-xatarlardan qo‘rqmaydigan odam bo‘lsam-da, negadir bu yerda tomning bosib qolishidan, o‘choqdagi o‘t o‘chib qolishidan xavfsiray boshladim. Ovqatlanishimda muntazamlik yo‘qoldi, yuvinmay qo‘ydim…”. Yana bir misol, tarixda yaponlarda Maritao ismli insonning o‘zini o‘zi takomillashtirish tizimi mavjud bo‘lgan. U shunday tizimlarning eng og‘iri va murakkabi hisoblangan. Vaholanki, bunda inson hech qanday jismoniy azoblarga duchor bo‘lmaydi. Faqatgina bir haftaga g‘orga kirib ketib, u yerda tanho qoladi. Bu yerda u hatto o‘zi bilan ham gaplashishi mumkin bo‘lmaydi. Sinovdan o‘tganlar keyinchalik har qanday uchrashuv va suhbatni xursandchilik bilan qarshi oladilar. Qizig‘i shundaki, ularda ko‘proq gapirish ehtiyoji emas, balki tinglash ehtiyoji kuchayar ekan[1].

B.F.Lomov taklif etgan tasnifga ko‘ra, muloqotning quyidagi funksiyalari mavjud. Muloqot funksiyalari deganda, muloqotning inson ijtimoiy hayotida bajaradigan vazifalari tushuniladi. Muloqot funksiyalari xil-

1

ma-xil bo‘lib, eng keng tarqalgan tasnifga ko‘ra ular quyidagilardan iborat [2]:

1. Axboriy-kommunikativ funksiya – axborot almashinuvini ta’minlash vazifasi. Axborot almashinuvi turli belgilar tizimlari orqali amalga oshiriladi. Odatda, verbal va noverbal kommunikatsiya farqlanadi. O‘z navbatida, noverbal kommunikatsiya bir necha shakldan iborat:

– kinetika (imo-ishoralar, mimika, pantomimika);
– paralingvistika (ovoz vokalizatsiyalari, pauzalar);
– proksemika (masofa va vaqt me’yorlari);
– vizual aloqa (ko‘zlar orqali kontakt);
– takesika (jismoniy kontakt).

2. Regulyativ-kommunikativ funksiya – suhbatdoshlar xulq-atvorining regulyatsiya qilinishini ta’minlash vazifasi. Individlar muloqot jarayonida verbal, jismoniy, noverbal yo‘llar bilan bir-birining motivlariga, maqsadlariga, qaror qabul qilishiga ta’sir o‘tkazishi biror harakatga undashi va harakatini nazorat qilishi, bir-birining xulq-atvoriga stimullashtiruvchi va korreksiyalovchi tarzda ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

3. Affektiv-kommunikativ funksiya – inson emotsional sohasining regulyatsiya qilinishini ta’minlash vazifasi. Muloqot inson emotsional holatlarining eng muhim determinantasidir. Chunki turli-tuman emotsional holatlar muloqot jarayonida paydo bo‘ladi va o‘zgaradi.

Muloqotning yurist faoliyatida quyidagi turlari mavjud:

a) bevosita – yuqorida ta’kidlab o‘tilgandek, bevosita muloqot “yuzma-yuz” suhbat aloqa vositasi bo‘lib, uning har bir ishtirokchisi idrok qiladi, aloqa qiladi va hamma mavjud vositalarni keng qo‘llaydi;

b) bilvosita – bilvosita muloqot ham aloqa vositasi bo‘lib, unda shaxslar, aloqa vositalari va mexanizmlar ishtirok etadi;

v) rolli – rolli muloqot ijtimoiy rollar orqali amalga oshiriladi. Bunday holatda odamlar muayyan ijtimoiy rollarni bajaruvchisi sifatida muloqotga kirishadilar. Masalan, tergovchi va jabrlanuvchi o‘rtasidagi muloqot rolli hisoblanadi;

g) mazmunli – individning boshqa shaxsga o‘z holati, kayfiyati, xohishini imo-ishora yoki biror harakat orqali bildirishi mazmunli muloqot deb ataladi;

d) rasmiy – rasmiy muloqot turiga kelsak, davlat va jamiyat manfaatini ko‘zlagan hamda qayd etiladigan muloqot turidir. Masalan, tergov jarayonidagi so‘roq qilish.

e) norasmiy – shaxslararo o‘zaro muloqot jarayonida o‘zini qiziqtirgan u yoki bu ma’lumotga ega bo‘lish norasmiy muloqot hisoblanadi [3].

Yurist faoliyatida muloqot, ayniqsa, bevosita muloqot o‘ziga xos muhim rol o‘ynaydi. Sababi tokar temir bilan, zootexnik hayvonlar bilan ishlasa, huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari, shu jumladan profilaktika inspektorlari, tergovchilar, tezkor xodimlar ham shaxslar bilan, aholi bilan, guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va jinoyat jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ishlaydi. Muloqot jarayonida ularning har biri o‘ziga xos dunyoqarashi va muomalaga ega.

Muloqot murakkab jarayon bo‘lganligi uchun ham ayrim olingan muloqot shaklini tahlil qilganimizda unda juda xilma-xil ko‘rinishlar, komponentlar va qismlar borligini aniqladik. G.M.Andreyeva muloqotning quyidagi psixologik tuzilishini taklif etadi [1]:

1) muloqotning kommunikativ tomoni;
2) muloqotning interaktiv tomoni;
3) muloqotning perseptiv tomoni.

Har bir tomonini batafsil ko‘rib chiqamiz.

N.Sirliev, R.X.Dushanov, I.X.Kalonov: “Muloqotning kommunikativ tomoni – ma’lumotlar almashinuv jarayoni bo‘lib, birgalikdagi faoliyat davomida odamlar turli fikrlar, o‘y-xayollar, his-tuyg‘u va kechinmalar bilan o‘rtoqlashadilar”, – deb aytadilar va insonlararo kommunikatsiya shunchaki axborot almashinuvidan iborat emas, sababi muloqot jarayonida axborot nafaqat uzatiladi, balki shakllantiriladi, aniqlashtiriladi, rivojlantiriladi – deb ta’kidlaydi [1]. Demak, inson muloqotini shunchaki axborot almashinuvidan iborat jarayon emas.

Kommunikatordan chiqayotgan axborot ikki xil bo‘lishi mumkin:

1. Undovchi axborot buyruq, maslahat, iltimos va hokazolarda namoyon bo‘ladi. Undan ko‘zlangan maqsad retsipiyentni biror harakatga stimullashtirishdan iborat. Stimullashtirish uch xil bo‘lishi mumkin:

1) faollashtirish (biror harakatni qilishga undash);
2) interdiksiyalash (biror harakatni qilishdan to‘xtatish);
3) destabillashtirish (biror harakatdagi muvozanatni buzish).

2. Konstatatsiyalovchi axborot ma’lumot tarzida ifodalanadi. Bu turdagi axborot turli ta’limiy tizimlardan o‘rin olgan bo‘lib, xulq-atvorni o‘zgartirish uchun bevosita ta’sir ko‘rsatmaydi (lekin bilvosita ta’sir ko‘rsatish maqsadi ham bo‘ladi).

Muloqot jarayonida bir-birlarini tushunishga harakat qiladilar. Bu jarayon quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshadi:

Identifikatsiya – insonning o‘zini xayolan suhbatdoshi o‘rniga qo‘yishi orqali uning fikrlari va tasavvurlarini tushunishga intilishi;

Empatiya – insonning o‘zini xayolan suhbatdoshi o‘rniga qo‘yishi orqali uning kechinmalari va hissiyotlarini tushunishga intilishi;

Refleksiya – insonning suhbatdoshi tomonidan qanday idrok etilayotgani va tushunilayotganini

anglashga intilishi;

Steriotipizatsiya insonning suhbatdoshini tushunishga intilishi yo‘lida muayyan shablonlardan foydalanishi [3].

Muloqot jarayonida insonlar bir-birlarini idrok qilishda attraksiya (ingl. attract – jalb etmoq) jarayoni yuz beradi, ya’ni idrok etilayotgan shaxsga nisbatan “yoqtirish hissi” paydo bo‘ladi. Attraksiya subyektning obyektga nisbatan hissiy munosabatini bildiradi.

Muloqot ishtirokchilari bir-birlarini o‘zaro tushunishlari uchun muloqotga kirishgan ishtirokchining muloqotni qanday amalga oshirganligi muhim ahamiyatga ega. *Shaxslararo idrok etish* qonuniyatlari va muloqotda o‘zaro ta’sir etish jarayonlarini inobatga olish tergovchilar faoliyatida, ayniqsa, shohidlar, guvohlar, jabrlanuvchilarning ko‘rsatuvlarini, shuningdek, o‘z idroklarini baholash chog‘ida katta ahamiyat kasb etadi.

N.Sirliev shaxslararo idrok effektlarini 4 turga ajratib tavsiflaydi:

1) shaxslararo idrok effektlaridan biri – boshqa shaxs haqidagi umumiy tasavvurning uning shaxsiga xos xislatlarni idrok etish va baholash ta’sirida namoyon bo‘ladigan “oreol effekti” bo‘lib, agar umumiy tasavvur yaxshi bo‘lsa, uning ijobiy xislatlari ortiqcha baholanadi, salbiy xislatlari esa sezilmaydi yoki aksincha. Masalan, ichki ishlar organlari xodimlari “retsediv” jinoyatchining tuzalish tomon tashlagan dastlabki qadamlarini ko‘rishi mumkin va tabiiyki, uni bu ishda qo‘llab-quvvatlay boshlaydi.

2) izchillik effekti – ma’lumotlar ziddiyatli bo‘lgan taqdirda inson qiyofasini va u to‘g‘risidagi tasavvurni shakllantirishga birinchi navbatda kelib tushgan ma’lumotlar eng ko‘p ta’sir ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi. Agar bu tanish odamga daxldor bo‘lsa, aksincha, ya’ni eng oxirgilari ko‘p ta’sir ko‘rsatadi.

3) stereotiplashtirish effekti” idrok etilayotgan kishini muayyan ijtimoiy guruhga xos xislatlar unga ham xos deb baholashda namoyon bo‘ladi. Har birimizda muayyan ijtimoiy stereotiplar – o‘qituvchi, harbiy kishi, jinoyatchi kabi ijtimoiy guruhlarning stereotiplari mavjud. Muayyan guruh vakiliga duch kelganda, biz oldindan ushbu guruh kishilariga xos muayyan xislatlarni unga ham xos deb qabul qilamiz. Ko‘pincha bunday stereotipdan halos bo‘lish juda qiyin bo‘ladi.

4) ijtimoiy idrok etish effektlari ijtimoiy mayl (ustanovka) bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning paydo bo‘lishiga olib keladi. Ijtimoiy maylning o‘zi insonning boshqa odamni idrok etishga ichidan tayyor bo‘lishi sifatida ta’riflanishi mumkin. Notanish kishi haqida taassurotning shakllanishida maylning ahamiyati ayniqsa, katta [1].

Shunday qilib, yuridik soha vakillari o‘z faoliyatlarida shaxslararo idrok etish xususiyatlarini inobatga olishlari, ijtimoiy idrok effektlarining salbiy ta’sirlarini yo‘q qilishga, o‘zida va tergov qilinayotgan voqeaga daxldor shaxslarda ijtimoiy maylning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasliklari juda muhim [4]. Masalan, tergovchi tanib oluvchini tanib olishga tayyorlash chog‘ida “Hozir sizni tunagan jinoyatchini tanib olishingiz kerak” kabi iboralardan qochishi lozim. Bunday iboralar jinoyatchini idrok etishga mayllik yuzaga kelishiga olib keladi, agar tanib olinayotgan shaxsning qiyofasi “jinoyatchi” stereotipiga mos kelmasa, bu tanib olish natijalarining noto‘g‘ri chiqishiga olib kelishi mumkin. Bunday hollarda “Hozir siz ko‘rsatilgan shaxslar orasida sizning pul solingan hamyoningizni tortib olgan odamni tanib olishingiz kerak” kabi neytral iboralardan foydalanish kerak. Bu maylning salbiy ta’siri imkoniyatini kamaytiradi [5].

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, muloqot – odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Shunday ekan, munosabatlarga kirishish jarayonida odamlarning muomala madaniyati, muloqot texnikasi hamda bu borada yuqori samaradorlikka erishish hozirgi yangi qurilayotgan demokratik jamiyatda muhim omillardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Sirliyev B. N., Kalonov I. X. Ijtimoiy psixologiya: Ma’ruzalar kursi /Sirliyev B.N, Dushanov R.X., Kalonov I.X.; mas’ul muharrir Ikramov Sh. T. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. 40- b.

2.Ломов, Б.Ф. Проблема общения в психологии/ Б.Ф. Ломов. – [Электронный ресурс]. https://www.pidruchniki.com/15010922/psihologiya/lomov_problema_obscheniya_psihologi

3.Sirliyev B.N.Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida kasbiy muomala: O‘quv qo‘llanma/ Sirliyev B.N., Farfiyev Y.A., Tursunova O.A. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. 10-б.

4.Kuchimova Sh.N. Yuridik nutqning umumnazariy asoslari. Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika jurnali maqolalar to‘plami, 2024. 224- b

5.Асуамов С.В., Пулатов Ю.С. Ички ишлар идоралари ходимларининг касбий-психологик тренинги. – Тошкент, 2002. 75-80- б.

Shaxribon MUSURMANKULOVA
GulDPI katta o‘qituvchisi
shmusurmankulova83@gmail.com
Jasmina ROZIQOVA
GulDPI ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi

TOHIR MALIKNING “ALVIDO, BOLALIK” QISSASIDA QAMARIDDIN OBRAZI

Annotatsiya: ushbu maqola Tohir Malikning “Alvido, bolalik” qissasining yaratilishi, jazo kaloniyalaridagi o‘smirlarning jinoyat ko‘chasiga kirib qolish sabablari, oqibatlari, yetim bolalar, qahri qattiq otalar, hayot qiyinchiliklaridan ezilgan onalar, oila e’tiboridan, ota-ona mehri va tarbiyasidan mahrum qolgan farzandlarning ayanchli taqdiri haqida mulohaza yuritiladi. Asarning bosh qahramonlaridan biri Qamariddinning boshidan kechirganlari, his-tuyg‘ulari, mehri va nafratiga sabab bo‘lgan voqealar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Tohir Malik, o‘smirlar, jinoyat, jaholat, yetimlik, o‘g‘rilik, oqibat, tarbiya, nafrat.

Аннотация: в данной статье речь идет о создании повести Тахира Малика «Прощай, детство», причинах и последствиях выхода подростков в колонии на криминальную улицу, сирот, разгневанных отцов, раздавленных жизненными трудностями матерей, семейного внимания, родительской любви и рассматривается печальная судьба детей, лишенных образования. Анализируются переживания, эмоции, любовь и ненависть Камариддина, одного из главных героев произведения.

Ключевые слова: Тахир Малик, подростки, преступность, невежество, сиротство, воровство, последствия, воспитание, ненависть.

Annotation: this article discusses the creation of Tahir Malik’s story “Farewell, Childhood”, the reasons and consequences of teenagers in penal colonies entering the criminal street, orphans, harsh fathers, mothers crushed by life’s difficulties, the sad fate of children deprived of family attention, parental love and upbringing. The experiences, feelings, events that caused love and hatred of one of the main characters of the work, Qamariddin, are analyzed.

Keywords: Tahir Malik, teenagers, crime, ignorance, orphanhood, theft, consequences, upbringing, hatred.

Kirish. “Qilayotgan ishingizga o‘zingiz to‘g‘ri baho bera olgan oningizdan boshlab bolalik bilan vidolashasiz” (Tohir Malik)

Har qanday yurtning taqdiri shu yurtda o‘sib kelayotgan yosh avlodning bilimi, dunyoqarashi, aql-u zakovati bilan belgilanadi. Yurtimiz kelajagi uchun tayanch vazifasini o‘tovchi yosh avlodning taqdiri har dam bizni chuqur mushohadaga chorlaydi. Xususan, ayni balog‘at yoshidagi o‘smir avlodni tarbiyalash bugungi kunda mushkul masalalardan biriga aylanib ulgurgan. Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” jumlasi har zamon bo‘lgani kabi bugun ham o‘z isbotini topyapti, desak adashmagan bo‘lamiz. Ayniqsa, yoshlarning o‘zlari bilmagan holda jinoyat tamg‘asi ostidagi “qora tuynukka” kirib qolayotgani butun boshli millat uchun o‘ta achinarli hol. Qilmish-qidirmish, deganlariday har bir jinoyatni sodir etgan shaxs jazolanishi shart. Jinoyat kodeksining 5-moddasi ham fikrimizni tasdiqlaydi. Jinoyat sodir etgan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo‘lib, qonun oldida tengdirlar .

Bizni bu maqolani yozishga undagan sabab taniqli publitsist va tarjimon, diniy, fantastik, detektiv asarlar muallifi, katta hayot va ijod egasi, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbekning asl farzandi va yetuk ijodkori – Tohir Abdumalikovich va uning aynan o‘smirlar jinoyat olami, uning sabab va oqibatlari haqida yozgan “Alvido, bolalik” qissasidir. Qissani haqiqiy ma’noda tarbiya o‘chog‘i desak adashmaymiz. Muallif, o‘ynab kuladigan ayni bolalik davrini jazo kaloniyalarida o‘tkazayotgan, yosh umri xazon bo‘layotgan o‘smirlarning hayoti bilan qiziqdi. Ularni bu jirkanch va tubsiz jarlikka tushishlariga nima majbur qilganligi, kimlar aybdor ekanligini o‘rganmoqchi va ko‘rsatmoqchi bo‘ldi. Ijodkorning ushbu gaplari fikrimiz dalilidir: “Men o‘smirlar va yoshlarning jinoyat ko‘chasiga kirib qolayotganlariga befarq qarab turolmayman. Bolalar axloq tuzatish koloniyalariga har borganimda yuragim eziladi. Ozod, erkin yashab, hunar o‘rganadigan bolalar bu yerga qanday tushib qoldilar?! Nahot jinoyat olami ularga jozibali ko‘rinsa?!” Adibning “Ma’suma” nomli tarjimasi, ”Shaytanat” , “Alvido, bolalik” asarlari aynan shu jon kuydirishlar mevasidir. Ayniqsa, adibning “Alvido, bolalik” asaridagi Qamariddin bilan tanishgan kitobxon uning ichki kechinmalari, ruhiy holati, alam va nafrati, mehr va shafqatini o‘zida tuymasdan kitobni mutolaa qila olmaydi. Jahon adabiyotshunosligida “yetim bola” obrazini o‘rganish va tahlil qilish yirik ilmiy tadqiqotlarga sabab bo‘lgan. Jahon bolalar adabiyotida

“Oliver Tvistning boshidan kechirganlari”, “Tom Soyerning sarguzashtlari”, “Garri Poter”, “Gekl Berri Finning sarguzashtlari” va hokazo. Xususan, o‘zbek adabiyotida ham yetim bola obrazini keltirgan adiblar talaygina. Jumladan, G‘.G‘ulomning “Shum bola”, A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon”, O‘.Hoshimovning “Ikki eshik orasi” va hokazo. Ammo Tohir Malikning “yetim bola”si yuqoridagilarning “yetim bola”sidan har jihatdan farq qiladi. “Men detektiv asarlarni tushunilishi oson bo‘lishi va o‘ziga tez jalb qilishi uchun yozdim…” , -deydi muallif. Qamariddin 16 yoshli, jamiyat va odamlarning befarqligi, tengqurlarining unga nisbatan tashlandiq nazarda qarashi, dardini tinglovchi, unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi insoni yo‘qligi sabab jinoyat olamiga kirib qolgan o‘smir bola.

Alloh har bir bandani bu foniy dunyoda sinov va imtixonlar bilan “siylaydi”. Qahramonimiz mana shu sinovlarga tug‘iliboq g‘arq bo‘ldi. Uning hali gard yuqmagan go‘dak qalbiga ketma-ket kelgan to‘siqlar alamzadalik qozonida qovrilishiga sabab bo‘ldi. Natijada Qamariddin hovurini jinoyat yo‘li bilan bosishga tirishdi. Hech kim jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydi. Uni atrof-muhit va jamiyat shunday tarbiyalaydi, achchiq sinovlar quchog‘iga g‘arq bo‘lishi zaharhanda va jinoyatchi insonni yetishishiga turtki bo‘ladi. Qamariddinning “Hozir qo‘limga miltiq berishsa-yu, darvozadan otam bilan onam kirib kelishsa, shartta otardim…” , -degan gapi yuqoridagi fikrlarimning isbotidir. Har yomonning bir yaxshisi bor. Axir biz insonmiz! Yoshiga xos bo‘lmagan qilmishlarni boshdan kechirgan Qamarning ko‘ngli ham mehrga limmo-lim. Asrorga qarata: “O‘ninchini bitirib uyingdan chuqib ket. Gapimga hafa bo‘lma... Seni o‘zim o‘qitaman. Qamalib ketsam, xat bilan ma’lum qilaman” , degan gapi buning isbotidr. Qamariddinning ham murg‘ak qalbi ulkan orzularga limmo-lim edi. U ham katta inson bo‘lishni orzu qilar edi. Ammo hayot charxpalagi teskari aylandi. Jamiyatdagi ba’zi bir qalbi so‘qir insonlar uning orzulariga chang solishdi, xayollarini to‘z-to‘z qilishdi. Asarda Qamariddin va do‘stlarining hayoti birgina ehtiyotsizlik tufayli kelib chiqqan qaltis vaziyat oqibatida parcha-parcha bo‘ladi. Asarda jamiyatda ildiz otib kelayotgan poraxo‘rlik va beg‘amlik illati ham keng gavdalantiriladi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek: “Jamiyat uchun jinoyatchidan ko‘ra loqayd odam xavfliroq”. Haqiqatdan ham jinoyatchi bitta, lekin bizning loqaydligimiz oqibatida birgina jinoyatchi o‘ndan ortiq jinoyatlar qilishiga sababchi bo‘lamiz. Kitobni o‘qir ekanmiz, o‘quvchi yaxshiroq anglashi uchun, umuman, mana oq, mana qora, deganday Asror va Qamar obrazi bir-biriga zid tarzda namoyon qilinadi. E’tibor beradigan bo‘lsak, Asrorning onasi eski ro‘mol, yamoq ko‘ylak, sodda, xokisor; Qamarning onasi oldi ochiq kiyimda, qo‘lida sigaret, do‘q bilan gapiradi. Asror jur’atsiz; Qamar esa yolg‘onni ham ko‘zini chirt yummay gapiradi. Asror vijdon azobidan bu olamni tark etdi; Qamariddin qilmishiga yarasha turma bilan jazolandi. Qamariddinning jinoyatchi tamg‘asini olishga sababchilar, eng avvalo, ota-onasidir. Ma’naviyati qashshoq, parokanda oilaning farzandi sizningcha qanday bo‘lib yetishadi?! Qamar oldin mehribonlik uyidan, keyin jamiyatdan, odamlardan mehr-muruvvat kutdi, ammo hech biridan najot ololmadi. Yetimxonada o‘sgan bolaning hayot falsafasi erta shakllandi, beiymon otalar, bemehr onalarga jajji qalbida nafrat uyg‘ondi. Jisman nobud bo‘lgan bola tufayli bir bola aziyat chekadi, vaqt o‘tgach g‘am-anduh unutiladi. Ruhan nobud qilingan o‘smirdan esa jamiyat aziyat chekadi va buning g‘am-alamlari darrov unutilmaydi. O‘zbekiston xalq artisti Yodgor Sa’diyev adib haqidagi xotiralarni so‘zlab: “Tohir Malik o‘zining barakali ijodi va o‘sib kelayotgan yosh avlod ta’lim-tarbiyasi, ularning ma’naviy-axloqiy kamolotiga bag‘ishladi. Uning asarlarida odob-axloq, mehr-oqibat va odamiylik fazilatlari targ‘ib qilingan” , deb aytib o‘tgani “Alvido, bolalik” qissasining mag‘zidir go‘yo. Hech kim bola tug‘ilganda “o‘g‘rilikni kasb etsin”, ”giyohvandlarga qo‘shilsin”, deb niyat qilmaydi. Ammo bolaning shakllanishidagi loqaydliklar bundan-da yomon fojialarga olib kelishi mumkinligini Qamariddin misolida ko‘rsak bo‘ladi. Yozuvchi asarni Ahborga ko‘rsatganida, uning nima uchun asarda faqat yomonlar haqida yozilgan, degan savoliga quyidagicha javob beradi: “To‘g‘ri, bu asarni o‘qiganda hamma yoqni yomon bosib ketganday bo‘lishi mumkin, lekin bu noto‘g‘ri tushuncha. Mening maqsadim yomonlar to‘dasini aks ettirish–yaxshilarni bundan ogoh qilish…” . Asarni o‘qir ekanmiz, ayrim personajlarning nutqlari o‘quvchini chuqur o‘yga toldiradi. Misol uchun, Asrorning Qamarning onasi bilan bo‘lgan suhbatini olsak: “Qamar kamdan kam odamlarni yaxshi ko‘radi. Seni baxting borakan, hatto meni yomon ko‘radi. Haligacha biron marta “ona” demadi” . Asarda mayor Soliyev obrazi ham borki, qissada huddi “najot farishtasi” kabi kitobxon qalbidan joy egallaydi. Shu paytgacha hech bir hodimning “tishi o‘tmay”, ishlari bosti-bosti qilinayotgan Keldiyorovday shaxs farzandi kirdikorlarini fosh qiladi. Hattoki, Qamariddin ham jinoiy ish uning qo‘liga topshirilganligini bilib, qo‘lga tushishini oldindan his qiladi. Ushbu asarning yana bir muhim joyi borki, aytib o‘tish joiz deb bildim. Asrorning otasining jirkanch holatda pul topishi, hatto Qamariddinning ham g‘ashiga tegadi. Asrorning hali bolalarcha o‘y-fikrlar ichida yurgani uchun otasining qilmishlariga aqli yetmaganligi, ammo Qamarning bu holatga, badaxloq qiliqlariga ko‘z yuma olmaganligi asarda keng ochib berilgan. Tohir Malikning Ahbor bilan suhbatiga qaytadigan bo‘lsak, adib u bilan bo‘lgan suhbatda uning qilmishidan pushaymon ekanligi, jinoyat olamining tubsiz jarlik bilan tugashi, bu yo‘lga o‘smirlar adashib kirib qolmasligini aytmoqchi bo‘ladi, go‘yo.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ayni gullab-yashnaydigan davrda bolalarning jinoyat orqali

oilasidan, jamiyatdan, umuman, kelajagidan butkul mosivo bo‘lgani hech bir shaxsni bee’tibor qoldirmaydi. Jinoyatning katta-kichigi bo‘lmaydi, har qanday jinoyat jazo olishi shart. Ammo biz jinoyatchilarni jazolashni emas, jinoyatning oldini olishni maqsad qilishimiz lozim. Yosh avlodni ma’naviyatli, qadriyatlarimizni qadrlaydigan, yuksak salohiyatli kadrlar qilib tarbiyalashamiz zarur va bunda ota-onalarning, jamiyatning xizmati katta. Farzandi oldidagi mas’uliyatini his qilmay, uning taqdirini o‘yinchoq qilayotgan ota-onalar bir millat uchun fojiadir. O‘z vaqtida va to‘g‘ri berilgan tarbiya, oiladagi sog‘lom muhit bolalarning bolaligini yashashga, bolaliklari bilan erta xayrlashmasliklariga sabab bo‘ladi. Yuqorida ko‘rib o‘tgan qahramonlarimiz singari, Qamariddin kabi qabih ishlar qilmasligi uchun tayanch vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. “Turkiy guliston yoxud axloq”. –Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi, 2019. 96-b.
2. Norboyeva M. “Alvido bolalik” qissasida “yetim bola “obrazining poetik talqini. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 01 (2022) / ISSN 2181-1415 2022. B-247-252
3. “Tafakkur” jurnali, 2006. 4-son.
4. Tohir Malik. “Alvido bolalik” qissasi. Yoshlar nashriyot uyi. –Toshkent, 2019. 181-b.
5. https://lex.uz/mact/-111453
6. Wikipedia .org
7. tarix.sinaps.uz

Soxiba GAZIBEKOVA,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti mustaqil tadqiqotchisi
sohibagazibekova@mail.ru

XAYRIDDIN SULTONOVNING “BOBURIYNOMA”ASARIDA ARXAIK SO‘ZLARNING BADIIY TIL IMKONIYATLARI

Annotatsiya: Xayriddin Sultonovning “Boburiynoma” asari o‘zining boy badiiy tili va arxaik so‘zlar qatlamining kengligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada asarda qo‘llanilgan arxaik so‘zlar turli toifalarda o‘rganilgan: diniy tushunchalar, tarixiy atamalar, etnonimlar, toponimlar va shevaga oid so‘zlar. Har bir toifa chuqur tahlil qilinib, so‘zlarning semantik vazifalari va badiiy matndagi o‘rni aniqlangan. Matnshunoslik, tasniflash hamda tahliliy va taqqoslash usullari yordamida “Boburiynoma”dagi arxaik so‘zlar boshqa tarixiy va zamonaviy matnlardagi holatlar bilan solishtirilgan.

Kalit so‘zlar: *“Boburiynoma”, arxaik so‘zlar, badiiy til, Xayriddin Sultonov, diniy so‘zlar, etnonimlar, toponimlar, tarixiy til, sheva, madaniy meros.*

Annotation: Khayriddin Sultonov’s work Boburiynoma is notable for its rich artistic language and the extensive use of archaic words. This article examines the archaic words used in the work, categorized into various groups: religious terms, historical terminology, ethnonyms, toponyms, and dialectal words. Each category has been analyzed in depth to identify the semantic functions and roles of these words within the artistic text. Through the methods of textology, classification, analytical comparison, and contrast, the archaic words in Boburiynoma are compared with their use in other historical and contemporary texts. This approach highlights the historical, cultural, and artistic significance of the work.

Key words: *Boburiynoma, archaic words, artistic language, Khayriddin Sultonov, religious terms, ethnonyms, toponyms, historical language, dialect, cultural heritage.*

Аннотация: произведение Хайритдина Султонова *Бобурийнома* отличается своим богатым художественным языком и широким использованием архаических слов. В данной статье изучены архаические слова, используемые в произведении, которые классифицированы по различным категориям: религиозные термины, исторические понятия, этнонимы, топонимы и диалектные слова. Каждая категория детально проанализирована, выявлены семантические функции и роль этих слов в художественном тексте. С помощью методов текстологии, классификации, аналитического сравнения и контраста архаические слова в *Бобурийнаме* сопоставлены с их употреблением в других исторических и современных текстах. Такой подход подчеркивает историческое, культурное и художественное значение произведения.

Ключевые слова: *Бабурийнама, архаические слова, художественный язык, Хайритдин Султонов, религиозные термины, этнонимы, топонимы, исторический язык, диалект, культурное наследие.*

Kirish. Adabiy asarlar tilning turli qatlamlarini o‘zida jamlab, tarixiy, madaniy va badiiy qimmatga ega bo‘lib keladi. Xayriddin Sultonovning “Boburiynoma” asari shunday bebaho asarlardan biri hisoblanadi. Unda ishlatilgan arxaik so‘zlar nafaqat asarning badiiy qimmatini oshiradi, balki tarixiy va madaniy meros sifatida o‘rganishga arziydi. Ushbu maqolada asardagi arxaik so‘zlar va ularning turli toifalari, masalan, diniy tushunchalar, etnonimlar, toponimlar, tarixiy atamalar va shevaga oid leksik birliklar tahlil qilinadi.

Metodologiya.

Ushbu maqola yozilishida quyidagi tadqiqot usullari qo‘llanildi:

Matnshunoslik usuli:___“Boburiynoma” asari matnini sinchkovlik bilan o‘rganish orqali arxaik so‘zlar tanlab olindi va ularning kontekstdagi vazifalari tahlil qilindi. Xayriddin Sultonovning “Boburiynoma” asarida arxaik so‘zlarning tahlili matnshunoslik usuli yordamida amalga oshirildi. Asar matnini sinchkovlik bilan o‘rganish natijasida arxaik so‘zlar tanlab olinib, ularning kontekstdagi vazifalari chuqur tahlil qilindi. Ushbu usul asarning badiiy qiymatini aniqlash va tarixiy-madaniy ahamiyatini ochib berishda muhim rol o‘ynadi. “Boburiynoma”da ishlatilgan arxaik so‘zlar, asosan, turli toifalarga bo‘linadi. Ular orasida diniy tushunchalar, tarixiy voqealar bilan bog‘liq atamalar, shevaga oid leksik birliklar, etnonimlar va toponimlar o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Masalan, diniy tushunchalar qatoridan “tavof”, “Miyqot”, “ehrom”, “Ka‘batulloh” kabi so‘zlar ajralib turadi. Ushbu so‘zlar diniy qadriyatlarni ifodalash bilan birga, asarning madaniy zamini va badiiy ma’no qatlamini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Arxaik so‘zlar orasida tarixiy voqealar va shaxslar bilan bog‘liq atamalar alohida ahamiyatga ega. Masalan, Bobur hukmronligiga oid farmonlar, davlat siyosati va ijtimoiy muammolarni yoritishda ishlatilgan so‘zlar, masalan, “tamg‘a”, “Mubayyin”, “saltanat” kabi atamalar matnda o‘sha davr ruhini aks ettiradi. Ushbu so‘zlar asarning tarixiy haqiqatga yaqinligini va o‘z davrining ijtimoiy ahvolini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shevaga oid leksik birliklar esa asarning xalqona ruhini oshiradi. Misol uchun, “mo‘ysafid”, “chog‘roq masjid”, “echkining yo‘tali” kabi so‘zlar mahalliylik va oddiy xalq hayotini ifodalash orqali asarga samimiylik bag‘ishlaydi. Bu so‘zlar kontekstida xalqona iboralar va jumlalarning ishlatilishi matnni o‘quvchilar uchun yanada yaqinroq qiladi.

Etnonim va toponimlarning qo‘llanilishi esa “Boburiynoma”ni keng geografik va etnik qamrovga ega asar sifatida namoyon etadi. Misol uchun, “Qashqarlik uyg‘ur”, “qrim-tatarlar”, “Savr tog‘i”, “Muzdalifa dashti” kabi so‘zlar matnda turli millat va joylarni tasvirlashda qo‘llanilib, dunyo xalqlari va ularning madaniy merosini aks ettiradi.

Tanlangan arxaik so‘zlarning barchasi asarning badiiy til imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Ular yordamida o‘sha davrning ijtimoiy, madaniy va ma’naviy muhitini o‘quvchiga yaqinroq qilishga erishiladi. Arxaik so‘zlarning ko‘p qirraliligi asarni nafaqat badiiy asar, balki tarixiy manba sifatida ham qimmatliligini oshiradi. Matnshunoslik usuli asosida olib borilgan tahlil asardagi har bir arxaik so‘zning muayyan vazifaga ega ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, diniy tushunchalar Bobur Mirzoning dunyoqarashini ochib beruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi, tarixiy atamalar esa voqealarning real kontekstini aks ettiradi. Bu holat “Boburiynoma”ni o‘qish jarayonida o‘quvchiga keng dunyoqarash va tarixiy bilim berishga xizmat qiladi.

Natijalar.“Boburiynoma” asarida qo‘llanilgan arxaik so‘zlar ustida olib borilgan tadqiqotlar bir nechta muhim natijalarni aniqladi. Ushbu natijalar matnshunoslik, tasniflash, hamda tahliliy va taqqoslash usullarining samarali qo‘llanilishi orqali erishilgan.

1. Arxaik so‘zlarning badiiy til imkoniyatlari.“Boburiynoma”dagi arxaik so‘zlar asarning badiiy tilini boyitishga xizmat qiladi. Misol uchun, diniy tushunchalar qatoridagi “Miyqot”, “ehrom”, “Ka‘batulloh” kabi so‘zlar asarda diniy mazmunni chuqurlashtiradi va o‘quvchining o‘sha davrdagi diniy marosimlarni yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. Shuningdek, tarixiy atamalar, masalan, “tamg‘a” va “saltanat” kabi so‘zlar davlat boshqaruvi va ijtimoiy munosabatlar haqidagi ma’lumotlarni tasvirlashda muhim rol o‘ynaydi.

2. Arxaik so‘zlarning madaniy va tarixiy ahamiyati. Asardagi arxaik so‘zlar o‘z davrining madaniy va tarixiy qirralarini aks ettiradi. Toponimlar esa asarda voqealar geografik joylashuvini aniqlab, o‘sha davrda mavjud bo‘lgan joylarning ahamiyatini yoritadi. Masalan, “Muzdalifa dashti” va “Savr tog‘i” toponimlari asarda diniy va tarixiy mazmunni boyitishda ishlatilgan.

3. Arxaik so‘zlarning zamonaviy qo‘llanilishi bilan taqqoslash._Tahliliy va taqqoslash usuli yordamida aniqlanishicha, “Boburiynoma”dagi arxaik so‘zlar zamonaviy matnlarda ham turlicha qo‘llaniladi. Misol uchun, “tavof” kabi diniy so‘zlar bugungi kun diniy matnlarida asosan texnik ma’lumot sifatida ishlatiladi, holbuki, “Boburiynoma”da bu so‘z ma’naviy va ramziy mazmun bilan boyitilgan.

4. Shevaga oid so‘zlarning o‘ziga xosligi. Shevaga oid so‘zlar, masalan, “mo‘ysafid” va

“chog‘roq masjid”, xalqning kundalik hayotini ifodalaydi va o‘quvchiga asar voqealarini yaqinroq qiladi. Ushbu so‘zlar zamonaviy matnlarda kamroq qo‘llaniladi, ammo “Boburiynoma”da ular asar mazmunini boyitish va xalqona ruhni oshirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Muhokama.“Boburiynoma”da arxaik so‘zlarning qo‘llanilishi, ularning badiiy, tarixiy va madaniy ahamiyati hamda zamonaviy qo‘llanilishi tahlili natijasida muhim xulosalar chiqarildi. Metodologiya va natijalar qismlarida bayon etilgan tahlil natijalari asardagi arxaik so‘zlarning turli kontekstlardagi o‘rnini aniqlash va ularning o‘quvchi uchun qanday mazmun kasb etishini chuqurroq anglash imkonini berdi.

Metodologiya qismida qo‘llanilgan matnshunoslik usuli “Boburiynoma” matnini sinchkovlik bilan tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu yondashuv orqali arxaik so‘zlar matndan ajratib olinib, ularning kontekstdagi vazifalari o‘rganildi. Misol uchun, diniy tushunchalar, masalan, “ehrom”, “Ka‘batulloh” va “Muzdalifa dashti” kabi so‘zlar asarda diniy an’analarni ifodalash uchun ishlatilgan bo‘lsa, ular zamonaviy matnlarda odatda texnik yoki aniq marosimni tavsiflash uchun qo‘llaniladi. Bu o‘zgarish o‘quvchiga diniy so‘zlarning ramziy va ma’naviy mazmunini tushunish imkonini beradi. Tasniflash usuli esa “Boburiynoma”dagi arxaik so‘zlarning turli toifalarga ajratilishi orqali ularning badiiy tilni shakllantirishdagi o‘rnini aniqlashga xizmat qildi. Masalan, tarixiy atamalar, jumladan, “tamg‘a” va “saltanat” kabi so‘zlar matnda tarixiy realizmni oshirgan. Shu bilan birga, etnonimlar, masalan, “qashqarlik uyg‘ur” va “qrim-tatar” kabi so‘zlar o‘sha davrda mavjud bo‘lgan xalqaro aloqalar va madaniy xilma-xillikni aks ettirgan . Ushbu so‘zlarning zamonaviy qo‘llanilishi esa ko‘pincha faqat tarixiy kontekst bilan cheklanadi, bu esa “Boburiynoma”ning badiiy imkoniyatlarini zamonaviy matnlarga nisbatan yanada kengroq ekanligini ko‘rsatadi. Tahliliy va taqqoslash usullari yordamida aniqlanganidek, “Boburiynoma”dagi arxaik so‘zlar boshqa tarixiy va zamonaviy matnlardagi o‘xshash so‘zlar bilan taqqoslanganda ko‘proq ma’nolarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa. Xayriddin Sultonovning “Boburiynoma” asari o‘zining arxaik so‘zlar orqali boyitilgan badiiy tili va tarixiy mazmuni bilan ajralib turadi. Ushbu maqola davomida asarda ishlatilgan arxaik so‘zlar turli usullar yordamida tahlil qilindi va ularning badiiy, tarixiy hamda madaniy ahamiyati ochib berildi. Matnshunoslik, tasniflash va tahliliy-taqqoslash usullari bu so‘zlarning semantik va kontekstual xususiyatlarini aniqlashda muhim vositalar bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, “Boburiynoma”dagi arxaik so‘zlarning tahlili asarning til boyligini, tarixiy va madaniy ahamiyatini ochib berdi. Bu tadqiqot asar nafaqat adabiy, balki tarixiy va madaniy meros sifatida ham qimmatliligini tasdiqlaydi. Mazkur yondashuvlar boshqa adabiy asarlarni o‘rganishda ham qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Karimov Sh. “Bobur va diniy qadriyatlar”. Adabiyotshunoslik jurnali 2018. №4. 112–117-betlar.

2.Mamatov M. “O‘zbek tilida arxaik so‘zlarning qo‘llanilishi”. O‘zbek tili va adabiyoti, 2019. №2. 56–62-betlar.

3.Saidov Z. “Arxaik so‘zlarning semantik va stilistik o‘zgarishlari”. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalari, 2017. №2. 45–51-betlar.

4.Sultonov X. Boburiynoma. –Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2020.

5.To‘laganov A. “Shevada saqlanib qolgan tarixiy leksika”. Ilm va taraqqiyot, 2021. №1. 89–95-betlar.

6.Ubaydullayev D. “Boburning tarixiy asarlari tilida badiiy tasvir vositalari”. Yosh tadqiqotchi jurnali, 2022. №1. 35–41-betlar.

7.Xolmirzayev R. “Tarixiy matnlarda etnonimlarning badiiy ifodasi”. Adabiyot va san’at, 2020. №3. 66–72-betlar.

8.Yoqubov I. O‘zbek toponimikasining o‘ziga xos jihatlari. –Toshkent: Sharq, 2010.`

Xumora JO‘RAQULOVA
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
1-bosqich tayanch-doktoranti



“HAMID OLIMJON” MA’RIFIY-BIOGRAFIK ROMANIDA NAIM KARIMOV MAHORATI

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiyotshunos olim, akademik Naim Karimovning “Hamid Olimjon” ma’rifiy-biografik romani uslubiga to‘xtalib o‘tilgan. Muallifning so‘z tanlash, jumla qurish, voqelikni ifodalalshdagi individual uslubi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *ma’rifiy roman, uslubiy individuallik, ilmiy-ommabop uslub, to‘qima, hujjatlilik, tarixiylik.*

Аннотация: в данной статье рассматривается стиль учебно-биографического романа «*Ха*мид *Ал*имдж*а*н» литературоведа, академика Наима Каримова. Анализируется индивидуальный стиль автора в подборе слов, построении предложений, выражении действительности.

Ключевые слова: *учебный роман, стилистическая индивидуальность, научно-популярный стиль, фактура, документальность, историчность.*

Annotation: this article focuses on the style of the educational-biographical novel “Hamid Olimjon” by literary scholar, academician Naim Karimov. The author’s individual style of choosing words, constructing sentences, and expressing reality is analyzed.

Key words: *educational novel, stylistic individuality, scientific-popular style, texture, documentary, historicity.*

O‘zbek nasriga “Ma’rifiy roman” tushunchasini olib kirgan hassos olim Naim Karimov o‘zining keng tafakkuri, ilmiy uslubi, ilmga talabchanligi va o‘ta bilimdonligi bilan milliy adabiyotimiz sarhadida o‘ziga qator yodgorliklar qo‘yib ketdi. Har kim ham jazm eta olmaydigan, butun bir asrning adabiy manzarasini chizib berdi (“XX asr adabiyoti manzaralari”). “Naim aka o‘z umrining faylasuf pallasida ilmiy va insoniy jasorat ko‘rsatdi. Shonli va fojiiy bir asrning yaxlit adabiy ham ijtimoiy-ma’naviy manzarasini chizmoqqa jazm etdi. Chizganda ham qiyofalarni aniq, ranglarni tiniq qilib, har bir hodisa va voqeaning qonuniy joy-joyini ko‘rsatib, hech narsani xaspo‘shlamay, itoatkor andishaga, mute mulohazalarga bormay, fikriy mustaqillik, ilmiy xolislik va yana muhimi, nazokat ham fasohat bilan yuz yillik adabiy hayotning mahobatli manzarasini yaratdi”[1] deydi olim Shuhrat Rizayev. Bu yuz yillikkda yashab, ijod qilgan adiblarning deyarli har biriga alohida to‘xtalib, o‘zigacha aytilmagan, yangi, ohorli ma’lumotlar bilan kitobni bezatdi.

Naim Karimov ilmga qadam qo‘yar ekan, dastlab Hamid Olimjon she’riyati haqida yonib, ehtiros bilan tadqiqotlar yozdi. 1963-yilda “Hamid Olimjon poetik mahoratining ba’zi masalalari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyat bilan himoya qildi. Shundan so‘ng 1964-yilda yuqoridagi nomzodlik dissertatsiyasi asosida “Hamid Olimjonning poetik mahorati” nomli monografiyasi e’lon qilindi. Monografiyada olim Hamid Olimjonning lirikasiga hamda poetik mahoratiga baho berar ekan, ijtimoiy-tarixiy yondashuv va biografik metodda shoirning asarlarini tekshiradi. “Ko‘klam jarchisi”, “Baxtlar vodiysi”, “O‘rik gullaganda”, “Rossiya” kabi she’rlarini, “Zaynab va Omon” dostonini tahlilga tortar ekan, ularning naqadar go‘zal adabiy yaratiq ekanligini, shoir mahoratini, mazmun va shakl uyg‘unligini, obraz yaratish san’atini o‘quvchilar ko‘z oldida “gilamdek yoyadi”. Bu sharhlar ba’zi siyosiy atamalarni inobatga olmaganda, hanuz o‘zining qiymatini saqlab kelmoqda.

Naim Karimov ijodkorning hayoti va ijodini tinimsiz o‘rganishlari natijasida 1969-yilda “Go‘zallikning olmos qirralari”, 1979-yilda esa “Hamid Olimjon. Shoir hayoti va ijodidan lavhalar”, 1980-yilda “Baxt va shodlik kuychisi”, 1990-yilda “Hamid Olimjon lirikasi” kabi tadqiqotlar yaratdi. Bu qadar maqolalar va tadqiqotlardan ko‘ngli to‘lmagan olim Hamid Olimjonni xalqqa yanada “yaqindan tanishtirish” maqsadida 2013-yilda “Hamid Olimjon” nomli ma’rifiy-biografik romanini kitobxonlar ommasiga havola etdi. Mazkur ma’rifiy roman shoir zamondoshlarining xotiralari va arxiv hujjatlari asosida yozilgan bo‘lib, roman debocha, uch asosiy bo‘lim: 1-Bahor shalolalari, 2-Yozning kamalak ranglari, 3-Kuzning za’faron bog’lari, so‘ngso‘z va Hamid Olimjon hayotining asosiy sanalari singari qismlardan tashkil topgan. Bo‘limlarning nomlanishidan ham ayonki, olim mazkur romaniga nafaqat ilm ko‘zi bilan, balki shoirona qalbi bilan ham yondoshgan. Bo‘limlarda qish so‘zi bilan nomlangan bandning mavjud emasligi ham Hamid Olimjonning bevaqt vafoti, umrining “qishi”ni yashamaganiga ishora.

Debochada Naim Karimov o‘zi qalamga olayotgan shoirni o‘quvchisiga yaxshiroq tanishtirish maqsadida, zamonasining zabardast shoir va yozuvchilaridan iqtiboslar keltiradi. Mirtemir va Maqsud Shayxzodalarning Hamid Olimjon haqidagi fikrlarini o‘rinli keltirar ekan, Hamid Olimjon muxlislarining

1 Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari.-T.: O‘zbekiston. 2008. 4-5b

uning hayotiga bo‘lgan qiziqishlarini yanada orttiradi.

Birinchi bo‘limning “Shoirning bolaligi” sarlavhali bobida olim avval Jizzax viloyatiga, uning tarixiga o‘quvchini hayoliy safar qildiradi va “manzili” bo‘lmish Hamidjonning uylariga olib kiradi. Hatto qahramoni tug‘ilgan, yashagan qo‘rg‘on kitobxonlar ko‘z oldida yanada teran gavdalansin deb, Shukur Sa’dulla xotiralaridan ham foydalanadi. So‘ngra, Jizzaxdan yetishib chiqqan olim-u ulamolar, shoir-u shuarolardan boshlab, Hamid Olimjonning nasli nasabini, ajdodlarini kitobxoniga tanishtiradi. Bu bobda Naim Karimov jizzaxlik yozuvchi Turobjon Maqsudovning Hamid Olimjon bolaligiga bag‘ishlangan “Daryo toshqinlari” qissasidan shoir yashagan manzillarning haqqoniy tasvirini berishda foydalanadi. Shu bilan birga adabiyotshunos Hotam Umurovning Komila aya(Hamid Olimjonning onasi) bilan suhbatlari, Asolat(Hamid Olimjonning opasi) bilan Turobjon Maqsudov suhbatlari ham bu bobda shoirning yashash tarzi va uning shoir sifatida yetishishi uchun sabab bo‘lgan muhitni ochishda bir kalit sifatida Naim Karimov tomonidan qo‘llanadi. Hamid Olimjon she’rlaridan parchalar keltiradi va bu misralar shoir biografiyasini tiklashda Naim Karimovga ochqich bo‘lib xizmat qiladi.

“Jizzax o‘t ichida” nomli bobida Naim Karimov Hamid Olimjonning do‘sti, yozuvchi Nazir Safarovning “Ko‘rgan kechirganlarim” asaridan parchalar keltirib, o‘sha davr Jizzax hayotini ko‘z oldimizda jonli gavdalantiradi. Jizzaxning qonli tarixini faqat tarixiy faktlar bilan emas, balki shu kabi go‘zal asarlar bilan ham kitobxoniga “aytib beradi”. “Ma’rifat bog‘lari” bobida Nazir Safarov, H.Abdullayev (Samarqandlik yozuvchi Hoji Abdulla Fayyozning o‘g‘li), Jo‘ra Ahmadjonov (Hamid Olimjonning talabalik do‘sti), akademik Vohid Abdullayev, Shukur Sa’dulla, Muzayyana Alaviya xotiralari, Oybek va o‘zining Komila ayadan so‘rab bilgan qator voqealar orqali Hamid Olimjonning shoir, adib bo‘lib yetishishi tadrijiy yoritilgan. Shu bilan bir qatorda Naim Karimov 1926-yillardagi va undan keying davr matbuot materiallarini ham sinchiklab o‘rganib, Hamid Olimjonning ilk mashqlarining matbuotda yoritilishini ham kitobxonlariga yetkazadi. Shoirning ilk mashqlari haqida Hamid Olimjonshunos sifatida o‘zining ilmiy fikrlarini ham bildiradi. O‘sha davr adabiy muhiti, siyosiy hayot xususidagi qimmatli ma’lumotlar kitobning o‘qishliligini yanada oshiradi. Davrning iskanjalari, siyosiy o‘yinlar Hamid Olimjon prizmasi orqali va aksincha Hamid Olimjonning ijod yo‘lini belgilagan oqim va bunga sabab bo‘lgan tuzum haqidagi ma’lumotlar roman qiymatini yanada ko‘taradi. Bobda Hamid Olimjon va Oybekning Leningraddagi uchrashuvi, suhbatlaridan parcha beriladi. Bu suhbat shunchalar jonli tasvirlanganki, go‘yo Naim Karimov ham ular bilan birga, uchinchi suhbatdoshdek tuyuladi o‘quvchiga. Hamid Olimjonning Volga bo‘ylarida, Pyotr shahrida yozgan she’rlaridan misollar keltiradi olim-yozuvchi. Bu she’rlarning tug‘ilishi va sababini ortiqcha izohlamay, voqealar rivojida ko‘rsatib boradi. Va “Hamid Olimjon ijodining tongi shu tarzda ota boshladi” deya shoirning adabiyot sahnasida birdan “yarq” etib ko‘ringanini, adabiyotga, so‘zga muhabbatini, ilmga tashnaligini, shoirona xarakterini va qalbini davr silsilasida namoyon qilib boradi. Shoirning tahsil yillari, ijod onlari, tarjimalari, ijodkorlar bilan suhbatlari, oilaviy hayoti haqida yozar ekan, Naim Karimov o‘quvchini asariga ipsiz bog‘lab qo‘yadi, xuddi shoir olamiga kirgandek tuyuladi kitobxonga. Keyingi boblarda ham shoirning shoir sifatida ulg‘ayib borishini, bunga sabab bo‘lgan shaxs va omillarni, oilaviy hayotini, Zulfiya bilan turmushini, davlat organlaridagi faoliyatini, ijodiy aloqalarini o‘qir ekanmiz, Naim Karimov sabab shoirni juda yaqindan tanib boramiz, bizga qadrdonlashib boraveradi, olimning qilgan she’riy tahlillari tufayli mazkur ijod namunalarini teran anglaymiz, yaratilish sababini va unga turtki bo‘lgan tuyg‘ularni his qilamiz. Go‘yo Hamid Olimjon bizga yaqindek, tuyg‘udosh, sirdoshdek tuyulaveradi.

Asarda yana ko‘plab ijodkorlarning, jumladan, G‘afur G‘ulom, Mirtemir, Sadriddin Ayniylarning, Uyg‘un, Chustiylarning xotiralaridan, Hamid Olimjonning kundaliklaridan o‘rni bilan foydalanilgan va bu asarning o‘qishliligini ta’minlagan.

“Hamid Olimjon” ma’rifiy-biografik romani o‘qilishi yengil, ma’lumotga boy, puxta tanqidiy va adabiy qarashlarga ega asar. Undagi adib Hamid Olimjon bilan bog‘liq, ba’zan kulgili (Chimyondagi voqealar), ba’zan achinarli (mardikorlikka olish va urush yillari haqidagi), ba’zan falsafiy tafakkur qilishga undaydigan voqealar (“Qora rayhon” bobi) o‘quvchini kitobdan bosh ko‘tarishiga yo‘l bermaydi. Naim Karimov mazkur romanining boshqalaridan farqi, unda o‘ta hujjatchilik va “haddan tashqari” ilmiylikdan qochilganidir. Shu sababdan mazkur ma’rifiy roman boshqalariga qaraganda yengil o‘qiladi. Bu asarda Naim Karimovning Hamid Olimjonga alohida muhabbati sezilib turadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Naim Karimov Hamid Olimjon va uning ijodi haqida qator ilmiy asarlar yaratgan. Bu ma’rifiy romandan maqsad esa xalq shoirini yana “xalqqa qaytarish”, uni “osmonlarda” emas “yerda” tasvirlash, uni xalqqa yaqinlashtirish, kitobxonlar va Hamid Olimjonni bilguvchilar safini kengaytirishdir. Asar tili sodda va ravon, ilmiy ma’lumotlar ham xalqchil qilib tushuntirilgan. Romandagi portret va peyzaj ham ortiqcha jimjimalarsiz tasvirlangan bo‘lib, bu tasvirlar shunchaki quruq ham emas. Asarda olim ko‘zi-yu yozuvchi qalbi barq urib ko‘rinib turadi. Romanda Hamid Olimjon avvalo inson sifatida, so‘ng yozuvchi sifatida go‘zal tasvirlangan. Asardagi o‘sha mash’um avtohalokatning barcha tafsilotlari bilan qalamga olinishi, Hamid Olimjonni inson sifatida yana bir pog‘ona yuksakka ko‘taradi. Asar “Hamid Olimjon adabiyotimizning bayroqdorladidan

biri edi. Bayroqdorlar esa hamisha barhayot qoladilar. Adabiyotning taraqqiyot darajasini belgilashda ularning ovozi kamerton bo‘lib xizmat etadi. Ularning hayot va ijod yo‘li avlodlar uchun xalqqa xizmat qilishning go‘zal bir namunasi bo‘lib qoladi” satrlari bilan yakunlanadi. Hassos qalb sohibi, olim-Naim Karimov Hamid Olimjonning vafoti sahnalarini qalamga tushirar ekan, so‘zlar bag‘ridan mungni his etib turadi o‘quvchi. Naim Karimov inson taqdiriga befarq bo‘lmagan, bosh planga, avvalo, insoniylikni qo‘ygan olimlardan edi. Shu sababdan, ma’rifiy romanlarini mutolaa qilar ekanmiz, o‘zi qalamga olgan ijodkorni, birinchi navbatda, shaxs sifatida kitobxonlariga tanitmoq istaydi. Asarlarining shunchaki havoyi gaplar, jimjimador so‘zlardan iborat emasligini, uning zamirida nafis qalb va o‘tkir nigoh, tarix va kelajak borligini ko‘rsatmoq istaydi. Olim adabiyot ixlosmandlarining ko‘payishini, nodir asarlarning xalq orasida keng tarqalishini ko‘zlab, shu kabi ma’rifiy asarlarni abadiyotimiz “javon”iga olib kirdi va uni juda katta ilmiy-badiiy asarlar bilan boyitdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Karimov N. Hamid Olimjonning poetik mahorati. Monografiya. –T.: Fan, 1964
2.Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. –T.: Fan. 2006.
3.Yoqubov I. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. Monografiya. –T.: Nurafshon bussines. 2021.
4.Karimov N. Hamid Olimjon. Ma’rifiy-biografik roman. –T.: Sharq. 2013.
5.Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. –T.: O‘zbekiston. 2008.

Fazilat MAMADALIYEVA,
NamDU. mustaqil tadqiqotchi

HAMZA IJODIDA ILM-MA’RIFATNING ULUG‘LANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada ma’rifatparvar shoir Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodida ilm-ma’rifatning ulug‘lanishi, ilmli xotin-qizlarning oila va jamiyatdagi tutgan o‘rni shoir she’rlari misolida tahlil etilgan.
Kalit so‘zlar: *shoir, yozuvchi, dramaturg, mohir pedagog, jadid, jaholat, maqola, oila va jamiyat, tanazzul, xurofot, bid’at, ilm-ma’riat.*
Аннотация: в данной статье анализируется прославление науки в творчестве поэта-просвещенца Хамзы Хакимзода Ниязи, роль образованной женщины в семье и обществе на примере стихотворений поэта.
Ключевые слова: *поэт, писатель, драматург, искусный просветитель, джадид, невежество, статья, семья и общество, упадок, суеверие, ересь, наука.*
Annotation: this article analyzes the glorification of science in the works of the enlightened poet Hamza Hakimzoda Niyazi, the role of educated women in the family and society on the example of the poet’s poems.
Key words: *poet, writer, playwright, skilled educator, jadid, ignorance, article, family and society, decline, superstition, heresy, science.*

Kirish. Mustaqillik yillarida hayotimizning hamma jabhalari qatori milliy va boy adabiyotimizda ham tub yangilanish, rivojlanish va yuksalish jarayonlari kuzatilmoqda. Adabiyot bu-ma’naviyatdir, ma’naviyati boy xalq esa hamisha yuksaklik tomon odimlayveradi. Boy tarixga ega bo‘lgan milliy adabiyotimizning buguni, ertasi va kelajakdagi rivoji ma’naviyat borasidagi eng asosiy vazifa ekan, o‘z milliy an’ana va qadryatlarimizni anglash, o‘tgan ajdodlarimiz va allomalarimizning aziz nomlari, shu bilan bir qatorda ularning boy ma’naviy merosini o‘rganish, yoshlarimizning milliy va umumbashariy qadryatlar ruhida tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratib berilayotganligi quvonarlidir.

Darhaqiqat, uzoq tarixiy va tahlikali davrda yashab, qalam tebratgan, ijod qilib o‘z umrini xalq hayotini yaxshilash, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga bag‘ishlagan jadidlarimiz ruhini shod etib, ular qoldirgan barcha adabiy meroslarni ilmiy o‘rganish, xolis baho berish adabiyotshunoslar oldidagi asosiy vazifalardan biridir.

Asosiy qism. Qo‘qon adabiy muhiti vakili, o‘zining betakror iste’dodi, xalqparvarligi va yuksak matonati bilan o‘zbek adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan fidokor pedagog, notiq, otashqalb shoir, talabchan rejissor va dramaturg, istedodli aktyor Hamza Hakimzoda Niyoziy adabiyot olamiga yangicha qarash, novatorlik bilan kirib keldi. Uning shoir, dramaturg, publitsist sifatida yaratgan ijodi, dramalari, maqolalari ifodaga boyligi, jo‘shqinligi, shiddatkor va da’vatkorligi bilan kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan. O‘z davrining

ma’lum va mashhur insonlari Hamza ijodiga yuqori baho berishgan. Darhaqiqat, ijodkor qisqa hayot yo‘lida asrga yetgulik, ma’rifatparvarlikka, uyg‘oqlikka chorlovchi bir qator asarlar yaratib adabiyotimiz rivojiga munosib hissa qo‘shdi.

Hamza asarlari hayotiyligi, isyonkorligi ayni paytda sodda va ravonligi bilan kitobsevarlar qalbidan chuqur joy olgan. Hamzaning hayoti va ijodi ko‘p marotaba o‘rganilgan, ayniqsa, sho‘ro davrida uning ijod yo‘li atroflicha tahlil va talqin qilingan. “O‘zbek adabiy tanqidi tarixi” kitobida aytilishicha, Sotti Husayn 1940-yilda “Hamza Hakimzoda Niyoziy” asarini yozib hamzashunoslikni boshlab berdi” [1: 97]. XX asrning 50-yillari ikkinchi yarmidan boshlab adabiyotshunos olim L.Qayumov “deyarli butun umrini, ilmiy-ijodiy faoliyatini Hamza hayoti va ijodini o‘rganishga bag‘ishladi” [1:121]. Hamzashunoslikda bunday tadqiqotlar yetarlicha yaratilgan bo‘lib, ularda Hamza ijodining turli qirralari tadqiq etilgan. Bularga sabab esa, Hamzaning uyg‘oq qalbligi-yu, o‘z xalqiga bo‘lgan buyuk muhabbati edi. U hamisha rivojlanishning eng yaxshi yo‘li deb, ma’rifatni tushundi. Shuning uchun ham xalqni savodli qilish uchun amaliy ishlarga bel bo‘g‘ladi.

Hamza ijodiy faoliyatining boshiyoq ma’rifatparvarlik bo‘lgan, diqqatga sazovor joyi shundaki, u yillar davomida o‘qish-o‘rganish nima ekanligini bilmay, umri faqat uy ishlari-yu tashvishlari bilan o‘tib borayotgan o‘zbek ayollarining ham erkaklar bilan teng huquqli bo‘lishlari uchun kurashdi.

Muncha uyqu bosdi sizi onalar,
Fikr etingiz o‘ylab u peshonalar.
Ilm-maorif bila begonalar,
Bo‘ldingiz olama siz afsonalar.

Dod ulomolarning sha’ridan,
Qo‘shdi u sharbatga ilon zahridan.
Qildi falak millati bechorani,
Qo‘rqmadimi tongla xudo qahridan.

Siz edingiz millati chin rahbari,
Turmushi insonni butun sarvari.
Koni hidoyat biza siz edingiz,
Tarbiya dunyosini payg‘ambari.
Xonimalar tarjima holni o‘qib.
Shoyat o‘zingiz uyalab qolsangiz [4: 36].

O‘zbek ayolining tobelik va joriyalikdan olib chiqish, ularni hayotga faol aralashtirish, ongini o‘stirish, ma’rifatga chorlash hislari kuchli ekanini yana bir she’rida shunday ko‘rsatadi:

Sizdan umid, endi oyim achalar,
Tashlab uzuk, baldog‘u tillochalar.
Ilm o‘qing, bir kuni shoyad bo‘ling,
Murda badanlarga masihochalar.
Yuz o‘giring qurchoqu, to‘p toshdan ,
Mayli beshik to‘yi bilan oshdan.
Bobolarning yaxshi masal so‘zi bor,
Har na o‘lar o‘lcha kichik boshdan.

Oh, qani yurt qizlari saf-saf bo‘lib,
Maktabga ketsa edi, ko‘cha to‘lib.
Yurganini ko‘rsa edi bu ko‘zim,
Qolmag‘ay armon edi, ketsam o‘lib [4: 36].

Ko‘rinadiki, Hamza hamisha ayol-qizlarni o‘qimishli, savodli bo‘lishini chin dilidan istagan. Oxirgi misraning ikki qatorida shoir o‘z maqsadini yorqin bayon etgan. Ijodkor she’rning ta’sir doirasini oshirish maqsadida irsoli masal (Har na o‘lar o‘lcha kichik boshdan), talmeh (Murda badanlarga masihochalar) kabi she’riy san’atidan mohirona foydalangan.

Irsoli masal- she’riyatda xalq og‘zaki ijodida mashhur bo‘lib ketgan biror maqol, matal, ibora yoxud hikmatli so‘z keltirib, nutq ta’sirchanligini oshirish usuli (ar. irsol-keltirish, maqol kiritish deyiladi).

Eski o‘zbek tilida maqol, matal va iboralar masal yoki zarbulmasal deb nomlangan.

“Shoirning “irsoli masal” san’ati qo‘llashdan maqsadi o‘z fikrini maqol, matal, ibora yo hikmatli so‘z orqali quvvatlab olish, o‘quvchi ishonchini kuchaytirish va ifoda ta’sirchanligini oshirishdir”.

Ijodkor o‘zi yaratgan barcha asarlarida o‘zbek ayolining ziyoli bo‘lishiga undagan bo‘lsa, amaliy harakatlar bilan ularni maktab tomon borishlariga undadi. Ushbu maqsadda 1910-1911- yillarda Hamza o‘zbek qizlari uchun yangi usuldagi maktab ochish harakatida bo‘ldi, biroq sho‘ro hukumati uning muallimlik faoliyatini keskin ta’qiqlab qo‘yishi, shu bilan birga, o‘zbek xotin-qizlaridan zamonaviy uslubda dars bera oluvchi muallima yo‘qligi bois Hamza o‘z ezgu niyatini amalga oshira olmaydi. “Respublikamizning eng birinchi muallimlaridan biri qo‘qonlik R.Roziqova shunday xotirlaydi: “Hamzaxon o‘qituvchi xotin-qizlarni yig‘ib ko‘p gapirar edi. “O‘qituvchilikdan chiqib ketmanglar, yaxshi ishlanglar, keyinroq oyliklaring ham oshadi, bo‘sh turmay, o‘z bilimlaringni oshiringlar” deb nasihatlar qilar edi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi Mukarram opa Qodirova ham ulug‘ shoir bilan birgalikda o‘zbek xotin-qizlari orasida ma’rifat tarqatgan, uning hammaslagi va shogirdlaridandir” [4: 94].

Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, Hamza dars beruvchi ustozlar bilan samimiy munosabatda bo‘lish bilan birga, ularni hamisha o‘z ustilarida ishlashlarini, o‘qib-o‘rganishlarini talab qilgan. Chunki o‘qimay turib o‘qitib bo‘lmasligi kunday ravshan.

Hamzaning “Xotin –qizlar ovozi” she’rida quyidagi misralar mavjud:

Tor qafasda zerikdik, ezilib haqsiz yotgani,
Qo‘lni torting otalar, qizni moldek sotgani,

Daf qil bu tilagingni, ishing chappa bo‘ladi,
O‘yin emas xotin-qiz paranjisin otgani,
Zamon qo‘ymas er ishlab, xotin kavshab yotgani,
O‘ynashma zamon bilan, ta’bing xira bo‘ladi,
Shuncha zamon senlarga cho‘ri bo‘ldik boyvachcha,
Endi bizga kerakmas darchasi yo‘q uylarcha,
Tutamlama soqoling, sallang kafan bo‘ladi,
Bas, shuncha yil qizg‘onding bizga ilm ila fanni,
Ol, o‘zing yop bugundan bizga ilgan kafanni,
Ming ding etar qulog‘ing, sholing arpa bo‘ladi. [4: 46].

Uchlik ya’ni “Musallas” usulida yozilgan bu she’r ayol-qizlar tilidan bayon qilingan bo‘lib, bu o‘sha davrda xotin-qizlarga bo‘lgan past munosabatni yorqin ifodalaydi, ularning faqat cho‘rilikka, qullikka mahkum etilgani, erki, ozodligi, orzu-umid qilishga-da haqlari yo‘qligi ko‘rsatib o‘tiladi. Inson qaysi jins vakili bo‘lishidan qat’iy nazar, u bilim olishga, baxtli hayot kechirishga, go‘zalliklardan bahramand bo‘lishga to‘la xaqlidir. O‘z haq-huquqini bilmaslik kimgadir mute’ bo‘lib yashashga olib kelaveradi. O‘qish-o‘rganish, ilm egalash, hayotga aql ko‘zi bilan qarashgina bunday tutqun hayotdan olib chiqadi.

Shoirning “Tursunoy marsiyasi” she’ri misolida ham erksiz xotin-qizlar kechinmasi aks etgan:

“Qurimasdan dorga yoygan ko‘ylagim,
Yozmay shimarilgan nozik bilagim.
Vafosiz yor ekan qonimni to‘kdi,
Shul erdimi, do‘stlar, sevgan tilagim.

Ortiq bino qo‘ydim, yor deb o‘zimga,
Kulgich erkim uyqu bermay ko‘zimga.
Nomard ekan, chaldi bog‘lab qo‘llarim,
Qiyo boqmay ko‘z yosh tomgan yuzimga.

Menga motam tutib qora bog‘lamang,
Teng-u tushim, nozik bag‘rin dog‘lamang.
Tursunoydek yovuq seving, singillar,
To‘kis bilim ko‘rmay chog‘lamang [1: 208].

Tursunoy tilidan aytilgan bu g‘amli she’rda ayol-qizlarning achchiq taqdiri haqida so‘z boradi, bularning barisini sababi hayotda oq-u qorani tanimay, yaxshi-yomonni ajratmay, o‘z haq-huquqlarini to‘la anglamay, ilmdan, ma’rifatdan bebahra holatda oila qurish va uning ayanchli natijasi ko‘rsatib o‘tiladiki, bu o‘z vatani taqdiriga befarq qarab tura olmaydigan fidoiy Hamzani o‘yga toldiradi.

Shu tariqa “O‘zbek xotin-qizlariga” she’ri yoziladi.

Keldi ochilur chog‘ing, o‘zliging namoyon qil,
Parchalab kishanlarni har tomon parishon qil.
Maktab anjuman borg‘il, unda fikr ochib gohi,
Ilm-u fan tig‘i birlan jahl bag‘ringni qon qil.

Soyalarda sarg‘aygan yuzlaring qilib gulgun,
Sen ham ahli donishlar bazmini guliston qil.

Cho‘rilikni mullalar senga qildilar takrir,
Kel bugun bu zahmingga ma’rifatni darmon qil [4: 187].

Deya shoir xotin-qizlarni turli xil ko‘rinishdagi to‘siqlarni yo‘q qilib maktabga borishlarini, ilm-fan o‘rganib, jaholatdan chiqishlariga undaydi.

O‘zining go‘zal she’riyati, ibratli hayot yo‘li bilan barcha kitobsevarlar qalbidan joy olgan shoira Zulfiyaxonim 1952-yil Hamza xotirasiga bag‘ishlab “O‘zbek qizi ovozi” nomli ash’or bitadi. Quyidagi she’rda Zulfiyaxonim shoirning o‘zbek ayolining erki, ozodligi, baxti yo‘lida bajargan ishlarini madh etdi. Xotin-qizlar nomidan ma’rifatparvar Hamzaga minnatdorchilik izhor etdi. She’r quyidagi so‘zlar bilan boshlanadi.

Men o‘zbek qiziman, hurman, ozodman,
Eshitsin ovozim sevimli shoir,
Bizni ozod ko‘rmoq, hur, ongli ko‘rmoq
Buyuk orzu edi shoirga doim.

Bundan ko‘rinadiki, Zulfiya Hamza va uning ijodiga yuksak baho bergan.

Shoir ijodi nafaqat o‘zbek ijodkorlari, balki chet el qalam sohiblarining ham olqishiga sazovor bo‘lgan. Buni rus shoirasi hamda tarjimoni bo‘lgan Lidya Bat tomonidan yozilgan “Shoir va dutor” she’ridan ham bilishimiz mumkin. Bu she’r esa yuqoridagi Zulfiyaxonim yozgan fikrlarning tadrijiy davomi.

Xulosa qilib aytganda, o‘tgan davr va uning asosiy voqea-hodisalari, evrilishlari, yutuqlari, g‘olibona odimlari va qismatlari, fidokor va bunyodkor kishilari va asl qahramonlari yangi asarlar yaralishi uchun asos va manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.“Hamza” saylanma, –Toshkent, 1979-yil. 208-b.
2.“Qo‘qon adabiy muhiti va uchunchi Renesans” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Farg‘ona, 2022-yil. 197-b.
3.Internet: azon.uz
4.Laziz Qayumov. Hamza. – Toshkent, 1989-yil. 314 b.
5.Laziz Qayumov. Zulfiya. – Toshkent, 1975-yil. – B. 84.
6.Safo Matchonov, Sh. Sariyev. Adabiyot. – Toshkent, 2012-yil. – B. 82.

Sarvinoz OMONOVA,
Professional ta'limni rivojlantirish instituti tayanch doktoranti

BO'LAJAK DIZAYNERLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA XORIJIY TILLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: maqolada xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini oliy ta'lim muassasalarida kostyum dizayni yo'nalishi talabalariga o'qitishning ahamiyati va ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida kommunikativ kompetensiyaning o'rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *dizayn, xorijiy tilni o'qitish, kommunikativ kompetensiya, kasbiy kompetensiya.*

Аннотация: в статье рассматривается важность обучения иностранным языкам, особенно английскому, студентов-художников в вузах и роль коммуникативной компетентности в их будущей профессиональной деятельности.

Ключевые слова: *дизайн, обучение иностранному языку, коммуникативная компетенция, профессиональная компетенция.*

Annotation: the article discusses the importance of teaching foreign languages, especially English, to design students in universities and the role of communicative competence in their future professional activities.

Key words: *design, foreign language teaching, communicative competence, professional competence.*

Bugungi globallashgan dunyoda xorijiy tillarni bilishning ahamiyatini juda katta, ayniqsa ingliz tilining universal, dunyo bo'ylab savdo yoki diplomatik til sifatida keng qo'llanilishini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Avvalo, ingliz tilini o'rganish bo'lajak mutaxassisning turli kompaniyalarda, xususan global marketing tarmog'iga ega bo'lgan va butun dunyo bo'ylab mijozlar va xaridorlar bilan muloqot qila oladigan xodimlarga muhtoj kompaniyalarda yuqoriroq martaba va yaxshi ish sharoitiga ega bo'lishiga yordam beradi. Dizayn yo'nalishi talabasi sifatida ingliz tilini o'rganish juda muhim, chunki dizaynerlar kelajakda yaxshi muloqot qila olish qobiliyati(ya'ni kommunikativ kompetensiya)ga ega bo'lishi zarurdir. Buning asosi sifatida 60210400 – Dizayn (kostyum) bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablarini ko'rsatishimiz mumkin. Unga ko'ra ushbu ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari quyidagilar:

ilmiy-tadqiqot;
tashkiliy-boshqaruv;
loyihaviy-konstruktorlik;
axborot-tahliliy faoliyat.

60210400 – Dizayn (kostyum) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi qator kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim. Ularning ichidan e'tibor berishimiz kerak bo'lganlari bo'lajak mutaxassis o'zining ilmiy-tadqiqot faoliyatida quyidagilarni bajara olishi lozim:

Respublika va xorijda chop etilgan to'qimachilik va yengil sanoati texnologiyalariga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

Moda va dizayn, tikuvchilik sanoati sohasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

Mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

Ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish. [1]

Moda va dizayn olamida asosiy manbalar – internet resurslari, kitob va jurnallar asosan ingliz tilida. Nafaqat kasbiy faoliyatda, balki o'quv jarayonlarida talabalar moda tendensiyalari, marketing tadqiqotlarini olib borishlarida ingliz tilidan foydalansalar boshqa tillarga nisbatan foydali, mavzu(topshiriq)ga oid ma'lumot topishlari ehtimoli yuqori bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, ingliz tilini biladigan mutaxassis faoliyati ingliz tilini bilmaydigan mutaxassis faoliyatidan ancha samarali bo'ladi. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan yangiliklari asosan ingliz tilida nashr etiladi.

Malaka talablarida Dizayn (kostyum) yo'nalishi bo'yicha bakalavrlardan umumiy va kasbiy kompetensiyalar talab etilishi ko'rsatib o'tilgan. Umumiy kompetensiyalarning uchinchi bandida:

“- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish” kompetensiyasi keltirilgan [1].

Ingliz tilini bilish nafaqat ma’lumotlar olish balki sohaga oid foydali tanishlar orttirish, ya’ni “networking”ni yo‘lga qo‘yishda yordam beradi. Dizayn olamida eng kuchli ta’sirga ega narsa bu muloqotdir. Muvaffaqiyatli dizayner uchun kommunikativ kompetensiya juda zarur. Yaxshi yo‘lga qo‘yilgan networking dizaynerga mahsulotini hamkorlariga, mijozlariga, xodimlari/boshliqlari bilan suhbatlashish va targ‘ib qilishda yordam beradi, dizayner o‘zi ishlab chiqargan mahsulotini sotish uchun mijozlar nigohida jozibador bo‘lishi kerak, ayniqsa global marketingda dizayner ingliz tilini yaxshi bilmasa, u muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Hozirgi kunda xalqaro andozalarga mos mutaxassisni tayyorlash oliy ta’lim muassasasi oldidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Dizayner kelajakda nafaqat mamlakat ichki bozori uchun, balki tashqi bozor uchun ishlashi, o‘zbek milliy yengil sanoat mahsulotlarini dunyoga taratishda asosiy bo‘g‘in bo‘lib xizmat qilishi kerak.Bu esa o‘z-o‘zidan mutaxassisning til bilish qobiliyatiga borib taqaladi, shuning uchun oliy ta’lim muassasasida ingliz tilini jiddiy o‘rganish juda muhimdir.

Xalqaro ko‘rgazmalarda qatnashish va xalqaro dizaynerlar bilan aloqa o‘rnatishning ham asosiy shartlaridan biri bu til baryerlarini yengib o‘tish hisoblanadi. Xalqaro ko‘rgazmalarda tashkilotchilardan tashqari, potensial mijozlar bilan ham o‘z mahsulotlari haqida muloqot o‘rnata olishlarida ingliz tili ko‘prik vazifasini o‘taydi. Dizaynerlar o‘z brendlari, mahsulotlarini dunyo bo‘ylab reklama qilish, uni targ‘ib qilish, brend qadriyatlarini mijozlar auditoriyasi to‘g‘ri yetkazish uchun hech bo‘lmaganda sohaga oid atamalarni bilishi kerak.

Oliy ta’lim muassasida bo‘lajak dizaynerlarda marketing kompetensiyalarini rivojlantirish asosan “Fashion menejment va marketing”, “Loyihalash” fanlari doirasida amalga oshiriladi. Talabalar ushbu fanda dunyo moda olami, brendingda taalluqli atamalar bilan ishlaydilar, tadqiqotlari davomida asosan xorijiy tillardagi materiallar bilan ishlashga to‘g‘ri keladi.Bu esa o‘z-o‘zidan talabadan ingliz tilini bilishi, o‘qituvchidan esa faniga oid xorijiy tildan o‘zbek tiliga kirib kelgan asosiy atamalar tahlilini talabalarga to‘liq tushuntirishini talab etadi.

Aksariyat tadqiqotchilar fikriga ko‘ra til bilish ko‘nikmalari umumiy kompetensiyalar ichida yotadi, L.A.Zaritskayaning fikriga ko‘ra esa, ingliz tilini o‘rganish dizaynerning nafaqat umumiy kompetensiyalar balki kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ham yordam beradi.

“O‘quv jarayonida haqiqiy, professional, badiiy va estetik jihatdan boy ma’lumotlardan foydalanish bo‘lajak dizaynerlarning kasbiy, kognitiv faolligini oshirishni ta’minlaydi, ularning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi, kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun ijobiy motivatsiyani yaratishga yordam beradi, kasbiy muammolarni hal qilishga hissa qo‘shadi” [2].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ularning kasbiy kompetensiyalari rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.Fanga oid o‘quv materiallarini tayyorlashda glossariyga alohida e’tibor qaratish, kerak bo‘lsa alohida illyustrativ-lug‘atlarning ishlab chiqilishi muammoni bartaraf etishda xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 7-avgustdagi 344-sonli buyrug‘i 64210400 – Dizayn (kostyum) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari. – Toshkent, 2023.

2. Зарицкая Л.А. Профессионально_лингвистическое развитие будущего дизайнера средствами иностранного языка ВЕСТНИК ОГУ №2 (121)/февраль 2011.

Nafisa XUDOYOROVA,
Navoiy davlat universiteti
tayanch doktoranti
nafisa.xudoyorova@mail.ru

INGLIZ MA'RIFATCHILIGI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqola ingliz adabiyotida ,,ma'rifatparvarlik'' qarashlarining gnezisi shakllanish omillarini tahlil qilish bilan bir qatorda ingliz ma'rifatchilik davrining asosiy xususiyatlari, muhim omillari hamda o'ziga xos tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aks ettiradi.

Kalit so'zlar: *antik adabiyot, ratsionalizm, ilmiy inqilob, epistolyar roman, empirizm, shonli inqilob.*

Аннотация: в статье анализируются факторы формирования «просветительских» взглядов в английской литературе, а также отражаются основные особенности, важные факторы и уникальные этапы исторического развития периода английского Просвещения.

Ключевые слова:*античная литература, рационализм, научная революция, эпистолярный роман, эмпиризм, славная революция.*

Annotation: the article analyzes the factors of formation of the genesis of the "enlightenment" views in English literature, as well as reflects the main features, important factors and unique stages of historical development of the period of the English Enlightenment.

Key words: *ancient literature, rationalism, scientific revolution, epistolary novel, empiricism, glorious revolution.*

Kirish. Tarixiy nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, Angliyadagi uyg'onish davridan boshlangan feodal tartiblar bilan yangi ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlar o'rtasidagi ziddiyat XVIII asrga kelib o'zining yuqori nuqtasiga chiqdi. Ma'rifaparvarlar qarshisida turgan eng muhim vazifa eski tartiblarni bartaraf etish, yangi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni joriy etish edi. Shuning uchun ham XVIII asrda inson aqli va "sog'lom aql" tushunchasi shu qadar muhim rol o'ynadiki, shu sababdan ham bu davrni ko'pincha "aql davri" deb ham atashgan.

Asosiy qism. Ma'rifatchilik Yevropada mafkura sifatida tub o'zgarishlarga olib keldi va Yevropada "yangi davr"ni boshlab berdi. Ma'rifatchilik XVII-XVIII asrlarda G'arb jamiyatida "aqliy fikr"ni eski, an'anaviy, o'zgarmas taxminlar, noto'g'ri qarashlar va mafkuralardan ozod qilish hamda yangi bilimlarni qabul qilishga qaratilgan intellektual taraqqiyotni qamrab oldi.

Ma'rifatparvarlik davri bilan Yevropa yangi ijtimoiy, siyosiy, ilmiy va madaniy tushuncha va turmush tarzini rivojlantirdi. Bu taraqqiyot Angliyada boshlanib, keyin Fransiya va Germaniyada davom etdi.

Ma'rifatchilik davrida xurofotga asoslangan diniy tafakkur asta-sekin tanazzulga yuz tuta boshladi. Bu jarayonda din yoki xudoga yo'naltirilgan qoidalar ongga yo'naltirilgan ijtimoiy tartiblarni izlash bilan almashtirildi. Keng va umumiy ma'noda ma'rifat – o'rta asrlarda hukmron bo'lgan dunyoqarashga qarshi yangi dunyoqarash sifatida paydo bo'ldi. Bunga ko'ra ma'rifatchilik falsafasi va adabiyotida aql va ilm taraqqiyoti bilan yoritilgan mutlaq haqiqatlarga asoslangan intellektual madaniyat ustun bo'lishi va bu madaniyatning cheksiz taraqqiyotga erishish asosiy maqsad qilib belgilandi.

Ma'rifatning maqsadi inson aqlni yo'lboshchi qilib, har sohada taraqqiyotga erishish edi. Demak, ma'rifatchilik falsafasi va adabiyotida inson moddiy va ma'naviy qullikdandan qutulib, uzluksiz baxt va erkinlikka erishishi kerak,- degan g'oya ustuvor edi.

Ingliz ma'rifatchilik adabiyoti XVIII asrlarda shakllangan bo'lsa-da, uning tarixiy ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Ingliz ma'rifatchiligining gnezisiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mazkur davr adabiyotining tub mohiyati, uning kelib chiqish davri qadimgi antik davr adabiyotiga borib taqaladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, "Antik adabiyot" tushunchasi Yevropadagi ikki quldorlik jamiyati- Yunon va Rimda yaratilgan badiiy ijod namunalariga nisbatan tatbiq etiladi" . Ingliz ma'rifatchilik adabiyoti antik davr adabiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ma'rifatchilik davrining asosiy g'oyalari, shakllanishi va janrlari qadimgi yunon va rim adabiyoti an'analaridan ilhomlangan. Jumladan, Platon va Aristotel kabi yunon faylasuflarining asarlari ma'rifatchilik davrining falsafiy asoslarini yaratdi. Ayniqsa, Aristotelning mantiqiy fikrlash, ritorika va san'at nazariyasi bo'yicha qarashlari ingliz ma'rifatchilik adabiyoti namoyondalariga ta'sir qilgan (Shu fikrni asoslash kerak. Asoslanmagan fikrda ilmiylik bo'lmaydi). Bundan tashqari, Seneka va Sitseron kabi rim faylasuflarining axloq, adolat va erkinlik haqidagi asarlari ingliz ma'rifatchilik yozuvchilarining g'oyalarini shakllantirishda muhim asos bo'lgan. Masalan, Jon Lokk va boshqa ma'rifatchilar o'z ijod namunalarida antik davr axloqiy me'yorlariga tayangan. Shuningdek, Antik davr epik asarlari, masalan, Gomerning "Iliada" va "Odisseya" yoki Virgilning "Eneida" kabi asarlari Aleksandr Pop singari ingliz ma'rifatchilik shoirlari uchun ilhom manbayi bo'lgan. Popning "Lokning o'g'irlanishi" asari Virgilning uslubiy an'analari ta'sirida yaratilgan. Bundan tashqari, Antik davr satirik

yozuvchilari, jumladan, Yuvinal va Horatsiyning ijodi ingliz ma'rifatchilik davri ijodkorlarining satirik asarlari uchun adabiy manba bo'lib xizmat qilgan. Jumladan, mashhur ingliz yozuvchisi Jonatan Sviftning "Kamtarona taklif " asarida antik adabiyot vakili Yuvinalning tanqidiy uslubi yaqqol namoyon bo'ladi.

Natijalar va muhokama. Ma'rifatchilik oqimi XVII-XVIII asrlarda Yevropada g'oyalar olamida hukmronlik qilgan intellektual va falsafiy harakat bo'lib, mazkur oqim o'z ichiga aql hukmronligi, erkinlik, taraqqiyot, bag'rikenglik, cherkov va davlatni ajratish kabi ilg'or g'oyalarni qamrab oldi. Ingliz adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan ma'rifatchilik davri adabiyotining asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Ratsionalizm va Empirizm: ma'rifatchilik davrida ratsionalizm (aqlga asoslangan bilim) va empirizm (tajriba orqali olingan bilim) g'oyalari rivojlandi. Jon Lokk va David Hyum kabi mashhur yozuvchilar bu g'oyalarni taraqqiy etishiga o'z hissalarini qo'shdilar.

2. Adabiy tur va janrlardagi o'zgarishlar: adabiyotda yangi janrlarning paydo bo'lishi ma'lum ma'noda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va muammolar bilan bog'liq. Shu ma'noda ingliz adabiyotida ham yangi janrlar – roman va esse kabilar shakllandi. Daniel Defo, Jonatan Svift va Samuel Richardson kabi yozuvchilar o'z asarlari bilan ma'rifatchilik g'oyalarini tarqatdilar. Roman, va esse kabi yangi adabiy janrlari orqali bu davr yozuvchilari shaxsiy tajribalarini va ijtimoiy muammolarni tasvirlashga intildilar.

3. San'at va Estetika: ma'rifatchilik san'atda ham yangi yo'nalishlarni keltirib chiqardi. Klassik uslublarga e'tibor qaratildi. Buni biz ko'plab haykaltaroshlik va rassomchilikda aks ettirilganini ko'rishimiz mumkin.

4. Ta'lim va tarbiya: ingliz ma'rifatchiligida ta'limga bo'lgan qiziqish ortdi. Jumladan, ma'rifatchilik davrida ko'plab yangi maktablar va universitetlar ochildi, bu esa bilim tarqatishni kengaytirdi.

5. Ommaviy Axborot Vositalari: gazetalar va jurnallar paydo bo'lishi, fikr almashish va muhokama qilish imkoniyatlarini oshirdi. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy va siyosiy masalalar haqida kengroq muhokamalarni olib keldi.

6. Ijtimoiy va siyosiy mavzular: jamiyat, erkinlik, tenglik va inson huquqlari kabi mavzular muhokama qilinib inson huquqlari, erkinlik va tenglik g'oyalari ingliz ma'rifatchilik adabiyotida muhim mavzular sifatida ko'tarildi. Bu g'oyalar, ayniqsa, Amerika va Fransiya inqiloblarida muhim rol o'ynadi.

7. Tadqiqot va ilm-fan: ma'rifatchilik davrida ilm-fan va tadqiqotga katta e'tibor berildi. Yozuvchilar va olimlar yangi g'oyalarni tarqatish va bilimlarni oshirishga intildilar.

Ko'rinib turibdiki, yuqorida ta'kidlangan xususiyatlar ingliz ma'rifatchilik adabiyoti, shuningdek, insoniyatning intellektual rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. U zamonaviy g'oyalar va adabiy janrlarning rivojlanishiga ham zamin yaratdi.

Bu davrda adabiyot ilm-fan, falsafa va ijtimoiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insoniyatning aqlga asoslangan yondashuviga e'tibor qaratildi. Ingliz ma'rifatchilik davri adabiyotining shakllanishida asosiy xususiyatlar bilan bir qatorda, unga ta'sir qilgan omillar ham muhim rol o'ynagan. Bu omillarga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

1. Ilmiy inqilob: XVII asrda yuzaga kelgan ilmiy inqilob natijasida yangi ilmiy g'oyalarning rivojlanishi ma'rifatchilik davrining asosiy omillaridan biri bo'ldi. Galileo, Nyuton va Dekart kabi olimlar yangi bilimlarni kashf etdilar.

2. Falsafiy g'oyalar: Jon Lok, Voltaire va Rousseau kabi faylasuflar inson aqliga va erkin fikrlashga katta e'tibor qaratdilar. Ularning g'oyalari adabiyotga ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, Jon Lokk o'z qarashlarida inson tabiatini va erkin fikrlashni ta'kidlagan. U "tabiatda insonlar teng" degan g'oyani ilgari surdi. Ta'lim va tajriba orqali bilim olishni muhim deb hisoblagan. U ta'lim- tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratdi. Shu xususda, ma'rifatchilik davriga katta hissa qo'shib ingliz faylasufining(1632-1704) "Aql borasidagi tajriba" (1693) asari keyingi qariyb bir asr davomida ma'rifatchi yozuvchilarning inson, inson tabiati va insonni tarbiyalash haqidagi fikrlarining shakllanishida alohida o'rin tutadi. "Lokkning fikricha, tarbiyaning bosh vazifasi - insonni jamiyatdagi ongli amaliy faoliyatga tayyorlash bo'lgan".

3. Siyosiy o'zgarishlar: Amerika va Fransiya inqiloblari, shuningdek, jamiyatda erkinlik va tenglik g'oyalarining tarqalishi adabiyotda yangi mavzularni keltirib chiqardi. Xususan, Mary Wollstonecraft o'z ijodida ayol huquqlari va ta'limi masalasida faol bo'lgan. "Ayollar huquqlari uchun da'vo" asarida erkinlik va tenglik g'oyalari, shuningdek, ayollarning ta'lim olish huquqini ta'kidlagan.

Xulosa.Ingliz ma'rifatparvarlik adabiyoti jamiyatni shakllantirishda, ta'lim, madaniy o'zlikni anglashda va ilg'or ijtimoiy islohotlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan. Ushbu davrdagi ingliz ma'rifatchilik adabiyoti xususida quyidagi ilmiy xulosalarga kelish mumkin:

1.Ingliz ma'rifatchilik davri adabiyotining tub mohiyati, uning kelib chiqish davri qadimgi antik davr adabiyotiga borib taqaladi. Mazkur davr adabiyoti antik davr adabiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ma'rifatchilik davrining asosiy g'oyalari, shakllanishi va janrlari qadimgi yunon va rim adabiyoti an'analaridan oziqlandi.

2.Ma'rifatchilar insonning bilish qobiliyatini, aqlni yuksak qadrlaganlar. Mazkur davr ma'rifatparvarlarining fikricha, ilm-fan va ma'rifat orqali jamiyatni isloh qilish va insonni komil qilib tarbiyalash

mumkin.

3. Ma’rifatparvarlar adolat va inson huquqlarini targ‘ib qilish orqali jamiyatda barcha insonlar teng huquqli degan g‘oyani ilgari surdilar. Shu bois, ular jamiyatdagi adolatsizlik, ijtimoiy tengsizlik va qoloqlikka qarshi chiqishgan.

4. Ma’rifatchilik harakatining vakillari jamiyatni yaxshilashning asosiy omilini “jamiyat guli” bo‘lgan insonlarning xulq - atvorida, tafakkurida, umuman, ma’naviy barkamolligida deb bildilar. Ma’naviy barkamollik asosini esa ilm-ma’rifat ekanligini alohida ta’kidladilar. Shuning uchun ingliz ma’rifatchilik adabiyotida, boshqa adabiyotlarda bo‘lganidek, axloqiy pand-nasihatlar, ma’rifat va tarbiyaviy g‘oyalarga alohida e’tibor berdilar. Ma’rifatchilik davri vakillari kelajakka ishonch bilan qaragan, jamiyat taraqqiyotiga va uni yaxshilash mumkinligiga ishonganlar. Ingliz ma’rifatchilik adabiyotida satirik va yumoristik asarlar orqali ijtimoiy muammolar va siyosiy muhit tanqid ostiga olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Овсянникова М.Ф. Эстетика в прошлом, настоящем и будущем. –М.: Просвещение. 1988. С.69

2. Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. 162-б.

3. Саидов У. Европа маърифатчилиги ва миллий уйғониш –Тошкент: ,,Академия” нашриёти, 2004. 18-б.

4. Normatova Sh. Jahon adabiyoti Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. –Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.

5. Qosimov A. Chet el adabiyoti tarixi. – Farg‘ona: 2016.

Madinaxon G‘OFUROVA,
Farg‘ona davlat universiteti
2-bosqich magistranti
madinagofurova9@gmail.com

NABI JALOLIDDINNING “CHUVALCHANG YOQQAN KECHA” HIKOYASIDA O‘G‘IL OBRAZI

Annotatsiya: ushbu maqolada Nabi Jaloliddinning “Chuvalchang yoqqan kecha” hikoyasidagi o‘g‘il obrazi tahlilga tortilgan. Bunda uning asl xarakteri va iqrordan keyingi qahramon sifatidagi talqini qalamga olingan.

Kalit so‘zlar : *xarakter, qahramon, peyzaj, mahorat, detal, kechinma, uslub, xarakter.*

Аннотация: в данной статье анализируется образ малъчика Наби Жалалуддина в рассказе «Ночь, когда сгорел червь» В этом запечатлен его оригинальный характер и его интерпретация как героя после исповеди.

Ключевые слова*: персонаж, герой, пейзаж, мастерство, деталь, опыт, стыл, характер*.

Annotation: this articl analyzes the image of the boy in Nabi Jalaluddin’s story The Night That was Eaten by a Worm. His true character and interpretation as a hero after the confession are taken into account.

Key words: *character, hero, landscape, skill, detall, experience, style, character.*

Adabiyot, xususan, adabiy jarayonda yaratilayotgan asarlarning janrlararo takomillashuvi, uslubiy yangilanishlar, mavzu ko‘lamining kengayib, o‘qirmanlar soni ortib borayotgani har bir adabiyotga oshno qalbni befarq qoldirmaydi. Bu yuksalishlar esa albatta ijodkorning ijodiy mahoratiga borib taqaladi.

Yozuvchi hayot haqiqatini, o‘z oldiga qo‘ygan maqsad-muddaosi, badiiy niyati, asar g‘oyasini obrazlar orqali tasvirlar ekan, unda asosiy qahramon xarakterini poetik talqin qilishning turli vositalaridan foydalanadi. Negaki, yozuvchining xarakter yaratish san’ati, asosiy qahramon obrazining asar badiiy strukturasidagi o‘rni va asar poetikasi muammolarini yoritish sohaning izchil rivojini ta’minlaydigan asosiy omillardan biridir.

Badiiy asar insonni ham ruhan, ham ma’nan kamolotga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga badiiy asar qahramoni ham asar davomida yo kamolotga yo razolatga yuz tutadi. Aynan ushbu holat qahramon yangilanishiga, rivojlanishiga va bir-biridan farqlanishiga zamin yaratadi.

Nabi Jaloliddinning “Chuvalchang yoqqan kecha” hikoyasida aynan qahramonning iqrori orqali evrilishi adabiyotimizga yangi xarakter kirib kelganligini dalillaydi.

Bundan tashqari, Nabi Jaloliddinning “Chuvalchang yoqqan kecha” hikoyasida ham bevosita peyzaj bilan uyg‘unlashib, ramziylik kasb etuvchi voqea-hodisalar talaygina. Ushbu hikoya quyidagicha boshlanadi:

“Eshikdan kirdi-yu, harakatlaridan o‘zini hushyor ko‘rsatishga urinayotgani sezildi.

– Yomg‘ir yog‘adi shekilli. Shamol bo‘lyapti, – dedi yomg‘irdan qochib, panaga o‘tganday yelkalarini siltab. -Yaxshi o‘tiribsizlarmi?

Deraza oynasi basma-bas tiqirlab, tirqishidan shamol ufurganday bo‘ldi.”

Ushbu hikoya ham ko‘rinib turganidek, peyzaj tasviri bilan boshlangan. Butun umr muallimlik qilib, oltmish besh yoshga yetganda kasal bo‘lib qolgan otaning yolg‘iz o‘g‘il farzandi o‘qib, oliygohni tamomlagan bo‘lsa-da, tayinli ishning boshini tutmasdan, dadasi topib qo‘ygan ishlardan ham dangasaligi, ishtiyoqsizligi sabab haydalgan va ayni hikoya qilinayotgan davrda ichkilikka ruju’ qo‘yib, otasini kuydirardi. O‘g‘il uyga qaytishidan avval, anchadan buyon dardi zo‘rayib tuz totmayotgan ota, ko‘rgani kelgan qizlari bilan birga ovqatlanadi, ularni hazil qilib kuldiradi, bir kosa ovqatga qalampirni ezib-ezib ovqatlanadi. Ushbu o‘g‘il yana ichib, uyiga keladi va bemor otasi borligi yodiga tushib, onasidan otasining hol-ahvolini so‘raydi. Onasi esa o‘zi kirib, otasi bilan ozroq suhbatlashishi kerakligini aytadi. O‘g‘il otasining xonasiga kirganda bevosita interyer tasviri odamning diqqatini tortadi: “Dadasi ko‘rpalar qalin to‘shalib, qat-qat bolishlar qo‘yilgan temir karavotda shiftga termilib yotardi. Yonida – pastda choynak, piyola, ikkita kitob ustida ko‘zoynak. Bosh tomonidagi tokchalarda ham kitoblar.”

Interyer tasviridan ma’lum bo‘lganidek, asar bosh qahramoni – ota ziyoli, achchiq-chuchukni totgan, butun umr halol peshona teri bilan ro‘zg‘orini tebratgan inson. Shu boisdan ham biri ikki bo‘lmagan, doim uzug‘ini ulog‘iga yetkazib, kun kechirgan oila boshlig‘i. O‘g‘li esa yon qo‘shnilari bo‘lmish Erkin akaning katta, hashamdor, qubbalar bilan ziynatlangan uyi, uning yashash tarziga havas qilib, o‘z hayotidan ko‘ngli to‘lmagan va shukr qilishni unutgan inson sifatida ko‘z oldimizda gavdalanadi. Dadasi suhbat davomida o‘g‘liga bir ishning boshini tutib, tirikchilikni yo‘lga solish kerakligini aytadi. O‘g‘il esa maktabda “chuldirvaqalarning manqasini artib yurish” dan or qiladi va shu bois yo‘lkiraga pul topishi bilan Rossiyaga ishlash uchun ketishini va bitta mashina olishga yetarli pul ishlab, yurtga qaytib, kirakashlik qilib ro‘zg‘or qilishini aytadi. Ota qat’iy ohangda o‘g‘lini hech qayerga yubormasligini, agar ularga biron nima bo‘lsa mahalla ko‘mib qo‘yishini, lekin o‘g‘ilning sha’niga uyat bo‘lishini aytadi: “Mana, o‘zing anovi yolg‘iz o‘g‘lingni Rossiyaga jo‘natarmiding?” – deydi alamli ohangda.

Bu yerda otaning ham, o‘g‘ilning ham o‘z haqiqati bor. O‘g‘il uchun maktabdagi maosh oz, otasi uchun esa “oylik – bu naqd narsa. Baraka sabrda”. Otasi Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asaridagi quyidagi gaplarni keltiradi: “Har kimning o‘z sayyorasi bor, uni tez-tez supurib-sidirib turish kerak, ya’ni ko‘nglini. Seniyam ko‘ngling kirlagan bolam. Uni tozalashing kerak. Buning uchun kitob o‘qishing, yaxshi narsalarni o‘ylashing kerak”

Ota har bir so‘zini maqol, matal, hikmatli so‘zlar bilan dalillashga, kitoblardan misol keltirib singdirishga tirishardi:

O‘z uying – o‘lan to‘shaging

Uzoqning bug‘doyidan yaqinning somoni yaxshi

O‘z yurtida boy bo‘lmagan, o‘zga yurtda gado bo‘lar

Lekin o‘g‘il bularni tushunmadi, eskilik sarqiti deb qaradi.

Dadasining gaplariga ishonmay: “Hozir zamon boshqa. Hech qachon sizning aytganingiz bo‘lmaydi”- deydi.

So‘ng ota ham qat’iy: “Xullas gap shu: hech qayoqqa ketmaysan! Hajga boraman deb, pul to‘playotgandim. Onangga aytsang beradi. Ashinga yer olib, dehqonchilik qil yoki uch-to‘rtta novvos boq. U yog‘ini o‘zing bilasan. Haj bir gap bo‘lar” – dedi.

Mana haqiqiy o‘zbek otasi. Farzandi uchun har bir musulmonning orzusi bo‘lgan joyga borish kabi istagidan voz kechyapti, shu yerda ham bolasini o‘ylayapti. Bu naqadar psixologik baquvvatlikning, orzuni qo‘pol qilib aytganda, “betayin” o‘g‘il xarxashasiga qurbon qilib yuborish chinakam jasorat talab qiladi!

Suhbat tugar ekan, ota o‘g‘ilga derazani qiya ochib qo‘yishni buyuradi:

– Yomg‘ir boshlayapti, - dedi o‘ziga gapirayotganday. – Chuvalchang yomg‘ir shekilli…”

O‘g‘il bu gaplarni masxaraomuz qabul qildi va tizzasiga shapatilab, kula-kula tashqariga chiqib ketdi. Tashqariga chiqdi. Olam zimiston. Shamol tingan. Tanasining ochiq joylariga yakkam-dukkam tomchilar uriladi. Osmonga qarab, ko‘ksini to‘latib havo simirdi. Keskin chiqargach, yengil tortganday bo‘ldi. Uyga kirib, pishillab uxlayotgan xotinining qornini ohista siladi-da, yuzidan o‘pdi: “Akashti xotini, yana o‘g‘il tuqqin” Mamnun xo‘rsinib, uyquga yotdi…

Shundan so‘ng o‘g‘il tush ko‘radi: “Kattakon daraxtga osilgan halinchakda o‘tirganmish. Dadasi tinmay tebratarmish. Har itarganda halinchak yuqoriga ko‘tarilib, boshi oppoq bulutlarga tegay-tegay dermish. U yuraklari hapqirib kularkan: “Bo‘ldi, dada, niyatingizga yetdingiz-ku deya qichqirarmish…”

Mana endi tush vositasida hikoyaning voqealar

rivoji ramziy detallar orqali o‘z aksini topadi. Birinchidan, tush – ishora, yuz berajak voqea-hodisalarning xabarchisi. Demak, keyingi voqea uchun tush belgi vazifasini o‘tayapti. Kattakon daraxt bu ota-onaning ramzi. Otasining halinchakni tebratishi esa o‘g‘liga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsata olganligi, hayotda o‘z o‘rnini topishga bergan ko‘magi hisoblanadi. Bundan tashqari, tebratish beshikka xos harakat, beshik esa tobutga yondosh predmet sanaladi, ya’ni otasining bu yorug‘ olamni tark etishiga ishora vazifasini o‘tadi.

Darhaqiqat, o‘g‘il xotinining turtishlari vositasida uyg‘ondi va otasining vafot etganligi haqidagi mudhish xabarni eshitdi. U bo‘shashib, o‘tirib qoldi. Ko‘z oldi qorong‘ilashdi…

“So‘ng mustahab olib, tahorat olish uchun sahn chetiga cho‘nqaydi. Burniga suv olayotib ne ko‘z bilan ko‘rsinki yerda chuvalchang g‘imirlardi. Dastlab parvo qilmadi, keyin birdan tosh qotib qoldi. Xotirasining allaqaysi puchmoqlarida chuvalchang bilan bog‘liq fikrlar jimirlaganday bo‘ldi. Darvoqe, chuvalchangli yomg‘ir – dadasi aytuvdi shekilli… Nigohi tentidi. Boyagi chuvalchangdan nariroqda yana bittasi kulcha bo‘lib yotardi. Alangladi. O‘ngida bir necha, so‘lida bir necha, sahnning hamma yerida chuvalchang. Bari ingichka, ojiz-ojiz qimirlaydi. Axir, sahn asfaltlangan-ku, bular qayoqdan chiqdiykin? Asfaltni tesholmasligi aniq. Nahotki osmondan yoqqan bo‘lsa? Yomg‘ir bo‘lib. Chuvalchangli yomg‘ir! Demak, dadasi to‘g‘ri aytgan ekan-da, chuvalchangli yomg‘ir bo‘larkan-da!”

Mana asarning kulminatsion nuqtasi… Birinchidan, otasining aytgan gaplari to‘g‘ri chiqdi, ikkinchidan, to‘g‘ri chiqqanini bilgan, anglagan o‘g‘il endilikda dadasi ko‘rsatgan halol yo‘lda umrguzaronlik qiladi, xuddi tushida: “Bo‘ldi, dada niyatingizga yetdingiz-ku” deb aytgan gaplari kabi. Garchi, o‘g‘ilning to‘g‘ri yo‘lga qaytgan-qaytmagani ochiqlanmagan bo‘lsa-da, kitobxon hukmiga havola qilingan bo‘lsa-da, ishonchli dalil orqali isbotlangandan, o‘z tasdig‘ini topgandan so‘ng, e’tiqod kuchayishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Aynan ushbu his-tuyg‘ular chuvalchangli yomg‘ir yog‘gani tufayli ters tomonga aylandi, ya’ni o‘g‘il Haj safariga yig‘ilgan pulni nafsi yo‘lida sarf qilib yuborishi mumkin edi, lekin yomg‘ir obrazi o‘g‘ilni shu holatdan saqladi, otasiga ishonchini mustahkamladi. Hikoya oxirida shunday hodisa bor. O‘g‘il chuvalchanglarni yig‘ib oladi-da: “Dadajon, siz to‘g‘ri aytibsiz! – ovozi chiyillab, ko‘zlaridan yosh sizdi. – Aytganingiz bo‘libdi, dada! – Ho‘ngrab yig‘lab yubordi. – Endi hamma aytganlaringiz bo‘ladi, dadajon! Mendan rozi bo‘ling! Rozi bo‘ling, dada!..

Kaftidagi chuvalchanglarni yomg‘irda loylangan tuproqqa olib borib tashladi. – Endi yerda yashaysizlar! – deya shivirladi.

Mana, haqiqiy tub ma’no ochiqlandi. Bu yerdagi chuvalchang o‘g‘ilning kibri, nafsining ramzi edi. U yomg‘ir bilan yerga tushdi: haqiqiy hayotga, haqiqiy o‘zi yashashi kerak bo‘lgan hayotga, o‘zligiga qaytdi. Aynan shu asarning badiiy qimmatini, asarning haqiqiy g‘oyaviy-badiiy konsepsiyasini ochiqlaydi, ya’ni inson o‘zligi bilan yashashi, nafsning nog‘orasiga o‘ynamasligi, tajribani, qo‘lida bor narsalarni qadriga yetishni, o‘zgalar bilan o‘zini taqqoslamaslik kerakligini taqozo etadi. Ana shundagina inson o‘z hayotidan mamnun yashay oladi, xuddi yomg‘ir hayot baxsh etganidek, inson hayotiga ham yomg‘ir kabi sokinlik yoki jadallik, tiriklik va quvvat manbai zarur bo‘ladi.

Ko‘rinib turganidek, avvalgi ichuvchi, bir ishning boshini tutmagan o‘g‘il otasi aytgan gap isbotini topganidan so‘ng yaxshi tomonga o‘zgaradi. Xuddi sho‘ro tuzumi davrida to‘g‘ri yo‘ldan adashgan qahramon ozodlik shabbodasi esgach o‘zligiga qaytdi. “Chuvalchang yoqqan kecha’’ hikoyasi ham o‘zligini, “men’’ ini anglashga yuz tutgan inson iqrorini yuksak badiiy saviyada aks ettira olgani bilan xarakterli sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Yo‘ldoshev Qozoqboy. Yoniq so‘z. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2006.
2. Sharafiddinov.O Dovondagi o‘ylar. – T.: “Sharq” 2004.
3. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2013. 46-bet.
4. https://nabijaloliddin.uz/
5. https://kh-davron.uz/
6. https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/nabi-jaloliddin/
7. https://baxtiyor.uz/nabi-jaloliddin-haqida-ma-lumot/
8. https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/nabi-jaloliddin-1962/

Mohiya MAMASHARIPOVA,
Tosh DO‘TAU 2-kurs magistranti

OMON MATJON SHE’RIYATIDA OBRAZLILIK

Annotatsiya: ushbu maqolada Xorazm adabiy muhitining yirik namoyondasi, shoir Omon Matjon satirik she’rlarining tahlili bayon qilingan satira va yumor tushunchalari nazariy jihatdan tavsiflanadi. Shuningdek, shoirning she’rlaridagi o‘ziga xosliklar didaktik namunalar asosida sharhlanadi.

Kalit so‘zlar: *satira, yumor, hazil, ma’naviyat, tarbiya.*

Annotation: : in this article, the analysis of the satirical poems of poet Amon Matjon, a major representative of the Khorezm literary environment, is described theoretically, and the concepts of satire and humor are described. Also, the peculiarities of the poet’s poems are interpreted on the basis of didactic examples.

Key words: *satire, humor, humor, spirituality, education.*

Аннотация: в данной статье теоретически описан анализ сатирических стихотворений поэта Амона Маджона, крупного представителя литературной среды Хорезма, а также описаны понятия сатиры и юмора. Также на основе дидактических примеров интерпретируются особенности стихотворений поэта.

Ключевые слова: *сатира, юмор, юмор, духовность, образование.*

Kirish. satira juda qadim zamonlardanoq xalq og‘zaki ijodida va yozma badiiy adabiyotda mustahkam o‘rin olgan, uzoq asrlar davomida badiiy ijodning boshqa turlari bilan birgalikda katta taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan bo‘lsa-da, nazariy jihatdan eng kam ishlangan hamda juda ko‘plab ilmiy bahs va tortishuvlarga mavzu bo‘lgan sohalardan biridir[6:9]. Satira adabiy tur. Yanada aniqrog‘i, u ayrim, o‘ziga xos adabiy tur. Uning o‘ziga xosligi, farqli xususiyati, jumladan shundaki, satira mavjud adabiy turlarning barchasida (lirika satirik she’r, poema; epik-satirik hikoya, povest, roman; drama satirik komediya va boshqalar) bemalol namoyon bo‘la oladi.

Asosiy qism. Shoir Omon Matjonning “O‘rtamizda birgina olma” she’riy to‘plamidagi satirik ruhda yozilgan “Uyquchi o‘rtoq”[3:30] she’rini tahliliga nazar solsak:

“Bir uyquchi o‘rtoq bor, dunyo unga, keng, qoyim,
Kasbi ham aniq, tayyor, ya’ni mudramoq doim...”

Yuqoridagi misralarni o‘qirkansiz beixtiyor “Dunyoni suv bossa, o‘rdakka ne g‘am” iborasi hayolingizni bir burchagiga keladi. Yashashidan maqsadi nedur bu toifa insonlarning? – deya savol bergingiz keladi. Inson bu hayotda yashar ekan o‘zidan faqat va faqat yaxshi nom qoldirishga harakat qilmog‘i lozim. Sharq va Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan axloqiy-ta’limiy asar bo‘lmish “Qobusnoma” ning to‘qqizinchi “Qarilik va yigitlik sifati zikrida” nomli bobida Kaykovus shunday jumlalarni keltiradi:

“Ey farzand, har nechun yigit bo‘lsang ham, aqling qari bo‘lsun. Men senga: «Yigitlik kilmag‘il» demasman. Ammo yigitlikni chidam bila qilg‘il. Yengil yigitlardin bo‘lmag‘il, chunki yigitlarga og‘irlik munosibdur. Bu haqda Aristotolis donishmand shunday debdur: «Yigitlik jununning bir navidur». Johil yigitlardin bo‘lmag‘il, johillikdin balo paydo bo‘lg‘usidur. Yigitlik zamonida zindagonlig‘ qil, to kim qarigon chog‘da o‘z holingga yig‘lamagil. Har qancha yosh bo‘lsang ham hech vaqtda o‘limdin bexabar bo‘lmag‘il, nedinkim o‘lim na qarini va na yigitni qo‘yg‘uvsidur”[2:45].

Darhaqiqat ayni kuchga to‘lgan bardam, baquvvat, yuraklari shijoatga to‘la bo‘lishi kerak bo‘lgan bir paytda, *Unga ergashar mudroq,* deb ortidan uyquni ergashtirib yurishi mutlaqo aqlga sig‘maydi.

“Goh to‘g‘ri kelsa minbar, kuchar, aytar ma’ruza,
Elni-da, o‘zi qadar, torttirib keng homuza.
Uyga qaytib yana shu, «Hay, ish, bu — ish-da...» deydi.
Shoshiltirib turar uyqu, nima qo‘ysalar yeydi.
Ajabmas, *xotin besas, yarim tun, bir gap aytsa,*
Javobi bo‘sa emas, xurrak qo‘shilib qaytsa.”

Na oilasi va na ishiga ma’suliyat bilan yondoshmaydigan inson, kuni-yu tuni uyqu dardida, nafs dardida yashaydigan inson hayvondan farqi yo‘q bizningcha. Inson bu dunyoda yaratig‘lar, jonli mavjudotlar ichida eng aziz va mukarramidir. Tangri Taolo insonga hayvondan farqli o‘laro unga ong, bilim va zehn berdi. Islom olamining muqaddas kitobi bo‘lmish Qur’oni karimning eng kata “Baqara” surasida ham insonlar haqida shunday deyilgan: “Ular (itoatlilar) Rabbilariga (oxiratda) yuzma-yuz bo‘lishlarini va Unga qaytajaklarini (haq deb) bilurlar”[1:9]. Shunday ekan Yaratgan oldida ham omonatga olgan umrimizni mazmunli yashab o‘tmog‘imiz lozim.

Bu uyquchi o‘rtoq kim, ishchi, dehqon, ziyoli?
Har yerda u ko’rinar, turar yo’qday ziyoni.

She’r matnidan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, majlis-u, yig‘ilishlardan beri kelmaydigan bu kishim qo‘shtirnoq ichidagi jamiyat faoli. Ammo, shu “faol o‘rtoq” *“Har yerda u ko’rin”*sada go‘yoki ziyoni yo‘qdek. Aslida ham shundaymikin? Aslida ham jamiyatga shunday dunyo, gardun aylanib yer yuzida kishi ko‘rsa hayratda qoladigan bir ixtirolar, kashfiyotlar bo‘layotgan bu zamonamizda,

*“Pastdan, yondan tepadan, Olam o‘ta beradi”*gan “tepsa tebranmas” kishilar kerakmikin. Hazrat Alisher Navoiyning mashhur “Arba’in” (Qirq hadis) asarining o‘n uchinchi hadisida shunday so‘z boradi:*“Al-majolisu bil-amonati.”*[4]Ya’ni buning tarjimasi “Majlislarda eshitganing – omonat” – deya tavsiflanadi. Kishi kimdandur yaxshi bilim, maslahat eshitarkan, uni amalda bilmagan va bexabar insonlarga yetqazmog‘i joizdir. Agarkim, yatqazmas ekan bu uning uchun xiyonatdur.

Hatto chigirtka ko‘chsa, o‘t yoqib, qoqib dovul,
Xullas, har o‘zgarishga tik turardi el-ovul.”

Omon Matjon ijodida juda ko‘p hollarda Mir Alisher Navoiy ijodiga aloqadorlik holatlarini guvohi bo‘lamiz. Navoiyning oltin misralarini o‘qib uni o‘z badiiyatida qo‘llagan shoir she’rlarida ham biz Navoiyning so‘zlarini tinglayotgandek his qilamiz. Darhaqiqat, Omon Matjon ijodi Navoiy sarchashmasi bilan sug‘orilgandek, go‘yo. Ehtimol, shuning uchun ham biz she’r tahlilida Navoiyning har baytini misol tariqasida keltirayotgandirmiz:

“Naf’ing agar xalqqa beshakdurur
Bilki, bu naf’ o‘zungga ko‘prakdurur” [7].

Jamiyatga, xalqqa yordam ko‘rsata oladigan insongina chin insondir. U o‘zining mana shu hatti-harakati bilangina inson degan buyuk bir nomning sohibidur.

“Ko‘nikdik har holda biz, so‘zlardagi uyquga,
Ishdagi, xayoldagi, ko‘zlardagi uyquga.
Axir *bu falakiyot, harakat-ku misli o‘q.*
Bir lahzada u hayot, bir lahzada yana yo’q.”

Mana bu yerda esa lirik qahramon o‘rnini endi asta-sekin omma ya’ni xalq egallamoqda. Shoir

“Ko‘nikdik har holda biz
So‘zlardagi uyquga…” degan misralari ila siyosiy o‘yinlarni, sobiq Ittifoq davrida insonlar ko‘ngli puch yong‘oqqa to‘ldirilib, berilgan va’dalar faqat havoda qolib ketganligini, insonlar turmush tarzi qoloqlashib borayotgan bir paytda sobiq partiyalar tomonidan yolg‘on so‘zlar bilan xalqni ma’naviy uxlatib qo‘ygani hech kimga sir emas. Mashhur munaqqid Ozod Sharofiddinov o‘zining “E’tiqodimni nega o‘zgartirdim?” maqolasi bilan kommunistik partiyalarning asl yuzini ochib tashlashga urinadi: “Haqiqatan ham, qanday olijanob g‘oyalar! Umumbashariy g‘oyalar. Ularni rad etish, ularga qarshi chiqish mumkinmi axir?! Ammo bilmaysizki, hayot boshqa — unda har qadamda qalbakilikka, aldamchilikka ro‘para kelasiz. Unda ko‘pincha gap boshqayu amal boshqa, suvrat o‘zgachayu siyrat bo‘lakcha. Hayotda bir hovuch yovuz kuchlar bor — ular qora niyatlarini niqoblab, ana shu umuminsoniy, oliyjanob g‘oyalarni o‘zlariga shior qilib olganlar, ularni o‘zlaricha talqin qilib, shu g‘oyalar soyasida davru davron surishga jahd qilganlar. Ular odamlarning soddaligi va ishonuvchanligidan foydalanib, o‘zlarining qora maqsadlariga erishishda ulardan vosita sifatida foydalanmoqchi bo‘lganlar”[5]

Xulosa. Jadid adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy o‘zining she’rlaridan birida siz-u bizga o‘sha mashhur bir xitobni keltirib o‘tadi:

“*Uxlama ko‘p, o‘zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.*” [8]

Bir necha asrlar ilgari dolzarb bo‘lgan ogohlik, xushyorlik va diqqatlilik bugun ham o‘z qiymatini yo‘qotganicha yo‘q. Demak, insonlar borki, jamiyat borki, yuqorida biz ta’kidlagan tipdagi beparvo va yashashdan maqsadi yo‘q shaxslar ham bor. Bunday insonlar jamiyatning ma’naviyat deb atalmish ildiziga bolta uradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim *(ma’nolarining tarjimasi).* – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2004. 3-b
2.Kaykovus “Qobusnoma” Toshkent:“Istiqlol”, 1994. 45-b
3.Matjon O. O‘rtamizda birgina olma, Toshkent: “Yosh Gvardiya”, 1990, .30-b
4.Navoiy A . Arba’in (Qirq hadis) , Mansur Asqarov tarjimasi. www.khurshiddavronkutubxonasi.
5.Sharofiddinov O, “E’tiqodimni nega o‘zgartirdim?” - “Tafakkur” jurnali, 1997- yil 10-son.
6.Абдуғафуров А , Навоий ижодида сатира Узбекистон Сср «Фан» Тошкент – 1972 , Б.9
7.Алишер Навоий ҳикматлари - www.ziyouz.uz
8.Қосимов Б, Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий ҳақида. www.khurshiddavronkutubxonasi.

Munojatxon YULDASHEVA,
Namangan universiteti magistranti

O'ZBEK MADANIY NUTQINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: nutq madaniyati tilni – aloqa-aralashuv qurolini ishlatishga bo'lgan munosabatidir. Maqola davomida nutq madaniyati haqida olimlarning fikri ko'rsatib o'tiladi va yoritiladi. Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa ekanligi u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot chambarchas holda taraqqiy etishi haqida fikr va mulohazalar keltiriladi. Badiiy asar tilidagi lisoniy vositalarning ahamiyatga ega o'rni haqida fikrlar bildiriladi.

Kalit so'zlar: nutq ma'daniyati, nutq agogikasi, nutq elementlari, nutqning grammatik shakli, badiiy nutq.

Аннотация: речевая культура – это отношение к использованию языка – инструмента общения и взаимодействия. В ходе статьи изложено и объяснено мнение ученых о культуре речи. Речевая культура является социальным явлением, и общество, наука и техника, культурная и литературная жизнь развиваются тесно вместе. Высказываются мнения о важной роли лингвистический средств в языке художественного произведения.

Ключевые слова: культура речи, речевая агогика, элементы речи, грамматическая форма речи, художественная речь.

Annotation: speech culture is an attitude towards the use of language - a tool of communication and interaction. During the article, the opinion of scientists about the culture of speech is presented and explained. Speech culture is a social phenomenon, and society, science and technology, cultural and literary life develop closely together. Opinions are expressed about the important role of linguistical means in the language of a work of art.

Key words: speech culture, speech agogy, elements of speech, grammatical form of speech, artistic speech.

Kirish. O'zbek madaniy nutqi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Nutq qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar o'zining ma'lum xususiyatlariga egadir. Bular quyidagilardan iborat:

1. Nutq agogikasi. Bunda o'qiladigan yoki gapiriladi-gan matnning emotsional, intellektual mazmuni, ritmik qurilishi yoki tempi hisobga olinadi.

2. Har bir nutqda o'zining harakati bo'lib, bunda nutqning ritmik-sintaktik tomondan shakllanishida paydo bo'luvchi davrning dinamik xususiyati nazarda tutiladi. Nutq harakati uning tempini ham belgilab beradi. Nutqning tempi tez bo'lsa, nutqdagi so'zlarda reduksiya hodisasi yuz beradi. Nutq tempi sekin bo'lsa, so'zlar to'liq shaklda keladi. Nutq ham kichik-kichik bo'laklarga ajraladi.

3. Nutq tildan farqli holda o'z birligiga egadir. Tabiiy qonuniyat asosida nutq oqimida paydo bo'luvchi bo'g'in, so'z, so'z birikmasi va gap nutq birligi sanaladi. Nutq birliklari intonatsiya va pauzalardan to'g'ri foydalana bilish orqaligina ajraladi.

4. Nutq elementlari ketma-ket joylashtiriladi. Ketma-ket joylashtirilgan nutq elementlari davr nuqtayi nazaridan turli davrlilikni ifodalaydi. Bunga nutq yo'nalishi deb ataladi. Tilning nutqdan farqli tomoni shundaki, til sistemasida bir davrlilik mavjuddir. Turli davrlikni ifodalovchi nutq o'z momentiga egadir. Keyingi fikr mazmuniga ta'sir etishi nuqtayi nazaridan paydo bo'ladigan shart-sharoit nutq momenti deyiladi.

5. Nutq momenti ta'sirida nutqiy muomalada amalga oshiriladigan sharoit nutq situatsiyasi deyiladi. Ko'pincha, ma'lum nutqiy sferada til uslublarini tipik qo'llash uchun harakat qilinadi. Bunga nutq uslubi deyiladi.

6. Nutq uslubi: poetik nutq uslubi, kitobiy so'zlashuv nutq uslubi, oddiy so'zlashuv nutq uslubi, so'zlashuv nutq uslubi kabilarga ajratiladi.

To'liq nutq uslubi hech bir kamchilikka ega bo'lmagan nutq haqida nutq madaniyati bahs etadi. Aloqa vositasi bo'lgan tilda qonunlashtirilgan orfoepiya, so'z qo'llash va boshqa qoidalarga mos ravishda individual so'zlashuvda eng yaxshi an'analarga amal qilish nutq madaniyati sanaladi.

Nutq madaniyati til ilmining nisbatan yosh sohasidir. Ushbu fanning mustaqil bo'limi sifatida, u mamlakatimizda yuz bergan tub ijtimoiy o'zgarishlar ta'siri ostida shakllandi. Faol ijtimoiy faoliyatga keng odamlarni jalb qilish ularning nutq madaniyatini oshirishga e'tiborni kuchaytirishni talab qildi. Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bog'liq holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Nutq madaniyati, til normasi va adabiy norma tushunchalari umumlingvistik tushunchalardir.

1. L.I.Skvorsov nutq madaniyati nazariyasining asosini til normasi tashkil qilishini qayd etar ekan, ularning til taraqqiyotini bir-biri bilan bog'liq holda

belgilashini alohida ta’kidlaydi: nutq madaniyati ko‘p ma’noli tushunchadir.

2. Nutq madaniyati tadqiqotchilaridan K.S.Gorbachevich, G.O.Vinokurning nutq madaniyati tushunchasi “nutqning to‘g‘riligi, ongli va tabiiyligini ifodalovchi tushuncha” nazariyasidan kelib chiqib, nutq madaniyati birinchidan, nutqning to‘g‘riligini talab qiluvchi, til normasiga amal qiluvchi; ikkinchidan, fikrning ifodaviyligi va ifodaning ko‘proq samaradorligini o‘zida qamrab oluvchi soha ekanligini ta’kidlaydi. Ushbu fikrlardan kelib chiqib, K.S.Gorbachevich nutq madaniyati nutqning to‘g‘riligi va ma’lum nutq ko‘rinishida til vositalarining ongli qo‘llanilishini tekshiruvchi soha ekanligini qayd etadi.

2. Lingvistik lug‘atlarda ham nutq madaniyati tushunchasi ko‘p ma’noli tushuncha sifatida qayd etilgan. Chunonchi, D.E.Rozental va M.A.Telenkovalar ham nutq madaniyati birinchidan, nutqning adabiy til me’yorlariga mosligini tekshiruvchi; ikkinchidan, tilshunoslikning adabiy til me’yorlari masalalarini o‘rganuvchi sohasi ekanligini qayd etadilar.

3. O.S.Axmanova nutq madaniyatini muayyan til uchun belgilangan orfoepiya va so‘z qo‘llash normalariga moslik hamda individual nutq qobiliyatiga egalik sifatida talqin qilgan.

4. A.N.Vasilevaning fikricha ham nutq madaniyati bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan ikki tushunchani o‘zida birlashtiradi. Birinchidan, nutqning sifati, ya’ni nutqda til vositalarini maqsadga mos ishlatish, ikkinchidan, tildan foydalanish mahoratini tekshiruvchi fan bu nutq madaniyatidir. Biz bu o‘rinda nutq madaniyati tushunchasini izohlamoqchi emasmiz, biroq fikr yuritmoqchi bo‘lgan masalamizning nutq madaniyati bilan uzviy bog‘liqligi shu tushunchaning mohiyatini oydinlashtirishni taqozo qiladi.

Muhokama va natijalar. Nutq madaniyati barcha nutq ko‘rinishi uchun mezon. U nutqning qurilishi jihatdan, oddiy va soddaligidan tortib, idrok etilishi jihatidan aniq va mazmundorligicha, ifoda jihatidan ta’sirchan, obrazli, serbo‘yoqligigacha bo‘lgan jarayonni qamrab oladi. Bu jihatdan, nutq madaniyati A.N.Vasileva tasnifiga asosan, nutqning sifatidir. Zotan, nutq madaniyati faqat adabiy tilga xos emas, balki nutqning barcha shakllarida ham nutq madaniyatiga amal qilinadi. Badiiy nasrni esa, shubhasizki, yuqori darajadagi nutq madaniyatisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Umuman, tilshunoslikda nutq madaniyati so‘zga ongli ravishda munosabatda bo‘lish, so‘zning ma’no nozikliklaridan, emotsional-bo‘yoqdorligidan fikr ifodalash jarayonida to‘g‘ri foydalanish natijasida vujudga keladigan nutq sifatidir.

L.V.Sherba nutqiy rang-baranglikni vujudga keltiruvchi tildagi quyidagi asosiy faktorlar mavjudligini ta’kidlaydi. Birinchidan, tilning so‘z boyligi. Bunda tilning so‘z boyligi barcha nutq turi uchun xizmat qilishi nazarda tutiladi. Ikkinchidan, tilning sinonimlarga boyligi. Bir tushunchaning turlicha ifodalanishi nazarda tutiladi. Uchinchidan, fikrni rang-barang ifodalash imkoniyati. Bunda tilda fikrni turlicha, emotsional-bo‘yoqdor ifodalash imkonining mavjudligi nazarda tutiladi.

Darhaqiqat, har qanday xalq tili fikrni butun nozikligi bilan ifodalash imkoniyatiga ega. Bu jarayon tilning barcha nutqiy ko‘rinishlarida o‘z aksini topadi. Shu ma’noda o‘zbek badiiy nasrning ham boy nutqiy imkoniyatlari mavjud. Biroq nasriy nutq va adabiy til o‘rtasida til vositalarining qo‘llanilishida funksional jihatdan katta farqlanish bo‘lsada, adabiy til uchun umumiy bo‘lgan qonuniyatlar, jumladan, nutq madaniyatiga asoslanish adabiy til uchun qanday bo‘lsa, badiiy nasr uchun ham shundaydir. Shu boisdan badiiy nasr ham nutq madaniyatining adabiy til uchun xos bo‘lgan mezonlariga tayanadi.

Nutq madaniyatining muhim belgisi nutqiy aniqlikdir. Antik davrdan boshlab, jumladan, Aristotel tomonidan nutqning bezagi sifatida e’tirof etilgan nutqning aniqligi tushunchasi barcha nutq ko‘rinishi uchun umumiy mezondir. Biroq nutqiy aniqlikka nutq turlarining funksional xususiyatidan kelib chiqqan holda turlicha yondashiladi. Ya’ni adabiy tilda dialekt va sheva, kasb-hunarga oid so‘zlar, turli toifa kishilari nutqida uchraydigan lug‘aviy vositalar nutqning aniqligini buzuvchi til birliklari sifatida qaralsa, badiiy nasrda aksincha, ular nutqqa, fikrga ma’lum aniqlik kirituvchi vositalar hisoblanadi. Zero, badiiy nasr hayotni, odamlarni qanday bo‘lsa, shunday aks ettirish vositasi, unda kishilar xarakteri, holati, kechinmalari o‘z ifodasini topadi.

Badiiy asarning har birida ma’lum davr, hudud va turli kasb egalari mavjud. Ularning qaysi davr, qaysi joy vakili ekanligi, kasbi-kori nutqi orqali namoyon bo‘ladi. Bu holat badiiy nasrning dialekt, sheva va oddiy xalq tiliga xos lug‘aviy birliklarga boy nutq ekanligini ko‘rsatadi.

Tasvirlanayotgan voqeaning qaysi davrga mansubligini o‘sha davrga xos til vositalari bilan berilishi, asar personajlarining qaysi hududda yashovchi kishilar ekani, kimligining ham o‘z tili orqali berilishi badiiy nasrda nutqiy aniqlikni ta’minlovchi muhim vositadir. Badiiy nutqning muhim sifatlaridan

biri takrorlanmaslikdir, darhaqiqat, badiiy nasrda qo‘llaniladigan lingvistik vositalar ham estetik, ham funksional nuqtayi nazardan juda rang-barang. Bu jarayon tilshunoslikda ko‘p vaqtlardan buyon diqqatni jalb qilib kelayotgan so‘zning ichki formasi asosida vujudga keladi.

So‘zning ichki formasiga lingvistik adabiyotlarda asosan til uchun umumiy fakt sifatida talqin qilingan bo‘lsa ham, keyingi yillarda badiiy nutqning o‘ziga xos materiali sifatida yondashilmoqda.

G.O.Vinokur so‘zning ichki ma’nosi terminini obrazli ishlatish terminiga mos holda qo‘llasa, V.P.Grigorьev bu terminni ko‘pincha o‘ziga xos simvol, obraz ifodasi sifatida qayd etadi.

Badiiy ifodalar kishining his-tuyg‘ulariga ta’sir qilmay qolmaydi. Natijada undan zavq olinadi. Badiiy nasrda nutq madaniyati naqadar muhim ekanligini yozuvchilarimizning asarlari orqali tahlil qilamiz.

Jonli so‘zlashuv nutqida kundalik muomala va muloqotda, o‘zaro turmush ikir-chikirlari, aloqa-aralashuv uchun xizmat qiladigan til birliklari ko‘p uchraydi: qarg‘ishlar, olqishlar, hol-ahvol so‘rashish, uy-ro‘zg‘or, qo‘ni-qo‘shnichilik, qarindosh-urug‘chilik, kundalik suhhatlar va boshqalar.

Hali yurt so‘rab yotganlaring shular, degin deydi. Qovog‘ini qara, qovog‘ini. Voy, o‘sha obergan shahringni sholvaringga solib beray... Bu nima o‘zi? Militsami? Murtimni ko‘tarib turay, o‘tib kestin. Badiiy nasrda ta’sirchanlikni, obrazlilikni, badiiy-bo‘yoqdorlikni ta’minlovchi keng imkoniyatlar mavjud.

Shunday imkoniyatlardan biri, nasriy matnlarda bir holatning turli lug‘aviy vositalar orqali ifodalanishidir. Masalan, tunning kirib kelishi tasviri nasriy matnlarda quyidagicha badiiy ifodalanganligi kuzatiladi. *Quyosh sekin dumalab ufqqa yashiringan, tunning qorong‘i chodiri qoplaydi har yoqni.* (Oybek. “Oltin vodiydan shabadalar”), *...beqasam oqshom etagini yamlab tun kirib keladi.* (S.Ahmad. “Ufq”), *Tog‘lar adirlar, uzoq-yaqindagi daraxtlar qurum bosganday qopqora tus oldi.* (A.Qahhor. “Qo‘shchinor chiroqlari”), *Kuzda tez bostirib keluvchi qorong‘ulik qora quzg‘un yanglig‘ dashtni qora qanotlari ostiga olgan edi.* (O.Yoqubov. “Oqqushlar, oppoq qushlar...”).

Keltirilgan gaplarda tunni ifodalashda *qorong‘i chodir, tun, qurum bosganday qop-qora, qora quzg‘un, qora qanotlar* kabi lug‘aviy vositalar qo‘llanilgan. Yoki ushbu tushunchaning ziddi bo‘lgan tong otish tasviri quyidagicha ifodalangani kuzatildi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz kerakki, nutqning aniq va ravshan bo‘lishi, avvalo, so‘zdan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq. Badiiy nutq adabiy tilga, o‘z navbatida adabiy til badiiy nutqqa to‘xtovsiz ta’sir etib boradi. Badiiy nutq jarayonida vujudga kelgan yangi so‘zlar yoki ayrim shevalardan olingan so‘zlar faollashib adabiy tilga o‘tadi, shuningdek, til taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda adabiy tilga kirib kelgan lug‘aviy vositalar badiiy matnlarda ham qo‘llanila boshlaydi. Nutqning turli shakllaridan foydalanish orqali qahramonlar xarakteri, portreti, fe’l-atvori mahorat bilan ochib beriladi. Asarda dialogik nutqlarning eng sara namunalarini yaratish bilan birga ijodkor estetik tuyg‘ularini uyg‘unlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zulfiya. Asarlar: 3 jildlik. 1-jild: Shalola. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti,1985.

2. Begmatov, E., Boboeva, A., Asomiddinova, M., Umurqulov, B. O‘zbek nutqi madaniyati ocherklari. – Toshkent, 1998

3. Botyrova, M., Bozorova, G. (2023). The use of metaphor in fiction. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 3 (1 Part 2), 82-89.

4. Botirova, M., Qayumova, M. Language Characteristics of Phraseological Units. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences, 2022, 1(1), 80-83.

5.Sanjarov I.S. Badiiy matnning lingvistik mohiyati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2021, 1(3), 46-51.

Shirinjon MATYAKUBOVA,
TerDPI magistranti

O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA ADABIY TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarda adabiy tushunchalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish haqida batafsil aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘qish savodxonligi, adabiy tushunchalar, metodika, takomillashtirish*

Аннотация: в данной статье подробно описано совершенствование метода формирования литературных представлений у учащихся на занятиях по читательской грамотности.

Ключевые слова: *читательская грамотность, литературные концепции, методика, совершенствование.*

Annotation: this article describes in detail the improvement of the method of formation of literary concepts among students in reading literacy classes.

Key words: *reading literacy, literary concepts, methodology, improvement*

Kirish.O‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarda adabiy tushunchalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish — bu o‘quvchilarning adabiy asarlarni tushunish, ulardan ta’lim olish va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan jarayonni anglatadi.O‘qish savodxonligi faqatgina matnni o‘qish va yozish bilan cheklanib qolmay, balki matnni to‘liq anglash, tahlil qilish, baholash, va uning mazmuni bilan ishlashni ham o‘z ichiga oladi.Bu jarayonni boshlang‘ich sinfda samarali o‘rgatish uchun metodik yondashuvlarni takomillashtirish zarur.

Usullar va adabiyotlar tahlili. O‘qish savodxonligining mahiyati va ahmiyati

O‘qish savodxonligi – bu o‘quvchilarning matnni o‘qish, tahlil qilish, uning mazmunini anglash, va o‘quv maqsadlariga mos ravishda matndan bilim olish qobiliyatidir. Adabiy tushunchalarni shakllantirish o‘quvchilarga nafaqat matnni tushunishga, balki adabiy asarlardan estetik, axloqiy, va ijtimoiy-ma’naviy saboqlar olishga yordam beradi.

Adabiy tushunchalarni shakllantirishning maqsadi:

Matnni chuqurroq tushunish:o‘quvchilar matnning asosiy g‘oyasini, tema va mavzusini aniqlay olishlari kerak.

Adabiy janrlarni anglash: o‘quvchilarga adabiy janrlar, uslub, va tilning o‘ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha berish.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish: o‘quvchilar matndan yangi g‘oyalar yaratish, tahlil qilish va uning mazmuniga mos holda ijodiy fikrlashni o‘rganadilar.

Natijalar

Adabiy tushunchalarni shakllantirish usullari va yondashuvlari

Interaktiv yondashuvlar va tahlil qilish

Adabiy tushunchalarni shakllantirishda interaktiv metodlar juda samarali. O‘quvchilarni matn bilan faollashtirilgan ishlashga undash kerak:

Savol-javob usuli: o‘qituvchi matnni o‘qib bo‘lgach, o‘quvchilarga savollar berib, matnning mazmuni, qahramonlar, voqealar va ularning o‘zaro munosabatlarini tahlil qilishga undaydi. Masalan, “Qahramon nima sababdan shunday harakat qildi?” yoki “Hikoyaning asosiy g’oyasi nima?” kabi savollar bilan o‘quvchilarni fikrlashga yo‘naltirish mumkin.

Matnni baholash: o‘quvchilarni matnni baholashga, unga o‘z fikrlarini bildirgan holda yondashishga o‘rgatish. Bu usul o‘quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantiradi.

b. Visual vositalar va diagrammalarni qo‘llash

O‘qish va tahlil qilishda turli vizual vositalardan foydalanish (grafiklar, diagrammalar, xronologik chizmalar, hikoya xaritalari) o‘quvchilarga matnni yaxshiroq tushunishga yordam beradi:

Hikoya xaritalari: o‘quvchilar matnning asosiy qismlarini, voqealar zanjirini yoki qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlarni vizual tarzda tasvirlashadi. Bu usul o‘quvchilarning matnning tuzilishini yaxshiroq anglashlariga yordam beradi.

Taqdimot va video materiallar: o‘quvchilarga matnning mazmunini yanada chuqurroq tushunish uchun video materiallar yoki multfilm orqali qo‘shimcha ma’lumotlar berish.

c. Adabiy janrlarni tushuntirish va tahlil qilish

Tahlil va muhokasi.O‘quvchilarga adabiy janrlarni tushuntirish va ularga xos xususiyatlarni o‘rgatish zarur. Har bir adabiy janr o‘ziga xos uslub, til va shaklga ega:

Hikoya va ertak: o‘quvchilarga ertak va hikoyalarning strukturasi, qahramonlar va muammo yechish tarzini o‘rgatish.

Lirik va epik asarlar: poema yoki she’riyatni o‘rgatishda, uning mavzusi, tili va tuzilishini tahlil qilish.

Dramatik asarlar: teatr yoki dramada foydalaniladigan til va personajlar orqali muammoni qanday hal qilishni o‘rgatish.

d. Yaratilish va ijodiy faoliyatlar

O‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun adabiy asarlar asosida yozma va og’zaki ijodiy ishlanmalar taklif etish kerak:

Hikoya yozish: o‘quvchilarni o‘qigan hikoyalar yoki ertaklar asosida o‘z hikoyalarini yozishga undash.

Rol o‘ynash: o‘quvchilarni matndan sahna yaratishga, turli qahramonlarni namoyish etishga yoki dialoglar yozishga undash. Bu usul adabiy tushunchalarni yanada yaxshi o‘zlashtirishga yordam beradi.

Tartibni yaratish: o‘quvchilarga matndagi voqealarni tartib bilan joylashtirish, bosh qahramonning qarorlarini tushuntirish va matnning asosiy mazmunini aniqlash.

e. Kritik fikrlarni yaratish va tahlil qilish

Adabiy asarlarni o‘qish va tahlil qilishda, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlarni rivojlantirish muhimdir. O‘quvchilarni matnni faqat tushunishga emas, balki uni baholashga, tahlil qilishga undash zarur:

Tahliliy yozma ishlanmalar: o‘quvchilarga matnni tahlil qilish uchun yozma mashqlar berish, masalan, matnning asosiy g‘oyasini, mavzusini va uslubini tahlil qilish.

Qahramonlarni baholash: o‘quvchilarga qahramonlarning xarakterini, ularning motivatsiyasini tahlil qilish va baholash imkonini berish.

Adabiy tanqid: o‘quvchilarga matnni tanqidiy ravishda baholashni o‘rgatish, masalan, qanday qilib asarda ishlatilgan adabiy vositalarni tahlil qilish.

O‘qituvchilar uchun tavsiyalar

Doimiy insho yozish va baholash: o‘quvchilarga muntazam ravishda yozma ishlar berish, ularning tahliliy va ijodiy fikrlarini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘qish va yozish kombinatsiyasi: o‘qish savodxonligi faqatgina o‘qishdan iborat emas, balki yozish va tinglash orqali ham rivojlantiriladi. O‘quvchilarga o‘qish va yozishning o‘zaro bog‘liqligini tushuntirish muhim.

O‘quvchilarga o‘z fikrlarini ifodalash imkoniyatini berish: o‘quvchilarni o‘z fikrlarini erkin ifodalashga, matn asosida o‘z pozitsiyasini yaratishga undash.

Interaktiv darslar: o‘qituvchilar matnni o‘qish jarayonida o‘quvchilarga savollar berish, guruhlarda ishlash va o‘zaro fikr almashish imkoniyatlarini yaratishlari kerak.

O‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarda adabiy tushunchalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish mavzusi ta’lim tizimida o‘quvchilarda adabiy bilim va tushunchalarni chuqurroq rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarga adabiyotning asosiy tushunchalarini o‘rgatish va ularni adabiy asarlarni tahlil qilishga yo‘naltirishning samarali metodikasini ishlab chiqish, o‘qish savodxonligini oshirishga katta hissa qo‘shadi.

Metodikani takomillashtirishda quyidagi yondashuvlarni qo‘llash mumkin:

1. Tushunchalar asosida o‘qishning faol metodlari

O‘quvchilarda adabiy tushunchalarni shakllantirishning samarali usullaridan biri – faol o‘qish metodlarini qo‘llashdir.Bu usulda o‘quvchilar o‘qigan asarlarini tahlil qilishda faqat muallifning fikrlarini yod olish emas, balki o‘z fikrlarini ham rivojlantirishi kerak. O‘qish jarayonida adabiy tushunchalarni shakllantirish uchun quyidagilarni qo‘llash mumkin:

Diskussiya: O‘quvchilarga adabiy asarlarni o‘qib, o‘z fikrlarini bildirishi, boshqalar bilan bahslashishi va tahlil qilishga imkon berish.

Maqsaddan kelib chiqqan savollar: o‘qish jarayonida o‘quvchilarga maqsadga yo‘naltirilgan savollar berish, ular asar haqida chuqurroq o‘ylashlariga yordam beradi.

Tahlil qilish: o‘quvchilarga adabiy asarlarni personajlar, voqealar va syujet asosida tahlil qilishni o‘rgatish.

2. Adabiy tushunchalarni rivojlantirish uchun vizual vositalar

O‘quvchilarda adabiy tushunchalarni shakllantirishda vizual vositalar, masalan, adabiy xaritalar, diagrammalar, va graflar juda foydali.Bu metodlar o‘quvchilarga asarlarning tuzilishi, syujeti va asosiy g‘oyalarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

3. Adabiy tushunchalar bilan bog‘liq interaktiv faoliyatlar

Adabiy tushunchalarni shakllantirishda o‘quvchilarga yaratish faoliyatlari, masalan, adabiy komikslar, sahnalashlar yoki rasm chizish kabi interaktiv metodlar qo‘llanilishi mumkin. Bu faoliyatlar o‘quvchilarda asarlarning mazmuni va adabiy g‘oyalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa.O‘qish savodxonligi darslarida adabiy tushunchalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirishda interaktiv, ijodiy va tahliliy yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarga adabiy asarlarni faqat o‘qib chiqish emas, balki ularni chuqurroq tahlil qilish, baholash va o‘z fikrlarini yaratish imkoniyatini berish kerak. Bu o‘quvchilarning nafaqat o‘qish savodxonligini, balki kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akobirov, Sh. *Adabiyot ta’limi: metodik qo‘llanma*. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. –Tashkent, 2005.

2. Abdullaeva, M. *O‘qish savodxonligi va uning metodikasi*. –Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2011.

3. Saidov, M. *Adabiyot ta'limi metodikasi: O'qish savodxonligi va badiiy tahlil metodlari*. –Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.2013.

4. Kamilova F.*O'qish va yozuv savodxonligini rivojlantirish metodikalari*. Innovatsiya va texnologiyalar universiteti. –Tashkent, 2018.

5. Rahimov, A. *O'qish savodxonligi darslarida metodik yondashuvlar*. –Tashkent: Ma'naviyat va ma'rifat, 2016.

6. G'afurova, N. *Adabiyot darslarida o'quvchilarda adabiy tushunchalarni shakllantirish metodikasi*.O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. –Tashkent, 2019.

7. Shukurova, S. *Badiiy tahlil va adabiy tushunchalar*. –Tashkent: Xalq ta'limi nashriyoti, 2020.

8. Muratova, G.*Adabiyot ta'limining metodik asoslari*.O'zbekiston davlat pedagogika universiteti. –Tashkent, 2015.

9. Yuldoshev, E.*O'qish savodxonligi darslarida innovatsion metodlar*. –Tashkent: Pedagogika nashriyoti.2020.

10. O'rikov, A.*O'qish savodxonligini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar*. T– Tashkent: Ma'naviyat va ma'rifat, 2017.



Sadoqat HAMROYEVA
ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti,
magistratura 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Hoshimjon Ahmedov f.f.n. dots.
sadoqathamrayeva070@gmail.com

FAXRIYOR SHE'RLARIDA OYNOMA

Annotatsiya: ushbu maqolada Faxriyor she'riyatidagi yashirin ifodalar hamda shoirning poetik topilmalarini o'rganish orqali ijodkor ruhiyatini ochib berish, davr va zamon uyg'unligiga oid she'rlarni tahlilga tortish maqsad qilindi. Shuningdek, shoir ijodida mavjud qisqa she'rlar va oy timsoli ishtirok etgan satrlar tahlilga tortiladi. Tirnoq, ayol, zorlik, sukunat, qichqiriq, ruh, ko'lanka kabi tushunchalar orqali ifodalangan oy so'zining ma'no uyg'unliklari izlanishlar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *Faxriyor, Izlam, oy, timsol, badiiy tahlil*

Annotation: in this article, by studying the hidden expressions in Fakhriyor's poetry and the poet's poetic findings, it is aimed to reveal the artist's psyche, analyze his poems about the harmony of time and era. Also, short poems in the poet's work and lines with the moon symbol will be analyzed. The meaning combinations of the word "moon" expressed through concepts such as nail, woman, force, silence, scream, soul, shadow are analyzed based on research.

Keywords: *Fakhriyor, Izlam, moon, symbol, artistic analysis*

Аннотация: целью данной статьи является раскрытие внутреннего мира поэта через изучение скрытых выражений в поэзии Фахрияра и его поэтических находок, а также анализ стихотворений о гармонии эпохи и времени. Кроме того, анализируются короткие стихи и строки с образом луны в творчестве поэта. На основе исследований рассматриваются смысловые сочетания слова "луна", выраженные через такие понятия, как ноготь, женщина, страдание, тишина, крик, душа, тень.

Ключевые слова: *Фахрияр, Излам, луна, образ, художественный анализ*

Kirish. She'riyat ramz-u ishoralar va timsollar tili. Matn ostidagi turfa xil ma'nolar, muallif ko'zda tutgan va tutmagan mazmun ham aynan she'riy misralar qatida yashiringan bo'ladi. She'riyat so'z o'yinlari bilan ham go'zal. Faxriyor birgina so'zdan ham bir necha ma'no chiqara oladigan shoir. Ushbu maqolada shoirning Oy so'zi orqali qanday she'riy variatsiyalar hosil qilganini ko'rib chiqamiz.

Tahlil va talqinlar. Badiiy adabiyot olami cheksiz mushohadalar, tushunchalar va fikrlar orqali bir butun olamni anglashga intilish yoki inson qalbini tushunish, uning nozik his-tuyg'ulariga e'tibor qaratish, qolaversa, ichki kechinmalariga e'tibor berishni o'rgatuvchi bir vositadir. Shu o'rinda she'riyat inson qalbiga yetib borishning eng o'ziga xos yo'llaridan biri bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunga qadar yaratilgan har bir she'riy asar o'ziga xos uslub va ijodkor kashfiyotlaridan iboratligiga ko'zimiz tushadi. Darhaqiqat, inson individuallik prinsipiga ega,

u doimo o‘ziga xos bo‘lib kelgan. Shu o‘rinda har bir shoirda o‘zgachalik har bir she’riy yaratiqda alohidalik yaqqol ko‘rinib turadi. Xuddi shunday yuqoridagi fikrlarimizning isboti o‘laroq aytishimiz mumkin bo‘lgan ijodkor aynan shoir, Faxriyordir. Faxriyor ijodi hozirgi kun adabiyot ixlosmandlari tomonidan qiziqish bildirayotgan obyektlardan biri bo‘lib, bunga adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshevning “Endilikda adabiyotshunoslik badiiy voqealikni, asarning o‘zini, uning botiniy jihatlarini tekshirish va baholashga odatlanib borayotir” degan fikrlarini sabab sifatida keltirib o‘tishimiz o‘rinli deb o‘ylaymiz. [1. Қозоқбой Йўлдошев. Ёниқ сўз. Янги аср авлоди. Тошкент. 2006 йил. Б.539] Chunki Faxriyor she’rlarida ham e’tiborga molik jihat shundaki, tuyg‘ular ustuvorligi ichki kechinma va she’rdagi ifodalarning yashirin ichki ma’nolari ustunlik qiladi. “E’tibor qilgan kishi zamonaviy o‘zbek she’riyatida shiddat bilan qisqalikka intilish jarayoni borayotganini ko‘radi. Anvar Obidjon uchchanoqlar yaratdi, Azim Suyun to‘rt qatordan ortiqrog‘-u besh qatordan kamroq bo‘lgan qayirma janriga asos soldi. Tohir Qahhor, Faxriyor, Ulug‘bek Hamdam, Tursun Ali kabi shoirlar ikkilik hatto birlik she’rlar yozishyapti. Bu hol shunchaki tasodif yoki badiiy moda ketidan quvish bo‘lmay, chuqur ichki mantiqqa ega bo‘lib, milliy she’riyatda ma’no tig‘izlashib, shakl mukammallashib borayotganini ko‘rsatadi. Chunki, qanchalik g‘ayritabiiy tuyulmasin, kichik hajmli she’rda ruhiyatni chizish va fikr aytish imkoni katta bo‘ladi. “She’r qancha qisqa bo‘lsa, unda tagma’no va ishoraga shuncha ko‘p joy qoladi. Bunda she’rxonga matndan turlituman kashfiyotlar qilish imkoniyati beriladi. Qisqa she’r o‘quvchiga ishonchning ifodasi bo‘lib, uni badiiy so‘zning iste’molchisidan poetik holatni tuyish, badiiy manzarani jonlantirish jarayonining ishtirokchisi martabasiga ko‘tarishga urinish natijasidir” (Қозоқбой Йўлдошев. Ёниқ сўз, 67-bet). Yuqoridagi fikrlar isboti sifatida Faxriyor ijodida ham mavjud bo‘lgan qisqa she’rlarni tahlilga tortamiz.

oy
arshi a’loning
faromush farishtalar
yopmay ketgan tuynugi [2. Faxriyor. Izlam. – Toshkent: Akademnashr NMM, 2023. 281-bet]

Bir qarashda she’rda ifodalangan ma’noni tushunish mushkul ko‘rinadi, shu sababli yuqorida aytilganidek, she’rning ichki ma’nolariga nazar tashlaymiz. Avvalo, satrlardagi obrazlarning qanday ma’no tashiyotganiga e’tibor qaratsak, oy - quyoshdan nur oluvchi jism (uning boshqa ma’nolari ham bor, ammo she’rda faqat shu ma’noda kelgani sababli shuni keltiramiz),

Arshi a’lo - (Arabcha, Arsh — taxt, a’lo — buyuk) — buyuk taxt. Islom aqidasiga ko‘ra, Arsh yer, osmonlar, yulduzlar va Kursiydan ham katta hajmda bo‘lib, Alloh yaratgan barcha narsadan u buyuk va kattadir. Qur’oni Karim oyatlarida Arshi a’lo to‘g‘risida 23 joyda bayon etiladi. Masalan, “Hud” surasining 7-oyatida: “Alloh shunday (buyuk va qudratli) zotdurkim, yer-u osmonlarni olti kunda yaratdi, holbuki uning Arshi suv ustida edi”, deyiladi. Islom ta’limoti bo‘yicha Arsh va boshqa buyuk mavjudotlarni yaratishdan Allohning maqsadi ulardan o‘zi yoki boshqalar foydalanishi yoxud ularga ehtiyoji borligi uchun emas, balki o‘zining qudrat va imkoniyati naqadar cheksiz ekanligini namoyon etishdir. Ba’zi noto‘g‘ri aqida egalari, Arsh Allohning taxti, unda makon tutib o‘tiradi,deb xatoga ketadilar. [https://milliycha.uz/kr/arshialo/?ysclid=m3vo7lo4ye927450088]

Faromush – parishonxotir, xayolchan, xayoli qochgan holatda, o‘zini unutgan holda degan ma’noni anglatadi [4. https://uz.wiktionary.org/wiki/faromush].

Farishtalar – Alloh taoloning qullari bo‘lib, faqat Allohning buyruqlarini bajaradilar, erkaklik va ayollik sifati bilan sifatlanmaydilar. Zamonamizning katta ulamolaridan biri Doktor Hamza al-Bakriy “al-aqoid an-Nasafiy” kitobiga yozgan “usus al-aqidat al-islamiyya” sharhida farishtalarga shunday ta’rif beradi: Farishta turli xil chiroyli ko‘rinishlarga kira oladigan, latif, jismlari nurdan yaratilgandir. Oziq-ovqat yemaydi ham, ichmaydi ham, o‘zidan nasl qoldirmaydi, ularda erkaklik va xotinlik ham yo‘qdir. Farishtalar toat va ma’siyat qilishda ixtiyorli emaslar, negaki ular faqat Alloh taologa doimo itoatda bo‘ladigan qilib yaratilganlar. Ularda hech qachon gunoh sodir bo‘lmaydi.[5. https://www.mir-arab.uz/ruknlar/1151]

Tuynuk–yorug‘lik,havo kirib turishi yoki boshqa maqsadlar uchun qoldirilgan to‘rtburchak yoki doiraviy teshik(https://uz.wiktionary.org/wiki/tuynuk).

Bu yerda oy tuynukka o‘xshatiladi, Arshi a’lo Allohning eng buyuk yaratig‘i ekan, demak oy ham uning bir bo‘lagi, uning go‘zalligi shundandir. Arshi a’lo shunchalar buyukki, buyukligining bir parchasi ham ulug‘lik timsolidir. Shoir shunday demoqchiki, oy bekordan bekorga go‘zallik timsoli emas, bekordan bekorga oshiqlar yorini oyga qiyoslamaydi. Xuddi shoir to‘rt qatorda buyuk haqiqatni ochib berganiga guvoh bo‘lamiz. “Bu davr she’riyatida o‘tkir gap aytish, dono fikr bildirish, nasihat, aql o‘rgatish emas, balki inson ruhining murakkab, ismsiz manzaralarini aks ettirishga e’tibor kuchaydi. Hissiyot

qatlamlarini tadqiq etish, odam ruhiyatidagi boy va rangin iqlimlarni poetik kashf etishga urinish kuchaydi”. (Қозоқбой Йўлдошев. Ёниқ сўз. 123-bet.) Yuqoridagi tahlil orqali shu fikrlar o‘z isbotini topgandek bo‘ladi.

Oy obrazi Faxriyor ijodida uchraydigan eng sermahsul detallardan biridir. Ayrim o‘rinlarda oy detal, ayrim o‘rinda esa obraz sifatida gavdalanadi. Biz hozirgacha Faxriyor deb so‘z boshlaganimizda atrofdagilar ongida uning “oybolta”si keladi. Shu sababli ham keng ommaga uning ijodidagi oy obrazi bilan e’tirof etishga arzigulik asarlari juda ko‘pligini tahlillar orqali havola qilmoqchimiz.

oy
yuzing dog‘lariga qarab yig‘ladim
kutayotgan farzanding menmi
erta bir kun tug‘ilsam
otimni ne qo‘yursan
mashrab debmi
yo xorazmshohday
otsiz bo‘lurmanmi men (Faxriyor. Izlam. 282-bet)

Ayolni oy yuzli deb ta’riflash adabiyotimizda ko‘p uchraydi. Oyning yuzida dog‘i borligini hammamiz ko‘rganmiz, xo‘sh, ayolning yuzidagi dog‘i ko‘pincha nimani ifodalaydi? Tibbiyotda homilador ayollarning yuziga dog‘ tushishi haqida eshitganmiz. Bunga sabab quyosh, ko‘pincha quyosh nuri ekanligi aytiladi. Endi e’tibor bering, Oy aslida Quyoshdan nur oladi, demak uning yuzidagi dog‘larga quyosh sabab bo‘ldimikan. Lekin nega lirik qahramon yig‘ladi, Ayol yuzidagi dog‘lar, balki boshqa sababdandir qiyinchilik, azob-uqubatdandir. Balki uning boshida kulfatlar bordir. Nega shoir Mashrab va Otsizni eslaydi, Otsiz – Xorazm hukmdori, muarrixlar uni turli qiyofada va holatda tasvir etishadi. Goh u haqiqat va adolat istagan rahnamo, ilm-u ijod, din ahlining homiysi, goh qattiqqo‘l va g‘azabnok hukmdor sifatida namoyon bo‘ladi. Ammo barcha tarixnavislar Xorazmshohning noyob fazilatli va iste’dodli inson bo‘lganligiga tan berishadi. Otsizning asosiy raqibi Sulton Sanjar bo‘lib, unga qarshi ko‘p bora mardonavor jang qilgan. Xorazmni mustaqil qilish yo‘lida ter to‘kkan hukmdor bo‘lgan [6. http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/102]. Mashrab ham Otsiz singari otadan yosh yetim qolgan [7. https://qomus.info/oz/encyclopedia/m/mashrab/]. Ikkalasi ham hayoti davomida darbadarlikda kun kechirgan. Shoir bu faktlar orqali nima demoqchi? Farzand kutayotgan bir ayolni tasvirlab uning dard va g‘amlarini ochib bermoqchimikan, Oyning yuzi shu hayot yo‘lida duch kelgan qiyinchiliklar sabab dog‘ bo‘lgandir, endi ularni yuvish uchun yoki Mashrabdek yoki Otsizdek darbadar o‘g‘il bo‘lish kerakmikan. Shu yerda oy yuzli ayolni baxtli qilish shu farzandning kim bo‘lib kamolga yetishiga bog‘liqligini hammamiz anglab yetamiz, albatta. Kichik satrlar shunaqa, unda sizga pand-nasihat, o‘git berilmaydi. Sizga 8 misra bilan xulosa chiqarishga imkon beriladi, xolos.

oy
tirnoq
ayol
zorlik (Faxriyor. Izlam. - 282-bet)

Bir qarashda 4 ta so‘zdan iborat she’r ham bo‘ladimi degan fikr beixtiyor hammamizning xayolimizga keladi. Shuni aytib o‘tish kerakki, shakl doim birlamchi bo‘lib kelgan. Mazmun saqlangan holda ifoda go‘zal bo‘lsa, she’r, albatta, yaratiladi. Ushbu yuqoridagi oy, tirnoq, ayol, zorlik satrlarini o‘qiganimizda ongimizda oy va oyga termilib turgan ayol gavdalanadi, nega u bedor bo‘lishi mumkin, nega uning halovati yo‘q, chunki unga hamroh ovunchoq bo‘ladigan farzand yo‘q. U tirnoqqa zor ona, u faqat oy bilan tillashadi, so‘zlashadi. Bu fikrlar bizning tahlillarimiz, bizning dunyoqarashimizdan kelib chiqib aytadigan tushunchalarimiz, bu satrlarni yana kimdir boshqacha tushunishi ham mumkin, agar shunday bo‘lsa bu shoirning eng katta yutug‘i bo‘ladi. Chunki shu orqali insonda fikrlash, olamni, voqea-hodisalarni anglash qobiliyati shakllana boradi.

dehqonning xotini
homilador oy
o‘roq tug‘adi
sukunat esa
ko‘zi yoriyotgan oy qichqirig‘i (Faxriyor. Izlam. -282-bet)

She’rda tasvirlash juda muhim. Oddiy so‘zlarni go‘zal qilib tasvirlash, albatta, shoirning mahoratiga bog‘liq. Masalan, yuqorida sukunat va qichqiriq o‘z navbatida antonim so‘zlar bo‘lgani qatorida, sukunatning qichqiriqqa o‘xshatilishini ko‘ramiz. Homilador ayol holati esa oyga ko‘chib o‘ziga xos ma’no tashigan. Oyning ingichka yangi chiqqan paytdagi ko‘rinishi xuddi o‘roqqa o‘xshatiladi, albatta bu holat tunda yoki erta tongda ro‘y berishi mumkin, keyin bir savol tug‘iladi “dehqonning xotini” satri nimani anglatadi? Buni shunday ifodalashimiz mumkinki, dehqon doimo mehnat qiladi, tinim bilmaydi. Uning ayoli ham xuddi shunday, xoh tun bo‘lsin, xoh tong u ishga, mehnatga shoshadi, o‘roq detali ham bevosita shunga ishora qiladi. Oy yana ayolni ifodalaydi, uning ishi tunni yoritish, ayol esa kunni o‘z mehnati mashaqqati bilan yakunlaydi.

men

oy nurida turgan ruhimning
yerga tushgan ko‘lankasiman (Faxriyor. Izlam. - 282-bet)

Kishi hayotligida u bilan birga, vafotidan keyin esa tanadan chiqib, abadiy qoladigan ko‘zga ko‘rinmas narsa ruh. (8. https://uz.wiktionary.org/wiki/ruh) Ruhning bundan tashqari ham bir nechta ma’nolari mavjud. Kishining ichki dunyosini, ma’naviy qiyofasini, o‘y-fikrlarini, maslak va maqsadlarini aks ettiruvchi kayfiyati ham uning ruhi deyiladi. Shoirning ruhi oy nurida turar ekan, uning ko‘lankasigina yerga tushgan, demak, inson ruhi ulug‘, unda yuksaklik bor, Alloh taolo insonni mavjudotlar ichida eng buyugi qilib yaratgan ekan, uning ruhi buyukligicha qolaveradi, ammo ko‘lanka-chi, uning bir qancha ma’nolariga to‘xtalib o‘tsak:

1. Oftob nuridan to‘silgan joy; soya.
2. Kishi va narsalarning yorug‘likka qarama-qarshi tomonga tushadigan soyasi.
3. Uzoqda, qorong‘ilikda, tumanda g‘ira-shira ko‘ringan narsa; qora, sharpa. (9. https://izoh.uz/word/ko%E2%80%98lanka)

Oy nurida turgan ruhning ko‘lankasi bo‘lib qolish yoki buyuklik sifatida yaralgan inson bir soya bo‘lib yashashi kerakmi? Yo‘q, hamma soya misol dunyoga kelarkan, o‘zidan nur yaratib yana osmonga ko‘tarilishi kerak, soya bo‘lib qolmasligi shart. Hayotdan bir sharpa kabi o‘tib ketmasdan o‘zidan nimadir qoldirishi shart. Chunki inson ruhi yuksak ekan, u faqat yuksaklikka intilishi kerak, mayda ikir-chikirlarga aralashib buyuk yaratiq nomiga dog‘ tushirmasligi kerak. Asosiysi, ko‘lanka bo‘lib qolmaslik, shoir ham shuni nazarda tutgan deb o‘ylaymiz.

oyuzuk (2. Faxriyor. Izlam. 282-bet)

Faxriyor she’riyatida o‘ziga xoslik deganda ko‘pincha qisqalik, qisqa so‘zlarda ma’no ifodalashni ko‘p uchratamiz. “oyuzuk” bitta so‘z, bitta she’r shunaqasi ham bo‘lishi mumkinmi? Bo‘lishi mumkin. Shoir ikki so‘z, oy va uzuk so‘zlaridan bir so‘z yasab, bir she’r yaratdi. Xo‘sh, bu she’rda qanday ma’no bor. Uzuk shakliga qarasak to‘lin oy shaklini ko‘ramiz, to‘lin oyga qarasak esa u ham uzuk shaklida. Uzuk qanday ma’no ifodalaydi? nega aynan oyuzuk, tilla uzuk, yoqut uzuk, kumush uzuk emas deganda shu fikrni ilgari sursak to‘g‘ri bo‘ladi, oy go‘zallikni ifodalaydi, uzuk o‘z o‘rnida nikoh, sadoqat ramzi bo‘lib qoladi, ushbu satrda oila ham, hayot ham oy singari go‘zal bo‘lishi kerak, oilalarda sadoqat bo‘lishi kerak, oyning go‘zalligi uzukka ko‘chyaptimi demak oydek yuksak nikoh bo‘lishi kerak, unga atrofdagi muammolar chang solmasligi kerak, oy kabi yuksakda turmog‘i lozim, barmoqda yopishib turgani kabi oila ham mustahkam bo‘lishi lozim. Aks holda oila darz ketadi, jamiyat buziladi. Hayot o‘z ma’nosini yo‘qotadi. Xuddi shu tarzda bir satrda, bir so‘zda she’r yaratiladi.

Xulosa. Shoir Faxriyor she’riyatida mavjud bo‘lgan oy timsoli bilan bog‘liq satrlarda mavjud ma’nolar talqini turlicha bo‘lib, izlanishlar davomida bir-biriga o‘xshamagan misollar va o‘xshatishlar orqali asl ma’noni ifodalash va insonni fikrlashga undovchi yashirin ma’nolarni topishga harakat qildik. Mavjud nazariy asoslar orqali tahlilga tortdik. Xulosa qilib aytganda, oy shoir ijodida go‘zallik va ulug‘lik ma’nosini, bundan tashqari hayotda go‘zallikka intilib yashashga chorlovchi nur ma’nosida kelganiga guvoh bo‘ldik. Shuningdek, bir satrli she’r ham o‘zida yirik she’rlar tashiydigan ma’noni tashiy olishiga ham shohid bo‘ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Қозоқбой Йўлдошев. Ёниқ сўз. Янги аср авлоди. –Тошкент. 2006-йил. Б.539
2. Faxriyor. Izlam. –Toshkent: Akademnashr NMM, 2023. B 448.
3. https://milliycha.uz/kr/arshi-alo/?ysclid=m3vo7lo4ye927450088
4. https://uz.wiktionary.org/wiki/faromush
5. https://www.mirarab.uz/ruknlar/1151
6. http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/102
7. https://qomus.info/oz/encyclopedia/m/mashrab/
8. https://uz.wiktionary.org/wiki/ruh
9. https://izoh.uz/word/ko%E2%80%98lanka

Zuhro RAJABOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistranti

“BAYOZI MUXAMMASOT” QO‘LYOZMALARINING ILMIY TAVSIFI

Annotatsiya: maqolada “Bayozi muxammasot” qo‘lyozmalarining tarkibi, tuzilishi, nusxalar o‘rtasidagi farqlar va ularni saralash tamoyillari o‘rganilgan, qo‘lyozmalar matniy jihatdan tahlil qilingan, qo‘lyozma nusxalarida muxammas janri statistikasi va ular o‘rtasidagi tafovutlar ochib berilgan, bayoz janri xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *qo‘lyozma nusxa, muxammasot, ruboiyot, musaddasot, musabba’, murabba’, bayoz, nasta’liq, basmala, farqlash, poygir*

Аннотация: в данной статье изучаются состав, структура, различия экземпляров и принципы их сортировки рукописей «Байози мухаммасот», анализируются рукописи текстуально, рукописные копии статистики жанра мухаммаса и выявлены различия между ними, выделены жанровые особенности байоза.

Ключевые слова: *рукописный экземпляр, мухамасот, рубайот, мусаддасат, мусабба, мурабба, баяз, насталик, басмала, отличие, пойгир*

Annotation: the article examines the composition, structure, differences between copies and the principles of their sorting of «Bayozi mukhammasot» manuscripts, analyzes the manuscripts textually, reveals the statistics of the mukhammas genre in the manuscript copies and the differences between them, bayoz genre features are highlighted.

Key words: *manuscript copy, mukhammasot, rubaiyot, musaddasot, musabba, murabba, bayaz, nastaliq, basmala, distinction, poygir*

“Bayozi muxammasot” qo‘lyozmasi bir davrda yashagan ijodkorlarning bir xil janrdagi she’rlaridan tuzilgan bayoz kitobidir. Bu qo‘lyozmaning 6 ta nusxasi №1135, №1130, №1127, №1126, №1128, №1129 raqamlari bilan O’zFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda. Ular nusxalar deyilishiga qaramasdan orasidagi farqlar anchagina. Xorazm adabiy muhitiga oid mazkur qo‘lyozmada Xorazm shoirlarining she’rlari keltirilgan va bu qo’lyozmada muxammas janridan tashqari ruboiy, musaddas, murabba’ janri namunalarini ham ko‘rishimiz mumkin. Nusxalarning har biri an’anaviy basmala bilan boshlanadi. Ularni yanada aniqroq o‘rganish uchun nusxalarga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

№ 1135 raqamli qo‘lyozma ko’rinishi: hajm jihatidan katta, qattiq ko‘k muqovali, anchagina chetlari qirilgan, lekin ichidagi varoqlari butun holicha yetib kelgan, qog‘ozlar vaqt o‘tishi hisobiga sarg‘aygan. Kitobning birinchi betida sarlavha sifatida «تاىىّ ابر و تاسمخم" so’zlari yozilgan. Demak, bu qo‘lyozma nusxada muxammas va ruboiy janridagi she’rlar jamlangan. Kitob ichiga nazar solsak, birinchi varog‘i an’anaviy basmala – “Bismillohir ar-rohmanir rohiym” kalimasi bilan boshlanadi. Bu qismi chiroyli naqshinkor qilib bezatilgan. Siyohrang, moviy, qizil ranglar uyg‘unligida gulsimon naqsh chizilgan. Muxammas va ruboiy matnlari jadval ichida ko‘ndalang berilgan. Jadvalni chizishda oltin suvi yuritilgan. Poygir qog‘oz chetida emas, balki jadval ichida misralar oxirida yozilgan. Kitobda poygir bo‘lishiga qaramasdan kitob varaqlari raqamlangan. Bu qo‘lyozma 192 varoqdan iborat.

Bu qo‘lyozma nusxa faqat muxammas va ruboiylardan tashkil topgan. Muhammad Rizo Ogahiy, Shermuhammad Munis, Rojiy, Xolis, Komil, Navoiy ismli shoirlarning muxammaslari va Umar Xayyom, Shayx Sa’diy, Xo‘ja Hofiz, Jomiy, Savjiy, Anvoriy, Xoqoniy ismli shoirlarning ruboiylari o‘rin olgan. Muxammaslar turkiy tilda, ruboiylar esa fors tilida yozilgan. Kitob boshlanishidagi birinchi muxammas Ogahiy qalamiga mansub bo’lib, "یکهآ سمخم" – “Muxammasi Ogahi” shaklida yozilgan va har bir muxammasi yoniga arab sonlari bilan raqamlab ketilgan. Qo‘lyozmada Ogahiy muxammaslari 84 ta bo‘lib, jami 659 bandni tashkil qiladi va har biri 5 misradan iborat. Asardagi eng ko‘p yozilgan muxammaslar ham aynan Ogahiy qalamiga oid. Shermuhammad Munis qalamiga oid muxammaslar 18 tani tashkil qilib, jami 117 banddan iborat. Rojiy muxammaslari 28 ta 179 band, Xolis muxammaslari 30 ta 207 band, Komil muxammaslari 32 ta 228 band, Navoiyning 5 ta muxammasi 40 banddan iborat, qo‘lyozma so‘nggida yana Munis muxammaslari berilgan, 13 ta muxammas 92 bandni tashkil qiladi. Ruboiylar varoq chetida har bir betda 3 tadan jadval ichiga yozilgan. Ularda ham poygir berilgan. Basmala bilan boshlanadi. Birinchi ruboiy Umar Xayyom qalamiga tegishli. Ruboiylarning har bandi ustiga qizil rangda یعابر - ruboiy so‘zi yozilgan. Muallifi esa varoq yuqorisida yozilgan. Ruboiylar fors tilida. Umar Xayyomning 367 ta ruboiysi, Shayx Sa’diy ruboiysi 181 ta, Xo‘ja Hofiz 119 ta, Jomiy 124 ta(JOMIY ruboi-

ylari oxirida kotib tomonidan oyi va yili yozib ketilgan – Zulhijja oyi,1318.) Samoni Savjiy 116 ta, Anvoriy 203 ta, Xoqoniy 11 ta ruboiysi keltirilgan.

№ 1130 raqamli qo‘lyozma – qora qattiq jildli, qattiq qog‘ozga yozilgani uchun so‘zlar o‘z holicha rangi o‘chmasdan, siyohi ko‘chmasdan hozirgacha saqlangan. Har bir varoqqa zar sepilgan. Bu qo‘lyozmada faqat muxammas janridagi she’rlar berilgan. Har bir betida 3 ta muxammas jadval ichida yozilgan. Oldingi nusxadan farqli ravishda bunda poygirlar yo‘q. Birinchi varog‘i an’anaviy basmala bilan boshlanadi. Birinchi varog‘ini bezashda naqshinkor bezak chizilgan va bunda ko‘k, yashil, qizil ranglardan foydalanilgan. Jadvalda tilla suvi yuritilgan. Bu qo‘lyozmada ham Xorazm adabiyoti vakillaridan Umidiy, Inoyat, Ojziy, Haqiriy, Shinoziy, Habib, Xokiy, Yusuf, Tabibiy, Rog‘ib, Devoniy, Xodim, Pokiy, Xoruz, Avaz muxammaslari o‘rin olgan. Oldingi nusxadan farqli ravishda bu qo‘lyozmada bitta ham ruboiy berilmagan.

№ 1127 raqamli qo‘lyozma bayoz och yashil rangli, qattiq jildli. Bu qo‘lyozmaning muqovasi chetiga “ ضای ب تاسمخم “ deb yozilgan. Qo‘lyozma 154 betdan iborat. Bu qo‘lyozmaga Sotoniy, Feruzshohiy, Sodiq, Sa’diy, G‘oziy, Asad, Bayoniy, Oqil, Nazir, Shinosiy, G‘ulomiy, Purkomil, Kamoliy, Umidiy, Xabib, Inoyat, Ojziy, Niyoziy, Xokiy, Yusuf, Rog‘ib, Devoniy, Mutrib Xonaxarob, Avaz, Nadimiy, Xodim, Chokar, Mirzo, Tabibiylarning muxammas janridagi she’rlari kiritilgan. Oldingi nusxadan farqli ravishda birinchi varog‘i –basmala qismi oddiy, hech qanday bezak va naqshlarsiz yozilgan. Bu qo‘lyozmadagi birinchi muxammas Sotoniyga tegishli bo’lib “یسمخم یناطاس” shaklida yozilgan. Bu qo‘lyozmaning oxirgi 153-sahifasida forscha 5 ta ruboiy keltirilgan. Bu qo‘lyozma bayoz Feruzning topshirig‘i bilan hijriy 1326-yilda Muhammad Yaqub Devon tomonidan ko‘chirilgan va kitob oxirida shunday keladi: “ Alhamdulillahi va-l-minna oliy hazrat rafi manzilat sultonu-z-zamon, boisi al-amnu va-l-amon, a’ni Abdulmuzaffar va-l-Mansur Abulg’oziy Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon soniy xalladallohu taolo mulkahu va davlatahu zayyada umrahu, ul oliy hazratning farmoni vojiblari bo’lib, bu bayozi muxammasotni faqiru-l-haqir Muhammad Ya’qub devon mulaqqabi bi Xarrot, sanai 1326 lanji yil muofiqi bijan yili mohi safaroni 22lanji Chahorshanba kuni yozib itmomg’a yetkurdi”[1].

№ 1126 raqamli qo‘lyozma ham xuddi shunday ko‘rinishga ega. Lekin oldingi qo‘lyozmadan farqi kitob varoqlari boshdan oxirigacha ko‘k rangda. Muqovasiga ضای " تاسمخم “ deb asar nomi yozilgan. Muxammasotning bu nusxasiga Sodiq, Oqil, Tabibiy, Bayoniy, Mirzo, Dog‘iy, Xokiy, Ojziy, Haqiriy, Niyoziy, Kamoliy, Xayoliy, Devoniy, Asad, Xodim, Haqiriy, G‘oziy, Avaz, Habib, Umidiy, Nazir, Muznib, jami 30 ga yaqin shoirning Feruz, Navoiy, Munis, Amirning g’azallariga bog’lab yozilgan muxammaslari va musaddaslari kiritilgan. Bu muxammasotda boshqalaridan farqli ravishda Oqilning bitta musabbasi, Xokiyning bitta murabbasi, Ojziy, Bayoniy, G‘ulomiyning musaddaslari berilgan va asar oxirida fors tilida 3 ta ruboiy keltirilgan. Bu qo‘lyozma ham hijriy 1326-yil Mohi rabiul avval oyining o‘n beshinchi kuni Muhammad Ya’qub Devon tomonidan ko‘chirilgan.

№ 1128 raqamli qo‘lyozma yashil rangli, qattiq karton bilan muqovalangan, kitobga yupqa shaldiroq qog‘oz ishlatilgan, umumiy hajmi 163 betdan iborat. Kitobni ochgandan keyingi birinchi varoqda " یباتک ضایب" jumlasi yozilgan, ya’ni bayoz kitobi degani. Bu kitob ham basmala bilan boshlanadi. Basmala qismi ko‘k, yashil, sariq ranglar uyg’unligida naqsh chizilgan. Bu qo‘lyozma faqat muxammasotlardan tashkil topgan. Tabibiy, Oqil, Sa’diy, Ojziy, Avaz, Devoniy, Asad, Xokiy, Umidiy, Sodiq, Kamoliy, Xayoliy, Niyoziy, Dog‘iy, Haqiriy, Yusuf, Habib, Purkomil, Shinosiy, G‘ulomiy, Avaz va Rog’iblarning muxammaslari shu ketma-ketlikda yozilgan. Asar oxirida kotib Muhammad Ya’qub Devon kitobning 1325-yili rabiul soniy oyining o‘n beshinchi kuni shanba kuni yozib tugatilganligini aytib o‘tadi.

№ 1129 raqamli muxammasot qattiq qora karton bilan muqovalangan. Qora va qizil siyohda nasta’liq xatida ko’chirilgan. Kitobning birinchi sahifasi ko‘k,yashil, pushti, ranglar bilan bezatilgan naqshinkor unvon berilgan. Har bir sahifada 20 satr she’r berilgan. Bu muxammasot ham Feruzning topshirig’i bilan hijriy 1327, milodiy 1909-yilda Muhammad Ya’qub Devon Xarrot tomonidan ko‘chirilgan. Kolofonda: “ Lillahi-l-hamd va-l-minnah oliy hazrat raf’imanzilat zillu-s-Subhon, xalifatu-r-Rahmon boisi al-amnu va-l-omon Abulmuzaffar va-l-Mansur Abulg‘ozi Sayyid Muhammad Rahim bahodirxon soniy, xalladallohu taolo mulkahu va davlatahu va zayyada umrahu, ul oliy hazratning farmoni oliylari birlan bu muxammasot bayozni bir ming uch yuz yigirma yettilanji yil, mohi jumod-ul avvalini avvali Chahorshanba kuni bu faqir al-haqir Muhammad Ya’qub devon ibn usto Qurbonniyoz Xorazmiy mulaqqabi ba Xarrot yozib itmom sarhadig’a yetkurdi” deb tamomlangan.

Xulosa shuki, biz bu qo‘lyozma manbalarini o‘rgansak, hozirgi hayotimizga tatbiq qilsak, tariximizni, adabiyotimizni, ajdodlarimizni yanada to‘laqonli o‘rgangan va bo‘sh qolgan o‘rinlarni to‘ldirgan bo‘lamiz. Bu kabi qo‘lyozma bayozlar ma’lum sabablarga ko‘ra devon tuzmagan, yoki devonlari bugungi kungacha saqlanmagan, ma’lum sabablarga ko‘ra yo‘qolgan shoirlarning ijodini tiklashda, hayoti va ijodi hali o‘rganilmagan shoirlarning tarjimayi holini o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

1 Шукурова З. Урта Осиёда баёз тузиш ан’анасининг пайдо булиши.//Lisoniy meros va tilshunoslik taraqqiyoti. 2023. 398-401-б.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Шукурова З. Урта Осиёда баёз тузиш ан'анасининг пайдо булиши.//Lisoniy meros va tilshunoslik taraqqiyoti. 2023. Б.398-401

2.Хамидова М. Кулёзма баёзлар – адабий манба. – Тошкент: Фан, 1981. Б.28



Dilrabo KOMILOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti
isobekjumaniyazov@gmail.com

YANGIBOZOR (XORAZM) SHEVASI SAVDO MUNOSABATLARIDA ISHLATILADIGAN BA'ZI SO'ZLAR XUSUSIDA

Annotatsiya: Xorazm shevalari ko'p qirrali bo'lib,shu paytgacha fonetik, leksik, grammatik jihatlari o'rganilgan. Maqolada Yangibozor (Xorazm) shevalari savdo munosabatlarida foydalaniladigan ba'zi leksik birliklar kichik mavzuviy guruhlarga ajratilgan holda tahlil etilgan.Unda jonli muloqot jarayonida qo'llaniladigan sheva unsurlari obyekt bo'lib xizmat qildi.Bu unsurlarni tahlil etishda "Devoni lug'oti-t-turk" asari hamda "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan foydalanilgan holda amalga oshirildi.

Kalit so'zlar*: sheva, leksema, Yangibozor, savdo, xaridor, sotuvchi, mahsulot.*

Annotation: Khorezm dialects are multifaceted, phonetic, lexical and grammatical aspects have been studied so far. In the article, some lexical units used in trade relations of Yangibozor (Khorazm) dialects are analyzed, separated into small thematic groups. In it, the elements of the dialect used in the process of live communication served as an object. was carried out using the explanatory dictionary of the language.

Key words*: dialect, lexeme,Yangibazar, trade, buyer, seller, product*

Аннотация: Хорезмские диалекты многогранны, фонетический, лексический и грамматический аспекты изучены до сих пор. В статье проанализированы некоторые лексические единицы, используемые в торговых отношениях янгибазорских (хорезмийских) диалектов, разделенные на небольшие тематические группы. В ней объектом служили элементы диалекта, используемые в процессе живого общения. толковый словарь языка.

Ключевые слова: *диалект, лексема, Новый рынок, торговля, покупатель, продавец, товар.*

Shevalar tilimizning bebaho xazinasi hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa, leksikada ko'proq namoyon bo'ladi. Shu boisdan ham shevalar tilimiz lug'at boyligini oshirishda muhim ahamiyatga ega, shuningdek "Til korpus"ini yaratishda alohida obyekt bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, S.Ashirboyev ta'kidlaganidek: "Har bir xalq o'z mahalliy shevalarida muloqot yuritadi, binobarin, xalq o'z shevasi bilan birga yashaydi va sheva ham xalqning butun borlig'ini moddiy va ma'naviy dunyosini, his-tuyg'ularini ifoda qiladi hamda bu jarayonda u to'xtovsiz rivojlanish sari faoliyatda bo'ladi va boyib boradi"[1].

Darhaqiqat, shevalar til zaxiramizning asosi hisoblanadi. Shu qatorda Xorazm shevalari ham o'zining serqirraligi bilan ahamiyatlidir. Xorazm shevalarini qator olimlar turli tomondan tadqiq etganlar.Jumladan, A.F.Abdullayev "O'zbek tilining o'g'uz lahjasi", Y.Jumanazarov "O'zbek tili janubiy Xorazm (o'g'uz) dialektining sintaktik qurilishi", O.Madrahimov "O'zbek tili o'g'uz lahjasining Xiva shevasi" ni o'rganganlar[2]. Ular Xorazm shevalarini fonetik,leksik,grammatik jihatdan tahlil qilganlar. Xorazm shevalari til sathlarining turli jabhalarida o'rganilgan bo'lsa ham, biroq ular leksikasini ham hududiy, ham sohalar bo'yicha ajratgan holda o'rganish ishlari hali to'laligicha amalga oshirilmagan. Shu boisdan ham biz ushbu maqolamizda Yangibozor (Xorazm) shevasi savdo munosabatlarida ishlatiladigan ba'zi so'zlarni obyekt sifatida oldik.

Narx va savdolashuvga oid so'zlar:

nïčča söm- "narxi qancha?" degan ma'noni anglatadi. Bu so'z orqali xaridor mahsulot tannarxini so'ragan bo'ladi: *Mïnav närsä nïčča söm?*;

nerniki?– "qayerniki?". Bu so'z mahsulotning qayerda ishlab chiqarilganligini bilish uchun qo'llaniladi: *Bï idiš nerniki?*;

1 Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. –Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 3.

2 Abdullayev F. O'zbek tilining o'g'uz lahjasi. –Toshkent: Fan,1978. – B. 112.// Jumanazarov Y. O'zbek tili janubiy Xorazm (o'g'uz) dialektining sintaktik qurilishi. –Toshkent: Fan, 1976. – B. 133.// Madrahimov O. O'zbek tili o'g'uz lahjasining Xiva shevasi. –Xorazm. – B. 193.

njüvvïdan böyan/navvïdan böyan?– “nimadan tayyorlangan” degan ma’noni bildirib, mahsulotning tarkibi haqida ma’lumot olish uchun so‘raladi*: Ijbï köjläk njüvvïdan böyan/navvïdan böyan?*;

nïččallïm/nïččaklïm alasïz?–“qancha miqdorda olasiz?”. Bu savol,asosan, sotuvchi tomonidan berilib,xaridning qancha miqdorda bo‘lishini aniqlab olish uchun ishlatiladi: *Ajpa,gašïrdan nïččallïm/ nïččaklïm alasïz?*;

pïtta qajtïŋ – “biroz qayting”. Bu so‘zdan xaridor sotuvchidan mahsulot narxini biroz kamaytirishni so‘raganida qo‘llaniladi: *Qïmmat ajttïŋïz, pitta qajtïŋ indi*;

mïšajt bermoq– “halal bermoq”. Bu jumla savdo munosabatlarida,asosan, mahsulotning noqulaylik tug‘dirmasligini bilish maqsadida ishlatiladi*: Etägi uzun äkan,mïšajt bermimä?*

Mahsulot nomlari:

Kurta–yosh bolalar uchun mo‘ljallangan,ichiga paxta solib tikiladigan,tugmasiz ust kiyim bo‘lib,asosan, sovuq ob-havoda kiyiladi*:Balaya kurta kijgiz,töŋadï.*

Dönyïr – suyuq narsalar,masalan,sut,suv, yog‘,ayron kabi mahsulotlarni solib qo‘yish uchun ishlatiladigan,og‘zi yopiladigan,temir,misdan bo‘lgan idish: *Sutnï dönyïra sal.*

Qöllïq – qo‘lqop ma’nosini anglatadi. Bu so‘z “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida **“eliklik”**[1] tarzida qo‘llanilgan: *Qöllïqïŋï apčïq,qar öjnimiz.*

Guppï –bu so‘z “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”-da “Qalin paxtali chopon,to‘n” deb berilgan[2]. Biroq, shevada bu so‘z yengsiz,qalin kiyim ma’nosini ham bildiradi: *Guppïlarïŋïz yaxšïma?*Bugungi kunda bu so‘zning ma’nosiga chetdan o‘zlashtirilgan ǯaket (fr.jaquette –kalta ust kiyim;kurtka) ham iste’molda qo‘llaniladi. Xorazm shevalarining ba’zilarida **ičmäk** so‘zi ham shu ma’nodagi kiyim turi sifatida qo‘llaniladi. Bu so‘z “Devon”da ham mavjud:“ičmäk –qo‘zi terisidan qilingan po‘stin” deb berilgan[3].

Satl – go‘shtni qo‘lda qiyma holiga keltirish uchun ishlatiladigan,og‘ir,boltadan kichikroq bo‘lgan oshxona jihozi: *Satldï apkï,dunkïnï üstindä göš qöjdïm,čapïš karak.*

Tanqan – qumg‘on ma’nosiga ham to‘g‘ri keladi. Qumg‘on –choy qaynatish uchun ko‘pincha misdan yasaladigan, ichi qalay bilan oqartirilgan, ko‘zacha shaklidagi dastali va qopqoqli idish, katta choydish[4]. Tanqanni yana shaklan qumg‘onga o‘xshaydigan, lekin plastmassadan yasalgan namunasini ham shu nom bilan atashadi: *Tanqana suv sap apkï.*

Savdo bilan shug‘ullanuvchi shaxslarga oid so‘zlar:

Düxijči – atir-upa buyumlarini sotadigan shaxsga nisbatan qo‘llaniladi. Bunda düxi so‘zi chetdan kirib kelgan so‘z bo‘lib,atir ma’nosini anglatadi. Bu so‘zga o‘zbekcha so‘z yasovchi -chi affiksi qo‘shilib,shaxs oti yasalgan. -chi affiksining tarixi XI asr tilshunosi M.Koshg‘ariyning “Devoni”ga borib taqaladi. Bu tilshunos -chi qo‘shimchasini shaxs kasbini anglatuvchi affiks deb hisoblaydi[5].

Savdoga oid iboralar:

Bazarïŋïzï bersin – *savdo ishlaringiz yurishsin,mahsulotlaringiz xaridorgir bo‘lsin,degan ma’nolarda qo‘llaniladi.*

Öjnäb-**k**ülib **išlätiŋ–** *mazza qilib foydalaning,yaxshi narsalarga xizmat qilsin, degan ma’noni ifoda etadi.*

Jenäm kelib türiŋ – *kelasi safar ham bozor qilganda mening mahsulotlarimdan xarid qiling, degan ma’noni bildirib,asosan, xarid yakunlanganida sotuvchining xaridorga murojaat qiladigan shakli hisoblanadi.*

Shevalar o‘zbek tilining muhim tarkibiy qismi,xalqning boyligi hisoblanadi.Demak,ularni o‘rganish,tahlil etish muhim vazifalar sirasiga kiradi. Yuqorida qayd etilgan so‘zlar ham ushbu yo‘lda amalga oshirilgan izlanishlardir. Bugungi globallashuv jarayonida tilimiz xazinasi bo‘lgan shevalarimizni asrash ahamiyatga molikdir. Shu boisdan ham bu borada dialektologik tadqiqotlarning o‘rni muhimdir. Chunki shevalarimiz zamirida milliy o‘zligimiz va qadriyatlarimiz asrlar osha bizgacha yetib kelgan.

1 M.Koshg‘ariy . Devonu lug‘ati-t-turk. –Toshkent:G‘afur G‘ulom,2017. – B.I,168-24 (Nashrga tayyorlovchi:Qosimjon Sodiqov)

2 O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –Toshkent:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. I jild. – B. 527.

3 M.Koshg‘ariy . Devonu lug‘ati-t-turk. –Toshkent:G‘afur G‘ulom,2017. – B.I,127 - 30(Nashrga tayyorlovchi:Qosimjon Sodiqov)

4 O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –Toshkent:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.V jild. – B. 378.

5 Qurbonova M. O‘zbek shevalarida “-chi” affiksining so‘z yasovchilik xususiyatlari. –Toshkent:Fan,1995. –B.59.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. –T.: Nodirabegim.2021
2.Abdullayev F. O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi. –Toshkent: Fan,1978
3.Jumanazarov Y. O‘zbek tili janubiy Xorazm (o‘g‘uz) dialektining sintaktik qurilishi. –Toshkent:Fan,1976
4.Madrahimov O. O‘zbek tili o‘g‘uz lahjasining Xiva shevasi. –Xorazm
5. Mahmud Koshg‘ariy. “Devonu lug‘ati-t-turk”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2017 (Nashrga tayyorlovchi: Qosimjon Sodiqov)
6.Qurbonova M. O‘zbek shevalarida “-chi” affiksining so‘z yasovchilik xususiyatlari. –Toshkent:Fan,1995
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006



Отабек ЖУМАЕВ,
преподаватель кафедры русского языка и литературы Термезского университета экономики и сервиса

ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ НАЦИОНАЛЬНО ГЕНДЕРНЫМ ПРОСТРАНСТВОМ И ЛИТЕРАТУРНЫМИ ТЕНДЕНЦИЯМИ В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация: актуальность данной статьи обусловлена тем, что литература служит важным средством исследования гендерной идентичности и национальной принадлежности. Русская и узбекская литературы имеют богатую историю и разнообразие, что позволяет выявить различные подходы к исследованию гендерных вопросов и национальной идентичности.

Ключевые слова: *гендер, гендерная идентичность, литература, гендерное пространство, литературные тенденции.*

Annotatsiya: ushbu maqolaning dolzarbligi adabiyotning gender o‘ziga xosligi va milliylikni o‘rganishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qilishi bilan bog‘liq. Rus va o‘zbek adabiyoti boy tarix va rang-baranglikka ega bo‘lib, bu bizga gender muammolari va milliy o‘zlikni o‘rganishga turlicha yondashuvlarni aniqlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: *gender, gender o‘ziga xoslik, adabiyot, gender makon, adabiy yo‘nalishlar.*

Annotation: the relevance of this article is due to the fact that literature serves as an important means of studying gender identity and nationality. Russian and Uzbek literature have a rich history and diversity, which allows us to identify different approaches to the study of gender issues and national identity.

Key words: *gender, gender identity, literature, gender space, literary trends.*

Введение

Вопросы гендера и национальной идентичности занимают важное место в исследовании литературы. Современные литературные исследования акцентируют внимание на взаимосвязи между национально-гендерным пространством и литературными тенденциями, подчеркивая, как литература отражает и формирует социальные нормы, культурные идентичности и политические реалии [5; с.66]. В данной статье рассматривается взаимосвязь между этими аспектами в контексте русской и узбекской литературы.

Основная часть

Национально-гендерное пространство можно определить, как совокупность социокультурных и исторических факторов, влияющих на восприятие гендерных ролей в рамках определенной нации. Литературные тенденции, в свою очередь, представляют собой изменяющиеся стилистические, тематические и жанровые направления в литературе, отражающие общественные изменения и культурные трансформации [1; с. 14].

Главной целью статьи является изучение влияния национально-гендерного пространства на развитие литературных тенденций в русской и узбекской литературе. Выявить ключевые произведения и авторов, отражающих эту взаимосвязь. Провести сравнительный анализ подходов к гендерным и национальным темам в обеих литературах.

Для глубокого понимания взаимосвязи между национально-гендерным пространством и литературными тенденциями мы постарались рассмотреть несколько ключевых понятий: гендер, национальная идентичность и их взаимовлияние в контексте литературы.

Гендер как социальная конструкция относится не только к биологическим различиям между мужчинами и женщинами, но и к культурным, социальным и историческим аспектам, формирующим представления о маскулинности.

В контексте русской и узбекской литературы можно отметить, как национальная идентичность проявляется через образы, символы и темы, связанные с историческим опытом народов, их культурными традициями и социальными изменениями.

На стыке гендера и национальности возникают сложные взаимосвязи, которые литература может исследовать и демонстрировать. Например, в русской литературе XIX века гендерные роли часто были связаны с идеалами национальной идентичности, где женские образы нередко выступали как символы национального духа или культурной целостности.

В узбекской литературе также наблюдается подобная динамика: женские персонажи могут олицетворять как традиционные ценности, так и изменения в социальной структуре общества. Произведения, отражающие эти изменения, становятся важными для понимания того, как литература отвечает на вызовы времени, сохраняя при этом культурные традиции.

Русская литература, начиная с XVIII века и до на-

стоящего времени, отражает сложные изменения в социальных и культурных условиях, формируя при этом особую парадигму гендерных и национальных идентичностей. В XVIII веке, во времена Просвещения, литература начинала осваивать новые темы, в том числе и гендерные. Образы женщин в произведениях таких авторов, как Александр Пушкин, часто связаны с романтическими идеалами, но также отражают реальные социальные условия жизни [3; с. 24].

С переходом к XX веку, особенно в советский период, произошли значительные изменения в представлении о гендере и национальной идентичности. Социалистические идеалы предписывали новые роли женщинам, представляя их как активных участников строительства нового общества. Литература того времени, включая работы таких авторов, как Анна Ахматова и Марина Цветаева, отражает сложные отношения между личным и общественным [6; с. 129].

Узбекская литература имеет богатую историю, охватывающую множество эпох и культурных влияний. С начала XX века, когда узбекский народ начал формировать свою национальную идентичность, литература также начала осваивать темы, связанные с гендером и национальной принадлежностью.

В советский период узбекская литература активно включается в общественные процессы, предлагая новые представления о гендерных ролях. Такие авторы как Гульноза Махмудова и Нодирахон, начинают исследовать темы феминизма и социальной справедливости, что способствует расширению пространства для обсуждения гендерных вопросов.

Русская литература предлагает множество примеров, где гендерные и национальные темы пересекаются. Важно рассмотреть, как различные авторы отражают эти аспекты в своих произведениях [7; с. 86].

Лев Толстой: «Анна Каренина». В романе «Анна Каренина» Толстой исследует не только трагедию отдельной женщины, но и более широкие социальные проблемы, связанные с семейными и гендерными ролями в российском обществе. Анна, как символ борьбы между личными желаниями и общественными нормами, демонстрирует, как гендерные стереотипы влияют на индивидуальную судьбу. Через ее историю Толстой затрагивает тему любви, верности и предательства, что в контексте российской культуры становится отражением более глубоких социальных конфликтов [2; с. 45].

Фёдор Достоевский: «Преступление и наказание». В «Преступлении и наказании» Достоевский также обращается к вопросу гендерных ролей, представив образ Сонечки Мармеладовой, который подчеркивает жертвенность и страдания женщин в патриархальном обществе. Соня, как олицетворение моральной чистоты и жертвенности, отражает идеалы, присущие российскому обществу, но также демонстрирует, как эти идеалы могут быть использованы для подавления личности [4; с. 71].

Узбекская литература также предлагает богатый выбор произведений, отражающих взаимосвязь между гендером и национальной идентичностью.

Чулпан: «Голос родины». В своих произведениях Чулпан поднимает вопросы национального самосознания и роли женщины в узбекском обществе. Его героини часто представляют собой символы устойчивости и силы, что подчеркивает важность женского вклада в формирование национальной идентичности. Чулпан исследует, как женские судьбы связаны с судьбой народа, подчеркивая их роль в социально-политических преобразованиях.

Литература становится площадкой для борьбы с предрассудками и стереотипами, создавая возможность для диалога и самовыражения. Современные авторы используют свои произведения, чтобы бросить вызов существующим нормам, что способствует формированию новых представлений о гендере и национальной идентичности.

В обеих литературах наблюдается четкое отражение социальных изменений, связанных с гендерными ролями и национальной идентичностью. Как русские, так и узбекские авторы используют свои произведения, чтобы исследовать и критиковать существующие гендерные нормы, отражая социальные преобразования в своих странах.

В обеих литературных традициях наблюдается возникновение сильных женских персонажей, которые становятся символами борьбы за равенство и справедливость. Эти образы служат не только средством самовыражения, но и платформой для обсуждения более широких вопросов, связанных с идентичностью и социальными ролями.

Русская литература часто опирается на глубокие философские традиции, связанные с поиском смысла жизни и человеческой природы, которые проявляются в произведениях таких авторов, как Достоевский и Толстой. В то время как узбекская литература более ориентирована на социальные и политические изменения, акцентируя внимание на феминистских и национальных вопросах.

Исторические условия и контексты также отличаются. Русская литература формировалась на фоне долгой истории социальных и культурных изменений, включая революции и политические кризисы. Узбекская литература, в свою очередь, развивалась в условиях колониализма и социализма, что наложило отпечаток на восприятие гендерных и национальных вопросов.

Выводы

Взаимосвязь между национально-гендерным пространством и литературными тенденциями в русской и узбекской литературах является важной

темой для изучения, отражающей сложные социальные, культурные и исторические процессы. Литература обоих народов служит зеркалом, в котором отображаются изменения в представлениях о гендере и национальной идентичности, а также служит инструментом для критического осмысления социальных норм.

Исследование литературы позволяет увидеть, как писатели России и Узбекистана используют свои произведения для обсуждения актуальных вопросов, связанных с гендерным равенством, социальной справедливостью и поиском идентичности. Женские образы становятся символами борьбы и сопротивления, что подчеркивает их важность в контексте как национальной, так и гендерной идентичности.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

Грошев И.В. Психофизиологические различия мужчин и женщин / И.В. Грошев. – М.: Изд-во Моск. психолого-социального института; Воронеж: Изд-во НПО «МОДЭК», 2005. – 464 с. – (Серия «Библиотека психолога»).

Захарова О.Э. Образы народных и дворянских семей в романе Л.Н. Толстого «Анна Каренина» // Теоретические и практические аспекты современной науки: сборник научных статей по итогам международной научно-практической конференции. – М., 2016. 45–46 с.

Кондакова, С. Ю. Женский образ в творчестве А. С. Пушкина / С. Ю. Кондакова, Д. П. Никифорова. – Текст: непосредственный // Филология и лингвистика. – 2017. – № 1 (5). – С. 24–29. – URL: https://moluch.ru/th/6/archive/45/1204/ (дата обращения: 02.12.2024).

Нефагина Г.Л. Русская проза второй половины 80-х – начала 90-х годов XX века. – Минск: 1998. – С. 142.

Почебут Л.Г., Шмелева И.А. Гендерные отношения в разных этнических культурах России // Психологический журнал. № 6 (36). 2015. – С. 66–75.

Пушкарева Н.Л. Русская женщина: История и современность. Два века изучения «женской темы» русской и зарубежной наукой, 1800–2000: Материалы к библиографии. – М.: Ладомир, 2002. – 522 с.

Пьецух В.А Русская тема: о нашей жизни и литературе. – М.: Глобулус ЭНАС, 2005. – С. 210.

Сабина САЛИМОВА,
магистрант 2-го курса отдела лингвистики: корейский язык Узбекского государственного университета мировых языков

СЕМАНТИКО-СТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ И НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ АСПЕКТЫ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С КОМПОНЕНТОМ «눈» ГЛАЗА

Аннотация: в статье рассматриваются национально-культурные аспекты и структурные особенности фразеологических единиц с компонентом «눈» («глаза») в корейском языке. Особое внимание уделено анализу их семантики, структурной организации и культурного контекста, с акцентом на отражение национального менталитета и культурных ценностей в корейской фразеологии. Материалы статьи будут полезны исследователям, занимающимся сопоставительным анализом языков, и студентам, изучающим корейский язык.

Ключевые слова: 눈 (глаза), национально-культурные аспекты, семантика, контекст, структура.

Annotatsiya: maqolada koreys tilidagi «눈» («ko‘zlar») komponentiga ega frazeologik birliklarning milliy-madaniy jihatlari va tuzilma xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Ularning semantikasi, tuzilma tashkiloti va madaniy konteksti tahliliga alohida e’tibor qaratilib, koreys frazeologiyasida milliy mentalitet va madaniy qadriyatlarning aks etishi ta’kidlangan. Ushbu maqola materiallari tillarni qiyosiy tahlil qilish bilan shug‘ullanadigan tadqiqotchilar va koreys tilini o‘rganayotgan talabalar uchun foydali bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: 눈 (ko‘zlar), milliy-madaniy jihatlar, semantika, kontekst, tuzilma.

Annotation: the article examines the national-cultural aspects and structural features of phraseological units with the component “눈” (“eyes”) in the Korean language. Particular attention is paid to analyzing their semantics, structural organization, and cultural context, emphasizing the reflection of national mentality and cultural values in Korean phraseology. The materials of the article will be useful for researchers engaged in comparative language analysis and students studying the Korean language.

Keywords: 눈 (eyes), national-cultural aspects, semantics, context, structure.

Фразеологизмы играют важную роль в лексической системе языка, представляя собой устойчивые выражения, которые зачастую не поддаются буквальному переводу. Они отражают как особенности языка, так и национальный менталитет, и культурные ценности народа.

Фразеологические единицы корейского языка, включающие компонент «**눈**» («глаза»), интересны тем, что сочетают в себе универсальные понятия зрения и наблюдения с характерными для корейской культуры аспектами коллективизма, уважения и эмоциональной чуткости.

В корейском языкознании исследованию вопросов классификации, семантики и структуры фразеологических единиц посвящены работы Цой Т., Грачева О.А., Чой Е.Ч., Колодина Е.А. и другие.

Национально-культурные аспекты фразеологических единиц с компонентом «**눈**» («глаза») в корейском языке связаны с их лексическим содержанием, структурой и культурным контекстом. Анализ этих характеристик показывает, как менталитет и ценности корейского народа находят отражение в языке, формируя их уникальные особенности. Такое исследование углубляет понимание роли фразеологических единиц в передаче культурных ценностей и традиций корейского народа.

Классификация фразеологических единиц с компонентом «**눈**» (глаза) на основе их семантических и культурных значений

В целом фразеологические единицы с компонентом «**눈**» (глаза) можно подразделить на три группы:

Фразеологизмы, отражающие восприятие и наблюдательность:

눈에 띄다 (букв. «бросаться в глаза»)– *привлекать внимание, быть заметным*. Данное выражение часто используется для описания чего-либо яркого или выделяющегося на фоне остального.

눈이 밝다(букв. «глаза светлые»)– *быть внимательным, замечать детали.* Употребляется для характеристики людей с хорошей наблюдательностью.

Фразеологизмы, отражающие эмоциональное состояние:

눈물이 나다 (букв. «выступают слезы»)– *плакать, испытывать сильные эмоции*. Выражение часто описывает состояние грусти, умиления или горя.

눈이 따갑다(букв. «глаза жгут»)– *чувствовать дискомфорт или стыд*. используется в контексте социальной неловкости.

3) Фразеологизмы, передающие социальные взаимодействия и отношения

눈이 높다(букв. «глаза высокие»)– *иметь высокие стандарты, быть требовательным.* Применяется для описания людей с избирательными предпочтениями.

눈감아 주다 (букв. «закрыть глаза»)– *прощать, сознательно не замечать недостатки.* Выражение подчеркивает важность компромисса и социальной гармонии.

Фразеологизмы с компонентом «**눈**» в корейском языке отражают культурные ценности и нормы, передавая представления о внимательности, эмоциональности и социальной ориентированности.

Фразеологизмы, связанные с восприятием и наблюдательностью, подчеркивают значимость внимания к деталям и способности анализировать происходящее, что высоко ценится в корейской культуре.

Фразеологизмы, отражающие эмоции и внутренние состояния акцентируют эмоциональную открытость и чувствительность, свойственные корейской культуре. Слезы символизируют не только грусть, но и благодарность или эмоциональное потрясение. Ярость или замешательство во фразеологизмах демонстрируют экспрессивность, также характерную для корейского менталитета.

Фразеологизмы, передающие социальные взаимодействия и отношения подчеркивают значимость межличностных отношений и социальной гармонии. «Войти в глаза» (понравиться) отражает стремление быть принятым и признанным в обществе, что соответствует ценностям конфуцианской системы. «Избегать глаз» указывает на уклонение от осуждения и акцентирует важность сохранения репутации и предотвращения конфликтов.

Классификация фразеологизмов по их структурным особенностям

В целом фразеологические единицы с компонентом «**눈**» (глаза) включает три основных типа: простые сочетания, комплексные выражения и идиоматические выражения.

Простые сочетания

Это фразеологизмы, которые представляют собой комбинацию двух или более слов с относительно прозрачным смыслом. Их значения легко интерпретируются, исходя из значений отдельных компонентов, например:

눈이 밝다 (букв. «глаза светлые»)– *быть внимательным, замечать детали;*

눈이 크다 (букв. «глаза большие»)– *быть жадным или амбициозным*.

Эти выражения отличаются простой структурой и минимальной степенью метафоричности, что делает их вполне понятными.

Комплексные выражения

Фразеологизмы этой группы более сложны

по структуре, часто включают дополнительные грамматические элементы и более выраженную метафоричность. Их смысл не всегда очевиден и требует знания культурного контекста, например: **눈깜짝할 사이에** (букв. «в мгновение ока»)– означает очень быстрое действие или изменение. Фразеологизм включает несколько компонентов: базовое слово **눈** («глаза»), глагол **깜짝하다** («моргнуть»), и выражение временного интервала **사이에** («в промежуток времени»). Все эти элементы вместе создают метафорическую фразу, передающую абстрактное значение для описания действия, происходящего очень быстро, настолько быстро, что это сравнивается с одним морганием. Семантическая нагрузка фразеологизма акцентирует внимание на скорости и неожиданности.

Фразеологизм построен на метафоре, в которой моргание глаз используется как символ быстроты. Это наглядный и универсальный образ, понятный и другим культурам, что делает фразеологизм выразительным и легко воспринимаемым.

Фразеологизм отражает корейский стиль изложения мыслей, где действие описывается через яркие метафоры. В корейской культуре особое значение придаётся деталям, что подчёркивается использованием **눈** («глаза») для усиления образности и экспрессивности.

Данный фразеологизм является идиоматическим, так как его значение (очень быстрое действие) не следует из прямого значения составляющих слов, а формируется через их взаимодействие в языке.

Идиоматические выражения

Корейские идиоматические выражения часто основаны на метафорах и связаны с культурными традициями и менталитетом народа, что делает их трудно переводимыми.

눈이 돌아가다 (букв. «глаза вращаются»)– *прийти в ярость или быть в замешательстве.* Значение выражения выходит за рамки буквального и становится идиоматическим, описывая состояние сильных эмоций. Оно символизирует реакцию на внутренний хаос: гнев, замешательство или утрату контроля. Использование зрительных образов для передачи психологического состояния подчеркивает важность визуальных метафор в корейской культуре.

Выражение акцентирует внимание на моменте потери эмоционального контроля, что в корейской культуре может восприниматься как отклонение от социальных норм. Оно сложно для буквального перевода, так как метафора «вращение глаз» не имеет аналогичной эмоциональной ассоциации в других языках. Для передачи смысла требуется адаптированный перевод: «прийти в ярость» или «растеряться».

